

M.H. Rustamboyev, Ye.N. Nikiforova

**SUD VA HUQUQNI
MUHOFAZA QILISH
ORGANLARI**

95(24)95
34.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

M.H. RUSTAMBOYEV,
Ye.N. NIKIFOROVA

**SUD VA HUQUQNI
MUHOFAZA
QILISH ORGANLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi yuridik oliy o'quv yurtlari
talabalari uchun darslik sifatida tasdiqlagan*

**TOSHKENT
«TURON-IQBOL»**

2007



Mualliflar: **Rustamboyev M.H.**, yuridik fanlari doktori, professor, **Nikiforova Ye.N.** yuridik fanlari nomzodi, dotsent (I, XIII, XIV, XV boblar) - hammualliflikda;
Rustamboyev M.H. yuridik fanlari doktori, professor (IV, V, VI, VII, VIII, XI boblar);
Nikiforova Ye.N. yuridik fanlari nomzodi, dotsent (II, III, IX, X, XII boblar);

Rustamboyev M.H., Nikiforova Ye.N. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. -T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2007. – 560 bet.

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent, Z.F. Inog'omjonovaning umumiy tahriri ostida.

Taqrizchilar: **F.F. Muhitdinova** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi o'rinnbosari,
A.A. Sharofutdinov – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'rinnbosari.

Darslikda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonunchilikka, Oliy sud Plenum qarorlariga asoslangan holda huquqni muhofaza qilish faoliyatining tushunchalari, uning belgilari, funksiyalari, sud hokimiyatining mohiyati hamda O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga tavsif beriladi. Odil sudlovning tamoyillarini izohlash, sudlarning tashkiliy va moddiy-texnik ta'minoti masalalariga, yuridik yordam ko'rsatishni tashkil qilishga alohida e'tibor berilgan. Bundan tashqari jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish tushunchasi, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlari tizimiga to'xtalib o'tilgan.

Mazkur darslik yuridik oliy o'quv yurtlari va fakultetlari talabalari, aspirantlar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun mo'ljallangan.

R **1203021300 - 42**
M361(04) - 2007 - 2007

© M.H. Rustamboyev, Ye.N.Nikiforova.

ISBN 978-9943-14-020-2 © Toshkent Davlat yuridik instituti, 2007-yil.

MUNDARIJA

KIRISH	7
--------------	---

I mavzu. «O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI» FANINING PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TIZIMI

1.1. Sud va huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasi	10
1.2. Sud va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari (funksiyalari) va ularni amalga oshiruvchi organlarning umumiy tavsifi	17
1.3. «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanining tushunchasi va mazmuni	26
1.4. «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanining yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni	29
1.5. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risidagi qonunchilik	31

II mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

2.1. Hokimiyatlar bo'linishi tizimida sud hokimiyati	51
2.2. Mustaqil O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi	59
2.3. O'zbekiston Respublikasi sud tizimining umumiy tavsifi	71

III mavzu. ODIL SUDLOV TUSHUNCHASI VA TAMOYILLARI

3.1. Odil sudlov va uning demokratik tamoyillari	78
3.2. Qonuniylik tamoyili	84
3.3. Odil sudlovnинг faqat sud tomonidan amalga oshirilishi	87
3.4. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'y sunishi	89
3.5. Odil sudlovnvi fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish	93
3.6. Sud ishlarini yuritishning oshkorali ...	96
3.7. Sud ishlari yuritiladigan til	98
3.8. Sud himoyasida bo'lish huquqining ta'minlanishi	100
3.9. Aybsizlik prezumpsiyasi	101
3.10. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanish huquqi bilan ta'minlash	104

3.11. Sudda ishlarni yuritishda tortishuv va taraflarning teng huquqligi tamoyili	108
3.12. Odil sudlovnii amalga oshirishda jamoatchilikning ishtirok etishi	113

IV mavzu. FUQAROLIK ISHLARI BO‘YICHA TUMANLARARO, JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA TUMAN (SHAHAR) SUDI

4.1. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha tumanlararo va tuman (shahar) sudsulari – umumiy yurisdiksiya sudsalarining asosiy bo‘g‘ini, ularning vakolatlari	120
4.2. Tumanlararo, tuman sudsalarida ishni tashkil etish	126
4.3. Sudyalar va xalq maslahatchilarining asosiy huquq va majburiyatlar	129
4.4. Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudsining raisi	131

V mavzu. UMUMIY YURISDIKSIYA SUDLARINING ORTA BO‘G‘INI

5.1. O‘rta bo‘g‘in sudsalarining vakolatlari	135
5.2. O‘rta bo‘g‘in sudsalarining tarkibi va tuzilishi	138
5.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisi vakolatlari va bu sudsarda ishlarni tashkil qilish	140

VI mavzu. HARBIY SUDLAR

6.1. Harbiy sudsalarining vazifalari va ularning O‘zbekiston Respublikasi sud tizimida tutgan o‘rni	147
6.2. Harbiy sudsalarining rivojlanish bosqichlari	148
6.3. Harbiy sudsalarining tashkil etilishi va sudlovga tegishlilik asoslari	157

VII mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV SUDI

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudsining sud tizimida tutgan o‘rni. Oliy sud vakolatlari	163
7.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudsining tuzilishi, tizimi va tarkibi	165
7.3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisining vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari va sud Hay’atlarining raislari	169
7.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati. Ilmiy-maslahat kengashi	172

7.5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi shakllanishining asosiy bosqichlari	175
--	-----

VIII mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO'JALIK SUDLARI

8.1. Xo'jalik sudlarining vazifasi va O'zbekiston Respublikasi sud tizimida tutgan o'rni	185
8.2. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi: shakllanishi tartibi, tarkibi, tizimi va vakolatlari	190
8.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari	196

IX mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI

9.1. Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning manbalari	203
9.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, uning vakolatlari	207
9.3. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy tamoyillari	211
9.4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tashkiliy asoslari	214
9.5. Konstitutsiyaviy sud qarorlari, ularning turlari, mazmuni, tizimi va yuridik ahamiyati	227
9.6. Konstitutsiyaviy sud apparati, uning vazifalari va tashkil etilish tartibi	230
9.7. Konstitutsiyaviy sud huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi	232

X mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUDYALAR MAQOMI

10.1. Sudyalar maqomi tushunchasi uning umumiy tavsifi	236
10.2. Sudyalarning mustaqilligi kafolatlari	241
10.3. Sudyalararning daxlsizligi	253
10.4. Sudyalar vakolatini to'xtatish va muddatidan ilgari tugatish .	259
10.5. Sudyalararning malaka imtihoni va ularga malaka darajalarining berilishi	262
10.6. Sudyalararning intizomiy javobgarlik masalasini ko'rib chiqish tartibi	264
10.7. Sudyalar jamiyati	267

XI mavzu. ADLIYA VAZIRLIGI VA SUDLAR FAOLIYATINING TASHKILIY VA MODDIY-TEXNIK TA'MINOTI

11.1. Sud faoliyatining tashkiliy, moddiy-texnik ta'minoti, uning tushunchasi va ahamiyati	270
---	-----

11.2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari	281
11.3. Adliya organlari rivojlanishining asosiy bosqichlari	291
11.4. Notariat	305
 XII mavzu. PROKURATURA VA PROKUROR NAZORATI	
12.1. Prokuror nazorati, uning vazifalari. Prokuratura faoliyatining asosiy yo'naliishlari	317
12.2. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy tamoyillari	332
12.3. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi va ularning tashkil etilishi	336
12.4. Prokuratura organlari xodimlari	345
12.5. O'zbekistonda prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi	350
 XIII mavzu. JINOYATLARNI OCHISH VA TERGOV QILISH	
13.1. Jinoyatlarni ochish va tergov qilish tushunchasi	367
13.2. Dastlabki tergov tushunchasi va uning vazifalari	371
13.3. Dastlabki tergov va surishtiruv. Ularning o'zaro munosabati	376
13.4. Surishtiruv organlarining rivojlanish bosqichlari	383
13.5. Tergovchining protsessual vakolatlari. Tergovchining surishtiruv organlari bilan o'zaro munosabati	386
13.6. Surishtiruv organlari	396
 XIV mavzu. YURIDIK YORDAM KO'RSATISHNI TASHKIL QILISH	
14.1. Advokatura tushunchasi, uning vazifalari va advokatlik faoliyatining turlari	446
14.2. O'zbekistonda advokaturaning rivojlanish bosqichlari	453
14.3. Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari	463
14.4. Advokatlarning huquqlari va majburiyatlar	469
 XV mavzu. XORIJY DAVLATLARDA SUD, PROKURATURA VA ADVOKATURA	
15.1. Buyuk Britaniya	480
15.2. Germaniya	486
15.3. AQSH	496
15.4. Fransiya	506
15.5. Yaponiya	515
Nazorat uchun testlar	528

KIRISH

«**Sud va huquqni muhofaza qilish organlari**» fanidan ta’lim berishning asosiy maqsadi talabalar, bo’lajak huquqshunoslar ongida huquqni muhofaza qilish faoliyati va uni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat muassasalari haqida aniq tassavvur (tushunchani) shakllantirishdan iboratdir. Bunday muassasalar qatoriga sud, prokuratura, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, adliya organlari, shuningdek, advokatura kiradi. Tabiiyki, bunda asosiy e’tibor sudlarga qaratilgan, chunki bu organlar shunday vakolatlarga egaki, bu vakolatlarning majmuyi ularni davlat hokimiyatining mustaqil bo‘g‘ini – sud hokimiyati deb atash uchun asos bo‘ladi.

«**Sud va huquqni muhofaza qilish organlari**» fanidan ta’lim berish huquqni muhofaza qilish tushunchasi, uning asosiy yo‘nalishlari, sud hokimiyati, konstitutsiyaviy nazorat, odil sudlov va uni amalga oshiruvchi organlar, sudlarning ichki tuzilishi va vakolatlari, prokuror nazorati va prokuratura, jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish, advokatura va huquqiy yordam ko‘rsatishning boshqa shakllari to‘g‘risida bilim olishni ko‘zda tutadi. Bunday bilimlar talabalarning o‘quv muassasasini yakunlaganlaridan so‘ng huquqiy faoliyatning barcha jabhalarida kelgusi amaliyotlari uchun zarurdir.

«**Sud va huquqni muhofaza qilish organlari**» fanining vazifalari quyidagilar hisoblanadi: mantiqiy fikrlash, o‘quv kursining asosiy nazariy qoidalarini mustahkamlash, talabalar tomonidan qonunchilikni amaliyotning muayyan holatlarida qo‘llay olish yuzasidan amaliy tajribani egallash. Davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi hamda uning zamonaviy tuzilishi va faoliyatini o‘rganish, talabalar tomonidan sud, prokuratura, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, adliya organlari va advokatura kabi huquqni muhofaza qiluvchi organlar to‘g‘risida amaldagi qonunchilikni chuqr

o‘zlashtirilishiga yordam berishi kerak. Bu organlarning vazifalari, tuzilishi, tartibi, tarkibi, tizimi, tuzilmasi, amalga oshirayotgan funksiyalari va bir-biri bilan aloqadorlikda faoliyat yuritishi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish mazkur fanni o‘rganishning maqsadi hisoblanadi.

«**Sud va huquqni muhofaza qilish organlari**» fani «**Jinoyat protsessi**», «**Prokuror nazorati**», «**Fuqarolik protsessi**», «**Ma’muriy huquq**» va boshqa shu kabi ilmiy-amaliy huquqiy fanlarni o‘rganish va o‘zlashtirish uchun asosiy ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham huquqni muhofaza qilish faoliyati va uni amalga oshiruvchi davlat organlari va nodavlat tashkilotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar talaba-huquqshunoslar uchun nihoyatda zarurdir.

«**Sud va huquqni muhofaza qilish organlari**» fani ta’lim olayotgan talabalarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari hamda atrof tabiiy muhitni jinoiy ta’qiblardan himoya qilishning qat’iy vositasini sifatida chuqrur hurmat tuyg‘usini tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Fanni o‘zlashtirish ta’lim berishning an’anaviy va interaktiv uslublari vositasida amalga oshiriladi, bular: ekspress so‘rovlar, test so‘rovlar, dastur asosida ta’lim berish, davra suhbatlari o‘tkazish, rolli o‘yinlar, kollokviumlar, ta’lim berishning texnik vositalaridan foydalanish, huquqiy klinika, kichik guruhlarda ishlash va boshqalardir.

O‘rganilayotgan fanning murakkabligi shundan iboratki, talaba bir emas, bir qancha turli darajadagi huquqiy aktlar bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi. Ular qatoriga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro shartnomalar, qonunlar, qarorlar va boshqa me’yoriy-huquqiy aktlar kiradi. Jamiyatimiz hayoti juda tez rivojlanib bormoqda, mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida chuqrur o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, jiddiy o‘zgartirishlar butun sud tizimiga, sudyalar maqomi, ularning mustaqillik kafolatlarini mustahkamlashga, prokuraturaga, sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnikaviy jihatdan

yaxshilashga, advokaturaning tashkil etilishiga tegishli bo‘ladi.

Ushbu darslikning birinchi nashri chop etilganiga ham bir yil bo‘ldi. Bu davr mobaynida sudlar faoliyatining tashkil etilishi va asoslarini, prokuratura, surishtiruv faoliyatini, dastlabki tergov organlarini, Adliya vazirligi va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini o‘rganishda hisobga olinishi zarur bo‘lgan yangi huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bundan tashqari, prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari qabul qilindi. Ularga, avvalo, ushbu sud Plenumning 2003-yilning 19-dekabridagi «**Himoya huquqini ta’minlaydigan qonunlarni qo’llash amaliyoti to‘g‘risida**»gi Qarori tegishlidir.

Sud hokimiyatining o‘rni va roli yuqori ekanligini ta’kidlash maqsadida, fanning nomini ham o‘zgartirishga to‘g‘ri keldi, ya’ni «O‘zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qilish organlari» fani o‘rniga «O‘zbekiston Respublikasida sud va huquqni muhofaza qilishi organlari» fani deb nomlandi.

Bundan tashqari, ushbu darslikni yaratishda uning dastlabki nashridan ijodiy foydalangan hamkasblarimiz hamda «**Sud va huquqni muhofaza qilish organlari**» fanini o‘rgangan talabalarning fikr-mulohazalari hisobga olindi.

Mualliflar darslikning dastlabki nashrini yaxshilash yuzasidan jiddiy takliflar bergan barcha mutaxassislar o‘z minnatdorchiliklarini bildiradilar. Ushbu fikr-mulohaza hamda takliflarni o‘rganish mobaynida darslik mazmunini yangilash va unga bir necha o‘zgarishlar, aniqliklar va qo‘srimchalar kiritish imkoniyati tug‘ildi.

I mavzu. «O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI FANINING PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TIZIMI

1.1. Sud va huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasi

Hokimiyatlarning qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linishi sudlarga hokimiyat vakolatlarini berdi, bu esa o'z-o'zidan «sud hokimiyati» terminini muomalaga kiritilishini belgiladi.

Demokratik davlatda sud hokimiyati davlat va fuqaro o'rtasida harakat qilib, nafaqat shaxs, balki davlatning ham huquq va manfaatlarini yanada samarali ta'minlashga xizmat qiladi. Shubhasiz, sud hokimiyati fuqarolarning huquqlarini har qanday noqonuniy harakat va qarorlardan, ularning kim tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, shu qatorda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslardan ham himoya qilishi va bu bilan huquq hukmronligini ta'minlashi zarur. Sud hokimiyati organi sifatida barcha turdag'i sudlar maxsus ta'sis etilgan davlat organlari – huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish faoliyati subyektlari hisoblanadi¹.

Davlat organlari turli xil masalalarni hal qiladilar, ya'ni iqtisodiyot faoliyatini ta'minlash, tashqi siyosatni amalga oshirish, ilm-fan rivojiga sharoit yaratib berish, ta'lim, fan, madaniyat, mudofaa qobiliyatini ta'minlash v.b. Har bir davlat organi o'z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bilan bir qatorda qonuniylikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, davlat va nodavlat tashkilotlari, mehnat jamarining huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash, huquqbazarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash kabi bir qator huquqni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni ham amalga oshiradilar.

¹ Фокин В.М. Правоохранительные органы Российской Федерации: Учебник. –М.: «Былина», 2003. В.29.

Davlat va jamiyatning asosiy institutlarining huquqni muhofaza qilish yo‘nalishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topgan. Xususan, Konstitutsiyaning 13-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umum-insoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi», deyilgan.

Ushbu masalalar O‘zR Konstitutsiyasining 2, 15, 19, 20, 43-moddalari va boshqa bir qator moddalarda o‘z aksini topgan. Shu bilan bir qatorda, fuqarolar o‘zlarining huquq va erkinliklarini qonuniy yo‘llar bilan ta’minalashni talab qilishga haqlidirlar.

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pgina davlat organlarining faoliyat doirasi inson huquq va erkinliklarini ta’minalash, jino-yatchilik va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish, qonuniylikni ta’minalash masalalarini hal qilish bilan chegaralanib qolmaydi. Birinchi navbatda ular xo‘jalik, fan, madaniyat, mudofaa qobiliyati, tashqi siyosat va boshqa sohalar bilan shug‘ullanadilar. Qonuniylikni va huquq tartibotni muhofaza qilish funksiyalarini ular o‘zlarining asosiy faoliyatlarini bilan birgalikda uyg‘un ravishda amalga oshiradilar.

Huquqni muhofaza qilish organlari bu – davlat organlari va jamoat tashkilotlari bo‘lib, ular o‘z faoliyatini qonun hamda demokratik prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiradilar, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minalaydilar, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq va erkinliklarini himoya qiladilar, huquqbazarlikning oldini oladilar va qonun hamda huquq tartibotni buzgan shaxslarga davlatning majburlov yoki jamiyatning ta’sir choralarini qo‘llaydilar.¹

Ushbu tushuncha o‘zining mohiyatiga ko‘ra barcha davlat organlariga tegishlidir, chunki sanab o‘tilgan funksiyalar ularning barchasiga xosdir.

Ushbu tushunchaning asosini qonuniylik hamda huquq-tartibot tashkil etadi. 1992-yil qabul qilingan O‘zR Konstitutsiya-

¹ Семенов В.М. Правоохранительные органы: Учебник. – М.: Юрид. лит., 1991. – В. 28–29.

sida qonuniylik va huquq-tartibot iboralari ko‘p ishlataligan, aniqrog‘i 121-moddaning 2-qismida: «Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin» deb aytilgan. Qonuniylik va huquq-tartibot O‘zR Konstitutsiyasining 24–42, 43–54 hamda boshqa moddalarda ham ko‘rsatilgan va kafolatlangan.

Qachonki, mazkur bobda sud faoliyati, huquqni muhofaza qilish faoliyati xarakteri va «Sud hokimiyati» «huquqni muhofaza qiluvchi organlar» tushunchalarining belgilanishi haqidagi umumiy masalalar ko‘rib chiqilar ekan, bu borada ushbu mavzu yuzasidan izlanishlar olib borgan bir qator mualiflarning qarashlari va fikrlarini tahlil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Sud hokimiyati bu – qat’iy belgilangan protsessual shakllarga muvofiq protsessual va moddiy qonunni qo‘llash yo‘li bilan ishlarni hal etish uchun sud vakolati doirasiga kiritilgan va u tomonidan amalga oshiriladigan hokimiyat vakolatlaridir¹.

Shuni ta’kidlash joizki, ushbu masalaga yondashuvlar hamda qarashlar turlichadir.

Qonunga muvofiq jismoniy (yuridik) shaxslarning hamda davlatning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta‘minlovchi muassasa, mansabdar shaxs yoki boshqa shaxslar (masalan, sudya, tergovchi, yuridik yordam ko‘rsatuvchi institut) huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi.² Bundan tashqari «huquqni muhofaza qilish organlari sohaviy faoliyatining xususiyati bo‘yicha alohida mustaqil davlat organlari guruhini tashkil etib, ularning oldilariga aniq belgilangan vazifalari mavjud»³.

Huquqni muhofaza qilish organlari tushunchasi huquq-tartibotni muhofaza qilish organlari tushunchasi bilan turdoshdir. Bu tushunchalar nihoyatda o‘xhash, lekin bir xil emas. Ular-

¹ Фокин В.М. Правоохранительные органы Российской Федерации: Учебник. – М.: Былина, 2003. – В.29.

² Рыжаков А.П. Правоохранительные органы. Учебник. – М.: Контракт, Инфра – М.: 2001. – В.4.

³ Правоохранительные органы Российской Федерации / Под ред. В.П. Божьева. – М.: Спарт, 2001. – В.17.

ning har biri belgilaydigan organlar doirasi turlichadir. Huquqtartibotni muhofaza qilish organlarining barchasini ham huquqni muhofaza qilish organlari deb hisoblab bo‘lmaydi. Xuddi shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining ayrimlarini kiritib bo‘lmaydi.

U yoki bu davlat organini huquqni muhofaza qilish organlari safiga qo‘shishda amal qiladigan talablarni anglashda «huquqni muhofaza qilish faoliyati» deb nom olgan faoliyatning xususiyatlarini aniqlash zarur. Ushbu tushuncha nisbatan yosh tushuncha bo‘lib, yuridik muomalaga 50-yillarning oxiri, 60-yillarning boshlarida kirib kelgan.

Amaldagi qonunchilikda «huquqni muhofaza qilish faoliyati» tushunchasini belgilovchi huquqiy norma mavjud emas. Bu esa o‘z o‘rnida, asosli ravishda huquqni muhofaza qiluvchilar qatoriga kiritilishi mumkin bo‘lgan davlat yoki nodavlat organlari ro‘yxatida turlicha talqinlarga olib keladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati huquqiy normativ hujjatlар bilan tartibga solingan jismoniy yuridik shaxslar va davlatning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga hamda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minalashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishni, qarorlarni qabul qilishni ko‘zda tutadi¹. Ilmiy adabiyotlarda mazkur tushunchaning boshqacha talqini ham mavjud. Xususan, unga maxsus vakolatga ega bo‘lgan organlar tomonidan huquqni muhofaza qilish maqsadida qonunga va belgilangan tartibga qat’iy rioya etgan holda huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash yo‘li bilan amalga oshiriladigan davlat faoliyati deb tushuncha berilgan².

Ushbu masala yuzasidan nazariyada mavjud doktrinalarga muvofiq ko‘rib chiqilayotgan davlat faoliyatining turi qator belgilarga ega.

Ulardan *birimshunda* ko‘rinadiki, bunday faoliyat har qanday usul bilan amalga oshmaydi, balki faqat huquqiy ta’sir chorasi

¹ Рыжаков А. П. Правоохранительные органы: Краткий курс. – М.: Инфра –М, 2002. –В.1.

² Гуценко К.Ф., Ковалев М.А. Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов. –М.: Зерцало, 2002. –В.9; Гуляев А.П. Правоохранительная деятельность (понятие, виды, субъекты). Доклад. –М.: Спартк, 1999. –В.3–7.

qo'llangandagina namoyon bo'ladi. Ularga qonun bilan tartibga solingen davlatning majburlov hamda jazolash usullarini kiritishimiz mumkin. Masalan, jinoyat sodir etilganda, unga nisbatan jinoyat qonunchiligidagi nazarda tutilgan jazo yoki qonunda belgilangan boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llaniladi; jinoiy javobgarlik keltirib chiqarmagan holda moddiy zarar yetkazilganda, zararni qoplash majburiyati yuklanadi; agar shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilmagan bo'lsa, aytaylik, biron-bir xizmat yoki mahsulot tayyorlash lozim darajada bajarilmasa, u holda moddiy sanksiya qo'llaniladi; shaxs avtotransport vositasini mast holda boshqargan taqdirda, unga nisbatan jarima qo'llanishi yoki haydovchilik gubernomomasidan mahrum qilinishi va h.k. Huquqiy ta'sir choralarining huquqqa xilof harakatlarni ogohlantirish, ularni profilaktika qilish turlariga katta ahamiyat berilgan.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatining *ikkinchi* ahamiyatli belgisi huquqiy ta'sir choralarini qo'llashda qonun yoki boshqa huquqiy me'yordarda ko'rsatilgan shartlarga to'la mos kelishidir. Faqat ulargina huquqiy ta'sir choralarini qo'llashga asos bo'la oladilar. Shunday ta'sir chorasini qo'llovchi organ qonunga aniq, puxta amal qilishga majbur. Masalan, agar qonunga asosan birinchi marta bezorilik jinoyatini sodir etganlik uchun eng kam oylig ish haqining 50 barobaridan 100 barobarigacha jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq jazosi qo'llaniladigan bo'lsa, u holda yuqoridagi ta'sir choralarini faqat shu chegaralarda qo'llanishi lozim.

Uchinchidan, huquqni muhofaza qilish faoliyatining o'ziga xos belgilardan yana birishundaki, u faqat qonunda belgilangan ma'lum tartibga rioya qilgan holda amalgalama oshiriladi. Misol uchun, jinoiy jazoni belgilaydigan yoki undan ozod qiladigan yoxud sudlanuvchini oqlaydigan sud hukmi faqat protsessual normalarda belgilangan tartibda sud muhokamasida ish holatlari to'la, har tomonlama va xolisona muhokama qilingandan keyingina chiqariladi. Bunday muhokama maslahatxonada maslahatlashuv sir saqlangan va boshqa tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda o'tkaziladi. Qonunda boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hal qilishning o'z tartib-qoidalari belgilangan. Ma'muriy, ishdan bo'shatilganlik to'g'risidagi va

boshqa nizolarni ham hal qilishning o‘ziga xos tegishli tartib-qoidalari mavjud. Umuman olganda, u yoki bu huquqiy ta’sir chorasi qo‘llash yoki qo‘llamaslikka qaror qilish uchun qonunda majburiy ravishda amal qilishi lozim bo‘lgan aniq qoidalari o‘rnatalgan. Ularni buzganlik qarorni noqonuniy hamda haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘ladi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatining yanada muhim belgisi shuki, faoliyatni amalga oshirish, avvalo, maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan davlat organlariga yuklatiladi va ular o‘z navbatida tegishli ravishda tayyorlangan xodimlar – aksariyat holda yuristlar va boshqa sohalarni egallagan mutaxassislardan iboratdir. Ularning ixtiyorida moddiy va texnik vositalar bo‘ladi. Bunday davlat organlarini tashkil etish va ularning faoliyati alohida qonunda belgilanadi hamda shu bilan bir qatorda, muhim masalalarni hal etishning protsessual tartibi ham mavjud. Bularning barchasi huquqni muhofaza qilish organlariga tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashga qaror qilishda tezkorlik, asoslilik, qonuniylik va adolatlilikni ta’minlash uchun zarur.

Yuqorida aytilganlarni e’tiborga olib huquqni muhofaza qilish deb hisoblanayotgan faoliyat tushunchasini aniqlash mumkin. Keltirilgan belgilar va ularga berilgan qisqacha sharhlardan ko‘rinib turibdiki, huquqni muhofaza qilish faoliyatiga shunday davlat faoliyatini kiritish mumkinki, unda maxsus vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari qonunga hamda belgilangan tartibga qat’iy rivoja qilgan holda huquqni muhofaza qilish maqsadida huquqiy ta’sir chorasi qo‘llaydilar¹.

Bu tushunchada, asosan, huquqni muhofaza qiluvchi davlat faoliyati haqida gap boradi. Biroq bunday faoliyat faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki barcha davlat organlari tomonidan u yoki bu darajada amalga oshriladi.

Yuqorida keltirilgan barcha tushuncha va ta’riflarni tahlil qilib, huquqni muhofaza qilish faoliyati bu – davlat va uning nomidan maxsus vakolatli organlarning qonun bilan belgilangan tartibda huquqiy ta’sir chorasi qo‘llash orqali qonuniylikni,

¹ Гуценко К.Р., Ковалев М.Н. Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов. 6-издание. / Под ред. К.Ф. Гуценко. – М.: ЗЕРЦАЛО. – М.: 2001. – В.6–8.

huquqiy tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va boshqa fuqarolik birlashmalarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatdir, deyish mumkin.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatining belgilari quyidagilar:

1. Huquqni muhofaza qilish faoliyati maxsus vakolatga ega bo'lgan, faoliyati, tuzilishi, tarkibi qonun bilan qat'iy tartibda belgilangan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. Huquqni muhofaza qilish faoliyati fuqarolar, jamiyat va davlatni jinoyatchilik yoki boshqa tahdidlardan himoya qilishga yo'naltirilgan.

3. Huquqni muhofaza qilish faoliyati qonun bilan belgilangan qat'iy tartibda amalga oshiriladi. Vakolatli organ u yoki bu ta'sir chorasini qo'llash yoxud qo'llamaslikdan oldin o'sha holat bo'yicha qonun bilan belgilangan qoidalarga rioya qilishga majbur.

4. Huquqni muhofaza qilish faoliyati faqat davlatning majburlov yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

5. Huquqiy ta'sir chorasi qat'iy tartibda qonun asosida bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasini ta'riflashda unga bir qadar chegaralangan mazmun berish an'anasi keng tarqalgan. Masalan, ayrimlar uchun jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi vakolatli davlat organlari amalga oshirayotgan faoliyat deb hisoblansa, boshqalar uchun esa jamoat tartibini ta'minlash deb qaraladi. Bunday yondashuv ancha soddalashtirilgan tarzda namoyon bo'ladi, zero, huquqni himoya qilish sohasi ko'lami jinoyatchilikka yoki jamoat tartibi buzilishlariga qarshi kurash sohalariga qaraganda ancha kengdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining, ajnabiy, fuqaroligi bo'lмаган shaxs, mansabдор shaxsning, korxona, muassasa yoki tashkilotning qonuniy huquq va manfaatlarini, kim bo'lishidan qat'i nazar qasddan buzish, poymol etish va no-qonuniy chegaralashning har qanday ko'rinishlariga yo'l

qo‘yilmaydi. Bunday faktlarga barham berilishi kerak, aks holda qonuniylik va huquq-tartibot haqidagi tushunchalar oddiy so‘zga aylanadi.

Qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash uchun jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bir qatorda tegishli organlar va mansabdar shaxslar tomonidan o‘z farzandiga zaruriy e’tibor ko‘rsatmayotgan ota-onalarni huquqidan mahrum qilish, inson va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklarini poymoletuvchi qonunning O‘zR Konstitutsiyasiga zid ekanligini belgilash, keksa ota-onalariga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatlarini bajarmaganlarga nisbatan choralar qo‘llash kabi harakatlar va qarorlarni amalga oshirish ham huquqni muhofaza qilish faoliyatining ajralmas muhim belgisi hisoblanadi.

Avvalambor, davlat organi faoliyatining funksional yo‘nalishi, uning maqomida huquqni muhofaza qilish funksiyasi xarakteridagi tegishli hajm va holatlariga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, huquqni muhofaza qilish organlarining doirasini birmuncha kengaytirish mumkin bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan hamda huquqiy davlat qurilayotgan hozirgi davrda jamiyat va davlat hayotida huquqni muhofaza qilish organlarining ahamiyati va roli oshib boradi. Shunday ekan, ko‘pgina davlat organlari hamda maxsus organlarning huquqni muhofaza qilish faoliyati hajmi ham oshib boradi.

1.2. Sud va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo‘nalishlari (funksiyalari) va ularni amalga oshiruvchi organlarning umumiy tavsifi

Hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi prinsipiga ko‘ra davlat organlari tizimida sud va huquqni muhofaza qilish organlarining o‘rnii davlat faoliyatining ushbu funksiyalari (yo‘nalishlari)ning turli ko‘rinishlari bilan belgilanib, ular o‘z oldilarida turgan vazifalarni bajarishda shaxs himoyasi – uning huquq va erkinliklari, jamiyatning – moddiy va ma’naviy boyliklarini, davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilishlarida aks etadi. Aytib o‘tilgan

boylik va qadriyatlar u yoki bu darajada barcha davlat organlari tomonidan himoya qilinsa-da, huquqni muhofaza qilish organlari uchun ularni himoya qilish ustuvor vazifa hisoblana-di. Har bir sud va huquqni muhofaza qilish organlarining faoli-yati quyidagi aniq bir natijalarga erishishga qaratilgan:

– qonuniy va boshqa normativ aktlarni konstitutsiyaviyligini tekshirish orqali qonuniylikni ta'minlash;

– jinoyat, fuqarolik, xo'jalik ishlari va ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni adolatli muhokama qilish va hal etish;

– prokuror nazorati va ayblovni qo'llash orqali qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish;

– jinoyatlarni ochish va ularni sodir etgan shaxslarni fosh etish;

– Hukmni va boshqa sud qarorlarini ijro etish;

– jinoyat va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish;

– malakali yuridik yordam ko'rsatish va boshqa yuridik xizmatlar ko'rsatish;

Bunday natijalarga sud va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ma'lum bir funksiyalarni amalga oshirish orqa-li erishiladi:

– konstitutsiyaviy nazorat;

– odil sudlov;

– sud qarorlarini ijro etish;

– sudlar faoliyatini tashkiliy ta'minlash;

– prokuror nazorati;

– jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish;

– yuridik yordam ko'rsatish va jinoyat ishlari bo'yicha himoya qilish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalar (yo'nalishlar) bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi. Shuni ta'kidlash joizki, bularning orasida konstitutsiyaviy nazorat va odil sudlov eng muhim o'rinni egallaydi. Ular o'zining mohiyatiga ko'ra hozirgi kunda *sud hokimiyyati* deb nomlanadi. Ma'lumki, davlat hokimiyatining mazkur tarmog'i huquqiy davlatning asosiy, bosh belgisi bo'lishi kerak. Chunki huquqiy davlatni barpo etish uchun sud huquqiy islohotlarni shakllantirib, ularni rivojlantirib borilishi lozim. Buni davlatning samarali konstitutsiyaviy na-

zoratisiz va odil sudlovsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ularning tivojlanishi va kengayib borishi jamiyat va davlat mexanizmiga o‘z ta’sirini o’tkazadi. Chunki bu hol jamiyat va davlat mexanizmi samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Odil sudlov bu – huquqni muhofaza qilish faoliyatining shunday funksiyasiki, u davlat va nodavlat tashkilotlari, mansabdar shaxslarning, inson va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishga bevosita aloqadordir. Uning vazifalari boshqa barcha huquqni muhofaza qilish faoliyatiga oid funksiyalarni bajarishga qaratilgan. Masalan, agar dastlabki tergov vakolatli organlar tomonidan har tomonlama, to‘la va xolisona olib borilmasa, shuningdek, ish bilan bog‘liq bo‘lgan zarur dalillar aniqlanmasa, unda jinoyat ishlari bo‘yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli hukm chiqarib bo‘lmaydi. Shuning uchun odil sudlov huquqni muhofaza qilish faoliyatining markazi ekanligini e’tirof etish kerak¹.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatiga oid vazifalarni amalga oshiruvchi aniq organlar mavjud bo‘lib, ular *huquqni muhofaza qilish organlari* deb nomlanadi. Hozirgi kunda bunday organlar haqidagi masala turlicha hal etilmoqda.

Masalan, *A.P. Рыжаков* huquqni muhofaza qilish faoliyatining 17 ta funksiyasi asosiy yo‘nalishlari haqida fikr yuritgan. *Bular:*

- 1) odil sudlovnii amalga oshirish;
- 2) sudlarning faoliyatini tashkiliy ta’minalash;
- 3) jinoyat-ijroiya faoliyi;
- 4) prokuror nazorati va prokuratura sohasidagi faoliyatning boshqa yo‘nalishlari;
- 5) jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish faoliyi;
- 6) dastlabki tergov;
- 7) surishtiruv;
- 8) tezkor-qidiruv faoliyi;
- 9) notarial faoliyat;
- 10) jinoyat ishlari bo‘yicha yuridik himoya va yordam ko‘rsatish (yuridik xizmat);

¹ Гуценко К.Р., Ковалев М.Н. Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов. 6-издание. / Под ред. К.Ф. Гуценко. –М.: ЗЕРЦАЛО–М, 2001. –В. 11–13.

- 11) sud ishlarini yuritish (jinoyat protsessi);
- 12) xavfsizlikni ta'minlash;
- 13) jamoat tartibini saqlash;
- 14) bojxona to'g'risidagi qoidalarni buzganlikka doir ishlarni yuritish;
- 15) soliq to'g'risidagi huquqbuzarliklarga doir ishlarni yuritish;
- 16) kontrrazvedka sohasidagi faoliyat;
- 17) tashqi razvedka¹.

Bundan tashqari, davlat organlariga, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlariga tegishli bo'lgan umumiylar xarakterdagi vazifalar haqida ham fikr yuritish mumkin. *Masalan*, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarining vazifalari to'g'risida. *Bularga*: rejalashtirish, nazorat, inspeksiyalar, axborot bilan ta'minlash, razvedka (boshqaruv, xodimlar orasida, moliyaviy), qabul qilingan qarorlarning ijro etilishini tekshirish va nazorat qilish, kuzatuvni tashkil etish, yakuniy xulosa berish va hokazolarni kiritish mumkin.

Bizningcha, huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'naliishlari *quyidagilardan iborat*:

- 1) konstitutsiyaviy nazorat, uning asosiy vazifasi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini tekshirish;
- 2) odil sudlovni yuritish, ya'ni fuqarolik va jinoiy ishlarni tortishuvchilik asosida olib borish va ular yuzasidan qonuniy va asoslantirilgan qarorlar qabul qilish;
- 3) xo'jalik sudlarida sud ishlarini yuritish, ya'ni fuqarolik-huquqiy munosabatlar (iqtisodiy nizolar) va boshqaruv sohasidagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda sud hokimiyatini amalga oshirish;
- 4) sud organlarining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga va sud qarorlarini ijro etish yuzasidan ishlarni tashkil etishga qaratilgan sud faoliyatini tashkillashtirish va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash;

¹ Рыжаков А.П. Правоохранительные органы.- М.: Контракт, 2001. -В. 1-2.

5) prokuror ta'sir choralari yordamida qonunbuzarlik holatlarini bartaraf etish yuzasidan prokuror nazoratini amalga oshirish;

6) notarial faoliyat;

7) jinoyatlarni fosh etish hamda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyat;

8) jinoyat ishlari bo'yicha yuridik himoya va yordam ko'rsatish.

Sanab o'tilgan vazifalar (yo'nalishlar)ni amalga oshirish jarayonida *huquqni muhofaza qilish organlari* deb atalgan davlat organlari va boshqa nodavlat organlari tashkil topadi. Ushbu huquqni muhofaza qilish organlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– sudlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudga bo'ysunuvchi umumiy yurisdiksiyadagi sudlar, xo'jalik sudlari)

– sudlarning faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlashni amalga oshiradigan organlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarini lavozimga tavsija qilish va tanlash Oliy malaka komissiyasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta'minlash departamenti);

– prokuratura;

Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishga jalb qilingan organlar (surishtiruv va dastlabki tergov organlari);

– notarial faoliyatni amalga oshiruvchi organlar (notariat va boshqalar);

– advokatura.

Surishtiruv organlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga kiritish to'g'risidagi masala yuzasidan turli xil fikrlar mavjud. Ushbu organlarning huquqni muhofaza qilish vazifalaridan birini bajarganligini inobatga olib, ularni ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga kiritish bir jihatdan to'g'ri bo'larmikan? *Misol uchun*, olis safarda bo'lgan kema kapitani uchun surishtiruv vazifasi asosiy bo'lib hisoblanmaydi. Biroq, kema a'zolaridan biri jinoyat sodir etsa, u jinoyat ishini qo'zg'atadi, shuningdek, dalillarni aniqlash va qayd etish

yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishi shart. Ushbu vazifani *quyidagi organlar*: harbiy qism-larning komandirlari, jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, davlat yong'in nazorati organlari va davlat bojxona xizmatining mansabдор shaxslari uchun ham asosiy vazifa deb bo'lmaydi. Bu organlarning huquqiy maqomini va vakolatlarini tartibga soluvchi qarorlar va boshqa huquqiy hujjalalar bilan tanishib chiqadigan bo'lsak, unda ushbu organlarda boshqa turli xil vakolatlar mavjudligi haqida fikr yuritish mumkin. Ular tomonidan bajariladigan huquqni muhofaza qilish sohasidagi vazifalarning bir turi asosiy bo'lib hisoblanmaydi. Bundan tashqari, bajarilishi shart bo'lgan vazifalar ham mavjud. Shuning uchun ularni huquqni muhofaza qilish organlar tarkibiga to'liq kiritish to'g'risida bir qancha qarama-qarshiliklar mavjud.

Ushbu turkumdagи organlar va mansabдор shaxslar orasida faqat ichki ishlар organlarini huquqni muhofaza qilish organlari qatoriga to'liq kiritish mumkin. Chunki ularning *asosiy vazifasi* bu – jinoyat va boshqa huquqbazarliklarni fosh etish, tergov qilish hamda ularga qarshi kurash hisoblanadi. Faqat ular ko'pincha jinoyatlar va ma'muriy huquqbazarliklar bilan bog'liq faoliyat yuritadilar.

So'nggi yillarda sud organlarining huquqni muhofaza qilish organlaridan biri ekanligi haqida bir qator qarama-qarshiliklar mavjud.

Masalan, V.M. Savitskiyning fikriga ko'ra, «Sovet doktrinasi va amaliyotida huquqni qo'tiqlash faoliyati jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarga qarshi kurashning sinonimi sifatida e'tirof etilgan. Agar sudni huquqni muhofaza qilish organlaridan biri deb hisoblaydigan bo'lsak, bunda sudning vazifasi bo'lib prokuratura, surishtiruv va dastlabki tergov organlari bilan birgalikda jinoyatlarga qarshi kurash faoliyatini yuritishi tushuniladi»¹. Muallif o'zining mulohazalarida «huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining bunday nomlanishini inkor etib, buning o'rнига «Sud hokimiyatini tashkil etish» deb nomlash mumkinligini taklif etadi.

¹ Qarang.: Савицкий В.М. Организация судебной власти в Российской Федерации. Учебное пособие для юридических ВУЗов. – М.: БЕК, 1996. – В. 3.

Ushbu mulohazalardan shuni ta'kidlash mumkinki, sud hokimiyati bu – hokimiyatning bo'linish tamoyiliga asoslangan huquqiy davlatni qurishga intilishni o'zida aks ettiruvchi yangi siyosiy va huquqiy Fenomen hisoblanadi. Odil sudlovni amalga oshirishda sud organlari prokuratura va ijro etuvchi organlardan (adliya, ichki ishlar va boshqalar) mustaqildirlar. Chunki sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqil holda faoliyat yuritadi. Shuning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga u yoki bu organni kiritish degani bu – ularni mustaqil holda bo'lishini va boshqa turkum-dagi organlarga bo'ysunishdan ozod bo'lganligini anglatmaydi. Misol uchun, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga adliya organlarini kiritish mumkin bo'lsa ham, ular ichki ishlar organlari yoki prokuratura organlaridan mustaqil faoliyat yuritadilar. Ayrim mualliflarning fikriga asosan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga sud organlarini kiritmaslik mutlaqo noto'g'ridir. Chunki ular, bir so'z bilan aytganda, huquqni qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanadilar. Davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlariga nisbatan sud organi sud hokimiyatini o'zida ifoda etadigan va huquqni muhofaza qila oladigan organ bo'lib hisoblangan va hozirgi kunda ham shunday. Shuning uchun ham sud davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari ichida huquqni qo'riqlash yuzasidan o'ziga xos maqomga ega. Bunday tavsif barcha huquqshunoslar va olimlar tomonidan ma'qullangan.¹

Insonlar o'zining huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida odatda sudga murojaat etadilar. Aynan ana shu fuqarolarning huquq va erkinlarini sud orqali himoya qilish g'oyasi – inson huquqlari bo'yicha xalqaro bitimlarda va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida belgilangan: «har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi».

Sudlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar safidan chiqarish huquqni muhofaza qilish faoliyatining mohiyatini

¹ Qarang.: Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов/. Под ред. К.Ф.Гуценко. – М.: БЕК, 1995. – В.8.

tushunish bilan bog'liqdir. Huquqni muhofaza qilish faoliyati – faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladigan yuridik vositalar yordamida huquqni qo'riqlash sohasidagi faoliyat hisoblanadi. Bundan tashqari, jinoyatchilikka qarshi kurash vositasi bo'lib sudlar tomonidan qo'llaniladigan jinoiy jazo choralar (ozodlikdan mahrum qilish, jarima) hisoblanadi. Yuqorida bayon etilganlarga ko'ra hamda ushbu aniq masalalarni o'rghanish natijasida mazkur fanni «sud va huquqni muhofaza qilish organlari» deb nomlash haqida xulosa qilish mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning doirasi va tizimini o'rghanish jarayonida Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ni e'tiborga olish lozim. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagি yangi tahrirdagi «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili – Ombudsman to'g'risida»gi Qonuniga binoan inson huquqlari bo'yicha vakil-mansabдор shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasida quyidagi:

a) davlat organlari; b) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; d) korxonalar, tashkilotlar va muassasalar; e) jamoat birlashimlari; f) mansabдор shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioxva etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishi vakolati yuklatilgan.

Ushbu qonunda belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakillik instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari va vositalarini to'ldiradi.

Vakil O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko'maklashadi (1-modda).

Shuni ta'kidlash joizki, inson huquqlari bo'yicha vakil yuqorida qayd etilgan organlar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilikning samarali bajarilishi yuzasidan nazorat qilish bilan ularning faoliyati yuzasidan tegishli organlar tomonidan amalga oshiriladigan umumiy nazoratni olib bormaydi. Inson huquqlari bo'yicha vakil – O'zbekiston

Respublikasi fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmas shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari buzilish holatlari yuzasidan tegishli tashkilotlar va mansabdor shaxslarning harakat yoki harakatsizliklari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqadi, shuningdek, o‘z tergovini olib borish kabi huquqlarga ega.

Shu bilan birgalikda, inson huquqlari bo‘yicha vakil inson yoki bir guruh shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi yuzasidan ularning roziligi asosida uchinchi shaxslarning hamda jamoat birlashmalarining shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi. Vakil sud vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqmaydi. U mustaqil ravishda huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalgaga oshira olmaydi. Agar arizachi o‘zining huquq va erkinliklarini himoya qilishda boshqa vositalardan foydalangan bo‘lsa-da, lekin qabul qilingan qarorlardan qoniqish hosil qilmay shikoyat qilsa, bunday shikoyatlarni vakil tomonidan ko‘rib chiqish – uning asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Vakil shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayonida, shuningdek, o‘z tashabbusi bilan tekshirish o‘tkazish jarayonida fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilish holatlari yuzasidan *quyidagi huquqlarga ega*:

1) tekshirish o‘tkazish jarayonida aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar yuzasidan tashkilotlar va mansabdor shaxslarning ko‘maklashuvini so‘rab murojaat etish;

2) aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar yuzasidan tekshirish o‘tkazish uchun tashkilotlar va mansabdor shaxslarning vakillarini taklif etish; tekshiruv harakati yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilayotgan organ yoki shaxsga topshirilishi mumkin emas;

3) tashkilotlar va mansabdor shaxslarga hech qanday to‘sqliarsiz tashrif buyurish;

4) tashkilotlar va mansabdor shaxslardan tegishli ma‘lumotlar hamda hujatlarni talab qilish va olish;

5) mansabdor shaxslardan tushuntirishlar olish;

6) aniqlanishi lozim bo‘lgan masalalar bo‘yicha tashkilotlar va mutaxassislarga xulosalarni tayyorlash mas’uliyatini yuklash;

7) inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ta'sir etuvchi masalalar bo'yicha tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarda ishtirok etish;

8) ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

9) inson huquqlari va erkinliklarini buzuvchi harakatlarni amalga oshirgan shaxslar ustidan ularni javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga iltimosnomalar bilan murojaat etish.

Shikoyat bo'yicha tergov tugaganidan so'ng vakil tomonidan tegishli organlarga yuboriladigan xulosa, fuqarolarning huquqlarini buzish holatlarini huquqiy himoya qiluvchi muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Vakilning xulosasi o'zining huquqiy mohiyatiga ko'ra, tavsiya etuvchi xarakterga ega.

1.3. «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanining tushunchasi va mazmuni

Fan yoki o'quv kursining predmetini aniqlash, ilmiy bilimlar mazmunini tashkil etuvchi bilish jarayonining chegaralarini aniqlash, ushbu ilmiy tarmoq mazmunini o'rganish bilan bog'liq.

Avvalambor, shuni ta'kidlash joizki, mazkur o'quv fani, masalan, konstitutsiyaviy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi va boshqa huquq sohalari kabi huquqiy tarmoq hisoblanmaydi. Chunki bu fan huquqning boshqa o'ziga xos tarmoqlari tarkibidan tashkil topgan ixtisoslashgan o'quv kursi bo'lib hisoblanadi. Biroq «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani davlat va huquq sohasidagi barcha tadqiqotchilar uchun o'zining funksional yo'nalishi nuqtayi nazaridan o'ta foydali va muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o'quv fani murakkab va aralash xarakterga egadir. «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani predmetining mazmuni huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari, shuningdek, mazkur faoliyatda ishtirok etish uchun jalb qilingan ayrim nodavlat tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida nafaqat huquqni muhofaza qilish to'g'risidagi ma'lumotlar, balki uning aniq

yo‘nalishlari (funksiyalari) to‘g‘risida, shuningdek, ma’lum bir organlar yoki tashkilotlarni tashkil topishi haqida, ularning tuzilishi, o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga bog‘liqligi, ularning asosiy vakolatlari va vazifalari hamda butun davlat mexanizmi to‘g‘risidagi va bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi ma’lumotlar markaziy o‘rin egallaydi.

Shunday qilib, «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» yuridik fani o‘z doirasida huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi sud hokimiyati va davlat organlari tizimi (shuningdek, ayrim nodavlat birlashmalar), ularning tashkil etilishi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va o‘zaro hamkorligini o‘rganuvchi fan hisoblanadi.

Bu tizinga o‘z faoliyatlari maqsadlarining mushtarakligi bo‘yicha birlashgan davlat muassasalari va jamoat tashkilotlari kiradi.

Bunday maqsadlar odil sudlovnii amalga oshirish, qonun va huquq-tartibotning ustuvorligini ta’minlash, ijtimoiy adolat, fuqarolarning tinch va totuvligi, huquqbazarliklar, jumladan, jinoyatlarga qarshi kurash va ularning oldini olish, fuqarolarda huquqiy madaniyat va huquqiy ongni tarbiyalash kabilarda namoyon bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan umumiyy maqsad qo‘yilgan davlat muassasalariga sud organlari, prokuratura, adliya organlari va jinoyatlarni tergov qilish organlari, notariat kiradi.

Advokatura faoliyati ham o‘z mazmuniga ko‘ra shu maqsadlarni ko‘zlaydi. Ushbu huquqiy institutga O‘zR fuqarolariga, fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga, korxona, muassasa, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatuvchi mustaqil, ixtiyoriy, o‘z kasblari bo‘yicha birlashgan shaxslar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan muassasa va tashkilotlar davlatning umumiyy qonunchiligiga asoslanib, shuning bilan birga o‘zlarining tarkib topishi, rivojlanishi va takomillashishining ichki qonuniyatlaridan kelib chiqib, yagona maqsadlarni ko‘zlagan holda o‘ziga xos aniq masalalarni hal etadi, o‘zining tamoyillari, tizimi, tuzilishi, vakolatlariga ega, bir-birlari bilan turlicha munosabatlarda bo‘lgan holda davlat va jamiyatning huquqni himoya qilish hamda huquqni qo‘llash faoliyatida o‘z o‘rnini egallaydi.

Mazkur fanning maqsadi – huquqshunos talabalarga huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish mexanizmi, shuningdek, ularni amalga oshiruvchi tashkilotlar haqida ma'lumotlar berish-dan iborat.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanida ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar o'rganiladi.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanining predmeti xorijiy mamlakatlarning sud va prokuratura organlarining tamoyillarini, vazifalarini, tuzilishini belgilovchi huquqiy normalarni, shuningdek, har bir mamlakatning umumiyligini qonunchiligidagi yuzaga keladigan o'ziga xos tarixiy sharoitlari va sabablarni o'rganadi.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanining mazmuni *quyidagi bo'limlardan iborat*:

1) huquqni muhofaza qilish organlari fanining asosiy tushunchasi, predmeti va xususiyatlari, huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risida qonunchilik bo'limi;

2) O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati, shuningdek, sud tizimini tashkil etish, sud korpusini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va umumiyligini yurisdiksya sndlari;

3) odil sudlov va uning asosiy tamoyillari;

4) Adliya vazirligi va sndlар faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash;

5) prokuratura va prokuror nazorati;

6) jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishni amalga oshiruvchi organlar;

7) yuridik xizmat ko'rsatuvchi organlar, ularning tashkil etilishi va amal qilish;

8) xorijiy mamlakatlarning sud, prokuratura va boshqa huquq-tartibot organlari.

Oxirgi yillarda «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani mazmuni va tizimi yuzasidan bir qancha izlanishlar olib borilmoqda. Rossiya Federatsiyasida oxirgi yillarda nashr etilgan ayrim darsliklarda huquqni muhofaza qilish organlari qatoriga hisob palatasi, FVV (Favqulodda vaziyatlar vazirligi), Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Statis-

tika, Standartlashtirish, Meteorologiya davlat qo‘mitalari kiritilgan¹.

Shubhasiz, ushbu organlar davlat mexanizmida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak huquqshunoslar yuqorida qayd etilgan organlarni tashkil etish yuzasidagi masalalarni o‘rganishi kerak. Lekin «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani doirasida emas, balki Konstitutsiyaviy huquq, ma’muriy huquq, moliya huquqi fanlari ushbu organlarga ko‘proq e’tibor beradi. Bu esa bo‘lajak huquqshunoslarga mazkur organlarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi.

1.4. «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanining yuridik fanlar tizimida tutgan o‘rni

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» – yuridik fan emas, balki o‘quv fani bo‘lib, u talabalarga huquqni muhofaza qilish sohasida boshlang‘ich bilim berib, keyinchalik ushbu bilimlar boshqa o‘quv fanlarida aniq va kengroq beriladi. «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani o‘zining predmetiga ega va yuridik fanlar tizimida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda, bu fan boshqa yuridik fanlar bilan ma’lum bir munosabatda va aloqadadir.

Avvalambor, bular orasida davlat va huquqning kelib chiqishi va mohiyatini, ularning harakatlanish mexanizmi rivojlanishini o‘rganuvchi «Davlat va huquq nazariyasi» fanini ko‘rsatib o‘tish lozim. «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani davlat va huquq nazariyasida belgilangan tushunchalarga, ya’ni davlat, uning funksiya va vazifalari, mexanizmi hamda huquq, huquq ijodkorligi, huquqiy norma, huquqni anglash, qonuniylik va hokazolarga tayanadi.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani «Davlat va huquq tarixi» yuridik fani bilan ham chambarchas bog‘liqidir. Sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar va advokatura organlari ning tashkil etilishi va ularning faoliyati bilan bog‘liq masalalar-

¹ Qarang.: Габричидзе Б.Н., Елисеев Б.П., Чернявский А.Г. и др. Правоохранительные органы Российской Федерации: Учебно-справочное пособие. – М.: Дело и Сервис, 2002. – В. 464.

ni bilish uchun tarixiy jihatdan yondashish kerak. Shuningdek, aniq huquqiy jarayonlarni statistikada emas, balki tarixiy hodisalar manzarasida, to‘plangan yuridik tajribalarimizni xorijiy mamlakatlar tajribalari bilan taqqoslash orqali o‘rganish lozim. Bunday ma’lumotlarni o‘rganish o‘zimizning va xorijiy tarixni bilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani «Konstitutsiyaviy huquq» fani bilan bog‘liqligi shundaki, unda huquqni muhofaza qilish organlarining barcha davlat organlari tizimidagi o‘rni va roli haqida umumiylaysa tavsif berilgan. Bundan tashqari, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning xususiyatlari va tuzilishi hamda faoliyatini bilan bog‘liq bo‘lgan konstitutsiyaviy tamoyillari va boshqa ko‘plab masalalar yoritib berilgan. Yuqorida ko‘rsatilgan masalalarni ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar asosida amalga oshiriladi.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani «Ma’muriy huquq» fani bilan bog‘liq. Bu fanda barcha davlat boshqaruv organlarining vakolati va tizimiga oid normalar o‘rganiladi. Ushbu bog‘liqlik, avvalambor O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va unga bo‘ysunuvchi muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarda ko‘rinadi. «Ma’muriy huquq» fanida ko‘rsatilgan organlar davlat boshqaruvining butun tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, unda tegishli qilmishlar uchun ma’muriy javobgarlikni qo‘llash to‘g‘risidagi asosiy qoidalar o‘rganiladi.

Mazkur o‘quv kursi «Jinoyat huquqi» va «Jinoyat protsesual huquqi» fanlari bilan har tomonlama aloqador. Ushbu fanlar inson va fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarga, terrorizm, iqtisodiy va boshqa jinoiy huquqbazarliklarga qarshi kurash, shuningdek, jinoyatlarni fosh etishning protsesual tartibi, jinoyatni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish va bunday shaxslarga nisbatan huquqiy ta’sir etish choralarini qo‘llashga oid masalalarni o‘zida ifodalaydi.

Sud va huquqni muhofaza qilish organlarini tashkil etish, ular tomonidan bajariladigan faoliyatning mazmuni va amalga oshiriladigan aniq harakatlarning tartibi (jarayoni)ga ma’lum miqdorda bog‘liqdir. Aksincha: tashkiliy faoliyatning mazmuniiga doir masalalarni hal qilishga, aniqrog‘i, prokuror bilan ter-

govchi, prokuror bilan sud hamda ayblanuvchining himoya-chisi – advokati bilan tergovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar qanday bo‘lishi va amalda qanday bo‘layotganiga bog‘liq.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani «Soliq huquqi» bilan ham ma’lum aloqada bo‘lib, xususan, huquqni muhofaza qilish faoliyatida o‘z-o‘zini boshqarish subyektlari, ya’ni soliq organlari bilan aloqadordir. Ular soliq sohasiga oid huquqburziliklarni fosh etadi va bartaraf etadi. Bundan tashqari, ular soliq va yig‘imlarning o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlaydi, shuningdek, soliq va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlagan yuridik va jismoniy shaxslarni aniqlab, ularni javobgarlikka tortadilar.

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» o‘quv fani sifatida «Fuqarolik protsessi» fani bilan ham chambarchas bog‘liq. Bu fan huquqni muhofaza qilish organlaridan biri bo‘lgan sudlarning faoliyati bilan bevosita aloqador, lekin bu sudlar mulkiy va ayrim nomulkiy nizoli ishlarni – fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqadi va hal qiladi.

Bundan tashqari, yuridik oliv o‘quv yurtlarining yuqori bosqichida ta’lim olayotgan talabalarga «Prokuror nazorati» fani ham o‘tilmoqda. Bu fan – «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fanining ma’lum bir mavzusi bo‘lmish prokuratura va uning organlariga bog‘liq qo‘sishma ma’lumotlar beradi. Ushbu ma’lumotlar prokuraturani tashkil etish asoslari haqida ma’lum tushunchalarni kengaytirib beradi, ya’ni prokuror nazorati va prokuratura faoliyatining boshqa yo‘nalishlarini amalga oshirish mazmuni, shakli va uslublari haqidadir. Shunday qilib, «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani yuqorida ko‘rsatilgan huquqiy tarmoqlar va yuridik fanlar bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishni yakunlash mumkin.

1.5. Huquqni muhofaza qilish organlari to‘g‘risidagi qonunchilik

«Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» fani ko‘pgina davlat va nodavlat muassasalarini hamda mas’ul vazifani bajarayotgan mansabdor shaxslarga tegishlidir. Mazkur faoliy-

at qonun bilan tartibga solinishi lozim. Bunday talabni qo'yishdan maqsad, ushbu muassasalar hamda tashkilotlar o'z vakolati faoliyatida insonlarning huquq va erkinliklariga tiklab bo'lmas darajada zarar u yetkazishi mumkin bo'lgan sud va tergov xatolarini bartaraf etishi bilan belgilanadi.

Sud va huquqni muhofaza qilish organlarining tashkiliy asoslari hamda funksiyalarini o'rganib chiqish uchun bir qancha normativ-huquqiy aktlarni o'rganish zarur bo'ladi, vaholanki, ularning aniq miqdorini aniqlash mushkul. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari tayanadigan huquqiy negizni, odatta, tasniflashga yondashiladi. Nazariyada bunday yondashishing ikkita asosi mavjud. Ulardan *biri* – qonun kuchidan qat'i nazar guruhanayotgan aktlarning predmetiga (mazmuniga) qarab, *ikkinchisi* – huquqiy ahamiyatiga qarab.

Barcha huquqiy aktlarni ularning mazmuniga qarab *quyidagicha guruhlarga bo'lish mumkin*:

- Umumiy xarakterdagi;
- Odil sudlov, sud hokimiysi va sudlar to'g'risidagi;
- Sudlar faoliyatini tashkiliy ta'minlash va ularni amalga oshiruvchi organlar to'g'risida;
- Prokuror nazorati va prokuratura organlari to'g'risida;
- Jinoymatchilarni aniqlash va tergov qilishni tashkillashtirish to'g'risida;
- Yuridik yordamni tashkillashtirish to'g'risida.

Predmetiga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlar quyidagicha tasnif etiladi.

Umumiy xarakterdagi aktlar:

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasи.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuni.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida»gi 12.12.2002-y. O'zbekiston Respublikasi qonuni.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisি Senati to'g'risida»gi 12.12.2002-y. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni.

Xalqaro hujjatlar:

- 1) Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, 1948-yil 10-dekabr (30.09.1991-yil qo'shilgan);
- 2) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt, 1966-yil 10-dekabr (31.08.95-yil qo'shilgan);
- 3) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga fakultativ bayonnomma, 1966-yil 10-dekabr (31.08.95-yil qo'shilgan, 28.12.95 da kuchga kirgan);
- 4) xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida Konvensiya, 1958-yil 10-iyul (O'zR Oliy Majlisining №184-I-sonli qarori bilan 22.12.95 da ratifikatsiya qilingan);
- 5) MDH ning inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Konvensiyasi, 26.05.95-yil;
- 6) huquqiy yordam va fuqarolik, oila hamda jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlari to'g'risidagi Minsk Konvensiyasi, 22.01.93-yil (28.03.97 da o'zgartirilgan).

Ogil sudlov, sud hokimiyati va sudlar to'g'risidagi aktlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni. 2-sentabr 1993-yil (yangi tahriri 14-dekabr 2000-yil, №162-II); Yangi tahriri O'zR. 14.12.2000-y. 162-II son Qonuni bilan tasdiqlangan
- 2) «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun. 30.08.95-yil (O'zR 447-II-son Qonunining VII bo'limiga asosan 13.12.2002 da o'zgartirilgan);
- 3) O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonuni. 30.08.1995-yil, №108-I;
- 4) «O'zbekiston Respublikasi harbiy sudini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-2421. 23.09.1999-yil;
- 5) «O'zbekiston Respublikasi PF № 3725 17.03.2006. «Sudyalarни tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

6) «O‘zbekiston Respublikasida sud tizimini takomillash-tirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-2421. 23.09.99-yil;

7) «O‘zbekiston Respublikasi oliv sudi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-3023. 06.02.2002-yil;

8) «O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidetining PF 3641 sonli farmoni 06.02.2002-yil.

9) «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidetining 3644-sonli farmoni 08.08.2005-yil.

10) O‘zbekiston Respublikasida sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. №383. 22.09. 2001-yil;

11) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatdan va moliyaviy ta‘minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘isidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagи PQ-458-sonli Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-yil. 36-son, 360-modda.

12) «Sudyalarning malaka hay‘atlari to‘g‘isidagi Nizom». (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan tasdiqlangan. №323 – II. 07.12.2001-yil).

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarning tanlash va lavozimiga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasi Nizomi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ilova. PF – 2943. 24.09.2001);

14) «Sudyalarning malaka darajalari to‘g‘risida» Nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan tasdiqlangan. №164 II. 14.12.2000-yil);

15) «Sud xodimlarining mansab darajalari to‘g‘risida» Nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan tasdiqlangan. №164 II. 14.12.2000-y);

16) «Sud hokimiyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining qarori. №1/60. 20.12.96-yil;

17) «Sud qarorlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori. №13. 17.04.98-y (14.06. 2002-y o‘zgartirilgan).

Xalqaro hujjatlar:

18) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktga qo‘sishimcha bayonnomma 1966-yil 10-dekabr (31.08.95-y qo‘shilgan, 28.12.95 da kuchga kirgan);

19) Irqiy kamsitishlarning har qanday ko‘rinishlarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiya. 21.12.65-yil (qo‘shilgan 31.08.95-yil);

20) Qiynoq va shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi munosabat va jazolash turlariga qarshi Konvensiya 10.12.84-y (qo‘shilgan muddati 31.08.95-y).

21) BMT Bosh Assambleyasi rezolutsiyasi bilan ma‘qullangan sud hokimiyati mustaqilligining asosiy prinsiplari. 13.12.85-y (30.05.97-yilda qo‘shilgan);

Sudlar faoliyatini tashkiliy ta’minlash va uni amalga oshiruvchi organlar to‘g‘risida aktlar:

1) O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni. 2-sentabr 1993-yil (yangi tahriri 14-dekabr 2000-y, №162-II); (O‘zbekiston Respublikasi Qonunining V bo‘limi №320-II, 07.12.2001., №568-II, 12.12.2003, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1993, №10, 367-b. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Axborotnomasi, 1995, №9. 193-m; 1996, №2 56-m), O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi Qonun. 30-avgust, 1995, №568 – I (O‘zbekiston Respublikasi qonuni VII bo‘lim №447-II, 13.12. 2002).

2) «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonun. 30.08.95-yil (O‘ZR 447 – II-sonli qonunining VII bo‘limiga asosan 13.12.2002da O‘zbekiston Respublikasi qonuni VII bo‘lim 30.08.2003-y. o‘zgartirilgan);

3) «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. №258-II. 29.08.2001-yil;

4) «O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudini tashkil etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF – 2421. 23.09.1999-yil;

5) «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish va sudlar faoliyatini moliyaviy hamda moddiy-texnik ta'minlash Departamenti to'g'risida»gi Nizomi. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 383-sonli qaroriga 1-ilova. 22.09. 2002-y, №197 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 13-bandiga ilova 30.04.2003);

6) «Harbiy sudlar faoliyatini tashkillashtirish to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan 14.12.2000-yilda tasdiqlangan. №164-II;

7) «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini qarori bilan 27.08.2003-y. №370. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 528-sonli qarorining 2-bandiga ilova 21.11.2003; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 28-sonli qarorining 40-bandiga ilova 17.01.2004);

8) «Sudlar va adliya organlarining rivojlanish fondi to'g'risida» Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 147-sonli 18.03.2003-y. Qarori bilan tasdiqlangan.

9) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «Me'yoriy-huquqiy hujjalarning amalga oshirilishi ustidan monitoring bo'yicha Markaz tashkil etish to'g'risida» Qarori. № PQ – 237 15.12.2005-y.

Prokuror nazorati va prokuratura organlari to'g'risida:

1) O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni. 9-dekabr 1992-yil. (29.08.2001-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zR Oliy Majlis Axborotnomasi №257 – II, 1993., №1, 29-m, №6, 266-m; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi №9, 145-m, 1997., №2, 56-m; №9, 241-m; 1999., №9, 299-m; O'zbekiston Respublikasi Qonuni 5 bo'lim №482-II, 25.04.2003);

2) O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. 29-avgust 1997-yil (yangi tahrirda 29.08. 2001-y);

3) «O'zbekiston Respublikasi prokuratura xodimlarining mansab darajalari to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan tasdiqlangan. №748 – XII (20.08.1999-yil o'zgartirilgan);

4) «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarligi to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan 30.08.1996-y tasdiqlangan. №281-I;

5) «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legal-lashtirishga qarshi kurashish Departamenti to'g'risida»gi Nizom. 2006-yil 21-aprel tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005-yil. 18 son, 243-modda.;

6) «O'zbekiston Respublikasi prokururaturasi huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentida xizmatni o'tash to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 291-sonli qaroriga 6-ilova 06.07.2001-yil №291. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan №415. 28.11.2002. o'zgartirilgan.

7) «Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 11.03.2004-y. №3406.

Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishni tashkillashtirish to'g'risida:

1) O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni. 9-dekabr 1992-yil. (29.08.2001-yilda yangi tahrirda qabul qilingan); O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis 1996-y., №9, 145-m; 1997-y., 2, 56-m; №9, 241-m; 1999-y., №9, 229-m; O'zbekiston Respublikasi qonuni 5-bo'limiga muvofiq №482-II. 25.04.2003-y. o'zgartirilgan.

2) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi. 22.09.1994-y qabul qilingan. 1-aprel 1995-yil amalga kiritilgan;

3) «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonun. 9.12.1992-yil (yangi tahrirda 29.08.2001-y);

4) «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF – 1815. 8.07.1997-y;

5) «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojaxona xizmati to'g'-risida»gi Qonun. 29.08.1997-yil (1.05.1998-yilda o'zgartirilgan);

- 6) «O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to'g'-risida»gi Qonun. 20.08.1999-y № 820 – 1;
- 7) «O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida xizmatni o'tash to'g'risidagi vaqtinchalik Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 04.04.1998-y;
- 8) «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №374. 30.07. 1997-y. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.08.1997-y. 392-sonli, 16.04.1998-y 161-sonli, 01.05.2002-y. 150-sonli, 16.10.2003-y. 446-sonli, 19.11.2003-yildagi 520-sonli, 25.12.2003-y. 567-sonli qarorlari bilan o'zgartirilgan);
- 9) «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlarining intizomiy Nizomini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. №135. 27.03.1998-y;
- 10) «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. №270. 25.10.91-yil (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 602-sonli, qarori bilan 14.12.1994-y o'zgartirilgan);
- 11) «O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi faoliyatini tashkillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №14. 12.01.1998-y (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 427-sonli qarori bilan 14.09.1999-y 9-band, 180-sonli qarori bilan 05.05.2000-y 3-band, 446-sonli qaroriga 1-ilova 3-band 16.10.2003, 520-sonli qaroriga 2-ilova 9-band 19.11.2003-y o'zgartirilgan);
- 12) «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan №374. 30.08. 1997-y;
- 13) O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. 26.12.1997-y;
- 14) «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti to'g'risida»gi

Nizom. 2006-yil 21-aprelda tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to‘plami, 2005-yil. 18-son, 243-modda;

15) «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi ekspert Kengashi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14-sonli qaroriga 8-ilo va. 12.01.1998-y (05.05.2000-yilda o‘zgartirish kiritilgan);

16) «O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan №278. 2.11.1991-y.

17) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-maydagi qaroriga №1 qo‘sishimcha (O‘ZR Vazirlar Mahkamasining 01.03.2001-yil qabul qilingan №103 qaroriga 15 band, 06.07.2001-y №291 qaroriga №7 band, 17.02.2004-y №74 qaroriga 4-band).

Yuridik yordamni tashkillashtirish to‘g‘risida:

1) «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonun. 27.12.1996-y (15.12.2000 y o‘zgartirilgan; O‘zbekiston Respublikasi qonuni XVII bo‘lim №175-II, XVIII bo‘lim №482-II, 25.04.2003, XII bo‘lim №568-II, 12.12.2003 ga muvofiq).

2) «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonun №721 – I. 25.12.1998-y;

3) «Notariat to‘g‘risida»gi Qonun. 26.12.1996-yil; (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis, 1997., №2, 42-m, o‘zgartirilgan. O‘zbekiston Respublikasi qonunining 1-bo‘lim 16-bandi, №175 – II. 15.12.2000, XVII bo‘lim №482 – II. 25.04.2003. O‘zbekiston Respublikasi qonuni X bo‘lim №168-II. 12.12.2003);

4) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining markaziy apparati tarkibida «Iqtisodiy islohotlar bo‘yicha qonun va normativ hujjalarning loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish boshqarmasini tashkil qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.01.1994-yil qarori.

5) «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.

27.11.2003-y. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 528-sonli qarorining 40-bandi; №28. 17.01.2004-y.

6) «Advokatlik byuro, hay'at, firmalarni ro'yxatga olish va fuqarolarga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish litsenziyasini berish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.03.1997-y 139-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom (Ushbu Nizomga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.04.2003-y 197-sonli, 05.11.2003-yil 485-sonli qarori bilan o'zgartirish kiritilgan).

7) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi. 22.09.1994-yil qabul qilinib, 1.04.1995-y amalga kiritilgan;

8) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual Kodeksi. 30.08.1997-y;

9) O'zbekiston Respublikasi xo'jalik protsessual Kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi №479 – I qarori bilan 30.08.1997-y. kiritilgan. (O'zbekiston Respublikasi qonuni №621 – I, 01.05.1998, №621 – I, O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan 14.12.2000-y, O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan 30.08.2002-y. №405 – II, O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan 30.08.2003-yilda o'zgartirilgan);

Huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risidagi huquqiy-me'yoriy aklarlarni yuridik kuchiga qarab tasniflash amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar ham boshqa huquqiy hujjatlar kabi aniq iyerarxik tuzilmaga ega.

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi 14-dekabr 2000-yilgi (5-modda) Qonuniga asosan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning yuridik kuchiga qarab *quyida-gicha iyerarxiyasi belgilangan*:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari;
- 6) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa muassasalarining normativ hujjatlari;

7) Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qarorlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqiy-me'yoriy aktlari ning turlari hamda ularga qo'yiladigan talablar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Ko'rinish turibdiki, u yoki bu aktlarning qanday o'rinn egallashi ushbu aktni qabul qilgan organga qarab belgilanadi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oliv yuridik kuchga ega bo'lган hujjat deb tan olgan. Chunki unda jamiyat va davlat hayotining asosiy masalalari tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «huquqni muhofaza qilish organlari»ning ixtisosligi bo'yicha Konstitutsiyaning «fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari» deb nomlangan ikkinchi bo'limi, «O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati» deb nomlangan XXII bobi hamda «Prokuratura» deb nomlangan XXIV boblari muhim o'rinni egallab, rahbariy ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limida fuqarolaring qonun oldida tengligi, har bir fuqaroning shaxsiy, turar-joy daxlsizligi huquqiga ega ekanligi, telefon so'zlashuvlari va xat yozish-malarning siri, aybsizlik prezumpsiysi va boshqalar belgilangan. Konstitutsiyaning 19-moddasida shunday deyilgan: «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas». Xuddi shu bo'limda «har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish... kafolatlanadi», – deyilgan (44-modda). Yuqorida keltirilgan normalar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining asosini tashkil etadi. Ushbu iyerarxiyada xalqaro huquqdagi va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalardagi normalar va prinsiplari ma'lum qiziqish uyg'otadi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining eng yuqori o'rnnini quyidagi asoslar orqali talqin etishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni faqatgina milliy qonunchilik masalalarini tartibga soladi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa bu yo'nalishda hech qanday holatni o'zida belgilamaydi, lekin «O'zbekiston xalqi, ...xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini tan olgan holda» Preambulasi bundan mustasno.

Bundan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro shartnomalar bilan milliy qonunchiligimiz o'rtaida muammo tug'ilganda, xalqaro normalar ustun turadi. Bunday fikrga O'zbekiston Respublikasining bir qancha qonunlarini sharhash orqali kelish mumkin. O'zbekiston Respublikasining 22-dekabr 1995-yilda¹ qabul qilingan «xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi Qonunida «O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarga xalqaro huquq normalariga asosan O'zbekiston Respublikasi qat'iy ravishda amal qiladi», – deyilgan.

Bu masala O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari tobora ko'payib borayotgan hozirgi davrda borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda, shu jumladan, sudlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tashkillashtirish ham. Eng avvalo ular orasida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt 16-dekabr 1966-yil² (31.08.95-yil qo'shilgan), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga qo'shimcha protokol 16-dekabr 1966-yil³ (31.08.95-yil qo'shilgan)lar ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasining ushbu xalqaro hujjatlarga qo'shilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga xalqaro organlar yurisdiksiyasining tatbiq etilishi va fuqarolarni belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishini anglatadi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining har qanday fuqarosi BMTning inson huquqlari bo'yicha Qo'mitasiga xalqaro Paktda ko'rsatilgan fuqarolik va siyosiy huquqlari buzilganligi haqida yozma ravishda murojaat qilishi mumkin, agar huquqni himoya qilishning ichki imkoniyatlari tugagan bo'lsa. Bundan tashqari, MDH doirasida ham quyidagi cha kelishuv mavjud: Fuqarolik, oila va jinoiy-huquqiy munosabatlar va huquqiy yordam to'g'risidagi Minsk Konvensiyasi 22.01.93-yil (O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi qarori bilan 6.05.1993-yilda ratifikatsiya qilingan, 28.03.97-yilda o'zgartirilgan).

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995-y., №21, 262-modda.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagagi «1966-yil 16-dekabrdagi fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktga qo'shilish to'g'risida»gi qarori.

³ O'sha manba.

Xalqaro shartnomalar:

1. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 10-dekabr 1948-yil (30.09.1991-yil qo'shilgan);
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt 10-dekabr 1966-yil (31.08.95-y. qo'shilgan);
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga qo'shimcha bayonna ma 10-dekabr 1966-yil (31.08.95-yil qo'shilgan, 28.12.95-yilda kuchga kirgan);
4. Xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro qilish to'g'risida Konvensiya 10-iyul 1958-yil (O'zR Oliy Majlisining №184—I sonli qarori bilan 22.12.95-yilda ratifikatsiya qilingan);
5. MDH ning inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Konvensiyasi 26.05.95-yil;
6. Irqiy diskriminatsiyaning har qanday ko'rinishiga barham berish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya. (31.08.95-y. qo'shilgan).
7. 26-betdagi 17-Konvensiya.
8. 27-betdagi 18-Konvensiya.

Iyerarxik tuzilmaning quyi pog'onalaridan qonunlar o'rin olgan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Senat tomonidan yoki referendum yo'li bilan qabul qilinib, ijtimoiy munosabatlarning muhim tarmoqlarini tartibga soladi. Bu darajadagi hujjatlarda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq mas'uliyatlari vazifalar ishonib topshirilgan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati bilan bog'liq muhim masalalar hal qilinadi. Ular qabul qilgan qarorlar mavqeyi qonun mavqeyi bilan mustahkamlangan bo'ladi. Bu ular o'z faoliyatlarini lozim darajada amalga oshirishlari uchun kafolatlardan biridir. Ushbu qonunlar guruhiiga:

1. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni. 2-sentabr 1993-yil (yangi tahriri 14-dekabr 2000-yil, №162-II); (O'zbekiston Respublikasi qonuni V bo'lim. №320-II. 07.12.2001, №568 – II. 12.12.2003).
2. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun. 30.08.95-yil (O'zR «447-II sonli qonunining VII bo'limiga asosan 13.12.2002-yilda o'zgartirilgan; O'zbekiston Respublikasi qonuni VII bo'lim. 30.08.2003);

3. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni. 9-dekabr 1992-yil. (29.08.2001-yilda yangi tahrirda qabul qilingan; O‘zbekiston Respublikasi qonuni XVII bo‘lim. №482 – II. 25.04.2003, XI bo‘lim. №568-II. 12.12.2003);

4. «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonun. 9.12.1992-yil (yangi tahrirda 29.08.2001-yil);

5. «O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralari to‘g‘risida»gi Qonun №820-I. 20.08.1999-yil;

6. O‘zbekiston Respublikasining «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonuni. 27.12.1996-yil; (O‘zbekiston Respublikasi qonuni I bo‘lim. 17-bandı. №175 – II. 25.04.2003, O‘zbekiston Respublikasi qonuni XII bo‘lim. №568 – II. 12.12.2003)

7. Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonun №721 – I. 25.12. 1998-yil;

8. O‘zbekiston Respublikasining «Notariat to‘g‘risida»gi Qonuni. 26.12.1996 yil; (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи, 1997 №2. 42-m; o‘zgartirilgan. O‘zbekiston Respublikasi qonuni I bo‘lim 16-bandı. №175 – II, 15.12.2000., O‘zbekiston Respublikasi qonuni XVII bo‘lim №182 – II. 25.04.2003, O‘zbekiston Respublikasi qonuni №568 – II. 12.12.2003);

9. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. 30.08.1995-yil, №108 – I;

10. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni №472 – I. 29.08.1997-yil (1.05. 1998-yilda o‘zgartirilgan);

11. O‘zbekiston Respublikasining «Sud va boshqa organlarning hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi Qonuni. №258 – II. 29.08.2001-yil;

12. «Jinoiy jazolarni liberalizatsiya qilish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat, jinoyat protsessual va ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risida»gi qonunlarga 29.09.2001-yil №254 – II-sonli o‘zgartirish kiritish;

13. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi. 22.09.1994-yilda qabul qilingan hamda 1.04.1995-yilda kuchga kirgan;

14. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual Kodeksi. 30.08.1997-yil;

15. O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik protsessual Kodeksi. 30.08.1997-yil. (O‘zbekiston Respublikasi qonuni №479. 30.08.1997-yilda o‘zgartirilgan. №621 – I. 01.05.1998, O‘zbekiston Respublikasi qonuni №163 – II. 14.12.2000, O‘zbekiston Respublikasi qonuni №405 – II. 30.08.2002, O‘zbekiston Respublikasi qonuni №535 – II. 30.08.2003).

Iyerarxik guruhlardan biri hisoblanmish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asoslangan holda hamda ularni ijro etish maqsadida qabul qilinganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Masalan, Oliy Majlis tomonidan sud va prokuratura organlari faoliyatini tashkillashtirish sohasida muhim ahamiyat kasb etadigan nizomlar tasdiqlangan. Ularga:

1. «Sudyalarning malaka hay’atlari to‘g‘risida»gi Nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan tasdiqlangan. №323 – I. 07.12.2001-y);

2. «Sudyalarning malaka darajalari to‘g‘risida»gi Nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan tasdiqlangan. №164-II. 14.12.2000-y);

3. «Sud xodimlarining mansab darajalari to‘g‘risida»gi Nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan tasdiqlangan. №164 – II. 14.12.2000-y; O‘zbekiston Respublikasi qonuni XXVII bo‘lim №568 – II. 12.12.2003);

4. «Harbiy sudlar faoliyatini tashkillashtirish to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan 14.12.2000-y tasdiqlangan. №164-II;

5. «O‘zbekiston Respublikasi prokuratura xodimlarining mansab darajalari to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan tasdiqlangan. №748 – XII (20.08.1999-y. o‘zgartirilgan);

6. «O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlarini rag‘batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan 30.08.1996-yil tasdiqlangan. №282 – I.

Huquqiy aktlar iyerarxiyasining keyingi pog‘onasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari o‘rin egallaydi.

Ushbu aktlar mazmunini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar belgilaydi. Farmonlar orqali qandaydir organ yoki uning bir bo'g'inini tashkil etish yoki unga u yoki bu vazifani yuklash yoxud olib tashlash bilan bog'liq masalalar tasdiqlanadi. *Misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:*

1) «O'zbekiston Respublikasi harbiy sudini tashkil etish to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF – 2421. 23.09.1999-yil;

2) «Sudyalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni № UP – 2943. 24.09.2001-yil;

3) «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtrish to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF – 2682. 14.08.2000-yil;

4) «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimiga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF – 2943. 24.09.2001-yil;

5) «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qoshidagi sudyalik mansabiga tanlash va tavsiya qilish oliy kvalifikatsiya komissiyasi to 'g'risida»gi Nizom («O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ilova. 24.09.2001-yil №UP – 2943;

6) «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil qilish to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF – 1815. 8.07.1997-yil;

7) «Qishloq xo'jaligini isloh qilishga doir qonunlar ijrosini ta'minlashga oid chora-tadbirlar to 'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2004-yil 3406-sonli Farmoni;

8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 6-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi faoliyatini takomillashtirish to 'g'risidagi» 3023-sonli Farmoni;

9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdag'i «O'zbekiston Respublikasida o'llim jazosini bekor qilish to 'g'risidagi» UP – 3641-sonli Farmoni;

10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdag'i «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini suda larga o'tkazish to 'g'risida»gi 3644-sonli Farmoni;

11) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdag'i «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudlarni tanlash va lavozimga taqdim etish Oliy malakaviy komissiyasi faoliyatini takomillashtirish haqidagi» 3725-sonli Farmoni.

Huquqni muhofaza qilish organlariga oid huquqiy-me'yoriy aktlar iyerarxik «piramidasi»ning quyiroq pog'onasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи qarorlari turadi. Ushbu qarorlar Konstitutsiyaga, qonunlarga, Prezident Farmonlariga zid bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи faqatgina vakolati doirasidagi masalalarni hal qiladi, ya'ni u odatda qonunlar va Prezident farmonlarini aniqlashtiradi va to'ldiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи tomonidan huquqni muhofaza qilish organlarining nizomlari tasdiqlanishi mumkin. *Masalan ularga:*

1. «O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida xizmatni o'tash haqidagi vaqtinchalik Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. №146. 04.04.1998-y.

2. «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. №374. 30.07.1997-y (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.08.1997-yildagi 392-sonli, 16.04.1998-yildagi 161-sonli, 01.05.2002-yildagi 150-sonli qarorlari bilan o'zgartirilgan; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи №1. 1 bandi. 446-sonli qarori 16.10.2003, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи №2. 8-bandi, №520, 19.11.2003, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи №27. 2-bandi. №567. 25.12.2003).

3. «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №14. 12.01.1998-yil (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 427-sonli qarori bilan 14.09.1999-yilda 9-bandi, 180-sonli qarori bilan 05.05.2000-yilda 2-bandi o'zgartirilgan; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи №1. 3-bandi. 446-qarori 16.10.2003, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи №2. 9-bandi, №520, 19.11.2003).

4. «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlarining intizomiy Nizomini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. №135. 27.03.1998.

5. «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №383. 22.09.2001-yil.

6. «O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori №278. 2.11.1991-yil.

7. «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 25.10.91-yil (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 602-sonli qarori bilan 14.12. 1994-yilda o'zgartirilgan).

8. «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 27.08.2003-yil.

9. «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan №374. 30.08. 1997-yil.

10. «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash Departamenti to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagи PQ-458-sonli qaroriga ilova // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil. 36-son. 360-modda).

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 370-qarori bilan 27.08.2003-yilda tasdiqlangan. «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'grisida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi №1. 3-bandi. 528-qarorining 2-bandi, 21.11.2003, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 28-qarorining 40-bandi, 17.01.2004).

12. «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti to'g'risida»gi

Nizom. 2006-yil 21-aprel. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005-yil. 18-son, 243-modda.

13. «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti xizmatni o'tash to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 291-qaroriga 6-ilova 06.07.2001-yil №291.

14. «O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 180-sonli qaroriga 1-ilova. 5.05.2000-yil (01.03.2001-yilda hamda 06.07.2001-yilda o'zgartirish kiritilgan).

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 370-sonli qarori bilan 27.08.2003-yilda tasdiqlangan. «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida»gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi №1. 3-bandi, 528-qarorining 2-bandi, 21.11.2003, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 28-qarorining 40-bandi, 17.01.2004).

16. «O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi huzuridagi ekspert Kengashi to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14-qaroriga 8-ilova. 12.01.1998-yil (05.05. 2000-yilda o'zgartirish kiritilgan).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi tomonidan beriladigan sharhlар ham katta rol o'ynaydi. Ushbu tushuntirishlar tegishli organlar Plenumlari qarorlari ko'rinishida bo'lib, ular tegishli masala bo'yicha qaysi qonunchilikni tatbiq etish lozimligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qonunchilikni tatbiq etish masalasidagi tushuntirishlari sudlar hamda ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni tatbiq etayotgan boshqa organlar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdar shaxslar uchun majburiydir. Ularga: «Sud hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi 20-dekabr 1996-yilgi qarorini ham kiritishimiz mumkin¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Qarorlari to'plami 1991-1997. Ikki tomda. I tom. «Sharq», 1997. – B. 132–137.

Nazorat savollari

1. «Huquqni muhofaza qilish organlari» fanining predmeti va tizimini so‘zlab bering.
2. Huquqni muhofaza qilish organlarining asosiy belgilarini tavsiflab bering.
3. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini (funksiyalarini) tavsiflab bering.
4. Ushbu funksiyalarni amalga oshiruvchi huquqni muhofaza qilish organlarini sanab o‘ting.
5. Huquqni muhofaza qilish faoliyatida odil sudlov va konstitutsiyaviy nazoratning alohida o‘rnini qanday tushuntirish mumkin?
6. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tartibga soluvchi qonun va boshqa huquqiy aklalarni qanday klassifikatsiya qilish mumkin?
7. Huquqni muhofaza qilish organlari to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchiga ko‘ra iyerarxiya tulzilmasi qanday?
8. Sud va prokuratura to‘g‘risidagi qonunchilikni rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati qanday?
9. Huquqni muhofaza qilish organlari uchun xalqaro paktlar, shartnomalar va kelishuvlarning qanday ahamiyati bor?

II mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

2.1. Hokimiyatlar bo'linishi tizimida sud hokimiyati

Bugungi kunga kelib, sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil hokimiyat tarmog'i ekanligi to'g'risidagi nuqtayi nazarni batamom shakllangan deb aytsa bo'ladi. Sho'rolar davrida, ayniqsa, uning dastlabki davrlarida, bizga ma'lumki, bu g'oya rad etilgandi. Sudning huquqni muhofaza etuvchi funksiyasi haqida deyarli gapirilmas edi; sudning qatag' onchilik funksiyasi asosiy o'rinni egallab, amalda sudlar davlat hokimiyatining bostirishga qaratilgan majburlov apparatlari sifatida namoyon bo'lgan. Mustaqillikka erishilganidan so'ng, huquqiy davlat g'oyasining paydo bo'lishi va O'zR Konstitutsiyasida sud hokimiyatining alohida va mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatida ajratilishi bilan qonunchilikda o'z aksini topayotgan ma'lum nazariy negiz paydo bo'la boshladi.

O'zR Konstitutsiyasining 11-moddasida davlat hokimiyatining mustaqil uch tarmoqqa bo'linishi va ularning bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat yuritishi mustahkamlab qo'yilgan. Bu bilan sudning nazorat funksiyasini ajratish, sudlarning vakolatlarini va nazorat funksiyalarini qaytadan ko'rib chiqish va qonunchilikda mustahkamlash zarurati belgilanadi. Bu masalalarni hal etish uchun sud nazorati g'oyasiga tayanadigan asoslarni, negizini aniq bilib olish kerak.

Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra¹, hokimiyatlar bo'linishi nazariysi, sud hokimiyatini qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan alohida va mustaqil tarmoq sifatida ajratish g'oyasi antik davrlarda paydo bo'lgan. O'sha davr mutafakkirlari mazkur nazariyaning qator majburiy belgilarini ko'rsatib o'tishgan bo'lib, bu belgilarga muvofiq holda davlatning ichida ma'lum funksiyalarini bajaruvchi nisbatan mustaqil elementlar

¹ Qarang: Колоколов Н.А. Судебный контроль: некоторые проблемы истории и современности. – Курск, 1996. – В. 25.

amal qiladi. Bu elementlar o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lib, bir-biriga ko‘maklashgan holda, agarda zarurat tug‘ilsa, bir-birini cheklab ham turadi; bu elementlarning barchasi o‘z faoliyatini qonunga asoslanib amalga oshiradi.

Adabiyotlarda hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasining asosiy g‘oyalari *Arastu*, *Aflatun*, *Polibiy*, *Epikur* va boshqalarning asarlarida ishlab chiqilganligi, antik dunyo sud amaliyotida tatbiq etilganligi, 1215-yili qabul qilingan Angliya Buyuk erkinliklar xartiyasida mavjudligi to‘g‘risida fikrlar bildiriladi¹.

Shaxs huquqlarini himoya qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sudning nazorat funksiyasi o‘zining ma’naviy aspektlariga ega bo‘lib, uning ildizlari antik o‘tmishga borib taqaladi. Shu bilan birga, sud nazoratining taraqqiyoti XVII–XVIII asrlar mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi bilan ham uzviy bog‘liq. Hokimiyatlar bo‘linishining klassik nazariyasining asoschilari tomonidan ilgarigi nazariyadan farqli ravishda mutlaqo universal ta’limot yaratildiki, bu nazariya ko‘pchilik mamlakatlarning konstitutsiyaviy qonunchiliklarida va davlat qurilishida o‘z aksini topgan va topib kelmoqda. Mazkur universal ta’limotning yaratilishining sabab bo‘lgan shart-sharoitlar ichida, birinchi navbatda, ijtimoiy va davlat tashkil etilishining yuqori darajasiga ko‘tarilishida o‘zini namoyon qilgan tarixiy taraqqiyotni aytib o‘tish kerak.

Boshqa guruh tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, hokimiyatlar bo‘linishi doktrinasi hamda sud hokimiyati rolining muhim aspektlari fransuz siyosiy mutafakkirlari bo‘lmish *Sh.L. Monteskye* va *J.J. Russolarning* ilmiy asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqotimiz doirasi uchun Monteskyening «Qonunlar ruhi haqida» asari hamda uning «har bir davlatda uchta hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va fuqarolik huquqi masalarini olib boruvchi hokimiyatlar mavjud bo‘ladi» degan asosiy xulosasi qiziqish uyg‘otadi. Bu hokimiyat jinoyatlar uchun ja-zolaydi va xususiy shaxslar o‘rtasida nizo paydo bo‘lganda

¹ Qarang: Петрухин И.Л. Правосудие: время реформ. – М.: Юрид. мет; 1991. – В.9; Безнасюк А.С., Рустамов Х.У. Судебная власть: Учебник для юридических ВУЗов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2002. – Б.5–9.

ularni hal etadi, bu hokimiyatni sud hokimiyati desa bo‘ladi¹. Sh.L. Monteskye tomonidan sud hokimiyati hokimiyatning alohida tarmog‘i sifatida ajratilishi uning hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi nazariyasiga qo‘sghan buyuk hissasidir. Buning natijasida mazkur doktrina o‘zining qat’iy tugallangan nuqtasiga yetdi. Sud hokimiyati masalasini ko‘rib chiqishda Monteskye qator qarashlardan kelib chiqadi. Aksariyat Yevropa mamlakatlarida boshqaruvning o‘rtacha, bir maromdag shakli o‘rnatilgan bo‘lib, ularga muvofiq davlatlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarga ega bo‘lib, o‘zlarining fuqarolariga uchinchi hokimiyatni amalga oshirishni topshiradi. O‘zining ahamiyati bo‘yicha sud hokimiyati tartibga soluvchi bo‘lib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarni tiyib turish uchun zarur.

Hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi ko‘pgina mamlakatlarda amaliy ifodasini topgan. Uning asosida umumdemokratik konsepsiya yotibdi, bu konsepsiyadan u yoki bu darajada turli davlat tuzilishi shakliga ega bo‘lgan davlatlarda foydalanilishi mumkin. Hozirgi vaqtgacha bu nazariya o‘rganish obyekti bo‘lib kelmoqda. Bu holat jamiyatda iqtisodiy va siyosiy kuchlar nisbatining o‘zgarishi, demokratiyaning darajasi, davlat boshqaruvi jarayonining murakkablashuvi bilan bog‘liqidir.

Sud hokimiyatining ta’rifiga nisbatan fanda mayjud bo‘lgan turli yondashuvlarda quyidagilarni ajratib ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bir guruh protsessualchi olimlarning fikrlariga ko‘ra, sud hokimiyati «qonunga bo‘ysungan organlarning shunday tizimini tashkil etadiki, bu organlar qonunlarni sudlovni amalga oshirish orqali qo‘llaydi»². Sud hokimiyatini ta’riflashga bo‘lgan boshqa yondashuvga ko‘ra sud hokimiyati bu sud ishlarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq faoliyatdir. Sud hokimiyatining ikkala guruh vakillari tomonidan berilgan ta’riflarida ajralmas umumiyl xususiyat kasb etuvchi ikkita asosiy holat ko‘zga tashlanadi.

O‘zR Oliy Sudi Plenumi sud hokimiyatiga quyidagicha ta’rif bergen: «Sud hokimiyati – bu sudning jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik

¹ Монтескье Ш.Л. Избр. произв. М., 1955. –В.290.

² Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. Т.1 – SPb., 1996. – В. 158.

va ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni O‘zR Konstitutsiyasi va qonunlarining so‘zsiz ustunligiga amal qilgan holda ko‘rib chiqish vakolatlari (yig‘indisi)dir¹.

Plenum ta’rifida sndlarning asosiy funksiyalaridan kelib chiqqan. Shu bilan birga, bizning nazarimizda, bu ta’rifni keng qamrovli hamda qonun chiqaruvchi tomonidan «sud hokimi-yati» atamasining ma’no-mazmunini to‘laligicha ochib bera ola-di deya olmaymiz. Buning isboti uchun O‘zR Oliy sudi Plenumining tushuntirishida sudning muhim funksiyasi bo‘lmish konstitutsiyaviy nazorat funksiyasi o‘z ifodasini topmaganligini aytib o‘tsa bo‘ladi. O‘zR Konstitutsiyasining 108-moddasiga ko‘ra konstitutsiyaviy nazorat funksiyasi O‘zR Konstitutsiya-viy sudi vakolatiga kiradi.

Sud hokimiyat bu – hokimiyatning alohida turi bo‘lib, u o‘z tabiatи bo‘yicha hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlaridan farq qiladi. Sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bilan birgalikda mavjud bo‘lishligi demokratik davlatning muhim belgisidir. Sud hokimiyatining davlatning boshqa tuzilmalaridan mustaqil ajralib chiqishi mazkur mamlakatning huquq ustunligi tamoyilini ko‘rsatadi, undagi erkinlik va adolat g‘oyalarni amalga tatbiq etishdagi jiddiy yutuqlari haqida guvohlik beradi. Sud hokimiyatining asosiy maqsad-vazifasi jamiyat a‘zolarini, ularning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini jamiyat boshqa a‘zolarining huquqqa xilof tajovuzlaridan, davlatni noto‘g‘ri harakatlardan asrash, himoya qilishdir. Bunday faoliyatni amalga oshirmay turib, hech qaysi davlatni huquqiy hisoblab bo‘lmaydi.

Jamiyatda vujudga keladigan nizolarning huquqqa asoslangan holda hal etilishini ta‘minlab, barcha subyektlar ning qonunga itoat qilishi hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlarini chegaralab, tiyib turishda, ularning faoliyatlarini ustidan huquqiy nazoratni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlarining faoliyatlarini Konstitutsiya-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 1-sonli Qarori. -T.: Sharq, 1997. – B.132–133.

ga qanchalik mos bo‘layotganini tekshirish, ular tomonidan Asosiy qonunga xilof ravishda chiqarilgan qonun hujatlarining amal qilishini to‘xtatib qo‘yish imkoniga ega bo‘lgan taqdirda mazkur funksiya o‘z samarasini beradi.

Mamlakatimiz Asosiy qonuni sud hokimiyati o‘z faoliyatini qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiylar, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi deb e’lon qilgan (106-modda). O‘zR Konstitutsiyasida sud hokimiyatiga alohida bob bag‘ishlangan bo‘lib, unda sud hokimiyati atamasi sud tizimining tashkil etilishiga oid, ularning faoliyat prinsiplariga oid qoidalar orqali ochib beriladi.

Sud hokimiyatining jamiyatda umume’tirof etilgan o‘rni va ahamiyatidan kelib chiqib shunday fikrga kelsa bo‘ladiki, O‘zR sud hokimiyati hokimiyatning alohida tarmog‘i bo‘lib, davlatning inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari muhofaza etish funksiyasini bajaradi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarning ma’no-mazmunini, qonunlarning qo‘llanilishini va qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyatlarning faoliyatini belgilabgina qolmasdan, sud hokimiyatining faoliyat mazmuni va mohiyatini belgilab beradi. O‘zR sud tizimi oldida davlat organlari tomonidan inson huquqlarini hurmat qilishga, abstrakt huquqiy me’yorlarni real huquq va majburiyatlarga aylantirishga, davlatning inson oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga erishishdek juda muhim masala yotibdi.

Sud hokimiyatining asosiy komponentlaridan biri bu – uni amalga oshirish maxsus davlat organlari – *sudlarga* topshirilishidir. Sud hokimiyati o‘z mansabdor shaxslari – sudyalar ning maqomi va ular faoliyatining maxsus rejimi bilan farqlanadi. Shunday qilib, *sud hokimiyati* – sud tomonidan protsessual qoidalarga qat’iy amal qilgan holda, protsessual va moddiy huquqni qo‘llash orqali o‘zining kompetensiyasiga tegishli bo‘lgan ishlarni hal etish uchiun berilgan hokimiyat vakolatidir.

So‘nggi yillar yuridik leksikonida «sud hokimiyati» atamasi mustahkam o‘rin olib, «sud» atamasi va tushunchasi bilan birgalikda keng ishlatilib kelinmoqda¹. Lekin sud hokimiyatini

¹ Бойков А.Д. Третья власть. – М.: Издательство БЕК, 1998. – В. 104.

davlat organi sifatida sud bilan birlashtirib yuborish xato bo‘lar edi. Hokimiyat bo‘lib mazkur organ qila olishi va amalga oshirishi mumkin bo‘lgan vakolati tushuniladi. Mohiyatan, bularga vakolatlar, funksiyalar kiradi; ularning ijrochisi kirmaydi.

Mazkur vakolatlar ichida ustunlik mavqeyini odil sudlovni amalga oshirish vakolati egallaydi. Odil sudlovni faqatgina sud amalga oshirishi mumkin, boshqa hech qaysi organ bu vakolatga ega emas. Bu sudning o‘ziga xos va ayni vaqtida maxsus vakolatidir. Lekin sud hokimiyati faqatgina mazkur funksiyani bajarish bilan chegaralanib qolmaydi. Bu hokimiyat o‘z ichiga qator boshqa vakolatlarni ham qamrab oladiki, bu vakolatlar ijtimoiy ahamiyati jihatidan odil sudlovni amalga oshirish vakolatidek muhimdir. Bularga:

- konstitutsiyaviy nazorat;
- davlat organlari va mansabdar shaxslarning qarorlari va harakatlarining qonuniyligi ustidan nazorat;
- hukmlar va sudning boshqa aktlarining ijrosini ta’minalash;
- sudyalar taalluqli bo‘lgan, ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqib hal etish;
- sud amaliyoti asosida amaldagi qonunchilikka sharhlar berish;
- sudlov korpusining tashkil etilishida ishtirok etish hamda sudlov hamjamiyati organlari bilan hamkorlik qilish.

Bu vakolatlarni odil sudlov bilan tenglashtirish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Lekin ularning amalga oshirilishi odil sudlovni amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning tegishlichcha amalga oshirilishiga ko‘maklashadi.

Sud hokimiyatini tashkil etuvchi, yuqorida aytib o‘tilgan vakolatlarning har birini hayotga tatbiq etish mazkur hokimiyatni amalga oshirish yuklatilgan organlarni ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ijro etish uchun majburlov vositalari bilan ta’minalashga qaratilgan. Qonun, misol uchun, sud qarorlarning umummajburiyligini to‘g‘ridan to‘g‘ri belgilab qo‘ygan. U barcha fuqarolar, tashkilotlar va mansabdar shaxslardan sud tomonidan chiqarilgan hujjatlarga so‘zsiz itoat etishlarini talab etadi. Xususan, O‘zR JPK 272–274-moddalariga muvofiq, ma’lum bir jinoiy ishni ko‘rib chiqishda raislik qiluvchi sudya sud majlisida belgilangan tartibga, intizomga rioya qilmayot-

gan shaxsga tanbeh berishi mumkin. Agarda bu shaxs sudyanning talabiga bo‘ysunmasa, sudy uni sud zalidan chiqarib yuborishi mumkin. Bundan tashqari, tartib-intizomga riosa etmayotgan sud majlisi ishtirokchilari moddiy javobgarlikka tortilib, ularga jarima solinishi mumkin.

Bunday huquqlar sudyalarga faqatgina jinoiy ishlarni ko‘rib chiqishda emas, balki boshqa ishlarni ko‘rib chiqishda ham beriladi. «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 65-moddasi 3-qismida belgilanishicha: «Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha talab va buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysunishi kerak. Odil sudlovni amalga oshirishda kerak bo‘ladigan ma’lumotlar, hujjatlar va ularning nusxalari sudyalarning talablari bo‘yicha haqsiz taqdim etiladi. Sudyalarning talablari va buyruqlarini bajarmaslik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi».

Sud vakolatlari haqidagi umumlashgan bilimlar bu organlar nima bilan shug‘ullanishi mumkin va kerakligi to‘g‘risida tushuncha beradi hamda davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi muassasalar tizimida ularning tutgan o‘rni va ahamiyatini, shuningdek, hokimiyatning uchala tarmoqlari o‘zaro nisbatiga ko‘ra yo‘naltiradi. Bu haqdagi umumlashgan bilimlar hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasining keng qo‘llaniladigan va ayni vaqtda soddalashtirilgan tushunchasini aniq mazmun bilan to‘ldiradi, ya‘ni: qonun chiqaruvchi – qonun chiqaradi, ijro etuvchi – ijro etadi, sudlar esa sudlovni amalga oshiradi. Har holda, sud vakolatlari ro‘yxati «sud hokimiyati sudlovni amalga oshiradi» degan gap ostida juda keng va katta hajmli, ayni vaqtda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning faoliyatlaridan tubdan farq qiladigan faoliyat yotishi haqida guvohlik beradi.

Sud vakolatlari doirasi yana shu haqda ma’lum qiladiki, sud hokimiyati boshqa hokimiyat tarmoqlari singari muhim va mas’uliyatli ijtimoiy funksiyani bajaradi. Bularning barchasi uchala hokimiyatning tengligi va bir-birini to‘ldirishi haqida xulosa qilishga imkon beradi.

Sud hokimiyatining asosiy ikkita komponentlaridan biri, yuqorida aytib o‘tilganidek, uni amalga oshirish qonun chiqaruv-

chi va ijro etuvchi organlardan farq qiluvchi davlatning maxsus tashkil etilgan organlari – sudsida topshirilishi hisoblanadi. Bunday farq ularning o‘ziga xos vakolatlarida va tashkil etilish tartibida namoyon bo‘ladi.

Bajariladigan funksiyalar sudsida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar uchun belgilanadigan qoidalardan tubdan farq qiluvchi maxsus qoidalarga rioya qilgan holda tashkil etilishi va faoliyat yuritishni talab qiladi. Bu qoidalarning amal qiliishi sudyalarning malakali tanlovini amalga oshirish orqali ular tomonidan o‘zlariga tegishli bo‘lgan ishlarni xolisona, malakali hal etilishiga erishish, sudlov korpusiga malakasi past va axloqsiz sudyalarning kirib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun kerak. Bunday «himoya vositalari» faqatgina sud organlari uchun xosdir. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarini tashkil etish uchun qonun bunday detalli talablarni qo‘ymaydi. Ijro etuvchi hokimiyatning u yoki bu mansablariga (hatto yuqori lavozimlarga) nomzodlarga ham qonun qattiq talablar qo‘ymaydi. Sudyalardan esa yuqori malakali tayyorgarlik va mutaxassislik talab etiladi. Boisi sud xatolari konkret shaxslarning sog‘lig‘i, hayoti, erkinliklari, huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari borasida juda jiddiy, ayrimlari esa qaytarib bo‘lmas oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Sud hokimiyati organlari tashkil etilishining muhim nuqtasi bo‘lib, ularning mustaqilligini ta’minlash, har qanday tashqi va ichki (rahbariyat va yuqori turuvchi instansiylar) ta’sirlardan, aralashuvlardan chegaralab qo‘yish hisoblanadi. Buni esa qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar xususida aytib bo‘lmaydi. Ayniqsa, ijro etuvchi organlarning subordinatsiyasi, yuqori turuvchi organlarning quyi turuvchi organlarga bo‘ysunishi, rahbariy ko‘rsatmalarning majburiyligi odatiy hol hisoblanadi. Lekin yuqorida aytib o‘tilgan fikrlar sud hokimiyati bilan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasida o‘tib bo‘lmash jarlik mavjud degani emas. Ular qanchalik alohida bo‘lmashinlar, ular o‘rtasida bir-biri bilan bog‘liq, yaqin nuqtalar ham mavjud. *Masalan*, qonun chiqaruvchi organlar hamma uchun, sudsida uchun ham majburiy bo‘lgan qonunlarni chiqaradi, sudsida moliyalashtirishni, ularning ish haqi miqdorlarini tasdiqlaydi. Sud hokimiyati organlari esa, o‘zlariga

tegishli bo‘lgan vakolatlar orqali qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar faoliyati mazmuniga ta’sir etishi mumkin. Ular, misol uchun, qonunni konstitutsiyaviy emas, ijro hokimiyati organining hujjatini esa qonuniy emas deb topishga haqli. Va bu holat tegishli organlar tomonidan shunday deb topilgan hujjatlarni qayta ko‘rib chiqishga, ularni o‘zgartirishga majbur qilib qo‘yadi.

Sudning sud hokimiyati organi sifatidagi xususiyati yana shundan iboratki, uning faoliyati uchun maxsus qoidalar, protseduralar o‘rnatalgan bo‘ladi. Bu qoidalar u yoki bu ishning sudda ko‘rilishida barcha masalalarni qat’iyan tartibga solib qo‘yadi. Ularning asosiy maqsadi qonuniy va adolatlari yechim chiqarilishini ta’minlashdir. Sud hokimiyatini amalga oshirish protsedralarining bir qancha ko‘rinishlari shakllangan bo‘lib, ular sudloving turlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ularga: konstitutsiyaviy, fuqarolik, xo‘jalik, jinoyat, ma’muriy sudlovlar kiradi. Bu sudlov turlarining har biri maxsus qonunchilik aktlari bilan tartibga solinadi (FPK, HPK, JPK va MJTK). Yuqorida sanab o‘tilgan sudlov turlarini va ularni tartibga solib turuvchi qonunchilik aktlarini o‘rganish oliv o‘quv yurtlarining yuqori kurslarida amalga oshiriladi, ularga maxsus o‘quv fanlari bag‘ishlangan.

2.2. Mustaqil O‘zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi

Sudlar hozirgi O‘zbekiston hududida davlatchilik atributi sifatida o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Sudlar uzoq o‘tmish – 3–3,5 ming yil avval shakllanish davrida qanday bo‘lganligi haqida ishonchli ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Umuman olganda esa, O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniy-maishiy darajasi tavsifidan, urf-odatlari va ma’naviyatidan kelib chiqib shuni aytса bo‘ladiki, sudyalik majburiyatlar hurmatga sazovor, boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan jamiyat a’zolari tomonidan amalga oshirilgan. Nizoli masalalar bo‘yicha ular tomonidan bildirilgan fikrlar, qabul qilingan qarorlar barcha uchun majburiy xarakterga ega bo‘lgan.

O'zbekiston hududida, salkam 13 asr mobaynida shariat qonun-qoidalariga asoslangan *qozilik sudlari*, xalq urf-odat me'yorlariga asoslangan *biy sudlari* amalda bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida (O'rta Osiyo Rossiya tomonidan qo'shib olinganidan so'ng) chor mustabid hukumati bu yerda Rossiya qonunchiligiga asoslanib ish yurituvchi o'zlarining sud organlarini joriy qildilar. Dastavval ular fuqarolik ishlarni hamda Rossiya fuqarolarining manfaatlari bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqqanlar. Keyinchalik esa, ularning vakolatiga barcha jiddiy nizolar to'g'risidagi hamda qonun ozodlikdan mahrum etish jazosini nazarda tutgan jinoylatlarni ko'rib chiqish kiritilgan.

Oktabr to'ntarishi sud tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi: natijada yangi sudlar va tribunallar joriy qilindi. Ular, birinchi direktivalarda belgilanganidek, o'zlarining «proletarlik ongi»ga asoslanib ishlarni ko'rib chiqqanlar. Ularga o'z faoliyatida chor Rossiyasi qonun hujjatlaridan foydalanish huquqi ham berilgan edi, basharti bu qonun hujjatlari revolutsiya manfaatlariga zid kelmasa.

Sudyalar va boshqa sud organlari, umuman, xato qilmaydigan, qat'iy qatag'onchi va hech ham shubhalanmaydigan qilib o'ylangan edi. Ularni boshqarish faqatgina umumiyoq ko'rsatmalar berish hamda aniq ishlarga to'g'ridan to'g'ri aralashish orqali amalga oshirilgan. Bunga misol qilib RKP(b) Siyosiy byurosining 1919-yili «Bosmachilarning boshliqlari to'g'risida»gi qarorini keltirsa bo'ladi.

Unda shunday deyilgan edi: «O'rta Osiyo byurosiga bosmachilarning boshliqlarini qo'ldan chiqarmaslik va ularni darhol Revtribunal sudiga topshirib jazo sifatida oliy jazoni qo'llash nazarda tutish majburiyat qilib belgilansin!».

Mazkur qaror matnidan siyosiy byuroning sud ishlariiga to'g'ridan to'g'ri aralashuvi aniq-ravshan ko'rinib turibdi; byuro tomonidan aybdorlik masalasi ham, jazo masalasi ham hal etib bo'lingan. U vaqtarda sudyalarining mustaqilligi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. 1936-yili SSSR prokurori A. Y. Vishinskiy sudni davlatning qatag'onchilik siyosatini amalga oshiruvchi organ sifatidagi rolini isbotlab beradi: «Biz

¹ Степовский Ю.И. Судебная власть: Учебное пособие. Второе издание. – М.: Дело, 2000. – Б. 55.

proletar davlatda sudyalarning «mustaqilligi» tamoyilini rad qilganimizda, biz ularning proletar davlatdan, ishchi sinfidan, umum davlat siyosatidan mustaqilligini rad etgan bo‘lamiz. Buning bilan biz davlatda umum davlat siyosatidan farqli ravishda alohida sud siyosatining mayjud bo‘lishini rad etamiz...»¹.

Qonunsizlik – kommunistik tizimning asosiy belgisi bo‘lib, u hech qaysi bir sovet muassasalarini chetlab o‘tmagan. Partiya tizimi sudlarni o‘zining yo‘lini amalga oshirishga mo‘ljallangan bir bo‘limi sifatida qaragan. Partiyaning yo‘riqlari hayotga darhol tatbiq etilgan. Shunday qilib, 1934-yil 10-iyulda SSSR TSIK tomonidan «SSSR ichki ishlar xalq komissariati va uning mahalliy organlari tomonidan tergov qilinadigan jinoyatlarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida» qaror qabul qilinadi. Qarorga muvofiq, davlatga qarshi (kontrrevolutsion boshqaruva tartibiga qarshi) jinoyatlar SSSR Oliy sudi, Ittifoq Respublikalarining Oliy sudlari, o‘lka va oblast sudlari hamda avtonom respublikalarning bosh sudlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Buning uchun SSSR va Ittifoq Respublikalarining sudlarida rais va ikkita sud a‘zosidan iborat tarkibda maxsus hay’atlar tashkil etildi. Temir yo‘l va suv transportida sodir etiladigan jinoyatlar SSSR Oliy sudining Temir yo‘l va Suv hay’atlari, yo‘nalish, temir yo‘l va suv sudlari tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak. Shuningdek, SSSR Oliy sudining Sud-nazorat kollegiyasi (hay’ati) tashkil etildi².

1935-yil 23-yanvardagi SSSR Prokurorining ko‘rsatmalarida aytishicha, kontrrevolutsiya to‘g‘risidagi ishlar «bu ishlarni sudlarda ko‘rib chiqish uchun yetarlicha hujjatlar bo‘lmasa, ular SSSR NKVD sining maxsus kengashi tomonidan muhokamaga jo‘natilishi kerak, ammo bu hol bu ishlarni mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda»³ maxsus kollegiyalarga ko‘rib chiqish uchun yuborish mumkinligini ham nazarda tutadi.

Boshqacha qilib aytganda, maxsus kengashlar bilan birgalikda maxsus kollegiyalar ham dalillarsiz sud qilishi mumkin edi. Maxsus sudlar tizimiga harbiy yo‘nalish va lager sudlari

¹ Вышинский А. Я. Судоустройство в СССР. – М.: 1936. – В. 117

² С3 СССР. 1934. №36, – В. 284.

³ Siyosiy repressidar va repressiya qurbanlarini oqlash to‘g‘risidagi qonunchilik va normativ aktlar to‘plami. – М.: 1993. – В 36.

kirgan. Bularning barchasi maxsus kollegiyalar bilan birligida maxsus kengashlarga juda yaqin bo'lgan. Ularning barchasi yopiq bo'lgan va hech bir qiyinchiliksiz o'z faoliyatini amalga oshirgan. Ularning faoliyatida umumiylit qarorlarining hal qilib bo'linganligida edi. Barcha qarorlar ayblovchi va imkonli boricha qat'iy bo'lib, o'ylab o'tirishning zarurati bo'limgan.

Qatag'onlarning tezkorligi va keskinligini maxsus kengashlar qatorida oblast NKVD boshqarmasi boshlig'i, obkom partiya sekretari va oblast prokuroridan iborat bo'lgan maxsus uchliklar ta'minlagan. 1937-yili Stalin maxsus uchliklar tashkil etish to'g'risida farmon chiqaradi. Bu uchliklar trotskistlar, shpionlar va boshqa shaxslarni otishga hukm qilishga yoki 10 yilga qamoq jazosini tayinlashga vakolatli edi. Bunday uchliklar oblast UNKVD boshlig'i – rais, partiya obkomi sekretari va oblispolkom raisi – a'zolardan iborat tarkibda faoliyat yuritgan. Uchliklar uchun «limit» belgilanar edi. *Masalan*, maxsus uchlik hech bir tergov harakatlarisiz, sudsiz minglab odamlarni otib o'ldirishi mumkin edi. Bunday uchliklarning ish tartibi quyidagicha bo'lgan: bayonnomma yoki «albom» tuzilar edi, uning har bir betida F.I.Sh., tug'ilgan yili va sodir etilgan «jinovali» yozilar edi. So'ngra oblast UNKVD boshlig'i qizil qalam bilan «R» harfini yozgan, uchlik a'zolari esa, odatda, ertasiga bu bayonnomma-albomni imzolardilar. Shuningdek, ikkiliklar, maxsus kollegiyalar va maxsus ishtirokchilar ham mavjud bo'lgan. 1937-yili 18-oktabr kunining o'zidayoq Yejov va Vishinskiydan iborat ikkilik 551 kishining ish materiallari bilan tanishib chiqib, ularning barchasini o'limga hukm qilgan. Zarurat tug'ilganda esa bunday protsedurani bajarmasa ham bo'lar edi. *Masalan*, 1941-yili ichki ishlar narkomining xati bo'yicha 25 kishi: yirik harbiy xizmatchilar, ularning xotinlari va boshqalar otib tashlangan.¹

Partiyaga «nomuvofiq» shaxslarning ro'yxatini tuzish keng tarqalgan edi. 1937–1938-yillarning o'zidayoq Stalin va Moltovlar tomonidan 383ta bunday ro'yxat birinchi kategoriya bo'yicha – otib o'ldirish – tasdiqlangan edi.²

¹ Qarang.: Московские новости. 1988. № 19, 48; Лит. газ., 1988. 20 апр.

² Стенографич. Отчет XXII Съезда КПСС. Т. 3, 1 52; 215–216-betlar.

Stalining qonli qonunsizligi, huquqning elementar qoidalariga rioya etmaslik nimaligini 30–50-yillarda O‘zbekiston xalqi o‘zining buyuk va ilg‘or vakillarini yolg‘on ayblovlar va ko‘rsatmalar tufayli yo‘qtoganda bildi. «Kontrrevolutions jinoyatlar» to‘g‘risidagi ishlarning tergovi bir tomonlama, ishning haqiqiy holatlarini hisobga olmagan, fuqarolarning himoyaga bo‘lgan huquqini poymol qilgan holda olib borilgan.

Bunday ishlarning aksariyat qismini «soviet hokimiyatini ag‘darishga, unga qarshi chiqishga da’vat etuvchi» targ‘ibot-tashviqot qilganlik jinoyatlari tashkil etgan. Bunda moddaning dispozitsiyasi asossiz keng qamrovli ifodalani, natijada fuqarolarning tanqidiy fikrlari, qarashlari hatto askiyalari, kulgi-hazillari uchun noqonuniy ravishda javobgarlikka tortilib ketishiga sabab bo‘ldi. Misol uchun, oddiy fuqaro magazinda yumshoq non bo‘lmajanligi tufayli o‘zining fikrini bildirganlik uchun yoki Germaniya kuchli dushman ekanligini e’tirof etganligi uchun 10 yilga qamalib ketishi yoki bo‘lmasa, otolib ketishi mumkin edi. Masalan, 28.10.1937-yili O‘zSSR NKVD qoshidagi uchlik tomonidan A.Boymirzayev, N.Muradov, N.Saidmuradovlar o‘lim jazosiga, N.Shadmanov, R.Kurbanov va Sh.Mo‘minovlar esa uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgandi. Ularga kolxozchilar ichida kontrrevolutions targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borganlikda ayb e’lon qilingandi. Ishni o‘rganib chiqish natijasida ma’lum bo‘lishicha «kontrrevolutions targ‘ibot-tashviqot ishlari» xizmatga yaroqsiz mehnat qurollari va kolxoz rahbariyatining noqobiligi xususidagi tanqidiy fikrlarni bildirishda namoyon bo‘lgan.

Mazkur ish Oliy sud tomonidan jinoyat tarkibi yo‘qligi tufayli bekor qilingan edi. Qiynoq va zo‘rliklar, insonni uning oddiy huquqlaridan mahrum qilish, yaqinlar va qarindoshlarni hibsga olish bilan qo‘rqtish, doimiy ruhiy tazyiq kabilar orqali kerak bo‘lgan ko‘rsatuvlar olingan.

Shunday qilib, 1938-yili 13-fevralda O‘zSSR NKVDsi qoshidagi uchlik tomonidan Denov va Sho‘rchi tumanlaridan 17 kishi o‘lim jazosiga hukm etilgan bo‘lib, ular A. Ikromov va F. Xo‘jayev tomonidan tashkil etilgan «milliy qarshilik tashkilotida» ishtirok etganlik uchun ayblangan. Ayblob esa

Hayitov degan shaxsning ko'rsatuvi lariga asoslangan edi, lekin Hayitov sud majlisida ko'rsatuvi lar qiyonoqlar ostida olinganligini aytib, ularni qaytarib oladi. Ish bo'yicha boshqa dalillar yo'q bo'lsa-da sudlanuvchilar hayotdan mahrum etildi. Hukm esa deyarli uch kun ichida ijro etilgan.¹

Boshqa misollar. 1942-yili 12-iyunda Toshkent viloyati sudi tomonidan A.Sheykneht nemis armiyasini maqtaganlik va mahbuslar ichida kontrrevolutsion tashviqotlarni olib borganlik uchun o'lim jazosiga hukm etilgan edi. Amalda esa mahbusning barcha fikrlari nemislari kuchli dushman ekanligi va ularni yengish uchun ko'p harakat qilish kerakligini aytganligidir. 1946-yili 5-mayda Farg'ona viloyati sudi tomonidan I.Razdobreyev avtobus bekatida transportning yaxshi qatnamayotganligini aytganligi uchun JKning 58-4-moddasi bilan 25-yil ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgandi. 1948-yili 6-oktabrda Toshkent viloyati sudi tomonidan G.Kachanov JKning 66-moddasi 1-qismi bo'yicha kolxozchilarning kambag'al hayoti haqida va g'arbda hayotning yaxshiroq ekanligi to'g'risida fikr bildirganligi uchun 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm etilgandi. Bunday misollarni yuzlab keltirsa bo'ladi. Bu ishlar Oliy sud tomonidan jinoyat tarkibi yo'qligi tufayli bekor qilingan².

30-40 va 50-yillarning boshlarida SSSRning nosudlov organlari tomonidan 3.778.234 kishi sudlangan bo'lib, shulardan 786.098 kishi otib o'ldirilgan edi. Ular orasida bizning vatan-doshlarimiz ham bor. Ehtimol raqamlar bundan ham ko'p bo'lgandir³.

O'zbekiston tomonidan mustaqillikning qo'lga kiritilishi, respublikada huquqiy davlatning qurila boshlanishi bilan O'zR Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan siyosiy qatag'on qurbonlarini reabilitatsiya qilish ishlari lozim darajaga ko'tarildi. Agarda 1955-1989-yillar ichida O'zbekiston Oliy sudi tomonidan kontrrevolutsion jinoyatlar bo'yicha 2850 kishi reabilitatsiya etilgan bo'lsa, so'nggi 4 yil ichida 5200 kishi oqlandi.

¹ O'zbekistonda sud islohotlari /Mualliflar jamoasi. – T.: Adolat, 2002.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. – T.: O'zbekiston, 1994. – B. 51-60.

³ SSSR Davlat Xavfsizlik qo'mitasida. Izvestiya. 1990. 13-fev.

Reabilitatsiya qilish ishlari hali ham davom etmoqda va davom etsa kerak, toki huquqlari toptalgan so‘nggi shaxs oqlanma-guncha.

Tarixning guvohlik berishicha, yaxshi qonunlardan tashqari, inson huquqlarining masifikuraviy kafolatlari – insonning qadriyatiga bo‘lgan ishonch, o‘zboshimchaliklarning har bir qurbanini haqida xotiraning saqlab qolinishi ham juda muhimdir. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi Prezident I.A.Karimovning «Qatag»on qurbanlarini xotiralash kunini belgilash to‘g‘risida»gi Farmonini yuqori baholadi. Poytaxtimizning Yunusobod tumanida O‘zR Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Shahidlar maydoni memorial kompleksining respublikamizning mustaqillik bayrami arafasida ochilishida chuqur ramziy ma’no bor. Minglab odamlar bu yerga dahshatli qonun buzilishlarning qurbanlari bo‘lgan vatandoshlarni yod olish uchun keladilar.

I.V. Stalining vafotidan so‘ng kommunistik partiya va sovet hukumatining yangi rahbariyati o‘zlarining xatolarini tan olishga majbur bo‘ldi va odil sudlovni demokratlashtirish bo‘yicha qator choralar ko‘ra boshladilar. Lekin baribir sud ijro hokimiyatiga bo‘ysunganicha qolavergan. Sudlar ustidan rahbarlikni amalga oshirish qonun bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan edi. Sudlar o‘z faoliyatlarida davlat manfaatlaridan kelib chiqqan va inson huquqlarini muhofaza qilish masalasi ikkinchi darajali edi. O‘sha yillarda sud tizimi «markaz» tomonidan umumiy yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar hamda sud ishlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri aralashish orqali boshqarilar edi. Partiya organlari konkret ishlarning ko‘rib chiqilishini o‘zlarining nazorati ostiga olar va o‘zlariga kerak bo‘lgan natijalarning qabul qilinishiga erishar edilar.

«Quloqsiz» sudyalar bilan turli usullarda kurash olib borilgan. Sudyalarning shaxsiy ishlarini partiya muhokamasiga taqdim etish, xayfsan e’lon qilish yoki bo‘lmasa partiyadan chiqarib tashlash bilan «mustaqil» sudyaning taqdiri hal qilingan.

Sudyalarning ishlariga ta’sir ko‘rsatish ko‘pgina hollarda majbur qilish, iltimoslar, u yoki bu ishni «diqqat bilan» ko‘rib chiqish haqidagi maslahatlar orqali amalga oshirilar edi va zarurat bo‘yicha oqlov hukmining yoki dalilar yetarli bo‘lmasligiga qaramasdan, ayblov hukmining chiqarilishiga sabab bo‘lar edi.

IV va prokuratura organlari katta jinoyat ishlari bo'yicha ijtimoiy fikrni shakllantirish orqali ishning natijasiga, uning hal etilishiga ta'sir qilgan. Bunday vaziyat ko'pincha ayblov oxi-rigacha isbotlanmagan, tergov bir tomonlama olib borilgan ishlarda kuzatilar edi. Turli xil tele va radio dasturlar tashkil etilib, ularda muxbirlar «mohirona ochilgan» ishlar va undagi «aybdorlarni» to'liq tasvirlash uchun barcha usul va vositalardan foydalanishgan (bular ustidan hali sud bo'lмаган bo'lsa ham). Sudyalar qonunga xilof ta'sirlarga va ruhiy tazyiqlarga qator sabablar tufayli berilgan. *Birinchidan*, sudsarning moddiy-texnik, moliyaviy va boshqa xil ta'minoti, sudyalarning esa uyjoy ta'minoti mahalliy hokimiyat qo'lida edi. *Ikkinchidan*, sudyalar partiya oldida javobgar bo'lib, ular tomonidan qabul qilingan qarorlar rahbariyatning fikriga ko'ra, partiyaning jinoyat siyosatiga to'g'ri kelishi lozim edi. *Uchinchidan*, sudyalar, agarda ular mahalliy hokimiyatga qarshi chiqsalar, keyingi muddatga saylanmay qolishdan, xizmat zinapoyasidan yuqoriga chiqmay qolishdan, yuqori lavozimga ko'tarilmay qolishdan qo'rqishar edi. Aynan shu hol O'zbekiston sudsarning Gdlyan-Ivanov guruhining qonunsizlik va o'zboshimchaliklariga yetarli qarshilik ko'rsata olmaganligiga sabab bo'lgan. 1983–1989-yillarda «paxta ishlari» bo'yicha O'zbekistonda 4,5 ming kishi javobgarlikka tortilgan edi¹.

Shaxs manfaatlari davlat manfaatlardidan keyin turgan, hukmron maskura uchun minglab insonlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bilan bir qatorda ularning hayoti ham qurban bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarda, aybdor bo'lмаган shaxslarni hatto sudda ham oqlash nihoyatda mushkul edi. 1989-yili respublika rahbariyati tomonidan «paxta ishlari»ni o'rganish bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Ko'rib chiqilayotgan har bir ishni o'rganib chiqish natijasida respublika Oliy sudi 3,5 ming kishini to'la oqladi. Bu ishlarni tekshirish shuni ko'rsatdiki, «paxta ishlari»da ayblanayotgan shaxslarning ko'rsatmalarini, dalillarini olishda, yuqorida aytib o'tilgan tergov guruhi tomonidan, qonunga xilof usullar: do'pposlash, so'kishlar, kamshitish, oila a'zolari, qavm-qarin-

¹ A.A.Polvonzoda, G.A.Abdumajidov va b. / Sud hokimiyati: islohotlar davri. –T.: Adolat, 2002. – B.156.

doshlarni, hatto sog‘lig‘i yomon bo‘lgan, ko‘p bolali onalar, keksa yoshdagilarni hibsga olinishi kabilardan foydalanilgan.

Endilikda haqiqiy milliy mustaqillik davrida odil sudlovimizning fojeali o‘tmishi ma’lum bo‘ldi. Nima bo‘lganda ham haqiqiy holatlarning ochib tashlanishi bunday voqealarning takror qaytarilmasligi uchun kuchli mafkuraviy to‘sinq bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning e’lon qilinishi bilan boshlangan jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlar sudning davlat organlari ichidagi roli va ahamiyatini qayta tushunishga olib kelishi shubhasiz. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi sud tizimining yangilanishi uchun, uning demokratlashuvni uchun turtki bo‘ldi. Birinchi darajali vazifa tarzida sudlarning qatag‘onchilik mashinasi sifatidagi rolini yo‘q qilib, uning demokratiyaning muhim belgisi bo‘lmish inson huquqlarini himoya qilishning ishonchli vositasiga aylantirish belgilandi.

Konstitutsiyaviy me’yorlar sud tizimini yaxlit belgilab beradi. Sudlarning tashkil etilishi va faoliyat tartibi maxsus qonun bilan tartibga solinadi. O‘zR Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilikning birinchi akti 1993-yili 6-mayda qabul qilingan «O‘zR Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi qonun hisoblanadi. Umumi yurisdiksiya sudlari shuningdek, xo‘jalik sudlarining faoliyati Oliy Majlis tomonidan 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «Sudlar to‘g‘risida»gi qonun orqali tartibga solingan. Mazkur huquqiy hujjatda sud tizimining tashkiliy asoslardan tashqari, huquqiy davlatning amalda bo‘lishi uchun zarur belgilar sifatida sudyalarning mustaqilligi va hech kimga bo‘ysunmasligi kafolatlari mustahkamlangan edi.

Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sud hokimiyatini shakllantirish, davlatda ijtimoiy barqarorlik va qonuniylikni ta’minalash, «O‘zR Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida», «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunlarning qabul qilinishi O‘zR sud islohoti birinchi bosqichining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ma’lumki, sudlarning tuzilishini isloh qilishning o‘zi totalitar, ma’muriy-buyruqbozlik hukm surgan, mafkura qonundan ustun bo‘lgan tuzumdan inson huquq va erkinliklari ustunligini ta’minlovchi, asl demokratik huquqiy davlatga o‘tish uchun ki-

foya qilmaydi. Buning uchun huquqiy sohada qator o'zgartirishlarni amalga oshirish, shuningdek, bir qancha yangi qonunlar qabul qilish kerak. Sudning demokratikligi, obyektivligi va barcha uchun xizmat qilishligini ta'minlash, sud himoyasi sohasini kengaytirish vazifa qilib belgilandi. Sud-huquq islohotlari oldida turgan vazifalarni hal etish maqsadida 1995-yili 30-avgustda «O'zR Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Shaxs huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yo'nalishidagi muhim qadamlardan biri bo'lib, fuqarolarni ijro etuvchi organlarning huquqqa xilof harakatlaridan himoya etuvchi «Davlat boshqaruvi organlari va mansabdar shaxslarning huquqqa xilof harakatlari ustidan shikoyat qilish to'g'risida»gi O'zR qonunining qabul qilinishi bo'ldi. Shunday qilib, sud islohotlarining borishi natijasida sud kompetentsiyasida: qonunlar va qonunosti hujjatlari bilan chegaralangan fuqarolik huquqiy va jinoiy-huquqiy ishlar sudloving chegaralanishidan tortib jahon standartlariga javob beradigan kompetentsiyaning o'rnatilishigacha muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sudlarning vakolatlari doirasining kengayishi ularning hokimiyatning alohida tarmog'i bo'lib yetishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi, bu esa ular tomonidan inson huquqlari va jamiyat huquqiy qarashlarini himoya qilishning samadarligini oshirishlariga yordam beradi.

Sud-huquq islohotlarining keyingi bosqichidagi vazifalar O'zR Prezidenti I.A. Karimov tomonidan Oliy Majlisning 2-chaqiriq 6-sessiyasida aniq belgilab berildi: «Huquqiy davlatni mustahkamlashning asosiy yo'nalishi bo'lib, sud islohotlarining chuqurlashtirilishi, butun odil sudlov tizimining hokimiyatning mustaqil uchinchi tarmog'i sifatida demokratlashuvi bo'lishi kerak. Ijtimoiy hayotimizda sudning demokratik institut sifatidagi roli yanada o'sishi kerak. Sudlov va huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyatining asosiy mazmunini fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish tashkil etishi kerak. Sud jazolovchi organ bo'lib qolmasdan, oddiy odamlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qiluvchi, haqiqatan ham mustaqil organ bo'lishi kerak».¹ Mamlakatda

¹ Каримов И.А. Важнейшие задачи углубления демократических реформ на современном этапе. – Т.: Узбекистан, 1996. – В.105–106.

demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolar tomonidan sudga nisbatan ularning huquq va erkinliklari himoyachisi sifatidagi munosabatni shakllantirish, sud yurisdiksiasi sohasini kengaytirish hamda ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashda sudning rolini oshirish maqsadida O'zR Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasida sud islohotlarining rivojlanishi to'g'risidagi Dasturni tasdiqladi.

Bozor iqtisodiyoti va erkin raqobat sharoitlarida xo'jalik munosabatlarida qonuniylikni ta'minlashni boshlagan xo'jalik sudlari tizimining tashkil etilishi ham o'zini oqladi.

Sud tizimini isloh qilishda muhim qadamlardan biri O'zR Prezidenti farmoniga muvofiq umumiyligi yurisdiksija sudlarning ixtisoslashuvi, ya'ni fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi sndlarga bo'linishi bo'ldi. Shunday tarzda quyidagilar tashkil etildi: fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar, tumanlararo sudlar; jinoiy ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari. Mazkur farmon sudyalarining keyingi ixtisoslashuviga qaratilgan bo'lib, uning qabul qilinishidan maqsad sud ishlarni o'z vaqtida va adolatli hal etilishini ta'minlash, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirishdir. 2001-yili 1-yanvardan boshlab O'zR hududida jinoiy ishlari va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar alohida-alohida faoliyat yurita boshladilar. Respublikada o'tkazilgan sndlarning ixtisoslashuvi obyektiv sabablar tufayli vujudga keladigan ilgarigi sud xatolarini va fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining buzilish hollarini bartaraf etishga imkon berdi. Hozirda sudyalar o'z ixtisosliklari bo'yicha qonunchilik va sud amaliyotini yanada chuqurroq o'rganib chiqish imkoniga ega. Bulardan tashqari, Adliya vazirligi tomonidan sudyalarini fuqarolik ishlari bo'yicha ham, jinoiy ishlari bo'yicha ham qayta tayyorlash dasturlari ishlab chiqilmoqda. Shunday ekan, Prezidentning sudlar ixtisoslashuvi to'g'risidagi mazkur farmoni, shubhasiz, sud islohotlari davomida bosilgan mutlaqo to'g'ri va katta qadamlardan biri bo'ldi. Mazkur farmon odil sudlovning asosiy vazifasi – ishlarning

qonunga to‘liq asoslangan holda ko‘rib chiqilishi, sud tomonidan adolatli qarorning chiqarilishiga ko‘maklashadi.

Sudning hokimiyatning alohida tarmog‘i sifatida mustaqilligini ta‘minlash maqsadida sud tizimini isloh qilish, odil sud-lovning sifatli va tezkor amalga oshirilishi, sud qarorlarining adolatli bo‘lishini ta‘minlash muammolari O‘zR Oliy Majlis tomonidan 2-chaqiriq 4-sessiyada «Sudlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonunning qabul qilinishiga olib keldi. Mazkur qonunning asosiy yangiliklaridan biri umumiy yurisdiksiya sndlari ixtisoslashuvining joriy etilishi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha mustaqil sndlarning tashkil etilishi bo‘ldi.

Ilk bor qonun bilan umumiy yurisdiksiya sndlarda protsessual qonunchilikning muhim institutlaridan bo‘lmish ishlarni appellatsiya tartibida ko‘rib chiqish nazarda tutildi. Bu institut xalqaro amaliyotda sinalgan bo‘lib, respublikaning yuqori sndlari tizimida qo‘llanadi.

Sud-huquq islohotidagi keyingi demokratik o‘zgarishlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari 2002-yili 29-avgustda bo‘lib o‘tgan 2-chaqiriq Oliy Majlisning 9-sessiyasida belgilab olindi. Asosiy vazifa sndlarning so‘zda emas, balki amaldagi mustaqilligini ta‘minlash bo‘lib qolmoqda. Sessiyyada ishtirok etgan, mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov: «Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, qayerdaki sudyalarining mustaqilligi ta‘minlanmasa, u yerda, odatda, qonun buziladi, u yerda adolat bo‘lishi mumkin ham emas» – deb ta‘kidlagan¹.

Sud-huquq tizimining kelgusidagi liberalizatsiyasining muhim vazifalaridan biri sudgacha bo‘lgan bosqichlarda fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilish vakolatlarini kengaytirish va avvalo qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuratura organlaridan sndlarga o‘tkazish hisoblanadi. Bu choralar fuqarolarning erkinliklari va shaxsiy daxlsizliklari bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini samarali himoya qilinishini ancha kengayishiga imkon beradi. Bu bilan u O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro huquqning umume’tirof

¹ Oliy Majlis IX sessiyasining ikkinchi chaqirig‘ida O‘zR Prezidenti I.A.Karimovning «O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari» deb nomlangan ma’ruzasi. – Xalq so‘zi, 2002-y. 30-avg.

etilgan tamoyillari va normalariga to‘la mos kelib, shaxsning huquq va erkinliklari muqaddas ekanligi hamda ularni hech kim sudning roziligesiz mahrum etishga yoki cheklashga haqli emasligida namoyon bo‘ladi.

Sud-huquq tizimini kelgusida liberallashtirish maqsadida, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq protsessual majburlov choralarini ko‘rish, sanksiya berish huquqini sudlarga bosqichma-bosqich va davomiy berilishini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolarning sud himoyasida bo‘lish huquqlarini belgilovchi 19, 25 va 44-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi 3644-sonli Farmoniga ko‘ra quyidagilar belgilangan:

– 2008-yil 1-yanvardan boshlab, jinoyat sodir etganlikda gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sud vakolatiga o‘tkazish;

– qamoqqa olish faqat qonun bo‘yicha boshqa ehtiyot choralar samara bermagan hollardagina amalga oshirilishi va faqat jinoyat ishlari yoki harbiy sudlarning vakolatlariga ko‘ra amalga oshirilishi belgilab berilgan¹.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining umumiy tavsifi

Sud tizimi deganda sudlarning kompetentsiyasi va maqsad vazifalari bo‘yicha tuzilgan majmuyi tushuniladi. O‘zR sud tizimini belgilovchi asosiy hujjat O‘zR Konstitutsiyasi hisoblana di. Uning 107-moddasida:

«O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2005-yil 8-avgust Farmoni. – Xalq so‘zi. avgust. – 2005.

fuqarolik va jinoiy ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoiy ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi¹.

Hozirgi vaqtga kelib shakllangan sud tizimini belgilashda O'zR Konstitutsiyasining 108–116-moddalarini ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu me'yorlar yuqori sudlarning, shuningdek, ularga bo'ysunuvchi quyi sudlarning umuman sud tizimida tutgan o'rmini belgilaydi. O'zR Konstitutsiyasining 108-moddasi O'zR Konstitutsiyaviy sudning maqomi belgilangan hamda uning qonunlar va boshqa hujjatlarning konstitutsiyaviyligini tekshiruvchi sud organi sifatidagi asosiy maqsad-vazifalari bayon etilgan. Bu sud o'ziga xos o'rin egallaydi. Unga hech qaysi bir sud to'g'ridan to'g'ri bo'ysunmaydi, garchi u tomonidan qabul qilingan qarorlar barcha sudlarning faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa ham.

O'zR Oliy va Oliy xo'jalik sudlari haqida Konstitutsiya ning 110 va 111-moddalarida gapirib o'tiladi. Bu sudlar o'zlarining quyi sudlariga ega bo'lib, ular ustidan nazorat olib boradi va bu sudsiga amaldagi qonunchilik bo'yicha sharhlar beradi. Hozirgi kunda sud tizimining tahvilini faqatgina Konstitutsiyaga asoslanib emas, balki qator boshqa qonunchilik aktlari: «Sudlar to'g'risida»gi qonun, «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomga asoslanib ham olib borsa bo'ladi.

Keltirilgan konstitutsiyaviy va qonunchilik me'yorlaridan kelib chiqib, odil sudlov faqatgina sud hokimiyatini tashkil etuvchi va bu vazifani amalga oshirishga vakolatli bo'lgan sud organlari tomonidan amalga oshirilishi lozimligi xususida xulosa qilsa bo'ladi. Boshqa hech qaysi davlat organlari yuqorida sanab o'tilgan vakolatlarni – odil sudlovni amalga oshirish, konstitutsiyaviy nazorat, sud qarorlari va boshqa hujjatlarining ijrosini

¹ «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2003-yil 24-apreldagi Qonun.

ta'minlashni bajara olmaydi. Sanab o'tilgan hujatlardan kelib chiqib, sudlarning majmuyini uch guruhga bo'lsa bo'ladi. *Birinchisi* guruhga O'zR Konstitutsiyaviy sudi, *ikkinchisiga* esa O'zR Oliy sudi va u nazorat qiladigan quyi turuvchi sudlar, *uchinchisi* guruhga esa Oliy xo'jalik sudi va uning nazorati ostidagi quyi turuvchi sudlar kiradi.

Sudlarning aksariyat qismi ikkinchi guruhga mansub. «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 2-bo'limida bu sudlar *umumiyyat yurisdiksiya sudlari* deb nomlanadi. Ularga O'zR Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman va harbiy sudlar kiradi. Bu sudlarning ish yurituviga sud tartibida hal etiladigan aksariyat ishlar tegishlidir. Harbiy sudlar ikkinchi guruh sudlari ichida o'ziga xos tarmoq hisoblanadi. Ularga harbiy xizmatchilarning manfaatlari bilan bog'liq ishlar tegishlidir.

Uchinchi guruhga O'zR Oliy Xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Xo'jalik sudi, shahar Xo'jalik sudlari kiradi. Mazkur guruhga rahbarlikni O'zR Oliy Xo'jalik sudi amalga oshiradi. Sud tizimini tashkiliy birlik nuqtayi nazaridan tavsiflash uchun bo'g'in tushunchasidan foydalanish kerak. Sud tizimi bo'g'ini bu – bir tipdag'i sudlarning majmuyi bo'lib, ular uyushiq vakolatlarga ega bo'ladi hamda O'zR ning ma'muriy-hududiy va milliy-davlat tuzilishini hisobga olgan holda tashkil etilgan bo'ladi.

Mazkur belgi bo'yicha umumiy sudlar uch bo'g'in sudlariga bo'linadi:

– asosiy bo'g'in – tuman (shahar), tumanlararo;

– o'rta bo'g'in – Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat va Toshkent shahar sudlari;

– yuqori bo'g'in – O'zR Oliy sudi.

Shu tarzda harbiy sudlar ham bo'linadi:

– asosiy bo'g'in – okrug va hududiy harbiy sudlar;

– o'rta bo'g'in – O'zR harbiy sudi;

– yuqori bo'g'in – O'zR Oliy sudi harbiy hay'ati.

Umumiy va harbiy sudlardan farqli ravishda Xo'jalik sudlari ikki bo'g'indan iborat:

– asosiy bo'g'in – Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyat va – Toshkent shahar Xo'jalik sudlari;

– yuqori bo'g'in – O'zR Oliy Xo'jalik sudi.

Sud tizimini sxemada quyidagicha izohlash mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-y.14.08..
PF-2682 Farmoniga 3-ilova

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

Oliy sud Plenumi

Oliy sud Rayosati

Jinoyat ishi
bo'yicha sud
hay'ati

Fuqarolik ishlari
bo'yicha sud
hay'ati

Jinoyat ishi
bo'yicha sud
hay'ati

Jinoyat ishlari
bo'yicha
Qoraqalpog'iston
Respublikasi Oliy
sudi, jinoyat
ishlari bo'yicha
viloyatlar va
Toshkent shahar
sudlari

Fuqarolik ishlari
bo'yicha
Qoraqalpog'iston
Respublikasi Oliy
sudi, fuqarolik
ishlari bo'yicha
viloyatlar va
Toshkent shahar
sudlari

O'zbekiston
Respublikasi
Harbiy sudi

Jinoyat ishi
bo'yicha tuman
sudi

Fuqarolik ishlari
bo'yicha tuman-
lararo sudlar

Okrug va hududiy
harbiy sudlar

O‘zbekiston Respublikasi umumiy yurisdiksiyasidagi sudlar tizimi

Tashkiliy tuzilishi jihatidan sudlar o‘zaro bo‘g‘in tushunchasi bilan, bajaradigan funksiyalari jihatidan esa instansiya tushunchasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Sud instansiyasi sud ishlarini hal etish bilan bog‘liq u yoki bu sud funksiyasini bajaruvchi sud (yoki uning tarkibiy tuzilmasi) hisoblanadi.

Birinchi instansiya sudi deb mazkur ish uchun asosiy bo‘lgan masalalarni mazmunan ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan sudga aytildi. Jinoiy ishlar bo‘yicha bunday masalalarga ayblanuvchi shaxsning u yoki bu jinoyatni sodir etishda aybdorligi yoki aybdor emasligi va unga qanday jazo tayinlanishi kerakligi masalasi kiradi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha ishning mohiyatini qilinayotgan da’vo asosli yoki asosli emasligi hamda buning natijasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlar xususidagi masalalar tashkil etadi.

Birinchi instansiya sudi sifatida har qanday sud, hatto oliv sudlar ham chiqishi mumkin. Barcha sudlar vakolat doirasi amaldagi qonun bilan aniq belgilangan. Apellatsiya instansiysi sudi qonuniy kuchga kirib ulgurmagan qaror va hukmlarning qonuniyligi va asoslilagini tekshirishga qaratilgan. Umumiy yurisdiksiya sululari tizimida bunday sudlar sifatida asosiy bo‘g‘in sudlariga kirmaydigan barcha yuqori turuvchi sudlar maydonga chiqishi mumkin. Apellatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ish cassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Cassatsiya instansiyasi sudi esa qonuniy kuchga kirgan hukm va qarorlarning qonuniyligini tekshiradi. Umumiy va harbiy sudlar tizimida bunday sudlar sifatida asosiy bo‘g‘in sudlaridan tashqari barcha sudlar chiqishi mumkin.

Xo‘jalik sudlarida esa bu vazifani O‘zR Oliy Xo‘jalik sudi amalgalashiradi.

«Nazorat instansiyasi» atamasi ham keng qo‘llanilib kelmoqda. Bu atama orqali sularning qonuniy kuchga kirgan hukm va qarorlarini qonuniy va asoslilagini tekshiruvchi sud bo‘linmalari belgilanadi. Umumiy yurisdiksiya sululari ichida o‘rta bo‘g‘in sululari Prezidiumlari hamda O‘zR Oliy sudi Prezidiumi va kollegiyalari bunday sudlar sifatida bo‘lishi mumkin.

Harbiy sudlar uchun bunday sudlar sifatida o‘rtal bo‘g‘in sudlari, O‘zR Oliy sudi harbiy hay’ati, xo‘jalik sudlari uchun esa – Oliy xo‘jalik sudi Prezidiumi bo‘lishi mumkin.

Yuqori turuvchi instansiya yoki Yuqori turuvchi sud deganda tegishli sudga nisbatan ancha Yuqori mavqe va maqomga ega bo‘lgan sudlar tushuniladi. «Yuqori sud instansiyasi» atamasi O‘zR Oliy sudi yoki Oliy xo‘jalik sudining nomlanishining si-nonimi hisoblanadi.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8-dekabr, 1992-y. –T.: O‘zbekiston, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni 2003-y. 24-apr.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi qonuni, 2000-y. 14-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining «Sud hokimiyati to‘g‘risida»gi 1996-yil 20-dekabr qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Bulleteni, 1997, №1 – 2.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual Kodeksi. –T.: Adolat, 1999.
- 6.»O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi 1995-y. 30-avg. Qonuni.

Maxsus adabiyotlar

1. Безнасюк А.С., Рустамов Х.У. Судебная власть: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2002.
2. Колоколов Н.А. Судебный контроль: некоторые проблемы истории и современности. – Курск, 1996.
3. Комментарий к Конституции Республики Узбекистан. – Т.: «Адолат», Академия МВД Республики Узбекистан, 1997.
4. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. – М.: 1955.
5. Петрухин И.Л. Правосудие: времена реформ. – М.: 1991.
6. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. / Под ред. проф. К.Ф. Гуценко 3-е изд. доп. и перераб. - М.: Зерцало, 1997.

7. O‘zbekiston Respublikasida Sud islohotlarini yanada rivojlantirish Dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Bulleteni, 1996, 3–4-son.

8. Расулов А. Создание и развитие советского суда в Узбекистане. –Т, Госиздат, 1957.

9. Савицкий В.М. Организация судебной власти в Российской Федерации. Учебное пособие для вузов. – М.: БЕК, 1996.

10. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическая энциклопедия /Под ред. М.Ю. Тихомирова. – М.: 1997.

11. Судебная власть: время реформ. Колл.авт. А.А.Полвонзода, Г.А. Абдумажидов и др. –Т.: Адолат, 2002.

12. Фокин В.М. Правоохранительные органы Российской Федерации: Учебник. –М.: Бытина, 2003.

Nazorat savollari

1. Hokimiyatlar bo‘linishi konsepsiyasining qisqacha mazmunini izohlab bering va uning asosiy vazifalarini aniqlang.

2. Sud hokimiyatining asosiy komponentlariga tavsif bering.

3. Qanday sud instansiyalari sizga ma’lum?

4. Ishni mazmunan ko‘rish nimani anglatadi?

5. O‘zbekiston Respublikasida qaysi sudlar va qaysi instansiya sudlari ishni mazmunan ko‘radi?

6. Ishni kassatsiya instansiyasida ko‘rish tartibiga tavsif bering. Ishlarni kassatsiya instansiyasida va birinchi instansiyada ko‘rishning o‘zaro farqi.

7. Ishni kassatsiya tartibida ko‘rishning appellatsiya tartib-dagi ko‘rishdan farqi.

III mavzu. ODIL SUDLOV TUSHUNCHASI VA TAMOYILLARI

3.1. Odil sudlov va uning demokratik tamoyillari

Odil sudlov turli nizolarni hal etish vositasi bo‘lib, jamiyat subyektlari munosabatlарини ijtimoiy tartibga soladi va bu bilan mazkur munosabatlarning huquqiy normalarga muvofiqligini ta’minlaydi. Odil sudlov davlat faoliyatining yo‘nalishlaridan biridir. Shuningdek, u sud hokimiyatining amal qilishi bilan bog‘liq muhim vakolatlar qatoriga kiradi.

«Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasiga ko‘ra «O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi» Odil sudlov bu – sud va faqat sudning faoliyati. «Sud bu – odil sudlovnинг oliy nuqtasi, uning rolini oshirish huquqiy davlat qurishning qonuniy jarayonidir»¹.

Uning bunday o‘rni va ma’nosи turli omillar bilan belgilanadi. Bunday omillarga, eng avvalo, shunday vaziyatni kiritishimiz mumkinki, odil sudlov inson va fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklari, davlat va boshqa tashkilotlarning huquqiy, qonuniy manfaatlarini amalga oshirishning eng muhim masalalari bo‘yicha qaror chiqarish bilan uzviy bog‘liq.

Aynan odil sudlov jinoyatni sodir qilishda ayblanayotgan ma’lum bir shaxsni aybdor deb topish va unga jazo chorasi yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa ta’sir choralarini tayinlash, shuningdek, noqonuniy va asossiz javobgarlikka tortilgan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish masalalarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, odil sudlov fuqarolar o‘rtasida bo‘ladigan, masalan, mehnat, oilaviy, mualliflik, ihtiyojchilik, uy-joy va ularga berilgan boshqa moddiy va moddiy bo‘lmagan huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq nizolarni hal qilishdan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni belgilab berishda shunday o‘rin egallaydi. Bundan tashqari, odil sudlov davlat

¹ Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga tobe bo‘lmaydi. T. 13. –T.: O‘zbekiston, 2005. – B.94.

va nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar o‘rtasida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish borasida kelib chiqadigan nizolar (mulkiy va boshqa)ni hal qilish usuli hamdir.

Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida qabul qilinadigan (jinoyat ishlari bo‘yicha hukmlar, fuqarolik ishlari bo‘yicha hal qiluv qarorlari va boshqalar) va yuridik adabiyotlarda ko‘pincha *odil sudlov aktlari* deb nomlanadigan, sud qarorlari qonunchilikka asosan alohida xususiyatlarga ega. Bulardan biri – umum-majburiylik. Bunday holat Konstitutsiyaning 114-moddasida belgilangan: «Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir». Bu moddaning ma’nosidan shu kelib chiqadiki, jinoyat yoki fuqarolik ishini ko‘rishda qabul qilingan qonuniy kuchga kirgan hukm, ajrim yoki qaror davlat hokimiyatining barcha organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar, boshqa jismoniylar va yuridik shaxslar uchun majburiy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududi bo‘yicha ijro etiladi. Bu borada Oliy Majlis 2-chaqiriq 6-sessiyasida «Sud va boshqa organlarning qarorlarining ijrosi to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingan.

Odil sudloving mohiyati, o‘rnii, ma’nosii, shu bilan birga, nafaqat uning huquqni muhofaza qilish faoliyatida juda mas’uliyatli yo‘nalish ekanligi, eng muhim masalalar bo‘yicha umummajburiy qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi. Unga boshqa bir qator belgilar ham xosdir.

Yuridik adabiyotlarda aytilishicha, odil sudlov bu – ikki turkumdagagi ishlari: fuqarolik va jinoyat ishlarining muhokamasidir. Birinchisi xususiy shaxslar, korxona, muassasa, tashkilotlarning keng va ko‘p qirrali nizolarni yoki qonuniy manfaatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunday turkumdagagi ishlar orasidan, qarz majburiyatidan kelib chiqadigan ishlar, tuzilgan shartnoma yuzasidan majburiatlarni bajarmaslik (masalan, biror bir mahsulotni ishlab chiqarish va yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish), noqonuniy ishdan bo‘shatish, turar-joydan majburiy ko‘chirtirish va shu kabilarni ko‘rsatish mumkin. Ikkinci turkumdagagi ishlari (jinoyat ishlari) nisbatan tor doiradagi huquqiy munosabatlar, qonun bo‘yicha, aynan jinoyat, ya’ni jinoyat

qonunchiligi bo'yicha javobgarlik nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblangan huquqiy munosabatlarga tegishlidir. Bu turkumdag'i ishlarni hal qilish juda mas'uliyatli faoliyat hisoblanadi, chunki bu yerda so'z aniq bir shaxsni jinoyatchi deb topish yoki topmaslik va unga nisbatan jinoiy jazo choralarini (*masalan*, jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum qilish) qo'lllash yoki qo'llamaslik haqida boradi¹.

Odil sudlov tushunchasini o'zlashtirishda, yuqorida ko'rsatilgan jinoyat va fuqarolik ishlari bilan birga yana bir turkum ishlar mavjudki, ular ham keng qamrovli davlat organlari, shuningdek, sudning e'tiboridan chetda qolmasligi kerakligini inobatga olish lozim. Bu ma'muriy qonunchilik va birinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksda javobgarlik nazarda tutilgan huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar (materiallar)dir.

Ma'muriy jazo choralarini ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar ham qo'llay oladi. Ular mayda bezorilik, sudga hurmatsizlik qilish, sudlarning xususiy ajrim (qaror)lari bo'yicha chora ko'rмаганлик (bunday sud qarorlarida, odatda, mansabdor shaxslarga tegishli tashkilotlarning faoliyatida qonunbazarliklar va boshqa xildagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko'rsatma berilgan bo'ladi), namoyishlar, mitinglar, yig'ilishlar o'tkazish to'g'risidagi qonunchiliklarni buzish, miliitsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik to'g'risidagi va boshqa bir qator huquqbazarliklar.

Ammo ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish va hal qilish bilan bog'liq bo'lgan sudyalar faoliyati, odatda, odil sudlov tarkibiga kiritilmaydi. U odil sudlov (sud qarorlarini va boshqa organlar qarorlarining ijrosini ta'minlash) doirasidan tashqarida bo'lgan boshqa faoliyat singari, odil sudlovdan chetdadir.

Oddiy ko'rinishda amalga oshiriladigan odil sudlov bu – sudning jinoyat va fuqarolik ishlarini birinchi instansiya, apelatsiya, kasatsiya instansiyalarida, shuningdek, yangidan ochilgan holatlar bo'yicha, nazorat tartibida, sudlanuvchilar-

¹ Гуценко К.Ф., Ковалев М.Ф Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов. 6-издание. / Под ред. К.Ф. Гуценко. – М.: Зерцало. – М., 2001. – В.57.

ning aybdorligini aniqlash, ularga jazo qo'llash yoki aybsizlarni oqlashga oid faoliyati, fuqarolik ishlari bo'yicha ishni mazmunan hal qilishda namoyon bo'ladi. Odil sudlovning maxsus ko'rinishlari bu – sudning ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha sud faoliyati, huquqbazarlikni sodir qilishda shaxs aybdorligini aniqlash bilan bog'liq faoliyat, ma'muriy jazo qo'llash yoki ish yurituvini tugatish bo'yicha faoliyat, shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning vakolat doirasida amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi¹.

Odil sudlovning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, davlatning bunday faoliyati qonunda qat'iy belgilab qo'yilgan tartib asosida amalga oshirilishi mumkin. Qonunda fuqarolik va jinoyat ishlari faqatgina sud majlisida ko'rilib, hal qilinishi belgilab qo'yilgan. Bu esa, ishni muhokama qilish va shu ish bo'yicha qaror yoki hukm chiqarish faqatgina fuqarolik protsessual qonunchiligiga amal qilingan holda amalga oshirilishi mumkinligini bildiradi. Yuqorida tartib bilan sud majlisiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish borasida paydo bo'ladigan barcha muhim savollar tartibga solinadi (sudning qonuniy tarkibini shakllantirish tartibi, sud majlisida qatnashishi kerak bo'lgan va qatnashishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini, ularning huquq va majburiyatlar, konkret harakatlarni bajarishing muttazamliligi, yig'ilish, dalillar tadqiqoti qoidalari va b.). Barcha protsessual farmoyishlar oxir-oqibatda haqiqatni aniqlash va qonuniy, asoslantirilgan, adolatli qaror qabul qilishga qaratilgan.

Odil sudlovning yana bir xususiyati uning yagona organ sud (sudya) tomonidan amalga oshirilishidir. Boshqa hech qanday organ yoki mansabdor shaxs bu faoliyatni amalga oshira olmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sud hokimiyati vakolatlarining xususiyati shuni talab qiladiki, bunda uni amalga oshiruvchi organ qonuniylik va adolatlilik manfaatlaridan kelib chiqqan holda tuzilishi va faoliyat olib borishi kerak. Sudlarning tuzilish tartibidagi o'ziga xos xususiyat va uning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi boshqa davlat muassasalari bilan o'zaro munosabatining o'ziga

¹ Рыжаков А.П. Уголовный процесс: Учебник для юридических ВУЗов. – М.: НОРМА–ИНФРА. – М., 2002. – В. 6.

xosligi ham shundan kelib chiqadi. Sud faoliyatining alohida tartibini o'rnatish, sudning obro'-e'tiborini har tomonlama oshirib borish, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi haqida qayg'urishga intilish ham aynan shundan kelib chiqadi.

Shunday qilib, *odil sudlov* bu – qonunga qat’iy rioxalari qilgan holda va qonunda belgilangan tartib asosida jinoyat va fuqarolik ishlarini muhokama qilish va hal qilish borasidagi sudning huquqni muhofaza qilish faoliyatidir.

Odil sudloving belgilari:

1) insонning huquq va erkinliklari, davlat va jamiyat manfaatlari bilan bog'liq bo'lган muhim masalalar bo'yicha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lган qarorlar qabul qilish (aybdor yoki aybsiz deb topish, da'vo talabini qanoatlantirish yoki da'vo talabini qanoatlantirishni rad etish);

2) qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarining majburiyligi – sud qarori (hukm, ajrim yoki qaror) O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha davlat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Sud qarorlarini bajarmaslik ma'lum bir davlat majburlov choralarini, hatto ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashgacha olib keladi (JPK 232-m.);

3) odil sudlov faqatgina ikki usulda amalga oshiriladi:

a) fuqaro, tashkilot, muassasa, korxonalarining huquq va manfaati bilan bog'liq nizolar bo'yicha fuqarolik sud majlislarida muhokama qilish va hal qilish;

b) jinoyat sodir qilishda aybdor bo'lган shaxslarga qonunda ko'rsatilgan jazo choralarini qo'llash yoki aybsizlarni oqlash bo'yicha jinoyat ishlarni sud majlislarida muhokama qilish;

4) odil sudlov faqat sud (sudya) tomonidan amalga oshiriladi;

5) odil sudlov jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilishning qonunda qat’iy belgilangan tartibi asosida amalga oshiriladi. Qonun odil sudlovni amalga oshirish tartibining eng muhim masalalarini belgilaydi: sudning qonuniy tarkibi; sud majlisida qatnashuvchi shaxslar; ularning huquq va majburiyatlarini va boshqalar. Shuni ta'kidlash kerakki, odil sudlov bir qator umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Umumiy ma'noda bu tamoyillarni davlatning bu turdag'i faoliyatining muhim tomonlarini belgilovchi, umumiy boshqaruvchi tamoyillari sifatida tavsiflash mumkin. Bunday yo'riqnomalar odil sudlovni tashkil qilish, uning organlarining davlat mexanizmi va jamiyatning siyosiy tizimidagi roli va o'rni bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha butun qonunchilik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu talablar, eng avvalo, davlatimizda odil sudlovni mukammallashtirish va rivojlantirish amaliyoti asosida shakllangan. Shuningdek, chet el davlatlarining tajribasini ma'lum me'yorda ular, odil sudlovni tashkillashtirish va amalga oshirishga oid savollar bo'yicha bir qator progressiv yo'riqnomalarni, ya'ni inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va fuqarolik hamda siyosiy huquqlar haqida xalqaro pakt kabi xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan xalqaro hamkorlikning tajribasini hisobga oladilar.

Bizga ma'lumki, odil sudlov demokratik asoslarining mazmuni doimo takomillashib boradi. Bu jarayon ayniqsa oxirgi yillarda jadallahdi. Bunga sabab bo'lib, ko'plar tomonidan tan olingan, davlatimizni huquqiy va demokratik davlatga aylantirish fikridir. Bu boradagi real qadam 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi xalqi o'zini jahon hamjamiyati ning bir bo'lagi sifatida anglab, bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan va umume'tirof etilgan inson va fuqaroning huquqlari hamda odil sudlovning tamoyillari yozilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini,adolatli huquqni muhofaza qilish tizimini ta'minlash borasidagi strategik masalalarining to'la amalga oshirilishi aslida shunga olib kelishi kerakki, bunda sud hokimiyati davlat hokimiyatining boshqa shakllari – ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlari singari obro'li, ishonchli va to'la huquqli bo'ladi.

Tamoyil so'zi lotincha **principium** so'zidan olingan bo'lib, asos bo'luvchi boshlanish degan ma'noni bildiradi. O'zining mohiyati jihatidan tamoyillar imperativ xususiyatga ega bo'lib,

ular davlat tomonidan ta'minlanadigan umumma jburiy farmoniyshlar xarakteriga ega. Mafkuraiy kategoriya sifatida tamoyillar ijtimoiy-siyosiy mafkuralar asosida shakllanadi. Ammo protsessual faoliyat va uning doirasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni mazkur mafkuraga asoslanuvchi tamoyillar tizimi tartibga solish vositasi bo'ladi. Mafkura huquq normalarida o'z aksini topmaguncha tamoyil bo'la olmaydi, u huquqiy ongning boshlanishi, ilmiy xulosalar bo'lib qolaveradi.

Tamoyillarning normativligi – o'ziga xos davlat huquqiy faoliyati sifatida fuqarolik va jinoyat protsessining tabiatidan ajralmas, ularning eng asosiy xususiyati hisoblanadi.

Ular inson va fuqaro, davlat organlariga qaratilgan bo'ladi. Protsessni olib boruvchi, davlat organlari belgilab qo'ygan tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatib, ularning buzilishi oqibatidagi barcha natijalar uchun javobgar bo'ladi.

3.2. Qonuniylik tamoyili

Odil sudlovning asosiy tamoyillaridan biri *qonuniylik* hisoblanadi.

Qonuniylik deganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi qoidalar, qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan normativ aktlar barcha davlat va nodavlat organlari va tashkilotlari, mansabдор shaxslari va fuqarolarning so'zsiz amal qilishi va ijro etishi tushuniladi.

Mazkur tamoyil odil sudlov uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki davlat faoliyatining bunday shakli, yuqorida ta'kidlanganidek, qonun talablariga va unda belgilangan jinoyat va fuqarolik ishlarini muhokama qilish tartibiga qat'iy rioya qilish bilan bog'liq. Qonunga rioya qilish mayjud bo'limgan joyda odil sudlov haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Bu aniqrog'i boshboshdoqlik bo'ladi. Bunday «odil sudlov» o'zining ijtimoiy vazifasini bajarishga qodir emas.

«Faqatgina qonun ustuvorligi tamoyiliga amal qilgan holdagina inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va amal qilishni ta'minlash orqaligina fuqarolik jamiyatini rivojlantirib bo'ladi», – deb ta'kidlagan edi davlatimiz Prezidenti I.A. Karimov.

mov 2002-yil 29-avgust Oliy Majlisning 2-chaqiriq IV sessiyasida.¹ Odil sudlovda qonuniylik tamoyili birinchi o'rinda sudlar tomonidan qonunlar va boshqa normativ huquqiy aktlarga amal qilinishi va ularning ijro etilishida ifodalananadi. Sud O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid keluvchi qonun va boshqa normativ aktlarni qo'llamaslikka haqli. Ma'lum bir ishni hal qilishda qo'llanilishi kerak bo'lgan normativ aktni aniqlashda, sud normativ huquqiy aktlarning yuridik kuchini inobatga olishi kerak, ular bir-biriga zid keladigan bo'lsa, yuridik kuchi yuqoriroq bo'lgan normativ aktni qo'llashi kerak.

Qonuniylik tamoyili universal tamoyil hisoblanadi, ammo odil sudlov faoliyatining muhimligi va mas'uliyatliligidan kelib chiqqan holda bunday faoliyat sohasida qonuniylik tamoyili alohida ma'no kasb etadi. *Masalan*, qonuniylik tamoyilini jinoyat protsessiga qo'llaydigan bo'lsa, bu tamoyil JPKning 11-moddasida mustahkamlangan, sudyaning, prokurorning, tergovchi, surishtiruvchi, himoyachi va jinoyat ish yurituvida qatnashadigan shaxslarning qonunga og'ishmay amal qilish talabini o'z ichiga oladi.

Jinoyat protsessida inson taqdiri hal qilinar ekan, unda qonuniylik tamoyili amal qilinishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ish holatlarini har tomonlama va xolisona baholash, har bir jinoyat ishini qonunga rioxaya qilgan holda ko'rib chiqish va hal qilish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, fuqarolarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Jinoyat protsessi surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarining faoliyati sifatida, davlatning har qanday boshqa faoliyatidan ko'ra ko'proq qonunda belgilab qo'yilgan bo'lib, busiz jinoyatlarni ochish, aybdorlarni aniqlash va ularni adolatlil jazolashning iloji bo'lmaydi. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarining mansabdor shaxslari tomonidan hujjatlar va protsessual normalarga amal qilish talabi, ularning jinoyat sudlov ishlarini yuritishdagi mavjud masalalarni hal qilish va

¹ Oliy Majlis IX sessiyasining ikkinchi chaqirig'ida O'zR Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» deb nomlangan ma'ruzasi. – Xalq so'zi, 2002-y., 30-avg.

samarali faoliyat olib borish uchun zarur shart hisoblanadi. Ammo bu organlar mansabdor shaxslari tomonidan qonun talablarining buzilishi og‘ir va ba’zi hollarda tiklab bo‘lmaydigan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarida jinoyat ishi bo‘yicha sud protsessiga jalb qilingan shaxslarning qonunda ko‘rsatilgan huquq va manfaatlari, shuningdek, ularning o‘z protsessual majburiyatlarini to‘g‘ri amalga oshirishlarini tushuntirib berish va ta’minalash majburiyati yuklatilgan.

Jinoyat sudlov ishlarini yuritishdagi qonuniylik tamoyili ning mazmuni deganda jinoyat protsessual faoliyatning har bir ishtirokchisi tomonidan barcha protsessual qonunlarga, shu jumladan, bu faoliyatning tamoyillarini shakllantiruvchi normalarga rioya qilish majburiyati tushuniladi.

Jinoyat protsessida qonuniylik tamoyili mazmunining keng ma’noda talqin etilishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlariga asoslanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2-avgust 1997-yil «Jinoyat ishlarini birinchi instansiyada ko‘rishda sudlar tomonidan protsessual qonunchilikka amal qilish to‘g‘risida»gi 12-sonli Qarorida: «Ko‘pchilik ishlar respublika sudlari tomonidan protsessual qonunga qat’iy rioya qilgan holda ko‘rib chiqiladi, ammo ishlarning hal qilinish sifatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kamchiliklar ham yo‘q emas. Qonun tomonidan ta’milangan sud jarayoni ishtirokchilarining huquqi bo‘lmish tortishuvchilik tamoyili tez-tez buzilib turadi... protsess ishtirokchilarining iltimosnomalarini qanoatlantirish asossiz ravishda rad etiladi, deyilgan. Shu bilan birga qayta qaror bilan Plenum «Jinoyat ishlarini sud muhokamasida ko‘rishda sudlar protsessual qonunchilikka qat’iy rioya qilishga e’tibor berishlari kerakligi...», «Chunki ish holatlarining har tomonlama, to‘liq va xolisona o‘rganilishi, haqiqatni aniqlash va sud jarayonining tarbiyaviy ta’siri, ularning protsessual qonunchilik talablariga qanchalik qat’iy rioya qilishiga bog‘liq...». Kassatsiya va nazorat instansiya sudlari kamchiliklarni yo‘qotishi uchun Plenum o‘z qarorida quyidagicha maslahat beradi «...Kassatsiya va nazorat tartibida ishlarni ko‘rishda birinchi instansiya sudlarining jinoyat protsessual qonunchiligiga amal qilishiga alohida e’tibor be-

rish, birorta ham qonun buzilish holatini e'tiborsiz qoldirmasdan, jinoyat ishlarining sud muhokamasida qonunchilikning qo'llanilishini tizimli ravishda tahlil qilish lozim»¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mazkur qarori jinoyat jarayonida qonuniylik tamoyilining keng qamrovli, ammo nihoyatda konkret mazmuni haqida gapirishga yo'l qo'yadi. *Qonuniylik* – keng qamrovli tamoyil bo'lib, protses-sual huquqning barcha norma va tamoyillarida o'z aksini topadi, jinoyat va fuqarolik sud yurituvining barcha tomonlarini tavsiflaydi.

3.3. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

Mazkur tamoyil O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuniga (yangi tahrirda) asosan ta'sis etilgan sudlar tomonidan amalga oshiriluvchi odil sudlovning asl mohiyatini oshib beradi. O'zbekiston Respublikasida favqulodda sudlar tuzishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasi). Ko'rيلayotgan tamoyil «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida, FPK-ning 6-moddasida va JPKning 14-moddasida o'z aksini topgan.

Jinoyat sudlov ishlari yurituviga maxsus tamoyil qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasi JPKning 12-moddasida belgilangan bo'lib, odil sudlovning asl mohiyatini oshib beradi: shaxsni jinoyat sodir qilishda aybdor deb topish, shuningdek, uni jinoi yazoga tortishni faqatgina sud o'z hukmi bilan amalga oshira oladi. Shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risida faqatgina sud qaror qabul qilish mumkin. JPKning 28-moddasiga binoan: «O'zbekistonda jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradilar».

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991–1997. Ikki tomda. I tom. Sharq, 1997. – B.242–249.

Odil sudlovnii amalga oshirish vakolati berilgan organlar doirasi aniq chegaralangan; ularga: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, xo'jalik sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi, harbiy sudlar. Bu ro'yxat qat'iy bo'lib «Davlat odil sudlovnii amalga oshirishni, faqatgina maxsus vakolatli va mutasaddi organlarga ishonib topshiradi».

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilish tamoyili eng avvalo sud muhokamasi bosqichiga taalluqli. Bu holat sud muhokamasi jarayonini eng muhim bosqichi sifatida ko'rsatib, sudni, ish yurituvini amalga oshiruvchi boshqa organlar orasidan ajratib, unga inson va fuqaro huquq va erkinliklarining kafolatlovchisi majburiyatini yuklaydi. Odil sudlovnii faqat sud tomonidan amalga oshirilish tamoyili ishni faqat birinchi instansiya sudida ko'rish bilan cheklanmaydi. Bosqichlarning har birida shu bosqichda hal qilinadigan masalalar xususiyatidan kelib chiqib odil sudlov amalga oshiriladi.

Bu tamoyil shunday bir huquqiy tartibni o'rnatadiki, bunda sud qarorlarini o'zgartirish va bekor qilishga faqatgina yuqori instansiya sudlarining jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovnii amalga oshirilishi orqali yo'l qo'yiladi. Birorta ham sud qarori har qanday davlat organi, shu jumladan, oliy davlat hokimiyyati tomonidan ham o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Bu sud hokimiyatining maxsusligi va to'liqligidan dalolat beradi. Kuchga kirgan sud qarori hamma uchun, shu jumladan, davlat oliy organlari uchun ham majburiydir.

Sudning odil sudlovnii amalga oshirishdagi o'ziga xosligi shundan kelib chiqadiki, sud faoliyati maxsus bir huquqiy tartibda amalga oshiriladi, bunda jinoyat va fuqarolik ishlarini hal qilishda shunday ustunliklarga ega bo'ladi. Davlat faoliyatining bir boshqa shaklida bunday ustunliklar mavjud emas. Bunday tartib ish bo'yicha qonuniy, adolatli qaror chiqarishning kafolati bo'lib hisoblanadi.

3.4. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi

«Sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi». **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasasi**

Har bir inson uning huquq va majburiyatlarini belgilash, unga qo‘yilgan jinoiy ayblovning asosligini aniqlash uchun uning ishi ochiq va barcha adolat talarigaga tenglik asosida amal qiligan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga ega». Inson huquqlari to‘g‘risida umumiy deklaratsiyaning 10-moddasi.

Ushbu tamoyil bir qator qonuniy aktlarda o‘z ifodasini topgan: «Sudlar to‘g‘risida»gi qonun, Jinoyat-protsessual kodeks (14-modda), Fuqarolik-protsessual kodeks (7-modda) va boshq.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida, FPK 7-moddasida va JPK 14-moddasida sudyalar va xalq maslahatchilariga o‘z huquq va majburiyatlarini mustaqil va samarali amalga oshirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berilishi belgilab berilgan. Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Hech kim sudyalar va xalq maslahatchilariga tazyiq o‘tkazish va ma‘lum bir ish qanday hal qilinishi lozimligiga ko‘rsatma berish huquqiga ega emas.

Ishning xolisona ko‘rib chiqilishiga to‘sinqlik qilish yoki noqonuniy qaror chiqarishga erishish maqsadida sudyalar va xalq maslahatchilariga har qanday ta’sir o‘tkazish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi (JPK 236-moddasi).

Shunday ekan, sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo‘ysunish tamoyili odil sudlovnii amalga oshirishda sudyalar ni har qanday tashqi ta’sirlardan himoya qiladi. Sudyalarning mustaqilligi tamoyili birovlarining aralashuvi, bosimi yoki boshqa harakatlaridan xoli tarzda sud qonunga muvofiq mas’uliyatli qarolarni chiqarishiga shart-sharoitlarni ta’minlab berishdan iborat.

Sudning mustaqilligi, odatda, ikkita asosiy elementning yig'indisidan iborat: sud hokimiyatining tashkiliy va funksional jihatdan mustaqilligi hamda sudyalarning mustaqilligi.

Sud hokimiyatining tashkiliy jihatdan mustaqilligi sudlarning ham qonun chiqaruvchi, ham ijro etuvchi hokimiyatga bo'y sunmasligi va xolislik hamda mustaqillikka ega bo'lishlari to'g'risidagi g'oyadan tashkil topgan. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari sud hokimiyati vakolatiga ega bo'lган qarorlarni qabul qilish huquqiga ega emaslar. Bundan tashqari, sudlarni moliyalashtirish, qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan, davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga markazlashgan holda amalga oshiriladi.

Sudlarni moddiy-texnika jihatdan ta'minlash hamda ularning faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratish ishlari «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'y sunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishiga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 112-modda).

Sudyalarning mustaqilligi ularning faqat qonunga bo'y sunishlari sharoitida va qonun doirasida bo'lishlari ularni tashqi va ichki omillar ta'siridan himoya qilish sharoitidagina ta'minlanadi. Qonunga bo'y sunmaydigan mustaqillik o'zboshimchalikka olib kelishi mumkin. Agar sudyalar biror bir tashkilot yoki mansabdor shaxsga tobe bo'lганlarida faqat qonunga bo'y sunish majburiyati umuman ahamiyatga ega bo'lmassi.

Sudning funksional mustaqilligi sudyalar ishlarni ko'rib chiqishlarida faqat Konstitutsiya va qonunlarga bo'y sunishlarini nazarda tutadi. Fuqarolik protsessual, jinoyat protsessual va xo'jalik protsessual kodekslarida belgilab berilgan odil sudlovni amalga oshirish jarayoni sudyalarga birovlarining fikr va talablaridan xoli ravishda ishlarni ko'rib chiqishlarini, bundan tashqari sudyalarning majlisida o'z fikr va qarashlarini bildirishlarini ta'minlab berishi kerak. Xususan, sud ma'lum bir ish bo'yicha qarorni sudyalardan tashqari boshqa hech kim

bo'lmasligi lozim bo'lgan sudyalarning maslahatxonasida qabul qiladi. Boshqa shaxslarning ishtiroki, bundan tashqari sudyalar maslahatlashuvida ko'rib chiqilgan masalalarni oshkor qilish huquqiga ega emas.

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishiga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 112-modda).

Sud jarayonining hamma bosqichlarida sudyalar ishdagi barcha holatlarni o'rghanish va dalillarga baho berish masalalarini qonunlarga amal qilgan holda o'zlarining ichki ishonchi va vijdon amri bo'yicha hal qiladilar (JPK 95-modda). Umumiy qoidaga ko'ra, sud ishida ko'rib chiqilayotgan ishdagi ayblov xulosasi, ishni ko'rib chiqish jarayonida vujudga keladigan masalalar bo'yicha tomonlarning qarashlari va ular taqdim etgan dalillariga sudning aloqasi yo'q. Shu sababli sud biror bir tomonning iltimosnomasiga yoki o'zining tashabbusiga muvofiq ishda yetishmayotgan dalillar o'rnini to'ldirish maqsadida guvoh yoki ekspertni chaqirishi mumkin. Sud (sudya) shaxsning barcha ayblari yoki ularning bir qismi isbotlangan deb hisoblamasligi mumkin va o'z ishonchidan kelib chiqqan holda ayblovni o'zgartirishi yoki sudlanuvchini oqlashi (JPK 414, 415, 462-moddalar), yangi ayblov bo'yicha yoki yangi shaxslarga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'ashi (JPK 416, 417-moddalar), ishni qo'shimcha tergov uchun yuborishi (JPK 419-modda) mumkin.

Sudyalar va xalq maslahatchilarining mustaqilligi hamda faqat qonunga bo'ysunishlari tamoyili sababli sudyalar ko'rib chiqilayotgan ish bo'yicha har qanday bирyoqlamalik va noxolisliklardan xoli bo'lishlari shart va o'z qarorlarini shunday tartibda qabul qilishlari lozimki, unda barcha sudyalarning tengligi ta'minlansin. Shu sababli ma'lum ish ko'rib chiqilayotganda sudyalarning manfaatdor yoki xolis emasligi xususida ishonchsizlik mayjud bo'lган sharoitda ular o'zlarini rad qilishlari yoki rad qilinishlari mumkin (FPK 25-modda, JPK 76-modda), bundan tashqari, ular ishtirokida oldin ko'rib chiqilgan ishni ko'rib chiqishda qayta ishtirok eta olmaydilar (FPK 27-modda, JPK 76-modda, 3-qism). Sudyalar qarorlarni oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan qabul qiladilar, bunda raislik qiluvchi xalq maslahatchilariga ta'sir o'tkazmaslik maqsadida

hammadan keyin ovoz beradi (FPK 14-modda, JPK 460-modda). Sudyalar majlisida faqat shu ish bo'yicha sudyalar tarkibiga kiruvchi sudyalargina ishtirok etishlari mumkin.

Sudyalarning mustaqilligi tamoyili ular jinoyat ishlarini o'zboshimchalik bilan, o'z ixtiyorlariga ko'ra ko'rib chiqishlari va nazoratsiz bo'lishlarini anglatmaydi. Yuqori turuvchi sudlar qonunga muvofiq ravishda hukmlarni tekshirish huquqiga egalar. Biroq kassatsiya va nazorat instansiyalari hukmni bekor qilib va ishni sudda qaytadan ko'rib chiqishga yuborganda, sudyalar chiqaradigan xulosalarni oldindan belgilab berish va o'z qarorlari bilan sudyalarning mustaqilligiga ta'sir qilish huquqiga ega emaslar. (JPK 485-modda). Ishni qayta ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi nafaqat dalillarni baholash va faktlarni belgilash bo'yicha xulosalar chiqarishda, shu bilan birga, qonunlarni qo'llashda ham yuqori turuvchi suddan mustaqil hisoblanadi.

Sudyalar o'z majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida hamda xizmatdan tashqari munosabatlarida odil sudloving obro'sini, sudyalik qadr-qimmatini tushirishi yoki sudyaning xolisligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan xattiharakallardan xoli bo'lishi shart. («Sudlar to'g'risida»gi Qonun, 66-modda).

Sudyalarning mustaqilligi nafaqat ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, ularning daxlsizligi, qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi («Sudlar to'g'risida»gi Qonun, 67-modda) bilan ta'minlanadi, shu bilan birga, sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berilishi («Sudlar to'g'risida»gi Qonun, 8-bob) bilan ham ta'minlanadi.

Qonun tomonidan belgilangan tartibda sudyalarni tayinlash tartibi sudyalarni, kimga bo'lishidan qat'i nazar, hisobot berish majburiyatidan ozod qiladi, chunki odil sudlov davlat faoliyatining mustaqil va kimningdir rahbarligi yoki nazoratidan erkin bo'lgan sohasi hisoblanadi.

Ushbu ko'rib chiqilayotgan tamoyil turli bo'g'in sudlarning o'zaro munosabatlarini ham belgilab beradi. Apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari hukmni bekor qilib, ishni sudda ko'rib chiqishga yuborganlarida sudyalar chiqaradigan

xulosalarni oldindan belgilab berish va o‘z qarorlari bilan sud-yalarning mustaqilligiga ta’sir qilish huquqiga ega emaslar. U yoki bu qonunni qo’llash faqat ishni ko‘rib chiqayotgan sudinggina huquqi bo‘lib, bu faoliyat sohasi har qanday tashqi ta’sirlar uchun yopiq hisoblanadi.

Sud hokimiyatining namoyandasini bo‘lgan alohida sudyalarning mustaqilligi nufuzli va mustaqil sud hokimiyati amal qilishining asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli davlatimiz rahbari I.A. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Sud-huquq tizimining mustaqil va amaliyligini faqat quruq so‘zlarda emas, balki amalda ta’minlab berish eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Sudlarning mustaqilligi ta’minlangan sharoitdagina qonun amalga oshadi va ustuvor bo‘ladi. Shuni unutmaslik lozimki – qayerda sudlarning mustaqilligi ta’minlanmas ekan, odatda, bu yerda qonun buziladi,adolat bo‘lmaydi va bo‘lishi ham mumkin emas»¹, deb ta’kidlab o‘tdi.

3.5. Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish

«O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar».

Konstitutsiyaning 18-moddasi 1-qismi. «Xotin-qizlar va erkaklar

«Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdirlar». Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Paktning 14-moddasi.

Ushbu tamoyilga Konstitutsiyaning 18, 46-moddalari, «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasi, FPK 6-moddasi, HPK

¹ Каримов И.А. Основные направления дальнейшего углубления демократических преобразований и формирования основ гражданского общества в Узбекистане. Доклад на IX сессии Олий Мажлиса. Народное слово, 30 августа 2002.

7-moddasi va JPK 16-moddalari huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu tamoyil Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasiga ham asoslangan bo‘lib, unga muvofiq «barcha insonlar qonun oldida tengdirlar va bir xilda qonun himoyasida bo‘lish huquqiga egadir».

Barchaning sud va qonun oldida tengligi tamoyili odil sudlovni amalga oshirishda amal qilishi bilan bir qatorda ijtimoiy va davlat hayotining boshqa sohalarida ham amal qiladi. Uning mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, irqi, millati, ma’lumoti, tili, dini, yashash joyi, e’tiqodi, jamoat birlashmalari bilan munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlar ishda ishtirok etuvchi shaxsga imtiyoz berishga yoki uni kamsitilishiga, ishning borishi va natijasiga ta’sir qilishga asos bo‘la olmaydi. Bu talablar nafaqat sud bosqichlariga tegishli, balki butun ishni ko‘rib chiqish jarayoniga tegishlidir, chunki qonun me’yorlariga muvofiq sud ishining hech bir bosqichida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan belgililar fuqaroning huquqiy maqomiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi tashkiliy jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qoidalar hisoblanadi, lekin bu ular alohida mazmun kasb etmaydilar, degani emas.

Fuqarolarning qonun oldida tengligi fuqaroning irqi, millati, ijtimoiy, mulkiy va xizmat mavqeyi yoki e’tiqodidan qat’i nazar, biror bir imtiyoz berilishi yoki buning aksi – kamsitilishining oldini oluvchi yagona mulkiy va protsessual qonunlar mavjudligini bildiradi.

Shu bilan birga, nafaqat huquqlarning berilishi va ulardan foydalanish nazarda tutiladi, bundan tashqari majburiyatlarning yuklatilishi, odil sudlovni amalga oshirishni tartibga soluvchi qonuniy hujjatlarda belgilangan javobgarlikni qo‘llashni ham nazarda tutadi. Bir qator sabablarga ko‘ra o‘z huquq va manfaatlarini himoya qila olmaydigan shaxslar o‘z huquqlarini ishlata olishlari uchun ularga qonunda qo‘srimcha kafolatlar berilgan. *Masalan*, jinoyat-protsessual kodeksida voyaga yetmaganlar, soqovlar, karlar, ko‘rlar va boshqa jismoniy hamda ruhiy kamchiliklari tufayli o‘zini o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan shaxslarning ishlarida himoyachining ishtirok etishi shartligi (JPK 51-modda), sud tilini

bilmaydiganlarga tarjimon orqali ona tilidan foydalanish huquqining berilishi (FPK, 9-modda; JPK, 20-modda) nazarda tutilgan.

Sud oldida tenglik qonun oldida tenglik tushunchasidan uncha farq qilmaydi. Sud oldida tenglik u yoki bu tarzda sud oldida hozir bo'lgan fuqarolarga bir xilda protsessual huquqlar va tegishli majburiyatlar berilishini bildiradi. Aytaylik, kimdir sudga guvoh sifatida chaqirildi, u holda u kelib chiqishi, ijtimoiy ahvoli, lavozimi yoki moddiy mavqeyi, irqi va millatidan qat'i nazar, sudga kelishi va to'g'ri ko'rsatma berishi shart. Umumiy yurisdiksiya sudlarida sudni olib borish qoidalari, kim sudga javobgarlikka tortilishi, kim jabrlanuvchi, yoki fuqarolik da'vogar, kim javobgar bo'lishi va boshqalardan qat'i nazar, bir xilda amalga oshiriladi. Xo'jalik sudlari ko'rib chiqadigan ishlarning qoidalari ham bir hildir.

Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi barchaning qonunga bir xilda bo'y sunishi va qonunni buzganlik uchun bir xil jazo olishini nazarda tutadi. Jinoyat qilgan shaxslar egal-lagan mansabi, nima bilan shug'ullanishi va boshqa omillardan qat'i nazar jinoiy jazoga tortiladilar va ularga nisbatan yagona jinoyat qonuni qo'llaniladi.

Barchaning qonun va sud oldida tengligi tamoyili nafaqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga, shu bilan birga xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarga nisbatan ham tegishlidir. Qonunga muvofiq bir qator mansabdar shaxslarni: sudyalar, deputatlar va prokurorlarni javobgarlikka tortishning alohida qoidalari belgilangan. Masalan, suda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yoki O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudi Plenumining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas. Bizning nazarimizda, bunday alohida tartib fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi tamoyilining buzilishiga sabab bo'lmaydi, chunki u yuqorida ko'rsatilgan mansabdar shaxslarning qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishini istisno qilmaydi, faqat javobgarlikka tortish jarayonini tartibga soladi xolos. Yuqorida ko'rsatilgan turdag'i mansabdar shaxslar uchun alohida tartibda javobgarlikka tortishning mavjudligi ular tomonidan o'ziga xos davlat xizmatini o'tashlari sababidan taqozo bo'ladi.

Sudyalarni javobgarlikka tortishning alohida tartibi, ularning faoliyati bo'yicha tintuv o'tkazish («Sudlar to'g'risida»gi Qonun, 70-modda), Qonun chiqaruvchi palata va Oliy Majlis Senati a'zolarini hibsga olish (Konstitutsiya 88-modda) bu turdag'i shaxslarni hammaning qonun va sud oldida tengligi tamoyilining umumiy qoidalari doirasidan tashqarida bo'lishiga sabab bo'ladi, lekin deputatlar va sudyalar daxlsizliklariga kafolatlar bo'lmagan sharoitda o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarini tegishli darajada bajara olmas edilar. JPKning 1-moddasi 1-qismiga muvofiq barcha sudlar, prokuratura, tergov va dastlabki tergov organlari uchun qonunda belgilangan sud olib borish tartibi yagona hisoblanadi. Biroq JPK ayblanuvchining jismoniy va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sud olib borishning differensial tartibini belgilab beradi va shu sababli ayblanuvchilar o'z manfaatlarini himoya qilishlari uchun turli protsessual kafolatlarni nazarda tutadi. Aks holda bu fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi tamoyilidan chetga chiqish emas, uni buzish hisoblanadi.

3.6. Sud ishlarini yuritishning oshkorali

«Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq belgilangan hollardagina yo'l qo'yildi». **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasi.**

«Har bir inson unga majlisda tinglashga qonunda qo'yilgan jinoiy ayblov yoki bitor bir fuqarolik jarayonida uning huquq va majburiyatlarini belgilash ishi qonunga muvofiq tashkil etilgan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan adolatli va ochiq holda ko'rib chiqilish huquqiga ega». **Fuqarolik va siyosiy huquqlar**

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning 7-moddasi sud ishini olib borishning oshkorali tamoyilini nazarda tutadi. Ushbu moddaning mazmuniga ko'ra «oshkorlik» atamasi «sudda ishni ochiq ko'rish» iborasiga sinonim hisoblanadi. Ushbu atama FPKning 10-moddasi, XPKning 8-moddasi va JPKning 19-moddalari bilan tartibga solinadi. Uning mohiyati sud jarayonining ishtirokchisi bo'lmagan barcha fuqarolarga u yoki bu sud

ishini ko'rib chiqishda qatnashish imkonini yaratib berishdan iboratdir.

Sudda ishni ochiq ko'rish sud faoliyatini yaxshilashga xizmat qilishi, sudni kelib chiqadigan masalalarga yanada mas'uliyat bilan yondashishga majbur etishi, fuqarolarni qonunchilikni mustahkamlash ruhida tarbiyalashi, atrofdagilarga profilaktik ta'sir o'tkazishi odil sudlov ustidan jamoatchilik nazoratining o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Ochiq sud majlisi tamoyilining mohiyatidan kelib chiqib quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. *Birinchidan*, ish ishtirokchisi bo'Imagan, lekin ishni ko'rib chiqishga kelishni istagan har qanday shaxslar sud majlisida qatnashishi mumkin. Ammo bir qator istisnolar mavjud, *masalan*, sudga raislik qiluvchi sud majlisi o'tkaziladigan xona maydonining kichikligi sababli tashrif buyuruvchilar sonini cheklashi mumkin.

Ikkinchidan, sud ishida ma'lumotlarni oshkor qilish imkoniyati mavjud. Sud zalida hozir bo'lgan shaxslar sud majlisida sodir bo'ladigan hamma narsalarni yozib olish huquqiga egalar. Sud zalida foto-, kino- va video apparatlaridan foydalanish faqat ish bo'yicha raislik qiluvchining ruxsatiga ko'ra amalga oshiriladi. Zarur bo'lgan holatlarda keng oshkorralikni ta'minlash maqsadida sudga ommaviy axborot vositalarining xodimlari, jamoat birlashmalarining vakillari taklif etilishi mumkin.

Bundan tashqari, o'n sakkiz yoshga to'Imagan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek, ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etgan hollarda boshqa ishlarni ham sud tomonidan ajrim chiqarib, yopiq sud majlisida ko'rishga yo'l qo'yiladi (JPK, 19-modda). Farzandlikka olish siri va yozishmalar siri saqlanishini ta'minlash maqsadida sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan, ish sudning yopiq majlisida ko'rilihiga yo'l qo'yilishi ham mumkin (FPK, 10-modda).

Fuqarolik va jinoyat ishlari sudning yopiq holdagi majlisida ko'rib chiqish sud ishi yuritilishining barcha qoidalariga amal qilingan holda olib boriladi. Qabul qilingan qaror yoki hukmlar barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi.

3.7. Sud ishlari yuritiladigan til

«O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, Qoraqalpog'iston tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash hu-

«Har bir inson, agar u sud yuritiladigan tilni tushunmasa yoki shu tilda so'zlashmasa, unga qo'yilgan jinoiy ishni ko'rib chiqishda tarjimondan bepul foydalanish huquqiga ega». **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktning 14-moddasi, 3-qism «F» bandi.**

Ushbu tamoyilning asoslari «Sudlar to'g'risida»gi Qonun, FPKning 9-moddasi, XPK 10-moddasi va JPK 20-moddasida belgilab berilgan. Protsessual qonunchilikda yana bir qator anqliklar, qo'shimchalar hamda kafolatlar belgilangan bo'lib, ular protsessda ishtirokchilarining o'z protsessual huquqlaridan to'liq foydalanishlariga va majburiyatlarini bajarishlariga imkon yaratib beradi.

Ushbu tamoyilga muvofiq jinoyat ishlarini yuritish o'zbek tilida, Qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. (JPK 20-modda). Sud yuritiladigan tilni bilmaslik tomonlarni ishda ishtirok etishlariga to'siq bo'lmaydi. Har bir tomon tarjimon xizmatidan foydalaniishi mumkin.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o'zining 1996-yil 20-dekabrdagi «Himoyalanish huquqini ta'minlab beruvchi qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi qarorida «gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va advokatning huquqlarini ularning sud yuritilayotgan tilni bilmashi bilan bog'liq har qanday cheklashlar va ularga protsessning har qanday bosqichida o'zona tillaridan foydalanishlarga zamin yaratib bermaslik jinoyat-protsessual qonun normalarini jiddiy buzish hisoblanadi»¹, deb ta'kidlab o'tgan. Ish yuritilayot-

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Qarorlari to'plami 1991–1997. Ikki tomda. I tom. Sharq, 1997 – B.242–249.

gan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o'zlarining ona tilida yoki o'zlar biladigan boshqa tilda og'zaki yoxud yozma arz qilish, ko'rsatma va tushuntirishlar berish, iltimosnomalar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi (JPK, 20-modda).

Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amal qilishi sud yuritilayotgan tilni bilmaydigan barcha ish ishtirokchilarining huquq va milliy manfaatlarini kafolatlaydi. Xususan, JPKning 20-moddasiga muvofiq ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari ularning ona tiliga yoxud ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim.

Sud yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishda ishtirok etuvchilarga tarjimon xizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlangan. O'z navbatida, tarjimon ishni ko'rib chiqishda o'z vazifalarini to'g'ri va to'liq bajarishi shart. Ushbu majburiyatlari bajarmaslik hatto jinoiy javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi ham mumkin. Ayblanuvchi (gumon qilinuvchi, sudlanuvchi)ga ko'rsatiladigan tarjimon xizmatlari barcha holatlarda bepul amalgalashiriladi.

Huquqni himoya qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari protsess ishtirokchilariga ular tarjimondan foydalanish, o'z ona tilida yoki yaxshi biladigan boshqa tilda so'zlash va ko'rsatma berish huquqlarga ega ekanliklarini tushuntirib berishlari shart. Bundan tashqari, sud yuritilayotgan tilni tushunmaydigan shaxslarga dastlabki so'roq va dastlabki tergovda hamda sud jarayonida himoyachining ishtirok etishi ta'minlanishi shart.

Sudda yuritiladigan til tamoyili sudlovning fuqarolarga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi, ish ishtirokchilarining millatidan qat'i nazar, ularning qonun va sud oldida tengligini kafolatlaydi, ishni har tomonlama, to'liq va xolis ko'rib chiqishga imkon beradi, protsessning oshkora bo'lishini ta'minlaydi, manfaatdor shaxslarga o'z huquq va manfaatlarni himoya qilishlari uchun qonunda ko'zda tutilgan himoya vositalaridan foydalanish imkonini beradi. Sud ishlari yuritiladigan til qoidalarini buzish ish bo'yicha chiqarilgan hukm va boshqa protsessual qarorlarning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

3.8. Sud himoyasida bo‘lish huquqining ta’minlanishi

«Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi ka- folatlanadi». **O‘zbekiston**

«Har bir inson o‘zining konstitutsiyaviy va qonuniy huquqlari buzilgan holatlarda bu huquqlarini vakolatli milliy sudlari himoya qilish huquqiga ega». **Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasining 8-moddasi.**

Bundan tashqari, sud himoyasida bo‘lish huquqi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Paktning 9-moddasi va Inson huquqlari va asosiy erkinliklarining himoyasi to‘g‘risida Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi, 1-qismida ham belgilab berilgan. Yevropa Konvensiyasini qo‘llash amaliyoti sud himoyasida bo‘lish huquqi fuqarolik huquqi va majburiyatlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ommaviy huquqning qo‘llanishini ko‘zda tutgan barcha protsessual harakatlarni o‘z ichiga qamrab olishiga guvohlik beradi.

Konstitutsiyaning 44-moddasida belgilab berilgan holat bir qator qonuniy aktlarda, xususan 1995-yil 30-avgustdagি O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan harakatlar, qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risi»dagi Qonunida aniqlashtirilib berilgan.

Huquq va erkinliklari sud himoyasida bo‘lishi barcha uchun kafolatlanadi. Ushbu huquq o‘z huquqlarini shaxsan, advokat yoki boshqa qonuniy himoyachi orqali himoya qilishi mumkin bo‘lgan har qanday jismoniy shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. Sud himoyasida bo‘lish huquqi yuridik yordamdan foy-dalanish huquqi bilan chambarchas bog‘liq, chunki qonunchilikni, uni qo‘llash amaliyotini, sudda ish yuritish tajribasini bilmasdan turib sud himoyasida bo‘lishni samarali amalga oshirilishini ta’minlash mumkin emas. Bunday sifatlarga yuridik kasbga ega bo‘lgan shaxslargina ega bo‘ladi. Sudda himoyalani-shi lozim bo‘lgan shaxslarga aynan ular tomonidan yordam ko‘rsatilishi lozim.

Qonunning buzilishiga, vakolatlar doirasidan chiqish yoki birovning huquqlari kansitilishiga sabab bo‘luvchi barcha harakatlar

va qarorlarga nisbatan ham sudga shikoyat qilish mumkin. Bundan tashqari, nafaqat konstitutsiyaviy huquqlar, balki barcha qolgan huquq va erkinliklar ham sud himoyasida hisoblanadi. Sudga nafaqat Konstitutsiyada kafolatlangan huquqlar bo'yicha shu bilan bir qatorda, qonun yoki shartnomada belgilangan huquqlarni himoya qilish uchun ham murojaat qilish mumkin.

Biroq shikoyat qilish tartibi jinoyat sudlov ishlarini yuritisha da JPKning qoidalariga muvofiq belgilanadi, ya'ni sudgacha bo'lган bosqichda so'roq olib boruvchi, tergovchining noqonuniy harakatlari ustidan shikoyatlar nazorat qiluvchi yoki yuqori turuvchi prokurorga beriladi. Surishtiruvchi, tergovchilar va prokurolarning fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini chekllovchi harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishning tartibini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, fuqarolar noqonuniy qo'zg'atilgan jinoiy ish yoki jinoyat ishni qo'zg'atishni rad qilish, tintuv, hibsga olish, jazo turini tanlash va boshqalar ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Buzilgan huquqning xarakteriga muvofiq himoya tegishli konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy va xo'jalik sud ishlari tartibida amalga oshirilishi mumkin.

3.9. Aybsizlik prezumpsiysi

«Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi».

«Jinoyat qilganlikda ayblanayotgan har bir inson uning aybi qonuniy tartibda, oshkora holda va unga himoyalanish uchun imkoniyatlar berilgan sharoitda sud muhokamasida belgilab berilmaganiga qadar aybsiz deb hisoblanish huquqiga ega». **Inson huquqlari**

Aybsizlik prezumpsiysi (lotincha Praesumptio – taxmin, gumon so'zidan olingan) – shaxs huquqlari himoyasini ta'minlab beruvchi, asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining muhim demokratik tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tamoyil faqat jinoyat sudlov ishlarini yuritishda amal qiladi va JPKning 23-moddasi, 1-qismi va «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 10-moddasi, 2-qismida bat afsil belgilab berilgan.

Aybsizlik prezumpsiyasining tamoyili inson huquqlari bo‘yicha nufuzli xalqaro hujjatlarning qoidalalariga ham muvofiq keladi: Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (11-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt (14-modda), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarining himoyasi to‘g‘risida Yevropa Konvensiyasi (6-modda, 2-qism).

Aybsizlik prezumpsiyasining asosida umumiyligi, keng e’tirof etilgan axloq normasi yotadi, unga muvofiq har bir kishi aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz deb gumon qilinishi lozim.

Aybsizlik prezumpsiyasi suda, tergovchi yoki prokuroring shaxsiy fikrini bildirmaydi, xolis huquqiy holatni anglatadi. Tergov organlari shaxsga ayb qo‘yish bilan uni *ayblanuvchi* deb hisoblaydilar, lekin hali uning aybdorligini isbotlash lozim. Qonunga muvofiq shaxsning aybdorligini belgilash ayblanuvchining qonuniy huquq va manfaatlari hamda ayblov daililarining tekshirilishi samarali darajada kafolatlanadigan sud bosqichida ishni ko‘rib chiqish orqali amalgalash oshirilishi kerak. Ayblanuvchi ayblov hukmining e’lon qilinishi va uning qonuniy kuchga kiradigan vaqtgacha *aybsiz* hisoblanadi. Aybsizlik prezumpsiyasi isbotlanishi mumkin bo‘lmagan barcha gumonlar ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning foydasiga hal bo‘lishi kerak, ya’ni birovning jinoyat qilganlikda aybdorligi isbotlanmasligi uning aybsizligi isbotlanganligiga tengdir.

Odil sudlovni amalgalash oshirishning ushbu konstitutsiyaviy tamoyili ayblanuvchining jinoyat protsessi va boshqa barcha ijtimoiy munosabatlaridagi huquqiy maqomini belgilab beraidi. Ayblanuvchi bo‘yicha sudning hukmi qonuniy kuchga kirmaguncha, agar u qamoqda bo‘lsa ham uning mehnat, oilaviy va boshqa huquqlari va erkinliklari saqlanib qoladi.

Umuman, ushbu konstitutsiyaviy me’yor sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirmaguncha, kim bo‘lishidan qat’i nazar shaxslarga nisbatan aybdor sifatida muomala qilmaslikni taqozzo qiladi. Ammo, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning jinoyat qilganligi to‘g‘risida asosli gumon mavjud bo‘lgan holatlarda bu shaxsning ba’zi huquqlarini (erkin harakat qilish huquqini, shaxsiy erkinligini, pochta va telegrafdagisi yozishma va xabar-

larining sir tutilishini) qonunda ko‘zda tutilgan tartibda cheklash mumkin.

Aybsizlik prezumpsiyasiga muvofiq qonun chiqaruvchi ayblanuvchining aybdorligi yoki aybsizligi bo‘yicha asosli va to‘g‘ri xulosa chiqarishni ta‘minlash uchun qanday choralar ko‘rish lozimligini belgilaydi. Bu xulosadan oldin, avval dastlabki tergov jarayonida, so‘ngra sudda dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash; ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi va boshqa protsess ishtirokchilarining protsessual huquqlarini amalgaloshirishlarini ta‘minlash; ish bo‘yicha to‘plangan protsessual aktlarni to‘plangan dalillar bilan asoslash; ish holatlarini sudda sinchkovlik bilan o‘rganib chiqish va boshqalar amalgaloshirishi lozim.

Jinoyat bo‘yicha sudlov ishlarini yuritishning asosini tashkil etuvchi yuqorida ko‘rsatilgan barcha kafolatlar majmuasi sud hukmida ayblanuvchining aybdorligi to‘g‘risida to‘g‘ri xulosaga kelish uchun minimal talab etiladigan holatlar hisoblanadi. Aynan shu sababli yuqorida keltirilgan kafolatlar ta‘minlangan holatdagina isbotlashning asosiy masalasi bo‘lgan ayblanuvchining aybdorligi yoki aybsizligi qonuniy kuchga kirgan sud hukmida ta‘minlab beriladi. Qonunga muvofiq belgilangan protsessual kafolatlarga amal qilingan holda chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi jinoiy jazo berish huquqiga ega bo‘luvchi davlat va jazo olishi lozim bo‘lgan hukm qilingan shaxs o‘rtasida jinoyat-huquqiy munosabatlarini vujudga kelтирувчи yuridik fakt hisoblanadi.

Qonuniy kuchga kirgan oqlov hukmi aybsizlik prezumpsiyasiga muvofiq ayblanuvchining aybsizligini e’lon qilinganligini anglatadi.

Aybsizlik prezumpsiysi ayblanuvchini faqat asoslanmagan ayblov va jazolardan kafolatlabgina qolmaydi. Uning talablari ayblovning shubhasiz isbotlanishini va bartaraf qilib bo‘lmaydigan gumanlarni ayblanuvchining foydasiga hal bo‘lishi, davlat organlari uchun ishni asosli va adolatli hal qilinishining asosiy mezoni bo‘lgan ish holatlarini xolis va beg‘araz aniqlashni taqozo etadi. Aybsizlik prezumpsiyasidan sal bo‘lsa-da chekinish odil sudlovda qonunchilikning buzilishiga va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarining buzilishiga olib keladi.

3.10. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanish huquqi bilan ta'minlash

«Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta'minlanadi. Ter-gov va sudda ish yuritishning har qanday bosqichida malakali yuri-dik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun ad-vokatura faoliyat ko'rsatadi».

Konstitutsianing 116-moddasi.

«Har bir shaxs o'ziga qo'yilgan ayblov uning ishtirokida ko'rib chiqilishiga va shaxsan o'zi yoki o'zi tanlagan himoyachi yordamida himoyalanish va uning yetarli miqdorda mablag'i bo'limganligi sababli himoyachiga ega bo'limgan taqdirda va buni sud manfaatlari taqozo etgan vaziyatlarda unga bepul himoyachi tayinlanishi va bu kabi huquqlaridan xabardor qilinish huquqiga ega». **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro**

Ushbu tamoyil Konstitutsianing 116-moddasidan tashqari «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasi va JPK 24-moddasida ham belgilab berilgan. Ushbu me'yorlarda (normalarda) jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarda nafaqat himoyalanish huquqi borligi, shu bilan birgalikda bu huquqning kafolatlanishiga alohida urg'u berilgan.

Jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida ularga bir qator huquqlar berilgan: nimada ayblanayotganliklarini bilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, dalillar bilan tanishish, tergovni olib borayotgan mansabdor yoki ayblovni quvvatlovchi shaxslar harakatlari ustidan shikoyat qilish va boshqa huquqlar.

Agar har bir ayblanuvchi ayblovchi taraf bilan tortisha olish huquqiga ega bo'lmasa, uning o'ziga qo'yilgan ayblovni rad qilish va e'tiroz bildirish huquqi shunchaki rasmiy bo'lib qolar edi. Shu sababli, birinchi marta Jinoyat protsessual kodeksining 25-moddasida sudda ishlarni yuritishda o'zaro tortishuv tamoyili o'z aksini topdi.

Himoyalanish huquqi uni amalgalashishga oshirishning kafolatlanishi bilan chambarchas bog'liq. Surishtiruvchi, prokuror va sud guman qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga ularga berilgan huquqlarni tushuntirishlari va ular qonunda ko'zda tutilgan

vositalar va usullar yordamida qo‘yilgan ayblovdan himoya-lanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rishlari shart. Ushbu mansabдор shaxslar ish materiallarini to‘la, har tomonlama va xolis o‘rganib chiqishlari, ayblovni tasdiqlovchi yoki rad qiluvchi holatlarni aniqlashlari lozim.

Ayblanuvchi o‘z huquqlarini o‘zi himoya qilishi yoki himoya-chini taklif qilishi mumkin (ba’zi holatlarda sud tomonidan tayinlangan himoyachi bo‘lishi mumkin). Bunday imkoniyat fuqaroga ayblov e’lon qilingan vaqtdan boshlab yoki u gumon qilinuvchi deb e’tirof etilganligi to‘g‘risidagi qaror e’lon qilingan paytdan yoki u ushlangan paytdan boshlab vujudga keladi (JPK 49-moddasi, 3-qism). O‘z navbatida qonun himoyachiga ham himoyasi ostida bo‘lganning qonuniy huquq va manfaatlarini faol himoya qilishi uchun keng huquqlar bergan.

Qonunda ayrim holatlarda himoyachining ishtirok etishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Xususan, voyaga yetmaganlarning ishi bo‘yicha, soqovlar, karlar, ko‘rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o‘zini o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo‘yicha; sud yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslar ishi bo‘yicha; o‘lim jazosi berilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni sodir qilganlikda ayblanayotgan yoki gumon qilinayotgan shaxslar ishi bo‘yicha; shaxslarning manfaatlari o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo‘lgan ishlar bo‘yicha; davlat yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etadigan ishlar bo‘yicha; jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etadigan ishlar bo‘yicha; sog‘lig‘ni saqlashga aloqador majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha advokatning ishtirok etishi shart hisoblanadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ishning murakkabligi yoxud boshqa holatlar sababli o‘zini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin deb hisoblagan boshqa ishlarda ham himoyachining ishtirok etishiga yo‘l qo‘yiladi.

Agar yuqorida ko‘rsatilgan holatlarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi iltimosiga yoxud roziligiga muvosiq himoyachi taklif qilinmagan bo‘lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga ko‘ra advokatlik idora-

si (byurosi), hay'ati yoki firmasining rahbari surishtiruv, tergov yoki sud jarayonida himoyachining ishtirot etishini tayinlashi shart.

Yuqorida aytilib o'tilgan va ko'plab boshqa huquqlar hamda majburiyatlar himoyalanish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Hozirgi kunda malakali yuridik yordamga muxtoj bo'lganlarni bu yordam bilan ta'minlash muhim konstitutsiyaviy holat hisoblanadi. Bunga Konstitutsiyaning 116-moddasi va boshqa qonuniy aktlar bag'ishlangan bo'lib, ular gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning jinoyat ishlari bo'yicha himoyalanish huquqlarini kafolatlaydi.

Ayrim fuqarolar o'zini himoya qilish huquqidan mustaqil ravishda foydalana olmasligi mumkin. Buning uchun nafaqat qonunni shunchaki o'qish, shu bilan birgalikda uni tushunish va izohlay olish, vujudga kelgan masalani yechish uchun zarur aktni tezda topa olish, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa organlari bilan ishlash tajribasi, ma'lum bir harakatlarning qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishini oldindan ko'ra bilish, bu kabi harakatlar kelajakda ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishini bartaraf qila olish va boshqalar talab etiladi. Bir so'z bilan aytganda, samarali yordamning ta'minlanishi uchun mutaxassis zarur. Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan qonuniy holatda aynan shu narsa nazarda tutilgan.

Mohiyatiga ko'ra yuridik yordam ko'plab harakatlarni o'z ichiga oladi: tegishli me'yoriy aktni topishda yordam berish, uning mazmunini tushuntirish, ariza, iltimosnomasi yoki boshqa hujjatni yozishda va dalil-isbotlarni tanlashda yordam berish, vujudga kelgan masalani qaysi organ samarali yechishi mumkinligini belgilash, sud yoki boshqa organda vakillik qilish, jinoyat ishida himoyachi bo'lish yoki ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan fuqaroning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va boshqalar. Ko'p yillik tajribaning ko'rsatishicha, birinchi navbatda, bu kabi faoliyatni, aynan ana shu himoya qilish maqsadida tashkil etilgan advokatura eng samarali amalga oshiradi. Ushbu sohadagi ishlarning asosiy qismi aynan advokaturaga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanish huquqi bilan ta'minlash tamoyili quydagilarni o'z ichiga oladi:

a) surishtiruvchi, tergovchi, prokuratura va sud kabi organlarning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining manfaatlarini himoya qilish hamda ularga o‘z huquqlarini tushuntirish va bu huquqlarini amalga oshirishni ta’minlab berishga qaratilgan qonunda belgilab qo‘yilgan majburiyatlar;

b) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga buzilgan manfaat va huquqlarini tiklashga, huquqlarini buzgan mansabdor shaxslarning javobgarligi masalasini qo‘yishga imkon beruvchi qonunda belgilab qo‘yilgan vositalar;

d) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi tomonidan taklif qilingan yoki tergovchi yoxud sud tomonidan belgilangan himoyachining qonunda ko‘zda tutilgan vositalar yordamida gumon qilinuvchi va sudlanuvchini (manfaatlarini himoya qiladigan himoyachi tayinlangan jamoa ham bo‘lishi mumkin) oqlovchi yoki uning javobgarligini yengillashtiruvchi holatlar ni aniqlashga bog‘liq bo‘lgan vazifalar.

Ish jarayonining barcha bosqichlarida ayblanuvchi himoyalanish huquqining subyekti hisoblanadi, lekin uning protsessual huquqlarining hajmi bir xil emas. Ayblanuvchi ayblov taraf bilan teng huquqli mavgeni egallagan sud muhokamasida bu huquqlar ancha keng bo‘ladi.

Ayblanuvchining murakkab va keng qirrali bo‘lgan himoyalanish huquqi sud, tergov organlari va prokurordan ayblanuvchining protsessual holatini belgilab beruvchi me’yorlarga rioya qilishni talab etadi.

Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi 17-sonli «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarining himoya qilish huquqini amalga oshirilishi ta’minlovchi qonunlarning sudlar tomonidan qo‘llanilishi haqida»gi qarorida «himoyalanishga bo‘lgan huquq jinoyat protsessining barcha bosqichlarida» ta’milanadi.

Qonunga ko‘ra (JPKning 24-, 64-moddalari) jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya) va davlat organlari gumonlanuvchi, ayblanuvchiga uning huquqlarini tushuntirishlari kerak hamda himoyaga bo‘lgan huquqini amalga oshirish uchun real shart-sharoitlar yaratishlari lozim.

Sudlar har bir jinoyat ishini ko‘rib chiqishda jinoyat protsessual qonunining gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudla-

nuvchini himoyalanish huquqi bilan ta'minlash to'g'risidagi talablarining surishtiruv, dastlabki tergov hamda sud muhokamasini o'tkazish davrida rioya qilinganligi sinchkovlik bilan aniqlanishi shart¹. Sudning qonuniy va asosli qaror chiqarishiga ta'sir ko'rsatgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lган protsessual normalarning jiddiy buzilishi JPK 487-moddasiga muvofiq sud qarorining bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

JPK 51-moddasiga muvofiq ham sudlov jarayonida, ham surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida advokatning ishtirot etmasligi jinoyat qonunchiligini jiddiy buzish hisoblanadi. Himoyalanish huquqi nafaqat shaxsiy manfaatlarning kafolati bo'lib, shu bilan birgalikda odil sudlov manfaatlarining ham kafolatidir. U ijtimoiy qadriyatdir. Himoyachi ixtiyorida bo'lган ayblov organlarining qarorlari ustidan norozilik bildirish, himoyasi ostidagi shaxs foydasiga dalil-isbotlar keltirish kabi keng imkoniyatlari ish holatlarini to'la va xolisona o'rganib chiqishga va u bo'yicha haqiqatni o'matishga samarali sharoitlar yaratadi.

3.11. Sudda ishlarni yuritishda tortishuv va taraflarning teng huquqliligi tamoyili

O'zaro tortishuv odil sudlovnning tamoyili (asosi) sifatida taraflarga o'zlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishlari uchun bir xil yuridik imkoniyatlarni yaratib berishdan iboradir. Sudga esa odil sudlov amalga oshiriladigan sud kengashlariga rahbarlik qilish va ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha tegishli qarorlarni chiqarish vakolati berilgan.

Boshqacha aytganda, o'zaro tortishuv nizoli huquqiy holatlarni ko'rib chiqishda taraflar va sudning funksiyalarini qat'iy ajratilib belgilab qo'ygan holda sud protsessini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Agar sud tomonidan jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish jarayonida taraflar biror bir protsessual vazifani (ayblov yoki himoya, fuqarolik da'vosi qo'llash yoki unga qarshi turish) o'zları yoki o'zları tayinlagan vakil tomonidan amalga

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi 2003-yil 19-dekabrdagi qarorlari. Toshkent, 2004.

oshirsalar va haqiqatni aniqlash yo‘lida teng huquqli ravishda bahslashishlari, dalil-isbotlarni to‘plash va taqdim etishlari mumkin bo‘lganda, odil sudlovda o‘zaro tortishuv tamoyiliga amal qilingan bo‘ladi. O‘z fikrlarini erkin bildirish, barcha dalillarni (argumentlarni) taqqoslash, babs-munozara qilish ta’minlangan sharoitdagina muammoni tegishli darajada muhokama qilish, dalil-isbotlarni tahlil qilish va o‘rganib chiqish mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birgalikda, sud qonuniy, asosli va adolatli odil sudlov hukmi chiqarilishi uchun haqiqatni aniqlashda faol ishtirot etadi, qonunda belgilangan sudlovning barcha qoidalariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlaydi.

O‘zaro tortishuv – odil sudlovning demokratiyaviyligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi, chunki uni to‘liq amalgalashirish birinchi navbatda, taraflarning teng huquqliliginiga ta’minalash, har bir taraf o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishlari uchun imkoniyat yaratib berishdan iboratdir.

Jinoyat, xo‘jalik va fuqarolik protsessual qonunchilikning bir qator qoidalarida o‘zaro tortishuv tamoyilini ko‘rish mumkin. Masalan, xo‘jalik protsessual kodeksining «Taraflar tengligi» nomli 5-moddasida o‘zaro tortishuv g‘oyasi quyidagicha ifodalangan, «xo‘jalik sudida nizolarni hal qilish tashkilotning mulkchilik shaklidan, kimga bo‘ysinishidan, qayerda joylashganlidan va boshqa holatlardan qat’i nazar, qonun va xo‘jalik sudi oldida tengligi asosiga qurilgan». Fuqarolik sudlov ishlarini yuritishda o‘zaro tortishuv FPKning «Taraflarning o‘zaro tortishuvi va teng huquqligi» nomli 8-moddasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda shunday deyilgan: «Fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning o‘zaro tortishuvi va teng huquqligi asosida amalgalashiriladi». Bu taraflar dalillarni taqdim etish va ularni o‘rganib chiqishda ishtirot etishda teng huquqlardan foydalanishlarini anglatadi.

Oshkorlik tamoyili fuqarolik protsessiga qaraganda ko‘proq jinoyat protsessiga xos bo‘lganligi sababli taraflarning o‘zaro tortishuvi tamoyili bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar har doim aynan jinoyat ishlari sohasida o‘ta muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Shuning uchun ham O‘zbekistonda sud-hu-

quq sohasini isloq qilishda taraflarning o'zaro tortishuvi tamoyilini rivojlantirish borasidagi barcha takliflar jinoyat protsessi bilan bog'liq.

Taraflarning o'zaro tortishuvi tamoyili JPK 25-moddasida qayd etilgan bo'lib, unda birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rيلayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi deyilgan. Ish sudda ko'rيلayotganda ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish vazifalari bir-biridan alohida bajarilib, aynan bir organ yoki aynan bir mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin emas.

Davlat va jamoat ayblovchilar, sultanuvchi, voyaga yetmagan sultanuvchining qonuniy vakili, himoyachi, jamoat himoyachisi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari sud majlisida taraflar sifatida ishtirok etadilar va dalillar taqdim etish, ularni tekshirishda qatnashish, iltimos bilan murojaat qilish, ishning to'g'ri hal etilishi uchun ahamiyatga molik har qanday masala bo'yicha o'z fikrlarini bildirishda teng huquqlardan foydalananadilar (JPK 25-moddasi, 3-qism).

Agar jinoyat ishlari bo'yicha protsessda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning subyektlari ustidan yuqori turishlik vakolati hamda turli xil vazifalar (funksiyalar) aynan bir davlat organining qo'lida bo'lsa, u holda jinoyat ishlarni qo'zg'atish va olib borish, ko'rib chiqish va hal qilish borasidagi faoliyat samarali bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat protsessi funksiyalarining bir-biridan ajratilishi izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Buning siyosiy va amaliy ahamiyati katta bo'lib, u jinoyat ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritishda qonunchilikning ta'minlanishiga kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Amaldagi jinoiy-protsessual qonunchilikda jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovnii amalga oshirishda qaror chiqarish funksiyasi ayblov va himoya funksiyalaridan alohidaligi aniq ifodalab berilgan. Jinoyat-protsessual qonunchilikida sudya, ayblovchi va himoyachi vazifalarini bir shaxs olib borishi mumkin emas, agar sudya ilgari ishda himoyachi, tergovchi, prokuror sifatida ishtirok etgan bo'lsa (JPK 76-modda) va prokuror ham ishda ilgari ishtirok etgan bo'lsa ularni rad qilish lozim.

Shunday qilib, taraflarning o‘zaro tortishuvi tamoyili fuqarolik da’vosini va unga qarshi e’tirozni tegishli ravishda qo‘llab-quvvatlovchi ayblov va himoya vazifalari sud faoliyatidan alohida ajratilgan va o‘z manfaatlarini himoya qilishda teng protsessual huquqlarga ega bo‘lgan taraflar tomonidan amalga oshiriladigan holda hamda sud o‘z navbatida protsess ustidan nazorat qilishi, xolislikni, beg‘arazlikni saqlashi, ishni har tomonlama, to‘liq va xolis o‘rganib chiqilishi va ishni hal qilishi ta’minlangan holda sud protsessini tashkil etishini isodalaydi (JPK 409, 412-moddalari va boshq.).

Jinoyat protsessida taraflarning o‘zaro tortishuvi tamoyili quyidagi asosiy elementlarni xarakterlaydi:

1. Ayblovning suddan ajratilishi;
2. Sudning protsessda faol, mustaqil bo‘lishi va faqat un-gagina ish bo‘yicha qaror qabul qilish huquqining berilishi;
3. O‘z vazifalarini amalga oshirishlari uchun taraflarga teng protsessual huquqlarning berilishi;
4. Ayblov va himoya vazifalarining odil sudlov vazifasidan ajratilishi va ularning bir-biridan alohidaligi.

O‘zaro tortishuv huquqini tan olish – bu o‘zaro tortishuvi taraflarning o‘zlarining talablarini asoslantirishlari hamda qarshi tarafning fikrlariga e’tiroz bildirishda bir xil vositalar va imkoniyatlardan foydalanish huquqlarini tan olish demakdir.

Davlat va jamoat ayblovchisi, sudlanuvchi, voyaga yetmagan sudlanuvchi va himoyachining qonuniy vakili hamda jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari sud ishida taraflar sifatida ishtirok etadilar va dalillar taqdim etishda, ularni o‘rganib chiqishda, iltimosnomalarini bildirishda va ishning to‘g‘ri hal qilinishi uchun muhim ahamiyat kasb etgan har qanday masala yuzasidan o‘z fikrini bildirishda teng huquqlardan foydalanadilar.

Protsessual tenglik yuqorida sanab o‘tilgan huquqlardan kengroq bo‘lib, nafaqat ishning faktik jihatlariga, shu bilan birga, ishning yuridik jihatlariga ham taalluqlidir. Ham ayblovchi, ham himoyachisi bo‘lgan sudlanuvchi sud ishida va qarorida hal qilinadigan barcha masalalar bo‘yicha, jumladan jinoyat darajasi va jazo chorasi qo‘llash bo‘yicha o‘z mulohazalari va xulosalarini bildirish huquqiga ega (JPK 53, 409, 412, 440, 449-moddalari).

Ayblovchi, sudlanuvchi, himoyachi hamda jabrlanuvchi, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillarining dalillarni taqdim etish, ularni o‘rganib chiqishda ishtirok etish va iltimosnomalarini bildirishdagi protsessual tenglik huquqlari ishni hal qilishda bir tomonlamalik va subyektivlikka qarshi kafolat bo‘lib xizmat qiladi va har bir ish bo‘yicha haqiqatning qaror topishiga kerakli shart-sharoitlarni yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o‘zining 19-dekabr 2003-yildagi 17-sonli qarorida «Sudlar o‘zaro tortishuvlik tamoyilini nazarda tutuvchi JPK 25-moddasining talablariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlashlari shart», deb ta’kidlab o‘tgan. Bundan tashqari bu tamoyil Oliy sud Plenumining 22-avgust 1997-yildagi 12-sonli «Sudlarning birinchi instansiya-da jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda protsessual qonunchilikka rioya qilishi to‘g‘risida»gi qarorida va «Himoyalanish huquqini ta‘minlab beruvchi qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorida ham o‘z ifodasini topgan¹.

Sud ishni har tomonlama, to‘la va xolisona o‘rganib chiqiliishi uchun kerakli barcha shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Sud qaysi taraf tomonidan taqdim etilishidan qat‘i nazar o‘rinsiz dalillarni ko‘rib chiqishni istisno etadi; ilgari ishni ko‘rib chiqishda istisno etilgan dalillarni o‘rganib chiqish masalasini hal qiladi; taraflarning iltimosiga muvofiq yangi dalillarni o‘rganib chiqadi; sud ishi borishi ustidan nazorat olib boradi va boshqa ishlarni amalgalash oshiradi.

O‘zaro tortishuv protsessida sud yangi ayblov bo‘yicha yoki yangi bir shaxsga nisbatan ish qo‘zg‘atishi, biror bir tarafning iltimosisiz ishni qo‘srimcha tergovga yuborishi mumkin emas, bu jihatlarni JPKda ko‘rsatib o‘tish lozim.

Prokurorning jabrlanuvchi tarafning e’tirozi bo‘limganda ayblovdan voz kechishi ishning to‘xtatilishiga olib kelishi lozim. O‘zaro tortishuvda taraflarning teng huquqliligi – haqiqatni aniqlashda, taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatini ta‘minlashda o‘ta muhim vosita hisoblanadi. O‘zaro tortishuv tamoyiliga asoslanish butun sud protsessining mazmunini belgilab beradi, hukmning huquqiy va ijtimoiy ahamiyatini oshiradi va yanada ishonchli bo‘lishini ta‘minlaydi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-1997. Ikki tomda. I tom. Sharq, 1997. – B, 132, 242

3.12. Odil sudlovnii amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroki

Zamonaviy sharoitda jamoatchilik vakillarining ishtiroki-siz jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish mumkin emas, chunki faqat ularning yordamidagina barcha jinoyatlar-ni to‘liq ochish, barcha jinoyatchilarni fosh qilish va ularga nisbatanadolatli jazoni qo‘llash, jinoyatga olib keluvchi sabab-lar va sharoitlarning oldini olish mumkin.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilik ishtirokining turli ko‘rinishlarda bo‘lishini ko‘zda tutadi. Ushbu tamoyil JPKning 21-moddasida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga muvofiq jinoyat ishi bo‘yicha tergov olib borish va ishni sudda ko‘rish chog‘ida surishtiruv-chi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat sodir etilgan holatlarni aniqlab olish, aybdorlarni qidirish va fosh etish,adolatli hukm chiqarish, shuningdek, jinoyatning sodir etilish sabablari va unga imkon bergen shart-sharoitlarni aniqlash uchun o‘z vakolatlari doirasida jamoatchilik yordamidan foydalanishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalari va jamoalarning vakillari jinoyat ishini yuritishda jamoat ayblovchilari hamda jamoat himoyachilarini tariqasida qatnashishga haqlidir (JPK 21-modda).

Jamoat ayblovchilariga va jamoat himoyachilariga jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda nisbatan keng huquqlar berilgan. Ja-moat ayblovchisi ish materiallari bilan tanishish, dalillar taqdim etish va ularni tekshirishda ishtirok etish, iltimosnama berish, taraflarning muzokaralarida so‘zga chiqib, ayblovning isbot-langani haqida sudga fikr bildirishga haqlidir. Jamoat ayblov-chisi ayblovdan voz kechishga haqli. Jamoat ayblovchisi ja-moat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilishi va ish holatlarini aniqlashga ko‘maklashishi shart. Xuddi shu huquqlarga jamoat himoyachilarini ham ega (JPK 42, 43, 44-moddalar).

Qonunchilikda jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovnii amalga oshirishda xalq vakillari sifatida xalq maslahatchilarining ishtirok etishi nazarda tutilgan. Xalq maslahatchilarini instituti O‘zbekiston odil sudlov amaliyotiga ancha yillardan buyon ma’lum (1917-yildan keyin). U o‘zining tarixi davomida bir

necha bor takomillashtirilgan, so‘nggi yillarga kelib esa xalq maslahatchilarining sustkashligi, sudga raislik qiluvchiga bo‘ysunishi va uning fikrlarini ma’qullashi sababli tanqid ostiga olinmoqda. Natijada, hozirgi kunda xalq maslahatchilar faqat qonunda ko‘rsatilgan holatlarda jinoyat ishlarni ko‘rib chiqishda ishtirot etadilar, xolos. Fuqarolik ishlarni ko‘rib chiqishda xalq maslahatchilarining ishtirot etishi ko‘zda tutilmagan (FPK 13-modda). Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq sudning tarkibi differensiatsiyalash-tirilgan. Ma’lum bir ishlarni ko‘rib chiquvchi sud tarkibini to‘g‘ri belgilash qonuniylik, vakolatlilik va sudning xolisligini ta’minlab beradi.

Hozirgi kunda jinoyat ishlari sudning quyidagi tarkibida ko‘rib chiqilishi mumkin:

– sudya yakka tartibda – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 15-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida ko‘zda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha ishlarda (ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган va qonunda ozodlikdan mahrum etishdan engilroq jazolar nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha; uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlarni qasddan sodir etish va qonunda besh yildan ko‘p bo‘lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha; ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilgan va qonunda ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha);

– bitta malakali sudya va ikkita xalq maslahatchisi – bunday tartibda ish birinchi instansiya har qanday sudda ko‘rib chiqilishi mumkin, lekin bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi mustasno;

– uchta malakali sudya – bunday tarkibda ishlarni birinchi instansiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ko‘rib chiqadi (JPK 13-modda, 2-qism).

Kassatsiya va nazorat instansiyasida hukm va boshqa qaror-larning qonuniyligi hamda asoslanganligini faqat hay’at tarkibidagina tekshirishga yo‘l qo‘yiladi. O‘rta bo‘g‘in sudlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tarkibining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lgandagina ishlarni ko‘rib chiqadi (JPK 13-modda, 6-qism). Hay’at tarkibida ishlarni ko‘rib chiqishda birinchi instansiya sudida hamda yuqori turuv-

chi sudlarda ish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar yakka tartibda qabul qilinishi mumkin emas (JPKning 13-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan holat bundan mustasno), u sud hay'atining yoki uning tarkibiga kiruvchilarning ko'pchiligining fikrini ifodalovchi xulosadan iborat bo'lishi lozim.

Qonun chiqaruvchi organ nafaqat ishlarni hay'at tarkibida ko'rib chiqish va hal qilish tamoyilining umumiyligi jihatlarini belgilash bilan chegaralanib qoladi, shu bilan birga, hay'at tarkibida ishlarni ko'rib chiqishning qanday amalga oshirilishining mazmunini, birinchi instansiya sudida, appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ishlarni ko'rib chiqishda hay'at tarkibiga kiruvchilarning sonini ham belgilab beradi. Barcha birinchi instansiya sudlarida hay'at tarkibida odil sudlovnii amalga oshirish xalq maslahatchilarini ishtirokida o'tkaziladi (O'zR Oliy sudi bundan mustasno). Ular jinoyat ishini ko'rib chiqish va hukmani chiqarishda yuzaga keladigan barcha masalalarini hal qilishda sudya huquqlaridan foydalanadi.

Xalq maslahatchilar 25 yoshga to'lgan va qonunda ko'rsatilgan boshqa talablarga javob beruvchi fuqarolar orasidan tayinlanadi. Fuqarolarga xalq maslahatchilarining vakolatlarini berish tartibi «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning (yangi tahrirdagi) 62-moddasiga muvofiq belgilab berilgan. Sud ishlarning asosiy qismi xalq maslahatchilarini ishtirokida ko'rib chiqiladi. Lekin, shunga qaramasdan bugungi kunda xalq maslahatchilarini institutidan voz kechish va sudyalarning jinoyat ishlarini yakka tartibda ko'rib chiqishdagi vakolatlarini kengaytirish masalasi muhokama qilinmoqda.

Bizning jinoyat ishlari bo'yicha sud yurituvimizda xalq maslahatchilar professional sudya bilan yagona hay'atni tashkil etadi (sheffenlar sudi kabi). Xalq vakillarining sudda ishtirok etishining yana bir ko'rinishi bu sud maslahatchilarining (присяжные заседатели – qasamyod qilgan maslahatchilar) ishtirokidir (Angliya, AQSH, Rossiya). Sud maslahatchilar xalq maslahatchilaridan ularga qonunga muvofiq berilgan huquqlar bilan ham farqlanadi (maslahatchilar o'rinnarini shakllantirish tartibi bundan mustasno). Ular o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, sud maslahatchilar faqat faktlarni belgilash kabi masalalar bo'yicha (masalan, sudlanuvchining aybdorligi yoki

aybsizligi bo'yicha, uning javobgarligini yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligini belgilash bo'yicha va boshqa.) hamda sudlanuvchining shafqatga munosib yoki munosib emasligi bo'yicha qaror (verdikt) chiqarish huquqiga ega. Hukm qilingan shaxsga jazo chorasi belgilash va ma'lum bir jinoyat ishlarni ko'rib chiqishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa bir qator muhim masalalarni (asosan huquqiy) hal qilishda sud maslahatchilari ishtirot etmaydilar. Ba'zi bir yuristlarning fikricha, ishlarni ko'rib chiqishda xalq vakillarining ishtirot etishi qoidasi sud maslahatchilari ishtirot etadigan sudda ancha to'liq o'z aksini topgan¹. Xalqning sud qilish huquqi uning qabul qilinadigan qarorlarda majburiyati borligini ham anglatadi. Xalq maslahatchilari (sheffenlar sudi) va maslahatchilar sudi – har ikkisi ham anchadan buyon ma'lum bo'lgan odil sudlovnning *model-lari* hisoblanadi. Shu sababli ham odil sudlovnvi amalga oshirishda jamoatchilik vakillarining ishtirot etishidan umuman voz kechish maqsadga muvofiq emas. Sud hay'atining barcha a'zolarining qonuniy va asoslangan qarorlarni qabul qilishda mas'uliyatlarini oshirish muammolari mavjudligi sababli bu institutning samaradorligini ta'minlab beruvchi qonunlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida fikrlash zarur. Shubhasiz, xalq maslahatchilari instituti takomillashtirilishi zarur.

Sud jarayonlarida xalq maslahatchilarining sustkashliklarini bartaraf qilish masalalarida ko'pnarsalar sudyaga va uning xalq maslahatchilari bilan munosabatlariga bog'liq. Aynan suda xalq maslahatchilarining ishda faol ishtirot etishlari, qonunlarni buzishga sabab bo'lgan holatlarni belgilashda dalillarni o'r ganib chiqishlari va baholashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim.

Shunday qilib, bizning sud tizimimiz yanada turli-tuman va samarali bo'lishi kerak va o'z tarkibiga xususan, sudyalarning yakka tartibda ish yuritish, kelishtirish sudyalari, xalq maslahatchilarining ishtiroti hamda qasamyod qilgan xalq maslahatchilarini kiritishi lozim.

¹ Qarang: prisyajniy sud to'g'risida: Истина ... и только истина! Пять бесед о судебно-правовой реформе. -М.: Юрид.лит., 1990. - Б.142-239; Николайчик В.М. Уголовный процесс США. -М.: Наука, 1981.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan jamoatchilikning odil sudlov jarayonida ishtirok etishining shakllari ushbu tamoyilning jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovnii yuritishda samarali qo‘llanilishidan dalolat beradi.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. – T.: O‘zbekiston, 2003.
2. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilishi to‘g‘risida»gi qonun 24.04.2003-y.
3. Всеобщая декларация прав человека. -Права человека. Основные международные документы.: Сб. документов. – М.: Международные отношения. 1989. -с. 134–142.
4. Международный Пакт о гражданских и политических правах. Права человека. Основные международные документы: сб. документов. – М.: Международные отношения, СЭ. -с. 35–40.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida» Qonuni, 14-dekabr 2000-y.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual Kodeksi (11,12,13,14,16,19,20,23,24,25,28-moddalar). -T.: Adolat, 1999.
7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual Kodeksi (1-4, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 16-moddalar) - T.: O‘zbekiston, 1998.
8. O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik-protsessual Kodeksi (1,2,4,5,6,7,8-moddalar) – O‘zbekistonning yangi qonunlari, 9. -T.: Adolat, 1995. – 176–178-betlar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumi «Sud hokimiyati to‘g‘risida»gi 20-dekabr 1996-y. qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Bulleteni, 1997, №1-2, 102–105-betlar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991–1997-y. Ikki tom., –T.: Sharq, 1997-y.
11. Oliy sud Plenumining №17, 19.12.2003-yil qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berishni sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi Farmoni №PF 3644. 08.08.2005.

Maxsus adabiyotlar

1. Бекари Чезария. О преступлениях и наказаниях. –М., 1995.
2. Комментарий к Конституции Республики Узбекистан. – Т.: Адолат, Академия МВД Республики Узбекистан, 1997.
3. Кравченко Ф. Презумпция невиновности // Российская юстиция, 1997, №10.
4. Ларин А.М. Презумпция невиновности. – М.: Наука, 1982.
5. Лебедев В.М. Судебная власть в современной России. Проблемы становления и развития. – СПб.: Санкт-Петербургский государственный университет, юридический факультет, Лань, 2001.
6. Мотовиловкер Я.О. О принципах объективной истины, презумпции невиновности и состязательности процесса. Ярославль, 1978.
7. Никифорова Е.Н. Независимость судей и подчинение их только закону – важнейший конституционный принцип. – Конституция – основа строительства правового государства. – Т.: Адолат. 1996.
8. Никифорова Е.Н. Гарантии прав обвиняемого в уголовном процессе. Хукук. 1999 №1 (5).
9. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. / Под ред. проф. К.Ф. Гуценко 3-е изд. доп. и перераб. – М.: Зерцало, 1997.
10. Петрухин И.Я. Неприкосновенность личности и принуждение в уголовном процессе. М., 1989.
11. Стецовский Ю.И., Ларин А.М. Конституционный принцип обеспечения обвиняемому права на защиту. – М., 1988.
12. Строгович М.С. Право обвиняемого на защиту, презумпция невиновности. – М.: Наука, 1984.
13. Савицкий В.М. Организация судебной власти в Российской Федерации. Учебное пособие для вузов. – М.: БЕК, 1996.
14. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическая энциклопедия /Под ред. М.Ю. Тихомирова. – М.: 1997.

15. O‘zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar davri (mualiflar jamoasi). T.: Adolat. 2002.

Nazorat savollari

1. Odil sudlov tushunchasiga ta’rif bering, huquqni muhofaza qilish faoliyatining boshqa yo‘nalishlaridan farqini ko‘rsating.
2. Odil sudlov va sud hokimiyatining o‘zaro munosabati va farqi nimadan iborat?
3. Odil sudlov demokratik asoslарining (tamoyillarining) yuridik mohiyatini tasvirlab bering.
4. Odil sudlov sohasida qonuniylik tamoyilining amal qilishi nimani anglatadi?
5. Birinchi instansiya, appellatsiya, kassatsiya va nazorat sudsarida hay‘at tarkibida ishlarni ko‘rib chiqish qanday amalga oshiriladi?
6. Aybsizlik prezumpsiyasiga ta’rif bering va undan kelib chiqadigan qoidalarni sanab o‘ting.
7. Odil sudlovni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan organlarni sanab bering.
8. Odil sudlov tamoyilining faqat sud tomonidan amalga oshirilishi ahamiyati nima bilan belgilanadi?
9. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalanish huquqini ta’minalashga qaratilgan boshlang‘ich (dastlabki) qoidalarni sanab bering.
10. Fuqarolik va jinoyat ishlarni yopiq sud majlisida ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan holatlarni sanab o‘ting.
11. Sud majlisiga zalida video tasvirga olish yoki ovoz yozib olish mumkinmi? Kim rasmga olishga ruxsat beradi?
12. Sud majlisida jurnalistlar va muhbirlar ishtirok etishi mumkinmi?
13. Sud himoyasida bo‘lish huquqini ta’minalab beruvchi qonuniy aktlarni sanab bering.
14. Odil sudlovni amalga oshirishda tortishuv nimani anglatadi va uning ahamiyati nimadan iborat?

IV mavzu. FUQAROLIK ISHLARI BO‘YICHA TUMANLARARO, JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA TUMAN (SHAHAR) SUDI

4.1. Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo va jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sndlari – umumiy yurisdiksiya sndlarning asosiy bo‘g‘ini, ularning vakolatlari

Sud tizimini isloh qilishda muhim qadamlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq sndlarning ixtisoslashtirilishi, ya’ni umumiy yurisdiksiya sndlarni fuqarolik va jinoiy ishlarni bo‘yicha sndlarga ajratilishi bo‘ldi. Bu, shubhasiz, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasining kafolatlarini yanada mustahkamlab, sud ishlarning sifatli va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlab berdi.

Sndlarning ixtisoslashtirilishi odil sudlov uchun qo‘srimcha kafolatlarni beradi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda, xususan, AQSH, Angliya, Fransiya, Italiya va Germaniyada bir necha o‘n yillar davomida odil sudlovni ixtisoslashtirilgan sndlар tomonidan amalga oshirilishi o‘zini oqladi. Hatto bu mamlakatlarning ba’zi birlarida yanada chuqurroq ixtisoslashtirilgan sndlар mavjud, *masalan*, oilaviy ishlarni, mehnat, voyaga yetmaganlar ishlarni bo‘yicha sndlар va boshq. O‘zbekiston Respublikasi ham sud faoliyatini yanada ixtisoslashtirish yo‘lidan bormoqda.

Odil sudlovni amalga oshirishning sifatini ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagи «O‘zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq mavjud umumiy yurisdiksiya sndlari asosida fuqarolik ishlarni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik ishlarni bo‘yicha viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlararo sndlari, jinoyat ishlarni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlarni bo‘yicha viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) sndlari tashkil etildi. Ushbu farmon odil sudlov va sud ishlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqishni, fuqarolarning siyosiy, ijti-

moiy huquq va erkinliklari himoyasining kafolatlarini yanada kuchaytirishni ta'minlash maqsadida sudlarning ixtisoslashtirilishiga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida 2001-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar o'z faoliyatlarini boshladilar.

Hozirgi kunda sudyalar o'z ixtisoslariga muvofiq qonunchilik va sud amaliyotini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatiga egalar. Bundan tashqari, Adliya vazirligi tomonidan jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalarini qayta tayyorlash bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Umumiy sudlar tizimida fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari va jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari asosiy bo'g'in hisoblanadilar. Bu birinchi navbatda odil sudlovni amalga oshirishda keng vakolatlar berish hamda ko'rib chiqiladigan ishlarning salmog'ini oshirish bilan bog'liq.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining hissasiga fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha hamda ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha materiallarning asosiy qismi to'g'ri keladi. Ular qonunga muvofiq boshqa sudlar (viloyat, harbiy va bosh. sudlar) vakolati doirasida bo'lган fuqarolik va jinoyat ishlarinigina ko'rib chiqmaydilar. Odatda, aholi o'z muammolari bilan shu sudga murojaat qiladi va ko'p hollarda shu erda o'z savollariga kerakli javobni oladi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar ko'lami barqaror kengayib borish xususiyatiga ega. Masalan, 1994-yilda taxminan 64 ming fuqarolik ishlari ko'rib chiqilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib esa taxminan 94 ming fuqarolik ishlari ko'rib chiqildi¹.

Bu sudlarni tashkil qilish tamoyillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Sudlar to'g'risida» qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlar tashkil etilgan. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarni tashkil etish ko'rib chiqiladigan ishlar ko'lami va boshqa omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar

¹ O'zbekiston sud hokimiyati: islohotlar davri. Mualliflar jamoasi. – T.: Adolat, 2002. – B. 206.

tuman bo‘limi mavjud bo‘limgan har bir tuman (shahar)da amal qiladi. Tuman (shahar)da bitta sud tashkil etiladi, lekin butun tuman (shahar) yoki tuman va shu tumanda joylashgan shaharlar uchun bitta sudni tashkil etish ham mumkin. Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudlar faoliyati ustidan nazoratni fuqarolik ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat sudi va fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi amalga oshiradi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari faoliyati ustidan nazoratni jinoyat ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat sudi va jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi amalga oshiradilar.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari faoliyatlarining tashkiliy ta’minoti, sudlarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga qat’iy bo‘ysunish tamoyillariga amal qilingan holda, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi maxsus vakolat berilgan organ zimmasiga yuklatilgan.

Tumanlararo, tuman sudlarining asosiy vakolati birinchi instansiada fuqarolik, jinoyat va ba’zi bir boshqa ishlarni ko‘rib chiqish, ya’ni yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, muayyan ishlarni bo‘yicha qo‘yilgan masalalarga oid (jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsnинг aybdor yoki aybsizligi, qonunda ko‘zda tutilgan jazoni qo‘llash yoki qo‘llamaslik, mulkiy da’volarni isbotlanganligi yoki isbotlanmaganligi va sh.k.) qarorlarni qabul qilishdan iborat.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan barcha ishlarni umumiy xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish mumkin. *Shartli ravishda shunday guruhlardan uchtasini tuzish mumkin:*

- fuqarolik, oila, mehnat va yer bilan bog‘liq huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha ishlari;

- alohida tartibda ko‘riladigan ishlari;

- qonun bilan ularning vakolatiga biriktirilgan boshqa ishlari.

Eng keng tarqalgan fuqarolik ishlari birinchi guruhga tegishli ishlari hisoblanadi. Ular fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga ko‘rib chiqish uchun, odatda, vujudga kelgan nizo tomonlarning hech bo‘limganda biri fuqaro bo‘lgan hollarda, kelib tushadi

(ushbu ish qonunda ko'rsatilgan belgilarga muvofiq xo'jalik sudi kabi boshqa sudlarda yoki ma'muriy organlar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lмаган holatlarda). Xususan, bularga fuqaro yoki tashkilotga kimningdir qonunga qarshi (ba'zi holatlarda qonuniy) harakatlari natijasida yetkazgan zararini qoplash bo'yicha, yetkazilgan ma'naviy zarar uchun kompensatsiya to'lash bo'yicha, ish joyiga qayta joylashtirish bo'yicha, ma'lumotlarning tarqatilishi birovga zarar keltirishiga oid nizolar bo'yicha, qilingan mehnat uchun tegishli haqni olish bo'yicha, uy-joy va unga bo'lgan egalik huquqi bo'yicha, meros olish bo'yicha, bolalar, er-xotin yoki ota-onalarni boqish uchun to'lanadigan alimentlar bo'yicha, badiiy yoki boshqa asarlarga mualliflik bo'yicha ishlar va boshqalar kiradi.

Fuqarolar va tashkilotlar o'zlarining huquqiy munosabatlari jarayonida tuzadigan fuqarolik-huquqiy shartnomalar bilan bog'liq nizolar bo'yicha ishlar keng tarqalgan. Bularga oldisotdi, uy-joy ijarasi, nashr va boshqa shartnomalar kiradi. Bundan tashqari, bir shaxs tomonidan tuziladigan, bir tomonlama bo'lgan shartnomalar ham kiradi (masalan, sovg'a, vasiyatnoma, merosni qabul qilish yoki undan voz kechish). Shartnomalarning har bir turi ularni tuzish shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi tegishli huquqiy normalar doirasida tartibga solinadi. Qonun shartnoma tomonlarining huquqlari sud himoyasida bo'lishini kafolatlaydi.

Ko'pincha fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar alohida tartibda ko'rila'digan ishlarni ham ko'rib chiqadilar. Bularga yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash, fuqaroni dom-darak-siz yo'qolgan yoki uni o'lgan deb e'lon qilish, fuqaroning layoqati cheklanganligi yoki layoqatsizligini e'tirof etish, mulkning egasizligini e'tirof etish, yo'qolgan hujjatlar bo'yicha huquqlarni qayta tiklash kabi ishlar kiradi. Yuqorida ko'rsatilgan ishlarning boshqa fuqarolik bo'yicha ishlardan keskin farq qiluvchi xususiyati sud haq-huquq bo'yicha nizolar, bir tomonning ikkinchi tomonga bo'lgan da'volarini ko'rib chiqmasligi, faqat ma'lum huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan u yoki bu fakt (holat)larni belgilash masalasinigina ko'rib chiqishi hisoblanadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sud O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagい «Fuqarolarning hu-

quqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq kelib chiqqan ishlarni ko‘rib chiqish huquqiga ega. Har bir fu-qaro, agar davlat tashkilotlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari, idoralar, korxonalar va ularning birlashmalari, jamoat birlashmalari yoki mansabdor shaxslarning qonunlarga xilof harakatlari (qarorlari) huquq va erkinliklarini buzilishiga sabab bo‘lgan deb hisoblasa, sudga shikoyat qilishi mumkin. Shikoyat bevosita shikoyatchi yashab turgan joydag‘i sudga yoki tashkilot, birlashma, mansabdor shaxs joylashgan yerdagi sudga beriladi va fuqarolik ishi tartibida ko‘rib chiqiladi.

Bu ishlarning asosiy qismi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining hissasiga to‘g‘ri keladi, lekin qonunga muvofiq ko‘rib chiqilishi yuqori yoki harbiy sudlar vakolatida bo‘lgan ishlar, masalan, jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning aybini og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan qotillik jinoyatini sodir qilish, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxsni qasddan zo‘rlash, genotsid, terrorizm, o‘lim jazosi bilan jazolana digan jinoyatlar va boshqa ishlar (JPK, 389-m.) bundan mustasno.

Agar ko‘rib chiqilayotgan ishlar mohiyatiga ko‘ra murakkab bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, jinoyat ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi raisi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarining raislari, O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudi raisi o‘rta bo‘g‘in sudlari vakolati doirasiga oid jinoiy ishlarni tegishli jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi hamda okrug yoki hududiy harbiy sudga ko‘rib chiqishlari uchun taqdim etish huquqiga egalar.

Tuman sudi jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sud-lovni amalga oshirishdan tashqari ma‘muriy huquqbazarliklar bo‘yicha ishlarni ham ko‘rib chiqadi. Bunday ishlarni yakka tartibda ko‘rib chiqadilar.

Tuman sudlari ishlarning sezilarli qismi barcha fuqarolik ishlari va ma‘muriy huquqbazarliklar bo‘yicha o‘zlarini chiqargan hukm va qarorlari ijrosini tegishli darajada ta‘minlash tashkil etilgan. Ular jinoyat ishlari bo‘yicha hukmlarni ijro etish jarayonida vujudga keladigan masalalarni ko‘rib chiqadilar (jazodan shartli-muddatidan ilgari ozod qilish, bir rejimdag‘i koloniya-

dan boshqa rejimdagi koloniyaga o'tkazish, kasallik yoki majruhlik sababli jazoni o'tashdan ozod qilish, sudlanganlikni olib tashlash, jazoni yengilrog'iga o'zgartirish va b.q.).

Zamonaviy qonunchilik fuqarolik va jinoyat ishlarini birinchi instansiyada ko'rib chiqadigan sud tarkibini o'zgartirdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan tashqari barcha sularda fuqarolik ishlari bo'yicha birinchi instansiya ishlari sudyalar tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi (FPK, 13-modda).

Ishni yakka tartibda ko'rib chiqish va hal qilishda sudya sud nomidan harakat qiladi.

Qoraqlapog'iston Respublikasi Oliy sudining raisi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarining qaroriga muvofiq birinchi instansiyaning har qanday ishi hay'atda ko'rib chiqilishi mumkin.

Jinoyat ishlari hay'atda ko'rib chiqiladi. Jiddiy ijtimoiy xavf-lili bo'lmagan jinoiy ishlar, ya'ni qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish belgilangan qasddan sodir etilgan jinoyatlar, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish belgilangan ehtiyyotsizlik oqibatida qilingan jinoyatlar, qonunda besh yildan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish belgilangan uncha og'ir bo'lmagan qasddan qilingan jinoyatlar hamda qonunda besh yildan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish belgilangan ehtiyyotsizlik oqibatida qilingan jinoyatlar yakka tartibda ko'rib chiqiladi (JPK, 13-modda.).

Ish birinchi instansiya sudi tomonidan hay'atda ko'rulganda sud tarkibiga sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi kiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi birinchi instansiya ishlarni uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqadi. Odil sud-lovni amalga oshirishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadilar. Ular sud majlisida ishni ko'rish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa egadirlar.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sullar va jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudlarida fuqarolik-protsessual va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi belgilangan tartibda yakka tartibda ishlarni ko'rib chiqish sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi tomonidan ko'rib chiqishdan farq qilmaydi.

Amaldagi qonunchilik tuman sndlari ko'rib chiqadigan barcha ishlarni olib borish tartibi va qoidalarini batafsil belgilab beradi. Bular to'g'risida batafsil ma'lumotlar yuridik oliv o'quv yurtlarining o'quv rejasiga kiritiladigan fuqarolik protsessi, jinoyat protsessi va ma'muriy huquq kabi predmetlar o'rganilganida beriladi. Umumiyl tartibda bu erda ishlarni qonuniy, asosli va adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlab beradigan protsessual qonunchilikning ba'zi jihatlarinigina ta'kidlab o'tish yetarli.

Ushbu holatga misol tariqasida sndlар tomonidan ko'rib chiqiladigan hamma ishlarda barcha masalalar, odatda, sndlauvchilar, da'vogarlar va javobgarlar ishtirokida va ularning faol qatnashuvi hamda ularga kerakli huquqlarni bergen holda hal qilinishini aytish mumkin. Ular barcha ishlarni o'rganishda ishtirok etadilar, tushuntirishlar beradilar, isbot taqdim etadilar, iltimosnomalar beradilar, jinoyat ishi bo'yicha hukm ham fuqarolik ishi bo'yicha qaror sud majlisida ko'rib chiqilgan va belgilangan fakt va holatlar asosida chiqariladi.

Sudyalarни tashqi ta'sirlardan himoya qilish maqsadida qonunda sudyalar majlisini olib borish va ish bo'yicha hukm yoki qaror chiqarishning alohida tartibi ko'zda tutilgan. Buning uchun sudyalar sud maslahatxonasida kengashadilar. Bu xonada ushbu ishni ko'rib chiqishdagi sud tarkibiga kiruvchi sudyalardan boshqa hech kim bo'lmasligi kerak. Ushbu qoidaning (sudyalar kengashi sirining) buzilishi hukm yoki qarorning bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

4.2. Tumanlararo, tuman sndlari ishni tashkil etish

Tumanlararo, tuman sndlari idini to'g'ri tashkil etish sndlarning samarali faoliyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatiga ega bo'lib, bu vazifa sud raisi zimmasiga yuklatiladi. Sud idini tashkil etishda sud raisidan tashqari barcha sudyalar va boshqa sud xodimlari ishtirok etadi. Sud idini tegishli darajada tashkil etmasdan turib ishlarni tez, to'liq va to'g'ri ko'rib chiqish va sud oldida turgan profilaktik va boshqa vazifalarni amalga oshirish mumkin emas.

Ish rejalashtirish asosida tashkil etiladi. Sud rejasida kadr-lar bilan ishlash, xalq maslahatchilarini yuridik tayyorlash, tumanda qonuniylik ahvolini o'rganish, ma'lum turdag'i sud ishlarini ko'rib chiqish amaliyotini umumlashtirish, ish yuri-tishni tashkil qilish va boshqalar nazarda tutildi.

Har bir sudyaning joriy rejası sud maslahatlarini o'tkazish, aholini qabul qilish, sayyor sud majlislarini tashkil etish, majlis va seminarlarda ishtirot etish va boshqalarini o'z ichiga ola-di. Har bir sudda tashrif buyuruvchilarni qabul qilish sud raisi, barcha sudyalar tomonidan qat'iy belgilangan va aholi uchun qulay vaqtida amalga oshiriladi.

Har bir sudya tashrif buyuruvchilarni qabul qilish ro'yxatini olib boradi. Sud qabulxonasi turli sud hujjatlarining na-munalari bo'lgan taxtalar qo'yiladi.

Sud apparati odil sudlovni amalga oshirish, sud amaliyoti-ni umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish, qonunchilik-ni tizimlash va targ'ib qilish hamda boshqa ishlarni amalga oshirishda sud faoliyatini ta'minlaydi. Har bir sudda sud faoli-yatini takomillashtirish, sud faoliyati davomida yo'l qo'yiladigan xatolarni aniqlash va ularning oldini olish, ijobjiy tajribalarni aniqlash va ularni tarqatish, ehtiyyot chora-tadbirlarini ishlab chiqarish va ko'rish maqsadida doimiy ravishda sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish olib boriladi.

Umumlashtirish ishi quyidagi bosqichlardan iborat: umum- lashtirish mavzusini tanlash; umumlashtirish dasturini tuzish; sud ishlarini o'rganish; xulosalar chiqarish va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Umumlashtirish rejası amaliyotni o'rganish va umumlashtirish jarayonida javob berish talab qilinadigan savollardan tashkil topadi. Bu kabi savollar ma'lum bir turdag'i ishlarda sud tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar, xatolar va qoida buzishlarini topish; dastlabki tergov va so'roqning sifatini; jinoyat qilishga olib keluvchi sabab va holatlarni va boshqalarini aniqlash bilan bog'liq.

Umumlashtirishning maqsadi va dasturiga muvofiq sud raisi ma'lum bir turdag'i ishlar o'rganib chiqilishi kerak bo'lgan mud-datni belgilaydi, masalan chorak, yarim yillik, yil va boshqalar. Umumlashtirish dasturi va muddatini belgilab olgach, sudyalar tanlab olingen har bir turdag'i ishlarni o'rganib chiqadilar va

ma'lumotlarni tahlil qilib qo'yilgan savollarga tegishli javoblarni beradilar. Sud ishlarini o'rganib chiqish va belgilangan dastur bajarilgandan so'ng, umumlashtirishning maqsadidan kelib chiqqan holda, xulosalar chiqariladi va takliflar kiritiladi. Sud xodimlarining malakasini oshirish shakllari turli xil bo'ladi. Xalq maslahatchilari bilan ishlash ko'pincha ikki yo'nalishda olib boriladi: ularni yuridik tayyorlash maqsadida o'qitish va sudning tarbiyaviy-profilaktik faoliyatiga jalb qilish.

Sud ishi ustidan nazorat qilishning samarali vositalaridan biri sudyalarning aholi bilan muloqoti hisoblanadi. Bundan tashqari, bu odil sudlov g'oyasini va sud ishi to'g'risida ma'lumotlarni targ'ib qilishning vositasi sanaladi. Har bir sudda statistik hisobot yuritiladi. U hal qilinishi lozim bo'lgan fuqarolik ishlari bo'yicha va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish bo'yicha sudning hisobotlarini o'z ichiga oladi. Bu ishlar bo'yicha mas'uliyat sud raisining zimmasida bo'ladi. Har bir jinoyat ishi va fuqarolik ishi uchun dastlabki hisobot-statistik kartochkani va sudlanuvchining statistik kartochkasini yuritish hisobotning asosini tashkil etadi.

Sudlarda qonunchilik va sud amaliyoti bo'yicha ma'lumot ishlari olib boriladi. Ma'lumot ishlari kodekslar, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi izohlari, Adliya vazirligining buyruq va yo'riqnomalari va boshqa hujjatlarning rasmiy nashrlarining nazorat nusxalarini saqlashdan iborat.

Ma'lumot ishlarining holatiga mas'ul bo'lgan sudya amalagi qonunlarga kiritiladigan rasmiy o'zgartirishlarni nazorat nusxalariga kiritadi va ular bilan qolgan sudyalarni va boshqalar ni tanishtiradi. Sudda ish yuritish ishlari sud faoliyati davomida ko'rib chiqiladigan ishlar va boshqa hujjatlarning harakati ro'yxatga olinadigan belgilangan shakldagi журнallarni, kitoblarni, kartochka va naryadlarni yuritishdan iboratdir.

Ish yuritish bo'yicha umumiylar rahbarlik sud raisi tomonidan amalga oshiriladi. Ish yuritish bo'yicha bevosita mas'uliyat devonxona boshqaruvchisi zimmasiga yuklatilgan. U devonxona xodimlari o'rtaida ishlarni taqsimlaydi, statistik hisobot

uchun ma'lumotlarni tayyorlaydi, sud bo'yicha buyruq va qarorlar kitoblarini saqlaydi, sudning yuqori turuvchi sud organlari va boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari, jamoat tashkilotlari, korxonalarga yozgan xizmat hatlarini rasmiylashtiradi.

Muayyan aniq bir sudya tomonidan ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha ish yuritishni sudning kotiblari olib boradilar. Ular ishlarni saqlaydilar, kerakli jurnal va kartochkalarni yuritadilar, jinoyat ishlari bo'yicha daliliy ashyolarni saqlashni ta'minlaydilar, tugatilgan ishlarni rasmiylashtiradilar va arxivga topshiradilar.

Sud majlisining kotibi sud majlisi bayonnomasini yuritadi, sud majburiyatlari ijrosi uchun navbatdagi xalq maslahatchilarini taklif qiladi, sud majlisining ishtirokchilari va guvohlarini chaqiradi, eshitilishi mo'ljallangan ishlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni ta'minlaydi.

4.3. Sudyalar va xalq maslahatchilarining asosiy huquq va majburiyatları

Sudyalar qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega. Sudlarning raislari, raisning o'rindbosarlari ayni vaqtida sudyalardir.

Odil sudlovni amalga oshirish va boshqa funksiyalarni bajarish uchun sudyalar va xalq maslahatchilari qonunchilik tartibida belgilanadigan hukm chiqarish vakolatiga egalar.

Asosiy bo'g'in sudlarining sudyalari quyidagi huquqlarga egalar: mansabdar shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish; mansabdar va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotlarni olish; uyushmalarga birlashish va qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

O'z navbatida davlat tashkilotlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talab va farmoyishlarini so'zsiz bajarishlari shart. Odil sudlovni

amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotlar, hujjalarni va ularning nusxalarini sudyalarning talabiga muvofiq bepul beriladi. Sudyalarning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi. O‘z navbatida sudyalar va xalq maslahatchilari bir qator majburiyatlarga egalar, ular fuqarolik va jinoyat ishlari, ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi ning Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga so‘zsiz rioya qilishlari shart. Korxonalar, idoralar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashlari, xolis va adolatli bo‘lishlari kerak. Sudyalar sudyalik sha’nini qat’iy saqlashlari, odil sudlovning obro’sini, sudyalik qadr-qimmatini tushirishi yoki sudyaning xolisligiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xattiharakatlardan o‘zlarini tiyishlari shart. Sudyalar hokimiyat vakillik organlarining deputatlari bo‘lishlari mumkin emas. Sudyalar siyosiy partiyaning harakatlarning a’zosi bo‘lishlari hamda ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari, haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

Sudyalar ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan ishlar, amaldagi qonunchilik va uni qo‘llash amaliyoti bilan xalq maslahatchilarini oldindan tanishtirib chiqishlari va ularga o‘z vakolatlarini amalga oshirishlarida kerak bo‘ladigan boshqa yordamni ko‘rsatishlari shart.

Xalq maslahatchilari huquqiy bilimlarni bilishlari, har bir ishni sudda ko‘rib chiqishga tayyorlanishlari, huquqbuzarliklardan ogohlantirish ishlarida qatnashishlari shart.

Sudyalar va xalq maslahatchilari sudyalarning maslahatlashuv sirini hamda yopiq sud majlislari o‘tkazish chog‘ida olinigan ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Xalq maslahatchilari o‘z funksiyalarini bajarish uchun sudga o‘z vaqtida kelishlari zarur. Xalq maslahatchisini sudga charqish u ishlaydigan yoki o‘qiydigan korxona, idora, tashkilot ma’muriyati uchun shart.

Agar xalq maslahatchilari vakolatlarining muddati sud ishni ko‘rib chiqish davomida tugaydigan bo‘lsa, u holda bu vakolatlar ushbu ishni ko‘rib chiqish oxiriga yetkunichia saqlanib turadi.

Xalq maslahatchilari sndlardagi vazifalarini bajarish uchun yiliga ko‘pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko‘rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularning ish joyidagi o‘rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

4.4. Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining raisi

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi rais va sudyalardan iborat bo‘ladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo‘ladi.

Ushbu sndlarda ishni tashkil qilish sudning kundalik ishi ustidan rahbarlik qiluvchi sud raisining zimmasiga yuklatiladi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining raisi sud kengashida rahbarlik qilish va ishni sudyalar o‘rtasida taqsimlashdan tashqari xalq maslahatchilari bilan ishslashni tashkil qiladi, fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni sud tomonidan qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish ishlarini tashkil etadi.

Sud raisi sud faoliyatini takomillashtirish maqsadida sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishlariga rahbarlik qiladi, qonun buzilishini, huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga taqdimnomalar kiritadi; sud xodimlarining malakasini hamda xalq maslahatchilarining yuridik bilimlarini oshirish ishlarini tashkil etadi.

Tashkiliy jihatdan sud idorasini ishiga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, qonun hujjaligiga muvofiq boshqa vakolatlarni amalgga oshiradi.

Sud raisi kotiblar, devonxona boshqaruvchisi, ish yurituvchi va boshqalarini tanlash, ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish ishlarini amalgga oshiradi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq («Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 38-moddasi) fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining raisi yo‘qligida uning vakolatlari sudyalarining tegishli malaka hay‘atining qarori bilan ushbu tumanlararo, tuman (shahar) sudining sudyalaridan birining zimmasiga yuklatilishi mumkinligi ko‘zda tutilgan.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2003.
2. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilishi to‘g‘risida»gi Qonun 24.04.2003.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni, 2000 y., 14-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksi. –T.: Adolat. 1999.
5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual Kodeksi. 30.08.1997-y.


Maxsus adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar -T.: Adolat; IIV Akademiyasi. 1997-y.
2. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. Под редакцией профессора К.Ф. Гуценко. 3-е издание дополненное и переработанное. – М.: Зерцало, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasida sud islohotlarini yanada rivojlantirish Dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Bulletin, 1996 y., 3–4-son.
4. Савицкий В.М. Организация судебной власти в Российской Федерации. Учебное пособие для вузов. - М.: БЕК, 1996.
5. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическая энциклопедия (по редакцией М.Ю. Тихомирова). – М.: 1997.
6. O‘zbekiston sud hokimiyyati: islohotlar davri –T.: Adolat, 2002.


Nazorat savollari

1. Umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashtirilishi qachon amalgal oshirilgan?
2. Tumanlararo, tuman sudining sud tizimida tutgan o'rni qanday?
3. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudning vakolatlarini sanab o'ting.
4. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi qanday vakolatlarga ega?
5. Tumanlararo, tuman (shahar) sudi raisining qanday huquq va majburiyatlari bor?
6. Tumanlararo, tuman (shahar) sudining ishlari qanday tashkil etiladi?
7. Sudyalar va xalq maslahatchilarining asosiy huquqlarini sanab o'ting.
8. Sudyalar va xalq maslahatchilari qanday majburiyatlarga ega?

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tuzilishi



Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudning tuzilishi



V mavzu. UMUMIY YURISDIKSIYA SUDLARINING O'RTA BO'G'INI

5.1. O'rta bo'g'in sudlarining vakolatlari

Jinoyat ishlari va fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari va fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari umumiy sudlar tizimida o'rta bo'g'inni tashkil etadi. Sud tizimida o'rta bo'g'in sudyalari bir xil vakolat va mavqega egalar. Ular fuqarolik ishlari va jinoyat ishlarni ko'rib chiqishda keng huquqlarga egalar, xususan ular ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi:

– o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, appellatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi;

– tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining faoliyati ustidan nazorat olib boradi, sud amaliyotini umumlashtiradi;

– qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ushbu bo'g'in sudlari birinchi instansiya sudi sifatida JPK 389-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat ishlarni ko'rib chiqadilar. Masalan, jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismida, 118-moddasining to'rtinchi qismida, 150, 153, 155, 157, 158-moddalarining uchinchi qismida, 159-moddasining to'rtinchi qismida, 160, 161-moddalarida, 210-moddasining uchinchi qismida, 230, 231, 242, 244-moddalarida, 273-moddasining beshinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlarning (javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda nomusga tegish, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, davlat boshqaruvi tartibiga, odil sudlovga qarshi va boshqa og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar to'g'risida) sud ishini ko'rib chiqadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sndlari qonunda o'z vakolatlariga berilgan fuqarolik ishlarini, shuningdek, alohida holatlarni hisobga olib har qanday fuqarolik ishini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hududidagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudidan olib, bиринчи instansiya sudi sifatida o'zining ish yuritishiga qabul qilib olishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o'tkazishga haqli (FPK, 142–143-moddalar). Viloyat yoki unga tenglashtirilgan sud barcha protsessual qoidalarga amal qilgan holda ishni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

O'rta bo'g'in sndlari tumanlararo va tuman sndlari nisbatan yuqori turuvchi sud hisoblanadilar va ushbu sndlар tomonidan chiqarilgan qarorlarning asosli va qonuniyligini tekshirish ishlarida faol ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 14-dekabrdagi ikkinchi chaqiriq IV-sessiyasida qabul qilingan yangi tahrirdagi «Sndlар to'g'risida»gi qonunning asosiy yangiliklaridan biri umumiy yurisdiksiya sndlарida protsessual qonunchilikning muhim tartibi (instituti) hisoblanadigan ishlarni appellatsiya tartibida ko'rib chiqishning joriy etilishi bo'ldi. Bu institut xalqaro amaliyotda e'tirof etilgan bo'lib, respublika xo'jalik sndlari tizimida qo'llaniladi. Ishlarni appellatsiya tartibida ko'rib chiqish yuqori turuvchi sud instansiysi uchun dallarni bevosita tekshirib chiqish va tegishli qaror chiqarishga imkon beradi. Bu o'z navbatida fuqarolarning huquqlari himoyasi va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini ancha kuchaytiradi, sud ishining samaradorligi va tezkorligini ta'minlaydi, davlat mablag'larining sezilarli darajada tejalishiga olib keladi.

Appellatsiya tartibida ishlarni sifatli ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda noqonuniy va asoslanmagan qarorlar, hukmlar, ajrimlar va farmoyishlar kuchga kirishining oldi olinadi va bu o'z navbatida odil sudloving maqsad va vazifalari amalgalashishini ta'minlab beradi.

O'rta bo'g'in sndlari tuman sndlarning qonuniy kuchga kirishagan hukmlari, qarorlari va ajrimlari ustidan kelib tushgan shikoyat va protestlarini ko'rib chiqishda, sndlarning musta-

qillik tamoyilini buzmagan holda, muayyan ishlar bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berish orqali odil sudlovnning sifati va samaradorligini oshirishning muhim vositasini qo'llaydilar.

Muayyan jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha chiqarilgan appellatsiya ajrimi nafaqat ushbu ish uchun muhim ahamiyatga ega, balki ushbu ishda yo'l qo'yilgan xatolarning boshqa ishlarda takrorolanmasligi uchun tuman sudining keyingi amaliyotiga ta'sir qiladi. Bu o'z navbatida sud amaliyotining shakllanishiga xizmat qiladi, tuman sudi va boshqa quyi turuvchi sudlar ishlarining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qiladi. O'zbekiston Respublikasi JPK 497-moddasiga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga appellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish mumkin.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan – Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga; Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan shu sudlarning sudlov hay'atlariga cassatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish mumkin.

Kassatsiya tartibida ishlarni ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u noqonuniy va asossiz qarorlar, hukmlar, ajrimlar va farmoyishlar ijro etilishining oldini olish, sud va tergoving xatolarini bartaraf qilishga zamin yaratadi, odil sudlovnning maqsad va vazifalari amalga oshirilishini ta'minlab beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi nazorat instansiysi sifatida appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlarda chiqarilgan hukm va ajrim (qaror)larning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish vakolatiga ega. Bu funksiya nafaqat muayyan ishlar bo'yicha yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaishga, shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va boshqalar hududida sud amaliyotini tegishli yo'nalishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

5.2. O'rta bo'g'in sudlarining tarkibi va tuzilishi

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning 29-moddasida shunday deyilgan: Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari rais, rais o'rribosari, sudyalar, xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi va sud Rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari rais, rais o'rribosari, sudyalardan iborat bo'ladi va sud Rayosati hamda sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi Rayosati shu sudning sudyalaridan iborat tarkibda ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi Rayosati majlislari har oyda kamida ikki marta o'tkaziladi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi Rayosati a'zolarining ko'philigi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Muayyan ishlar yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi Rayosati qarorlari ovoz berishda qatnashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi Rayosati a'zolarining ko'philik ovozi bilan qabul qilinadi va tegishli sud raisi tomonidan imzolanadi.

Endi umumiy yurisdiksiya o'rta bo'g'in sudlarining vakolatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, *Toshkent shahar sudi Rayosati*:

– o'z vakolatlari doirasida ishlarni nazorat tartibida ko'rib chiqadi;

– sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi;

– hay'atlar faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalarini, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari raislarining shu sudlar faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi;

– qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Hukm va ajrim (qaror) ishlarini nazorat tartibida ko‘rib chiqish bu ishlar appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgandan so‘nggina va shu sud raisi, prokuror yoki ularning o‘rnbosarlarining protestlari asosidagina yo‘l qo‘yiladi. Protestda o‘ta og‘ir jinoyat to‘g‘risidagi qonunni qo‘llash, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini yomonlashtiruvchi boshqa o‘zgartirishlarni kiritish, oqlov hukmini yoki sudning ishni tugatilganligi to‘g‘risidagi ajrimi (qarori)ni qayta ko‘rib chiqish kabi masalalar qo‘yilishi mumkin. Sudning ayblov hukmi yoki ajrimi (qarori) qonuniy kuchga kirganidan so‘ng bir yil davomidagina bunday protestni qayta ko‘rib chiqish uchun yo‘l qo‘yiladi.

Nazorat instansiya sudi jinoyat ishini nazorat tartibida ko‘rib chiqib appellatsiya yoki cassatsiya ajrimi hamda, agar chiqarilgan bo‘lsa, sudning keyingi ajrimi, qarorlarini bekor qiladi va ishni appellatsiya yoki cassatsiya tartibida qaytdan ko‘rib chiqishga beradi.

Rayosat tashkiliy xarakterdagi masalalarni hal qiladi. U sud amaliyotini umumlashtirish natijalari, tuman sudlariga qonunchilikni to‘g‘ri qo‘llashda ko‘mak berish chora-tadbirlari, jino-yatchilik va sudloving ahvoli, fuqarolarning shikoyat va arizalarini hal qilish ishlarining ahvoli, sud faoliyatining joriy va istiqboldagi rejalar bo‘yicha ma’lumotlarni tinglaydi va muhokama qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudining *sudlov hay’atlari*:

- o‘z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiyada ko‘rib chiqadi;
- appellatsiya yoki cassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning xohishiga ko‘ra, ishlarni appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rib chiqadi. Appellatsiya tartibida ko‘rilgan ish cassatsiya tartibida ko‘rilmaydi;

- sud amaliyotini umumlashtiradi;

- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sudlov hay’atiga uning raisi rahbarlik qiladi. Odatda sudlov hay’atining raisi sud raisining o‘rnbosari bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent

shahar sudi raisining o‘rribbosari sudlov hay’ati ishini tashkil qiladi; sudlov hay’ati majlislarida raislik qilishi mumkin («Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 35-moddasi).

Ishni birinchi instansiyada ko‘rib chiqishda sudlov hay’ati, odatda, raislik qiluvchi va ikki xalq maslahatchisidan iborat tarkibda harakat qiladi. Ishlarni tegishli sudlarning hay’atlarida appellatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish uch sudyadan iborat tarkibda amalga oshiriladi.

5.3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisi vakolatlari va bu sudlarda ishlarni tashkil qilish

Fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarining ishini sud raisi va uning o‘rribbosari sud xodimlari yordamida amalga oshiradi. Ushbu sudning ishlarini tashkil etishga sud raisi mas’ul bo‘ladi. Sud u: faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi;

– sud ishlari bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ustidan qonunda belgilangan doirada va tartibda protest kiritadi;

– sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

– sud Rayosatini chaqiradi va uning majlislarida raislik qiladi;

– sud Rayosatining qarorlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishini tashkil etadi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar sudlari sudyalarining intizomiy javobgarligi haqida ish qo‘zg‘atadi;

– sudyalar, sudning boshqa xodimlari hamda xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

– sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishini tashkil etadi;

– fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish ishini tashkil etadi;

– sudyalarining malaka hay’ati qarorlari ustidan Umumiy yurisdiksija sndlari sudyalarining Oliy malaka komissiyasiga taqdimnomalar kiritadi;

– sud devoni ishlariiga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, sud raisi sud ishiga umumiy rahbarlik qilish mas’uliyati yuklangan shaxs sifatida, joriy va kelajak (istiqbol) ishlari bo‘yicha rejalarini tasdiqlaydi, sud tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosi nazoratini tashkil qiladi.

U maslahatchilar, kotiblar va boshqa texnik kadrlarga rahbarlik qiladi, sud devoni xodimlarining malakasi va professional mahoratini oshirish ishlarini tashkil qiladi, sudning moliyaviy va hisobot ishlarini nazarat qiladi, aholini qabul qilish va fuqarolarning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni tashkil qiladi, sudning ish yuritish ishlariiga rahbarlik qiladi.

O‘rta bo‘g‘in sudi raisi o‘rinbosarga ega. Sud raisi o‘rinbosarinining vakolatlari «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 35-moddasida belgilab berilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisining o‘rinbosari: sudlov hay’atlarining ishini tashkil etadi; sudlov hay’ati majlislarida raislik qilishi mumkin; sud rayosatiga sudlov hay’atlarining faoliyati to‘g‘risida ma’ruzalar taqdim etadi; fuqarolarni shaxsan qabul qiladi; sud raisi yo‘qligida uning vakolatlarini amalga oshiradi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘rta bo‘g‘in sudsalarining xodimlari tarkibiga maslahatchilar, devonxona boshqaruvchisi, sud majlisi kotiblari, ish yurituvchilar, mashinistikalar va arxivariuslari kiradi.

Maslahatchilar sudga kelib tushgan shikoyat va ishlarni o‘rganib chiqadilar va ular to‘g‘risida sud raisiga axborot beradilar, boshqa ishlarni bajaradilar.

Devonxona mudiri sud hay’atlari kotiblariga rahbarlik qiladi, tashrif buyuruvchilarni qabul qilishni tashkil etadi, sudga kelib tushgan xatlar bo‘yicha sud raisi yoki uning o‘rinbosalariga axborot beradi, xalq maslahatchilarini sudga chaqirish ishlarini tashkil qiladi, sud raisi yoki uning

o‘rinbosarlarining ruxsatiga muvofiq fuqarolarga turli sud hujjalarni beradi va yuboradi.

Sud majlisining kotiblari birinchi instansiada ko‘rib chiqiladigan ishlar bo‘yicha bayonnomalarni yuritadi, sud ishtirokchilariga chaqiruv qog‘ozlarini yuboradi, prokuror va avokatlarni ishni tinglash vaqtidan xabardor qiladi, qamoqda bo‘lgan sudlanuvchilarini ma’lum bir kun va soatda sudga olib kelish ishlarini tashkil qiladi va boshqalarni amalga oshiradi.

Rayosat kotibi rayosatning ish yuritish ishlarini amalga oshiradi, rayosat a’zolari va prokurorni kengash muddati va ko‘rib chiqiladigan masalalarning xarakteridan xabardor qiladi, rayosat ishining natijalarini rasmiylashtiradi.

Sudning boshqa xodimlari – ish yurituvchilar, kuryerlar (xat tashuvchilar), mashinistikalar, arxivariuslari o‘z lavozimlariga muvofiq belgilangan ishlarni amalga oshiradilar. Ularning hammasi sud ishini tashkil qilishga u yoki bu darajada hissa qo’shadilar.

Viloyat sudi ishini ta’minalashning muhim vositasi - joriy va kelajak rejasini tuzishdir. Kelajak ishini rejalahtirish viloyat sudining diqqatini sudning asosiy yo‘nalish ishlariga qaratishga imkon beradi. U uzoq muddatli sud faoliyatini ta’minalab beruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Joriy rejalahtirish kundalik ishlarni tashkil qilishga yo‘naltirilgan, masalan, protestlarni ko‘rib chiqish, jinoyat va fuqarolik ishlarini hal qilish. Yuqorida ko‘rsatilgan rejalarda xalq maslahatchilarini huquqiy jihatdan o‘qitish, sudyalar va sud devoni xodimlari majlislarini tashkil qilish ham ko‘zda tutiladi.

Aholini qabul qilishni sud raisi va uning o‘rinbosari tashkil qiladi. Qabul qat’iy belgilangan vaqtida amalga oshiriladi. Fuqarolarni qabul qilish jarayonida fuqarolarga kerakli huquqiy masalalar tushuntiriladi, ariza va shikoyatlar qabul qilinadi, so‘rov hatlari, ma’lumotnomalar, sud qarorlaridan ko‘chirmalar, hukmlarning nusxalari beriladi.

Xodimlar bilan ishlash sud raisi, uning o‘rinbosari, devonxona mudiri tomonidan amalga oshiriladi. Bu ishlar butun sud, sud hay’atlari va texnik xodimlarga taalluqlidir. Xodimlarni tanlash, joylashtirish va boshqa lavozimlarga o‘tkazish viloyat sudining sudyalari va boshqa xodimlarining professional-ish-

bilarmonlik va ma’naviy sifatlarini o’rganish asosida amalga oshiriladi.

Xalq maslahatchilari bilan ishslash ularni huquq va sud faoliyatining asoslari bilan tanishtirish, ko’rib chiqilishi lozim bo’lgan ishlar bilan o’z vaqtida tanishib chiqishga sharoit yaratish, materiallarni dastlabki o’rganib chiqishda yuzaga keliishi mumkin bo’lgan huquqiy masalalarni tushuntirish va boshqa ishlardan iborat bo’lishi kerak.

O’rta bo‘g‘in sudlari faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri sud amaliyotini o’rganish va umumlashtirish hisoblanadi. Sud hay’atlarining kassatsiya va appellatsiya amaliyotlarini, Rayosatning nazorat amaliyotini umumlashtish va muayyan ishlarni o’rganib chiqish asosida ushbu bo‘g‘in sudlari ishlarda yo‘l qo‘yilgan xatolar va kamchiliklar bo‘yicha amaliy materiallarni oladi. Bu o’z navbatida yo‘l qo‘yilgan xatolarning sabablarini aniqlash, sud ishining sifati to‘g‘risida axborotga ega bo‘lish va sud faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlarini belgilab olishga imkon beradi.

Qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda appellatsiya, kassatsiya va nazorat amaliyoti turli masalalar bo‘yicha umumlashtiriladi va o’rganib chiqiladi: ma’lum turdagji jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha, mulkiy va protsessual qonunlarni qo‘llash masalalari va boshqalar bo‘yicha. Bu mansabdor shaxslar tomonidan keltirilgan protestlarning asoslanganligi va qonuniyiliği, hukm va qarorlarni tekshirishning samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari shikoyat va protestlarda keltirilgan dalil-isbotlarni o’rganishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Umumlashtirish ma’lum bir tuman yoki bir necha tuman sudlarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan materiallarni o’rganish yo‘li bilan ham amalga oshiriladi.

Qonunchilikni tizimlashtirish ishlari bu yerda, tuman sudlaridagi kabi, kodekslar va boshqa qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari, Nizomlar va boshqalar rasmiy nashrlarining nazorat nuxsalarini olib borish, ro‘yxatga olish va saqlashdan iborat. Jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha statistik hisobdorlik belgilangan shakl va muddatda sud raislari-

ning rahbarligi ostida amalga oshiriladi. Statistik hisobdorlik quyi turuvchi sudlarning faoliyatları to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishslash ishlarini ham o‘z ichiga oladi.

Ish yuritish sud natijalari va qabul qilingan qarorlar ijrosini sifatli rasmiylashtirish ishlarini ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bu ishga mas’ul bo‘lgan shaxslar sud hujjatlarini tegishli darajada saqlash ishlarining sud ustidan kuzatuv olib borish, belgilangan shakldagi ro‘yxatga olish jurnallari, hisob-kartochkalari va naryadlarni yuritish ishlarini amalga oshiradilar. O‘rta bo‘g‘in sudlari sudyalarning malakasini oshirish ishlarini tashkil qilish bilan ham shug‘ullanadilar. Xususan, ular sudlar faoliyatining dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladigan majlislarni (barcha sudyalar ishtirokidagi) o‘tkazadilar. Bundan tashqari, yangi qonunchilik, yuqori sud instansiyaning qarorlari va sud faoliyati uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa hujjatlar bilan tanishtirish bo‘yicha seminar va mashg‘ulotlarni tashkil etadilar.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-y., 8-dekabr. – T.: O‘zbekiston, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni, 2000-y., 14-dekabr.
3. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi» O‘zR Qonuni. 2003-y., 24-aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi. – T.: Adolat. 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual Kodeksi. – T.: Adolat. 2001.

Maxsus adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar, -T.: «Adolat»; O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1997-y.
2. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. / Под редакцией профессора К.Ф. Гуценко 3-е издание дополненное и переработанное. – М.: Зерцало, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasida Sud islohotlarini yanada rivojlantirish Dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Bulletereni, 1996-yil, 3–4-sonlar.

4. Савицкий В.М. Организация судебной власти в Российской Федерации. Учебное пособие для вузов. – М.: БЕК, 1996.

5. O'zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar davri. – T.: Adolat, 2002.


6. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическая энциклопедия (под редакцией М.Ю. Тихомирова). – М.: 1997.

Nazorat savollari


1. O'rta bo'g'in sudlarining tarkibini sanab o'ting.
2. O'rta bo'g'in sudlari qanday vakolatlarga ega?
3. O'rta bo'g'in sudlarining tuzilishi qanday?
4. Sud qismlari tuzilmaviy bo'limlarining tashkil etilish tarbi va vakolatlarini sanab o'ting.
5. O'rta bo'g'in sudlarida ish qanday tashkil etilgan?
6. Sud devonida qanday lavozimlar bor?
7. O'rta bo'g'in sudlari Rayosatining vakolatlarini sanab o'ting.
8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi sudlov hay'atlarining vakolatlarini sanab o'ting.
9. O'rta bo'g'in sudi raisining o'rinnbosari qanday vakolatlarga ega?
10. Sudyalarning malakasini oshirish ishlari qanday tashkil etilgan?

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
14.08.2000y. dagi PF-2682-sonli Farmonining 4-sonli Ilovasi**

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudning tuzilishi



**Fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar
sudlarining taxminiy tuzilishi**



VI mavzu. HARBIY SUDLAR

6.1. Harbiy sudlarning vazifalari va ularning O‘zbekiston Respublikasi sud tizimida tutgan o‘rni

Harbiy sudlarning maqsad-vazifalari umumiy yurisdiksiya sudlarinikiga bir qadar o‘xshash. Ular, O‘zR «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, fuqarolarning Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan, xalqaro normativ aktlar bilan muhofaza qilinadigan huquq va erkinliklarini, tashkilot, korxona va muassasalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolarning tinchligi va totuvligini ta’minlashga qaratilgandir.

Sud hokimiyatining boshqa organlari singari, harbiy sudlar ham shu hokimiyat organlariga xos bo‘lgan vakolatlarga ega bo‘ladi. Ularga odil sudlovni amalga oshirish, harbiy shaxslar va ularga tenglashtirilgan fuqarolarning huquq va erkinliklari bilan bog‘liq mansabdor shaxslarning qaror va farmoyishlarning qonuniyligi va asoslilagini tekshirish, hukmlarning va boshqa sud qarorlarining ijrosini ta’minlash hamda harbiy sudlar tizimidagi sudyalar hamjamiyati organlari bilan hamkorlik qilish vazifasi yuklatilgan.

Harbiy sudlar bilan boshqa sudlar ular uchun belgilangan, o‘z faoliyatida qonuniylik tamoyiliga amal qilish majburiyati bilan o‘xshashdir. Harbiy sudlar ham, boshqa sudlar singari, O‘zR Konstitutsiyasi va qonunlari, qonun osti hujjatlari talablariga bo‘ysunishi kerak, shuningdek, O‘zR Oliy sudi Plenumi qarorlari va ko‘rsatmalari ham ular uchun majburiyidir. Muayyan jinoyat yoki fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqayotganda ham bu sudlar, hech bir istisnosiz, O‘zR JPK va FPKlarida belgilangan normalar asosida amal qiladi. Masalan, harbiy sudda ham sudlanuvchi unga e‘lon qilingan ayblovdan himoyalanish bilan bog‘liq barcha protsessual huquqlardan to‘la foydalanadi.

Lekin harbiy sudlar boshqa sudlar bilan o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ular o‘rtasida ayrim tafovutlar mavjuddir. *Ular quyidagi hollarda namoyon bo‘ladi.*

Birinchidan, harbiy sudlarga qonunlarni sharhlash, konstitutsiyaviy nazorat vakolatlari berilmagan. *Ikkinchidan*, sud hokimiyatining bu sudlarga berilgan vakolatlari doim ham umumiyligi yurisdiksiya sudlari tomonidan olib boriladigan darajada amalga oshirilmaydi. Masalan, harbiy sudlar odil sud-lovni barcha fuqarolarga nisbatan amalga oshirmaydi. *Uchin-chidan*, harbiy sudlar vakolatlarining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, ular tomonidan faqatgina harbiy xizmatga qarshi qaratilgan jinoiy ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish mumkinligi hisoblanadi. Bunday jinoiy ishlarga buyruqni bajarmaslik, harbiy qismni o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish, dezertirlik kabi jinoiy ishlar kiradi.

Yuqorida bayon etilgan va boshqa qator omillar ma’lum ma’noda harbiy sudlarning tashkil etilishi xususiyatlarini va ular faoliyatining asoslarini belgilab beradi. Ularning sudlov faoliyati ustidan nazoratni umumiyligi yurisdiksiya sudlari faoliyati ustidan nazoratni O‘zR Oliy sudi amalga oshiradi. Bu orqali esa fuqarolarga nisbatan ham, harbiy shaxslarga nisbatan ham qonunlarning adolatli tatbiq etilishiga erishiladi.

Ammo harbiy sudlarning tashkil etilishi va faoliyatining asoslari ularning umumiyligi yurisdiksiya sudlari bilan umumlashganligi xususiyati bilan namoyon bo‘lib, ayni vaqtida ularning boshqa sudlarga nisbatan ma’lum bir muhtoriyatdalik xususiyati ham mayjudligini belgilaydi. Harbiy sudlar O‘zR sud tizimiga kirib, Oliy sud harbiy hay’ati, O‘zR harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan tarkib topgan.

6.2. Harbiy sudlarning rivojlanish bosqichlari

Harbiy sudlar Respublikamizda mustaqillik e’lon qilinishi bilan o‘z faoliyatini olib borayotgan bo‘lib, Respublika umumiyligi sud tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.¹ Ulargacha bo‘lgan harbiy okruglar umumiyligi sud tizimiga kirmagan, ular SSSR rahbariyati siyosati tufayli sobiq Turkiston harbiy okrugi qo’shnirlari bilan birga «Markaz»ga – Moskvaga bo‘ysungan.²

¹ Qarang: Указ Президента РУз «О военных трибуналах и органах военной прокуратуры» от 28 февраля 1992 г. и Положение об организации деятельности военных судов от 20 сентября 1993 г.

² Армия и общество (сборник статей). – М.: Прогресс, 1990.

Umumfuqarolik organlari ongli harbiy intizom uchun kurasha olmagan, boisi ishlarning tezkor hal etilishini ta'minlay olmagan. Sudyalar armiyadan ajratilgan bo'lib, harbiy xizmat xususiyatlarini bilmas edilar. Tashkiliy jihatdan harbiy tuzilmalar bilan bog'liq bo'lgan sudlar kerak edi. Bunday sudlar, revolutsion harbiy tribunallar qo'mondonlik va siyosiy organlar tashabbusi bilan tuzila boshlandi.

1918-yil iyun oyida 1-armiya tarkibida dastlabki harbiy tribunal tashkil etildi va shu yil oxirigacha bunday sudlar amalda bo'lgan barchia armiya frontlarida tashkil etildi. Harbiy tribunallar faoliyatini boshqarish uchun 1918-yil 8-dekabrdan ish boshlagan Revvoentribunal tashkil etildi.¹

1919-yil boshlarida ishlab chiqilgan dastlabki aktlarda Revvoentribunal faoliyat tartibi hali belgilanmagan edi. 1919-yil 8-yanvarda qabul qilingan front va armiyalarning revvoentribunallariga yo'rinnomalarda sudlovni «soddalashtirilgan tartibda va mumkin qadar tezkorlik bilan, iloji bo'lsa jazo muddatini jinoyat sodir etilish vaqtiga yaqinlashtirgan holda» amalga oshirish lozimligi eslatib o'tilgan xolos. Shuning bilan odil sudlov ko'rinishidagi qatag'onlar uchun zamin yaratildi. 1919-yil 20-noyabrdan revolutsion tribunallar to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. Bu nizom tribunallar faoliyatini tartibga soluvchi birinchi qonun hujjati edi.

Revvoentribunallar hukmlari ustidan shikoyat qilib bo'lmasi va ular e'lom qilingan vaqtdanoq qonuniy kuchga kirgan. Oly jazo nazarda tutilgan hukmlarni ijro etishning alohida tartibi joriy etilgandi. Bunday hukmning har biri haqida bu hukmni chiqargan sud joylashgan Revvoensovetga va respublika revvoentribunaliga xabar berilgan. Hukm bu organlar ijroni to'xtatmagan taqdirda ijro etilgan. Agarda hukm ijrosi Revvoensovet tomonidan to'xtatilgan bo'lsa, uni yuqori turuvchi Revvoentribunal ko'rib chiqqan va bu organ hukmni bekor qilishi, o'zgartirishi yoki qoldirishi mumkin edi.²

¹ Максимов С. Военные трибуналы - органы правосудия. - В кн.: Военные трибуналы – органы правосудия в вооружённых силах. – М., 1988.

² Приказ Революционно-военного совета Туркестанской Республики от 19 июня 1919 г. № 634. - ЦГА РУз, Фонд №25, ОП 1, Д. 170, л.д 12.

Respublika VTSining rahbariy yo‘riqnomalarida bir necha bor ta’kidlanishicha, qarorni yoki hukmni chiqarayotganda sud-yalar qo‘mondonlik va Revvoensovet fikri bilan bog‘lanmagan va barcha narsani «o‘zlarining mavqeiga tayanib, jazoning u yoki bu turini qo‘llash kerakligi haqida o‘zlarining qarashlariga asoslanadilar». Revvoentribunallar faoliyatining xususiyatlari protsessual huquqning ayrim me’yorlarini armiyaning tashkiliy sharoitlarida qo‘llashda namoyon bo‘lar edi.

Fuqarolar urushining tugashi va armiyaning qisqartirilishi bilan harbiy sud tizimida ham qator o‘zgarishlar bo‘ldi¹.

1921-yil 23-iyundagi VTSIK farmoyishi bilan Respublika revvoentribunalni bekor bo‘ldi. Harbiy xizmatchilarning aksariyat ishlarini yana hududiy sudlar ko‘rib chiqaboshladi. Sud-lovni amalga oshirish shakli birligi tamoyili barcha sudsarning vakolat doirasini belgilab beruvchi 1922-yili 31-oktabrda qabul qilingan sudlov to‘g‘risidagi nizomda mustahkamlab qo‘yilgan edi. 1936-yili esa Narkomyustning tashkil etilishi bilan unga sudsarni tashkiliy boshqarish yuklatildi.

1939-yili 15-iyunida SNK tomonidan qabul qilingan Narkomyust to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, Narkomyustda maxsus sudlar boshqarmasi tashkil etildi va uning tarkibiga harbiy tribunallar bo‘limi kiritildi. Lekin 1940-yil 13-iyunga kelib maxsus sudlar boshqarmasi o‘rniga harbiy tribunallar Boshqarmasi tashkil etildi. Bu boshqarma 1942-yil may oyida harbiy tribunallar Bosh Boshqarmasiga (O‘TBB) aylantirildi.

Urush yillarida harbiy sudlar faoliyatini boshqarishda asosiy rolni NKYU va O‘TBB o‘ynagan.² Urush tugaganidan so‘ng harbiy sudsarni boshqarishning tashkiliy asoslarini mustahkam-lash borasida choralar ko‘rila boshlandi. 1946-yil 27-iyulda so‘biq Ittifoq Ministrlar Soveti Qurolli Kuchlarning harbiy tribunallar Bosh Boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqladi. Mazkur nizom bilan Bosh Boshqarma faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, uning strukturasi va boshqa masalalar belgilab berilgan.

¹ Положение о Высшем судебном контроле Туркестанской Республики от 13.07.1921 г. – ЦГА РУз, Фонд № 25, ОП № 2/51, Д.413, л.д. 21.

² Деятельность органов военной юстиции в годы Великой Отечественной войны (Круглый стол журнала «Государство и право»). - Государство и право, 1995, № 8.– В.85.

Bundan ham oldin, urush tugashi bilan, harbiy holat tufayli joriy qilingan protsessual cheklovlar olib tashlangan edi. Harbiy sud organlarining faoliyatidagi o‘zgarishlar qonuniylikni mustahkamlash chora-tadbirlari asosida amalga oshirilgan. Suddan tashqari ishlarni ko‘rish tartibi va ayrim huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik olib tashlandi, qator amnistiya aktlari chiqarildi.

1956-yil may oyida Ittifoq Adliya vazirligining uning tarkibida bo‘lgan harbiy tribunallar boshqarmasi bilan birga tugatilishi tufayli harbiy tribunallar boshqaruvi Oliy Sud harbiy hay’atida mujassam etildi. Keyingi yillar shuni ko‘rsatdiki, oliv sud instansiyalarda sudlar ustidan nazorat va ular faoliyatining tashkiliy boshqaruvi funksiyalarining birga olib borilishi shu ikki funksiyani to‘liq va lozim darajada bajarishga to‘sqinlik qilib, sudyalar mustaqilligining mustahkamlanishiga imkon bermagan. Harbiy tribunallarga kelsak, bu yuqorida ko‘rsatilgan qayta tashkil etish natijasi bo‘lib, qator yillar mobaynida kadrlarni tayyorlash, ularni ta’minlash va hokazo muammolarning yechilmasligiga olib keldi.

Sobiq Ittifoq Adliya vazirligi qaytadan tashkil etilishi bilan uning tarkibida harbiy tribunallar Boshqarmasi ham qaytadan tashkil etildi.¹ Harbiy tribunallarning tashkiliy boshqaruvi harbiy tribunallar to‘g‘risidagi Nizomning 25-moddasi bilan mustahkamlangan edi.

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi bilan Respublika Qurolli Kuchlarida qonun ustuvorligini ta’minlash va mustahkamlash imkoniyati tug‘ildi. Harbiy sudlar ilk bor Respublikaning umumiy sud tizimi tarkibiga kiritildi. Bu tarixiy voqeя mazkur sudlar oldida odil sudlovni amalga oshirish vazifasi bilan bir qatorda yangi vazifalar, mustaqillikni mustahkamlash va Vatanni himoya qilish kabilarni belgilab berdi.

O‘zR Oliy Kengashining «O‘zRning davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida»gi qaror bilan tasdiqlangan 1991-yil 31-avgustdagи «O‘zR davlat mustaqillиги» to‘g‘risidagi bayonotida «harbiy tribunallar» degan ibora yo‘q bo‘lsa-da, shunday de-

¹ Qarang. Мирзаев Т.К. Деятельность военных судов: проблемы и решения. Автoreферат на соискание ученой степени канд. юр. наук. – Т.: 2001. – В. 11–16.

yiladi: «Davlat suvereniteti, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini hamda hududiy birligini (yaxlitligini) himoyalash maqsadida O'zR Mudofaa ishlari vazirligi va milliy gvardiya tashkil etiladi. O'zR yurisdiksiyasi ostiga respublika hududida joylashgan SSSR IIV, SSSR DHQ hamda ichki qo'shinlari o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirilgan SSSR Mudofaa vazirligining harbiy qismlarni, qo'shilmalarini shakllantirish va ularni boshqarishga bo'lgan o'z huquqini yoqlab chiqadi». Shuningdek, 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zR davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunning 6-moddasida shunday deyiladi: «O'zR Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etishga, Milliy Gvardiyani tuzishga va muqobil xizmatni joriy qilishga haqli».

Nihoyat, O'zR Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi «O'zRda joylashgan harbiy qismlar va harbiy-o'quv muassasalari to'g'risida»gi farmoyishida shunday deyiladi: «O'zR yurisdiksiyasi ostiga strategik kuchlar tarkibiga kiruvchi hamda Qurolli Kuchlarning birlashgan qo'mondonligiga bo'y sunuvchi harbiy tuzilmalardan tashqari, respublika hududida joylashtirilgan sobiq SSSRning qismlari, qo'shilmalari, harbiy o'quv dargohlari, muassasalari, tashkilotlari va boshqa tuzilmalari olinsin».

Mazkur muhim uchta hujjatda harbiy yustitsiya organlarning Konstitutsiya qabul qilinguniga qadar keyingi rivojlanishi belgilab qo'yilgan edi. Bu organlar bizning respublikamiz yurisdiksiyasi ostiga o'tganligi ma'lum bo'ldi. Respublikamiz suvereniteti bu organlarning yangi ko'rinishda shakllanishini bildiradi.¹ Harbiy tribunallar qo'shinda qonuniylikni mustahkamlashda ijobiy o'rin tutganligiga qaramay, aholining aksariyat qismida ular harbiy dala sudlari va mash'um «uchliklar», qatag'onlar bilan birgalikda tasavvur etiladi. Shuning uchun ham ularning nomini o'zgartiribgina qolmasdan, ularni faktik jihatdan qaytadan shakllantirish kerak edi. Bu sudlar respublika umumiyligi tizimiga uyg'unlashib ketishi lozim edi. Bu

¹ Qarang: Глебов И.Н. Военное право Содружества: состояние и перспективы международно-правового регулирования военно-политических отношений государств СНГ // Государство и право, 1993, № 10. – В.45.

vazifa 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «O'zR Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuning qabul qilinishi bilan hal etildi.

1992-yil 28-fevralda qabul qilingan «harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni bilan respublika Qurolli Kuchlarida qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash maqsadida shunday holat belgilandi: respublikamizda joylashtirilgan harbiy tribunallar uning sud tizimiga kiritilib, O'zR nomidan odil sudlovni barcha harbiy qismlar, qo'shilmalar, strategik va umumiyo'y nalistidagi birlashmalar, harbiy-o'quv dargohlari, muassasalar va boshqa harbiy tuzilmalarda amalga oshiradi. Mazkur farmon bilan bir vaqtida sobiq Turkiston harbiy okrugining harbiy tribunalini asosida O'zR Qurolli Kuchlar harbiy sudi tashkil etildi.

Yangi qonun hujjatlarining qabul qilinishiga qadar harbiy suds o'z faoliyatida O'zR qonunchiligiga va respublika qonunchiligiga zid bo'limgan sobiq SSSR qonunlariga asoslanib ish yuritishi belgilangan edi. Oliy sudga O'zR Oliy Kengashiga Oliy sud harbiy hay'atining tashkil etilishi haqida taklif kiritish vazifasi yuklatildi. Mudofaa vazirligiga esa harbiy sudsarning va harbiy prokuratura organlarining moddiy-texnik va moliyaviy ta'minotini shaxsiy tarkibning harbiy shaxslar maqomini qoldirib, barcha pulli va boshqa imtiyozlarni saqlab qolgan holda ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Mamlakatimiz Oliy kengashi tomonidan 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan «O'zR Oliy sudi tarkibida harbiy hay'at tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan bunday hay'at tashkil etildi va uning vakolatiga alohida muhim ishlarni birinchi instansiya da ko'rib chiqish, shuningdek, ishlarni kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqish kiritildi. Shu bilan bir vaqtida, O'zR hududida joylashgan harbiy sudsarning ilgari o'rnatilgan tartib bo'yicha tayinlangan sudyalarning vakolatlari tasdiqlandi.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi arafasida, 1992-yil 1-dekabrda O'zR Vazirlar Mahkamasining «O'zR harbiy sudsari va harbiy hay'at to'g'risida»gi qarori bilan Respublika Oliy sudiga harbiy hay'atning shtat soni belgilab berildi. Shuningdek, shtatlar Qurolli Kuchlar harbiy sudi va Toshkent, Samarqand, Termiz va Farg'ona Qurolli Kuchlar garnizonlarining harbiy

sudlari uchun ham belgilab berildi. Mazkur qarorda ayrim yan-giliklar ham mavjud edi. Xususan, O‘zRning «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuning 19-moddasi 2-qismiga binoan, harbiy hay‘at a‘zolarini haqiqiy harbiy xizmatga chaqirishda ularning sudlarda, adliya organlarida, ichki ishlar organlarida, milliy xavfsizlik organlarida va prokuratura organlarida ishlagan vaqtin harbiy xizmat muddati o‘rniga hisoblanadi. Mudofaa Vaziriga Oliy sud Raisi bilan maslaxatlashgan holda harbiy hay‘at a‘zolarining haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilishi bilan ularga harbiy hay‘at shtatiga muvofiq harbiy unvonlarni berish yuklatildi.

Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etishda 1993-yil 2-sentabr juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kuni O‘zRning «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunni qabul qilindi va bu qonunda respublika hududida faoliyat yuritayotgan sudlar sifatida harbiy sudlar ham e’tirof etildi. Tabiiyki, sudlarning qonunda ko‘rsatilgan barcha vazifalari va prinsiplari «O‘zR huquqni muhofaza qiluvchi organlari» o‘quv kursining birinchi darsligida yoritilgan harbiy sudlar faoliyatiga nisbatan ham tatbiq etildi.¹ Keyinchalik esa, sud-huquq islohotining o‘tkazilishi bilan mazkur qonunga qator o‘zgarish va qo‘sishmalar kiritildi. Natijada, 2000-yil 14-dekabrda O‘zRning «Sudlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunning 4-bobi «harbiy sudlar»ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bu sudlarning tizimi, ularning sudloviga tegishli bo‘lgan ishlar, shuningdek, Qurolli Kuchlar harbiy qismlari, qo‘silmalari va tuzilmalari qo‘mondonligiga nisbatan da’vo ishlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlari ustidan shikoyat ishlari hamda alohida holatlar tufayli umumiy yuridisxiya sudlari faoliyat yuritmaydigan hududlarda barcha jinoiy va fuqarolik ishlari va davlat sirlari bilan bog‘liq ishlar keltirib o‘tiladi (40-modda).

Shuningdek, qonunning 41-moddasida harbiy sudlar tarkibi aniqlab berilgan. O‘zR Oliy sudi tarkibiga harbiy Kollegiya kirganligi sababli O‘zR harbiy sudi viloyat sudlari maqomida

¹ Миренский Б. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебник для юридических вузов. – Т.: «Adolat», 1998. – В. 88–90.

tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibiga sudyalar bilan xalq maslahatchilarini ham kiradi. Garnizonlarning harbiy sudlari tuman sudlari maqomiga tenglashtirilgan bo‘lib, ular ham xalq maslahatchilarini ishtirokida o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Harbiy sudlarning faoliyati to‘g‘risidagi Nizom 2000-yil 14 dekabrda tasdiqlangan bo‘lib, unda «harbiy sudlar» O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga kiradi va odil sudlovni amalga oshirishda O‘zR Konstitutsiyasi va qonunlariga asoslanadi, deb to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘kidlanadi.

Mazkur Nizom barcha bo‘g‘in harbiy sudlari uchun tegishli bo‘lgan ishlarni aniq belgilab beradi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bunday belgilanish hatto O‘zR JPK sida ham yo‘q bo‘lib, bu hol unga zid bo‘lmasdan, balki uning 345-moddasini to‘ldiradi. Lekin harbiy sudlarning faoliyati JPKdan emas, balki boshqa qonun hujjatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi, deyish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Uning protsessual tartibga solinishi barcha sudlarniki bilan bir xildir. Shuning uchun ham jinoyat protsessi bo‘yicha eng yangi darslik va qo‘llanmalarda ularning faoliyatiga deyarli to‘xtalib o‘tilmaydi.¹ Harbiy sudlarning faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasi O‘zR Oliy sudi raisiga yuklangan. Shuning uchun ham O‘zR Oliy sudi raisi harbiy sudlar ishlaringning tashkil etilishiga oid buyruq va farmoyishlar chiqaradi.

Harbiy sudlarning moddiy-texnik ta’minoti, moliyalashtirish, transport ta’minoti, aloqa vositalari bilan ta’minlash masalalari O‘zR Mudofaa vazirligiga yuklatilgan va O‘zR Davlat budgetidan tushadigan mablag‘lar asosida amalga oshiriladi. Bu holat O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-mart-

¹ Уголовный процесс. Darslik / I.A. Petruxinning tahriri ostida. – M: Проспект, 2001. – В. 520.; Уголовный процесс. Yuridik oliv o‘quv yurtlari va fakul’tetlari uchun darslik /. K.F. Gusenkoning tahriri ostida.. То‘rtinchи nashr. – М.: Зерцало, 2000. – В. 609.; Уголовно-процессуальное право Российской Федерации. Darslik / Mas‘ul muharrir: P.A. Lupinskaya. – М.: «Юристъ», 1999. – В. 696.; Уголовный процесс / отв. ред. А.С. Кобликов. – М. Юристъ, 1995. – В. 320.; G Громов Н.А. Уголовный процесс России. Учебное пособие. – М.: «Юристъ», 1999. – В. 552.; Вандышев В.В. Уголовный процесс в схемах. Учебное наглядное пособие. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – В. 272.; Калиновский К. Уголовный процесс в тестах. O‘quv qo‘llanma. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – В.144.

da qabul qilingan «Sudlar faoliyatining ta'minlanishini takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 120-sonli farmoyishiga zid kelmaydi, mazkur faoliyatning moliyalashtirilishi va sud-larning moddiy-texnik ta'minoti, qurilish va sud binolarini qo'riqlash, sudlar faoliyatini tashkil etish, moliyaviy va mod-diy-texnik ta'minlash bo'yicha departament tomonidan hamda respublika budjeti va O'zR adliya muassasalari hamda sudlarini rivojlantirish fondi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bundan kelib chiqib, mazkur departament faoliyati boshqa sndlarga kadrlarni joylashtirish, harbiy sndlarga kadrlar tan-lash ishlari bilan shug'ullanishga qaratilgan. Harbiy sudlar binolarini qo'riqlash harbiy sudlar joylashgan hududda joylash-tirilgan garnizon harbiy qismlari tomonidan amalga oshiriladi. Gaupthahtalarda saqlanayotgan hibsga olinganlarni kuzatib borish va sud majlisida ularni qo'riqlash garnizonlarning har-biy komendaturalari va qismlari tomonidan amalga oshiriladi. Boshqa muassasalarda saqlanayotgan hibsga olinganlarni ish-ni ko'rib chiqish manziliga kuzatib borish va ularni sud majlisida qo'riqlash belgilangan tartibda IIV qismlari va organlari tomo-nidan amalga oshiriladi.

Bir qarashda harbiy sudlar faoliyatining tashkil etilishi to'g'risidagi Nizom barcha masalalarni qamrab olgandek tuyu-ladi. Lekin hayot ularning sudloviga tegishli bo'lgan ishlarni yana bir bor o'zgartirdi. Qurolli kuchlarda o'tkazilayotgan is-lohotlar tufayli, Favqulodda Vaziyatlar vazirligi, Davlat chegarasini qo'riqlash Qo'mitasi, IIV ichki va qorovul qo'shinlarining Bosh Boshqarmasi va Mudofaa vazirligi har-biy okruglarining tashkil etilishi bilan, harbiy sndlarning odil sudlovnvi amalga oshirish, QQlarda qonuniylik va huquq-tarti-botni mustahkamlash faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida O'zR Prezidentining 1999-yil 23-sentabrda qabul qilingan «O'zR harbiy sudini tashkil etish to'g'risida»gi Far-moniga muvofiq, Qurolli Kuchlar harbiy sudi asosida O'zR harbiy sudi tashkil etildi.

Bu sud organining asosiy vazifalari qilib: davlat man-faatlarini himoyalash, Qurolli Kuchlar, Davlat chegarasini qo'riqlash Qo'mitasi, IIV, MXX, FVV ichki va qorovul qo'shinlarining Bosh Boshqarmasi hamda vazirliklar harbiy

bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining huquq va erkinliklarini muhofaza etish; respublika Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga asoslangan holda qo‘sishnilda odil sudlovni amalga oshirish; harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasi yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko‘rish belgilandi. Hozirgi vaqtida, mazkur Farmonga muvofiq, harbiy sudlar quyidagi tarkibga ega: O‘zR harbiy sudi, harbiy okruglarning harbiy sudlari va hududiy harbiy sudlar.

6.3. Harbiy sudlarning tashkil etilishi va sudlovga tegishlilik asoslari

Harbiy sudlarning ish yurituviga fuqarolik va jinoyat ishlari tegishlidir. Bunda ularning umumiy yurisdiksya sudlari bilan o‘xshashligi namoyon bo‘ladi. Ammo harbiy sudlar tomonidan ko‘rib hal etilishi mumkin bo‘lgan ishlar o‘z xususiyatlariga ega. Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom qoidalariga muvofiq O‘zR harbiy sudlari quyidagi ishlarni ko‘rib chiqadi:

a) Mudofaa vazirligi, Favqulodda Vaziyatlar vazirligi, Davlat chegarasini qo‘riqlash Qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va qonunga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiylashtirilgan muassasalarning harbiy xizmatchilari tomonidan hamda harbiy xizmatga majburlar tomonidan o‘quv mashqlari o‘tayotgan vaqtida sodir etiladigan jinoiy ishlar;

b) harbiy qismlar, qo‘silmalar va birlashmalarning, harbiy boshqaruven organlarining qo‘mondonliklariga nisbatan da’volar hamda harbiy boshqaruven organlari mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilar huquq va manfaatlarini buzuvchi harakat va qarorlari ustidan shikoyatlar bo‘yicha fuqarolik ishlari;

d) alohida holatlar tufayli umumiy yurisdiksya sudlari faoliyat yuritmaydigan hududlarda barcha fuqarolik va jinoiy ishlar;

e) davlat sirlari bilan bog‘liq ishlar;

f) qonunda nazarda tutilgan boshqa ishlar.

Yuqorida bayon etilganlardan ma’lum bo‘lishicha, harbiy sudlar sudloviga ishlarning tegishli bo‘lishi javobgarlikka tortilayotgan shaxsning harbiy xizmatchi ekani bilan bog‘liq. Shuning uchun ham kimlar harbiy xizmatchi bo‘lishligini bilib

olish juda katta ahamiyatga egadir. Mazkur savolga javobni O'zRning «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi (12.12.2002), «Mudofaa to‘g‘risida»gi (11.05.2001) qonunlaridan, shuningdek, 14.12.2000-yil Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom va Oliy Majlis tomonidan 30.08.1995-yil tasdiqlangan O'zR harbiy Doktrinasidan izlash kerak.

Mazkur hujjatlar qoidalariga muvofiq, harbiy xizmatchilar bo‘lib O'zR Qurolli Kuchlarida (harbiy doktrinaga muvofiq, O'zR Qurolli Kuchlari quruqlikdagi qo‘sishnlar, harbiy-havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qilish qo‘sishnlar, Maxsus qo‘sishnlar va muhandislik-qurilish qo‘sishnlaridan, Milliy Gvardiyadan tashkil topadi) davlat xizmatining maxsus turini o‘tayotgan shaxslar hamda harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizomning a) punktida nazarda tutilgan shaxslar hisoblanadi. Shunisi muhimki, mazkur shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, basharti ular harbiy xizmatga chaqirilgunga qadar yoki harbiy xizmatga yoxud unga tenglashtirilgan boshqa xizmatga kirishga qadar sodir etilsa, ularning ishlari umumiylar yurisdiksiya sudlari tomonidan ko‘riladi. Agarda ular tomonidan jinoyat harbiy xizmatni yoki unga tenglashtirilgan boshqa xizmatni o‘tayotgan vaqtda sodir etilgan bo‘lsa-yu, ammo ular ishning ko‘rilish vaqtiga kelib bo‘shatilgan bo‘lsalar bunda ularning ishlari harbiy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Harbiy xizmatchi bo‘lmagan shaxs harbiy sud oldida quyidagi hollarda javob berishi mumkin: agarda u harbiy-o‘quv dala mashg‘ulotlarini o‘tayotganda, umumiylar yurisdiksiya sudlari faoliyat yuritmayotgan hududlarda jinoyat sodir etsa: bir guruh shaxslar javobgarlikka tortilayotgan bo‘lsa va ulardan loaqlal bittasi harbiy sud sudloviga tegishli bo‘lib, uni ajratish mumkin bo‘masa; bir shaxs yoki bir guruh shaxslar bir necha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilayotganda va bu jinoyatlarining loaqlal bittasi harbiy sud sudloviga tegishli bo‘lsa, ish harbiy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Harbiy sudlarning tizimi haqida gapirayotganda, shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, bu sudlar ham umumiylar yurisdiksiya sudlari singari uch bo‘g‘indan iborat bo‘ladi.

Asosiy bo‘g‘inni tuman sudlari maqomida faoliyat yuritadigan okrug va hududiy harbiy sudlar tashkil etadi. Ular-

ning sudloviga jinoiy ishlar umumiy hajmidan barcha bo‘g‘in sudlarining sudloviga tegishli bo‘lgan va podpolkovnik gacha yoki 2-rang kapitani unvonigacha bo‘lgan shaxslarning jinoyat ishlari tegishlidir (tinchlik vaqtida sodir etilgan jinoyat uchun o‘lim jazosi berilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlardan tashqari). Ular harbiy sudlar tomonidan hal etilishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqadilar.

Mazkur bo‘g‘in sudlari rais, sudyalar, xalq maslahat-chilaridan hamda zarurat bo‘lsa, sud raisi o‘rinbosaridan iborat bo‘ladi. Harbiy sudlarning o‘rtta bo‘g‘inini O‘zR harbiy sudi tashkil etadi. Bu sud viloyat sudlari maqomida faoliyat yuritadi. Unga birinchi instansiya, appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida hamda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud ishlarini ko‘rib hal etish funksiyasi yuklatilgan.

O‘zR harbiy sudi sudloviga:

- o‘lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar;
- polkovnik, 1-rang kapitani unvoniga ega brigada komandiri yoki ularga tenglashtirilgan xizmat mavqeiga ega bo‘lganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar hamda ular bilan bog‘liq boshqa ishlar va shikoyatlar taalluqlidir. O‘zR harbiy sudi umumiy yurisdiksiya sudlarining o‘rtta bo‘g‘in sudlari sifatida o‘zlaridan quyi turuvchi suddan har qanday ishni birinchi instansiya sudi sifatida olib ko‘rishga vakolatlidir. O‘zR Harbiy sudi rais, rais o‘rinbosari, sudyalar va xalq maslahat-chilaridan iborat bo‘ladi.

Harbiy sudlarga nisbatan oliy instansiya bo‘lib O‘zR Oliy sudi hisoblanadi, uning tarkibida harbiy hay’at tashkil etilgan.

O‘zR Oliy sudi quyidagilarga vakolatlidir:

- harbiy sudlarda ishlar tashkil etilishini tekshiradi;
- harbiy sudlov statistikasini olib borishni nazorat qiladi hamda sudlarning amaliyotini o‘rganadi va umumlashdiradi;
- harbiy sudlar sudyalarining malakasini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko‘radi;
- sudyalarining mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalgaga oshiradi;
- O‘zR Adliya vazirligi huzurida tashkil etilgan maxsus vakolatlari organ va Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda xalq maslahatchilarini saylash ishlarini tashkil etadi hamda harbiy sudlarning tashkil etilishi va moddiy-texnik ta’minoti yuzasidan takliflar ishlab chiqadi.

O‘zR Oliy sudining harbiy hay’ati, qonunchilik mazmunidan kelib chiqqan holda, bиринчи va nazorat instansiyalari funksiyalarini bajarishga vakolatlidir:

– harbiy hay’at sudloviga oliy zabitlar tarkibiga mansub shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ular bilan bog’liq boshqa ishlар va shikoyatlar tegishlidir.

Harbiy hay’at nazorat tartibida O‘zR harbiy sudi prezidiumi tomonidan qabul qilingan qarorlar hamda bиринчи instansiya sifatida O‘zR Harbiy sudi ko‘rib chiqqan ishlар yuzasidan appellatsion va cassation ajrimlarni ko‘rib chiqadi.

Harbiy sudlar sudyalarining maqomi «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonun bilan belgilangan. Haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan, zabitlik tarkibi unvoniga ega bo‘lgan hamda umumiy yurisdiksiya sudsleri sudyalariga qo‘yiladigan barcha talablarga javob beradigan O‘zRning fuqarosi harbiy sud sudyasi bo‘lishi mumkin. Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan va yuridik sohada kamida 5 yil ishlagan hamda kamida 2 yil mobaynida sudyalik lavozimida ishlagan, malaka imtihonini topshirgan O‘zR fuqarosi O‘zR harbiy sudi sudyasi bo‘lishi mumkin.

Harbiy sudlar sudyalariga harbiy xizmatchilar uchun «Sudlar to‘g‘risida»gi, «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi O‘zR qonunlarida, umumharbiy Nizomlarda nazarda tutilgan barcha huquqiy va ijtimoiy muhofaza me’yorlari tatbiq etiladi. Harbiy sudsarning sudyalari O‘zR Prezidenti huzuridagi suda lavozimiga nomzodlarni tanlash va tavsiya etish Oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan O‘zR Prezidenti tomonidan 5 yil muddatga tayinlanadi.

Barcha bo‘g‘in harbiy sudslerida ularning odil sudlovni amalga oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil etish hamda boshqa funksiyalarini bajarish ishlарini ta’minlovchi devonlar tashkil etiladi. Harbiy sudsarning tarkibi, shtat miqdori, shtat lavozimlarining ro‘yxati va bu lavozimlar uchun belgilangan unvonlar ro‘yxati O‘zR Prezidenti tomonidan O‘zR Oliy sudi raisining O‘zR Mudofaa Vaziri bilan kelishilgan taqdimnomasiga ko‘ra tasdiqlanadi.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. – T.: O‘zbekiston, 2003.

2. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘sishchalar kiritilishi to‘g‘risida»gi Qonun. 24.04.2003-y.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi 2000-yil 14-dekabr qonuni, yangi tahrir. 07.21.2001-y.

4. «Harbiy sudlar faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-y. 14-dekabr 164-II sonli qarori bilan tasdiqlangan.

5. «Turkiston Respublikasining Oliy Inqilobiy tribunalini to‘g‘risida»gi Nizom, 1919-y, 26-aprel. № 36 (TSGA RUz, fond №38, OP № 2, D № 26, l. d. 20).

6. «Turkiston Respublikasining Oliy Inqilobiy-harbiy kengashining Buyrug‘i». 19-iyun 1919-yil, № 634. 6.

7. Turkiston Respublikasining Oliy sud nazorati to‘g‘risidagi Nizom, 1921-y, 13-iyul

8. O‘zbekiston Respublikasi Sudlar to‘g‘risidagi me’yoriy huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: 2001.

Maxsus adabiyotlar:

1. Вандышев В.В. Уголовный процесс в схемах. Учебное наглядное пособие. Санкт-Петербург, Питер, 2001.

2. Глебов И.Н. Военное право Содружества: состояние и перспективы международно-правового регулирования военно-политических отношений государств СНГ // Государство и право, 1993, № 10.

3. Громов Н.А. Уголовный процесс России: Учебное пособие. М.: Юрист, 1999.

4. Деятельность органов военной юстиции в годы Великой Отечественной войны (Круглый стол журнала «Государство и право») - Государство и право, 1995, № 8.

5. Жданов Ю.Н. Современная советская военная доктрина и право. (Государство и право), 1991 №5.

6. Загорский Г. Порядок судопроизводства в реввоентрибуналах.

7. Калиновский К. Уголовный процесс в тестах. Учебное пособие. – Санкт-Петербург, Питер, 2001.

8. Максимов С. Военные трибуналы – Органы правосудия. – В кн.: Военные трибуналы – Органы правосудия в вооружённых силах. – М., 1988.

9. Миренский Б. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебник для юридических вузов. – Т.: Адолат. 1998.
10. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. Под редакцией профессора Гуценко К. Ф. 3-е издание дополненное и переработанное. – М.: Зерцало, 1997.
11. Савицкий В.М. «Организация судебной власти в Российской Федерации». Учебное пособие для Вузов. -М.: БЕК, 1996.
12. O‘zbekiston Respublikasida sud islohotining rivojlanish dasturi. Oliy sud Byulleteni. №3-4, 1996.
13. Уголовный процесс. Учебник. Под редакцией И.А. Петрухина. – М.: Проспект, 2001.
14. Уголовно-процессуальное право Российской Федерации. Учебник. Ответственный редактор П.А. Лупинская. Издание 3-е, дополненное и переработанное. –М.: Юрист, 1999.
15. Уголовный процесс. Под редакцией Кобликова А.С. – М.: Юрист, 1995.
16. Мирзаев Т.К. Деятельность военных судов: Проблемы и решения. Автoreферат на соискание ученой степени канд. юр. наук. – Т.: 2001.
17. Sud hokimiyati islohotlari davri. Mualliflar jamoasi. – Т.: «Adolat», 2002-у.

Nazorat savollari

1. Harbiy sudlarning vazifalari.
2. Qanday jinoyatlar harbiy sudlar sudloviga tegishli?
3. Harbiy sudlarda ishlar qanday tashkil etiladi?
4. Sud tarkibiy bo‘lmalarining tashkil etilish tartibi va vakolatlarini ko‘rsatib bering.
5. O‘rta bo‘g‘in sudlarda ishlar qanday tashkil etiladi?
6. Sud apparatida qanday lavozimlar mavjud?
7. O‘rta bo‘g‘in sudlari Rayosati qanday vakolatlarga ega?
8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudlari va Toshkent shahar sudining sudlov hay’atining vakolatlarini ayтиб bering.
9. O‘rta bo‘g‘in sudi raisining o‘rinbosari qanday vakolatlarga ega?
10. Sudyalar malakasini oshirish borasidagi ishlar qanday tashkillashtirilgan?

VII mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI

7.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sud tizimida tutgan o'rni. Oliy sud vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sohalarda sud faoliyatini amalga oshiruvchi Oliy sud hokimiyat organi hisoblanadi. Oliy sud tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarning ijro etilishi butun O'zbekiston hududida majburiydir. Oliy sudning tashkil etilishi va faoliyati 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman va harbiy sudlar faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoyat va ma'muriy sohalarda sud faoliyatini amalga oshiruvchi oliy sud hokimiyat organi sifatida keng va turli vakolatlarga ega. Boshqacha tarzda ifodalaganda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Respublika sud tizimi va davlat hokimiyatining boshqa organlari orasida o'z o'rnnini belgilab beruvchi bir qator funksiyalarini amalga oshiradi:

1) fuqarolik, jinoiy va ma'muriy ishlar bo'yicha Oliy sud organi sifatida o'ziga yuklatilgan umumiy sudlar yurisdiksiyasiiga taalluqli vazifalarni bajaradi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

3) Sudlarga sud ishlarini ko'rishda qonun qo'llash sohasida tushuntirish va ko'rsatmalar berish uchun sud amaliyotini tadqiq etadi va umumlashtiradi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ko'rsatmalarini amalga oshirilishi ustidan nazorat qiladi;

4) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi bilan chiqadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan *birinchi funksiyaga* ko‘ra umumiy sudlar yurisdiksiyasiga taalluqli, lekin birmuncha murakkab bo‘lgan fuqarolik, jinoiy ishlar bo‘yicha birinchi instansiya sudi sifatida ish ko‘radi.

Ushbu sudning yuqorida aytib o‘tilgan birinchi funksiyasi shunda namoyon bo‘ladiki, u umumiy yurisdiksiya sudlariga tegishli bo‘lgan eng og‘ir jinoyat va fuqarolik ishlarini mazmunan (birinchi instansiya bilan) ko‘rib chiqish vakolatiga ega

Oliy sudning *ikkinchi funksiyasi* birinchisi bilan chambarchas bog‘liq. Sudlar faoliyatini ustidan sud nazoratini amalga oshirish birinchi navbatda, ular tomonidan sodir etiladigan xatolarni topish va tuzatishdan iboratdir. Shu bilan birga shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, bu faoliyat faqatgina protsessual shakllarda, ya’ni qonunchilik bilan o‘rnatilgan jinoyat sudlov ishlarini yuritish qoidalariiga rioya etgan holda amalga oshirilishi kerak. Ushbu talabga rioya etish – umumiy yurisdiksiya sudlarining mustaqilligini va ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligini ta’minalashning muhim vositasidir.

Uchinchi funksiya ham avvalgilaridan alohidalashtirilgan emas. Ushbu funksiyani amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga nafaqat sudlar tomonidan muayyan qonunlarni to‘g‘ri qo‘llash amaliyotiga ta’sir ko‘rsatadi, balki boshqa davlat organlari jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Oliy sud Plenumi tomonidan chiqarilayotgan tushuntirish va ko‘rsatmalar sudlarining muayyan qonunlarni qo‘llashining umumiy amaliyotiga tayanadi, uning mazmunini o‘zida mujassam etib sudlar tomonidan tegishli qonunlarning kelajakda tatbiq etilishiga yo‘nalish beradi.

Ko‘rsatib o‘tilgan funksiyalar qatorida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga berilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasida belgilangan qonunchilik tashabbusi vakolati alohida o‘ringa ega. Bu qonunchilik organining o‘zi tomonidan chiqarilayotgan qonunlarning amaliyoti bilan aloqalarini belgilab beruvchi omildir. Aynan amaliyotda chiqarilayotgan qonun va boshqa huquqiy aktlarning ijobjiy va salbiy jihatlari ko‘rinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunlarning qo‘llanilishidagi kamchiliklar va qiyinchiliklar

to‘g‘risida keng ma’lumotga ega bo‘lgan davlat organlarining biridir. Ushbu ma’lumotlarga tayangan holda amal qilayotgan qonunchilikdagi muammo va boshqa kamchiliklarga e’tibor qaratib, Oliy sud qonun yaratishda ishtirok etadi. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi qonunning 19-moddasiga ko‘ra, Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun taqdim etilgan holda amaldagi qonunchilik tarkibiga ta’sir etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi Konstitutsiyaviy sud majlislarida ishtirok etib, barcha ko‘rilayotgan masalalar yuzasidan o‘z fikrini bildirish huquqiga ega.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tuzilish tizimi va tarkibi

«Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 63-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga muvofiq 5 yil muddatga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan saylanadi. Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan, 7 yildan kam bo‘limgan yuridik stajga ega, suda sifatida kamida 5 yil ishlagan va tegishli malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi qilib saylanishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud hay’atlari raislaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonun bilan belgilangan bir qator bo‘linmalarga bo‘lingan tizimga ega. *Oliy sud quyidagi tarkibda faoliyat ko‘rsatadi:*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hay’ati;

Jinoyat ishlari bo‘yicha sud hay’ati;

Harbiy hay’at.

Oliy sud Plenumi yuqori sud instansiysi hisoblanib, uning tarkibiga Oliy sud sudyalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudining raisi kiradi. Oliy sud Plenumining majlislarida

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori qatnashishi shart, shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning raisi, Oliy xo‘jalik sudi ning raisi, Adliya vaziri, sudyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qoshidagi ilmiy maslahat kengashining a’zolari qatnashishlari mumkin.

Plenum ishlarni nazorat tartibida ko‘radi, sud amaliyoti materiallarini umumlashtirish masalalarini ko‘rib chiqib amaldagi qonunchilik qo‘llanilishi bo‘yicha tushuntirishlar beradi. Bundan tashqari, Oliy sud raisining taqdimnomasiga binoan Oliy sud huzuridagi ilmiy maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi, Oliy sud Rayosati tarkibini, sudlov hay’atlarining tarkibi va raislarini, shuningdek, Oliy sud Plenumining kotibini tasdiqlaydi, Rayosatning ishi to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek, sudlov hay’atlarining faoliyati haqidagi ma’ruzalarni tinglaydi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudi raislarining qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tu-shuntirishlarining amalgा oshirilishi to‘g‘risidagi ma’ruzalarni tinglaydi, Oliy sud matbuot organining tahrir hay’ati tarkibini tasdiqlaydi, Oliy sud Plenumi va Rayosati reglamentini tasdiqlaydi, qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalgа oshiradi.

Oliy sud Plenumi to‘rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhibbata qilinadigan umumiyyat masalalarga doir hujjatlar loyi-halari Oliy sud Plenumining a’zolariga, Bosh prokurorga majlisdan 20 kun ilgari yuboriladi. Oliy sud Plenumi plenum a’zolarining kamida 2/3 qismi hozir bo‘lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Oliy sud Plenumi qarori ko‘pchilik tomonidan ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinib, shu vaqtning o‘zida kuchga kiradi. Oliy sud Plenumi qarori Oliy sud raisi va Oliy sud Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ishni nazorat tartibida ko‘rish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining ish holatlari va protest vajlari haqidagi ma’ruzasini tinglaydi. So‘ngra Bosh prokurorning, shuningdek, basharti taraflar ishtiroy etayotgan bo‘lsa ularning fikrlari tinglanadi. Protestni muhibbata qilish va ovoz berish chog‘ida majlislar zalida Oliy sud Plenumi a’zolaridan tashqari boshqa shaxslarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oliy sud Plenumining a'zolari ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi oxirgi bo'lib ovoz beradi. Protest yuzasidan qaror, agar uni yoqlab Oliy sud Plenumi a'zolarining ko'pchiligi ovoz bergen bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Ishni ko'rishda ilgari qatnashgan sudya ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas.

Ko'pchilik ovozini olmagan protest rad etiladi. Shundan so'ng boshqa takliflarning tushish navbatiga qarab ovozga qo'yiladi. Qabul qilingan qarorga rozi bo'limgan Oliy sud Plenumi a'zosi o'z fikrini yozma ravishda bayon etishga haqli bo'lib, bu fikr Oliy sud Plenumi majlisining bayonnomasiga ilova qilinadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasi).

Oliy sud Plenumining kotibi Oliy sud sudyasi vazifasini bajarish bilan birga Oliy sud Plenumining majlisini tayyorlashga, majlis bayonnomasini yuritishga doir ishlarni tashkiliy jihatdan ta'minlaydi va Oliy sud Plenumi qabul qilgan qarolarning ijrosi uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalgalashadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasi). Muayyan sud ishlarini hal etish bilan bog'liq bo'limgan, Oliy sud raisi yoki Bosh prokuror tomonidan Oliy sud Plenumi muhokamasiga kiritilgan masalalar tegishincha ularning ma'ruzalari yoki ular vakolat bergen shaxslarning ma'ruzalari bo'yicha tinglanadi. Ushbu masalalar muhokamasida Oliy sud Plenumi majlisiga taklif qilingan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Plenumning asosiy vazifalaridan biri bu sud amaliyoti masalalari bo'yicha tushuntirishlar berishdir. Bu xildagi tushuntirishlar qonunni bir xilda tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular sud ishlarini ko'rishdan kelib chiqadigan masalalar bo'yicha muhim va rahbariy ko'rsatmalarni o'zida aks ettiradi. Tushuntirishlar sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish asosida berilib, ular O'zbekiston Respublikasida barcha sullar, davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Oliy sud qarorlari tarkibiga kiruvchi bu xildagi tushuntirishlar qatoriga quyidagilar kiradi:

«Sud hokimiyati haqida». O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining 1996-yil 20-dekabrdagi 1-sonli qarori. «Sud hukmi haqida» O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 1997-yil 2-may 2-sonli

qarori. «Birinchi instansiya sudlarining jinoiy ishlarni ko'rishda protsessual qonunchilikka rioya qilishi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 1997-yil 22-avgust 12-sonli qarori. «Sud qarori haqida» O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998-yil 17-aprel 13-sonli qarori.»

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati Oliy sud sudyalaridan Oliy sud Plenumi tomonidan belgilanadigan sonda tulziladi. Oliy sud raisi, uning birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlari Oliy sud Rayosati tarkibiga lavozimi bo'yicha kiradilar. Oliy sud Rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va Oliy sud Rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Rayosat qarorni a'zolarning ko'pchiligi qatnashgan taqdirdagina qabul qiladi. Muayyan sud ishlarini hal etish bilan bog'liq Rayosat qarori a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinib, shu vaqtning o'zidan kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati shuningdek, ishlarni nazorat tartibida ko'radi, sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sndlari, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi raislarining shu sndlар faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi. Oliy sud sudlov hay'atlari va apparatining ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi, qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalgalashiradi («Sudlar to'g'risida»gi qonunning 23-moddasi).

Sud faoliyatining asosiy qismi asosan Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga va harbiy hay'atga to'g'ri keladi. Ushbu bo'linmalar tarkibini Oliy sud a'zolari orasidan Oliy sud raisining taqdim-nomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tasdiqlaydi. Sud hay'atlari faoliyatini hay'at raislari boshqaradi. Hay'at raisi Oliy sud raisining o'rinnbosari hisoblanadi. Oliy sud hay'atlari quyidagi instansiyalar bo'yicha ishlarni ko'radi: avvalambor, appellatsiya va cassatsiya tartibida, shu bilan birga qonuniy kuchga kirgan qarorlar va sudning boshqa huquqiy hujjatlarini nazorat tartibida ko'radi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sud hay'atlari birinchi instansiya sudi sifatida fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rishlari mum-

kin. Sud hay'atlarining bиринчи instansiya sudi sifatida chiqargan hal qiluv qarori va hukmlari ustidan appellatsiya yoki cassatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirilishi mumkin.

Jinoyat ishlari bиринчи instansiya sudida ko'rileyotganida ushbu sud a'zolari bo'lган uchta sudyda tomonidan ko'rildi.

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori va hukmlar ustidan keltirilgan protest va shikoyatlar bo'yicha sud hay'atlari kassatsiya tartibida ish ko'radilar. Sud hay'atlarida bunday ishlar sud-yalardan birining raisligi ostida uchta sudyda tomonidan ko'rildi. Bunday tartibda ko'rigan ish natijasi ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati protest keltirishi mumkin.

Appelatsiya instansiyasida faqatgina sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan berilgan shikoyatlar ko'rildi. Appelatsiya tartibida ko'rigan ish kassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak. Sudlanuvchi, uning himoyachisi, qonuniy vakili, jabrlanuvchi, uning vakili qonuniy kuchga kirmagan sudning hukmi ustidan shikoyat, prokuror esa protest keltirishi mumkin. («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasi).

Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat keltirishi, prokuror va uning o'rinosari protest bildirishi mumkin.

7.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisining vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinosari va sud hay'atlarining raislari

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, uning o'rinosarları va sud hay'ati raislarining vakolatlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ish faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi zimmasiga yuklatiladi. Uning keng vakolatlari doirasiga sud sohasidagi vakolatlari ham, tashkiliy ishlar sohasidagi vakolatlari ham kirib ketadi.

Uning sud sohasidagi vakolatlari jumlasiga quyi sudlar tomonidan ko'rileyotgan ishlarda ishtirot etish, sudsarning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest

keltirish, bundan tashqari, vaziyat taqozosi bilan sudsalar tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda to‘xtatib turish kabi vakolatlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi «Sudsalar to‘g‘risida»gi Qonuning 26-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi quyidagicha tashkiliy vakolatlarga ega:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosatini chaqiradi hamda ularning majlislarida raislik qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosatining umumiy masalalar bo‘yicha qabul qilgan qarorlari bajariishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishini tashkil etadi;
- ishni bir suddan boshqa sudga olib berish masalasini hal etadi;
- Plenum va Rayosat muhokamasiga qonunga binoan ularning vakolatiga taalluqli masalalarni kiritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tarkibi, sudslov hay’atlarining hamda umumiy yurisdiksiya sudsulari sudyalarning Oliy malaka komissiyasi tarkibi va raislari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnomalar kiritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi sudsulari sudyalarining intizomiy javobgarligi haqida ish qo‘zg‘atadi;
- rais o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining shtat jadvalini tasdiqlaydi;
- buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;
- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish ishlarini tashkil etadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosarlari bo‘lib, ulardan biri birinchi o‘rinbosari hisoblanadi. U rais yo‘qligida uning huquq va majburiyatlarini amalga oshiradi.

Birinchi o‘rinbosar ham yo‘q bo‘lgan taqdirda, raisning o‘rinbosarlaridan biri uning vakolatlarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari:

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumidan tashqari barcha instansiya sudlarining hal qiluv qarori, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest keltiradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tegishli sudlov hay’atlarining tashkiliy ishiga rahbarlik qiladi;

– sudlov hay’atlarining faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi - Oliy sudi Plenumiga ma’ruzalar taqdim etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay’atlarining majlislarida raislik qilishi mumkin;

– sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

– sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish bo‘yicha ishni tashkil etadi;

– sudlar tomonidan chiqarilgan, ularning o‘zlarini protest kitishga haqli bo‘lgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijrosini to‘xtatib turadi;

– sudyalar va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

– vazifalar taqsimotiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibiy bo‘linmalari ishiga rahbarlik qiladi;

– fuqarolarni shaxsan qabul qiladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

(«Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 27-moddasi).

Sud faoliyatining asosiy qismi sudlov hay’atlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik, jinoyat va harbiy sud hay’atlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari orasidan tayinlanib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan tasdiqlanadi.

Sudlov hay’ati o‘z vakolati doirasida ishlarni birinchi instansiya, appellatsiya, cassatsiya va nazorat tartibida ko‘radi, sud amaliyotini o‘rganadi va umumlashtiradi, qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi, sud statistikasini tahlil qiladi va qonunga muvofiq boshqa

vakolatlarni amalga oshiradi («Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuning 25-moddasi).

Sudlov hay’atlarining raislari bevosita hay’at ish faoliyatini tashkil etadi. *Hay’at raislari*: hay’at tomonidan ko‘rilayotgan ishlarda raislik qiladi, hay’at tomonidan ko‘riladigan ishlarda sud tarkibini belgilaydi, sudlov hay’atlari ishiga rahbarlik qiladi. Ular sud amaliyotini umumlashtirish va o‘rganish uchun sud ishlarini talab qilib oladi va qonunda belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

7.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati. Ilmiy-maslahat kengashi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishini tashkillashtirish bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va uning o‘rinbosarlari tomonidan, shuningdek, sud apparati tomonidan amalga oshiriladi. Sudlarning tuzilishi va shtat birligining soni tegishincha Oliy sud raisi tomonidan taqdim etilgan taqdimnomaga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida tashkiliy ishlar barcha sud organlaridagi kabi sud tizimining eng yuqori organi bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining rahbariy maqomi asosida tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida quyidagi masalalarga ko‘proq e’tibor beriladi: sud ishlarini rejalashtirish, fuqarolarni qabul qilish, ariza, shikoyat va takliflarni ko‘rib chiqish, sud xulosa va protestlarini sud hay’ati va Plenumiga tayyorlash, quyi turuvchi sudlarning sud amaliyoti va ish hujjatlarini tayyorlash, sud amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish, sud statistikasini tashkil etish, normativ hujjatlarni tizimlashtirish, rahbariy ahamiyatga ega bo‘lgan Plenum qarorlari loyihalarini tayyorlash va h.k.

Oliy sud faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan sud amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish hamda sud statistikasini tahlil qilish ishlarini tashkil etishi uchun, qonunchilikni tizimlashtirish va tashviqot ishlarini olib borish hamda boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun Oliy sud apparatida shu masalalar

bo‘yicha bo‘lim va bo‘linmalar tashkil qilinadi. Bo‘lim va bo‘linmalarning boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi bo‘lim va hay’atlarida bosh hamda katta maslahatchilar, boshqa katta inspektorlar, maslahatchilar, inspektorlar va boshqa xizmatchilar mavjud. Oliy sud shtat jadvali O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi zarur hollarda sndlarning shtatlar jadvaliga shtat birligi va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartishlar kiritadi («Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 78-moddasi). O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq sud ishlarida kadrlarni to‘g‘ri tanlash, sndlар mustaqilligining kafolatini ta‘minlash, sud kadrlari bilan bog‘liq ishlarda demokratiyani ta‘minlash sudyalar malaka hay’atlariga berilgan. Sudyalar Oliy malaka komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan Oliy sud sudyalari orasidan 5 yil muddatga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan saylanadi.

Sudyalar Oliy malaka hay’ati nomzodlarning O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi lavozimiga tayyorgarlik darajasini baholaydi; Oliy sud sudyalarini doimiy attestatsiya komissiyasidan o‘tkazadi; sudyalarga malaka darajalarini be-rish masalalarini ko‘radi; Oliy sud sudyalarini ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalalarini hal qiladi; Oliy sud sudyalarini intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalalarini hal qiladi; Oliy sud sudyalarining vakolatlarini to‘xtatish yoki muddatidan ilgari tugatish masalalarini ko‘radi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sndlар va harbiy sndlар malaka hay’ati:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha sndlарiga, tumanlararo va tuman (shahar) fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha sndlarga va harbiy sndlarga sudyalik lavozimiga nomzodlarning tayyorgarlik darajasini baholaydi;

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlariga, tumanlararo va tuman (shahar) fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga va harbiy sudlar sudyalarini doimiy malakaviy attestatsiyadan o'tkazadi;

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlariga, tumanlararo va tuman (shahar) fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga va harbiy sudlar sudyalarini ma'muriy javobgarlikka tortish masalasini ko'radi;

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlariga, tumanlararo va tuman (shahar) fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga va harbiy sudlar sudyalarini intizomiy javobgarlikka tortish masalasini ko'radi;

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlariga, tumanlararo va tuman (shahar) fuqarolik hamda jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga va harbiy sudlar sudyalarining vakolatini to'xtatish to'g'risida qaror chiqaradi;

6. Sudya vakolatini muddatidan ilgari tugatish haqida xulosa beradi;

7. Sudyalar zahirasini shakllantiradi.

Sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish hamda Oliy sud Plenumi rahbariy ko'rsatmalarini tayyorlash masalalari ning sifatini, shuningdek, sud organlarining ilmiy-yuridik muassasalar bilan aloqalarini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzurida jamoatchilik assosida ishlaydigan ilmiy-maslahat kengashi tuziladi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 81-moddasi). Kengash Oliy sud raisining taqdim-nomasiga binoan Plenum tomonidan tasdiqlanadi. Kengashga Oliy sud sudyalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotchi xodimlari, ilmiy xodimlar kiradi. Sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish masalalarini ko'rар ekan, ilmiy-

maslahat kengashi, sud ishlarida kelib chiqadigan muammolarga yechim taqdim etadi; Plenum tushuntirishlari va boshqa hujjatlarining loyihalariga aniq ishlab chiqilgan tavsiyalar beradi, bu o‘z navbatida ularning aniqligini, bir hilligini va qonuniyligini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Oliy sud Byulletenini nashr qilib, uning mazmunini Oliy sud qarorlari, alohida ishlar bo‘yicha Plenum qarorlari, hay’at tomonidan chiqarilgan va barcha sudlar uchun mo‘ljallangan alohida ishlar yuzasidan qarorlar, hukmlar va ajrimlarning qisqacha tavsifi, Plenum tomonidan ko‘rilgan ishlar va Oliy sudda bo‘lib o‘tayotgan majlis haqida axborot, shuningdek, sud amaliyoti to‘g‘risidagi ma'lumotlar va turli huquqiy masalalarga oid maqolalar tashkil etadi.

7.5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi shakllanishining asosiy bosqichlari

Sobiq SSSR da Oliy sud 1924-yilda tashkil etilgan. Shunga muvofiq 1924-yil 13-dekabrdan O‘zbekiston Markaziy Ijroiya qo‘mitasining qarori bilan Oliy sudning Turkiston bo‘limi o‘rniga O‘zbekiston SSR Oliy sudi tashkil etildi. O‘zbekiston SSR Oliy sudining tashkiliy masalalarini hal etish revolutsion qo‘mita zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, Oliy sud tarkibi ham shu qo‘mita tomonidan tasdiqlangan edi. Oliy sud tarkibiga ko‘ra Oliy sud raisi birinchi instansiya sud hay’atining ham raisi hisoblanib, bundan tashqari, kassatsion hay’at raisi va hay’atning oltita a‘zosidan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston SSR Oliy sudi «O‘zbekiston SSR sud tuzilishi to‘g‘risida»gi qaror qabul qilingunga qadar 1922-yil 31-oktabr 9-chaqiriq 4-sessiyada qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi sud tuzilishi to‘g‘risida»gi qaror asosida faoliyat yuritgan. O‘zbekiston SSR Oliy sud organi o‘sha davrda O‘zbekiston hududidagi barcha sud organlarini bir tizimga birlashtirib, quyi turuvchi barcha sudlar, harbiy tribunallarni nazorat qilgan. O‘zbekiston SSR Oliy sudi Plenumga, doimiy kengashga, sud Rayosatiga, jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha kassatsion

hay'atga (zarur paytlari harbiy va intizomiy hay'atga) ega bo'lgan. O'zbekiston SSR hududida quyi turuvchi barcha sud organlari va harbiy tribunallar tomonidan ko'rilgan ishlarni cassatsion tartibda ko'rib chiqish va boshqa bir qator vazifalar Oliy sud vazifasiga kirar edi. Keyinchalik 1926-yil 20-avgustda SSSR ning MIQ va MNQsi tomonidan tasdiqlangan «Harbiy tribunal va harbiy prokuratura to'g'risida»gi Nizomga ko'ra harbiy jinoyat ishlarning cassatsion vazifasi SSSR Oliy sudining harbiy qo'mitasiga berildi.

O'zbekiston SSR Oliy sudi xuddi boshqa ittifoqdosh respublikalardagi singari harbiy tribunallar tomonidan ko'rilgan ishlarni cassatsion tartibda ko'rishdan ozod etildi. Sud amaliyoti bilan bog'liq qonunlarni sharhlash, Respublika sud organlari va Tojikiston ASSR Oliy sudi ishlarni nazorat tartibida ko'rish, respublika sud organlari faoliyati davomida yuzaga kelgan sud amaliyoti masalalarini hal qilish O'zbekiston SSR Oliy sudi Plenumining asosiy vazifasi hisoblanardi. O'zbekiston SSR Oliy sudiining doimiy kengashi quyi turuvchi sudlarga respublika qonunlariga tushuntirishlar va yo'riqnomalar ishlab chiqar edi. O'zbekiston SSR Oliy sudi vazifalarini taqsimlash, Oliy sud hisobotini tasdiqlash, viloyat sudlariga va Tojikiston ASSR Oliy sudi bo'linmalariga taftish belgilash, O'zbekiston SSR Oliy sudi a'zolarini intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini ko'rар edi.

O'zbekiston SSR Oliy sudiining jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha cassatsion hay'ati Oliy sudning uchta a'zosi tarkibida ishlarni cassatsion tartibda ko'rар edi. O'zbekiston SSR Oliy sudi harbiy hay'ati 1926-yil 20-avgustgacha mavjud bo'lgan bo'lib, hay'at raisi va sudning 4 a'zosi tarkibida faoliyat yuritgan. O'zbekiston SSR Oliy sudiining Intizomiy hay'ati uch sud a'zosidan iborat bo'lib, viloyat sudlari va Tojikiston ASSR Oliy sudi sudyalarining intizomiy javobgarlikka oid ishlarini ko'rар edi. O'zbekiston SSR Oliy sudi a'zolarining intizomiy javobgarlik masalalarini O'zbekiston SSR Oliy sudiining Rayosati ko'rар edi.

O'zbekiston SSR Oliy sudi raisi, rais o'rinnbosarlari respublika adliya xalq qo'mitasi taqdimnomasiga binoan O'zbekiston SSR MIQ tomonidan tasdiqlanardi. Sud hay'ati raislari esa O'zbekiston SSR MIQ rayosati tomonidan tayinlanardi.

O'zbekiston SSR Oliy sudi sud tizimini nazorat qilish vazifasini amalga oshirish bilan birga sud faoliyatini ham amalga oshirar edi. Birinchi instansiya sudi sifatida Oliy sudning bitta sudyasi ikkita xalq maslahatchisi bilan o'ta muhim va murakkab ishlarni ko'rardi. Oliy sud sudyasi tomonidan chiqarilgan hukm va qarorlar qat'iy bo'lib, faqat respublika Oliy sudi tomonidan nazorat tartibida bekor qilinishi mumkin edi.

1924-yil 31-oktabrdagi SSSR MIQ sud ishlarini yuritish to'g'risidagi Nizomi asosida 1926-yil 1-iyul O'zbekiston SSR MIQ qaroriga asosan O'zbekiston SSR butun hududida (Shu jumladan Tojikiston ASSRda) O'zbekiston SSRning birinchi JPKsi amal qila boshladi. Va shu kunning o'zida «O'zbekiston SSR sudlarni tashkil etish to'g'risida»gi Nizomi qabul qilinib, O'zbekiston SSR Oliy sudi sud tizimining Oliy organi deb tan olindi.

1927-yilda okrug sudlarining yo'q qilinishi natijasida O'zbekiston SSR sud tizimi ikkita bo'g'indan iborat edi. Bular 1931-yil qabul qilingan «O'zbekiston SSR sudlarni tashkil etish to'g'risida»gi Nizomda ko'rsatilgan SSSR Oliy sudi va xalq sudlaridir. Xorazmning markazdan uzoqligini hisobga olib, Xorazm okrugi va shu okrugning o'zida Xorazm okrug sudi tashkil etilgan edi. Keyinchalik O'zbekiston SSR Oliy sudi tomonidan Qashqadaryo va Surxondaryo okruglarida ham okrug sudlari tashkil qilindi.

Bu xildagi tizim 1938-yil 15-avgustda qabul qilingan «SSSR ittifoqdosh respublikalarining sudlarni tashkil etish to'g'risida»gi Nizom qabul qilingunga qadar amal qildi. Ushbu Nizom sud organlari tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Jumladan, sud vazifalarining taqsimlanishi, nazorat instansiyalarining favqulodda qisqartirilishi, sud nazorati tartibida protest keltirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini aniqlash, maxsus hay'atlarni tashkil etish to'g'risidagi masalalarni hal etdi.

1938-yildan boshlab O'zbekiston SSR Oliy sudi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, hukm va ajrimlarni qayta ko'rish huquqiga ega bo'lgan yagona sud instansiyasiga aylandi. O'zbekiston SSR Oliy sudi quyi sudlarga sud amaliyoti to'g'risida ko'rsatma va tushuntirishlar berish huquqini yo'qotdi. Aytish joizki, O'zbekiston SSR Oliy sudi Plenumi va

Rayosatining quyi sudlarning xatolarini to‘g‘rilashda ham, rahbariy tushuntirishlar berishda ham ahamiyati katta edi. Shuning uchun ham Oliy sud Plenumi va Rayosati vakolatini osonlashtirish unchalik ham to‘g‘ri emas edi.

Respublika sud organlarining rolini oshirish va sud nazoratini tashkil etish maqsadida 1954-yil 14-avgustda SSSR Oliy Soveti Rayosati «Ittifoqdosh va avtonom respublikalar, viloyatlar va avtonom viloyatlar Oliy sudi tarkibida Rayosat tashkil qilish to‘g‘risidagi Farmon chiqarildi. Ushbu farmon asosida O‘zbekiston SSR Oliy sudida quyi sud ishlarini ko‘rvuchi Rayosat tashkil etildi.

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1959-yil 23-mart farmoniga asosan, O‘zbekiston SSR Adliya vazirligining sud organlarini nazorat qilish va boshqarish vakolati O‘zbekiston SSR Oliy sudiga berildi. Shu yilda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan yangi O‘zbekiston SSR JK va JPKsi hamda «O‘zbekiston SSR sud ishlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi qonunlari qabul qilindi. Fuqarolik va Fuqarolik protsessual kodekslar hamda O‘zbekiston SSRning sud ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi yangi qonun 1963-yil qabul qilinib, 1964-yil 1-yanvardan kuchga kirdi.

O‘zbekiston SSRning 1959-yilda sud ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi qonuniga binoan O‘zbekiston SSR Oliy sudida Plenum qayta tashkil etildi. Plenum respublika barchia sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, hukmlari va qarorlariga keltirilgan protest ishlarini ko‘rish, respublika qonunlarini qo‘llashga oid rahbariy tushuntirishlar berish huquqiga ega edi. O‘zbekiston SSR Oliy sudi apparati 1965-yil jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati Rayosati, sud amaliyoti va statistikasini umumlashtirish bo‘limidan, sud organlari bo‘limi, qonunlarni tizimlashtirish O‘zbekiston SSR Oliy sudi bo‘limi, notariat bo‘limi, shikoyatlar bo‘limi, kadrlar bo‘limi, xo‘jalik va moliya ishlari bo‘limlaridan iborat edi. Shuningdek, zaruratga qarab intizomiy hay’at tashkil qilinar edi.

O‘zbekiston SSR Soveti prezidiumining 1970-yil 1-oktabr Farmoniga binoan O‘z SSR ittifoq-respublika Adliya vazirligi tashkil etildi, bu bilan O‘zbekiston SSR Oliy sudining sudlarni tashkiliy boshqarish vakolati Adliya vazirligiga

o'tkazildi. Shu vaqtida O'zbekiston SSR Oliy sudi apparatining quyidagi tizimi tasdiqlandi: rahbariyat, jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, qonunlarni tasniflash va tizimlashtirish bo'limi, arz-shikoyatlar bo'limi, maxfiy bo'lim, devonxona, ma'muriy-xo'jalik bo'limi. O'zbekiston SSR Oliy sudi Rayosatining 1970-yilgi qarori bilan O'zbekiston SSR Oliy sudi apparati tizimini sud amaliyoti va statistikasi bo'limi bilan to'ldirdiki, shu bilan O'zbekiston SSR Oliy sudi yangi shtatni tasdiqladi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan 1981-yil «Sud ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning 5-bobi «O'zbekiston SSR Oliy sudi» deb nomlanar edi. Qonunning 50–66-moddalari O'zbekiston SSR Oliy sudining faoliyati va vakolatlari belgilab berdi. Qonunda belgilanganidek, O'zbekiston SSR Oliy sudi O'zbekiston SSRning barcha sud organlari faoliyatini nazorat qiladi. Oliy sud O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan sud raisi, rais o'rindbosarlari O'zbekiston SSR Oliy sudi sudyalari, xalq maslahatchilari tarkibida besh yil muddatga saylanar edi. O'zbekiston SSR Oliy sudi o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston SSR Oliy Kengashiga hisobot berib, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatiga muntazam hisobot berib turgan. O'zbekiston SSR Oliy sudi: Plenum, Rayosat, Fuqarolik ishlari bo'yicha hay'at tarkibidan iborat edi.

Qonunning 77-moddasiga binoan sudlarning adolatni qaror toptirish borasida sud amaliyotini umumlashtirish va boshqa ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston SSR sudlarida sud apparatlari faoliyat yuritadi. Sud amaliyotini o'rganish, umumlashtirish va sud statistikasini tahlil qilish, qonunchilikni tizimlashtirish va tashviqot qilish, shuningdek, O'zbekiston SSR Oliy sudi faoliyati bilan bog'liq boshqa vazifalarini bajarish uchun bo'lim va boshqa tashkiliy tuzilmalar tashkil etilgan edi.¹

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi.

¹ Qarang: Иркаджон К.П. Организация и деятельность Верховного Суда УзССР. - Автореферат диссертации на соискании ученой степени кандидата юридических наук. – Т., 1965. – В.19: Верховный суд Республики Узбекистан. – Т.: O'zbekiston, 1994. – Б.200.

O'zbekiston Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyul qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida harbiy hay'at tashkil etildi. Uning zimmasiga o'ta muhim ishlarni birinchi instansiya ko'rish, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish vakolati yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-sentabr qaroriga binoan harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining (1993-yil 2-sentabr) 12-chaqiriq 13-sessiyasida «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunning 2-bobi «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi» deb nomlanar edi. Qonunning 12–26-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining faoliyati va vakolatlari belgilab berilgan. Ushbu qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya, appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'radi.

Oliy sud sudlarning O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlariga rioya qilishini nazorat qildi. Hozirda Oliy sud faoliyatini «Sudlar to'g'risida»gi 2000-yil 14-dekabrdagi yangi tahrirdagi qonun tartibga soladi.

Qonun manbalari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. – T.: O'zbekiston, 2004.
2. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni, 24-aprel 2003-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksi. –T.: Adolat, 1999.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual Kodeksi. –T.: Adolat, 2001.
5. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi 2000-yil 14-dekabr Qonuni, yangi tahrir. 07.21.2001.

Maxsus adabiyotlar

- 1 Иркаходжаев К.П. Организация и деятельность Верховного суда УзССР. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. юрид. наук. Ташкент, 1965.

2. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. Под редакцией профессора Гуценко К.Ф., БЕК, 1996.

3. Программа дальнейшего развития судебной реформы в Республики Узбекистан. Бюллетень Верховного Суда РУз. 1996, №3–4.

4. Славное семидесятилетие. Бюллетень Верховного Суда РУз. 1994. №4.

5. O‘zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar davri. – Т.: Adolat, 2002-у.

6. Верховный Суд Республики Узбекистан. – Т.: Узбекистан, 1994.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimida Oliy sudning o‘rnı qanday?

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatini aytib bering.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tuzilishi va tarkibini aytинг.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi vakolatlarini sanang.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qanday vakolatlari mavjud?

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining vakolatlarini sanang.


7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida ish qanday tashkil etilgan. Sud apparatining roli qanday?

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tashkil etilishi bosqichlari qanday?

9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Ilmiy maslahat kengashi tarkibiga kim kiradi?

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Ilmiy maslahat kengashining vazifalari nimalardan iborat?

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tuzilishi



O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi vakolatlari

Fuqarolik, jinoyat va ma'muriy sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman va harbiy sudlarning sud faoliyati ustidan nazorat qilish

Ishlarni birinchi instansiya va nazorat tartibida ko'radi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar, appellatsiya yoki cassatsiya tartibida shikoyat berishga haqli bo'lган shaxslarning tanlashiga ko'ra Oliy Sud tomonidan appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rishi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tushuntirishlarining sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalgaga oshiradi

Qonun bilan belgilangan boshqa vakolatlarini amalgaga oshiradi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tarkibi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sndlari raislari

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyaları

Plenum kotibi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi vakolatlari

Nazorat tartibida ishlarni ko'rib chiqadi

O'zbekiston Respublikasi Sud amaliyotining umumlashtilgan materiallarini ko'rib chiqadi va qonunchilikni qo'llash bo'yicha tus-

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati ishi to'g'risida ma'lumotlarni, shuningdek, sudlov hay'ati faoliyatiga to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi nashriyot organining muharrirlik hay'ati tarkibi-

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud raisi taqdimilariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Rayosat tarkibi, sudlov hay'atining raisi va tarkibi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud raisi taqdimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy - maslahat kengash tarkibini tasdiqlaydi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari, O'zbekiston Respublikasi raislarining qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek, Oliy sud Plenumining qonunchilikni qo'llash masalalarini, yuzasidan tushuntirishlarini bajarilishi haqida ma'ruzalarini tinglaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosat va Plenum reglamentini tasdiqlaydi.

Qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajaradi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati vakolatlari

Nazorat tartibida ishlarni ko'radi

Sud amaliyotini umumlashtirish materiallairini ko'rib chiqadi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sndlari, viloyat va Toshkent shahar sndlari, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi raislarining ushbu sndlар faoliyati va qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'rzasini tinglaydi

Qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshira-

VIII mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO'JALIK SUDLARI

8.1. Xo'jalik sudlarining vazifasi va O'zbekiston Respublikasi sud tizimidagi tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilishi, turli xildagi xususiy mulkning rivojlanishi, umume'tirof etilgan xalqaro normalarning tan olinishi iqtisodiy sohada vujudga keluvchi nizolarni hal qiluvchi mustaqil organni – xo'jalik sudlarini shakllantirish zaruriyatini tug'dirdi.

Bunga qadar O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy sohada vujudga keluvchi nizolar sudlar tomonidan emas, balki SSSR davlat hakamlik tuzilmasi tarkibiga kiruvchi, ijro organi – O'zbekiston davlat hakamlik organi tomonidan amalga oshirilar edi. 1991-yil 20-noyabrda O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudi va xo'jalik nizolarini hal etish tartibi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Qonunga ko'ra hakamlik organlari mustaqil, mulk shaklidan qat'i nazar xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qila oluvchi hakamlik sudlariga aylantirildi. Biroz muddatdan so'ng hakamlik sudlari xo'jalik *sudlari* deb nomlana boshlandi. Ushbu organning maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Xo'jalik sudlarining vazifalariga *quyidagilar kiradi*: xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini himoya qilish; qonunlarni to'g'ri va bir xilda qo'llash; qonuniy vositalar bilan iqtisodiy munosabatlarda qonuniylikni ta'minlashga ko'maklashish.

HPKning 23-moddasiga binoan xo'jalik sudlari *quyidagi ishlarni ko'radi*:

- yuridik shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmay tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar, yakka tadbirkorlar o'rtasida kelib chiqadigan iqtisodiy sohadagi, fuqarolik, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi ishlarni ko'radi;

- tashkilotlar va fuqarolarning iqtisodiyot sohasidagi huquqlarini vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi faktlar bilan bog'liq ishlar;
- tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlar.

Xo'jalik sudlarining avvalgi hakamlik organlaridan farq qiluvchi asosiy jihat shundaki, hakamlik organlari eng avvalo davlat manfaatlarini himoya qilar edi. Avvalgi hakamlik organlari o'sha davrda ikkita mulk shaklini tan oluvchi iqtisodiy tuzum xarakteridan kelib chiqqan holda davlat va jamoa xo'jaliklari o'rtasidagi nizolarni qurar edi. Lekin yangi Konstitutsiya tomonidan turli mulk shakllarining mustahkamlanishi va teng huquqli mulk egalari o'rtasidagi nizolarni hal etishni faqat sud organigina uddalay olar edi. Bunday sudlar sifatida xo'jalik sudlari yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasiga binoan turli mulk shakllariga asoslangan korxona, muassasa va tashkilotlar o'rtasida iqtisodiyot sohasida va xo'jalik boshqaruva sohasida yuzaga keladigan nizolarni xo'jalik sudlari tartibga soladi. Shu tariqa xo'jalik nizolarni ko'rishga bo'lgan munosabat sifat jihatdan ham, ishning mazmuni jihatidan ham tubdan o'zgardi. Hozirda, xo'jalik sudlarini tashkil etish «Sudlar to'g'risida»gi 2000 yil 14 dekabr Qonuniga binoan tartibga solinadi.

Umumiy yurisdiksiya sudlaridan farq qilgan holda, xo'jalik sudlari 2 bo'g'indan iborat. Uning tizimida tuman sudlari bo'lmasdan asosiy bo'g'in viloyat va unga tenglashtirilgan xo'jalik sudlari hisoblanadi. Xo'jalik sudi ish yurituvida sud hokimiyatining oliy organi bo'lib O'zbekiston Respublikasi *Oliy xo'jalik sudi* hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudiga Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari ustidan nazorat qilish vakolati berilgan. Shuningdek, ushbu sudga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida *qonunchilik tashabbusi huquqi* ham berildi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlarining, shuningdek, chet el tashkilotlari, chet el investitsiyasiga asoslangan tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari

va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq nizolarni hal etish vakolati, agar xalqaro shartnomalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, xo'jalik sudlariga tegishli bo'ladi. Bir-biri bilan bog'liq da'voli ishlarning biri xo'jalik sudlariga tegishli, boshqalari esa umumiy yurisdiksiya sudlariga tegishli bo'lsa, ishni umumiy yurisdiksiya sndlari hal etadi.

Xo'jalik sudlari mamlakatda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida, xo'jalik subyektlarining xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligini ta'minlash, xalqaro bozorga tovar va xizmatlari bilan chiqishiga yordam berish maqsadida iqtisodiy munosabatlarga asoslangan qonunchilikni mustahkamlash borasida faoliyat yuritadi. 1996-yil xo'jalik sudlari tomonidan 11 550 ta ish ko'rilib, 4 mlrd. 321 mln so'm undirilgan bo'lsa, 2000-yil 33, 4 ming ish ko'rilib, 99,3 mlrd so'm undirilgan. Bu shundan dalolat beradiki, yuqorida ko'rsatilgan muddat ichida sud organi tomonidan ko'rilgan ishlar 3 barobarga oshgan, undirilgan pul summasi esa 23 barobarga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari xo'jalik subyektlari o'rtasidagi nizolarni ko'rар ekan iqtisodiyot sohasidagi qonunchilikni mustahkamlaydi, shartnoma intizomini buzganchilarga nisbatan qonunda belgilangan choralarни ko'radi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 4-mart farmoni qabul qilingan kundan to 2001-yil 1-yanvargacha xo'jalik sudlari tomonidan shartnoma majburiyatlarini va hisobkitob intizomini buzgan, mansabiga sovuqqonlik bilan qaragan va mansabini suiiste'mol qilgan, buning natijasida korxona hamda tashkilotlarni bankrotlik va iqtisodiy nochor holatga olib kelgan 815 ta mansabdor shaxslarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan. Bundan tashqari, xo'jalik subyektlariga mulkiy zarar keltirgan 3214 mansabdor shaxsdan 61.5 mln. so'm undirib olindi. Ma'muriy javobgarlikka 3961 mansabdor shaxs tortilgan bo'lib, ularga 47.5 mln so'm miqdorida jarima belgilangan. Intizomiy javobgarlikka 1160 shaxs tortilgan bo'lib, shulardan 130 rahbar xizmat vazifasidan chetlashtirildi.

Da'voli ishlarning soliq va bojxona guruhibiga oid yangi turlari paydo bo'ldi. Xususan, 2000-yilda soliq organlari da'vosi

asosida 5735 ish ko‘rilib, undan 43.9 mlrd. so‘m undirilgan, shularning 37.4 mlrd. qondirilgan.

Chet el yuridik shaxslari ishtirokida ko‘rilgan ishlar ham kam emas. Chet el tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi chet el fuqarolari qonunda ko‘rsatilgan huquqlarning buzilishi va rad etilishidan himoya qilishni so‘rab xo‘jalik sudsiga murojaat qiladi. Ushbu holat xo‘jalik qonunchiligining demokratik, insonparvar xarakteriga ega bo‘lishi bilan yuzaga keldi. Qonunga binoan chet el fuqarolari va tashkilotlari xuddi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlari kabi bir xil protsessual huquq va majburiyatlarga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, investitsiya a’zolarini saylash jarayonini, ularning muammollarini hal etish tartibini cheklovchi hech qanday shartlarga ega emas. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-maydagи «Chet el investitsiyalari va chet el investorlari faoliyatining kafolatlari to‘risida»gi va 1998-yil 30-apreldagi «Chet el investorlarining huquqlarini himoya qilish chora-tadbirlari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlarida belgilangan bo‘lib, ularga nizolarni O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudsari yoki chet el davlatlarining hakamlik organlarida ko‘rish huquqi berilgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra chet elliklar ishtirokida ko‘rilgan iqtisodiyot sohasidagi nizolar o‘sib bormoqda. Xususan, 1997-yil O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudsari tomonidan faqatgina 39 nizo ko‘rilgan bo‘lsa, 2000-yil ushbu nizolar 342ni tashkil etdi.

Xo‘jalik sudsalarining tashkil etilishi va rivojlanishi bevosita O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar bosqichlari bilan bog‘liq. Jumladan, mazkur bosqichda iqtisodiyotning liberallashib borishi natijasida xo‘jalik sudsari kichik va o‘rta biznes, dehqon va fermer xo‘jaliklari, yakka tadbirkorlarning qonunda belgilangan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilmoqda. Faqatgina 2001-yilning birinchi yarmida xo‘jalik sudiga o‘zining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilinishini so‘rab 16.892 xo‘jalik subyektlari va tadbirkorlar murojaat qilgan. Ularning foydasiga undirilgan summaning umumiyligi miqdori 84.3 mlrd. so‘mni tashkil qilib,

bu o'tgan yilgiga qaraganda 58% ko'pdır. Hukumat tomonidan shartnama intizomini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, xalq xo'jaligi sohasida shartnama majburiyatlarini buzish oqibatida kelib chiqadigan nizolar ko'rsatkichi kamaymoqda. Tadbirkorlar tomonidan soliq, qimmatli qog'ozlar, xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining chiqargan hujjatlarini haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq arizalari soni ko'paydi.

Iqtisodiy nochorligi bois moliyaviy-xo'jalik faoliyatni yur-giza olmaydigan xo'jalik subyektlarining 2099 tasi 2001-yil 6 oy ichida xo'jalik sudsulari tomonidan tugatildi, 621 ta iqtisodiy nochor xo'jalik subyektlari bankrot deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudsulari davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining tadbirkorlar moliyaviy xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishidan himoya qilishga asosiy e'tibor qaratilgan. Yuqorida ko'rsatilgan mud-dat davomida tadbirkorlarning huquq va manfaatlariga putur yetkazuvchi 81ta hujjat noqonuniy deb topilgan.¹

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mum-kinki, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining o'z sud tizimi shakllandı. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu sud tizimi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda ishonchli kafolat hisoblanib, odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan barcha shartlarga javob beradi.

Xususiy mulkni va tadbirkorlikni himoyalash davr talabidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat xususiy mulk va tadbirkorlikni himoya qilishga alohida e'tibor berishga majburdir. Jamiyatda mulkning daxlsizligini ta'minlovchi sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. Mulkdor bo'lish huquqi har kimning mutloq huquqidir. Bu shuni anglatadiki, faqat mulkdorgina o'z mulkining yagona egasi hisoblanadi. Va shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zganining mulkiga qaratilgan har qanday tajovuz axloq va qonunga zid bo'lib, jinoyat hisoblanadi.

¹ O'zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar davri. / Mualliflar jamoasi.
– T.: Adolat, 2002. – B.252-254.

8.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi: tashkil etilish tartibi, tarkibi, tizimi va vakolatlari

«Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 43-moddasiga binoan xo‘jalik ishlarini ko‘rvuchi sud organlari ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi *oliy organ* hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi ishlarni bir-inchi instansiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi quyidagi masalalar ni hal etadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa Respublika davlat organlarining tashkilotlar huquq va manfaatlariga putur yetkazuvchi qonunga zid hujjatlarini (to‘la yoki qisman) haqiqiy emas deb topish;

2) Respublika davlat organlari boshqarmalari o‘rtasida tuzilgan iqtisodiy kelishuvlardan kelib chiquvchi nizolar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi quiyi turuvchi sudlar ko‘rayotgan istalgan ishlarni o‘z ish yurituviga qabul qilib olishi va quiyi turuvchi sudlar ko‘rayotgan ishlar yuzasidan umumiyoq ko‘rsatmalar berish huquqiga ega (HPK 26-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi tarkibiga rais, uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, sud hay’atlari raislari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi va Rayosati tarkibiga kiruvchi sudyalar, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi ishlarni ko‘rvuchi sud hay’ati, ma’muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar ni ko‘rib chiquvchi sud hay’ati.

Oliy yuridik ma’lumotga va yuridik ixtisoslik bo‘yicha etti yildan kam bo‘lmagan ish stajiga (sudya sifatida kamida besh yil ishlagan bo‘lsa) ega bo‘lgan hamda malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sudyasi bo‘lib saylanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sudyalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi sudning barcha faoliyatiga rahbarlik qiladi, bundan tashqari, bir qator vakolatlarni amalga oshiradi:

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi faoliyatining tashkiliy ishlariga rahbarlik qiladi;

– xo‘jalik sudlarining hal qiluv qarori, ajrim va qarorlariga protest kiritadi;

– ishlarni nazorat tartibida ko‘rish uchun talab qilib oladi;

– qonunda ko‘rsatilgan tartibda xo‘jalik sudlari chiqargan hal qiluv qarori, ajrim, qarorlarning ijrosini to‘xtatib qo‘yadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi ko‘rsatmalarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– ishlarni bir xo‘jalik sudidan ikkinchi bir xo‘jalik sudiga olib beradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati va Plenumi majlislarini chaqiradi va uning majlislarida raislik qiladi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati va Plenumi ko‘rishi uchun masalalarni taqdim etadi;

– bir hay’at tarkibiga kiruvchi sudyalarni, zarur hollarda ikkinchi bir sud hay’atida ko‘rilayotgan ishga ko‘maklashish uchun jalb qiladi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi chiqargan ko‘rsatmalarining qonunga nomuvofiqligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumiga taqdim-noma kiritadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati, sud hay’atlari va xo‘jalik sudlarining malaka hay’ati tarkibi to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga xo‘jalik sudlari sudyaligiga nomzodlar to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi;

– O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudi sudyalariga nis-batan intizomiy javobgarlik choralarini ko‘radi;

– rais o‘rinbosarlari o‘rtasida ishlarni taqsimlaydi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va bekor qiladi;

– qaror va buyruqlar chiqaradi;

– korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadi;

– qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi bo'limgan taqdirda uning vakolatlarini birinchi o'rinnbosari, birinchi o'rinnbosar ham bo'limgan taqdirda o'rinnbosarlardan biri amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi bo'linmalari ishlariiga rahbarlik qiladi; tegishli sud hay'atlarining tashkiliy ishlarini boshqaradi; ishlarni nazorat tartibida ko'rib chiqish uchun talab qilib oladi; xo'jalik sudlarining hal qiluv qarori, ajrim va qarorlariga protest keltiradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi o'rinnbosarlari xo'jalik sudlari tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorlarining ijrosini to'xtatib qo'yish; korxona, tashkilot va fuqarolarni shaxsan qabul qilish vakolatiga ega.

O'rinnbosarlar sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish, sudyalar va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish ishlarini tashkillashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tizimi:

– Plenum;

– Rayosat;

– Fuqarolik munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni ko'rvuchi sud hay'ati;

– Ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi ishlarni ko'radigan sud hay'ati.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining protsessual vakolatlari uning sud hay'atlarida ishlarni bevosita ko'rish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ular ishlarni kassatsiya tartibida ko'radi;

– sud amaliyotini o'rghanadi va umumlashtiradi;

– qonunlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar beradi;

– sud statistikasini tahlil qiladi;

– qonun bilan belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sud hay'atlari a'zolari O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining

taqdimnomasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi tomonidan tasdiqlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi o‘rribosarlari bo‘lgan sud hay’ati raislari rahbarligida ish olib boradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sud hay’atlari raislari:

- sud hay’atlari faoliyatini tashkillashtiradi va uning majlislarida raislik qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati va Plenumiga sud hay’ati faoliyati to‘g‘risida hisobot beradi;
- sud amaliyotini umumlashtirish uchun ishlarni talab qilib oladi;
- sudyalar malakasini oshirish ishlarini tashkillashtiradi;
- qonun bilan belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Zarur hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi bir sud hay’ati sudyasini ikkinchi sud hay’atiga ko‘maklashish uchun ja‘lb qilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosatining asosiy vazifasi ishlarni nazorat tartibida ko‘rib chiqishdir. Bundan tashqari Rayosat quydagi vazifalarni amalgga oshiradi:

- sud amaliyotini umumlashtirish masalalarini ko‘radi;
- viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudi raislarining qonun qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi hisobotlarini tinglaydi;
- Oliy xo‘jalik sudi apparati, sud hay’atlari va boshqa xo‘jalik sudlarining ishlarini tashkil etish masalasini ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi belgilab bergen miqdorda bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi, uning birinchi o‘rribosari va o‘rinbosarlar mansabi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati tarkibiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati majislari har oy kamida bir marotaba chaqiriladi va a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lganda gina vakolatlidir («Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 50-moddasi). O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati majislardan bayonnomma yuri tiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati

tomonidan chiqarilayotgan qaror va bayon nomma raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

Xo‘jalik sndlari faoliyatining eng asosiy masalalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumida hal etiladi.

Qonunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sudyalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi raisi kiradi. Uning majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ishtirok etadi. Bundan tashqari, uning majlislarida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy sudi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a‘zolari ishtirok etishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi majlislari yiliغا kamida ikki marta chaqiriladi. Majlisda ko‘riladigan masalalar loyihasi majlis boshlanishidan 20 kun avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi a‘zolariga va Bosh prokurorga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi a‘zolarining 3/2 qismi ishtirok etgan taqdirdagina vakolatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi:

– sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari to‘g‘risida tushuntirishlar beradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi taqdimnomalariga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati tarkibini, sudlov hay’atlarining tarkibi va raislari tarkibini va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi kotibini tasdiqlaydi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati faoliyati va sud hay’atlarining faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzalarini tinglaydi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari raislarining qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlarni bajarish to‘g‘risidagi ma’ruzalarini tinglaydi;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi matbuot organining tahrir hay’ati tarkibini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi va Rayosati reglamentini tasdiqlaydi;

Qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi vakolati doirasida chiqarilgan qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlari barcha xo‘jalik sndlari, shuningdek, muassasa, korxona, tashkilotlar va mansabдор shaxslar uchun majburiydir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi majlislari uning majlislarida raislik qiluvchi tomonidan chaqiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenum qarori majlisda ishtirok etayotgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi a‘zolari ko‘philik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Qaror qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining kotibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sudyasi vazifasini bajarish bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining majlisini tayyorlashga, majlis bayon-nomasini yuritishga doir ishni tashkiliy jihatdan ta’minlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi qabul qilgan qarorlarning ijrosi uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradi.

Sud amaliyotidan kelib chiqadigan qonun hujjatlarini qo‘llashga doir masalalar yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiya ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi huzurida Ilmiy-maslahat kengashi tuziladi. Uning tarkibi Oliy xo‘jalik sudi taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi tomonidan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi apparati tuzilishining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ushbu sudning asosiy vazifalarini bajaruvchi bo‘linma tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi xo‘jalik sudini tashkiliy va moddiy-texnik ta’minlashdir.

8.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining tizimi davlatning milliy va ma'muriy hududiy tuzilishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tizimi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi;

Viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlaridan iborat.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunda tuman xo'jalik sudlari nazarda tutilmagan. Shuning uchun ham xo'jalik sudi tizimida viloyatlar va Toshkent shahar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, xo'jalik sudi asosiy ish amaliyoti bilan markaziy bo'g'in shug'ullanib, qonun tomonidan xo'jalik sudlariga topshirilgan vazifa aynan shu bo'g'inda amalga oshadi.

Nizolarni ko'rib chiqish xo'jalik sudlari tomonidan bitta sudya tarkibida, hay'atda esa uchta sudyadan iborat tarkibda amalga oshiriladi. Nizolarni xo'jalik sudida ko'rish tashkilotlarning mulk shakli va hududiy joylashishidan qat'i nazar qonun va sud oldida tengligi tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Nizolar xo'jalik sudida ochiq tartibda ko'riladi. Ish davlat va tadbirkorlik siri bilan bog'liq bo'lgan holatlar bundan mustasno. Xo'jalik sudida ishlar o'zbek tilida, Qoraqalpog' tilida va muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari va xorijiy tashkilotlar o'rtaсидаги низолар суднинг ажримига биноан иккала тараф учун қулаги бо'лган тilda оlib boriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar, Toshkent shahar xo'jalik sudi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

– Ishlarni o'z vakolatlari doirasida birinchi instansiya sudi sifatida va appellatsiya tartibida ko'radi;

– sud amaliyotini umumlashtiradi;

– qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sanab o'tilgan vakolatlar ichida ishlarni appellatsiya tartibida ko'rish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ishlarni bu tartibda ko'rish xo'jalik sudi qarorlarining asoslanganligi va qonuniyligini ta'minlashning muhim omilidir. Bu bosqichning mazmuni shundan iboratki, ishda ishtirok etayotgan shaxslar qarordan norozi bo'lsa appellatsiya tartibida shikoyat berib, ishning noto'g'ri hal qilinganligini va uni qaytadan ko'rishni talab qiladi.

Xo'jalik sudi asosiy bo'g'ini faoliyatining tashkiliy masalalarini hal qilish uning raisiga yuklatiladi. Bundan tashqari, tashkiliy masalalarda rais o'rribosarlari ham ishtirok etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat, Toshkent shahar xo'jalik sudlarining raisi:

- sud faoliyatiga raislik qiladi;
- sudlov hay'atlari majlislarida raislik qilishi mumkin;
- zarur hollarda bir hay'at tarkibiga kiruvchi sudyalarini boshqa hay'at tarkibida ish ko'rishga jalb etadi;
- rais o'rribosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlaydi;
- sudyalar va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;
- sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishini tashkil etadi;
- fuqarolarni, korxona, muassasa, tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini tashkil etadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ushbu bo'g'inning xo'jalik sudi raisi o'rribosarlari suda sifatida barcha protsessual vakoatlardan foydalanadi, rais yo'qligida esa uning vakolatlarini amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudi raisining o'rribosarlari:

- vazifalar taqsimotiga ko'ra sud ishiga rahbarlik qiladi;
- tegishli sudlov hay'atlari ishini tashkil etadi;
- fuqarolarni hamda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning vakillarini shaxsan qabul qiladi;

–qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Xo‘jalik sndlari faoliyatini yaxshilash uchun ularda doimo sud amaliyoti umumlashtirib boriladi. Shunday umumlashtirishlar natijasida qonunlarni o‘rganish, xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, joriy qonunga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish bo‘yicha ishlar tashkil etiladi.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. -T.: O‘zbekiston, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2003-yil 24-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi 2000-yil 14-dekabr qonuni, yangi tahrir, 07.21.2001.
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual Kodeksi. -T.: Adolat, 2001.
5. O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik-protsessual Kodeksi. 1997-yil, 30-avgust.

Maxsus adabiyotlar

1. Гуценко К.Ф., Ковалев М.А Правоохранительные органы. Учебник для юридических вузов и факультетов. Под ред. К.Ф. Гуценко. – М.: ЗЕРЦАЛО. – М, 2001.
2. O‘zbekiston Respublikasida sud islohotlarining rivojlanish dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qarorlar to‘plami, №3–4, 1996.
3. O‘zbekistonda Sud hokimiyyati: islohotlar davri. Mualiflar: – T.: Adolat, 2002-yil.
4. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическая энциклопедия (под редакцией М.Ю. Тихомирова), – М.: 1997.

Nazorat savollari

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida xo‘jalik sndlarning tutgan o‘rni.
2. Xo‘jalik sndlari qanday funksiyalarni bajaradi?

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi vakolatlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining vazifalari nimalardan iborat?

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini shakllantirish tartibi.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining tuzilishi?

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining vakolatlarini sanab o'ting.


8. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosati vakolatlarini sanab o'ting.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudi tuzilishi va vakolatlarining umumiyligi tavsiyi?

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tarkibi



O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi vakolatlari



O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati vakolatlari

Nazorat tartibida
ishlarni ko‘rib
chiqadi

Sud amaliyoti
materiallarini
ko‘rib chiqadi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar xo‘jalik sudlari raislarining qonunchilikni qo‘llash to‘g‘risidagi ma’ruzalarini tinglaydi

O‘zR Xo‘jalik sudlari va apparati ishini tashkil etish masalalarini ko‘radi

Qonunga muvofiq
boshqa
vakolatlarini

* O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o‘tkaziladi va Rayosat a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik Sudi tarkibi

O‘zR OXS raisi
o‘rinbosarlari

O‘zR OXS tarkibi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi raisi

O‘zR OXS
sudyalari

* O‘zR Oliy xo‘jalik sudi Plenumi majlislarida O‘zR Bosh prokurori ishtiroy etadi.

* O‘zR Oliy xo‘jalik sudi Plenumi majlislarida O‘zR Konstitutsiyaviy sudi raisi, O‘zR Adliya vaziri, O‘zR Oliy xo‘jalik sudi huzuridagi ilmiy maslahat kengashi a’zolari qatnashadilar.

* O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi yiliga kamida bir marta chaqiriladi.

* O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi a’zolarining kamida 3/2 qismi ishtiroy etgan taqdirdagina vakolatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi

Plenumi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Sudamaliyotining umumlashtirilgan materiallarini ko‘rib chiqadi va qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha tushuntirishlar beradi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati ishi to‘g‘risida ma‘lumot-larni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sudlov hay’ati faoliyatiga to‘g‘risida ma‘ruzasini tinglay-

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi taqdimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengash tarkibini tasdiqlaydi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi taqdimlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sud Rayosat tarkibi, sudlov hay’atining raisi va tarkibi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenu-

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari, O‘zbekiston Respublikasi raislarining qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi, shuningdek, Oliy sud xo‘jalik Plenumining qonunchilikni qo‘llashmasalalar iyuzasidan tushuntirishlarining

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi nashriyot organining muharrirlik hay’ati tarkibini tasdiqlaydi

Qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajaradi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosat va Plenum reglamentini tas-

IX mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI

9.1. Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning manbalari

Konstitutsiyaviy nazorat konstitutsiyaviy normalarning ustuvorligini ta'minlovchi omil bo'lib, bu omil davlatning demokratikligidan dalolat beradi. Konstitutsiyaviy nazoratning asosiy maqsadi avvalo, konstitutsiyaga zid bo'lgan davlat organlari va mansabdar shaxslar tomonidan qabul qilinadigan normativ hujjatlar va amalga oshiriladigan harakatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishdir.

Konstitutsiyaviy nazorat birinchi bor konstitutsiya deb atalmish qonunlar qabul qilingan paytda paydo bo'lgan. Boshqa qonunlar singari konstitutsiya ham davlatning butun hududida ijrosi bo'yicha kafolatlarga muxtoj bo'lgan.

Dastlabki davrlarda bu funksiyani konstitutsiyani qabul qilishda muhim rol o'ynovchi davlatning qonun chiqaruvchi organlari yuklatilishi kerak deb taxmin qilingan. Shuningdek, bu sohaga ijro organlarini ham jalb qilish kerakligini ta'kidlashgan.

Ba'zi bir mamlakatlarda konstitutsiyaviy nazoratga sudlarni ham jalb qilishgan. Ko'pchilikning fikricha, bu birinchi bor AQSHda yuz bergen. 1803-yilda Oliy Federal sud mamlakat qonun chiqaruvchi organlari tomonidan qabul qilinadigan qonunlarda mavjud bo'lgan Konstitutsiyaga zid kamchiliklarni e'lon qilish huquqi borligini e'lon qilgan. Bu narsa qonunlar birinchi galda sudlar tomonidan qo'llamilmasligini anglatgan. Boshqacha aytganda, Konstitutsiyaning ijrosini ta'minlash bo'yicha nazoratga sudlar ham qo'shilgan.

Boshqa mamlakatlarda bunday nazoratga munosabat ancha sust bo'lgan. Faqatgina oxirgi 40–50-yillardagina ko'p mamlakatlarda sud hokimiyyati organlarini konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishga jalb etish maqsadga muvofiq ekanligi tan olindi. Bu esa qonun ijodkorlari ijro organlari sud nazoratiga o'tib qolib obro'lariiga putur yetkazadi, degan xavotirlardan astasekin qutilish darajasida ro'y berdi. Tabiiyki, sudlarning kon-

stitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonlariga ma'lum mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning shakllangan huquqiy madaniyatlari darajasini aks ettiruvchi ko'plab o'zgacha qarorlar o'ylab topildi.

Ular konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi mazmunini turli-cha talqin etish, ularni amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari chegarasini belgilash va nomlanishida ham namoyon bo'ldi. Masalan, Fransiyada bunday funksiya Konstitutsion Kengash deb nomlangan organga, Avstriya, Belgiya, Italiya va Germaniyada maxsus tuzilgan konstitutsiyaviy sudlarga yuklatilgan. Konstitutsiyaviy nazorat sud hokimiyatining ustuvor vazifasi hisoblangan ko'plab mamlakatlarda bunday masalalar bilan umumiyligi sudlarning yuqori instansiyalari, odatda oliv sudlar shug'ullanadi

O'zbekiston Respublikasi uchun Konstitutsiyaviy sudning tarixi 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat to'g'risida»gi Qonun bilan bog'liqdir. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad, davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning Konstitutsiyaga mos bo'lishi hamda demokratiya asoslarini, shaxslar va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlash edi.

O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazoratni konstitutsiyaviy nazorat bo'yicha qo'mita, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham konstitutsiyaviy nazorat bo'yicha qo'mita olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga siyosat va huquq sohalaridagi mutaxassislardan saylanib, uning tarkibiga rais, uning o'rinnbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilini o'z ichiga olgan 9 a'zodan iborat bo'lgan.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining raisi, rais o'rinnbosari va uning a'zolari Oliy Kengash tomonidan 10 yil muddatga saylanganlar. Qo'mitaning shaxsiy tarkibi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash raisi tomonidan kiritilardi. Xalq deputatlari umumiyligi sonidan ko'pchilik ovozni olgan shaxs saylangan hisoblangan.

Ushbu qo'mitaning faoliyatini tartibga solib turish maqsadida uning tarkibining yarmi har 5 yilda yangilanib turilgan.

Qo‘mitaning qayta saylangan a’zolari ular saylangan kundan e’tiboran o‘z vazifasini bajarishga kirishganlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga kiritilgan qonun loyihalari va boshqa normativ aktlar; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qonun va boshqa normativ aktlar; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi ustidan nazorat qilardi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qonunlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini tekshirishdan tashqari quyidagi normativ aktlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi qaror va farmoyishlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari;
- Mahalliy xalq deputatlari kengashi qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari;
- Ratifikatsiya qilishga yoki tasdiqlashga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va majburiyatlar;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlari;
- Boshqa davlat organlari, jamoat birlashmalarining prokuror nazorati ostiga olinmagan normativ huquqiy hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasining nazorat funksiyasi sudlarning hukmi va boshqa qarorlari, dastlabki tergov organlarining, prokuratura, fuqarolik, ma’muriy, xo‘jalik va jinoiy ishlar bo‘yicha davlat hakamlik organlarining qarorlariga nisbatan qo‘llanilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga kiritilgan qonun loyihalari va boshqa normativ aktlarning Konstitutsiyaga mosligini tekshirishni so‘rab O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining topshirig‘iga binoan;

2. O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlarining kamida 1/5 qismi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qonun va boshqa normativ aktlarning konstitutsiyaga mosligini tekshirishni so'rab bergen takliflariga ko'ra;

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining konstitutsiyaviyligini tekshirishni so'rab bergen topshirig'i;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining taklifiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarning Konstitutsiyaga mosligini tekshirishni so'rab bergen topshiriqnomasiga ko'ra;

5. O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlarining kamida 1/5, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining taklifiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va majburiyatlarining konstitutsiyaviyligini tekshirishni so'rab bergen topshirig'iga asosan;

6. Prokuror nazorati o'rnatilmagan boshqa davlat organlarining va jamoat birlashmalarining qarorlariga nisbatan kiritilgan masalalarni ko'rib chiqadi.¹

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish zaruratinin o'zida belgilab berdi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Konstitutsiyaviy sud tarkibi ettita sudya – Rais, uning o'rinosari, Qoraqalpog'iston Respublikasidan sudyani hisobga olgan holda besh nafar sudyalardan iborat bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, -T. 1990. №16-18, - B.289.

9.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, uning vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar qarorlarining konstitutsiyaviligidini tekshiruvchi sud hokimiyatining alohida organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107, 108 va 109-moddalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga bag‘ishlangandir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonunining 1-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining faoliyat tarkibi va vakolatlari to‘g‘risida berilgan umumiy ma’lumotga muvofiq sudning asosiy faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tomonidan qabul qilingan qonun va boshqa normativ hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini, davlatlararo shartnomalar va majburiyatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlash;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga mosligi haqida xulosalar berish;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini sharhlash;

- Konstitutsiya va boshqa qonunlar, uning vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ko‘rib chiqish va hal qilish.

Qonun Konstitutsiya normalarini to‘ldiradi va rivojlantiradi. Shuning uchun «Konstitutsiyaga moslik» termini orqali Konstitutsiya qoidalariga zid bo‘lмаган normalarning qonunda о‘rnatilganligi tushuniladi. Mazmunan, bu faoliyat Konstitutsiyaviylikni о‘rnatish maqsadida qonunlarni tekshirishdan iborat. Konstitutsiyaviy sud qonunni Konstitutsiyaga zid, ya’ni nokonstitutsiyaviy deb topishi mumkin. Bu kabi qonunlarni rad qilish, о‘zgartirish va yangilarini shakllantirish qonun chiqaruvchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy faoliyatni tashkillashtirish va tartibga solish 1995-yil 30-avgustda

qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Xorijiy mamlakatlarda Konstitutsiyaviy sudning tarkibi turlicha bo'lib: Yugoslaviyada 7 kishidan; Fransiya, Ruminiya, Makedoniya, Mongoliya va Sloveniyada 9 kishidan; Slovakiya va Chexiyada 10 kishidan; Ispaniya, Bolgariya, Polsha va Eronda 12 kishidan; Germaniyada 16 kishidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga asosan Konstitutsiyaviy sud tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi. Har bir suda yakka tartibda saylanadi. Umumiy deputatlar sonidan ko'pchilik ovozni olgan suda saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga asosan Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qonunchilik tashabbusiga ega. «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasi Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqish uchun masalalar taqdim etish huquqiga ega bo'lган subyektlar doirasini belgilab bergen. Bular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis qonunchilik palatasi spikeri, Oliy Majlis Senati Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges Raisi, Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonini kamida to'rtdan bir qismini tashkil etuvchi deputatlar guruhi, Oliy Majlis Senati a'zolari umuiy sonining kamida to'rtdan bir qismini tashkil etuvchi senatorlar guruhi, Oliy sud Raisi, Oliy xo'jalik sudi Raisi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori hisoblanadilar.

So'rovnoma, iltimosnoma va shikoyatlar Konstitutsiyaviy sudda ishlarni ko'rib chiqish uchun sabab bo'lib xizmat qiladi. Iltimosnoma yoki shikoyatda keltirilgan qonun yoki boshqa normativ hujjatning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos yoki mos emasligi to'g'risidagi noaniqlikni aniqlab berish to'g'risidagi asoslар ishni ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'tgan davr mobaynida Konstitutsiyaviy sudning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat edi:

– Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, Toshkent shahar va viloyat hokimliklarinin qaror va boshqa huquqiy hujjalaring O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini doimiy o‘rganish;

– xalqaro shartnoma va kelishuvlarning O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash uchun ularni o‘rganish;

– qonunlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

– yangi qonun loyihalarni o‘rganish va ular bo‘yicha fikr-mulohazalar berish;

– jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish ishlarida ishtirok etish;

– chet el konstitutsiyaviy sndlari yoki ularning o‘rnini bosvchi boshqa organlarning faoliyatini o‘rganish va ulardan ijobiyy foydalanish.

So‘nggi yillar mobaynida Konstitutsiyaviy sud o‘z vakolati doirasida bir necha materiallar ko‘rib chiqdi va ular yuzasidan o‘zining tegishli xulosalarini taqdim etdi.

Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri va Markaziy bank raisi xo‘jalik subyektlari hisobidan pul mablag‘larini o‘tkazish tartibini belgilovchi Fuqarolik kodeksining 784-moddasi va boshqa normalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos emasligini tekshirishni so‘rab murojaat etganlar. Murojaatnomada xo‘jalik subyektlarining mehnat va boshqa huquqiy masalalar bo‘yicha budgetdan tashqari fondlarga pul o‘tkazish muammosiga asosiy e’tibor qaratilgan.

Konstitutsiyaviy sud Fuqarolik va Mehnat kodekslari, «Korxonalar to‘g‘risda»gi qonunlarni o‘rganib chiqib, ularni nokonstitutsiyaviy deb topish uchun asos topa olmadi hamda o‘z vakolati doirasida Konstitutsiyaning 82-moddasi «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi qonunga asoslangan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga xo‘jalik subyektlariga tegishli pul mablag‘larini o‘tkazish

qonunchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida qonunchilik tashabbusi bilan murojaat qildi.

Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonunlarni monitoring qilish instituti Konstitutsiyaviy sudga ikki masala yuzasidan murojaat qildi:

1) Mehnat kodeksidagi alohida turdag'i ishchilarga ish vaqtini qisqartirishning o‘rnatalgan imkoniyatlarini belgilovchi 118-moddani sharhlashni so‘rab; 2) Kasal bo‘lib qolgan oila a‘zosiga qarayotgani uchun haq to‘lash tartibini belgilovchi normalarning konstitutsiyaga mosligini tekshirish yuzasidan.

Ikkala masala ham Konstitutsiyaviy sud sudyalarini tomonidan sud majlisida ko‘rish uchun qabul qilindi. Ularning to‘g‘ri xulosa chiqarishi ishchilarining huquqlarini yanada kengaytirdi. 2001-yil 9-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi majlisi bo‘lib o‘tib, unda O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuning 16-moddasini sharhlash masalasi ko‘rildi.

Ushbu masala yuzasidan chiqarilgan qaror bilan quyidagilar aniqlandi. 1999 yil oktabr oyidan beri yakka tadbirkor sifatida faoliyat yuritib kelayotgan *V. Frolov* Soliq kodeksining 64-1-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.1998-yil qabul qilingan 541-sonli qaroriga asosan oyiga eng kam oylik ish haqining 5 barobari miqdorida soliq to‘lab kelgan. Keyinchalik soliq qonunchiligiga o‘zgartirish kiritilib, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i dastlab 10 barobar, keyinchalik esa 20, 30 barobar eng kam oylik ish haqi miqdoriga oshirildi.

V. Frolov O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari to‘g‘risida»gi Qonuning 16-moddasiga binoan imtiyozlardan foydalinish huquqiga ega bo‘lsa-da, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasining birgalikdagi 13.06.2001-yil qarori bilan uni bunday imtiyoz huquqididan mahrum qildilar. Konstitutsiyaviy sud ushbu ish bilan tanishib chiqib, chiqarilgan qarorni konstitutsiyaga zid deb topdi.¹

¹ O‘zbekistonda sud hokimiyyati: islohotlar davri. / Mualliflar jamoasi. – T.: Adolat, 2002. – B.237–239.

9.3.Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi rais, rais o'rribbosarlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili kirgan Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosidan iborat. Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi. Har bir sudyda alohida tartibda saylanadi. Oliy Majlis a'zolari orasida eng ko'p ovoz olgan shaxs sudyalik mansabiga saylangan hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud tarkibidagi sudyalarning vakolat muddati tugashi bilan Oliy Majlis Senati qonun bilan o'rnatilgan tartibda yangi sudyalarini saylaydilar. Konstitutsiyaning 107-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud sudyalari besh yil muddatga saylanadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari almashtirilmaydi. Ularning vakolatlarini amalga oshirishni to'xtatish yoki tugatish qonun bilan o'rnatilgan tartibdagina amalga oshirilishi mumkin. Qonun Konstitutsiyaviy sud sudyaligiga nomzodlarga yuqori talablarni qo'yadi. «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud sudyasi bo'lib yuqori malaka va axloqiy fazilatlarga ega bo'lган, siyosat va huquq sohasida faoliyat yuritgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylanishlari mumkin. Konstitutsiyaviy sud sudyasi bo'lib saylangan sudyalar qonun bilan belgilangan qasamyod qabul qiladi («O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasi).

Yuqorida ko'rsatilgan Konstitutsiyaviy sud nomzod sudyalariga qo'yilgan talablardan tashqari qonun, Konstitutsiyaviy sud sudyasi shug'ullanishi mumkin bo'lmagan bir qator taqiqlarni o'rnatadi. Xususan, Konstitutsiyaviy sud sudyasi o'z mansab vakolatlarini amalga oshirish vaqtida biror siyosiy partiya yoki harakatlarga a'zo bo'lishi, pul to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Ko'rsatilgan ta'qiqlar sudyaning «sof» huquqiy holatini o'rnatishga qaratilgan. Shuningdek, suda qonuniy vakil bo'lishdan tashqari, sudda, xo'jalik sudlarida yoki boshqa tashkilotlarda himoya va vakilikni amalga oshirish hamda o'z qaramog'iga olish huquqiga

ega emas. Bu sudyalar tomonidan qarorlar chiqarilayotganda shaxsiy manfaatlarning ustunlik xarakterini cheklaydi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyati tartibi uning Reglamenti bilan belgilangan bo‘lib, *unga*:

- sud majlislarida ko‘riladigan ishlar navbatini belgilash tartibi;
- sud majlislari jarayoni qoidalari va etikasi;
- sudda ish ko‘rishning xususiyatlari;
- sud apparatining xodimlariga bo‘lgan talablar;
- Konstitutsiyaviy sud ichki faoliyatining boshqa masalalari kiritiladi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy tamoyillari jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasigagina amal qilish, oshkoraliq, mustaqillik, ishlarning hay’atda ko‘riliши va sudyalarning teng huquqliligi tamoyillari kiradi. Sudda ishlarni ko‘rish va qaror chiqarish kamida to‘rt sudyadan iborat bo‘lgan hay’atda amalga oshiriladi. Qarorlar faqat ishni sud majlisida ko‘rishda ishtirok etgan sudyalar tomonidangina chiqariladi. Konstitutsiyaviy sudlov yuritishda ishlarni hay’atda ko‘rish tamoyili ishlarni ko‘rishda xalq vakillarini jalb qilish mumkinligini nazarda tutmaydi.

Oshkoraliq tamoyiliga ko‘ra Konstitutsiyaviy sud majislari ochiq ko‘riladi. Sudyalarning tengligi tamoyili ishlarni sudda ko‘rayotganda *barcha sudyalar* – Rais, uning o‘rinbosarlari, Konstitutsiyaviy sudning boshqa a‘zolari teng ovoz berish huquqiga ega ekanliklarini belgilaydi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalar, korxona, muassasa, tashkilot, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Konstitutsiyaviy sudning huquqiy hujjatlar, ularning nusxalarini berish, tushuntirishlar berishni so‘rab qilgan talabnomalarini bajarish barcha mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Ishlarni Konstitutsiyaviy sudda ko‘rishda va ovoz berishda Konstitutsiyaviy sud raisi, uning o‘rinbosari, Konstitutsiyaviy sudning boshqa a‘zolari teng huquqlardan foydalanadilar. Konstitutsiyaviy sudda ishlarni ko‘rish davlat tilida olib boriladi. Majlilda ishtirok etayotgan, davlat tilini bilmaydigan ishti-

rokhchilar o‘z ona tillarida gapirishlari yoki tarjimon xizmatidan foydalanishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risidagi qonunga muvofiq Konstitutsiyaviy sud va uning sudyalari mustaqildirlar. Konstitutsiyaviy sud sudyalari hech qanday tarafning – davlat organining ham, jamoat birlashmalarining ham, siyosiy partiya va harakatlar, korxona, muassasa, tashkilotlar, biror bir mansabdar shaxs yoki siyosiy guruhlarning ham vakili hisoblanmaydi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari har qanday aralashuvdan xoli bo‘lgan sharoitdagina ishlarni ko‘radi, qarorlar chiqaradi. Ularga hech qanday davlat organi, jamoat birlashmalari yoki mansabdar shaxslar ko‘rsatmalar yoxud tushuntirishlar berishga haqli emas. Ishlarni ko‘rishda sudyalar faqatgina konstitutsiyaga asoslanganligi sud hokimiyatining ushbu organini har qanday siyosiy qarashlardan xoli, mustaqil huquqiy xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga har qanday ko‘rinishdagi aralashuvga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday aralashuv qonunga binoan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalarining butun vakolati muddatida almashtirilmasligi tamoyili ular mustaqilligining yana bir kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonuni Konstitutsiyaviy sud sudyalarining faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish tartibini belgilagan. Qonunning 16-moddasida Konstitutsiyaviy sud sudyalarining daxlsizligi va ularning ma’muriy jinoiy javobgarlikka tortilmasligi belgilangan.

Qonunda alohida ta’kidlanganidek, Konstitutsiyaviy sud sudyasi Konstitutsiyaviy sudning rozilgisiz jinoiy va ma’muriy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sud sudyasiga nisbatan faqat Bosh prokurorgina jinoyat ish qo‘zg‘atishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud sudyasining majburiy keltirilishiga, ushlab turish, olib qo‘yish, ish joyi, avtomobil, uy, bagaj va boshqa mulklarini tintuv qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

9.4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tashkiliy asoslari

Konstitutsiyaviy sud ish faoliyatining boshlanishi O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonunining 19-28-moddalarida belgilangan. Unga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud ish kelib tushgan kundan e’tiboran etti kundan kechikmay ko‘rib chiqishga kirishadi. Muayyan ish bo‘yicha Konstitutsiyaviy sudning qarori ish kelib tushgan kundan e’tiboran uch oydan kechikmay qabul qilinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis qonunchilik palata spikeri, Oliy Majlis Senati Raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining to‘rtadan bir qismidan kam bo‘lмаган deputatlar guruhi, Oliy sud raisi, Oliy xo‘jalik sudining raisi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Konstitutsiyaviy sud ish yurituviga masalalar kiritish huquqiga ega. Masala Konstitutsiyaviy sudning kamida uch nafar sudyasi tashabbusi bo‘yicha ham kiritilishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud ish materiallarini, agar ular qo‘ylgan talablarga javob bersa, olgan vaqt dan boshlab, etti kunlik muddatdan kechiktirmay masalani ko‘rishga kirishadi. Konstitutsiyaviy sudda ko‘rilayotgan masala yuzasidan qaror tegishli materiallar olingan paytdan boshlab, uch oy ichida qabul qilinadi. Konstitutsiyaviy sud majlislarida qanday ish ko‘rilishidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi, uning o‘rinbosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Adliya vaziri ishtirok etishi mumkin. Ular ko‘rilayotgan masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin.

Konstitutsiyaviy sudda ishlar O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida yuritiladi. Ishda ishtirok etayotgan davlat tilini bilmaydigan ishtirokchilar majlisda ishtirok etib, o‘z tillarida tushuntirish berishlari, shuningdek, tarjimon xizmatidan ham

loydalanishlari mumkin. Konstitutsiyaviy sudning majlislariga kerakli ma'lumot yoki materiallarga ega shaxslar, ekspert va mutaxassislar chaqiriladi. Ular o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish uchun bir qator huquqlar bilan ta'minlanadilar. Ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga qonun bilan belgilangan tartibda Konstitutsiyaviy sudda ishtirok etgan vaqtlariga mutanosib ravishda haq to'lanadi.

Konstitutsiyaviy sud faqat konstitutsiyavili shubha ostiga olinayotgan konkret masalalar yuzasidangina ish olib bora-di. Konstitutsiyaviy sud normativ huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga mosligini tekshirish jarayonida ushbu normativ hujjat asosida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni ham, ularning konstitutsiyavilyigini tekshirish so'ralmagan bo'lsa ham, o'zgartirishga haqli.

Konstitutsiyaviy sudning qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Hech qaysi suda betaraf qolishga haqli emas. Konstitutsiyaviy sudning qarori majlisda ishtirok etayotgan sudyalarning ko'pchiligi ovoz bergen taqdirdagina qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qabul qilingan qarordan norozi suda o'z fikrini yozma tarzda bayon etib, Konstitutsiyaviy sud majlisi bayonnomasiga kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Qonunda belgilab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vazifa va vakolatlarini amalga oshirish uchun zarus bo'lgan, sud jarayonidagi tartib va axloq normalari ish yuritishning xususiyatlari, ishtirokchilarga bo'lgan talablar Konstitutsiyaviy sudning Reglamentida mustahkamlanadi¹. Konstitutsiyaviy sud normativ hujjatlarning konstitutsiyavilyigini tekshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va majburiyatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining me'yoriy huquqiy hujjatlari Konstitutsiyaga qay darajada mos ekanligini tekshiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvar 1-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi sudining Reglamenti.

Konstitutsiyaviy sud taraflarning e'tirozlariga bog'liq bo'lmagan holda ishlarni ko'rib chiqadi. Konstitutsiyaviy sud keltirilgan tushuntirish, ko'rsatma va hujjatlar bilan chegaralanib qolmasligi, taraflar va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar huquqlarini ta'minlagan holda ishni har tomonlama va obyektiv ko'rib chiqishi lozim. Konstitutsiyaviy sudda ishni ko'rib chiqish va xulosalar berish tenglik tamoyiliga asoslangan holda olib boriladi. Eslatib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida ishlar davlat tilida olib boriladi.

Ishda ishtirok etuvchi davlat tilini bilmaydigan shaxslar o'z ona tillarida yoki tarjimon xizmatidan foydalangan holda so'zlashlari mumkin. Sud majlisida tarjimon bilan ta'minlash majburiyati Konstitutsiyaviy sud apparatining tegishli bo'linmasiga yuklatilgan, ishda ishtirok etayotgan barcha shaxslar va majlislar zalida hozir bo'lgan boshqa shaxslar Konstitutsiyaviy sudga va sud jarayonining axloqiy qoidalariha hurmat munosabatida bo'lishlari, raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'y sunishlari shart.

Konstitutsiyaviy sud majlislarida tartibni buzish raislik qiluvchining farmoyishlarini bajarmaslik, Konstitutsiyaviy sudda o'rnatilgan qoidalarga bo'y sunmaslik tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi. Konstitutsiyaviy sudning vakolati doirasiga kirgan, qaror chiqarishi lozim bo'lgan masalalarni hal qilish uchun Konstitutsiyaviy sud sud majlisini tayinlaydi. Konstitutsiyaviy sud majlislarining Reglamentida belgilab qo'yilgan tartib qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi majlislari rais tomonidan, u bo'lmagan taqdirda esa o'rribbosari tomonidan chaqiriladi. Rais va uning o'rribbosarlari bo'lmagan taqdirda, majlis Konstitutsiyaviy sudning eng yoshi ulug' suyasi tomonidan chaqiriladi. Konstitutsiyaviy sudning navbatdagi majlisining joyi va vaqt haqida sudyalar sud majlisi boshlanishidan kamida 10 kun ilgari xabardor qilinadilar. Shu bilan bir vaqtda, sudyalarga chaqiruv qog'oz va ishni ko'rib chiqish uchun lozim bo'lgan hujjatlar topshiriladi. Konstitutsiyaviy sud raisi yoki uning o'rribbosari Konstitutsiyaviy sud faoliyati va sud apparatining bo'linmalari ishini tashkil etish to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun sudyalarni va Konstitutsiyaviy sud apparati xodimlarini chaqirib yig'ilish o'tkazadi.

Rais va uning o‘rribosarlari bo‘limgan taqdirda, majlis Konstitutsiyaviy sudning eng yoshi ulug‘ sudyasi tomonidan chaqiriladi. Konstitutsiyaviy sud tomonidan ishlar qoida tariqasida shu sud tarkibida ko‘riladi. Konstitutsiyaviy sud majlislarida bir yoki bir necha masalalar ko‘rilishi mumkin. Har bir masala yuzasidan qaror qabul qilinadi. Masalalarni hal qilish jarayonida Konstitutsiyaviy sud taraflarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko‘rsatmalarini, ekspert xulosalarini, mutaxassis fikrlarini, sud majlisida ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning nutqlarini tinglaydi, kerakli hujjatlarni ma’lum qiladi.

Taraflarda va barcha sudyalarda mavjud bo‘lgan va ish ko‘rish jarayonida qo‘llanilgan hujjatlar qayta e’lon qilinmaydi. Biroq sudyalardan biri yoki majlis ishtirokchilaridan biri hujjatni to‘liq yoki qisman o‘qib eshittirilishini talab qilsa, Konstitutsiyaviy sudning qaroriga binoan uning talabi bajarishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud majislari qoida tariqasida har bir masala yuzasidan tanaffussiz, dam olish vaqtidan va ishtirokchilarga nutq tayyorlash uchun ajratiladigan vaqt dan tashqari ko‘riladi. Sud majlisida tanaffus bir tarafning ikkinchi taraf tomonidan taqdim etilgan materialni o‘rganish uchun vaqt ajratilishini so‘rab bergan iltimosnomasiga ko‘ra, shu bilan birga majlisning normal faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelgan taqdirda e’lon qilinadi.

Sud muhokamasi tayinlangan vaqtida Konstitutsiyaviy sud sudyalari sud majlisi zaliga kiradilar va o‘z o‘rinnarini egallaydilar. Shundan so‘ng Konstitutsiyaviy sud raisi sudyalar tarkibini, ko‘rilayotgan ishni, sud majlisi kotibini, ekspert, mutaxassis va tarjimon sifatida ishtirok etayotgan shaxslarni e’lon qiladi. Keyin raislik qiluvchining taklifiga ko‘ra sud majlisi kotibi majlis ishtirokchilarining kelgan kelmaganliklarini ma’lum qiladi. Shu bilan bir vaqtida, kotib majlis ishtirokchilaridan qaysi biri kelmaganligini, ular o‘z vaqtida xabardor qilingan-qilinmaganligini va kelmaslikning boshqa sabablarini ma’lum qiladi.

Taraflar yoki ularning vakillari sud majlisiga kelmagan taqdirda Konstitutsiyaviy sud ishni ko‘rishni boshlash yoki keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Taraf vakili vakolatini tegishli rasmiylashtirmagan taqdirda va shu sud

majlisida tarafning o‘zi ishtirok etmagan taqdirda raislik qiluvchi sudyalarga ishni taraf ishtirokisiz yoki uning vakili ishtirokisiz ko‘rish to‘g‘risida masalani taqdim etadi.

Sud majlisiga guvohlardan birortasi, ekspert yoki mutaxassis kelmagan taqdirda Konstitutsiyaviy sud ishni ularning ishtirokisiz ko‘rish to‘g‘risida taraflarning fikrini tinglaydi. O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonuni 23-moddasiga ko‘ra guvohlar, ekspert va mutaxassislarning sudga kelishi shart.

Sud majlisiga tegishli tartibda chaqirilgan guvohlar, ekspertlar va mutaxassislarning sud majlisiga kelmagan taqdirda Konstitutsiyaviy sud quyidagi qarorlardan birortasini qabul qiladi:

1. Guvoh, ekspert va mutaxassislarning sud majlisiga kelmaslik oqibatlari masalasini ko‘rishni keyinga qoldirish to‘g‘risida;
2. Guvoh, ekspert va mutaxassislarning sud majlisiga kelmaslik oqibatlari masalasini ko‘rishni keyinga qoldirish to‘g‘risida;
3. Sud majlisida tanaffus e‘lon qilish va guvoh, ekspert hamda mutaxassislarning keltirish choralarini ko‘rish to‘g‘risida;
4. Guvoh, ekspert va mutaxassislarning sud majlisiga kelmaslik oqibatlari masalasini ko‘rishni keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Shundan so‘ng, sud ishni ko‘rishni davom ettirish yoki tanaffus e‘lon qilish, yoxud ishni ko‘rishni keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Sud majlislarida raislik qiluvchining roli alohida ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonuning 2-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud majlislarida Konstitutsiyaviy sud raisi, u bo‘lmagan taqdirda esa rais o‘rinbosari raislik qiladi, rais, uning o‘rinbosari ham bo‘lmagan yoki ular o‘z vakolatini vaqtinchalik bajara olmagan vaqtida Konstitutsiyaviy sudning yoshi jihatidan katta sudyasi sud majlisida raislik qiladi.

Ma’ruza qiluvchi sudyasi raislik qilishi mumkin emas.

Raislik qiluvchi Konstitutsiyaviy sud majlislariga rahbarlik qiladi. Uning sud majlislarida tartibni saqlash to‘g‘risidagi farmoyishlari ishda ishtirok etuvchi va sud majlisida hozir bo‘lgan boshqa barcha shaxslar uchun majburiydir. Raislik qiluvchi ko‘rilayotgan masalalarni har tomonlama, to‘liq va

xolisona ko'rib chiqish uchun quyidagi barcha zaruriy choralarni ko'radi:

– O'z pozitsiyasini bildirish va aniqlash maqsadida taraflar va ularning vakillariga ish holatlari bo'yicha tushuntirish berish, e'tiroz bildirish va bir-birlariga savollar berishi uchun teng imkoniyat yaratib beradi;

– ekspertlarning yozma yoki og'zaki xulosalari sud tomonidan o'rganiladi va baho beriladi;

– guvoh sifatida ishda ishtirok etish uchun chaqirilgan mutaxassislarining fikrlarini tinglaydi;

– ko'rيلayotgan ish holatlari bo'yicha taraflarga va sud majlisining boshqa ishtirokchilariga, ekspert, mutaxassis va guvohlarga savol berish imkoniyatini yaratadi;

– taraflar va sud majlisining boshqa ishtirokchilari tomonidan Konstitutsiyaviy sudga taqdim etilgan va sudning o'zi tomonidan talab qilib olingan hujjatlarni ko'rib chiqadi.

Sud muhokamasi jarayoni va uning natijasi rasmiylashtirib qo'yiladi.

Raislik qiluvchi sud muhokamasiga taalluqli bo'limgan barcha masalalarni ish hujjatlaridan ajratadi. Raislik qiluvchi tarjimonga sud ma'rzasini, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning savol-javoblarini raislik qiluvchining farmoyishlarini, sud majlisida o'qib eshittirilgan ish hujjatlarini, Konstitutsiyaviy sud qarorini to'liq va aniq tarjima qilish majburiyatini tushuntiradi.

Raislik qiluvchi sud majlisi ishtirokchilariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi. Raislik qiluvchining taklifiga binoan guvoh, ekspert, mutaxassis qasamyod qabul qilib, uni imzolaydi va sud majlisi bayonnomasiga kiritib qo'yish uchun kotibga taqdim etadi. Shuningdek, ekspert mutaxassis va guvohlar guvohlik berishdan bosh tortganlik yoki yolg'on guvohlik bergenligi uchun javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi.

Raislik qiluvchi taraflar va uning vakillarini sud majlisi boshqa ishtirokchilarining qo'shimcha hujjatlar talab qilishi haqidagi, yangi guvohlarni chaqirish hamda ishga yangi mutaxassis va ekspertlarni jalb qilish borasidagi iltimoslari bor

yo‘qligini so‘raydi.¹ Sud majlisida taraflarning vakili sifatida advokat mutaxasis va boshqa shaxslar taraflar tomonidan vakolati belgilangan ishonchnoma asosida ishtirok etadilar.

Bu xildagi iltimoslar yozma ravishda kelib tushsa, u sud muhokamasida e‘lon qilinadi va ish hujjatlariiga qo‘shib qo‘yiladi. Og‘zaki iltimoslar sud majlisi bayonnomasiga kiritib qo‘yiladi.

Ishni ko‘rib chiqish boshida ma’ruza qiluvchi sudya ishning qisqacha mazmuni, uni ko‘rib chiqishga asos bo‘lgan holatlar, mavjud hujjatlarning qisqacha mazmuni va ishni ko‘rishga tay-yorlash uchun qilingan ishlar bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ma’ruza qiladi. Ma’ruza qiluvchi sudya o‘z ma’ruzasida e’tirozlarni, keltirilgan takliflarni muhokama qilishga va ularga baho berishga haqli emas. Ma’ruza qiluvchi sudya ma’ruzasini tugatgandan so‘ng raislik qiluvchi taraflarga ish holatlarinig mazmuni bo‘yicha tushuntirishlar berishni taklif qiladi. Birinchi bo‘lib ishni ko‘rib chiqish uchun ariza bilan murojaat qilgan taraf yoki uning vakiliga, undan so‘ng raisning taklifi bilan ikkinchi taraf va uning vakillariga so‘z beriladi.

Ishni sudda ko‘rib chiqishni so‘rab murojaat qilgan taraf yoki uning vakili Konstitutsiyaviy sudga ishning qisqacha mazmunini, uning huquqiy asoslarini va unga doir dalillarni keltiradi. Boshqa taraf yoki uning vakili qarshi tarafning ko‘rsatmalariga e’tiroz bildirib, o‘z e’tirozining huquqiy asoslarini va dalillarni keltiradi.

¹ Sud majlisida taraflarning vakili sifatida advokat mutaxasis va boshqa shaxslar taraflar tomonidan vakolati belgilangan ishonchnoma asosida ishtirok etadilar.

Konstitutsiyaviy sudda taraflarning vakillari bo‘lib, taklif kiritgan idora rahbari, normativ hujjatni chop etgan mansabдор shaxs va idora rahbari ishtirok etib, tuzilgan xalqaro shartnomada qo‘yilgan masalaning konstitusiyaviyligini tekshiradilar.

Taraflar va ularning vakillari konstitusiyaviy sudda ko‘rilayotgan masala bo‘yicha sud majlisining tayyorgarlik qismida ish materiallari bilan tanishish, yozma taqriz taqdim etish, ekspertiza tayinlashda ekspert nomzodini taklif etish, sudga guvoh ekspert va mutaxassisni jaib qilish to‘g‘risida iltimoslar kiritish, ishda mavjud bo‘lgan yoki taqdim etilgan qo‘shimcha hujjatlarni e‘lon qilish masalasini qo‘yish, ona tilida so‘zlash va tarjimon xizmatidan foydalanish, boshqa tarafning guvohlari, ekspert va mutaxassislariga savollar bilan murojaat qilish va o‘z fikrini bayon qilish huquqiga ega.

Taraflar va ularning vakillari, sud muhokamasi boshqa ishtirokchilari sud majlisi tartibini buzsa, ko'rileyotgan ish doirasidan chetga chiqsa, raislik qiluvchi ularning ma'ruzasini to'xtatadi. Ikkala taraflar va ularning vakillari o'z fikrlarini bayon qilib olgandan so'ng raislik qiluvchi sudyalarga taraflar va ularning vakillariga savollar berish navbatini beradi. Shundan keyin esa savol berish huquqi taraflar va ularning vakillariga beriladi.

Bundan tashqari, taraflar va ularning vakillariga savollar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi spikeri va uning o'rribosarlari, Oliy Majlis Senating raisi va uning o'rribosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi, Bosh prokuror va O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan berilishi mumkin.

Guvochlari nutqining davomiyligini Konstitutsiyaviy sud belgilaydi. Raislik qiluvchi guvochlarga ularga ish holatlari bilan bog'liq barcha bilganlarini so'zlashni taklif qiladi. Guvochlarga savollar berilishi mumkin. Guvochlarga savollar birinchi bo'lib ishni sudda qo'zg'atgan taraf yoki uning vakili, undan so'ng esa qarshi taraf yoki uning vakili va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan beriladi. Sud tomonidan chaqirilgan guvochlarga avvalo ishni sudda ko'rishni so'rab murojaat qilgan taraf savol beradi. Sudyalar guvochlarga sud majlisining istalgan vaqtida savollar berishlari mumkin.

Agar sud guvoh tomonidan keltirilgan ko'rsatmalarni ishni hal qilish uchun etarli deb topsa, qolgan guvochlarni tinglamasligi ham mumkin. Sud majlisida hujjatlar o'qib eshittiriladi va zarur hollarda, taraflarga va ularning vakillariga, alohida hollarda esa ekspert, mutaxassis, guvoh va boshqa shaxslarga beriladi. Shundan so'ng taraflar va ularning vakillari o'qib eshitirilgan hujjatlar bo'yicha o'z tushuntirishlarini berishlari mumkin. Tegishli tartibda olingan, ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lган hujjatlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan o'r ganilib ishga tikib qo'yiladi.

Konstitutsiyaviy sud zarur hollarda ekspert va mutaxassislarni tinglaydi. Ekspert, mutaxassislarni tinglash muddati sud

tomonidan belgilanadi. Raislik qiluvchi ekspert va mutaxassisiga ko‘rilayotgan masala yuzasidan o‘z hamkasblari fikrini baryon etishda vakil sifatida so‘zlashi uchun imkoniyat yaratadi.

Ekspert, mutaxassis hamda guvohga tartib bo‘yicha savollar beriladi. Konstitutsiyaviy sud majlislarida Konstitutsiyaviy sud raisining taklifiga ko‘ra Konstitutsiyaviy sud huzuridagi ilmiy maslahat kengashi a’zolari siyosat va jamoat arboblari, deputatlar, sudyalar, xalqaro tashkilotlar, davlat organlari, jamoat muassasalari, ilmiy muassasa va oliy ta’lim bilim yurtlari vakillari ishtirok etishlari mumkin. Taklif qilinganlar ko‘rilayotgan masala yuzasidan raislik qiluvchining ruxsati bilan o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin. Normativ aktning konstitutsiyavilyigini tekshirishni so‘rab sudga murojaat qilgan shaxslar va shu bilan birga konstitutsiyavilyigi tekshirilayotgan me’yoriy hujjat chiqargan, xalqaro shartnoma tuzgan shaxslar ham sud majlislarida ishtirok etishlari shart.

Keltirilgan hujjatlar o‘rganib chiqilib, taraflarning, ularning vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko‘rsatmalari, ekspert xulosalari va mutaxassis fikri sud tomonidan o‘rganilib bo‘lgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi spikeri va uning o‘rinbosarlari, Oliy Majlis Senatining raisi va uning o‘rinbosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi, Bosh prokuror va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining chiqishlari tinglanadi.

Taraflar va ularning vakillari Konstitutsiyaviy sud majlislarida tekshirilgan dalillar tahlili va bahosi ko‘rilayotgan ishga aloqasi, taraflarning talab va e’tirozlarini o‘zida ifodalagan so‘nggi ma’ruza nutqlari bilan chiqishlari mumkin.

Konstitutsiyaviy sud taraflarga ularning iltimosiga ko‘ra so‘nggi nutqlariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sud majlisida tanaffus e’lon qilgan holda vaqt ajratishlari mumkin. So‘nggi nutqlar tinglab bo‘lingach, agar Konstitutsiyaviy sud yangi holatlarni aniqlash, yangi dalillarni topishni lozim deb topsa, ishni yangidan ko‘rish to‘g‘risida qaror chiqarishi mumkin. Shuning bilan birga, Konstitutsiyaviy sud sud majlisida tanaf-

fus e'lon qilishi va ishni ko'rishni keyinga qoldirish to'g'risida qaror chiqirishi mumkin. Ish bo'yicha qo'shimcha sud muhokamasi ham tugagandan so'ng, Konstitutsiyaviy sud qaror chiqarish uchun maslahatxonaga kirib ketadi. Sudyalarning qaror chiqarish uchun maslaxatlashuvi maslahatxonada o'tkaziladi. Sudyalar maslahati hech kimga oshkor etilmaydi.

Raislik qiluvchi ko'rيلayotgan masala yuzasidan fikr bildirishni istovchi har bir sudyaga so'z beradi. Maslaxatlashish davomida sudyalar bir-birlaridan o'z nuqtai nazarlarini aniqlashtirishni taklif qilishi mumkin. Maslahat tugagach, raislik etuvchi sudyalar tomonidan taqdim etilgan qarorga ovoz berishni taklif etadi. Konstitutsiyaviy qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud majlislarida bayonnomma yuritiladi. Bayonnomada quyidagilar ifodalanishi lozim:

- majlis o'tkazilayotgan joy va vaqt to'g'risida ma'lumot;
- ishtirok etayotgan va ishtirok etmayotgan sudyalar ro'yxati;
- raislik qiluvchining ismi, sharifi, otasining ismi va lavozimi;
- majlis kotibining ismi, sharifi, otasining ismi;
- kun tartibi, taraflar va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumot;
- konstitutsiyaviy sud tomonidan ish ko'rish tartibi;
- taraflar va ular vakillarining tushuntirishlari;
- guvohlarning ko'rsatmalari, ekspert xulosalari, mutaxassis fikrlari, ularga berilgan savollar va aytilgan javoblar;
- ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning chiqishlari, taraflar va boshqa shaxslarning bayonnomaga kiritishni so'ragan ko'rsatmalari va faktlari;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar va ovoz berish natijalari.

Agar Konstitutsiyaviy sud majislari davomida va qaror chiqarish vaqtida ovoz yozish, video yozuv, fonogramma, suratga olish ishlari o'tkazilgan bo'lsa, bayonnomaga bu haqda yozilib, ishga qo'shib qo'yiladi. Konstitutsiyaviy sud majlisida bayonnomma kotib tomonidan yuritiladi. Taraflar va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar ish uchun ahamiyatli deb topgan ko'rsatma, holat va faktlarni bayonnomaga kiritib qo'yishni

so‘rab iltimosnama bilan murojaat qilishlari mumkin. Barcha qo‘sishimcha va to‘ldirishlar bayonnomaga kiritilishi lozim. Bayon nomma majlis tugagandan so‘ng 5 kun ichida rasmiylashtirilishi kerak. Sud majlisi bayonnomasi raislik etuvchi va kotib tomonidan imzolanib, ishga qo‘sib qo‘yiladi.

Taraflar va ularning vakillari bayonnomma bilan tanishib unga e’tiroz bildirishlari mumkin. Bunday e’tirozlar raislik qiluvchining yakka o‘zi tomonidan 10 kun muddat ichida ko‘rib chiqilishi lozim. Raislik qiluvchi e’tirozlar bilan tanishib chiqqandan so‘ng, uni ishga qo‘sib qo‘yish yoki rad qilish to‘g‘risida qaror chiqarishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tashkiliy jihatlarida raislik qiluvchining o‘rniga ahamiyat berish lozim.

Konstitutsiyaviy sud raisi:

- Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga rahbarlik qiladi, sudyalar o‘rtasida ishlarni taqsimlaydi;
- Konstitutsiyaviy sud majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;
- Konstitutsiyaviy sud apparati tizimi va shtat jadvalini tasdiqlaydi;
- Konstitutsiyaviy sud apparati faoliyati ustidan umumiy rahbarlik qiladi, apparat xodimlarini ishga oladi va bo‘shatadi;
- Apparat xodimlarini rag‘batlantiradi va ularga nisbatan intizomiy javobgarlik choralarini qo‘llaydi;
- Konstitutsiyaviy sud faoliyati bilan bog‘liq boshqa vazifalarni amalgalashiradi.

Konstitutsiyaviy sud raisi Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tashkil etish uchun farmoyishlar chiqaradi. Konstitutsiyaviy sud raisi sud majlislariga tayyorgarlik ko‘rish ishlariga umumiy rahbarlik qiladi.

Konstitutsiyaviy sud raisi kelib tushgan takliflarni o‘rganib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- 1) Ishni sudda ko‘rish uchun qabul qilish to‘g‘risida;
- 2) Ishni dastlabki o‘rganish uchun sudyalar yoki apparatning tegishli bo‘linmasiga muddatini ko‘rsatgan holda topshirish to‘g‘risida;

3) Agar taqdim etilgan (yoki kelib tushgan) taklifni qaytarib yuborish so‘ralgan bo‘lsa, uni qaytarish haqida. Ishni sudda ko‘rish uchun qabul qilish to‘g‘risida qaror chiqqach, Konstitutsiyaviy sud raisi masalani dastlabki o‘rganish uchun ma‘ruzachi sudyani tayinlaydi, shu bilan birga sud majlisida ish hujjatlarini bayon qilish uchun qoida tariqasida ish konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan kundan e’tiboran ko‘pi bilan 2 oy muddat ichida tayyorgarlik ishlarini tugatish masalasini hal etadi.

Konstitutsiyaviy sud raisi ishning alohida murakkablik holatini e’tiborga olib yuqorida ko‘rsatilgan muddatni ko‘pi bilan 1 oyga uzaytirishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud raisi ma‘ruzachi sudyadan Konstitutsiyaviy sudda ko‘rish uchun ish materiallarining tayyorgarlik darajasini aniqlab, sud majlisiga taklif qilinadigan shaxslar doirasini aniqlaydi, sud majlisi joyi va vaqtি haqida xabardor qilish uchun hamda majlis ishtirokchilari va sudyalarga kerakli hujjatlarni jo‘natish to‘g‘risida farmoyish beradi.

Quyidagi hollarda konstitutsiyaviy sud majlisi keyinga qoldirilishi mumkin:

1) agar Konstitutsiyaviy sud ko‘rilayotgan masalani yetarli darajada tayyorlanmagan deb topsa;

2) taraflar, guvoh, ekspert, mutaxassislardan birining kelmasligi ishni noto‘g‘ri hal qilishga olib keladi deb topsa;

3) agar ishni ko‘rib chiqish va hal qilish uchun lozim bo‘lgan hujjatlar taqdim etilmagan yoki kech taqdim etilgan bo‘lsa;

4) ishni ko‘rishi keyinga qoldirishni so‘rab sudyalardan biri so‘ragan yoki taraflar, yoki ularning vakillari tomonidan keltirilgan dalillar Konstitutsiyaviy sud tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa;

5) Konstitutsiyaviy sud majlisi kvorumi buzilsa, ya’ni sudylardan birining ishtirok etmasligi yoki ulardan birining kasalligi aniq bo‘lsa;

6) Konstitutsiyaviy sud majlisining to‘la va har tomonlama ko‘rilishi uchun yoki sud majlisining normal faoliyat yuritishiga to‘sinqinlik qiluvchi boshqa muammolar yuzaga kelsa.

Konstitutsiyaviy sud majlisini keyinga qoldirish to‘g‘risidagi qaror sudyalarning ko‘pchilik qismi tomonidan ovoz berish yo‘li

bilan hal etiladi. Ishni ko‘rishni keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror chiqarilgan taqdirda, shu sud majlisida hozir bo‘lgan eks-pert, mutaxassis va guvohlar tinglanishi mumkin. Ishni ko‘rishga to‘sinqinlik qilayotgan holatlar bartaraf etilgandan so‘ng Konstitutsiyaviy sud sud majlisini davom ettiradi.

Konstitutsiyaviy sud majlisida qoida tariqasida u to‘xtatilgan vaqtidan qayta ko‘rish boshlanadi. Avvalgi sud majlisida ting-langan ekspert, mutaxassis va guvohlarni zarur hollardagina qayta chaqirish mumkin.

Konstitutsiyaviy sud bir tarafga ikkinchi taraf tomonidan taqdim etilgan materiallarni o‘rganib chiqish uchun vaqt ajratishni so‘rab bir tarafning qilgan iltimosnomasiga ko‘ra va ishni ko‘rishga ta’sir qiluvchi boshqa holatlar vujudga kelgan taqdirda ishni ko‘rishni keyinga qoldirishi mumkin. Ko‘rish to‘xtatilgan ish taraflarning iltimosnomasiga ko‘ra yoki ishni ko‘rishga to‘sinqinlik qiluvchi holat bartaraf bo‘lgan taqdirda sudning tashabbusi bilan qayta tiklanadi. Sud tomonidan ishni ko‘rishni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror boshqa masalalarni ko‘rishga to‘sinqinlik qilmaydi.

Masalani ko‘rishni tugatish quyidagi hollarda amalga os-hiriladi:

1) ishni ko‘rish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan hujjat qaytarib olinganda;

2) masala kiritish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs yoki dav-lat organi tomonidan berilgan bo‘lsa.

Sud majlislariga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini Konstitutsiyaviy sud kotibiyati mudiri tashkillashtiradi, *bundan tashqari u:*

– ishni ko‘rib chiqishga tayyorgarlik ko‘rish uchiun Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan o‘rnatilgan muddat va tartibning Konstitutsiyaviy sud apparati tomonidan bajarilishi ustidan nazorat qilish;

– sud ko‘rib chiqishi uchun taqdim etilgan masalalar yuzasidan xulosa berish tartibi loyihasini ishlab chiqish;

– sud ko‘rib chiqishi uchun taqdim etilgan masalani Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rish va xulosa berishi uchun reja loyihasini ishlab chiqish;

– Konstitutsiyaviy sud tomonidan tasdiqlangan apparat bo‘linmalari tuzilishi rejasini tarqatish;

– Konstitutsiyaviy sud raisining ishni yurituvga qabul qilish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingandan ko‘pi bilan 3 kun ichida sudyalarga ish materiallarini tarqatish;

– Konstitutsiyaviy sudning navbatdagi majlisi haqidagi chiqiruv qog‘ozini sudyalar va boshqa ishtirokchilarga jo‘natish;

– Konstitutsiyaviy sud majlisida majlis ishtirokchilarining kelgan-kelmaganligini aniqlash, Konstitutsiyaviy sud majlislarida xavfsizlikni ta‘minlash, majlisning normal faoliyati uchun texnik vositalarning tayyorligi kabi texnik va tashkiliy masalalarni hal etish.

– Konstitutsiyaviy sud majlisi bayonnomasini yuritish.

Konstitutsiyaviy sud majlislari zalida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo‘lishi lozim. Konstitutsiyaviy sud sudyalari majlisda maxsus kiyim kiygan holda ishtirok etadilar.

9.5. Konstitutsiyaviy sud qarorlari, ularning turlari, mazmuni, tizimi va yuridik ahamiyati

Konstitutsiyaviy sudning me‘yoriy huquqiy normalar va xalqaro shartnomalarining konstitutsiyaviligidini tekshirish natijasida chiqargan to‘xtami *qaror* deb nomlanadi. Qaror Konstitutsiyaviy sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonuning 26-moddasida ko‘rsatilgan hollarda Konstitutsiyaviy sudning qarorlari ikki ko‘rinishda ifoda etiladi: – yakuniy qaror va boshqa qaror.

Sud tomonidan muayyan masalani ko‘rish natijasida oxirgi xulosa sifatida chiqargan qarorlar yakuniy qarorlarga kiradi. Bunday qarorlar bilan sud ishni mazmunan hal qilmay, qoida tariqasida sud ishni tashkil etish yoki majlis o‘tkazish ishini tashkil etish maqsadida chiqariladi.

Yakuniy to‘xtam qonun va boshqa normativ aktlarning konstitutsiyaviligidini tekshirish, shu bilan birga, Konstitutsiya normalarini ko‘rish natijasi sifatida chiqariladi. Bunday masalalar

yuzasidan keltirilgan yakuniy to‘xtam Konstitutsiyaviy sud qarorlari deb nomlanuvchi hujjat shaklida ifodalanadi.

Konstitutsiyaviy sud qarorining tuzilishi:

Konstitutsiyaviy sud qarorlari kirish, bayon qiluvchi, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi.

Qarorning kirish qismida quyidagilar bo‘lishi lozim:

- qarorning nomi, u qabul qilgan joy va vaqt;
- qaror qabul qilgan Konstitutsiyaviy sud tarkibi;
- taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar;
- ishni ko‘rish uchun asos bo‘lgan masala.

Qarorning bayon qilish qismida quyidagilar bo‘lishi lozim:

– Konstitutsiyaviy sudining ushbu ishni ko‘rib chiqish huquqi yoki majburiyati ifodalangan O‘zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasi va «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi qonun normalari;

– konstitutsiyaviyligi tekshirilayotgan aktning to‘liq nomi, uning olish manbasi ko‘rsatilgan holda.

Qarorning asoslantiruvchi qismida quyidagilar bo‘lishi lozim:

– konstitutsiyaviy sud tomonidan qaror chiqarishga asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar;

– konstitutsiyaviy sud amal qilgan normativ aktlar.

Qarorning xulosa qismida normativ aktning normativligi xususidagi Konstitutsiyaviy sudning xulosasi va bu qarorning kuchga kirish muddati va tartibi, Konstitutsiyaviy sudning qarorlari raislik qiluvchi tomonidan sudyalar maslahatxonadan chiqqandan so‘ng, darhol e‘lon qilinadi.

Qarorlar qabul qilishning ham o‘ziga xos qoidalari o‘rnataligan. Bunday turdagilari qarorlar sud majlisida ishtirok etgan sudyalar tomonidan yopiq holda maslahatxonada ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

Qarorni muhokama qilish vaqtida har bir sudyaga chegaralanmagan doirada va muddatda chiqish qilishga imkoniyat yaratiladi.

Ovoz berish ochiq tarzda o‘tkaziladi. Barcha hollarda raislik qiluvchi oxirgi bo‘lib ovoz beradi. Qaror qabul qilish uchun ovoz berishda ishtirok etuvchi sudyalarning ko‘pchilik ovozi talab qilinadi. Hech qaysi bir suda ovoz berishda betaraf qolishi mumkin emas. Agar biron bir suda ovoz berishda qarordan

norozi bo'lsa, u o'z fikrini yozma tarzda alohida ifoda etishi va bu Konstitutsiyaviy sud majlisi bayonomasiga kiritilib qo'yilishi mumkin. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi («Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasi). Qaror ovoz berishda ishtirok etgan barcha sudyalar tomonidan ham imzolanadi. Muhokama bayonnomasida rasmiylashtiriladi.

Yakuniy to'xtam (qaror)ni ijro etishda anglashilmovchiliklar yuzaga kelmasligi uchun qaror to'liq asoslantirilgan va ishonchli bo'lishi lozim. Bu turdag'i qarorlar e'lon qilinishi bilan darhol kuchga kiradi, hech qanday davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanishi talab etilmaydi.

Konstitutsiyaviy sud qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Konstitutsiyaviy sud qarorlari so'nggi xulosa va ular ustidan shikoyat qilinmaydi.

Qonunga muvofiq Konstitutsiyaviy sud qarori uning o'z tashabbusi bilan sud majlisida qayta ko'riliши mumkin. Bunday asos «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Qonuning 28-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra: sudga qaror qabul qilish vaqtida ma'lum bo'lmagan yangi holatlarning ochilishi bilan; qaror qabul qilishga asos bo'lib xizmat qilgan konstitutsiyaviy normaning o'zgarishi munosabati bilan; Konstitutsiyaviy sud tomonidan qaror qabul qilishning o'rnatilgan tartibi buzilgan holda qaror qabul qilinganligi tan olingan holda sud qarorini qaytadan ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sud qarori u qabul qilingan kundan so'ng ko'pi bilan uch kun ichida taraflarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi raisiga, O'zbekiston Bosh vaziriga, uning o'rinoslariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziriga yuboriladi. Konstitutsiyaviy sud raisi boshqa davlat organlari va shaxslarga ham qaror nusxasini yuborish to'g'risida farmoyish berishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning so'rovnoma, talabnomalarini ko'rinishidagi qarorlari konstitutsiyaviy sud belgilagan tartib-

da e'lon qilinadi. Konstitutsiyaviy sud qarorlari Konstitutsiyaviy sud belgilagan tartibda va muddatda ijro etiladi.

9.6. Konstitutsiyaviy sud apparati, uning vazifalari va tashkil etilish tartibi

Konstitutsiyaviy sud apparati Konstitutsiyaviy sud faoliyatini dalil ma'lumotlar bilan, tashkiliy texnik jihatdan ta'minlab turish uchun; qabul qilingan qarorlarning ijrosi ustidan nazorat qilishni tashkil etish uchun; davlat hokimiyat organlari bilan aloqalarini o'rnatib turish, xalqaro hamkorlikni amalga oshirish va Konstitutsiyaviy sudning faoliyati bilan bog'liq boshqa ishlarni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Konstitutsiyaviy sud Apparati faoliyati «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonun, Konstitutsiyaviy sud Reglamenti va Nizomiga asoslangan holda tashkil etiladi.¹ Apparatning tizimi va shtat jadvali Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan tasdiqlanadi. Konstitutsiyaviy sud apparati bo‘lim va bo‘linmalardan iborat. Apparatning tuzilmaviy bo‘linmalari Konstitutsiyaviy sud raisi tasdiqlagan Nizom asosida faoliyat yuritadi.

Konstitutsiyaviy sud apparatiga quyidagicha asosiy vazifalarni bajarish yuklatiladi:

- konstitutsiyaviy sud faoliyatini, shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud tomonidan o‘tkaziladigan sud majlislari va yig‘ilishlarini tashkiliy, moddiy-texnik ta‘minlash;

- konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan o‘rnatalgan ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash muddati va tartibi ustidan nazorat qilish;

- konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun taqdim etilgan ishlarni ko‘rib chiqish rejasini loyihasini ishlab chiqish;

- tasdiqlangan loyihami apparatning bo‘linmalariga tarqatish;

- konstitutsiyaviy sud raisining ishni ko‘rish uchun dastlabki tayyorgarlikni boshlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingandan so‘ng sudyalarga ishda ko‘riladigan hujatlarni yuborish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Apparati to‘g‘risidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 1996-yil 5-iyul. 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

- konstitutsiyaviy sudning navbatdagi majlisi uchun chiqiruv qog‘ozini yuborish;
- konstitutsiyaviy sud majlisida bayonnomma yuritish;
- konstitutsiyaviy sud qarorlarini ijro etish holatlari haqida rahbariyatni xabardor qilish;
- mutaxassislar bilan ta’minlash;
- sudyalarni qonunchilikdagi o‘zgarishlarni tizimlashtirilgan holda o‘z vaqtida doimiy xabardor qilib turish;
- amaldagi qonunchilikni tahlil qilish;
- fuqarolarni qabul qilish, ularning xat, murajaatnoma va arizalarini qabul qilish va tahlil qilish ishlarini tashkil etish;
- konstitutsiyaviy sud qarorlarini va umuman, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini matbuotda yoritish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni tayyorlash;
- konstitutsiyaviy sud va boshqa davlat organlari faoliyatini o‘rganish va umumlashtirish;
- «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonun va Konstitutsiyaviy sud Reglamentida belgilangan Konstitutsiyaviy sud faoliyatining boshqa vazifalarini amalga oshirilishini ta’minlash.

Konstitutsiyaviy sud apparatiga Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan tayinlangan Konstitutsiyaviy sud kotibiyati boshlig‘i rahbarlik qiladi. Kotibiyat boshlig‘i Konstitutsiyaviy sud raisiga bo‘ysunadi. Konstitutsiyaviy sud apparati xodimlari Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan tayinlanadi. Ular mehnat qonunchiligiga asosan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar. Apparat xodimlarini ishdan bo‘shatish va ularga nisbatan intizomiy javobgarlik choralarini qo‘llash amaldagi qonunchilikka asosan Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sud Kotibiyati boshlig‘i:

- Konstitutsiyaviy sud apparati ustidan umumiylahabarlikni amalga oshiradi;
- Ishlarni tashkillashtirish va bo‘linmalar faoliyatini boshqarish ishlari uchun javob beradi;
- Uning qonunga zid bo‘lmagan ko‘rsatmalari va farmoyishlari apparat xodimlari uchun majburiydir;
- Apparat xodimlari tomonidan mehnat qonunchiligi va ichki tartib-qoidalariga amal qilinishini ta’minlaydi;
- Apparat xodimlarini rag‘batlantirish yoki ularga nisbatan intizomiy javobgarlik choralarini qo‘llash borasidagi takliflar bilan murojaat qiladi;

–Apparat xodimlarining ish majburiyatlarini, mehnat qonunchiligidan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarini belgilaydi;

– Tashkiliy masalalar yuzasidan o’tkazilayotgan Konstitutsiyaviy sud majlislarida ishtirok etadi.

Konstitutsiyaviy sud va uning apparatini moliyaviy jihatdan ta’minalash respublika budgeti tomonidan amalga oshirildi. Konstitutsiyaviy sud harajatlari smetasi har yili tuziladi va Konstitutsiyaviy sud tomonidan tasdiqlanadi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini amalga oshirish uchun o’rnatilgan smetadan tashqari mablag’larni sarflash Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Kotibiyat boshlig’i har yili Konstitutsiyaviy sudga uning faoliyatini ta’minalash bilan bog’liq harajatlarni sarflanish bilan bog’liq hisobotni taqdim etadi. Ushbu hisobot Konstitutsiyaviy sud tomonidan tasdiqlanadi.

9.7. Konstitutsiyaviy sud huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi maslahat beruvchi organ sifatida ish yuritadi¹. Ilmiy-maslahat kengashi faoliyati O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Respublika hududida to’la ustuvorligini ta’minalashga yo’naltirilgan.

Ilmiy-maslahat kengashi Konstitutsiyaviy sudga huquqiy fan, Konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyot, xalqaro qonunchilik yutuqlaridan to’liq foydalangan holda ko’maklashish maqsadida tashkil etilgan. Ilmiy-maslahat kengashiga siyosat va huquq sohasida faoliyat yurituvchi yuqori malakali mutaxassislar tanlab olinadi. Ilmiy-maslahat kengashi ishiga shu kengash a’zosi hisoblanmaydigan boshqa sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Ilmiy-maslahat kengashi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi taqdimnomasiga asosan rais, rais

¹ «Konstitutsiyaviy sudning ilmiy-maslahat Kengashi to’g’risida»gi Nizom O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudining 1996-yil 5-iyul 4-sonli Qarori bilan tasdiqlangan.

o'ribbosari, ilmiy kotib va kengash a'zolaridan iborat tarkibda saylanadi. Ilmiy-maslahat kengashi tarkibida qonunchilikning alohida sohalari bo'yicha, ya'ni huquq qo'llash va huquqiy muhofaza qilish faoliyati bilan shug'ullanadigan alohida bo'linmalar tashkil etilishi mumkin.

Ilmiy-maslahat kengashi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi vakolat muddatiga mutanosib muddatga saylana-di. Ilmiy-maslahat kengashi majlislarida ko'rildigani masalalar ni Konstitutsiyaviy sud raisi kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzurida-gi Ilmiy-maslahat kengashi:

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga ko'rib chiqish uchun berilgan masalalar yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar beradi;

– qonunchilikni takomillashtirish to'g'risida qonun hujjatlari loyihamarini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzurida-gi Ilmiy-maslahat kengashi majlislari zarur hollardagina cha-qiriladi. Kengash majlisi ijodiy bahs va fikrlarni erkin ifodalash shaklida kechadi. Qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan kengash a'zosi o'z fikrini yozma bayon etib, Konstitutsiyaviy sud rahbariyatiga taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzurida-gi Ilmiy-maslahat kengashi raisi kengash ishini tashkil etadi, majlislar chaqiradi, kengash takliflarini tayyorlashni so'rab kengash a'zolariga ko'rsatmalar beradi. Ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashining ilmiy kotibi kengash ishini tashkiliy jihatdan ta'minlaydi, hujjatlarni majlisga tayyorlaydi, bayonnaoma yuritadi. IMK faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash Konstitutsiyaviy sud apparati zimmasiga yuklatiladi. IMK har yili Konstitutsiyaviy sud rahbariyatiga o'z faoliyati to'g'risida hisobot beradi.

Qonun manbalari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. –T.: O'zbekiston, 2003.

2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. 2003-yil 24-aprel.

3. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2003-yil 30-avgust.

4. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni. 2000-yil 14-dekabr.

5. Konstitutsiyaviy sudning 1996-yil 5-iyul 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud Reglamenti. – T.: Sharq, 1996.

6. Konstitutsiyaviy sudning 1996-yil 5-iyuldagи 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyalarining sha’ni to‘g‘risidagi kodeks. – T.: Sharq, 1996.

7. Konstitutsiyaviy sudning 1996-yil 5-iyuldagи 4-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi to‘g‘risidagi Nizom. – T.: Sharq, 1996.

Maxsus adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1990.

2. «Правоохранительные органы» К.Ф.Гуценко, М.А. Ковалёв. – М.: Зерцало, 1998.

Nazorat savollari

1. Konstitutsiyaviy nazorat nima?

2. Konstitutsiyaviy sud tarkibiga kimlar kirishi mumkin?

3. Konstitutsiyaviy sud qanday tashkil etiladi?

4. Konstitutsiyaviy sudning faoliyati tamoyillarini sanab bering.

5. Konstitutsiyaviy sud vakolatlarini sanang.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida ish boshlashning asosiy xususiyatlarini ayting.

7. Konstitutsiyaviy sud majlislarida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni sanang.

8. Konstitutsiyaviy sud majislari o‘tkazish tartibi qanday?

9. Qanday hollarda Konstitutsiyaviy sud majislari qoldirilishi mumkin?

10. Konstitutsiyaviy sud qarorlarini sanang.

11. Konstitutsiyaviy sud apparatining funksiyalari qanday?

12. Konstitutsiyaviy sud apparatini shakllantirish tartibi qanday?

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi vazifalarini sanang.

14. Konstitutsiyaviy sud sudyalari sha'ni to'g'risidagi kodeksi nima?

15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qaroring tuzilishi qanday?

16. Konstitutsiyaviy sud Raisi vakolatlarini sanang.

17. Qanday hollarda Konstitutsiyaviy sud qarorlari qayta ko'riliishi mumkin?

X mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUDYALAR MAQOMI

10.1. Sudyalar maqomi tushunchasi va umumiy tavsifi

O'zbekiston Respublikasida, qonun bilan belgilangan vakolatlar asosida odil sudlov faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar sudyalar bo'lib hisoblanadi («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 60-moddasi). Sudyalar korpusi deganda, suda lavozimini egallovchi davlat xizmatchilar majmui tushuniladi. Bu xil lavozimdagi shaxslar doirasi nisbatan keng va turlitumandir. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi va a'zolari, boshqa Oliy sud instansiyalari raisi va ularning o'rribosarlaridan tortib to viloyat, tuman bo'g'inidagi umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudlari sudyalarini qamrab oladi. Qonunga binoan sudyalarga o'ta muhim mas'uliyat yuklatilgan. Bu avvalo, fuqarolarning, davlat va boshqa tashkilotlarning huquq hamda qonuniy manfaatlariga doir umummajburiy bo'lgan qarorlar qabul qilishi bilan bog'liqdir. Har qanday demokratik davlat uchun zarur bo'lgan huquq-tartibot va qonuniylik, fuqarolarning taqdiri va ularning farovonligi sudyalarning faoliyati bilan bog'liq. Xalq vakillari bilan birga faoliyat yurituvchi sudyalarga sud hokimiysi berilgan. Bu hokimiyat kuchi orqali sudyalar faqat qonuniylik, huquq-tartibot, fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarining kafili sifatida emas, balki tegishli holatlarda qonunchilik va ijroiya hokimiyatlarini tiyib turuvchi hamda muvozanatda saqlab turuvchi hokimiyat tarmog'i sifatida ham namoyon bo'ladi.

Sudyalar korpusi oldiga qo'yilayotgan o'ziga xos vazifalarning ta'siri ostida ko'plab o'n yilliklar davomida (ba'zi davlatlarda yuz yillar davomida) shunday tushuncha paydo bo'ldiki, bunga ko'ra sud, sudyalar, sudyalar korpusi maqomi boshqa davlat organlari va mansabdor shaxslari maqomidan ajralib turishi kerak. Sudyalarning, rahbariyatning buyrug'ini so'zsiz bajaruvchi, o'ziga ma'qul bo'lgan qarorni qabul qiluvchi oddiy amaldor ekanligi to'g'risidagi tushuncha tarafдорлари ос-

onlikcha o‘z ta’sirini yo‘qotmadi. Hatto, hozirgi kunda ham bu xil tushuncha tarafdarlari topilsada, odil fikr tarafdarlari kun sayin ko‘payib bormoqda.

Yillar o‘tishi bilan sudyalarda faqat o‘zlariga tegishli bo‘lgan huquq va majburiyatlar paydo bo‘la boshladi. Sudyalarning maqomi, ularning huquqiy holati bizga shu huquq va majburiyatlarning majmui sifatida ko‘rinadi. Bunda alohida sudyalar ning huquq va majburiyatları haqidagina emas, balki ularning shu mansabga loyiqligi, ularga odil sudlovni amalga oshirish vazifasi yuklatilganligi, sud hokimiyatini ishonganligi haqida ham so‘z boradi. Sudyalar xuddi boshqa fuqarolar singari huquqlarga ega, masalan, biror narsa sotish yoki sotib olish, nikohdan o‘tish, ta’tilga chiqish va h.k. Lekin shu bilan birga ularda boshqa fuqarolarda bo‘lmagan huquq va majburiyatlar ham bor.

Sudyalar fuqarolik, xo‘jalik, ma’muriy va jinoyat ishlarini ko‘rish faoliyatida konstitutsiya va boshqa qonunlarga so‘zsiz amal qilishga, korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini, mulkini himoya qilishga, xolis va adolatli bo‘lishga majburdirlar.

Sudyalarning odil sudlov faoliyati ularning boshqa mashg‘ulotlaridan ustun turishi kerak. Sudyalar sud sha’niga dog‘ tushirmasligi, sudlarning xolisligiga shubha tug‘diruvchi, ularning maqomi va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi harakatlarni sodir qilishdan o‘zini tiyishi kerak. Sudyalar o‘z malakasini yuksak darajada ushlab turishga majbur bo‘lib, bu ularning odil sudlovni amalga oshirishida zarur hisoblanadi.

Sudyalar sud ishtirokchilariga va boshqa shaxslarga o‘z vazifasini bajarishi davomida hurmatini namoyon qilib, ular bilan xushmuomala va beminnat bo‘lmog‘i darkor. Xuddi shu xislatlarni sudya o‘z apparat xodimlaridan ham talab qilishi kerak. Sudyalar yopiq sud majlisida olgan ma’lumotlarni, sud maslahati sirlarini oshkor qilishga haqli emas.

Sudyalarning xizmatdan tashqari faoliyati ularning obyektivligiga, adolatlilikiga va xolisligiga shubha tug‘dirmasligi kerak. «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 66-moddasiga binoan sudyalar davlat hokimiyatı vakillik organlarining deputati bo‘la

olmaydi. Sudyalar siyosiy partiyalar va harakatlarga a'zo bo'lishga, ularni moddiy yoki boshqacha yo'llar bilan ta'minlashga, shuningdek, o'zining siyosiy qarashlarini oshkora e'lon qilishga, chiqishlar va siyosiy xarakterga ega bo'lgan harakatlar va aksiyalarda ishtirok etishga haqli emas. Sudyalar siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishi, shuningdek, ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas. Sudya maqomi tavsifida shu narsani nazarda tutish kerakki, sudyalar qaysi sud bo'g'inida ishlashidan qat'i nazar, ular barcha sudlar uchun yagona bo'lgan maqomga ega bo'ladi. Lekin bu holat turli instansiyalarda ishlovchi sudyalarning bir xil darajada ekanligidan dalolat bermaydi. Albatta farqlar bor. Xuddi Konstitutsiyaviy sud sudyasi va umumiy yurisdiksiya sudi orasida to'la o'xshashlik bo'lmagani kabi.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 60-moddasida belgilangan O'zbekiston Respublikasida barcha sudlar bir xil maqomga ega degan holat faqat umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudi sudyalariga taalluqli bo'lib, Konstitutsiyaviy sud sudyalari huquqiy maqomi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Qonun bilan belgilanadi. Shu sababli 1996-yil 5-iyulda Konstitutsiyaviy sudning 2-sonli qarori bilan Konstitutsiyaviy sud sudyalari sha'ni to'g'risidagi Kodeks tasdiqlandi. Ushbu kodeks Konstitutsiyaviy sud sudyalarining axloqiy hulq qoidalarini belgilab berib, ular uchun majburiy hisoblanadi. Shu o'rinda ushbu kodeksdan misol keltirish o'rinnlidir:

1-modda. Konstitutsiyaviy sudlar uchun barcha narsadan ustun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy nazoratni olib borishda sudyalar konstitutsiya talablari va o'z vijdoniga amal qiladi. Hech qanday «Oliy adolatga» yo'naltirilgan yoki unga muvofiq keluvchi hujjat konstitutsiyadan ustun kela olmaydi.

Sudyalar o'z faoliyati davomida mansabdor shaxslar va fuqarolarda konstitutsiya va qonunlarda hurmat hissini shaklantirishi kerak, o'zi ham qonunga itoatkor bo'lishi kerak.

2-modda. Sudyalar har vaqt hamma joyda o'zini shunday tutishi kerakki, jamiyatda konstitutsiyaviy sudga, uning xolisligi va mustaqilligiga bo'lgan ishonch mustahkamlanishi kerak.

Sudyalarning o‘z xizmat vazifasi boshqa shaxsiy ishlaridan ustun turishi lozim. Sudya begona fikr ta’siridan xoli bo‘lishi, uning faoliyatini tanqid qilishdan ogoh bo‘lishi kerak.

3-modda. Sudya, Konstitutsiyada nazarda tutilganidek, o‘z mansabini, kimning manfaatini ko‘zlashidan qat’i nazar, suiiste’mol qilmasligi kerak. Sudyalar do’st va tanish orttirishda ehtiyyotkor bo‘lib, o‘ziga ziyonli aloqalardan yiroq yurishi kerak. Shuningdek, o‘zida va boshqa shaxslarda, xuddi o‘ziga ta’sir ko‘rsatayotgandek taassurot keltirib chiqaradigan holatlardan yiroq yurmog‘i darkor.

Umuman, har qanday holatda ham sudyalar o‘z yurish-turishiغا e’tibor bilan yondoshmog‘i, uning oqibatini ko‘ra biliishi, shuningdek, ularni Konstitutsiya talablari va axloq qoidalari bilan uyg‘unlikda olib bormog‘i kerak. Sudyalar o‘zlariga nisbatan qasddan konstitutsiya normalarini buzganligi, mansabini suiiste’mol qilishi, ishlarni ko‘rishdan g‘arazli yoki boshqa maqsadda manfaatdorligi mazmunidagi jamoat ayblovlariga befarq qaramasligi lozim.

4-modda. Sudyalar fuqarolar bilan muomalada bo‘lganda xizmat vazifasini bajarishida ham, xizmat vazifasidan xoli paytda ham umume’tirof etilgan axloq qoidalariга rioya qilishi, o‘zini munosib tutishi kerak. Sudya o‘zining muloyim murojaati, bosiqligi, beminnat va barchaga teng muomalasi, qat’iyligi, masalalar mazmuniga chuqur yondashishga intiluvchanligi, boshqalar fikrini eshitib, uni tushuna olish qobiliyati, gapirmoqchi bo‘lgan gapini har tomonlama o‘ylab gapirish fazilatlari bilan boshqalardan ajralib turmog‘i lozim. Sudya bu xil xislatlarga Konstitutsiyaviy sud apparati xodimlarini, o‘z hamkasblarini ham o‘rgatmog‘i kerak.

5-modda. Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rilayotgan yoki ko‘rilishga tayyorlanayotgan ishlar bo‘yicha qaror qabul qilinishidan oldin sudyalar, agar ish holatlari buni zarur deb topmasa, o‘z fikrini oshkor qilishga haqli emas. Sudya ish bo‘yicha qabul qilingan qaror kuchga kirmaguncha ishga oid masalalar bo‘yicha ma’lumotlarni oshkor etishga haqli emas. Sudya o‘z xizmat vazifasini bajarishda ochiq sud majlisida olin-gan ma’lumotlardan tashqari boshqa ma’lumotlarga nisbatan kasb sirini saqlashi kerak.

6-modda. Sudya ilmiy-ijodiy pedagogik faoliyatdan tashqari tadbirdorlik faoliyati yoki boshqa haq to'lanadigan biron bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Sudya hayriya faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda o'z oldiga siyosiy va tijorat maqsadlarini qo'yagan jamoat birlashmalarida, oliygoh va ilmiy tekshiruv institutlarida haq to'lanmaydigan lavozimlarda ishlashi mumkin. Sudya o'z mansabidan foydalaniib Konstitutsiyaviy sud sudyasi lavozimidan xoli holda boshqa turdag'i muammolarni va nizolarni yechishda hakam yoki o'rtada turuvchi bo'lib ishtirok etishga haqli emas.

7-modda. Sudya siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi siyosiy partiylar va jamoat birlashmalari a'zosi bo'lishga yoki ularni moddiy yoxud boshqacha yo'l bilan qo'llab-quvvatlashga haqli emas. Sudyalar siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi, u yoki bu g'oyalarni olg'a suruvchi siyosiy partiylar va jamoat birlashmalari haqidagi shaxsiy fikrlarni oshkor qilishdan o'zini tiyishi kerak. Sudya davlat hokimiyyati vakillik organlariga tayinlanayotgan yoki nomzodi qo'yilayotgan nomzodlarni oshkora qo'llab-quvvatlashi yoxud ularni yoqlab yo bo'lmasa ularga qarshi ovoz berishdan o'zini tiyishi kerak.

8-modda. Sudya konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish borasidagi o'z xizmat vazifasini bajarishi yuzasidan kasb malakasini doimiy oshirib borishi, o'z bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirib borishi kerak. Sudya qonunchilikni takomillash-tirishga qaratilgan tadbirdorda ishtirok etishi mumkin.

Umumi yurisdiksija va xo'jalik sudlari sudyalarining huquq hamda majburiyatları «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 65-moddasida umumi, asosiy huquqlari tizimi bilan belgilab berilgan. Sudyaning odil sudlovnii amalga oshirishdagi boshqa huquqlari protsessual qonunchilikda belgilab berilgan. Qonunning 65-moddasiga binoan sudyalar mansabdor shaxslar va fuqarolardan odil sudlovnii amalga oshirish bilan bog'liq o'z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish, mansabdor va boshqa shaxslar odil sudlovnii amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot olish, uyushmalarga birlashish huquqiga ega. Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyalarining odil sudlovnii amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talab va farmoyish-

larini so‘zsiz bajarishlari shart. Odil sudlovnii amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari sudyalarining talabiga muvofiq bepul beriladi. Sudyalarning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Bu xildagi javobgarliklar O‘zR MJK va JKda belgilangan.

Sudyalar maqomini belgilab beruvchi huquq va majburiyatlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- sudyalar korpusini shakllantirish bilan bog‘liq huquq va majburiyatlar (sudyalikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, nomzodlarni tanlash va ularga sud vakolatini taqsimlash tartibi bilan bog‘liq);

- sudyalarining o‘z vakolatini mustaqil amalga oshirishini kafolatlovchi huquq va majburiyatlar (sudyalarining daxlsizligi, ularning vakolatini muddatdan oldin tugatish va to‘xtatib turishning alohida tartibi va hokazo);

- sudyalarining o‘z-o‘zini boshqarish borasidagi huquq va majburiyatlari¹.

10.2. Sudyalar mustaqillining kafolatlari

Adolatning mustaqil va xolis sud tomonidan amalga oshirishi g‘oyasi qadim tarixda yuzaga kelgan bo‘lib, bu to hozirgi kungacha har bir demokratik davlat qonunchiligining poydevorini tashkil etadi.

Shu boisdan, sud mustaqilligi masalasi doimo dolzarb bo‘lib kelmoqda. Sudlarning mustaqilligi va xolisligi tamoyili qadrini anglagan holda, xalqaro hujjatlar va milliy konstitutsiyalar yutuqlarini umumlashtirib 1985-yil 29-noyabrda BMT Bosh Assambleyasи «Sud organlarining asosiy tamoyillari to‘g‘risida» sud hokimiysi uchun o‘ziga xos konstitutsiya bo‘lib qolgan xalqaro Konvensiyani qabul qilgan.

Jumladan, unda shunday deyiladi: «Sud organlari mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va davlatning konstitutsi-

¹ Гуценко К.Ф., Ковалёв М.А. Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов. 6-изд. / Под ред. К.Ф. Гуценко. – М.: ЗЕРЦАЛО: – М, 2001. – В.205.

ya va qonunlarida mustahkamlanadi. Nodavlat tashkilotlar va boshqa muassasalar sud mustaqilligi tamoyiliga rioya qilishi va uni hurmat qilishi shart. Sud organlari o‘zlariga topshirilgan ishlarni qonun va faktlarga asoslangan holda, qay tarafdan va qanday sabablar bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zgalarning bevosita yoki bilvosita aralashuviz, hech qanday to‘siqlarsiz, qonunga xilof ta’sir, do‘q-po‘pisalarsiz ko‘rib chiqadi. Odil sudlov jarayonida qonunga xilof va sanksiyalanmagan aralashishga o‘rin bo‘lmasligi kerak».¹ Faqat mustaqil sud hokimiyatigina fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilib, oshkora shakldagi obyektiv sud jarayonini kafolatlaydi. Mustaqil sud to‘g‘risidagi talab har bir insonning huquqi hisoblanadi. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 10-moddasida belgilangan.

Mustaqil va xolis sudsiz sud hokimiyati mavjud bo‘lmay, inson huquqlarini ham himoya qilish mumkin emas. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunda bu tamoyil kafolatlangan. Bu tamoyilning kafolati bo‘lib: sudyalarni saylash, tayinlash va ularni ozod qilishning qonuniy tartibga solinganligi, ularning daxlsizligi, odil sudlovni amalga oshirishning qat’iy tartibi, qaror chiqarishda sud maslahatining sir tutilishi, uning oshkor etilishi ta’qiqlanishi, sud tomonidan ishlarni ko‘rishda ishga aralashganlik va sudga humrotsizlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanganligi, sudyalarning daxlsizligi tamoyili kabilar xizmat qiladi. Jinoyat Kodeksida (230-241-moddalar) odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlar haqidada bob mavjud.

«Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 67-moddasiga binoan, sudlar mustaqilligi kafolatlari ichida birinchi o‘ringa ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish tartibi chiqadi. Bu tartib bir necha qonunlar bilan tartibga solingan bo‘lib, bularga «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi, «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunlar misol bo‘ladi. Ushbu qonunlarda sudyalik lavozimiga nomzodlarning oldiga qo‘yiladigan talablar, ularni saylash, tayinlash va lavozim bo‘yicha ko‘tarilish tartibi belgilangan.

¹ Qarang: Международные акты о правах человека. Сборник документов – М.: Норма-Инфра: М: 1999. – В.169.

Barcha sudyalik lavozimi nomzodlariga qo‘yiladigan talab-larning umumiy xususiyati shundaki, ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lishi va oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Konstitutsiyaviy sud sudyasi lavozimi nomzodlariga ularning kasbiy bilim darajasidan kelib chiqqan holda yuqori darajadagi talablar qo‘yilgan. Ular oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lishi bilan birga siyosat va huquq sohasida mutaxassis bo‘lishi hamda yuksak axloqiy xislatlarga ega bo‘lishi kerak («Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonunning 12-moddasi).

Sudyalarning turli xil tizim va darajadagi nomzodlar uchun yoshi bilan bog‘liq o‘z sohasida ishlaganlik malakasiga oid talablar har xil hisoblanadi. Umumiy yurisdiksiya va xo‘jalik sudi asosiy bo‘g‘ini sudyasi lavozimiga tayinlanish uchun nomzodlar yoshi 25 dan kam bo‘limgan, o‘rtaga bo‘g‘in sudyalari uchun 27 yosh, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi nomzodlari uchun 30 yosh belgilangan.

Ko‘pdavlatlarning konstitutsiya va qonunlari Konstitutsiyaviy sud sudyasi lavozimi nomzodlari yoshiga tabiiyki, alohida talablarni qo‘yadi. Masalan, Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sud a‘zosi 40–68 yoshgacha, Vengriyada 45–70 yoshgacha bo‘lishi mumkin¹. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud sudyalari nomzodlariga qonun tomonidan yosh senzi belgilanmagan. Lekin shu narsa nazarda tutiladiki, nomzod Konstitutsiyaviy sud sudyasi bo‘lishi uchun 25 yoshdan kichik bo‘lmasligi kerak.

Barcha sud bo‘g‘ini sudyalari nomzodlariga eng yuqori yosh rasman belgilanmagan. Xuddi shuningdek, huquq sohasida ham necha yil ishlaganligi bir xil emas. Tuman (shahar), tumanlararo sudlar, xo‘jalik sudlariga sudya bo‘lish uchun nomzod kamida huquq sohasida 3 yil ishlagan bo‘lishi kerak. Yuqori turuvchi sudya nomzodlariga ham umumiy ish stajidan tashqari, qonun bo‘yicha sudya bo‘lishi uchun tegishli ish staji talab qilinadi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va harbiy sudlar sudyasi lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, huquqiy sohada kamida 5 yillik ish

¹ Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов/. Под ред. проф. Б.А. Страшна. – М.: BEK. 1996. – В.639.

stajiga ega bo‘lgan, shundan kamida 2 yili sudya lavozimida ishlagan shaxslar sudya bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi sudyalik lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, yuridik sohada kamida 7 yillik ish stajiga ega bo‘lib, shundan 5 yili sudya lavozimida ishlagan shaxslar bo‘la oladi. Harbiy sudlar sudyalik nomzodlariga yuqoridagilardan tashqari qonun qo‘sishimcha shartlarni qo‘sadi, masalan, ular harbiy xizmatni o‘tagan va zabitlik tarkibiga kiruvchi unvonga ega bo‘lishi kerak. Xalq maslahatchilari odil sudlovnii amalga oshirishda sudyalik huquqidani to‘laqonli foydalanganligi uchun qonun ularga ham tegishli talablarni qo‘yadi.

«Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunnning 62-moddasiga binoan xalq maslahatchilari 25 yoshdan kichik bo‘lmagan fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig‘ilishlarda ochiq ovoz berish yo‘llari bilan 2,5 yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘la oladi. Harbiy sudlar xalq maslahatchilari bo‘lishi uchun haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan, yoshi 18 dan kichik bo‘lmagan fuqaro bo‘lishi kerak.

Sudyalar malaka hay‘ati quyidagilarni amalga oshiradi:

- xalq maslahatchilariga olib boriladigan saylovlarining o‘tishi ustidan nazorat qiladi;
- xalq maslahatchilarini saylovlarini o‘tkazish yuzasidan ariza va shikoyatlarni ko‘radi;
- xalq maslahatchilarini uchun o‘tkazilgan saylovlarining yakunlarini belgilaydi;
- saylangan xalq maslahatchilarining ro‘yxatlarini tuzadi va tasdiqlaydi;
- saylangan xalq maslahatchilariga tegishli hujjatlarni topshiradi;
- xalq maslahatchilarining o‘qitilishini tashkil etadi;
- xalq maslahatchilarini saylovlarini o‘tkazish va saylash masalalari bilan bog‘liq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Xalq maslahatchilari saylovlarini fuqarolarning yashash yoki ish joylari bo‘yicha yig‘inlarda yoxud harbiy xizmat o‘taladigan harbiy qism bo‘yicha o‘tkaziladi.

Majlislar mehnat jamoasi, harbiy qismlarda va aholi punktlarida saylovchilar soni kamida 100 tadan iborat bo‘lgan holda

amalga oshiriladi. Agar ularda saylovchilar soni 100 tadan kam bo‘lsa, saylovlar boshqa mehnat jamoalari, harbiy qismlar va aholi punktlari bilan birgalikda o‘tkaziladi.

Yirik muassasalar, tashkilotlar, korxonalarda va harbiy qislarda saylovlar ularning saylovchilar soni 100 tadan kam bo‘lmagan tarkibiy bo‘linmalarida o‘tkazilishi mumkin.

Xalq maslahatchilari saylovlaring qachon va qayerda o‘tkazilishi xususida fuqarolar majlisidan kamida 3 kun oldin xabardor qilinadilar.

Xalq maslahatchilariga nomzod ko‘rsatish mehnat jamoalari, fuqarolarning yashash joylari bo‘yicha saylovchilar, shuningdek, harbiy xizmatchilarning harbiy qismlar bo‘yicha majlislarida amalga oshiriladi.

Xalq maslahatchilariga saylov har bitta nomzod bo‘yicha alohida saylash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mehnat jamoasi, harbiy qism xizmatchilari yoki fuqarolarning yashash joyi bo‘yicha saylovchilar ovozlarining yarmidan ko‘pini olgan shaxslar Saylangan xalq maslahatchilari hisoblanadi.

Yig‘ilishda tarkibi rais, kotib va a’zolardan iborat rayosat saylanib, u 5–7 kishidan iborat bo‘ladi.

Yig‘ilishda bayonnomma yuritilib, unda saylov natijalari ko‘rsatiladi. Bayonnomma rayosatning butun tarkibi tomonidan imzolanadi. *Bayonnomada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:*

- yig‘ilish bo‘lib o‘tgan korxona, muassasa, tashkilot, harbiy qism yoki aholi yashash punktining nomi;
- yig‘ilish bo‘lib o‘tgan joy va vaqt;
- saylovchilar soni;
- har bir nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- har bir nomzod uchun berilgan qo‘llab-quvvatlovchi va qarshi ovozlarning soni;
- har bir saylangan xalq maslahatchisining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, faoliyat turi va yashash joyi.

Sudyalarning malaka hay’ati yig‘ilish bayonnomalari asosida saylov natijalarini aniqlaydi va har bir sud uchun alohida xalq maslahatchilari ro‘yxatini tuzadi.

Xalq maslahatchilari ro‘yxati hay’at tomonidan tasdiqlangandan so‘ng tegishli sudga yuboriladi.

Sudyalarning malaka hay'ati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qoshidagi sudyalik lavozimiga tayinlash va tavsija etish Oliy malaka komissiyasiga xalq maslahatchilari saylov natijalari to'g'risida axborot beradi, shuningdek, muntazam ravishda xalq maslahatchilarini o'qitish ishlarini olib borish to'g'risida ma'lumot beradi.

Sudyalar korpusiga sud kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish masalasi dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda «Sud kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha haqiqiy samarali va demokratik huquqiy mexanizm ishlab chiqilgan»¹. Yuqoridagilardan kelib chiqib sudyalar korpusini shakllantirishni quyidagi bosqichlarga ajratamiz. Qonunga binoan, sud kadrlarining dastlabki zaxirasini shakllantirish sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari takliflariga binoan sudyalar malaka hay'atlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud kadrlari zaxiralarini shakllantirish bilan bog'liq dastlabki materiallar malakali sud hay'atlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Sudyalar malaka hay'atlari yuqori malakali, nisbatan tajribali yuristlar orasidan nomzodlarni tanlab oladi. Sudyalar malaka hay'atlari nomzodlarni sud zaxirasiga kiritib qo'yish uchun shaxsiy suhbatdan, malaka imtihoni o'tkazib, ular tomonidan ko'rilgan ishlarini o'rganib, ularning malaka darajasini, axloqiy va ishbilarmonlik sifatlarini, bilim darajasini, dunyoqarashini baholaydi. Sudyalar malaka hay'ati malaka imtihonlari natijasiga qarab nomzodni sud zaxirasiga kiritish yoki rad etish haqida qaror chiqaradi. Sud nomzodlari zaxirasiga qo'yilmagan, ya'ni rad etilgan nomzodlar bir yil o'tgandan keyin unga ariza bilan takroran murojaat qilishi mumkin.

Sudyalik lavozimi bo'shab qolgan taqdirda, malaka hay'ati sud zaxirasi nomzodlari ichidan, muqobililik asosida, malaka imtihonini qabul qilib, uning sud ishidagi mutaxassisligi, shaxsi, ish faoliyati va dunyoqarashini hisobga olgan holda nomzod tanlash masalasini ko'radi. «Sudlar to'g'risida»gi Qonunga

¹ Adolat – qonun ustuvorligida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis II chaqiriq, 4 sessiyasida sudlangan maruzasi. //Xalq so'zi. 2001-yil. 30-avgust.

binoan sud kadrlari ishlarida demokratiyani chuqurlashtirish, munosib nomzodlarni tanlash va sud mustaqilligi kafolatini ta'minlash maqsadida sudyalar malaka hay'atlari tashkil etilgan.

«*Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 74-moddasiga binoan sudyalar malaka hay'ati:*

- sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash;
- sudyaning intizomiy javobgarligi;
- sudyaning vakolatlarini to'xtatish yoki muddatidan ilgari tugatish;
- sudyaning daxlsizligini ta'minlash;
- sudyani malaka imtihonidan o'tkazish va unga malaka darajasini berish masalalarini ko'rish;
- sudyalar zaxirasini shakllantirish uchun tuziladi.

Umumiy yurisdiksiya sndlari sudyalarining oliy malaka hay'ati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan, xo'jalik sndlari sudyalarining malaka hay'ati esa O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi tomonidan 5 yil muddatga saylanadi.

Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar sndlari sudyalarining malaka hay'atlari tegishli sndlар sudyalarning majlislarida 5 yil muddatga, harbiy sndlар sudyalarning majlislarida ham ana shu muddatga saylanadi. Sudyalar malaka hay'ati son tarkibi ularning ish hajmidan belgilanadi, lekin tarkibi rais va uning o'rinosini hisobga olgan holda 9 tadan oshmasligi kerak. Sudyalar malaka hay'ati o'zlarini saylagan organga yilda kamida bir marta o'z faoliyati haqida axborot beradi. Hay'at o'ziga topshirilgan vakolatlarni amalga oshirishda tarkibining kamida yarmi hozir bo'lgan taqdirdagina faoliyat yuritadi. Hay'at o'z vakolatini amalga oshirish bilan bog'liq axborotlarni yuqori turuvchi sndlар, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalari, shuningdek, mansabdar shaxslar va fuqarolardan talab qilib olishga haqli.

Sudyalar Oliy malaka komissiyasi va Oliy xo'jalik sudi malaka hay'atlari qaror va xulosalari ustidan shikoyat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Boshqa malaka hay'atlarining qaror va xulosalari ustidan shikoyat Oliy malaka hay'atiga berilishi mumkin. Kimning ustidan intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan bo'lsa, shikoyat shu shaxs tomonidan beriladi.

Bu xildagi shikoyat yoki taqdimnomalar qaror yoxud xulosa chiqqan kundan boshlab shu qaror yoki xulosani chiqargan malaka hay'ati orqali bir oy muddat ichida beriladi. Oliy malaka komissiyasi shikoyat va u bilan birga yuborilgan materiallarni qo'shib ko'rib chiqadi¹. Malaka imtihonini topshirish tartibi Oliy Majlis tomonidan 2001-yil 7-dekabrda tasdiqlangan «Sudyalar malaka hay'ati to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Nomzodning keyingi lavozimiga ko'tarilishi uchun malaka imtihoni va tayyorgarlik darajasini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi taqdimnomasiga binoan Oliy malaka komissiyasi tomonidan;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi sud raislari va ularning o'rinnbosarlari – Adliya vazirligi maxsus organining taqdimnomasiga binoan Oliy malaka komissiyasi tomonidan;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi sudyalari – shu sudlar raislari bergen taqdimnomaga asosan tegishli malaka komissiyalari tomonidan;

– fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlar sudyalari – Adliya vazirligi maxsus organining taqdimnomasiga binoan tegishli malaka komissiyasi tomonidan;

– hududiy va okrug harbiy sudlari sudyalari – Adliya vazirligi maxsus organining taqdimnomasiga binoan harbiy sudlar malaka hay'ati tomonidan;

– xo'jalik sudi sudyalari – Oliy xo'jalik sudi raisi taqdimnomasiga binoan xo'jalik sudlari malaka hay'ati tomonidan.

Sudyalikka nomzodning malaka imtihoni tegishli malaka hay'ati tomonidan belgilab beriladigan *quyidagi talablarni o'z ichiga oladi*: suhbat, savollarga javob topish, amaliy masalalarni yechish. Sudyalar malaka hay'ati imtihondan o'tgan yoki o'ta

¹ Положение о квалификационных коллегиях судей (утверждено Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан. №164, 2000-yil 14-dekabr).

olmagan nomzodni sudyalik lavozimiga olish to‘g‘risida xulosha beradi. Malaka imtihonini topshira olmagan nomzod bir yil o‘tgach, takroriy imtihon topshirish huquqiga ega.

Sudyalar malaka hay’atining sudyani keyingi, yuqori turuvchi sud lavozimiga o‘tkazish to‘g‘risidagi xulosasi shu sud raisi tomonidan berilgan materiallar asosida yoki shu sudning arizasiga binoan beriladi. Sudyalar malaka hay’atining nomzodlarning sudyalik lavozimiga loyiq yoki loyiq emasligi yoxud ularning lavozimga tayinlanishi to‘g‘risidagi taqdimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya qilish Oliy Malaka hay’atiga yuboriladi. Ushbu hay’at sudyalar, Oliy Majlis deputatlari, yurist olimlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari va nodavlat tashkilotlaridan iborat bo‘lib, bu sudyalikka nomzodlarni har tomonlama baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalikka nomzodlarni tanlash va tavsiya qilish Oliy malaka komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida doimiy faoliyat yurituvchi organ hisoblanib, sud kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish faoliyatini demokratiyalashtirish, sud hokimiyatiga asl mustaqillikni ta’minlovchi siyosatni amalga oshiradi.

Hay’at o‘z faoliyatini kadrlar siyosatini amalga oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmon va farmoyishlari hamda «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalikka nomzodlarni tanlash va tavsiya qilish Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risida»¹gi qaror va sud mustaqilligi tamoyili asosida yuritadi.

Hay’atning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- sudyalarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda demokratik asoslarni chuqurlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va joriy qilish;

- sud kadrlarini tanlash va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdig‘iga qo‘yishda qonuniylikni ta’minalash;

- sud mustaqilligi va ularning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlarni joriy qilish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001-y., №9–10, -204-modda.

– sud kadrlarini tarbiyalash va sudyalik lavozimiga kadr-larni tanlash va joy-joyiga qo‘yish ishlarining samaradorligini oshirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish;

– sudyalikka nomzodlarning saylanish huquqiy bazasini, ularning kasbiy malakasini oshirish borasidagi ishlarni yuksal-tirish;

– sud kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish ishlarida ochiq va oshkoraliqni ta’minlash, bu ishda vertikal bo‘yicha hisob-dorlikni yo‘lga qo‘yish hamda bu sohada mansabni suiiste’mol qilish holatlariga chek qo‘yish;

– sudsarning tashkiliyligi va axborot tahlil faoliyatini ta’minlash;

– sudyalarni tanlash va tayinlash bo‘yicha xorijiy davlatlar komissiya ishlarini o‘rganish va ularni amaliyotga qo‘llash.

Hay’at O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni asosida komissiya raisi, rais o‘rinbosari va komissiya a’zolaridan iborat 18 ta xodim tarkibida 5 yil muddatga tayin-lanadi.

Hay’at raisi hay’at oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshi-rishida shaxsan javobgar bo‘lib uning faoliyatiga rahbarlik qila-di. Qonunga binoan hay’at sud lavozimiga nomzodlarni tayin-lash uchun tavsiyalar tayyorlaydigan oxirgi instansiya hisoblanadi.

Hay’at sud kadrlari zaxirasini shakllantirish va undan samarali foydalanish borasidagi sudyalar malaka hay’ati faoli-yatini muvofiqlashtiradi va nazorat qilib boradi. Hay’at sud kadrlari masalalari bo‘yicha taqdim qilingan hujjatlarni o‘rganish hamda shaxsiy suhbat o‘tkazish orqali sudyalikka nomzodlarni tanlaydi, ularning professionallik darajasini, ax-loqiy sifatlarini (halolligi va vijdoniyligini), qobiliyatlarini, shuningdek, ularning huquq sohasidagi malakasi va tayyorgar-lik darajasini belgilaydi.

Sud lavozimiga nomzodlarni tanlash va tavsiya qilish masalasining xolis bo‘lishligini ta’minlash maqsadida hay’at zarur hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisini, Oliy xo‘jalik sudi raisini, Sudlar Assotsiatsiyasi raislarini taklif qiladi va ularning ushbu masala bo‘yicha fikrlarini tingleydi.

Hay’at qarori unda ishtirot etayotgan a’zolarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Hay’atning nomzodning sudyalik

lavozimiga loyiq yoki loyiq emasligi haqidagi qarori xulosa tariqasida rasmiylashtiriladi. Hay'atning nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyaligiga, xo'jalik sndlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi sndlari sudyalik lavozimiga loyiqligi haqidagi xulosasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ko'rib chiqishi uchun taqdim qilinadi. Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlararo, tuman (shahar) va harbiy sndlар sudyalik lavozimiga nomzodlarni tayinlash to'g'risidagi hay'at qarorini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhokamasiga yuboradi.

Hay'at agar nomzodning sudyalik lavozimiga yetarlicha tayyor emasligi to'g'risidagi xulosaga kelsa, bu masalani qayta ko'rishga faqat bir yil muddat o'tgandan keyingina yo'l qo'yildi. Shu tariqa sud kadrlarini tanlash va tayinlash borasida yaratilgan tizim sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini, sudyalarning lavozimga tayinlanishida haqqoniyilikni ta'minlaydi.

«Sndlар to'g'risida»gi qonunning 63-moddasida sudyalikka nomzodlar vakolatlarini ajratish ikki turda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan saylanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi yoki tayinlanadi.

Viloyat sndlari, Toshkent shahar sndlari, tumanlararo, tuman (shahar) sndlari sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, xo'jalik sndlari sudyalari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

«Sndlар to'g'risida»gi Qonunning 63-moddasida, fikrimizcha, xo'jalik sndlарini tayinlashga tavsiya etish tartibi unchalik tushunarli emas. Qonunning 60-moddasiga binoan umumiyl yurisdiksiya va xo'jalik sndlari bitta maqomga ega bo'lib, bu ularni lavozimga tayinlashning yagona tartibini belgilash fikriga olib keladi. Bizningcha, xo'jalik sndlari sudyalarini lavozimga tayinlash tartibi umumiyl tartib bo'yicha, ya'ni O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish Oliy malaka komissiyasi taqdimnomasiga binoan amalga oshirilganda to‘g‘ri va ancha demokratik bo‘lardi.

Sudyalik lavozimiga nomzodga sudyva vakolati berilishi jarayonining yakunlovchi bosqichi bo‘lib, qasamyod qabul qilishi hisoblanadi. Chunki, bizga ma’lumki, qonun bo‘yicha ushbu an’anaga rioya qilmaslik sudyaning o‘z vazifasini bajarishga kirishishiga to‘sinqilik qiladi. Sudyalar tantanavor ruhda O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i oldida qonunda keltililgan quyidagi qasamyodni qabul qiladi:

«Zimmama yuklatilgan vazifalarini halol va vijdonan bajarishga, odil sudlovni faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshirishga, sudyalik burchim va vijdonim buyurganidek beg‘araz, xolis va adolatli bo‘lishga tantanali qasamyod qilaman». Konstitutsiyaviy sud qasamyodi matni «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonunda berilgan bo‘lib, Konstitutsiyaga sodiqlik va respublika konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilishga tayyorman degan so‘zlar qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi sudi barcha sudyalari uchun umumiy va bir xil muddat bo‘lgan 5 yil berilgan.

Jahon tajribasida sudyalar vakolat muddatiga oid masalada turli xil yondoshuvlar bor. Bu masala sudlar mustaqilligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pgina davlatlarda sudyalar qonunda belgilangan nafaqa yoshiga yetguncha bir umr muddatga saylanadi (tayinlanadi). Masalan, Buyuk Britaniya, Gretsya, Kanada, Fransiya, Germaniya va boshqalar... Boshqa davlatlarda esa masalan, Yaponiya, Shveysariya va AQSHning ko‘pgina shtatlarida sudyalar sud mustaqilligini ta‘minlovchi yetarlicha muddatga saylanadi (tayinlanadi).

«Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 67-moddasida berilgan sud mustaqilligi kafolatlari ichida odil sudlovni amalga oshirishning qat‘iy bosqichi belgilab qo‘ylgan. Bu xil bosqich protsessual qonunlar deb nomlanadigan qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bularga Fuqarolik protsessual Kodeksi, Jinoyat protsessual Kodeksi, xo‘jalik protsessual Kodeksi hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks kiradi. Bularda sud ishlarini ko‘rishda amalga oshiriladigan barcha choralar aniq ko‘rsatib berilgan. Bu xildagi protsessual moddalar ichida sud

mustaqilligini bevosita yoki bilvosita ta'minlovchi normalar kam emas. Protsessual qonunchilik shuni belgilaydiki, sud maslahatxonasida ishni ko'rayotgan sudyalardan tashqari hech kim bo'lmasligi kerak. Ushbu xonada ro'y beradigan har qanday narsa sir tutilmog'i kerak. Bu sudyalarning ish bo'yicha kelib chiqadigan masalalarни erkin va oshkor bo'lishidan qo'rmasdan muhokama qilishida, qabul qilinishi shart bo'lgan qaror haqida fikr bildirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maslahat xonasida qabul qilingan qarorning oshkor etilishi uni haqiqiy emas deb topish va rad etishga olib keladi.

10.3. Sudyalarning daxlsizligi

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat yaratish jarayoni ketmoqda, uning asosiy belgilaridan biri shaxs va davlatning bir-biri bilan o'zaro javobgarligidir. Bunda davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarning asosiy majburiyati hokimiyatni nazorat qilish, qonunchilikni mustahkamlash, huquqiy tartibotni ta'minlashdir.

Sud mas'uliyati ijtimoiy va yuridik mas'uliyatning bir turi hisoblanadi, chunki u inson hayotining o'ziga xos sohasida namoyon bo'ladi va maxsus subyektlar, ya'ni sudyalarning kasbiy faoliyati bilan bog'liqdir.

Ammo sud hokimiyati vakillarining javobgarligi masalasi, ularning daxlsizligi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Sudyalar sud hokimiyatining ramzi va vakillari hisoblanadi. Sud hokimiyati hokimiyatning bir tarmog'i sifatida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqil holda faoliyat yuritadi.

Sud hokimiyatining asosiy tamoyillaridan biri sudyalarning daxlsizligi tamoyilidir. Sudyaning daxlsizligiga katta e'tibor berilishi faqat yuridik soha vakillarini o'ziga jalb qilib qolmasdan, balki bu keng ommaning ham munozara predmeti hisoblanadi. Aynan sudyaning daxlsizligi tamoyili odil sudloving asosini tashkil etadigan Konstitutsiyaviy tamoyillar ichida eng muhimi hisoblanadi (O'zR Konstitutsiyasi 112-moddasasi). «Shuni esdan chiqarmaylikki, qayerda sud daxlsizligi ta'minlanmasa, shu yerda qonun buzilishiga yo'l qo'yiladi, bu

yerda adolat bo‘lmaydi va uning qaror topishi ham mumkin emas», – deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining Oliy Majlis IX – sessiyasida so‘zlagan nutqida¹. Sud hokimiyyati mustaqilligining asosiy kafolatlaridan biri sud immunitetining muhim jihatni hisoblanuvchi sudyalar daxlsizligi tamoyilidir.

Sud daxlsizligi ularning odil sudlovni amalga oshirishda huquqlari cheklanishining oldini olish, ularga bu vazifani bajarishda har qanday aralashuvga chek qo‘yishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu qoida xalqaro hujjatlar hisoblanuvchi «Sud organlarining asosiy tamoyillari to‘g‘risida»gi xalqaro Konvensiya-ga ham monanddir².

«Sudyalar va xalq maslahatchilarining daxlsizligi bu – ularni jinoyat va ma’muriy javobgarlikka tortishda o‘zboshim-chalikdan cheklash muammosidir³. Shunday qilib, daxlsizlik (immunitet) bu himoyalanish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat va jamiyat sudyalarning kasbiy faoliyatiga yuqori talablar qo‘yish bilan birga, ularga odil sudlovni amalga oshirish faoliyatida qo‘srimcha kafolatlar berishga ham majburdirlar. Sud daxlsizligi sud lavozimini egalovchi fuqaroning shaxsiy manfaatlari emas, balki jamoat manfaatlari, eng avvalo odil sudlovga qaratilgan manfaatdir. Ta’kidlash joizki, sudyaning daxlsizligi instituti boshqa ko‘pgina davlatlarda ham amal qiladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada sndlarni jinoiy javobgarlikka tortish qonun bilan belgilangan maxsus mansabdor shaxslar tomonidan, ya’ni jinoiy ta’qib direktori va Bosh attorney tomonidan amalga oshiriladi.⁴

¹ Oliy Majlis IX sessiyasining ikkinchi chaqirig‘ida O‘zR Prezidenti I.A.Karimovning «O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari» deb nomlangan ma’ruzasi. – Xalq so‘zi, 2002-y. 30-avg.

² Права человека. Сборник международных договоров. Женева, – В.304.

³ Истина.... И только истина! Пять бесед о судебно-правовой реформе(интервью с А.Д.Бойковым). –М.: 1990. - В. 152. (интервью с А.Д. Бойковым).

⁴ Судебные системы западных государств. – М., 1991. – В.90

Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan: «Sud-yalar daxlsizlik va immunitet huquqidan foydalanadilar. Mahal-lyi sud sudyasini jinoiy javobgarlikka tortish faqat Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ruxsati bilangina amalga oshiriladi».¹ Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, sudyalar daxlsizligi tamoyili ularning faoliyatida muhim huquqiy kafolat hisoblanadi.

Sudyalar daxlsizligi tamoyili sud tizimining qaysi bo'g'inida, qanday lavozimida ishlashidan qat'i nazar, barcha sudlarga taalluqli. Sudyalar daxlsizligi kafolati odil sudlovni amalga oshirishda qaysi turdag'i ishni ko'rishdan qat'i nazar, sud faoliyatining butun doirasiga tegishlidir. Bundan tashqari ushbu tamoyil sudyaning xizmatdan tashqari faoliyatini ham himoya qilishga qaratilgan.

Umumiy yurisdiksiya sudi masalasi yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solingan.² Ushbu qonuning qoidalari xo'jalik sudlariga ham taalluqli. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud sudyalari daxlsizligi masalasi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»³gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Jumladan, qonunga binoan Konstitutsiyaviy sud sudyasi Oliy Majlis roziligesiz, sessiyalar oraliq'i davri mobaynida Oliy Majlis kengashi ruxsatisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud, umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudi sudyalariga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan qo'zg'atiladi («O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasi; «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunning 70-moddasi). Jinoiy ishni qo'zg'atishda qonuniylik va qabul qilinadigan qarorning asoslanganligini Bosh Prokuror shaxsan o'z zimmasiga oladi.

Umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudi sudyalarini jinoiy javobgarlikka tortish, qamoqqa olish uchun O'zbekiston

¹ Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Bishkek, 1993.

² O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni –Toshkent, 2001.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995. №9. 178-modda.

Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumlari ruxsati talab etiladi. Ko‘rib turganimizdek, joriy qonunda sudyalarga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atish tartibi nisbatan samarali hisoblanadi. Umumiy yurisdiksiya va xo‘jalik sudi sudyalarini tegishli sudyalar malaka hay’atining roziligesiz ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sudyalar daxlsizligi kafolati masalasida muhim muammo bu – jinoyat protsessual qonunchiligidagi belgilangan ushlab turish masalasidir. JPK 223-moddasiga binoan sudyalar qo‘lga olinishi va militsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilib ushlab turilishi mumkin emas. Bu qoida suda jinoyat ustida yoki uni sodir etgan payt ushlanganda amal qilmaydi (JPK 221-moddasi 1-qismi).

Sudyani qamoqqa olish masalasi bevosita uni hibsda ushlab turish masalasi bilan bog‘liq. Qonunning turli sudyalarning lavozimi ko‘rsatilgan yurisdiksiya normalariga murojaat qiladigan bo‘lsak, quyidagilarni ko‘rshimiz mumkin. Masalan, umumiy yurisdiksiya va xo‘jalik sudi sudyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumlari ruxsatisiz qamoqqa olinishi mumkin emas («Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 70-moddasi, JPK 239-moddasi).

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining roziligesiz jinoiy va ma’muriy javobgarlikka tortilishi, shuningdek, hibsga olinishi mumkin emas (O‘zR «Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonun 16-modda. 1-qism). Lekin O‘zbekiston Respublikasi JPKning 239-moddasi 2-bandi, 2-qismida ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyaligiga nisbatan O‘zR Konstitutsiyaviy sudining roziliги bilan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llanilishi mumkin. Mazkur noaniqlikni yo‘qotish maqsadga muvofiqdir.

Sudya daxlsizligiga oid keyingi masala bu sudyalarni majburiy keltirishdir. «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonun 16-moddasining 3-qismiga asosan Konstitutsiyaviy sud sudyasini majburiy keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Sudya daxlsizligi kafolati masalasini ko‘rishda ularni shaxsiy tintuv qilish va ko‘zdan kechirish masalasiga ham to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. Umumiy yurisdiksiya sudyalarini shaxsiy tintuv qilish va

ko'zdan kechirish shu sudya bilan teng turuvchi prokuror sanksiyasi yoki yuqori turuvchi sudya qarori asosida shu sud ko'rayotgan ishga bevosita aloqador bo'lgandagina yo'l qo'yiladi.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining shaxsiy narsalari, yukini, transporti, turar joyi yoki xizmat xonasini ko'zdan kechirishga yo'l qo'yilmaydi («O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasi).¹ Sudlar to'g'risidagi qonunning 70-moddasi sudya immunitetini ancha keng doirada sudya daxlsizligi tamoyili belgilaydi. Bu modda nafaqat sudya shaxsiga qaratilgan, balki uning turar joyi va xizmat xonasi, uning xizmatida bo'lgan transport va aloqa vositalari, uning hujjatlari, unga tegishli shaxsiy narsalarga ham qaratilgandir.

Umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudi sudyalarini yashash va xizmat xonasiga kirish, uning transport vositasini ko'zdan kechirish, tintish yoki olib qo'yish, telefon so'zlashuvlarini tinglab turish, unga tegishli narsa va hujjatlarni ko'zdan kechirish, tintish yoki olib qo'yish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O'zR harbiy prokurorlar sanksiyasi asosida yoki sud ajrimi asosida amalga oshiriladi.

Aytish joizki, sudya daxlsizligi bilan bog'liq boshqa kafolatlar ham berilgan. Masalan, umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudi sudyalarini telefon so'zlashuvlarini eshitib turishda alohida kafolatlar belgilangan. Bu holat faqat prokuror sanksiyasi yoki sud ajrimi asosida amalga oshiriladi.

Bu bilan shuni xulosa qilish mumkinki, Konstitutsiyaviy sud, umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudi sudyalariga daxlsizlik kafolati turli shaklda qo'llanadi. Bu kafolatlar jinoyat ishini yuritishning turli bosqichlarida amal qiladi. Tumanlararo, tuman (shahar) sudlar sudyalarini, okrug va hududiy sudlar sudyalarining jinoyat ishini ko'rish ulardan yuqori turuvchi sudlarga, boshqa sudlar sudyalarining ishi – Oliy sudga tegishli («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 70-moddasi). Lekin qonunchilikda Konstitutsiyaviy sud sudyalarining jinoyat ishini qaysi sud ko'rishi haqida hech nima aytilmagan. Bu O'zbekiston

¹Qarang. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, – T. 1995. №9, 178-modda.

Respublikasi Oliy sudi deb taxmin qilib, buni tegishli qonunda belgilab qo'yish fikrini bildiramiz.

Odil sudlovni amalga oshirishda nafaqat sudyalar, balki xalq maslahatchilar ham ishtirok etadi. Bizga ma'lumki, xalq maslahatchilar odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar bilan teng huquqlardan foydalanadi (JPKning 13-moddasi). Shuning uchun ham xalq maslahatchilariga o'z vazifalarini amalga oshirish davomida sudyalar daxlsizligining barcha kafolatlari tatbiq qilingan («Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 70-moddasi).

Odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lma gan boshqa vaqtarda xalq maslahatchilar suda vakolatidan foydalanishga haqli emas va shuning uchun ham xizmatdan tashqari vaqtida sud daxlsizligi ularga tatbiq qilinmaydi. Shu bois, xalq maslahatchilar suda vazifasini bajarish bilan bog'liq bo'lma gan vaqtida sodir qilgan jinoyati uchun ushlansa, ular jinoiy javobgarlikka umumiylashtirilishi asoslarda tortiladi.

Sudya, shuningdek, ma'muriy javobgarlikka ham tegishli sudyalar malaka hay'ati ruxsatsiz tortilishi mumkin emas. Sud daxlsizligi kafolatining yana bir turi, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasida qonun buzilishiga yo'l qo'yganligi, sud ishlarini yuritishda tartibga va umumiylashtirishda intizomga rioya qilmagani, shuningdek, xizmat vazifasi bilan bog'liq boshqa qilmishlari uchun intizomiy javobgarlikka tortishning o'ziga xos tartibi hisoblanadi. Sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish faqat tegishli malaka hay'atining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Aytish lozimki, sud qarorining bekor bo'lishi yoki uning o'zgartirilishi, albatta agar sudyalar tomonidan qasddan qonun buzish yoxud unga loqaydlik bilan qarashi natijasida og'ir oqibatlar kelib chiqmagan bo'lsa, intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O'zR Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan qaror asosida amalga oshiriladi. Sudyalar daxlsizligida ularning yuqori martabasiga loyiq moddiy-texnik ta'minoti masalasi muhim rol o'yaydi. Shuning uchun ham «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Chunonchi, qonuning 76-moddasida, sudyalarning hayoti va sog'lig'i davlatning maxsus muhofazasida bo'ladi hamda respublika budjeti mablag'lari

hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug‘urta qilinishi ta’kidlangan.

Qonunning ushbu moddasida, shuningdek, sudya ishlayotgan davrida yoki vakolat muddati tugagandan keyin halok bo‘lsa, agar bu sudya o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tanjrohatlari yoki sog‘lig‘ining boshqacha shikastlanishi oqibatida ro‘y bergen bo‘lsa, uning merosxo‘rlariga sudyaning tegishli ish haqi miqdorida sug‘urta puli berilishi belgilab qo‘yilgan. Yuqorida keltirilgan misollar shundan dalolat beradiki, sudya daxlsizligini ta’minalash uchun davlat sud faoliyati va tashkiliy masalalariga katta e’tibor qaratmoqda.

10.4. Sudyalar vakolatini to‘xtatish va muddatidan ilgari tugatish

Sudyalar vakolatini to‘xtatish yoki muddatidan oldin tugatish tartibi sudyalarni ayrim turdagি mansabdor shaxslar yoki organlarning «noqulay» yoki «kelishilmaydigan» sudyalardan qutulish qaroridan himoya qiladi. Sudyalar vakolatini to‘xtatish – bu uni xizmat vazifasidan vaqtinchalik ozod qilishdir. Qonunda bunday ozod qilish hollari aniq va qat’iy ro‘yxatda belgilab berilgan. Bu sudya o‘z vazifasiga noloyiq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullangan hollarda; sudya tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan yoki sud qarori bilan muomala layoqati cheklangan bo‘lsa; sudya sud qarori bilan bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa yo‘l qo‘yiladi («Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 71-moddasi).

Sudyaning to‘xtatilgan vakolati shunga asos bo‘lgan holatlar barham topgandan keyin tiklanadi. Sudya vakolatini vaqtinchalik to‘xtatish faqat uning o‘z xizmat vazifasini vaqtinchalik bajara olmasligini anglatadi, xolos. Sudya jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda uning vakolati to‘xtatiladi. Umumiy yuridiksiya sndlari sudyalarining vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarini tanlash va lavozimga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasining taqdimomasiga binoan, xo‘jalik sndlari sudyalarini vakolatlari esa

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisining taqdim-nomasiga binoan quyidagi hollarda sudyalarining tegishli malaka hay’ati qarori bilan to‘xtatiladi, agar:

- sudyalar o‘z lavozimiga zid faoliyat bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa;
- sudyalar tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan yoki sud qarori bilan muomala layoqati cheklangan bo‘lsa;
- sudyalar sud qarori bilan bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa.

Sudyalar malaka hay’ati qarori ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqlidir. Sudyalik vakolatlarining to‘xtatilishi unga ish haqi to‘lanishi to‘xtatilishiga yoki uning ish haqi miqdori kamaytirilishiga, sudyaning ta’minoti darajasini pasaytirishga va sudyani qonunda belgilangan daxlsizlik ka-folatlaridan mahrum qilishga sabab bo‘lmaydi, ehtiyyot chorasi sifatida sudyaga nisbatan qamoqqa olish chorasi tanlangan hollar bundan mustasno.

Sudyalar o‘z lavozimiga zid faoliyat bilan shug‘ullanishni rad etganda) o‘z vakolatini qayta tiklaydi.

Sudyaning vakolatini to‘xtatish va qayta tiklash to‘g‘risidagi qarorni sudyalar malaka hay’ati qabul qiladi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalarini vakolatini to‘xtatish Konstitutsiyaviy sud qarori bilan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- sudyalar o‘z lavozimiga zid bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanganda, unga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilganda;
- sudyani bedarak yo‘qolgan deb topilgan sud qarori qonuniy kuchga kirganda.

Sudyalar muddatini ilgari tugatish – bu sudyani o‘z xizmat vazifasidan butunlay ozod qilishdir. Qonun tomonidan buning uchun ham qator holatlar belgilab berilgan. Bular quyidagilardir:

- sudyaning qasamyodini buzgan taqdirda;
- yozma ariza bergan taqdirda;

– sudyalarning tegishli malaka hay’ati tomonidan ogohlan-tirish qilinganda yoki vakolatlari to’xtatilgandan keyin u sudya lavozimiga zid faoliyat bilan shug‘ullanishni davom ettiravergan taqdirda;

– sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan taqdirda;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda;

– unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;

– sudning qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda;

– sog‘lig‘i holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifasini bajarishga qodir bo‘lmay qolgan taqdirda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi sudyalarning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan:

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan; viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlararo, tuman (shahar), harbiy sudlar – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

– xo‘jalik sudlari sudyalari – Oliy xo‘jalik sudi raisi taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan; Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari sudlari sudyalari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan muddatidan oldin tugatiladi.

Sudyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudyalar malaka hay’ati qarori ustidan shikoyat qilishga haqli; xalq maslahatchilari vakolatlari muddatidan oldin quyidagi hollarda tugatiladi: yozma ariza bergan taqdirda; sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda; O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda; unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda; sudning qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda; sog‘lig‘i holatiga

yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra uzoq vaqt mobaynida sud-yalik vazifasini bajarishga qodir bo‘lmay qolgan taqdirda («Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 72-moddasi).

Konstitutsiyaviy sud sudyalari vakolatlari muddatidan oldin Oliy Majlis qarori bilan quyidagi hollarda tugatiladi:

- sudy o‘z qasamyodini buzgan taqdirda;
- yozma ariza bergen taqdirda;
- unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;
- sudyalarning tegishli malaka hay’ati tomonidan ogohlan-tirish qilinganidan yoki vakolatlari to‘xtatilgandan keyin u suda lavozimiga zid faoliyat bilan shug‘ullanishni davom ettirgan taqdirda;
- tibbiy komissiya qaroriga ko‘ra sudyaning kasalligining uzoq muddat davom etishi;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda.

10.5. Sudyalarning malaka imtihoni va ularga malaka darajalarining berilishi

Sudyalar malaka imtihoni O‘zbekiston Respublikasi «Sudlar to‘g‘risida»gi qonuniga binoan sudlar tarkibining sifatini yaxshilash, ularning kasbiy malakasini tadrijiy oshirish va baholash, odil sudlovni amalga oshirishda mas’uliyatni oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Malaka imtihoni: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudi raisi va uning o‘rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar sudyalari, O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudi sudyalari – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan *Oliy malaka komissiyasi tomonidan*:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoiy ishlari bo‘yicha Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha tuman-lararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari sudyalari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudi, viloyatlar va

Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sndlari raislari taqdimnomalariga binoan tegishli sudyalar malaka hay'ati tomonidan;

– O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sndlari sudyalar – O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi raisi taqdimnomasiga binoan harbiy sndlari sudyalar malaka hay'ati tomonidan;

Xo'jalik sndlari sudyalariga – O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan xo'jalik sndlari sudyalar malaka hay'ati tomonidan amalga oshiriladi.

Birinchi marotaba saylangan(tayinlangan) sudyalarning malaka imtihoni ularning ish faoliyati boshlangan kundan birinchi uch oyida o'tkazilishi kerak. Navbatdagi malaka imtihoni sudyva vakolati tugagan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan o'tkazilishi kerak. Malaka imtihoni sudyaning oldin egallagan lavozimi vakolat muddatining yarmini o'tagan muddatida ham yuqori lavozimga o'tkazish maqsadida ayrim hollarda muddatidan oldin amalga oshirilishi mumkin.

Malaka imtihoni o'tkazilishidan bir oy oldin shu sudyaning umumiy xarakteristikasi tuzilib, unda sudyva ish faoliyatining kasbiy mazmuni, ishchanlik va axloqiy jihatlari, shuningdek, ish faoliyati haqidagi ma'lumotlar aks etadi.

Sudyani tegishli sud raisi unga nisbatan to'plangan hamda tegishli sudyalar malaka imtihoniga yo'llanadigan hujjatlar tavsifi va ma'lumotlari bilan tanishtirishi shart. Sudya malaka imtihoni o'tkaziladigan vaqtidan kamida ikki hafta oldin xabar-dor qilingan bo'lishi kerak. Malaka imtihoni qoida bo'yicha imtihondan o'tayotgan sudyva ishtirokida ariza berilgan kundan boshlab bir oy ichida o'tkazilishi kerak.

Malaka imtihoni, taqdim qilingan hujjatlar va materiallar bilan imtihondan oldin tanishib chiqqan sudyalar malaka hay'ati raisi yoki unga a'zo sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. Keyin attestatsiyadan o'tayotgan sudyva, zarur hollarda sudyani attestatsiyadan o'tkazishni so'rab murojaat qilgan mansabdor shaxs tinglanadi.

Sudyalar malaka hay'ati sudyaning bilim darajasi, kasbiy malakasi, ish staji va tajribasi, egallab turgan lavozimlarini hisobga olib quyidagi xulosalardan birini beradi:

- taqdimnomada ko‘rsatilgan sudyaga malaka darajasini berish mumkinligi to‘g‘risida;
- sudyaga o‘z lavozimidan ham yuqoriq malaka darajasini berish mumkinligi to‘g‘risida;
- sudyani o‘zi egallab turgan malaka darajasida qoldirish.

Sudyalar malaka hay’atining sudyalarga malaka darajasini berish to‘g‘risidagi qarori malaka imtihonining ish materiallari bilan birga Sudyalar Oliy malaka komissiyasiga yuboriladi.

Sudyalarga malaka darajasini berish to‘g‘risidagi masalani echishda Sudyalar Oliy malaka imtihoni sudyalar malaka hay’ati qarori bilan bog‘liq emas. Xo‘jalik sudlari sudyalariga malaka darajasini berish tartibi xuddi umumiy yurisdiksiya sudlariga beriladigan tartibda xo‘jalik sudlari malaka hay’ati tomonidan amalga oshiriladi. Sudyaga malaka darajasi berilganligi haqida guvohnoma topshiriladi. Tegishli sudyalar malaka hay’atining sudyaga malaka darajasini bergenligi to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudining tegishli matbuot organlarida chop etiladi hamda sudyaning shaxsiy hujjatiga qo‘sib qo‘yiladi.

Sudyalarning quyidagi malaka darajalari belgilangan:

- Oliy malakali.
- Birinchi darajali.
- Ikkinci darajali.
- Uchinchi darajali.
- To‘rtinchi darajali.
- Beshinchi darajali.

Sudyalar faoliyatini to‘g‘ri baholash hamda ularning odil sudlovni amalga oshirishda mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida tegishli sudyalarni malaka hay’ati muntazam ravishda har uch yilda bir marta malaka imtihonidan o‘tkazadi. Sudyalarni navbatdagi malaka imtihonidan o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror tegishli malaka hay’ati tomonidan belgilanadi.

10.6. Sudyalarning intizomiy javobgarlik masalasini ko‘rib chiqish tartibi

«Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 73-moddasiga binoan sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortishga faqat sudyalar malaka hay’ati qarori asosidagina yo‘l qo‘yiladi. Sudya:

– Odil sudlovnii amalga oshirish chog‘ida qonuniylikni buzganligi uchun;

– sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo‘l qo‘yan kamchiliklari uchun, shuningdek, xizmat borasidagi yoki obro‘siga putur yetkazuvchi boshqa xattiharakati uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Harbiy sud sudyasi harbiy intizomni buzganligi uchun ham intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Sud qarorining bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishining o‘zi, sud qarorini chiqarishda qatnashgan sudyaning, agar u ataylab qonun buzilishiga yoki jiddiy oqibatlarga olib kelgan vijdonsizlikka yo‘l qo‘ymagan bo‘lsa, javobgar bo‘lishiga sabab bo‘lmaydi.

Sudyalar Oliy malaka komissiyasi quyidagi sudlar intizomiy javobgarlik masalalarini ko‘radi:

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning o‘rnbosarlari, sudyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudi hamda harbiy sudlar sud raisi va uning o‘rnbosarlari;

– Sudyalar malaka hay‘ati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudi hamda harbiy sudlar sudyalarining intizomiy javobgarlik masalasini o‘z vakolati doirasida ko‘rib chiqadi.

Intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atish huquqi:

– Umumi yurisdiksya sudlariga nisbatan O‘zR Oliy sudi raisi tomonidan;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudi raislari - tumanlararo, tuman (shahar) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi raisi, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari sudyalariga nisbatan;

– O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudi raisi – shu sudlar sudyalari hamda okrug va hududiy harbiy sudlar sudyalariga nisbatan;

– O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudi raisi – xo‘jalik sudlariga nisbatan qo‘zg‘atadi.

Intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilganligida tegishli sud raislari bu haqda qaror chiqaradi hamda uning xu-

losa qismida intizomiy javobgarlikka asos bo‘lgan holat ko‘rsatiladi. Intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atgan sud raisi, ish qo‘zg‘atishdan oldin, sudyani javobgarlikka tortishga asos bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganib chiqishi va sudyadan tushuntirish xati olishi kerak.

Sudya o‘ziga nisbatan qo‘zg‘atilgan intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish materiallari bilan ular sudyalar malaka hay‘atiga yo‘llangunga qadar tanishtirilishi shart. Shuningdek, sudyu bu holatda ishga oid qo‘shimcha tushuntirishlar berish yoki ishga oid qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risida iltimosnoma keltirishga haqli. Intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi ish qarori zarur hujjatlar bilan birga tegishli sudyalar malaka hay‘atiga ko‘rib chiqish uchun yo‘llanadi. Intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidaga qaror uni qo‘zg‘atgan shaxs tomonidan sudyalar malaka hay‘ati ko‘rib chiqishlariga qadar qaytarib olinishi mumkin.

Sudya o‘ziga nisbatan qo‘zg‘atilgan intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish materiallari chaqirib olinishidan qat‘i nazar sudyalar malaka hay‘ati tomonidan mazmunan ko‘rib chiqilishini talab qilishi mumkin. Sudya intizomiy javobgarlikka shu qilmishni sodir etgan kundan e‘tiboran, xizmat taftishi, sudyaning uzrli sabablarga ko‘ra bo‘limgan vaqtlarini hisobga olmay bir oy muddat ichida ko‘rib chiqilishi lozim. Sudyalar malaka hay‘ati tomonidan esa olti oy ichida ko‘rib chiqiladi.

Intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilishidan oldin zarur hollarda tegishli sudyalar malaka hay‘ati raisi hay‘at a‘zolarining biriga bergen buyrug‘i asosida sudyani javobgarlikka tortishga asos bo‘lgan holatlar qo‘shimcha tekshirilishi mumkin. Bunda sudyaning ishni ko‘rishda yo‘l qo‘ygan xatosi yuzasidan qo‘shimcha materiallar va hujjatlar so‘rab olinadi.

Tegishli sudyalar malaka hay‘ati quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- intizomiy jarimaga tortish;
- intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni to‘xtatish;
- intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni ushbu ishlarni ko‘rib chiqishga haqli bo‘lgan organga yo‘llash.

Mabodo, tegishli sudyalar malaka hay‘ati sudyaning vakolatini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risidagi masalani

ushbu ishni hal etishga vakolatli bo‘lgan organ yoki mansabdor shaxs oldiga qo‘ygan bo‘lib, ular esa bunga asos yo‘q deb topsa, ish tegishli sudyalar malaka hay’atiga qaytariladi hamda ish qaytadan ko‘riladi. Ishni ko‘rishga chiqarilgan qaror muddati ushbu ish qaytarilgan davr mobaynida hisoblanmaydi.

Tegishli sudyalar malaka hay’ati quyidagi intizomiy chorralardan birini belgilashi mumkin:

- xayfsan;
- jarima.

Intizomiy chora qo‘llanganda qonunbuzarlikning holati, qilmishning og‘irlik darajasi, sudyaning shaxsi, uning aybdorlik darajasi hisobga olinadi.

Tegishli sudyalar malaka hay’ati intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni *quyidagi hollarda to‘xtadi*:

- sudyani javobgarlikka tortishning asoslanmaganligi;
- javobgarlikka tortish muddatining o‘tkazib yuborilganligi;
- javobgarlikka tortishning alohida hollarda maqsadga nomuvofiqligi.

10.7. Sudyalar jamiyatি

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 1997-yil 12-sentabrda ilk marotaba O‘zbekiston sudyalar s’ezdi chiqirildi. S’ezdda O‘zbekiston sudyalar assotsiatsiyasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinib, Assotsiatsiya Nizomi tasdiqlandi. Assotsiatsiyaning asosiy vazifasi Respublikada sudyalar mustaqilligini to‘la ta’minlash hisoblanadi. Sudyalarning vazifalarini bajarishi, shuningdek, qonun chiqarish faoliyatida ishtirok etishi, Oliy Majlisga qonun loyihibarini tayyorlashda har tomonlama yordam ko‘rsatishi, kasbiy-huquqiy ekspertiza o‘tkazishi va h.k. Assotsiatsiya sud kadrlarini tanlash va ularni joylashtirishda, sudyalar malakasining oshirilishiga faol ta’sir qilishga majbur hisoblanadi. O‘zbekiston Sudyalar Assotsiatsiyasi o‘z vazifasini bajarish bilan birga sudlar, advokatlar, prokurorlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xizmatchilari ishtirokida seminar, hududiy va xalqaro anjumanlar

o'tkazadilar. Assotsiatsiya Amerika yuristlar Assotsiatsiyasi, OBSE, GLOBAL loyihasi va boshqa 15 ta xalqaro va 70 ta hududiy tashkilotlar bilan birga sud huquqiy islohotlarga oid dolzarb muammolar bilan bog'liq hududiy anjumanlar o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasining 70 dan ortiq sudyasi MDH davlatlari va boshqa xorijiy davatlarning sud tizimini o'rganish maqsadida yuqorida eslatib o'tilgan davlatlarda bo'lib keldi.

O'zbekiston Sudyalar Assotsiatsiyasi 2000-yildan boshlab sud huquqi islohotlari va joriy qonunchilikka kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ma'lumotlari aks ettiradigan Bulleten chiqara boshladi¹. O'zbekiston Sudyalar Assotsiatsiyasi s'ezdi ta'sischilari tomonidan sud etikasi qoidalari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Demak, Sudyalar jamiyati – bu aniq tashkiliy boshlanishga ega bo'lgan sudyalik korpusidir. Unga faol ish olib borayotgan sudyalar ham, nafaqadagi sudyalar ham a'zo hisoblanadi. Sudyalar jamiyatları o'zining organları bilan sudlarni tashkil etish va ularning o'z faoliyatlarini yuritish jarayoniga faol ta'sir qiladilar.

Qonun manbalari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. –T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. 2003-yil 24-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yil 14-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Qonuni. 1995-yil 30-avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-Protsessual Kodeksi. –T.: Adolat, 2004.
6. «Sudlarning malaka hay'atlari to'g'risida»gi Nizom. O'zR Oliy sudi Byulleteni. 2002. №8. 51-modda.
7. «Malaka darajalari to'g'risida»gi Nizom. Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-y. № 1–2, 12-m.

¹ O'zbekistonda sud hokimiyyati:islohotlar davri. / Mualliflar jamoasi. – T.: Adolat, 2002.

Maxsus adabiyotlar

1. Конституционное право зарубежных стран. Учебник для студентов юридических вузов и факультетов. /Под редакцией профессора Б.А. Страшуна./ – М.: БЕК, 1996.
2. Международные акты о правах человека. Сборник документов. - М.: Норма-Инфра, 1999.
3. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. / Под редакцией профессора Гуценко К.Ф./, – М.: БЕК, 1996.
4. O‘zbekiston Respublikasida sud islohotlarining rivojlanish dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qarorlar to‘plami, №3–4, 1996.
5. Савицкий В.М. Организация судебной власти в Российской Федерации. Учебное пособие для вузов. – М.: БЕК, 1996.
6. «Adolat – qonun ustuvorligida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis 2-chaqiriq, VI sessiyasida so‘zlagan nutqi, «Xalq so‘zi» gazetasi, 2001-yil, 30-avgust.
7. O‘zbekistonda Sud hokimiyyati: islohotlar davri. Mualiflar. -T.: Adolat, 2002.
8. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическая энциклопедия (под редакцией М.Ю. Тихомирова), – М.: 1997.

Nazorat savollari

1. Sudya maqomiga tushuncha bering.
2. Sudya lavozimi nomzodlariga qanday shartlar qo‘yiladi?
3. Sudya nomzodlarini tanlash qanday amalga oshiriladi?
4. Sudya mustaqilliginining asosiy kafolatlarini sanang.
5. Sudya daxlsizligining qanday kafolatlari bor?
6. Sudyalar malaka hay’atining vazifasi va ish tartibi.
7. Sudyalar malaka darajalarini sanang.
8. Sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibiga tavsif bering.
9. Sudyalar malaka hay’atlari nima?
10. Sudyalarning vakolatlarini to‘xtatib turish tartibi qanday?
11. Qanday holatlarda sudyalar vakolatlari muddatidan oldin to‘xtatilishiga yo‘l qo‘yiladi?

XI mavzu. ADLIYA VAZIRLIGI VA SUD FAOLIYATINING TASHKILIY VA MODDIY-TEXNIK TA'MINOTI

11.1. Sud faoliyatining tashkiliy, moddiy-texnik ta'minoti, uning tushunchasi va ahamiyati

Sud faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik ta'minlash – huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu tushuncha ostida sud ishini kadrlar tashkiliy va moddiy ta'minlash shart-sharoitlarini yaratish faoliyatini tushunish mumkin. «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida huquqni muhofaza qilish faoliyatining aynan shu sohasi haqida so'z boradi.

Ushbu faoliyat yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonundan tashqari, sud hay'atlarining malaka hay'atlari to'g'risidagi Nizom, O'zR Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 27.08.2003 qarori, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida»gi Nizom 07.08.2003, O'zR Vazirlar Mahkamasining 22.09.2001-yili qabul qilingan 383-sonli «O'zbekiston Respublikasi sndlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sud faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik ta'minlash departamenti Nizomi bilan tartibga solingan.

Lekin ushbu departament faoliyatini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sndlар faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2006-yil 31-avgustdagи PQ-458 sonli Qarori qabul qilindi.

Sud hokimiysi uning uchun xizmat qiluvchi qator yordamchi funksiyalarini bajaruvchi yordamchi kuchlarga bog'liq bo'lgan murakkab huquqiy institutdir. Bu tizimning o'z faoliyatini amalga oshirmasligi sud tizimining har qanday vakolatlarini

amalga oshirishni qiyinlashtiradi, ularni keraksiz qilib qo'yadi. Sud faoliyat yuritishini va uning qarorlarining ijro etilishini ta'minlovchi uch asosiy funksiya mavjud:

1) kadrlar tanlash funksiyasi:

– sud tizimi uchun kadrlarni tanlash va ularni tayyorlash, malakasini oshirish, sudyalar mustaqilligi va ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash;

– sudlarni moddiy-texnika va moliyaviy jihatdan ta'minlash hamda ularning faoliyati uchun zarur shart sharoitlar yaratish ishlarini tashkil qilish;

– Protsessual xarakterga ega bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi organlar va shaxslar bilan tashkiliy aloqalar o'rnatish;

2) odil sudlovnii amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar (guvohlar, ekspert, mutaxassis davlat boshqaruvi organlari ning vakillari va boshqalar)ni jalb qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash:

– sud majlislarida tartibni saqlash;

– sud ishlarining o'z vaqtida hal qilinishini ta'minlash.

3) ishlarni ko'rish natijasida qabul qilingan qarorlarning ijrosini tashkiliy jihatdan ta'minlash funksiyasi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish suding mustaqillik va faqat qonunga bo'ysunish tamoyiliga zid bo'lmasligi lozim.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari faoliyatini tashkiliy ta'minlash sudyalarining mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi tamoyiliga qat'iy rioya qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi *Sudyalarни tanlash va lavozimga tavsija qilish* bo'yicha Oliy malaka komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Hay'at to'g'risidagi Nizom belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Hay'at sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, sudyalar malaka hay'atarining, jamoat birlash-

malarining vakillaridan hamda huquq sohasidagi yuqori malakalı mutaxassislardan tarkib topadi. Hay’atning tarkibi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasi zimmasiga sudyalarini tanlash va joy-joyiga qo‘yishning demokratik asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, sud kadrlarini tanlash va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdig‘iga tavsiya etishda qonuniylikni ta’minalash, ularning mustaqilligini mustahkamlashga hamda ijtimoiy himoya qilinishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilgan.

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi nizom bilan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan maxsus vakolatli organ:

– sudlarni moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta’minlash hamda ularning faoliyatini uchun zarur sharoitlar yaratish ishlarini tashkil qiladi;

– sud qarorlarini ijro etish ishlarini tashkil qiladi.

Sud qarorlarining ijrosini va sud faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash departamenti bunday organ sifatida faoliyat yuritadi.

Biz tanishayotgan ushbu funksiyani amalga oshirish, avvalo, adliya organlarining zimmasiga yuklatiladi. Bu organlar xususida darslikning mazkur bobining boshqa paragraflarida batafsil to‘xtalamiz. Lekin ular sud faoliyatini ta’minlovchi yagona organ hisoblanmaydi. Bu sohada ko‘pgina vakolatlarni amalga oshirish O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Oliy malaka komissiyasiga, sud raislari, mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklatiladi. Bu organlarning sud organiga ko‘maklashish borasidagi o‘rnii adliya organlaridan kam ahamiyatga ega emas. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi, xo‘jalik sudlarining faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta’minlash tegishli tartibda O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O’zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasida sud hokimiyatini ijro hokimiyatidan ajratish

borasida hal qiluvchi qadam qo‘yildi. Gap «Sud qarorlari va boshqa organ qarorlarining ijro etilishi to‘g‘risida»gi Qonun haqida bormoqda. Ushbu qonunga muvofiq, Sud va boshqa davlat organlari qarorlarini majburiy ijro ettirish funksiyasi suddan olinib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish va sud faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta‘minlash departamentining joylardagi ijro-chilari zimmasiga yuklatildi.

Lekin yuqorida eslatib o‘tilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining alohida sohasidagi faoliyatlarini amalga oshirish uchun belgilangan vakolatlarining o‘zgartirilishi ehtimoldan xoli. Ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki, sud hokimiyati uning faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta‘minlovchi, kadrlar tanlash va ularning malakasini oshirishga xizmat qiluvchi ijro hokimiyatiga ehtiyoj sezgan va bundan keyin ham ularga bog‘liq. Xalqaro va o‘z milliy tajribamizga ko‘ra bunday organlar sifatida adliya organlari faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqliр.

Sud faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalarga oid vakolatlarni hayotga tatbiq qilish shu organ tomonidan amalga oshiriladigan omil va uslublarga bog‘liq. Hozirgi kunda bunday omil va uslublar ichida adliya organlari tomonidan chiqariladigan qonunlarga zid bo‘lmagan normativ aktlar muhim o‘rin tutadi.

Bunday normativ aktlar jumlasiga, sud muayyan faoliyatini tartibga soluvchi instruksiyalar, tushuntirish va buyruqlar kiradi. Masalan, sudda ish yuritish to‘g‘risida, hisobot statistikasi yuritish to‘g‘risida, qonun va boshqa huquqiy normalarni ro‘yxatga olish va ularni tizimlashtirish to‘g‘risida, fuqarolarning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida, xalq maslahat-chilari bilan ishslash to‘g‘risidagi instruksiyalar. Bunday normativ huquqiy hujjatlar asosan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan chiqariladi.

Sud tizimini moddiy-texnik jihatdan ta‘minlash, sudyalarning mustaqilligini yanada takomillashtirish, sud qarorlarining o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi borasidagi islohotlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 22.09.2001-yilda «O‘zbekiston Respublikasi sud-

lari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 383-sonli qarorni qabul qildi.

Ushbu qarordan kelib chiqqan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari malaka hay’atlari zimmasiga quyidagilar yuklatildi:

– sudya-kadrlar zaxirasini yaratish, shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Oliy malaka komissiyasiga sudyalarini tavsiya qilish;

– xalq maslahatchilari saylovini o‘tkazish ishida ishtirok etish.

Sudyalar malaka hay’atlariga tegishli tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar sndlari raislari rahbarlik qiladilar. Sud shtatlar ro‘yxatiga malaka hay’ati kotibi lavozimi joriy qilingan bo‘lib, sudyalar zaxirasini yaratish yoki muayyan bo‘sish joylariga sudyalarini tavsiya qilish masalasini malaka hay’atlari tomonidan ko‘rilishi uchun tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya qilish Oliy malaka komissiyasi quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar sndlari sudyalarini lavozimiga sudyalarni tavsiya qilish;

– fuqarolik, jinoyat va harbiy ishlar bo‘yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va tumanlararo sndlarga sudyalarini tavsiya qilish;

– sud faoliyatini tashkiliy ta’minalash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya qilish Oliy malaka komissiyasi zimmasiga sudyalarini tanlash va joy-joyiga qo‘yishning demokratik asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bu sohada mansab lavozimini suiiste’mol qilish hollariga yo‘l qo‘ymaslik kabi vazifalar yuklatiladi.

Bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning ko‘payib borishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarini tanlash va lavozimlarga tavsiya qilish Oliy malaka komissiyasida 7 inspektordan iborat kotibiyat tashkil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarini tanlash va lavozimlarga tavsiya qilish Oliy malaka komissiyasi kotibiyati:

- komissiya faoliyatini moddiy-texnik ta’minlaydi;
- sudyalarning malaka hay’atlariga taqdim etiladigan tavsiyalarini umumlashtiradi va tahlil qiladi;
- sud statistikasi va sud amaliyotining tizimli tahlilini amalgamoshiradi;
- hujjatlarining haqiqiyligini tekshirib, ularni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya qilish Oliy malaka komissiyasiga taqdim etadi.

Komissiya kotibiyati xodimlarining kasbiy majburiyatlari Komissiya Reglamenti bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sud faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta’minlash departamenti (Keyingi o‘rinlarda «departament» deb yuritiladi).

Departament O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bo‘ysunuvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Departament O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan direktor – adliya vaziri o‘rinbosari tomonidan boshqariladi.

Departamentning asosiy vazifalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- sud va boshqa organlar tomonidan chiqariladigan qarorlarning ijro etilishini ta’minlash;
- sud ijrochilari kadrlarini tanlash, ularni joy-joyiga qo‘yish ishini tashkil qiladi;
- sudsiz moddiy-texnik jihatdan ta’minlash hamda ularning faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratish ishlarini tashkil etadi;
- sud binolarini ta’mirlash uchun ajratilgan mablag‘larning lozim darajada sarflanishini tashkil etadi;
- sud majlislari va sudyalar xavfsizligini ta’minlash ishlarini tashkil etadi.

Sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta’minlash respublika budgeti va adliya muassasalari hamda sudsiz rivojlantirish Fondi hisobidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudsalarini navbat-dagi moliya yili uchun moliyaviy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda departament direktori tomonidan taqdim etiladi.

Departament tomonidan budjetdan ajratilgan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda sndlarga yetib borishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili budjetni shakllantirish vaqtida sud va departament faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun zarur mablag'larni ajratishni nazarda tutishi lozim.

Joylarda sud va boshqa davlat organlari normativ aktlarining ijrosini va sndlarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash joylardagi departament hududiy bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Departament hududiy bo'limlarining asosiy faoliyati quydagilardan iborat:

- sud va boshqa davlat organlari qarorlarining ijro etilishi ishlarini tashkil etadi, sud ijrochilarini tuman va shahar bo'limlari faoliyati ustidan nazorat qiladi;

- sud binolarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish va bu maqsadga ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlash;


- sudni texnika jihozlari, mebel, avtotransport va boshqa zaruriy moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash va boshqalar;

- sndlар faoliyati uchun tegishli sharoitlarni yaratish yuzasidan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Sud amaliyoti va sud statistikasini tizimli tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar fuqarolik va jinoiy ishlari bo'yicha sndlар tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 17 kishidan iborat harbiy hay'ati O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2006-yil
31-avgustdagি PQ-458-son qaroriga
2-ILOVA


**zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud
jarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik
jihatidan va moliyaviy ta'minlash Departamentining
TASHKILIY-SHTAT TUZILMASI**



Markaziy apparat	46
Hududiy boshqarmalar	229
Sud ijrochilari tuman (shahar) bo'limlari	995
Sud departamenti bo'yicha jami	1270


O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2006-yil
31-avgustdagи PQ-458-son qaroriga
3-ILOVA

**Sud departamentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va
viloyatlar bo‘yicha hududiy boshqarmalarining
TASHKILIY-SHTATTUZILMASI**



O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2006-yil
31-avgustdagi PQ-458-son qaroriga
4-ILOVA


**Sud departamentining Toshkent shahar hududiy
boshqarmasining
TASHKILIY-SHTAT TUZILMASI**



O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2006-yil
31-avgustdagি PQ-458-son qaroriga
5-ILOVA


Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha
sud ijrochilari tuman (shahar) bo‘limlarining

TASHKILIY-SHTAT TUZILMASI



O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2006-yil
31-avgustdagи PQ-458-son qaroriga
6-ILOVA

Toshkent shahar sud ijrochilari tuman bo‘limining
TASHKILIY-SHTAT TUZILMASI



11.2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi adliya sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi markaziy davlat ijro organi hisoblanadi. Uning maqomi 2003-yil 27-avgustda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida»gi Nizom va boshqa normativ huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda «vazirlik») davlat boshqaruv organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri o‘z lavozimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi.

Vazirlik tarkibiga: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, vazirlik huzuridagi sud qarorlarining ijrosini tashkil etish, sud faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta’minlash departamenti, boshqa adliya organ va muassasalari kiradi.

Joylarda adliya organlari va muassasalari davlat hokimiyat organlaridan mustaqil va faqat vazirlikka bo‘ysunadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi departament faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan tartibga solinadi.

Vazirlik o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining me’yoriy aktlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, farmon va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini qaror va farmoyishlari va o‘z nizomiga muvofiq amalga oshiradi.

Vazirlik, uning organ va muassasalari Davlat gerbi tutshirilgan muhr va o‘z nomiga ega bo‘lgan yuridik shaxs hisoblanadi.

Vazirlikning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

a) huquq tizimini qo‘llash va qonun ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish;

b) kishilarning Konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkmalangan asosiy huquq va erkinliklari himoyasini ta’minlash;

d) jamiyatda huquqiy madaniyat va qonunchilikni mustahkamlashga qaratilgan faoliyat olib boruvchi davlat organlaring faoliyatini muvofiqlashtirish;

e) sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash ishlarini rivojlantirish, sudlarning mustaqilligini mustahkamlash, sudlar va boshqa davlat organlari qarorlarining ijro etish mexanizmini takomillashtirish;

f) notariat, advokatura, FHDYO organlari, fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyati ustidan davlat boshqaruvini o'rnatish;

g) tadbirdorlikning rivojlanishi, chet el investorlari, chet el investitsiyasiga asoslangan korxonalar, xususiy mulk egalari va tadbirdorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarining ta'minlanishiga ko'maklashish;

h) xo'jalik subyektlariga xo'jalik shartnomalarini tuzish va shartnomaga intizomini mustahkamlash borasida huquqiy yordam ko'rsatish;

i) yuridik shaxslar, shu bilan birga nodavlat, notijorat tashkilotlarni ro'yxatga olishning qonuniyligini ta'minlash;

j) xalqaro huquqiy munosabatlar sohasida tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish;

k) kadrlarni zamonaliviy talab va standartlar asosida tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

l) adliya organlari va muassasalari tizimi ustidan rahbarlikni amalga oshiradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida vazirlik quyidagi sohalarda faoliyat yuritadi:

1) huquq tizimini qo'llash amaliyoti va qonun ijodkorligi borasida yagona davlat siyosatini yuritish sohasida;

2) fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida;

3) davlat organlarining huquq-targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;

4) sud va boshqa davlat organlari qarorlarini ijro etish, sud faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash sohasida;

5) huquqiy xizmat borasida davlat boshqaruvini o'rnatish sohasida;

6) chet el investorlari, chet el investitsiyasiga asoslangan korxonalar, xususiy mulk egalari va tadbirkorlar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida;

7) shartnomaviy huquqiy munosabatlar sohasida;

8) yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasida;

9) xalqaro huquqiy munosabatlar borasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish sohasida;

10) huquqshunos kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida;

11) korxona, tashkilot, muassasa va fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish sohasida;

12) huquqiy statistika sohasida;

13) adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash sohasida;

14) sud ekspertiza, ilmiy muassasalarini rivojlantirish sohasida.

Vazirlik huquqni qo'llash va qonun ijodkorligi sohasida davlat siyosatini yuritib, quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

– davlat boshqaruv organlari qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi; qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish choratadbirlarini ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi

Ushbu funksiyani amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-dekabrdagi «Normativ-huquqiy aklalarni realizatsiya qilishni monitoring qilish Markazini tashkil etish haqidagi» qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi qoshida Markaz tashkil etilib, uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

– mamlakatning qonun ijodkorligi, huquqiy bazasining rivojlanishi va isloh etilishi, ularning jamiyatni demokratlashtirish va yangilash bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalariga, mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilinishiga muvofiqligini tizimli tahlil etish;

– Vazirliklar va idoralar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, gumanitar va boshqa sohalardagi faoliyatida demokratik yangilanishlarni amalga oshirishda zarur bo'lgan

normativ-huquqiy aktlarni tayyorlash dasturlarining bajarilishini monitoring qilish, ular o'tkazayotgan islohotlarni maqsad va vazifalariga, inson huquq va erkinliklari himoyasi talablariga, xalqaro norma va standartlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga mos kelishini baholash;

– qonunni qo'llash amaliyotini tizimli tahlil etishni amalga oshirish, yangilanayotgan va yangi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, huquqni muhofaza qilish organlari, jumladan, prokuratura va sud ishi yuritish organlarida, shuningdek, Adliya vazirligi bo'limmalarida, joylardagi davlat hokimiyati organlari faoliyatlarida amalda qay darajada qo'llanilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish;

– islohotlarning huquqiy va qonunchilik bazalarini yangilash va rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, huquqni qo'llash amaliyotini mukammallashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va yangilashning maqsad va vazifalarini, mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilinishini hisobga olib, huquqiy tartibotning yaxlitligi, tizimini, qonunchilik normalarining bir xil qo'llanilishini ta'minlash belgilab berilgan¹.

Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida inson huquqlari borasidagi qonunchilikni tahlil qiladi va ularni takomillashtirish uchun takliflar ishlab chiqadi; bu sohadagi xalqaro amaliyotni o'rganib, xalqaro huquqiy normalarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi joriy qilish uchun tavsiyalar tayyorlaydi.

Inson huquqlari va erkinliklari sohasida aholining huquqiy ongini oshirish tadbirlarini ishlab chiqadi, shu bilan birga jamiyatda inson huquqlarini hurmat qilish g'oyalarini targ'ib qiladi; inson huquqlari sohasidagi qonunchilikka amal qilish darajasini umumlashtiradi va tahlil qiladi hamda tegishli davlat organlariga takliflar taqdim etadi; inson huquqlarini himoya qilish sohasida advokatura tizimining o'rnini mustahkamlaydi,

¹ «Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan monitoring olib borish Markazini tashkillashtirish to'g'risida»gi 2005-yil 15-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonunlar to'plami. 49–50-sonlar. 368-modda.

fugorolik jamiyatlari institutlari va ularning huquqiy asoslarini rivojlantirish ishlariga ko'maklashadi; inson huquq va erkinliklariga rioya qilish monitoringi sohasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) va inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi bilan hamkorlik qiladi; fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarini har tomonlama ko'rib chiqadi va qonunlarga muvofiq ularning ta'minlanishi yuzasidan choralar ko'radi.

Davlat organlarining huquq-targ'ibot sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish sohasida, huquqiy ta'lilot va huquqiy-targ'ibot ishlarini o'rganadi, ularni yaxshilash uchun takliflar ishlab chiqadi; aholi orasida huquqiy bilim, huquqiy madaniyat va qonuniylik borasida targ'ibot ishlarini yuritadi; huquqiy sohani metodik ta'minlaydi va huquqiy tarbiya hamda huquqiy ta'larning zamонави shakllarini joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi; Oliy va o'rta-maxsus ta'lim maskanlari talabalari va o'quvchilari uchun huquqiy darsliklar, huquqiy normalar majmuasi va boshqa muhim adabiyotlar nashr etish ishlarini tashkillashtiradi; adliya organ va muassasalarini zaruriy huquqiy hujjatlar bilan ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Milliy ma'lumotlar bazasini yaratish va qo'llab-quvvatlashni tashkil etadi va unga jismoniy hamda yuridik shaxslarning kiritilishini ta'minlaydi, xalqaro ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi va boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Adliya vazirligi sud va boshqa davlat organlari qarorlarini ijro etish, sud faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta'minlash sohasida, sudlarni moliyalash borasida takliflar ishlab chiqadi; sudlarning faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratish maqsadida sud binolarini ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlaydi; sud majlislari va sudyalarning xavfsizligini ta'minlash ishlarini tashkil etadi; sudning mustaqilligini mustahkamlash masalalari bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi; sud va boshqa davlat organlari qarorlarini ijro etish mexanizmini shakllantiradi.

Vazirlik yuridik xizmat sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish maqsadida davlat notarial idoralarini tashkil etadi va tugatadi, notarius lavozimini ta'sis etadi; notarius faoliyatini litsenziyalaydi; davlat notarial idoralari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar ustidan davlat reyestrini yuritadi; notariusda ish o'rghanish tartibini belgilaydi; notarial faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziya berish tartibini ishlab chiqadi, malaka va attestatsiya komissiyalari nizomlarini tasdiqlaydi, hujjatlardagi imzosi va muhrining haqiqiyligini tasdiqlaydi, belgilangan tartibda notariuslar tomonidan o'z xizmat vazifalariga va notarial ish yuritish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat o'matadi, ularning ishlarini umumlashtiradi va boshqalar.

Vazirlik advokatura va yuridik xizmatni rivojlantirish sohasida respublika advokatlar birlashmasi bilan hamkorlikda malaka komissiyalari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi, respublika advokatlar birlashmasi bilan birgalikda advokatlar Oliy malaka komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi; advokatlarga litsenziya berish va advokatlar idoralari, hay'at va firmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlarini amalga oshiradi; advokatlar, advokatlik idoralari, hay'at va firmalari reyestrini yuritadi; advokatlar idoralari, hay'atlari faoliyatiga uslubiy yordam ko'rsatadi; advokatlar malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi; advokatlar faoliyati bilan bog'liq to'siqlardan va taqiqlardan himoya qiladi; advokatlar faoliyatini tartibga soluvchi qonun normalari, advokatlik etikasi qoidasi va advokatlarni kasbiy tayyorgarligi ustidan nazorat qiladi; huquqiy ishlar amaliyotining joriy qilinishini tekshiradi va analiz qiladi; yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish va ijobjiy amaliyotni davlat boshqarmalari va xo'jalik korxonalarining yuridik xizmatlariga tarqalishini ta'minlaydi, korxona, muassasa va tashkilotlarning yurist-konsultlarini attestatsiyadan o'tkazadi.

Xalqaro huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini huquqiy himoya qilish borasida xalqaro shartnomalarining yuridik ekspertizatsiyasini o'tkazadi, o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi va uning fuqarolari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlaydi, taraflardan biri O'zbekiston Respublikasi

hisoblangan chet davlat sudlarida nizolarni ko'rib chiqishida vakillik qiladi.

Huquqshunos kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish sohasida vazirlik davlat organlarining huquqshunos kadr-larga bo'lgan ehtiyojini aniqlab, Toshkent Davlat yuridik instituti, Toshkent yuridik kolleji, TDYI qoshidagi akademik litsey va boshqa vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalari ishini tashkil etadi hamda rahbarlik qiladi; hozirgi zamon talab va standartlariga muvofiq ravishda huquqshunoslarni qayta tay-yorlaydi va malakasini oshiradi; huquqshunos kadrlar siyosati ni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi; kadrlar zaxirasini tashkil qilish va boshqalar.

Fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha; vazirlik organ va muassasa xodimlarining noqonuniy harakatlari bo'yicha tush-gan fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqadi, shu masala bo'yicha ariza va shikoyatlarning obyektiv ko'rinishini ta'minlaydi, shikoyatlar bo'yicha obyektiv qaror chiqarilishini ta'minlaydi, kerakli vaqtarda joylarga chiqib tegishli mas'ul shaxslar bilan tekshirishlar o'tkazadi.

Sud-ekspertiza, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish sohasida:

- huquqiy bilimlarni rivojlantirish bo'yicha choralar ko'radi;
- kriminalistika va sud-ekspertiza sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etadi; O'zbekiston Respublikasi sud eksper-tiza muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ilmiy-metodik rahbarlik qiladi;

- H.Sulaymonova nomidagi Respublika markazi, yuristlar malakasini oshirish markazi, TDYI, TYK, huquqiy targ'ibot markazi va boshqa muassasalar faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Unga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda qu-yidagi vakolatlarga ega:

- Inson huquqlarini himoya qilish borasida tegishli analitiq, statistik va boshqa hujjatlarni olish uchun tegishli davlat organlari, korxona, muassasa, tashkilot va mansabdor shaxs-larga so'rovnomalar yuborish;

- qonunchilikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar berish;

– normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va e’lon qilish bo‘yicha tegishli davlat korxonalari, muassasa, tashkilot va qo‘mitalarda tekshirishlar o‘tkazadi;

– belgilangan tartibda vazirliklar, davlat qo‘mitalarining qarorlarini davlat reyestridan chiqaradi va qisman yoxud butunlay to‘xtatadi;

– O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, muassasa, tashkilot va mansabdor shaxslar tomonidan bir xilda qo‘llanilish holatini o‘rganadi, tahlil etadi;

– tahlil etish natijalari bo‘yicha tegishli davlat organlariga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlash to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar mansabdor shaxslari tomonidan vazirlik vakolati doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlarining ijro etilmayotganligi tufayli ularni javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi taklif bilan murojaat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga davlat boshqaruv va hokimiyat organlari tomonidan amal qilinishini tekshiradi;

– ko‘rsatib o‘tilgan organlar mansabdor shaxslariga ijro etishi majburiy bo‘lgan qonunlarga rioya qilmaslik sabablari va oqibatlarini bartaraf etish to‘g‘risida topshiriq beradi; shu bilan birga buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini tiklash choralarini ishlab chiqish vazifasini topshiradi; chet el sudlarida O‘zbekiston Respublikasi huquqlar va qonuniy manfaatlari yuzasidan da’vogar va javobgar sifatida ishtirot etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va eks prezidenti vakili sifatida sudlarda ishtirot etadi;

– tegishli davlat organlariga sudyalar va sud apparati xodimlarining moddiy-ijtimoiy va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritadi;

– advokatlik idoralari va notariuslarga berilgan litsenziyalarning harakatini to‘xtatadi yoki tugatadi; advokatlar malaka

komissiyalariga advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasini kiritadi;

– advokatlar idoralari, hay’at va firmalarga qonunbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan topshiriqnomad yuboradi; vazirliklar, qo‘mitalar, joylardagi davlat hokimiyati organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar va ularning yuridik xizmatlari faoliyatining huquqiyligini tekshiradi;

– ularning rahbarlariga huquqbuzarliklarni bartaraf etish to‘g‘risida topshiriqnomalar beradi;

– yuqori turuvchi organ yoki sudga qonunchilikni buzgan holda korxona yoki tashkilotga zarar yetkazgan mansabdor shaxslarga nisbatan choralar ko‘rish lozimligi haqida murojaat qiladi.

Vazirlik chet el investorlari, chet el investitsiyasiga asoslangan korxonalar va boshqa tadbirkorlik subyektlarini javobgarlikka tortish asoslarini fuqarolik, jinoiy va ma’muriy hujjatlar bilan tanishgan holda tekshirishga haqli; chet el investorlari, chet el investitsiyasiga asoslangan korxonalar va boshqa tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar sodir etgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalasini tegishli organlarga taqdim etisha haqlidir.

– Chet el investorlari, chet el investitsiyasiga asoslangan korxonalar va boshqa tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini buzuvchi fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va xo‘jalik ishlarini sudda ko‘rib chiqish uchun davlat bojini to‘lamagan holda, taklif kiritadi;

– manfaatdor shaxslarga tadbirkorlar va xususiy mulk egalarining qonuniy huquq va manfaatlari hurmat qilinishini so‘rab yozma ogohlantirish yuboradi;

– o‘z vakolatlari doirasida chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatadi;

– davlat, yuridik va jismoniy shaxslar manfaatini ko‘zlab sudga, davlat bojlarini to‘lamagan holda da’vo arizalari va arizalar bilan murojaat qiladi; adliya organ va muassasalari ning faoliyatini ta‘minlash maqsadida tegishli bo‘linmalarni tuzish, tugatish va ularning nizomini belgilash va h.k.

Vazirlik o‘z vakolati doirasida vazirliklar, davlat qo‘mitalari, joylardagi davlat hokimiyyati organlari, notariuslar, advokatlar, korxona, tashkilot va muassasa, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo‘lgan normativ huquqiy hujjatlar chiqaradi. Bundan tashqari vazirlilik, zarur hollarda, boshqa vazirliliklar va davlat qo‘mitalari bilan birgalikda qaror va boshqa normativ aktlar chiqarishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq vazirlik zimmasiga qonun ijodkorligi sohasida davlat siyosatini yuritish va o‘ziga yuklatilgan boshqa vazifalarni samarali amalga oshirish majburiyati yuklatilgan.

Ishlarni tashkil etish va yakuniy qaror chiqarishda vazirlik hay’ati muhim rol o‘ynaydi. Hay’at vazir, uning o‘rinbosarlari va vazirlikning boshqa xodimlaridan iborat tarkibda faoliyat yuritadi. Hay’at tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlik hay’ati o‘zining doimiy o‘tkaziladigan majlislarida vazirlik, adliya organ va muassasalari faoliyati bilan bog‘liq asosiy masalalarini ko‘radi. Hay’at qarorlari qoida tariqasida vazir buyrug‘i bilan kuchga kiradi.

Vazir O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlarini ijro etish maqsadida buyruq, instruksiya, tushuntirish va boshqa normativ huquqiy hujjatlar chiqarish huquqiga ega. Bunday qarorlar orqali davlat notariati, FHDYO organlari, sud ekspertizasi va statistikasi tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar hal etilishi lozim. Ular sud xodimlari, adliya organ va muassasalari, boshqa davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiyidir.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining bir qator funksiyalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning vakolatlari, albatta, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi vakolatlaridan sezilarli darajada kam. Masalan, ular harbiy sud faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlamaydi, ijro hokimiyyati markaziy organlarining normativ aktlari ro‘yxatini yuritmaydi, ularidan qonun ijodkorligi sohasida keng ishtirok

etish talab qilinmaydi. Ularning asosiy vazifasi – lozim darajada yuridik xizmat ko‘rsatish sharoitlarini yaratish, notariat va FHDYO organlariga rahbarlik qilish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tizimi ularga yuklatilgan vazifalarning darajasiga qarab tashkil etadi.

11.3. Adliya organlari rivojlanishining asosiy bosqichlari

O‘zbekiston Xalq Adliya komissariati 1924-yil 26-noyabrda Inqilobiy qo‘mitaning Turkiston Avtonom Respublikasi Xalq Adliya komissariati negizida tashkil etilgan. Uning asosiy vazifalaridan biri O‘zbekiston tarkibiga kirgan davlatlar: Buxoro amirligi, Xorazm va Qo‘qon xonligi adliya organlari faoliyatini tizimlashtirish va muvofiqlashtirish hisoblangan.

1925-yil 6-mayda O‘zbekiston MIQ rayosati «Xalq Adliya komissariyati to‘g‘risida»gi Nizomni tasdiqladi. Uning birinchi muddasiga ko‘ra Xalq Adliya komissariyati (XAK) zimmasiga quyidagilar yuklatilgan:

- barcha sud muassasalari, prokuratura, tergov organlari, notariat, sud ijrochilari organlarini tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish;
- sud funksiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan komissiyalar faoliyatini kuzatib borish;
- himoyachilar hay’ati va aholiga yuridik xizmat ko‘rsatish tashkiloti faoliyatini kuzatib borish;
- adliya organlarining vakolatlarini qisqartirish borasidagi nizolarni ko‘rib chiqish;
- O‘zSSR MIQga kiritilayotgan barcha qonunchilik hujjalalarini dastlabki ko‘rib chiqish;
- amaldagi qonunlarni va hukumat farmoyish hamda qarorlarini sharhlash va nashr etish.

Xalq adliya komissariyati asosan uch bo‘limdan: sud ko‘rilishi va nazorati, prokuratura va qonunchilik takliflari ishlab chiquvchi bo‘limlardan iborat bo‘lgan. Xalq Adliya komissari bir vaqtning o‘zida respublika davlat prokurori hisoblanib, O‘zSSR HKSning taqdimnomasiga ko‘ra MIQ to-

monidan tayinlangan. Sud va prokuratura organlari faoliyatini boshqarish bilan bog'liq muhim masalalarni hal qilish maqsadida XAK huzurida, XAKning o'rinnbosarlar, bo'lim boshliqlari va respublika Oliy sudi vakilidan iborat tarkibda hay'at faoliyat ko'rsatgan O'zbekiston XAK to'g'risidagi 1926-yil 22-dekabrdagi qabul qilingan nizom, 1931-yil 11-oktabrda sud, prokuratura organlari tizimidagi o'zgarishlar munosabati bilan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan qaytadan qabul qilindi.

Prokuror nazorati O'z SSR XAKning respublika prokurori, Oliy suddagi prokurori yordamchisi, viloyat prokurorlari, viloyat sudlari va alohida uchastkalaridagi prokuror yordamchilaridan iborat prokuratura bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zSSRning 1925-yilning 6-may O'zSSR XAK to'g'risidagi nizomi bo'yicha O'zSSR XAKning prokuratura bo'limi barcha davlat hokimiyat va boshqaruvin organlari, xo'jalik muassasalari, jamoat birlashmalari va shaxslar xatti-harakatining qonuniyligi ustidan davlat nomidan prokuror nazoratini yuritgan; aybdorlarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atgan va mahalliy ijroiya qo'mita, respublika markaziy muassasalarining qonunga xilof qarorlariga protest kiritgan.

O'zSSR XAKning prokuratura bo'limi zimmasiga surish-tiruv va dastlabki tergov organlari, DP Boshqarmasi, axloq tuzatish muassasalari faoliyati ustidan kuzatish majburiyati yuklatilgan. 1928-yil 27-oktabr O'zSSRning MIQ kengashi tomonidan chiqarilgan «O'zbekiston SSR sud organlariga rahbarlik qilish tartibi to'g'risida»gi qaror bilan XAK tizimiga sezilarli o'zgartirishlar kiritildi.

Qarorda: «yagona sud siyosatini o'rnatish va sud organlari boshqarish zaruratidan kelib chiqib, O'zSSR XAKni shunday qayta tashkil etish lozimki, unga ko'ra uning faoliyati ustidan, ayniqsa, prokuratura va sud organlari ustidan nazorat qilish va ularni boshqarish maksimal darajada ta'minlangan bo'lishi lozim» – deyiladi. XAKda sud va prokuraturani boshqarishni birlashtirish maqsadida ikkita o'rinnbosarlar lavozimi tashkil etildi; 1) prokuratura yo'nalishi bo'yicha (respublika prokurori); 2) sud yo'nalishi bo'yicha (O'zSSR Oliy sudi raisi).

Sud organlari ustidan boshqaruvin respublika XAKtida to'plangan edi. Sudlarga umumiy xarakterdagি majburiy

ko'rsatmalar XAK tomonidan O'zSSR Oliy sudi orqali berilar edi yoki bevosita Oliy sudning o'zi O'zSSR XAKning roziligini olgan holda chiqarishi mumkin edi. Sud amaliyoti ustidan kundalik boshqaruv va yagona sud siyosatini yuritish respublika Oliy sudi zimmasiga yuklatilgan edi.

Sud qarorlari, ajrim va buyruqlarini ijro etish ishlarini yuritish uchun bevosita sndlarning o'z kuzatuvi va rahbarligida sud ijrochilari xizmat ko'rsatgan. Sud ijrochilarini tayinlash, ish joyini o'zgartirish va ishdan bo'shatish XAK tomonidan, uning o'z tashabbusi bilan yoki rayon ijroqo'mlarining taqdimnomasiga ko'ra amalga oshirilgan. O'zSSR MIQ va HKSning 1931-yil 11-oktabr oyida chiqarilgan qaroriga muvofiq O'zSSR XAKti prokuratura, Oliy sud, tashkiliy instruktorlik bo'limi, axloq tuzatish muassasalari Bosh Boshqarmasidan iborat tarkibda faoliyat yuritgan. XAK raisi uch o'rribbosarga: Respublika Prokurori, Oliy sud raisi, qayta tarbiyalash muassasalari Bosh boshqarmasi boshlig'iiga ega edi. O'zSSR XAK butun respublika hududida yagona sud siyosatini yuritish, barcha adliya organlari faoliyatini tashkil etish va ularning ustidan rahbarlik qilish, davlat va jamiyat birlashmalari va fuqarolar faoliyatining qonuniyligi ustidan nazorat o'rnatish kabi faoliyatlar bilan shug'ullangan. Jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatchilikni o'rghanish bilan shug'ullanadigan jinoyat qidiruv bo'limlarining barchasi ustida rahbarlik faoliyatini olib borgan. Bundan tashqari, XAK zimmasiga maxsus sud muassasalari va qayta tarbiyalash mehnati amaliyoti ustidan nazorat olib borish vazifasi yuklatilgan.

Qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish munosabati bilan O'zSSR MIQ tomonidan 1931-yil 20-iyulda «O'zSSR sud ko'rishi to'g'risida nizom» qabul qilindi.

O'zSSR MIQ rayosati tomonidan tayinlanadigan, XAK raisi o'rribbosari hisoblangan Respublika Prokuroriga rayon va shahar prokurorlari bevosita bo'ysunganlar. Alovida hollarda bir prokuratura organi tomonidan bir necha rayonlarda prokuror nazorati ishlari o'tkazilgan. Rayon va shahar prokurorlari Respublika prokurori tomonidan tayinlangan bir ish joyidan ikkinchisiga o'tkazilmay, ishdan chetlatilgan yoki bo'shatilgan.

1934-yil 10-sentabrda O'zSSR MIQ va HKS tomonidan qabul qilingan «Sud va prokuratura organlarini qayta tashkil

etish va mustahkamlash to‘g‘risida»gi qaror XAK respublika prokururaturasi va Oliy sudi tizimida katta o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. O‘zSSR Prokururaturasi umumiy nazorat va Oliy sud prokurururasiga bo‘linib ketdi. Alovida bo‘lim va bo‘linmalar tashkil etishni talab etuvchi bunday tizimning vujudga kelishi ko‘riladigan masalalarni tez va to‘g‘ri hal qilinishiga to‘sqinlik qiluvchi bu holat, rahbariyatni aniq boshqaruvin ishlarini olib borishdan mahrum qildi.

Markazlashgan sud va prokuratura tizimini shakllantirish borasida yakuniy qaror sifatida 1936-yil 20-iyulda SSSR MIQ va HKS tomonidan «SSSR xalq Adliya Komissariyatini shakllantirish to‘g‘risida»gi qaror qabul qilindi. SSSR MIQ va HKS SSSR Xalq Adliya Komissariyati nizomini tasdiqladi. O‘zbekiston Oliy sudi zimmasidan sud faoliyati ustidan boshqarish funksiyasi olib tashlandi, u faqat respublika Oliy nazorat instansiysi bo‘lib qoldi.

SSSR tarkibiga kiruvchi respublikalar xalq Adliya Komissariatlari endi prokurorlik tergov organlaridan ajratildi. SSSR XAKlari faqat sud muassasalari faoliyati ustidan nazorat qilish funksiyasigina saqlanib qolindi.

1937-yil 20-maydagi respublika MIQ va HKS qarori bilan XAKning yangi Nizomi qabul qilindi, unga ko‘ra XAK majburiyatlari jumlasiga quyidagilar kiritildi:

- sudlar tomonidan fuqarolik va jinoyat protsessual kodekslarining sud ko‘riliishi to‘g‘risidagi Nizomining ustidan kuzatuv olib borish;

- ularning qo‘llanish amaliyotini umumlashtirish va ularga zaruriy o‘zgartirish va qo‘shimchalar ishlab chiqish;

- sudlar tomonidan sovet qonunchiligining qo‘llanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va sudlarga sud amaliyotining bir xilligi va to‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berish;

- sud tizimini shakllantirish, sudyalarini tanlash va ularga tashkiliy xo‘jalik xizmati ko‘rsatish;

- himoyachilar hay’atlari va aholiga yuridik xizmat ko‘rsatish tashkilotlari faoliyati ustidan nazorat qilish va ularni boshqarish;

- o‘rtoqlik va jamoa qishloq sudlari, notariat, yuridik maktab va kurslar faoliyatini nazorat qilish va ularni boshqarish;

- O'zSSR qonunchiliginin takomillashtirish ishlarini yuritish;
- sud statistikasini yuritish va h.k.

Nizomda O'zSSR XAKning tizimi ham belgilangan bo'lib, uni Xalq Komissari va uning ikki o'rinnbosari boshqargan. O'zSSR XAK tizimida sud muassasalarini bo'llimlari¹, sud himoyasi va aholiga yuridik xizmat ko'rsatish bo'limi, notariat bo'limi, O'zSSR qonunchiliginin takomillashtirish bo'limi, yuridik kon-sultatsiya² va boshqalar tashkil etilgan. XAK huzurida xalq komissari tomonidan chaqiriladigan kengash ish yuritgan.

O'zbekiston tarkibiga Qoraqalpog'iston ASSRning kiritili-shi munosabati bilan O'zSSR XAKtiga Qoraqalpog'iston ASSR XAKti va keyinchalik Oliy sud deb nomlangan. Qoraqalpog'iston ASSR Bosh sudiga rahbarlik qilish vazifasi yuklatilgan. O'zSSR Oliy sud vakolatlari ham o'zgartirilib, unda faqat odil sudlovni amalga oshirish funksiyasi qoldi. U o'zgarish darhol emas, balki SSSR ittifoq va avtonom respublikalarining «Sud ko'rishi to'g'risida»gi (1938-yil) Qonuni qabul qilin-guncha bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O'zSSR hududidagi barcha sud organlari ustidan rahbarlik qilish 1939-yil 1-noyabr O'zSSR HKS tomonidan qabul qil-ingan Nizomi asosida faoliyat yurituvchi XAK zimmasiga yuk-latilgan edi. Bundan tashqari ushbu nizom bo'yicha XAK zim-masiga quyidagi vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan:

- Qoraqalpog'iston ASSR XAKti, viloyat boshqarmalari faoliyatini boshqarish;
- O'zSSR sudlarini tashkil etish, sud organlari ishlarini nazorat qilish, ularga faoliyatlarini yaxshilash uchun rahbariy ko'rsatmalar berish;
- advokatura va notarial idoralar faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- yuristlarni tayyorlash va qayta tayyorlash; O'zSSR qonun hujjatlarini takomillashtirish uchun hujjatlarni tayyorlash;
- sudyalar tanlash ishlarini tashkil etish.

¹ Bu bo'llimlar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat edi:

a) tashkiliy-informatsion sektor; b) revision-instrukturlik sektor; d) o'rtoqlik va qishloq jamoa sudlar bo'yicha ish yuritish guruhi; e) sud statistikasi sektor.

² Bu bo'llimga kadrlarni hisobga olish, yuridik maktab va kurslar ustidan rahbarlik qilish va reja tuzish majburiyati yuklatilgan.

O‘zSSR XAK 1937–1941-yillar davomida «O‘zSSR davlat notariati to‘g‘risida»gi Nizomga bir qancha o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritdi. Respublikaning 54 ta tumanida notarial idoralari yo‘qligi munosabati bilan XAK 1938-yil 27-avgustda buyruq chiqarib, ushbu tumanlar sud organlariga notarial harakatlarni bajarish vazifasi yuklatildi. Respublika XAK hay’ati komissar, uning o‘rinbosarlari va ishchilar boshliqlari ishtirokida majlis o‘tkazib, kadrlar tanlash ishlarining bajariliishi va ularning ustidan amaliy rahbarlik qilish masalalarini ko‘rdi. Qoraqalpog‘iston ASSR XAK tomonidan 1940-yil 9-yanvarda tasdiqlangan u to‘g‘risidagi nizomda belgilangan tartibda faoliyat yuritadi. Uning tarkibiga xalq sudsari bo‘limlari kirgan.

SSSR Oliy Kengashi rayosatining «Mehnatkash deputatlar kengashi viloyat va mahalliy sudsarning vakolatini kengaytirish, viloyatlardagi vazirlik boshqarmalarini tugatish to‘g‘risida»gi Farmoniga va O‘zSSR Oliy Kengashining 1956-yil 7-avgustda qabul qilgan Mehnatkash deputatlar kengashining O‘zSSR viloyat adliya boshqarmalarini tugatish haqidagi farmoniga muvofiq O‘zSSR Vazirlar Kengashi 1956-yil 6-noyabrda respublika Adliya vazirligining yangi Nizomini ishlab chiqdi. Shu qaror bilan «Davlat notariati to‘g‘risida»gi Nizomga o‘zgartirish kiritildi.

Nizomga muvofiq Adliya vazirligi O‘zSSR Vazirlar Kengashiga bevosita bo‘ysungan. Vazirlik huzurida vazir, uning o‘rinbosarlari va boshqa rahbar xodimlardan tarkib topgan hay’at tuzilgan bo‘lib, unda asosan sud muassasalari va adliya organlari faoliyati ustidan rahbarlik qilish, ijro harakatlarini tekshirish, kadrlar tanlash, muhim buyruq va yo‘riqnomalar tayyorlash va boshqa masalalar ko‘rilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi:

– Qoraqalpog‘iston ASSR Adliya vazirligi faoliyatiga rahbarlik qilish;

– O‘zSSR sudsarning tashkil etish, sud organlari ish holati ustidan nazoratni amalga oshirish va ushbu organlar ishini tashkil etish borasida rahbariy ko‘rsatmalar beradi;

– Notarial idoralarni tashkil etish va ularni boshqarish;

– Advokatura to‘g‘risidagi nizomga muvofiq advokatura faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish;

– O‘zSSR qonun hujjatlari va hukumat qarorlari loyihasini tayyorlash, O‘zSSR qonunlari, Oliy Kengash farmonlari va O‘zSSR hukumati qarorlarini tizimlashtirish va takomillashtirish.

1959-yil 23-martda viloyat va xalq sudlari faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida O‘zSSR Oliy Kengashi Adliya vazirligi funksiyalariga o‘zgartirish kiritildi. Viloyat va xalq sudlarini tekshirish, ular faoliyati ustidan nazorat qilish, sud statistikasini yuritish majburiyati O‘zSSR Oliy sudiga o‘tdi. Natijada sudlarni boshqaruvchi organ sifatida Oliy sud instansiyalari ishlay boshladi.

Shunga muvofiq 1970-yil 1-oktabrda «O‘zSSR Adliya vazirligining ta’limi to‘g‘risida» Farmon qabul qildi. Bunga ilova qilib O‘zSSR Ministrlar Kengashi tomonidan 1972-yil 27-sentabrdagi qarori bilan Nizom tasdiqlangan.

Adliya vazirligi Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman xalq sudlariga rahbarlik qilgan, ularning faoliyatiga metodik rahbarlik qilgan, xalq xo‘jaligidagi huquqiy ishlarga, huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish bo‘yicha davlat organlari va jamoat birlashmalariga, notariatga, Toshkent shahar sud ekspertiza ilmiy tadqiqot institutiga, FHDYO organlariga rahbarlik qilgan.

Bu yillarda Adliya vazirligi sudlar tomonidan jinoiy va fuqarolik ishlarni ko‘rishda sudlar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ishlarni amalga oshirgan.¹

O‘zbek xalqi birinchi bor davlat mustaqilligiga erishdi. Uning tarixiy ahamiyati inson huquqlariga, mustaqillik tamoyillariga asoslangan holda huquqiy demokratik davlat qurishda namoyon bo‘ladi. Kuchli demokratik davlat qurish uchun avvalo davlatda qonun ustuvor bo‘lishi kerak. Huquqiy davlatning normal faoliyati qonun chiqaruvchi, ijro va sud organlarining qonunga amal qilishida ko‘rinadi. Huquqiy davlatning shakllanish davrida Adliya vazirligining o‘rni umumhuquqiy tashkilot sifatida oshdi.

¹ Qarang: Абдусаломов М. Становление и развитие органов юстиции Узбекистана. –Т.: Adolat, 1996.

Adliya vazirligining rolini oshirish, aholiga sifatli yuridik xizmatni tashkil etish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida O'zR Prezidenti 1992-yil 8-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini qayta tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Shu farmonga asosan O'zR Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 12-noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini qayta tashkil etish masalalari to‘g‘risida» 523-qaror qabul qilib, bunda Adliya vazirligining markaziy apparati tizimini yangi tarkibda tasdiqlab, O'zSSR Ministrler Kengashining 1972-yil 27-sentabridagi 427-qarori bekor qilinganligi bayon qilingan.

Mamlakatda o‘tkazilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, sud huquq sohalaridagi islohotlar Adliya organlari sohasida ham islohotlarni talab qildi. Davlatda qonunchilik va huquq tizimini qo‘llash sohalarida yagona siyosatni yuritish Adliya vazirligining muhim vazifasi hisoblanadi. Buni ta‘minlash maqsadida 2003-yil 27-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining keyingi faoliyatini qayta tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilingan. Bu qarorda Adliya vazirligining muhim vazifa va yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardir:

- qonunchilik va huquq tizimini qo‘llash amaliyotini mukammallashtirish, ularning amaliyotda qo‘llanilishini ta‘minlash;

- konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlangan fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta‘minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va huquqiy asoslarini mustahkamlash;

- jamiyatda huquqiy bilim va madaniyatni oshirishga va qonunchilikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy-targ‘ibot ishlarini olib boruvchi davlat organlari faoliyatini muvofiqlash-tirish;

- sud faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta‘minlash ishlari samarasini oshirish, sudlarning mustaqilligini mustahkamlash, sud va boshqa davlat organlarining qarorlari samarali ijro etilishining mexanizmini yaratish;

– chet el investorlari, xususiy mulk egalari va tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va uni huquqiy ta'minlashning samarasini oshirishga yo'naltirilgan umumiylash tashkiliy-huquqiy choralar ishlab chiqish va amalga oshirish, xo'jalik subyektlarini tashkil etish va ro'yxatga olish, shartnoma intizomini mustahkamlashning choralarini ishlab chiqish;

– yuridik shaxslarni va nodavlat, notijorat tashkilotlarini ro'yxatga olishda qonuniylikka rioya qilinishini ta'minlash;

– tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy munosabatlar sohasidagi manfaatlari himoya qilinishini huquqiy ta'minlash;

– zamon talablariga muvofiq huquqshunos kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish.

Inson huquqlari va erkinliklarini huquqiy himoya qilishning samarasini oshirish maqsadida O'zR Adliya vazirligi huzurida inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi tashkil etilgan.

Adliya organ va muassasalari boshqa davlat organlaridan mustaqil va faqat O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bo'y sunadi.


Vazirlar Mahkamasining
2003-yil 27-avgustdagи
370-son qaroriga
3-ilova

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimining TASHKILIY TUZILMASI




Vazirlar Mahkamasining
2003-yil 27-avgustdag'i
370-son qaroriga
4-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy
apparati
TUZILMASI**



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
2005-yil 15-dekabrdagi
370-sон qaroriga
5-ilova
№PQ-237


**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
normativ va huquqiy hujjatlarni amalda tatbiq etish
monitoringi Markazining tuzilishi**



Umumiy soni: 34


Vazirlar Mahkamasining
2003-yil 27-avgustdagagi
370-sон qaroriga
6-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi tuzilishi



Vazirlar Mahkamasining
2003-yil 27-avgustdagি
370-son qaroriga
7-ilova

**Viloyatlar va Toshkent shahar
adliya boshqarmalarining
NAMUNAVIY TUZILMASI***



11.4. Notariat

O'zbekiston Respublikasi «Notariat to‘g‘risida»gi Qonuning 1-moddasida: «O‘zRda Notariatning vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini notariuslar tomonidan qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan himoya qilishni ta‘minlashdan iboratdir» deyilgan.

Notariusning bu xildagi vo‘nalishini ko‘rib, uning faoliyatidagi o‘ziga xos uslublar bevosita huquqni muhofaza qilish bilan bog‘liqligiga ahamiyat beramiz.

Notariatning huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan bog‘liqligini notarial harakatlarning mazmunidan ham ko‘rishimiz mumkin.

Notarial harakatlarning to‘la ro‘yxati «Notariat to‘g‘risida»gi Qonunning 5-bobida berilgan bo‘lib, bu faqatgina hammaga odat bo‘lgan hujjatlarning haqiqiyligini tasdiqlash, imzoning haqiqiyligini tasdiqlovchi harakatlar bo‘lib qolmasdan, balki bitimlarni tasdiqlash, er-xotining umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to‘g‘risida guvohnomalar berish, mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yadi va taqiqni bekor qiladi, fuqaroning muayyan joyda ekanligi yoki uning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi, dalillarni ta‘minlash, ijro xatlarini yozish va hokazolar.

Barcha notarial harakatlar u yoki bu jihatiga ko‘ra huquqni muhofaza qilish funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, shu xildagi funksiyalarni amalga oshirishda hamkorlik qiladi.

Notariat bu bitimlar va boshqa kelishuvlarning to‘g‘ri hamda o‘z vaqtida haqiqiyligini tasdiqlaydigan, meros huquqiga guvohlik beradigan, ijro xatlarini yozadigan va boshqa notarial harakatlarni amalga oshiradigan maxsus tashkil etilgan organ yoki muassasalar majmuidir. Hozirda notariatning bir necha turlari mavjud. U davlat notarial idoralari va notarial harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan mansabtor shaxslardan, shuningdek, xususiy notarial faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasalardan iborat.

Notarius mavjud bo‘lmagan aholi punktlarida notarial harakatlarni fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi.

Boshqa davlatlarning hududida notarial harakatlarni, bunday vakolatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari bajaradilar.

Davlat notarial idorasiga O‘zR Adliya vazirligi tomonidan tashkil etiladi. Davlat notarial idoralarida faoliyat ko‘rsatuvchi barcha notarius (notarius va katta notarius)lar davlat xizmatchilari hisoblanadilar va ish haqini budget hisobidan oladilar. Ularga xuddi Adliya organlarining xizmatchilari singari unvonlar berildi. Ularning zimmasida hozirda notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq ishning asosiy qismi yuklatilgan.

«Notariat to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan (1996-yil 26-dekabr) O‘zR hududida xususiy notarial amaliyoti tatbiq qilindi. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius yuridik shaxs hisoblanadi. U o‘z idorasiga ega bo‘lish, bankda hisob-kitob varag‘i va boshqa hisob varaqlar ochish, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish, xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni to‘xtatish, tushgan daromadni tasarruf etish, sudda o‘z nomidan qatnashish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlar ni amalga oshirishga haqlidir.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi qonunda belgilangan tartibda tuziladigan notarial palataga birlashishlari mumkin.

Notarius ta‘tilga chiqish va davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalarning barcha turini olish huquqidan foydalana di. Notariusga davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqa tayinlanadi va to‘lash hamda uning davlat pensiya ta‘minoti amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida notarius lavozimiga oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan, davlat notarial idorasida yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius huzurida kamida 1 yil muddatli amaliyotni o‘tab, malaka imtihoni topshirgan, notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan O‘zR fuqarosi tayinlanadi. Notariusning oliy yuridik ma’lumotli stajyor va yordamchisi bo‘lishi mumkin.

Tegishli davlat notarial idorasiga stajyor va yordamchini ishga qabul qilish mehnat shartnomasi asosida Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, oliy yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslar orasidan stajyorni, shuningdek, yordamchini mustaqil tarzda ishga qabul qilishga haqlidir.

Yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida 3 yillik ish stajiga ega bo‘lgan shaxslar uchun amaliyot muddati tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmasining qarori bilan kamaytirilishi mumkin. Bunday hollarda amaliyot muddati 6 oydan kam bo‘lmasligi kerak. Amaliyotdan o‘tish tartibi O‘zR Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Notariuslar davlat notarial idorasida ishlashidan yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanishidan qat‘i nazar, notarial harakatlarni amalga oshirishda teng huquqlarga va bir xil majburiyatlarga egadirlar. Notariuslar tomonidan rasmiylashdirilgan hujjatlar yuridik kuchga ega.

Amaliyotdan o‘tgan va notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya olish to‘g‘risida belgilangan tartibda ariza bergan shaxslar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari qoshida tashkil etiladigan malaka komissiyalariga imtihon topshiradilar.

Malaka komissiyasining qarori ustidan shikoyatlar ushbu komissiyaning qarori manfaatdor shaxsning qo‘liga topshirilgan kundan boshlab, bir oy ichida O‘zR Adliya vazirligi qoshidagi appellatsiya komissiyasiga beriladi.

Malaka komissiyasining imtihonidan o‘ta olmagan shaxslar ushbu komissiyaning qarori chiqqan kundan boshlab kamida bir yildan so‘ng qayta imtihon topshirishga qo‘yiladi.

Malaka va appellatsiya komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni O‘zR Adliya vazirligi tasdiqlaydi.

Notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari tomonidan malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Litsenziya berish tartibi O‘zR Adliya vazirligi tomonidan belgilab qo‘yiladi. Litsenziya berish rad etilganligi ustidan sudga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ad-

liya vazirligi, adliya boshqarmasining qarori olingan kundan boshlab, bir oy ichida shikoyat qilish mumkin.

Litsenziya olgan, lekin uch yil mobaynida notarius lavozi-mida ish boshlamagan fuqaroning malaka imtihonini qayta top-shirganidan keyingina notarius lavozimida ishlashiga yo'l qo'yildi.

Notarius:

– ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari, tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga;

– shartnomalar tuzishda vositachilik xizmati ko'rsatishga haqli emas.

Notarius o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirishda O'zR qonun hujjatlariga amal qiladi.

Notariuslarning o'z kasbiy majburiyatini bajarishi yuzasidan nazoratni Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi va adliya boshqarmalari amalga oshiradi.

Notariusning, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslarning, shuningdek, amalga oshirilayotgan notarial harakatlardan xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan xabardor bo'lib qolgan shaxslarning o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilishi, shu jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin ham oshkor qiliishi taqiqlanadi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar (hujjatlar) bu harakatlar kimning nomidan yoki kimning topshirig'i bilan amalga oshirilgan bo'lsa, shu shaxslarning o'zigagina berilishi mumkin.

Amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar (ma'lumotlar), sud, prokuraturaning, tergov organlarining talabiga binoan ular yuritayotgan ishlar munosabati bilan beriladi. Fuqarolar mulkiga o'tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma'lumotnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda soliq organiga taqdim etiladi. Vasiyatnomaga to'g'risidagi ma'lumotnomalar vasiyat qiluvchining vafotidan keyingina beriladi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlarning maxfiyligini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat notarial idoralar tarmog'i, ularning shtatlari davlat notarial idoralari uchun belgilangan shtatlar soni va ish haqi fondi doirasida o'rin lavozimlar jadvaliga rioya qilgan holda O'zR Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ikki nafar va undan ortiq notarius ishlaydigan davlat notarial idoralari notariuslaridan biri katta davlat notariusi etib tayinlanadi va uning zimmasiga ushbu notarial idoraning ma'muriytashkiliy ishlarini nazorat qilish vazifasi yuklatiladi.

Notarius lavozimi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ta'sis etiladi va tugatiladi.

Notarial okrugdag'i notariuslar lavozimining sonini O'zR Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Notariusga muayyan hududda notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatlarini berish O'zR Adliya vazirligi yoki uning topshirig'iga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi yoxud tegishli adliya boshqarmasi tomonidan litsenziyasi bo'lgan shaxslar orasidan tanlov asosida amalga oshirildi. Tanlov o'tkazish tartibini O'zR Adliya vazirligi belgilaydi.

Davlat notarial idorasida ishlayotgan notarius bilan mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius o'z xohishi bilan zimmasidagi vakolatlarni soqit qiladi yoki uning vakolatlari quyidagi hollarda sudning notarial faoliyati bilan shug'ullanish huquqlaridan mahrum qilish to'g'risidagi hal qiluv qarori asosida bekor qilinadi:

- qasddan jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan taqdirda hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng;

- qonunda belgilangan tartibda muomala layoqati cheklangan yoki muomala layoqatiga ega emas deb topilgan taqdirda;

- qonun hujjatlarini buzgan, nosog'lomligi tufayli (tibbiy xulosa bo'lsa) kasbiy majburiyatlarini bajarishining imkoniyati bo'limgan taqdirda va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda litsenziya bergen organning iltimosnomasiga binoan.

Notariusning vakolatlari bekor qilingan taqdirda, tegishli adliya organi unda saqlanayotgan hujjatlarni boshqa notariusga topshirish to'g'risida qaror chiqaradi.

Notariusning faoliyat ko'rsatish hududi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiq belgilanadi. Tumanlarga bo'lingan shaharlarda tegishli shaharning butun hududi notarial xizmat ko'rsatish hududi hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi yoki tegishli adliya boshqarmasi sodir etilish joyi qonun hujjatlarida belgilangan notarial harakatlarni bajarish yuzasidan notarius o'z vazifalarini amalga oshirishga haqli bo'lgan hududni belgilab beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi yoki tegishli adliya boshqarmasi aniq holatlarni hisobga olib, notariusning vakolatlari amal qiladigan hududni o'zgartirishi mumkin. Ko'rsatilgan hudud doirasida notariusning o'z ish joyi bo'lishi shart.

Notariusning notarial harakatni belgilangan faoliyat hududidan tashqarida amalga oshirishi bu harakatni haqiqiy emas, deb topishga asos bo'lmaydi.

Notarius mavjud bo'lмаган hududdagi vasiyat qiluvchi og'ир kasal bo'lgan hollarda vasiyatnomani tasdiqlatish uchun notarius o'zi xizmat ko'rsatadigan hududdan tashqariga chiqishga haqlidir.

«Notariat to'g'risida»gi Qonunda notariuslarning asosiy huquq va majburiyatları ko'rsatilgan.

Notarius quyidagi huquqlarga ega:

- o'ziga murojaat qilgan barcha shaxslar uchun ushbu qonunda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish, notarial harakatlarni amalga oshirish joyi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno;

- bitim va arizalarning loyihalarini tuzish, hujjatlarning nusxalarini va ulardan ko'chirmalarni tayyorlash, shuningdek, notarial harakatlarni amalga oshirilishiga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

- jismoniy va yuridik shaxslardan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar talab qilib olish.

Notarius quyidagi majburiyatlarga ega:

- jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashishi, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berishi;

– tomonlar taqdim etgan bitimlar loyihalarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishi, ushbu bitimlar mazmu-ni tomonlarning asl maqsadiga mos kelish-kelmasligini va qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirishi;

– yuridik jihatdan bexabarlik jismoniy va yuridik shaxslar zarariga foydalanimasligi uchun amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari haqida ularni ogohlantirishi;

– qonun hujjatlariga mos kelmaydigan notarial harakatlar-ni amalga oshirishni rad etishi;

– notarial harakatlarni amalga oshirish vaqtida fuqarolar yoki mansabdar shaxslar tomonidan qonunchilik buzilganligini aniqlagan taqdirda, zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokuraturaga bu haqda xabar qilishi shart.

Davlat notarial idorasida ishlovchi yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius qonun hujjatlariga zid xatti-harakatlar sodir etsa, belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius amalga oshirilgan notarial harakat haqidagi ma’lumotlarni qasddan oshkor qilgan bo‘lsa yoki qonun hujjatlariga zid notarial harakatlarni amalga oshirgan bo‘lsa, buning oqibatida yetka-zilgan ziyonni sud qaroriga binoan qoplashi shart.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius o‘z faoli-yatini sug‘urta qilish to‘g‘risida shartnomada tuzishi shart. Notarius sug‘urta shartnomasini tuzmasdan o‘z majburiyatlarini bajarishga haqli emas.

Davlat notarial idorasida ishlovchi notarial harakatlarni amalga oshirganlik hamda hujjatlardan nusxa berganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan stavkalar bo‘yicha davlat boji undiriladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida notarial shaklda bo‘lishi majburiy qilib qo‘yilgan harakatlarni bajarganlik uchun xuddi shu harakatlarni davlat notarial idoralarida bajarganlik uchun olinishi nazarda tutilgan davlat boji miqdorlarga muvofiq tariflar bo‘yicha haq undiriladi.

Davlat boji haqidagi qonun hujjatlarida jismoniy va yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar ham, xususiy amaliyot bilan

shug'ullanuvchi notariuslar ham notarial harakatlarni bajarganlarida, hujjatlar loyihalarini tuzganlarida, hujjatlarning nusxalarini berganda va boshqa texnik ishlarni bajarganlarida mazkur shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Notarius notarial harakatni bajarishi uchun o'z ish joyidan tashqariga chiqqanida manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar, uning amaldagi transport xarajatlarini qoplaydilar. Notariusga murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslar bilan notarius o'rtasidagi kelishuvga muvofiq notariuslar tomonidan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilganligi uchun haq undirilishi mumkin.

Davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) bitimlarni tasdiqlaydi;
- 2) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 3) er-xotinning umumiy mulkidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar beradi;
- 4) mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazishni ta'qiqlab qo'yadi yoki taqiqni bekor qiladi;
- 5) meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;
- 6) meros huquqi to'g'risida guvohnomalar beradi;
- 7) hujjatlar nusxalarining va hujjatlarda olingan ko'chirmalarning to'g'riliqini shahodatlaydi;
- 8) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qiliniganligini shahodatlaydi;
- 9) hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi;
- 10) ko'chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
- 11) fuqaroning tirik ekanlik faktini tasdiqlaydi;
- 12) fuqaroning muayyan joyda ekanlik faktini tasdiqlaydi;
- 13) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;
- 14) hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;
- 15) jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga topshiradi;
- 16) pul so'mmalari va qimmatli qog'ozlarni depo'zitga qabul qilib oladi;
- 17) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;

- 18) pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi;
- 19) ijro xatlarini yozadi;
- 20) veksellarning protestlari amalga oshiriladi;
- 21) dengiz protestlarini amalga oshiradi;
- 22) notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reyestrlardan ko'chirmalarni beradi.

Qonunda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni amalga oshiradi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar notariat to'g'risidagi qonunning 23-moddasida nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshiradi, mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilish, merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berish va meros mol-mulkni qo'riqlash chora-tadbirlarini ko'rish bundan mustasno.

Aholi punktida notarius mavjud bo'lмаган тақдирда, шахарчалар, қишлоqlар ва овуллар fuqarolar yig'inlarining raislari (Oqsoqollari) quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 2) ishonchnomalarni tasdiqlaydi, avtotransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;
- 3) meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;
- 4) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydi, ma'lumot haqidagi hujjat nusxalari bundan mustasno;
- 5) hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (Oqsoqollari) qonunda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Notariat

Davlat notarial idorasida ishlovchi notariuslar	Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar
Qishloq, ovul va posyolkalar fuqarolar yig'ini raisi (Oqsoqli)	O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining notarial harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo'lган mansab-

* O'zbekiston Respublikasida Notariat yuridik va jismoniy shaxslarning qonunda belgilangan notarial harakatlarni amalga oshirish bilan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organdir.

* Notarius lavozimiga oliv yuridik ma'lumotli, davlat notariusi yoki xususiy notariatda kamida bir yil amaliyot o'tagan, malaka imtihonini topshirgan, notarial faoliyat bilan shug'ullanishga litsenziya olgan O'zbekiston Respublikasi fu-qarosi ega bo'lishi mumkin.

* Notarial faoliyati bilan shug'ullanish litsenziyasini Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining malaka hay'ati qarori asosida beriladi.

* Notarius o'z faoliyatini amalga oshirishida mustaqil hisoblanib, faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlariga bo'y sunadi.

Qonun manbalari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. -T.: O'zbekiston, 2003.

2. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi 2.10.1993-yil Qonuni, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri. 2000-yil 14-dekabr. (O'zbekiston Respublikasi qonuni №162-II, V bo'lim №320-II, 07.12.2001. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi №10, 1993, 367-m; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi №9, 1995, 193-m, №2, 1996, 56-m).

3. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.2001-y. № 258-II. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2001-y. № 9-10. st. 169.

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Nizomi. 27.08.2003. O'zR.si hukumat qarorlari to'plami.

5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-avgustdagli PQ-458

sonli Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil. 36-son, 360-modda.

6. Vazirlar Mahkamasining 383 22-sentabr 2001. «O'zbekiston Respublikasi sudsulari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to 'g'risida» (30.04.2003da o'zgartirilgan).

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-237 13.12.2005 «Normativ huquqiy aktlarni amalga oshirish ustidan monitoring Markazini tashkil etish to 'g'risida»gi qarori.

8. «Sudyalar malaka hay'ati to 'g'risida»gi Nizom. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 323-sonli qarori bilan tasdiqlangan). 2001-yil 7-dekabr.

9. «Sudyalar malaka darajalari to 'g'risida»gi Nizom. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 164-II) 2000-yil 14-dekabr.

10. «Sud xodimlarining unvon darajalari to 'g'risida»gi Nizom. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 164-II) 2000-yil 14-dekabr.

11. «Sud hujjatlarini va boshqa organ hujjatlarini ijro etish to 'g'risida»gi 29.08.2001. 258-II. O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi «Sud qarorlari ijrosini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta'minlash departamenti to 'g'risida»gi Nizom 383 22-sentabr 2002-yil.

Maxsus adabiyotlar

1. Абдусаломов М. Становление и развитие органов юстиции Узбекистана. – Т.: Адолат, 1996.

2. «Правоохранительные органы», учебник для вузов / Под. ред. профессора К.Ф. Гуценко 3-е издание дополненное и переработанное. – М.: Зерцало, 1997.

3. O'zbekiston Respublikasida Sud islohotlarini yanada rivojlantirish Dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Bulletin, №3-4, 1996.

4. Савицкий В.М. «Организация судебной власти в Российской Федерации», Учебное пособие для вузов. – М.: БЕК, 1996.

5. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. «Юридическая энциклопедия» (Под. ред М.Ю. Тихомирова). – М.: 1997.

6. O'zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar davri. Hammualliflikda. -T.: Adolat, 2002.

Nazorat savollari

1. Sudlar faoliyatining tashkiliy va moddiy-texnik ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
2. Sudlar faoliyatining tashkiliy, moddiy-texnik ta'minotining ahamiyati nimada? Uni qaysi organlar amalga oshiradi?
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi qanday?
4. Adliya vazirligining markaziy apparati tuzilishi qanday?
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
6. Departamentning asosiy vazifasi nima? Uning tuzilishi qanday?
7. Departamentning hududiy bo'linmalarining tuzilishi va asosiy vazifalari.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash va tavsiya etish Oliy malaka komissiyasi vakolatlarini sanang.
9. O'zbekistonda Adliya organlarining asosiy shakllanish bosqichlarini sanang.
10. Notariatning vazifasi nimadan iborat?
11. Kim notarius bo'la oladi?
12. Notariatning funksiyalari nimalardan iborat?
13. Notarius bo'lмаган аholi joylarida uning о'rнига kim notarial harakatlarni amalga oshiradi?

XII mavzu. PROKURATURA VA PROKUROR NAZORATI

12.1. Prokuror nazorati, uning vazifalari. Prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Prokuratora to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradilar. Prokuratura ushbu vazifani bajaruvchi mamlakatdagi yagona davlat organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilish-dan iborat («Prokuratora to‘g‘risida»gi qonunning 2-moddasi).

Prokuror nazorati deganda davlat nomidan maxsus vakolatga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar – prokurorlar tomonidan qonun buzilish hollarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf qilish, aybdor shaxslarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bilan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyati tushunilishi lozim.

Prokuror nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari:

1) mavjud bo‘lgan barcha qonunlarning fuqarolar va tashkilotlar tomonidan ularning faoliyat doirasidan qat’i nazar aniq va to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlash;

2) prokuror nazorati – prokuratura faoliyatining bir yo‘nalishi;

3) prokuror nazorati oliy qonun chiqaruvchi va ijro organlariga, O‘zbekiston Respublikasi oliy mansabdor shaxslariga, umumiy yurisdiksiya sudlariga, xo‘jalik sudlariga va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga nisbatan tatlbiq etilmasligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining, uning idoralarining roli va ahamiyati favqulodda keng va yuqoridir; prokuraturaning nazorat faoliyati davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini o'z ichiga oladi. Uning samarali va maqsadga muvofiq olib boradigan faoliyatiga ko'pincha fuqarolarning sog'ligi, hayoti, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilotlarning, davlat va jamiyat hayotining boshqa subyektlarining tinchligi va xavfsizligi, jamoat tartibi, ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar bevosita bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun prokuraturaning maqomi, uning rivojlanishi va takomillashishi – juda dolzarb, murakkab va ko'p qirrali muammo hisoblanib, uning tomonidan hozirgi iqtisodiyotimizning real imkoniyatlardan kelib chiqib, jamiyatimiz va huquqiy tizimimizni haqiqiy ehtiyojlarini hamda milliy-huquqiy odatlarimizni hisobga olgan, orttirgan tajribalarimizga tayangan holda hal qilinishi lozimligini taqozo etadi.

Hozirgi zamон bosqichida O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining maqomi, uning vazifalari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari, prokurorlarning tayinlanish tartibi va tizimi 29-avgust 2001-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi. «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi prokururasi O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori rahbarlik qiladigan O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir.

Prokuratura idoralari o'z faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boradilar:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;

– tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

– jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov olib borish;

– sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirot etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

– soliq intizomini mustahkamlashga, soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbazarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

– ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirining boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

– qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirot etish.

Nazariyada prokuratura faoliyatining yo'nalishlarini prokuror nazorati tarmoqlari deb ajratish qabul qilingan. Prokuror nazoratining tarmoqlari deb ayni tarmoqning o'ziga xos predmeti va prokuror vakolatini o'zida aks ettiruvchi alohida mustaqil bir qismi e'tirof etiladi¹.

«Prokuratura to'g'risida»gi qonun prokuratura faoliyatining butun yo'nalishlarini to'rtta prokurorlik nazorati tarmog'iga ajratadi:

1. Qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

2. Fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya qilinishi ustidan nazorat.

3. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi idoralar tomonidan qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat.

4. Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirining boshqa

¹ Qarang: Гуценко К.Ф., Ковалев М.А. Правоохранительные органы. Yuridik oliv o'quv yurtlari va fakul'tetlari uchun darslik. 6-nashr./K.F. Gusenkoning tahriri ostida.–М.: ЗЕРЦАЛО–М, 2001.–B.288-294.

choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga riosa etilishi ustidan nazorat qilish.

Prokuror nazorati tarmoqlaridan tashqari, prokuratura faoliyatining boshqa yo'nalishlari ham ajratib beriladi:

- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergovni olib borish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishtirot etish.

Bundan tashqari qonunshunos, prokuratura faoliyatining sudlarda jinoyat ishlarini ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovi quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirot etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish kabi muhim yo'nalishini ham belgilab bergen. Prokuratura faoliyatining yangi yo'nalishi qilib, soliq intizomini mustahkamlashga, soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbazarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetka-zilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilishni belgilab berdi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish prokuratura faoliyatining eng birinchi hamda juda ham keng tarmog'i hisoblanadi. Nazariyada bu tarmoq umumiyligi nazorat deb ham ataladi, uning bunday nomlanishi esa tarixiy asosga ega. Ushbu termindan O'zbekiston Respublikasining 1992-yildagi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida ham foydalanilgan.

Ammo 2001-yil 29-avgust kuni yangi tahrirda qabul qilin-gan O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida «umumiyligi nazorat» terminidan foydalanilmagan. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan huj-

jatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi. (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuning 20-moddasi).

Qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'riliшини талаб qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi. Xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatga prokuroring bevosita aralashishiga, shuningdek, idoraviy boshqaruva va tekshiruv organlarining vazifalarini bajarishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuning 23-moddasi). Prokurorlik nazoratining ushbu tarmog'ida prokurorlar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun ularga zarur bo'lgan vakolatlar berilgan.

Prokurorga u o'zi noqonuniy va asoslantirilmagan deb hisoblagan qarorni to'g'ridan-to'g'ri bekor qilish yoxud o'zgartirish huquqi bcilmagan. Prokurorga berilgan vakolatlar qonun buzilish hollarini o'z vaqtida aniqlash, aniqlangan qonun buzilish hollariga nisbatan ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning e'tiborini jalb etish, huquqbuzarlarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish va huquqbuzarliklarni keltirib chiqargan sabab hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish imkonini beradi. Ushbu sohadagi prokuroring vakolatlari asosan O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuning 22-moddasida shakllantirilgan.

Ammo shuni qayd etib o'tish lozimki, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda prokurorga yetib kelgan qonuniylikning buzilishlari haqidagi ma'lumotlar va yo'l qo'yilgan qonun buzilishi haqidagi xabarga asosan tekshirishlar o'tkazishi mumkinligiga oid prokuror faoliyatiga bog'liq vakolatlar shakllantirilgan xolos. Shuning bilan birga prokuror tekshirishgacha va tekshirishdan keyin foydalanadigan qator boshqa bir qancha vakolatlarga ham egadir. Uning bu vakolatlari huquqning boshqa manbalari bilan, xususan, – jinoyat protsessual, mehnat, jinoyat ijroiya, ma'muriy huquq hamda O'zbekiston Respublikasi

Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa aktlari bilan asoslantirilgan.

Prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalgalashish jarayonida o‘z vakolatlari doirasida:

– vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralarining, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, harbiy qismlarning hududi va xonalariga moneliksiz kirishga, hujjatlar va materiallarni ko‘rishga;

– tekshirishlar o‘tkazishga, tekshirish uchun qarorlar, far-moyishlar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni, qonuniylikning holati to‘g‘risidagi va uni ta’minlashga doir chora-tadbirlar haqidagi ma’lumotlarni talab qilishga;

– davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdar shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o‘tkazishni, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o‘tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

– mansabdar shaxslar va fuqarolardan qonun buzilishi xususida og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir.

Qonun buzilishi aniqlangan taqdirda prokuror Qonunda va qonunchilikning boshqa hujjatlarida belgilangan choralar ni ko‘rishga majburdir.

Prokurorning tekshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy va boshqa hujjatlarni taqdim etilishi haqidagi, prokuraturaga Qonun buzilish holati yuzasidan tushuntirish berishga kelishi haqidagi talablarini ijro etish barcha organlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi. Tekshirish, taftish prokuror tomonidan o‘rnatilgan muddatda ishning nati-jalarini prokurorga majburiy ma’lum qilish sharti bilan amalgalashishmog‘il lozim.

29-avgust 2001-yilda qabul qilingan «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonun (yangi tahriri)da birinchi bor «Fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioxalashish ustidan nazorat» deb nomlanuvchi prokuror nazorati tarmog‘i o‘z aksini topdi. Ushbu tarmoq bo‘yicha prokuror nazorati predmeti vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqa-

tish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari ning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi hisoblanadi.

Ushbu tarmoq bo'yicha ham prokuror nazoratining o'ziga xos vazifalari mavjud. Prokuror o'z zimmasiga yuklangan vazifani bajara borib, fuqaroning huquq va erkinliklari buzilgанинги тоғ'рисидаги аризалар, шикоятлар hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi; arizachilarga ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi; fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi; O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuning 22-moddasida nazarda tutilgan vakolatlardan foydalanadi.

Fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishini jinoi-xususiyatga ega deb bilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda prokuror jinoyat ishi qo'zg'atadi hamda uni sodir etган shaxslar qonunga binoan jinoiy javobgarlikka tortilishiga doir choralarни ko'radi. Fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishi ma'muriy huquqbazarlik xususiyatiga ega bo'lgan hollarda prokuror ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida ish qo'zg'atadi yoki zudlik bilan huquqbazarlik to'g'risidagi ma'lumotni va tekshiruv materiallarini ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga beradi.

Prokurorning ushbu sohadagi vakolatlari jinoyat protsessual qonunchiligi bilan (382-388-m.m.), «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun (28-m.) va boshqa huquqiy hujjalarni bilan tartibga solingen. JPKning 382-moddasiga muvofiq, prokuror surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni olib borar ekan quyidagi vakolatlarga ega bo'ladi: sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tek-

shiradi; surishtiruvchilar va tergovchilarning qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi; jinoyatchilarni tergov qilish, ehtiyyot chorasi tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to'g'risida yozma ko'rsatmalar beradi; tergov yuritish va ehtiyyot chorasi sifatida qo'llanilgan qamoqda saqlash muddatini uzaytiradi; ishlarni surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalar bilan qaytaradi.

Prokuror surishtiruv organlariga shaxslarni ushlab, majburiy keltirish, qamoqqa olish, qidirish, tintuv o'tkazish, olib qo'yish, boshqa tergov harakatlarini bajarish to'g'risidagi qarorlarni ijro etishni topshiradi, shuningdek, prokuror yoki prokuratura tergovchisi qo'lidagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralar ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar beradi.

Prokurorga surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtirok etish hamda zarur hollarda har qanday ish bo'yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajarish yoki tergovni to'liq amalga oshirish huquqi berilgan. Jinoyat protsessual kodeksi bundan tashqari prokurorga tintuv o'tkazishga, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va ularni olib qo'yishga, telefonlar va boshqa so'zlashuvlarni eshitib turishga, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirishga va qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruv organi hamda tergovchining boshqa harakatlariga ruxsat berish vakolatini belgilab bergen¹.

Sud-huquq tizimining kelgusidagi liberalizatsiyasining muhim vazifalaridan bo'lib, sudlarning sudgacha bo'lgan bosqichlarda fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilishlari vakolatlarini kengaytirish, va avvalo, qamoqqa olishga sanksi-

¹ Bizning fikrimizcha, bu vakolatlar sudga tegishli bo'lishi kerak. Shaxs daxlsizligi, turar-joy daxlsizligi, yozishmalar va telefon qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarning sir saqlanishi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga kiradi. Konstitutsiyaning 19-moddasiga muvofiq Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

yə berish huquqini prokuratura organlaridan sndlarga o'tkazish hisoblanadi. Bu choralar fuqarolarning erkinliklari va shaxsiy daxlsizliklari bo'yicha konstitutsion huquqlari samarali hin:çya qilinishining ancha ko'tarilishiga imkon beradi. Buning bilan u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro huquqning umumiye'tirof etgan tamoyillari va normalariga to'la mos kelib, shaxsning huquq va erkinliklari muqaddas ekanligini va ularni hech kim sudning rozilisiz mahrum etish yoki chegaralashiga huquqi yo'qligini namoyon etadi. Prokuratura ning bir qator vakolatlarini sndlarga o'tkazish davrning mantiqiy talabidir... Boshqa demokratik davlatlardagidek, bizda ham ushlab turish, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sndlarga o'tkazish kerak¹.

Sud-huquq tizimini kelgusida liberallashtirish maqsadida, insonlarning konstitutsion huquq va erkinliklarini chegaralash bilan bog'liq protsessual majburlov choralarini ko'rish, sanksiya berish huquqini sndlarga bosqichma-bosqich va davomiy berilishini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolarning sud himoyasi huquqlarini belgilovchi 19, 25 va 44-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagagi «Sndlarga qamoqqa olish haqidagi sanksiya berish huquqini berish haqidagi» 3644-sonli Farmoniga ko'ra quyidagilar belgilangan:

– 2008-yil 1-yanvardan boshlab, jinoyat sodir etganlikda gumanlanayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sndlар vakolatiga o'tkazish;

– qamoqqa olish boshqa ehtiyyot choralari samara bermagan hollardagina faqat qonun bo'yicha amalga oshirilishi va faqat jinoyat ishlari yoki harbiy sndlarning vakolatlariga ko'ra amalga oshirilishi belgilab berilgan².

Prokurorning surishtiruv va dastlabki tergov organlariga tergovga qadar tekshirish o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq ko'rsatmalarini ana shu organlar uchun majburiydir.

¹ Каримов И.А. Узбекский народ никогда ни от кого не будет зависеть. Т.13. – Т.: «O'zbekiston», 2005. – В. 94.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sndlarga o'tkazish to'g'risida»gi 2005-yil 8-avgust Farmoni. Xalq so'zi, avgust, 2005.

Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonuhlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish prokurorlik nazoratining to'rtinchi tarmog'i hisoblanadi. Uning predmeti bo'lib, ushlab turilganlarni (vaqtincha ushlab turish joylari), qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni (koloniyalar, turmalar va boshqalar) va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi muassasalarda shaxslar saqlanishining qonuniyligi hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish joylarida prokuror jinoyat-ijroiya qonunchiligi bilan belgilangan shaxslarni yuqorida qayd etilgan muassasalarda saqlash sharoiti va tartibi ustidan nazorat qiladi.

→ *Quyidagi sohada prokurorga keng vakolatlar berilgan:* ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylariga, qamoqqa olish, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish muassasalariga, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etuvchi muassasalarga va voyaga yetmaganlarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga moneliksiz va istalgan vaqtda hamma xonalar bilan tanishish sharti bilan kirishga, shaxslarga nisbatan ushlab turish, qamoqqa olish, shuningdek, jinoiy jazo yoki jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanishiga asos bo'lgan hujjatlar bilan tanishishga haqli.

Prokuror ushlab turish, qamoqda saqlash joylarida, qamoqqa olish, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish muassasalarida, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etuvchi muassasalarda, voyaga yetmaganlarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida noqonuniy saqlab turilgan shaxslarni darhol ozod qilishi lozim.

Prokurorga ushlab turish, qamoqda saqlash, jinoiy jazo va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi idora va muassasa ma'muriyatidan ushlanganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlar, jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini qo'llanilgan shaxslarning huquqlarini ta'minlovchi sharoitlarini yaratishni talab qilish huquqi berilgan. Ushlab turish, qamoqda saqlash jazoni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi organlar hamda muassasalar ma'muriyatları (IVS, SIZO, koloniyalar, turmalar va boshqa

shunday muassasalar)ning buyruqlari, farmoyishlari va qarorlari, tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunga tuyufiqligini tekshirishga haqlidir.

Qamoqda saqlanayotgan, qamoq jazosiga, intizomiy qismiga jo‘natishga, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan intizomiy jazo choralari qonunga nomuvofiqligi prokuror tomonidan aniqlansa, bu choralarni prokuror bekor qilishga va o‘z qarori bilan bunday shaxslarni intizomiy bo‘linmalardan darhol ozod qilishga vakolatlidir.

Prokuror ushlab turilgan, qamoqqa olingen, ozodlikdan mahrum etilgan hamda jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralariga tortilgan shaxslarning jazoni ijro etuvchi organ yoki muassasa ma’muriyatiga, boshqa davlat organlariga, jamoat birlashmalariga, mansabdar shaxslarga shikoyat hamda arizalar bilan murojaat qilish huquqlari to‘g‘risidagi qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Prokuror o‘ziga tushgan shikoyat yoki arizani belgilangan muddatda ko‘rib chiqishi, zarur chora-tadbirlar ko‘rishi hamda o‘z qarori to‘g‘risida arizachiga ma’lum qilishi shart. (O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 31-moddasi). Hokimiyatning taqsimlanishi hayotga bosqichma-bosqich tatbiq etilishi munosabati bilan, shuningdek, sud hokimiyatini amalga oshiruvchi organlarning o‘z faoliyatidagi mustaqilligi ularning boshqa hech qanday davlat organlari nazoratida emasliklari oqibatida prokurorning nazorat faoliyati ushbu sohada o‘z ahamiyatini yo‘qotdi va prokuratura faoliyatining sudlarda ishlarning ko‘rilishida ishtirok etishi tariqasidagi maxsus yo‘nalishi deb e’tirof etila boshladi.

Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo‘li bilan samarali himoya qilinishini ta‘minlash maqsadida barcha instansiya sulalida ishlar ko‘rilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi. Prokuror o‘zining suddagi ishtiroki bilan sud tomonidan qonuniy va asoslangan hukm yoki hal qiluv qarorining qabul qilinishiga, sud muhokamasi ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlari ta‘minlanishiga ko‘maklashadi, ushbu vazifani esa tortishuvchilik tamoyiliga asosan amalga oshiradi.

Prokuror sud protsessining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalanib, sudyalarning mustaqilligi hamda protsessual qonun hujjatlari normalariga qat’iy rioya etish prinsipiiga amal qilishi shart. Ishlar sudlarda ko‘rilayotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanadi (O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 33-moddasi). O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 46-moddasiga muvofiq, prokuror boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Shuningdek, prokuror boshqa shaxslarning tashabbusiga ko‘ra qo‘zg‘atilgan ishlar bo‘yicha ham sud muhokamasining boshidan boshlab qatnashish huquqiga ega.

Fuqarolik ishlarining sud muhokamasida ko‘rilishida prokurorning ishtiroki uning qatnashishi majburiyligini qonun nazarda tutgan hollarda yoki prokuror ishtirokini sud zarur deb topgan hollarda, shuningdek, prokurorning arizasiga binoan qo‘zg‘atilgan ishlar bo‘yicha shart hisoblanadi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud muhokamasida ishtirok etayotgan prokuror quyidagi qator vakolatlarga ega bo‘ladi:

– ish materiallari bilan tanishishga, rad etishga, dalillar taqdim etishga, dalillarni tekshirishda ishtirok etishga, ariza bilan murojaat qilishga, sud muhokamasida paydo bo‘lgan barcha masalalar yuzasidan o‘z fikrini bayon qilishga, boshqa shaxslarning ariza, iltimosnomalariga nisbatan e’tiroz bildirishga. Shuningdek, prokuror qilingan arizaning bir qismidan yoki to‘liqligicha voz kechishga, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan qilgan talabnomalariga nisbatan sudga tushuntirish berishga haqli, har bir ish yuzasidan og‘zaki va yozma ravishda ishning mazmuni hamda sud muhokamasi mobaynida paydo bo‘ladigan alohida masalalar bo‘yicha xulosalar beradi, sudning qarori, ajrimi va hal qiluv qarorlariga nisbatan protest keltiradi.

Jinoyat protsessida prokuror sudda davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etadi. Prokuror sud muhokamasida ishtirok etar ekan, paydo bo‘lgan barcha masalalarning sud tomonidan yechilishiga, sud tergovining to‘la, har tomonlama va xolisona olib borilishiga yordam beradi, natijada qonuniy, asoslangan

va adolatli hukm qilinishiga ko'maklashadi. Prokuror aynan shu maqsadda sud tergovida dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, sudlanuvchilarga, jabrlanuvchilarga, guvohlarga, ekspertiarga va sud ga taklif qilingan boshqa shaxslarga savolar beradi, qo'llanishi kerak bo'lgan Jinoyat kodeksining normasi haqidagi o'zining fikrini beradi, sudlanuvchining harakatlarini kvalifikatsiya qilish, unga jazo turi va miqdorini belgilash va sud tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan o'z fikrini bildiradi, jinoyatning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari haqidagi hamda ularni bartaraf qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi fikrlarini bayon qiladi.

Prokuror jinoyat ishlari bo'yicha sud muzokaralarida ishtirok etib, o'z ayblov nutqida tekshirilgan dalillarni tahlil qilib beradi, sud maslahatxonada hukm qilish uchun hal qilishi lozim bo'lgan va muhokama qiladigan masalalar bo'yicha o'z takliflarini bildiradi. Prokuror sudda davlat ayblovini quvvatlar ekan, yuqori kasbiy va nazariy malakaga ega bo'lmos'i lozim. Bu vazifani bajarish uchun u nafaqat qonunchilik sohasida bilimlarga ega bo'lishi, ritorika asoslarini, notiqlik san'ati uslub va shakllarini ham yaxshi egallagan bo'lishi, keng dunyo-qarashga va ma'lum bir hayotiy tajribaga ham ega bo'lishi lozim. Sudda ishtirok etayotgan prokurorning mustaqilligi va xolisligi prokurorning davlat ayblovini quvvatlashdan voz kechishi mumkinligini qonun bilan belgilanganligida ifodalanadi (O'zR JPKning 409-moddasi).

Sud tomonidan hukm chiqarilganidan so'ng, agarda sud tomonidan xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, prokuror qonunda belgilangan tartibda ushbu xatoni to'g'rilash chorasini ko'rishi lozim. Buning uchun prokurorga, sud hukmining qonuniy kuchga kirgan-kirmaganligidan qat'i nazar, hukmga nisbatan protest kiritish vakolati berilgan. Bundan tashqari, prokuror hukmni o'z vaqtida ijroga qaratilganligini ham tekshirishi lozim.

Agarda, sud tomonidan chiqarilgan qaror, ajrim, hukm yoki hal qiluv qarorining noqonuniyligini yoxud asoslantirilmaganligini prokuror aniqlasa, ushbu g'ayriqonuniy hujjatga nisbatan protest keltiradi («Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasi). Prokurorning protesti – juda muhim bo'lgan protsessual hujjatdir. Prokuror tomonidan o'z vaqtida protest kel-

tirilishi natijasida qonunsiz va asoslantirilmagan sud qarori, hukmi, ajimi, hal qiluv qarorini qonuniy kuchga kirmasligi ta'minlanadi, shuningdek, sud amaliyotida qonunlarning bir xilda qo'llanilishiga ko'maklashadi.

Sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajimi va qaroriga nisbatan keltirilgan appellatsiya, kassatsiya, xususiy va nazorat tartibida-gi protest ishni sudda ko'rish boshlangunga qadar protest keltirgan prokuror tomonidan, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror tomonidan o'zgartirilishi, to'ldirilishi yoki chaqirib olinishi mumkin. Va nihoyat, prokurorlik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri – huquqni muhofaza qiluvchi organlar ning jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu yo'nalish to'g'ridan-to'g'ri jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish zaruriyati bilan bevosita bog'liqidir. Prokuratura organlari huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan birgalikda jinoyatchilikning ahvoli, sabablari, zamonaviy dinamikasini o'rganadilar, jinoyatlarni ochish va oldini olish bo'yicha birgalikdagi tadbirlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

Qonun buzilishining darajasi (xarakteri)ga qarab, prokuror tegishli prokuror nazorati hujjatini qabul qiladi. Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlaridir. Qonunga zid bo'lган hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi. Protest kelib tushgan vaqtdan boshlab o'n kunlik muddatdan kechiktirmay ko'rib chiqilishi shart. Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqli. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Protest shu hujjatni qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) yoki yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan rad etilganda, shuningdek, protest qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqdirda, prokuror ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli. Sudga ariza protest rad etilganligi

to‘g‘risidagi xabar olingan paytdan boshlab yoki protestni ko‘rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o‘tganidan keyin bir oylik muddat ichida berilishi mumkin. Prokuror tomonidan sudga ariza berilishi protest keltirilgan hujjatning amal qilishi ni ariza sudda ko‘rib chiqilganga qadar to‘xtatib qo‘yadi.

Prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi, ma‘muriy yoki intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atish haqidagi qaror chiqaradi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi.

Ma‘muriy yoki intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko‘rib chiqilishi shart. Uni ko‘rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinadi. Prokuror o‘z faoliyati mobaynida qonun buzilish hollar, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlasa, ushbu qonun buzilish hollarini bartaraf etish vakolatiga ega bo‘lgan organ yoki mansabdor shaxs nomiga taqdimnomha kiritadi.

Taqdimnomha darhol ko‘rib chiqilishi va ko‘rilgan choratadbirlar to‘g‘risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinishi lozim. Taqdimnomha kollegial organ tomonidan ko‘rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma’lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Prokurorning arizasi qonun hujjatlarda nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Prokurorning arizasidan davlat boji olinmaydi.

Ogohlantiruv muhim prokuror nazorati hujjati hisoblanadi. Prokuror fuqarolarning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lganda g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma’lumotlar mavjud bo‘lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning bu-

zilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi. Oghlantiruv to'g'risida prokuror yuqori turuvchi organa (mansabdor shaxsga), shuningdek, ogohlantiruv e'lon qilingan shaxsning ish, o'qish joyi bo'yicha ish beruvchiga (ma'muriyatga) yoki yashash joyidagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishga haqli.

12.2. Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy tamoyillari

Tamoyillar ma'lum bir nazariyaning, fanning, dunyoqarashning, siyosiy tashkilotning dastlabki ibtidosini o'zida aks ettiradi. «Prinsip» so'zi lotinchada «principium», «asos», «asosida yotuvchi holat» degan ma'nolarni anglatadi.

Prokuraturaning tashkil topishi va faoliyatiga nisbatan qo'llanilganda – bu «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlangan prokuraturaning davlatda va siyosatdagi ahamiyatini o'zida aks ettiruvchi asosiy talablardan iboratdir. Bu asosiy talablar prokurorlarning vazifalarini, vakolatlarini, shuningdek, davlatda qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan huquqiy vositalar va uslublarning mazmunini o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari, prokuratura idoralarini boshqa davlat organlari, hatto boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan qaysi sifatlari va belgilari ko'ra farqlanishini o'zida ifoda etadi¹.

Qonunshunos tomonidan belgilangan prinsiplarga prokuratura tomonidan rioya qilinishi unga o'z oldiga qo'yilgan davlatdagi qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlashni nazorat qilishdek vazifani muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirishiga imkon beradi. Prokuror nazorati prinsiplariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyalarida o'z aksini topgan prokuratura holatini belgilab beruvchi, qonun buzilish holati kim tomonidan

¹Qarang: Басков В.И. Курс прокурорского надзора. Normativ aktlar ilova qilingan holda yuridik oliy o'quv yurtlari va fakultetlari uchun darslik. – М.: ЗЕРЦАЛО, 1999, –В. 68.

sodir etilishidan qat'i nazar, unga o'ziga yuklatilgan vazifalar ni muvaffaqiyatlì amalga oshirishi uchun berilgan mustaqil davlat organi maqomidan foydalanishi mustahkamlanganligini kiritsak bo'ladi.

Prinsiplarni, prokuror tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish tartibi va sharoitlarini aralashtirib yubormaslik kerak. Prokurorlar tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish, prokuratura faoliyatini tashkil etish va faoliyat prinsiplariga nisbatan doimo bo'y sunuvchan xarakterni o'zida ifoda etadi. Qonunda mustahkamlangan prokuratura organlarini tashkil etishning va ular faoliyatining prinsiplari bevosita bir-biriga bog'liq hamda o'zaro ajralmas hisoblanadi. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, balki, ularni kompleks birlgilikda tushunish va hayotga tatbiq etish natijasidagina prokuror o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlatning boshqa qonunlarida ko'rsatilgan talablariga moslab amalga oshira oladi. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuning 5-moddasi talablariga ko'ra, prokuratura organlari faoliyati qonunda mustahkamlangan prinsiplarga qurilgan bo'lib, bu prinsiplar quydagilardir: birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoraliq.

→ Prokuratura organlarining birlik va markazlashganlik prinsipi prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etishi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'y sunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishini bildiradi. Ushbu prinsip barcha pog'ona prokurolarining oldida turgan vazifa va maqsadlar bir ekanligini bildiradi. Bu prinsip yana qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi borasidagi faoliyat shakli hamda uslublarini, aniqlangan qonun buzilish hollariga nisbatan prokurorlik ta'sir choralarini qo'llashni, qonun buzilishining oldini olish choralarining bir xilda amalga oshirilishini bildiradi. Birlik va markazlashganlik prinsipiiga asosan yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan, protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir,

shuningdek, u o‘z bo‘ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to‘g‘ri tashkil etilishi uchun to‘liq javobgardir.

Qonuniylik prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida belgilangan. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining so‘zsiz ustuvorligi tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq harakat qiladilar. Prokuratura organlari o‘zlariga yuklatilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasini va O‘zbekiston Respublikasida amal qiladigan boshqa qonuniy hujjatlar, xalqaro shartnomalar (bitimlar)ga asosan amalga oshiradilar. Qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishidan har qanday chekinish, bu chekinish qanday asoslarda yuz berganligidan qat‘i nazar, qonun buzilishi hisoblanadi va belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Mustaqillik prinsipi shuni bildiradiki, prokuratura organlari o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdar shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish ta‘qil qilinadi. Prokuorning g‘ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo‘lmasin biron-bir ta’sir ko‘rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to‘sinqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek, prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma’lumotlarini oshkor etish, prokuorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Prokuratura organlarining xodimlari o‘z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a’zolikni to‘xtatib turadilar. Ushbu huquqiy holatning belgilanishi prokurorga o‘zining qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat faoliyatini amalga oshirishida siyosiy partiyalar va boshqa organlardan mustaqilligini ta‘minlaydi, partiya organlari oldida muntazam ravishda hisobot berish va ulardan rahbariy ko‘rsatmalar olishdan ozod qiladi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonun bilan prokuratura idoralari faoliyatini va tashkil etilishini siyosatdan xoli qilinishi o‘zini to‘liq oqlaydi.

Prokuratura organlari xodimlari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, o‘qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishlardan bo‘sh vaqtida shug‘ullanishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 43-moddasi). Bu cheklov prokurorlarning o‘zlari qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishini nazorat qilayotgan korxona, muassasa va tashkilotlar bilan mehnat munosabatlariiga kirishishmasliklari uchun belgilangan. Boshqa tomondan, prokurorlarning va tergovchilarining ilmiy ishlarda ishtiroy etishi, ayniqsa bo‘lg‘usi prokuror va tergovchilarни tayyorlash bo‘yicha ilmiy ishlarda qatnashishi rag‘batlantiriladi. Barchaga ma’lumki, amaliyotni nazariya bilan bog‘lagan holda qonunlarni qo‘llash huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun mutaxassislar tayyorlash sifatining yuqoriga ko‘tarilishiga yordam beradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo‘lgan hollarda esa fuqarolarining o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida har yili axborot beradilar. Prokuratura organlari ham boshqa huquqni muhofaza qilish organlari kabi o‘z faoliyatlarini jamiyatdan ajragan holda amalga oshira olmaydilar. Prokurorlar va tergovchilar qanchalik faol ishlamasinlar, agarda davlatda qonuniylikning g‘alaba qilishi uchun kurashda faqatgina o‘zlarining kuchlariga tayanishsa, jamoatchilik yordamiga tayanishmasa, fuqarolarning yordamidan foydalanishmasa, o‘z oldilariga qo‘ylgan hamda huquqiy davlat qurish yo‘lida turgan jinoyatchilikni va uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilishdek vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshira olmaydilar.

Hozirgi oshkorlik va demokratiya sharoitida prokurorlar va tergovchilarining jinoyatchilikning oldini olish, davlatda qonunchilik tizimi paydo qilish faoliyatining yanada samarali bo‘lishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Prokuratura faoliyatida oshkorlikning qo‘llanishi jamoatchilikning fikrini har tomonlama hisobga olishga imkon beradi, ulardan qonun buzilishi va uning oldini olish bilan bog‘liq bo‘lgan har bir masalani hal qilishda foydalanadi. Shuningdek, fuqarolarning, jamoat

birlashmalarining va jamoalarning yordamida qonun buzilishi ni va uni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etadi, qonun ustuvorligini ta'minlash uchun ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanadi.

Ammo prokurorlar va tergovchilar (O'zbekiston Respublikasi JPKning 353-moddasi) qonun talablaridan kelib chiqqan holda jinoyatning muvaffaqiyatli ochilishi hamda tergov qilinishi mobaynida dastlabki tergov ma'lumotlari oshkor etilmassisligini ta'minlashlari lozim. Bundan tashqari, jinoyat protsessi ishtirokchilarining shaxsiy hayotiga oid intim tomonlarini ja-moatchilik mulkiga aylantirilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun qonun (O'zbekiston Respublikasi JPKning 19-moddasi) sudlarni shu kabi jinoyat ishlarini yopiq turdag'i sud majlislarida ko'rishni belgilaganligi tasodifiy emas.

Tergov organlari va sudning ish yurituvida davlat siri bilan bog'liq jinoyat ishlari toifasi ham bo'lishi mumkin. Bunday ishlarni yuritish maxfiy ish yurituv tartibida olib boriladi, ular yopiq sud majlislarida ko'rilib (O'zbekiston Respublikasi JPKning 19,89-moddalari). Oshkoraliq prinsipini hayotga tatbiq etib, prokurorlar fuqarolarda qonunlarga nisbatan hurmat, odob va axloq normalariga rioya qilish ruhini tarbiyalaydilar.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlangan prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyat prinsiplari umummajburiy xarakterga ega, ya'ni ushbu prokurorlar oldiga qo'yilgan talablar faqatgina prokurorlar uchungina emas, balki prokuror nazorati tatbiq etiladigan barcha davlat hokimi-yati va boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslarga ham tegishlidir.

12.3. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi va ularning tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (188-modda) va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (1-modda)ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasini O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimi tashkil etadi. Prokura-

tura davlat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan mamlakatning ma'muriy va milliy davlat qurilmasiga muvofiq tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari, tumanlar va shaharlar prokuraturalari, viloyat prokuraturalariga tenglash-tirilgan O'zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi, tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzuridagi Soliqqa va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari ning tizimini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Prokuratura organlari tizimining oliy bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi prokuratura organlarining faoliyati ustidan tezkor rahbarlikni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, o'zida yetarlicha kuchli davlat apparatini namoyon etadi. Bu apparat nafaqat quyi prokuratura idoralari ning faoliyati ustidan rahbarlikni amalga oshiradi, balki bevosita davlatdagi qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishini amalga oshirish bilan birga eng mas'uliyatli, o'ta muhim vazifalarni bajaradi, shuningdek, o'ta murakkab hamda jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan jinoyat ishlari tergovini bevosita amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Konstitutsiyaiga (93-modda) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan boshqariladi va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga (12-modda) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinnbosariga, o'rinnbosarlariga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston

Respublikasi Bosh Prokurori hamda uning o‘rinbosarlarini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori o‘rinbosarlari o‘rtasida ularning majburiyatlarini o‘zaro taqsimlab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokururatasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarma va bo‘lim boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, o‘ta muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar o‘z lavozimlariga O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining buyrug‘i bilan tayinlanadilar va lavozimlaridan ozod qilinadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori prokuratura organlari ustidan rahbarlikni olib boradi va ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda juda ham keng vakolatlardan foydalanadi. U:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko‘rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko‘rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, ko‘rilayotgan ishlar bo‘yicha va muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokururasi hay’atining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

– prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;
- prokuratura organlari xodimlarini «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlaydi;
- buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo‘lmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;
- chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to‘g‘risida bitimlar tuzadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarga zid bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokururasida O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay’at tuziladi. Hay’atning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи oldida hisobdordir.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

- qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida muntazam ravishda;
- o‘ta og‘ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to‘g‘risida – zudlik bilan;
- prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to‘g‘risida – har olti oyda axborot taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokururasi huzurida birinchi marta 2001-yil 6-iyuldagи Nizomga ko‘ra Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkil etilib, 2002-yil 28-noyabr kuni Soliqqa va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga o‘zgartirildi. Soliqqa va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti O‘zbekiston Respub-

likasi Bosh prokururaturasi huzuridagi mustaqil maxsus huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanib, soliqqa va valutaga oid jinoyatlarga va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, soliq intizomini mustahkamlashga qaratilgan tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini o'tkazish va tashkil etish maqsadida tuzilgan.

Departamentni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanib, lavozimidan ozod qilinadigan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining o'rribbosariga tenglashtirilgan lavozimdagi departament boshlig'i boshqarib boradi. Departament boshlig'inining o'rribbosari departament boshlig'inining taqdimnomasiga asosan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Hududiy boshqarmalarning boshliqlari va ularning o'rribbosarlari, departamentning tuman va shahar bo'limlari boshliqlari departament boshlig'inining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan lavozima tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar.

Departamentni hamda uning joylardagi bo'linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-noyabrdagi tasdiqlangan Nizomi bilan tartibga solinadi. Departament o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlar va farmoyishlarga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga asosan olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi, u O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda ozod etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori oldida hisobdordir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tegishiinchalik tuman, shahar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan

prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'y sunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlari bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokuraturasida boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi. Boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari hamda ularning o'rinnbosarlari, prokurorning katta yordamchilari, prokurorning ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yordamchisi, katta prokuror kriminalist O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasi).

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan 5 yil muddatga lavozimga tayinlanadilar hamda lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuroriga bo'y sunadilar va uning oldida hisobdordirlar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishincha tuman, shahar prokuraturalari hamda ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'y sunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlari bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuror (rais), uning birinchi o'rinnbosari,

o‘rinbosarlari va prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay’at tuziladi. Hay’atning tarkibi tegishli prokurorning taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

Hay’atlarning maslahat organlari bo‘lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori buyruqlari va ko‘rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yishga doir va boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi, prokurolarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo‘limmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi («Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 19-moddasi).

Qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishga qaratilgan qonunlar va ular asosida qabul qilingan me’yoriy hujjatlarning og‘ishmay ijro etilishini ta’minalash, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda davlat manfaatlarini himoya qilish borasida prokuratura organlari faoliyatini kuchaytirish maqsadida 2004-yil 11-martdagি O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan:

Bosh Prokuratura, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar prokuraturalari tuzilmalarida qishloq xo‘jaligi sohasida qonuniylikni ta’minalash va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo‘limlari tashkil qilingan.

Hududiy prokuraturalarning qishloq xo‘jaligi sohasida qonuniylikni ta’minalash va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo‘limlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hamda hukumat qarorlarida bayon etilgan talab va qoidalar o‘z vaqtida, to‘liq ijro etilishini nazorat qilish;

- asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari (paxta va g‘alla) ekiladigan maydonlar monitoringini muntazam o‘tkazib turish, ekin maydonlari mahsulot ishlab chiqaruvchilar – fermer va shirkat xo‘jaliklari, tuman va viloyatlar tomonidan qabul qilingan hamda tasdiqlangan shartnoma majburiyatlariga muvofiqligini tanlab tekshirishlar o‘tkazish;

- fermer va dehqon xo‘jaliklariga yer ajratish borasida qonunchilik hamda me’yoriy hujjatlarda o‘rnatalgan tartib bu-

zilishining oldini olish kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish, bunda mas’ul shaxslar tomonidan xizmat mavqeyi suiste’mol qilinishiga, qarindosh-urug’chilik va oshnayog‘aynigarchilik munosabatlaridan foydalanish hollariga yo’l qo’ymaslik;

– yerlardan qat’iy ravishda maqsadli foydalanish, sug’oriladigan ekin maydonlari muomaladan chiqarilishiga yo’l qo’ymaslik, qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha qabul qilingan shartnoma majburiyatlariga rioya etilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

– yerlardan maqsadli va asrab-avaylab foydalanishni, ularning unumdoorligi saqlanishini hamda ekologiya normalariga rioya etilishini ta’minlab kelayotgan fermer hamda dehqon xo’jaliklarining huquq va manfaatlarini himoya qilish;

– suv resurslaridan isrofgarchilik bilan foydalanish, mineral o‘g’itlar, yonilg’i-moylash materiallarini o‘g’irlab talon-taroj qilish, gidrotexnika, melioratsiya inshootlari hamda qishloq xo’jalik texnikasini ishlatishda ho‘jasizlik faktlarining oldini olish choralarini ko’rish;

– qishloq xo’jahigi sohasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan, qonunchilikni keng ko’lamda tushuntirish yo’li bilan shunday huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko’rish.

Mazkur o‘zgarishlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, shuningdek, viloyat, tuman prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning tuzilmasi tasdiqlangan (1–6-chizmalar).

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuroriga O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari tuzilmasiga belgilangan umumi shtatlar soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berildi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi. Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, prokuroring katta yordamchilari, ichki xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha katta yordamchi O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Qayd etib o’tilgan prokuraturalarda prokurorlarning yordamchilari, boshqarmalar va bo‘limlarning katta prokurorlari va prokuror-

lari, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan 5 yil muddatga lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

Tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori bilan kelishilgan holda tegishinchha Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o'rinnbosarlari bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yagona tizimiga harbiy prokuratura ham kiradi. Harbiy prokuraturaning asosiy vazifalariga: O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat xavfsizligi, hududiy daxlsizlik va qo'shinlardagi harbiy tayyorgarlik bo'yicha qonun ustuvorligini ta'minlash, harbiylarning hamda ular oilalarining huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, Qurolli Kuchlarning qonuniy manfaatlarini kasbiy huquqbazarliklardan himoya qilish va bunday huquqbazarliklarning oldini olish kiradi.

Harbiy prokuratura organlari o'z faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlarda olib boradilar:

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Boshqarmalari organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat, harbiy qismlar, harbiy korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, o'quv muassasalari, harbiy mansabdor shaxslar va harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiylashtirilgan tarkiblar, bo'linmalar, harbiy yig'lnarga chiqrilganlar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat;

- harbiylar va ularning oilalarini va boshqa fuqarolarning huquq hamda erkinliklarni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat;

- Qurolli Kuchlarda surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan hamda jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshi-

radigan tashkilotlar qonunlarni ijro etishi ustidan nazorat. Jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirish, sullarda jinoyat ishlarini ko'rilishida davlat ayblovini quvvatlash, ma'nuriy huquqbazarlikka oid ishlarning ko'rilishida ishtirok etish, g'ayriqonuniy su'd hujjatlariga nisbatan protest keltirish;

– harbiy xizmatchilarni gauptvaxtalarda saqlash mobaynida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat, harbiy qismlarda va muassasalarda jinoiy-huquqiy ta'sirga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat hamda intizomiy qismlarda jinoiy jazolarni ijro etish bilan bog'liq qonunlar ijrosi ustidan nazorat. Qonun ijodkorligi faoliyatida va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Harbiy prokuratura organlari qonunda belgilangan tartibda fuqarolarning, harbiy xizmatchilarning va yuridik shaxslarning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan qonuniy huquq va manfaatlarini tiklash yuzasidan tegishli choralarini ko'radilar. O'zbekiston Respublikasi harbiy prokuratorasiga lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining o'rinnbosari bo'lmish O'zbekiston Respublikasi harbiy prokurori rahbarlik qiladi.

12.4. Prokuratura organlari xodimlari

Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida belgilab berilgan. Qonun (43-modda) talablariga ko'ra, oliv yuridik ma'lumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo'lgan, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon beradigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari prokuratura organlarida prokurorlar, tergovchilar va ish o'r ganuvchilar lavozimiga tayinlanadi.

Bundan tashqari, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun rahbar lavozimlarga tayinlanayotgan prokurorlar uchun yosh senzini ham nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar,

Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan shaxslar tayinlanadi.

Prokuratura organlari xodimlari o‘zlarining yuksak fuqarolik burchi bilan qorishib ketadigan yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari, qonun buzilish hollariga murosasiz bo‘lishlari, sotilmas, adolatli, vijdonli bo‘lishlari lozim. Prokuratura organlari xodimlari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas. Aks holda, ular kelgusida o‘zları tomonidan tekshirilishi mumkin bo‘lgan korxona, muassasa, tashkilot bilan mehnat munosabatlariiga kirishib qo‘yib, o‘zlarining mustaqilliklarini qo‘ldan berib qo‘yishadi. Ular ilmiy, o‘qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo‘sh vaqtida shug‘ullanishlari mumkin, xolos.

Prokuratura organlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori belgilagan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladilar. Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi marta tayinlanayotgan shaxs «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunda belgilangan tartibda qasamyod qabul qiladilar (44-modda). Unda jinoyatchilikka qarshi mardonavor va murosasiz kurashni hamda o‘z mazmuniga ko‘ra yengil bo‘lmagan qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxslarga nisbatan talablar qo‘ylgan. Qasamyod mazmuni quyidagichadir:

«O‘z xizmat vazifalarimni halol va vijdonan bajarishga, qonun buzilishiga qarshi murosasiz kurashishga, fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga tantanali qasamyod qilaman».

Qasamyod qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan belgilanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, shuningdek, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning faoliyati yuqori turuvchi tegishli prokurorlar tomonidan ularning vakolat muddati davomida kamida ikki marta kompleks o‘rganib chiqiladi. Prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlanish hisoblanadi.

O‘z faoliyati davrida tegishli hududda qonunlar ijrosi ustidan lozim darajada nazorat o‘rnatalishini ta’minlab bera olmagan shaxslar prokuror lavozimiga takroran ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tarkibida prokuratura organlari ichki xavfsizlikni ta’minlovchi inspeksiya tuziladi (O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 46-moddasi). Prokuratura organlari ichki xavfsizlikni ta’minlovchi inspeksiya prokuratura organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan xizmat mavqeyini suiiste’mol qilish, korrupsiya va egallab turgan lavozimiga noloyiq boshqa nojo‘ya xatti-harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘yicha xizmat tekshiruvini o‘tkazadi.

Prokuratura organlari ichki xavfsizlikni ta’minlovchi inspeksiya o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Prokuratura xodimlariga nisbatan bunday yuqori talablarning qo‘yilishi tasodifiy emas, chunki qonun prokurorlar va tergovchilarga juda ham keng hokimiyat boshqaruva vakolatini berib qo‘yan. Bu vakolatlardan noto‘g‘ri foydalanish yoxud xizmat vakolatlarini suiiste’mol qilinishi juda ham og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o‘z kasbiy majburiyatini amalga oshirayotgan har bir prokuratura xodimi Qonun doirasida harakat qilishi hamda insonlarga nisbatan e’tiborli bo‘lishi talab qilinadi.

Prokuratura organlari xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasining o‘quv muassasalarini va ilmiy tashkilotlarning xodimlariga ularning egallab turgan lavozimlari va mehnat stajiga muvofiq darajali unvonlar yoki harbiy unvonlar beriladi. Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o‘tash, prokuratura organlari va muassasalarining xodimlariga darajali unvonlar va harbiy unvonlar berish hamda ulardan mahrum etish, ularni rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizomda belgilab qo‘yiladi.

Prokuratura organlarining xodimlari uchun haqiqiy Davlat adliya maslahatchisi (O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuroriga beriladigan darajali unvon)dan tortib, 3-darajali yurist-gacha darajali unvonlar belgilab qo‘yilgan. Haqiqiy Davlat

adliya maslahatchisi hamda 1,2,3-darajali Davlat adliya maslahatchisi darajali unvonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beriladi. Boshqa darajali unvonlar O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan beriladi. Kichik yurist darajali unvoni attestatsiyadan o'tgan va lavozimiga tasdiqlangan yosh mutaxassislariga beriladi; ish o'rganish mobaynida o'zini alohida yaxshi tomonlardan ko'rsatgan yosh mutaxassislar 3-darajali yurist unvonini olish uchun taqdim qilinishi mumkin.

Prokuratura organlarining attestatsiyadan o'tkazilmaydigan moddiy-texnik ta'minoti, moliya, ishlar boshqarmasi xodimlari va boshqalar mehnatda o'zini alohida yaxshi tomondan ko'rsatganliklari uchun darajali unvon olishga taqdim qilinishlari mumkin. Prokuratura organlariga boshqa huquqni muhofaza qilish organlaridan va boshqa tashkilotlardan ishga kelganlarga ularning tayinlangan lavozimlarini, bilimlari va ish tajribalarini hisobga olgan holda darajali unvonlar beriladi.

Darajali unvonlar berilgan prokuratura xodimlari shu unvonlarida umrbod qoladilar. Darajali unvondan mahrum qilish prokuratura organlaridan nomiga dog' tushiruvchi nojo'ya xatti-harakatlar sodir etgan xodimlarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Prokuratura organlari xodimi o'z xizmat burchini qo'pol ravishda buzganligi yoxud o'zini noloyiq darajada tutganligi uchun darajali unvoni pasaytirilishi mumkin.

Prokuratura organlari va muassasalaridan xizmatdan bo'shatilayotgan xodim darajali unvonidan yoki harbiy unvonidan mahrum qilinishi mumkin. Prokuratura organlari xodimi o'z xizmat burchini qo'pol ravishda buzganligi yoxud o'zini noloyiq darajada tutganligi uchun darajali unvoni pasaytirilishi mumkin.

Prokuratura organlari va muassasalari xodimlarini oliy darajali unvonidan yoki oliy darajali harbiy unvonidan mahrum qilish, shuningdek, oliy darajali unvoni va oliy darajali harbiy unvonidan pastga tushirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, boshqa darajali unvonlar yoki harbiy unvonlardan mahrum qilish va pastga tushirish muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

Prokuratura organlari va muassasalarining darajali unvonlarga ega bo'lgan xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan vaqtlarida o'rnatilgan tartibdagi farqlantiruvchi belgili forma, bosh kiyimini kiyib yuradilar. Nafaqaga chiqqan oliy darajadagi unvon yoki oliy darajadagi harbiy unvonga, shuningdek, adliya katta maslahatchisi yoki yustitsiya polkovnigi darajali unvoniga ega bo'lgan prokuratura organlari va muassasalarining xodimlariga o'rnatilgan tartibdagi farqlantiruvchi belgili forma, bosh kiyimini kiyib yurish huquqi qoldiriladi.

Prokuratura organlari xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'qotar quroq hamda boshqa shaxsiy himoya vositalari olib yurish huquqiga ega. Prokurorlarning va tergovchilarning mustaqilligini ta'minlashning muhim sharti bo'lib, ushbu xodimlar faoliyatining daxlsizligi hisoblanadi. Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi.

Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi.

Prokuratura organlari xodimlarining ish haqi mansab maoshidan, darajali unvonlar (harbiy unvonlar), ko'p yillik xizmat uchun to'lana'digan haqlardan iborat bo'ladi. Darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan prokuratura organlarining xodimlari belgilangan me'yorlar bo'yicha bepul xizmat kiyimi bilan ta'minlanadi. Prokuratura organlari xodimlariga muddati o'ttiz kalendar kunidan iborat haq to'lana'digan yillik ta'til beriladi. O'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan prokuratura organlari xodimlariga besh kalendar kun, yigirma besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarga esa o'n kalendar kun qo'shimcha ta'til beriladi.

Prokuratura organlari xodimlarini hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash bo'yicha qonun bilan tegishli choralar belgilangan. Prokuratura organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'i davlat himoyasida bo'ladi hamda Respublika budjeti mablag'lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug'urtalanadi. Prokuratura organlari xodimi ishlayotgan davrida yoki prokuratura organlaridan bo'shatilganidan keyin

halok bo'lsa (vafot etsa), agar bu hol u o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari va sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi oqibatida ro'y bergan bo'lsa, uning merosxo'rlariga O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 194-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan miqdorda nafaqa to'lab boriladi.

Prokuratura organlari xodimi o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbiga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolganida yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida – uning oylik ish haqi yigirma besh karrasi miqdorida to'lanadi. Prokuratura organlari xodimiga u o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kasbiga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etmaydigan va mehnat qobiliyatini doimiy yo'qotishga olib kelmaydigan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganida – uning oylik ish haqi besh karrasi miqdorida to'lanadi. Prokuratura organlari xodimining o'z xizmat faoliyati bilan bog'liq tarzda unga tegishli mol-mulkni yo'q qilish yoki shikastlash oqibatida yetkazilgan zarar unga yoki uning oila a'zolariga to'laligicha qoplanadi.

12.5. O'zbekistonda prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya tomonidan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligidan iborat O'rta Osiyo bosib olingunga qadar, bu yerda prokuratura yoki shunga o'xshash idora bo'lган emas. Chunki islom qonunchiligidagi shariat normalarining bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi maxsus alohida organ tuzilishi ko'zda tutilmagan.

Prokuror nazorati instituti 1867-yilda qabul qilingan Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik Nizom loyihasida nazarda tutilgan, xolos. Lekin bu davrda prokuratura maxsus organ sifatida hali tashkil etilmagan edi. Prokurorlik vazifasini o'z tashabbuslariga ko'ra harbiy gubernatorlar olishgan.

Turkiston o‘lkasining (Sirdaryo viloyati, Zarafshon okrugi, Amudaryo bo‘limi) uchta mustaqil ma‘muriy hudud bo‘linishiga uchta «prokuror»: Sirdaryo gubernatorining o‘zi, Zarafshon okrugi boshlig‘i va Amudaryo bo‘limi boshlig‘i bor edi. Ushbu mansabdar shaxslar ishlarni sudlovlilik bo‘yicha tegishliligini qayta ko‘rib chiqishlari, ularni ma‘muriy tartibda hal qilishlari va o‘z qarashlari bo‘yicha harakatdan to‘xtatishlari mumkin edi.

1887-yil Adliya vazirining buyrug‘iga ko‘ra Rossiya Adliya vaziriga ma‘muriy tartibda bo‘ysunuvchi Sirdaryo, Yangimarg‘ilon, Samarqand, Vernensk viloyat sndlari qoshida prokuraturalar tashkil etildi. Rossiya podshosining Turkistonda-gi prokuraturasi ma‘muriy-hududiy tamoyilga ko‘ra tashkil etilgan edi. Okrug sudi qoshidagi prokuror sud palatasidagi prokurorga bo‘ysunar edi, u esa o‘z o‘rnida – bevosita Adliya vaziriga bo‘ysunar va uning oldida hisobdor edi. Barcha prokurorlar podsho tomonidan lavozimiga tayinlanar va lavozimidan ozod qilinar edilar¹.

Turkistondagi prokuratura Rossiya podsholigi prokuraturasi ning asosiy qismini tashkil etib, uning qonunlarini tatbiq qilar va qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirar edi. Prokura-tura organlari xodimlarining kamliyi, ularning mahalliy aholining tilini va urf-odatlarini bilmasliklari, ular manfaatlari ning bir xil emasligi prokuratura organlari va tub aholi o‘rtasida yaxshi munosabatni keltirib chiqarmas edi. Rossiya prokura-turasining tashkil etilishi Rossiyadagi Pyotr I tomonidan amalga oshirilgan davlat islohotlari bilan bog‘liq edi. Hukumat Senati-ning tashkil etilishi munosabati bilan, qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida maxsus organni tashkil etish zaruriyati paydo bo‘ldi. Dastlab bu institut fiskallar edi, keyinchalik esa prokurorlarga aylandi.

Bosh Prokuror lavozimining kiritilishi ham 1722-yilda Pyotr I tomonidan amalga oshirildi. Bosh Prokurorga Senat faoliyatidagi qonunchilik, keyinchalik esa barcha davlat organlari tomonidan qonunchilikka rioya qilinishi ustidan nazorat qilish

¹ Махбубов М. Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане. Автореферат дисс. на соискания ученой степени док. юр. наук. – Т.: 1993. -В. 11.

vazifasi yuklatilgan. Qonun buzilishi holati aniqlanadigan bo'lsa, Bosh Prokuror ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etishni avval taklif qilishi, unga bo'y sunilmagan holatlarda esa «protest keltirishi va bu ishni to'xtatishi» lozim edi. Bora-bora prokurorlar davlat xizmati ichida muhim o'rinnegallay boshladilar. Prokurorlar korpusi paydo bo'la boshladi. Prokurorni general-gubernatorlarning tavsiyasiga ko'ra Senat saylar edi. Ular markaziy va mahalliy muassasalar faoliyatları ustidan nazoratni olib borar va aniqlangan kamchiliklar haqida general-gubernatorga hisob berar edilar. Qonun buzilish holatini aniqlagan prokuror dastlab, og'zaki ravishda ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etishni taklif etar, ushbu taklif bajarilmasa, unda ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etish uchun vakolatli organga, undan so'ng esa taalluqli hay'atga yoki Senatga yozma ravishda protest kiritar edi. G'ayriqonuniy hujjatga nisbatan kiritilgan protest ushbu hujjat harakatini to'xtardi. Agarda qonun buzilishi holati haqidagi ma'lumot yuqori turuvchi prokurorga kelib tushsa, unda u ishni tez va to'g'ri hal qilish choralarini ko'rishi lozim edi.

Taxminan shu davrning o'zida markaziy prokuratura bilan bir qatorda guberniya prokuraturalari tashkil etiladi, ularning boshlanishiga saroy-hovli sudlarining prokurorlari tashkil etilishi sabab bo'ldi. Adliya vazirligi (1802-y.) tashkil etilishi bilan Adliya vaziri bir vaqtning o'zida general prokuror lavozimini ham egallay boshladi, gubernya prokururasi esa Adliya vazirligining joylardagi organiga aylana boshladi.

1864-yili prokuratura «sudlar huzuridagi joylar»da nazorat qilish vakolatini qo'lga kiritdi. 1864-yil 20-noyabrdan sud o'rnatuvlari ta'sisiga ko'ra sudlarda prokuror nazoratini ober-prokurorlar, prokurorlar va general-prokuror bo'lmish Adliya vazirining oliy nazorati ostidagi ularning o'rtoqlari olib bora boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab quyidan yuqoriga bo'ysunuvchi, yagona, mahalliy va ma'muriy hamda sud organlari institutlaridan mustaqil bo'lgan prokuratura tashkilotining asosi paydo bo'la boshladi.

Prokuratura shunday shaklda 1917-yilgacha mavjud bo'ldi. Sudlar to'g'risidagi 1-sonli Dekret bilan prokuratura tugatildi. Uning faoliyati to'rt yildan ko'proq vaqt qayta tiklanmadı.

Prokuraturaning tashkil etilishi to‘g‘risidagi fikrlarni sovet davlatining besh yillik tajribasidan so‘ng izlash lozim bo‘ldi. Tarixiy tajriba qonunchilik ustidan nazorat qilishni amalga oshiruvchi mustaqil organ – prokuraturani tashkil etish zarurati haqidagi fikrga olib keldi.

Har bir tarmoqni boshqarishda tashkil etilgan nazorat qonuniylikni ta‘minlash uchun yetarli kafolatlarni yaratmas edi, chunki u idoraviy tashkilot edi. Uyezd ijroiya qo‘mitalari va viloyat ijroiya qo‘mitalari adliya bo‘limlariga yuklatilgan qonunchilikka rioya qilinishi ustidan nazorat ham unchalik samarali emas edi. Davlat oldida qonunlarning aniq ijro etilishi ustidan nazorat qilishni takomillashtirish vazifasi paydo bo‘ldi, chunki shu kungacha amal qilgan qonuniylikni ta‘minlash tizimi o‘zini oqlamadi, u qonuniylik uchun olib borilayotgan maqsadli kurashni ta‘minlay olmadi. Qonuniylikni amalga oshiruvchi markaziy hokimiyat nomidan harakat qiluvchi yagona uslubga ega bo‘lgan va mahalliy hokimiyatga bo‘ysunmaydigan maxsus tashkilotni tashkil etish zarurati paydo bo‘ldi.

Turkiston ASSRning davlat prokuraturasi tashkil qilinishi haqidagi dekret loyihasi usida ishlash 1922-yil boshida avj olib ketdi. 9-may 1922-yilda¹ Turkiston Respublikasi Sovnarkomi va Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi 1922-yil 3-iyunda qonuniy kuchga kirgan Turkiston ASSRning davlat prokuraturasi haqidagi Nizomni tasdiqladilar². 1922-yilning iyun oyida Turkiston ASSR-da prokuratura ham markazda, ham joylarda tashkil etildi³. Shundan boshlab Turkistonda prokuraturaning tashkil etilishi boshlandi.

Turkistonda prokuraturaning tashkil etilishi ushbu regionda davlat faoliyatining sifatli bo‘lgan yangi shaklini va prinsipial yangi davlat funksiyasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Prokuratura organlariga umumiy nazoratdan tashqari, har qanday mansabdor shaxsiga nisbatan o‘z tashabbusiga ko‘ra ham, ariza va shikoyatlarga ko‘ra ham sud ta‘qibini qo‘zg‘atish va shu shaxslarni ushslash vakolati berildi.

¹ Известия ТуркЦИК. 1992-у. 3-иун.

² O‘zbekiston Respublikasi MDA. F.25, op.1.D.19-a.L.161.

³ Махбубов М. Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане. Автореферат дисс. на соискания ученой степени док. юр. наук. – Т.: 1993. - B.16.

Nizomga muvofiq butun prokuraturaning boshida Turkiston Respublikasi prokurori hisoblangan adliya komissari turar edi. Davlat Prokuraturasi bo'limini AXK (Adliya Xalq Komissariati) hay'ati a'zosi – adliya narkomi o'rinnbosari boshqarar edi. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1922-yil 1-avgustdagি Qarori bilan respublika hududida RSFSR Jinoyat-protsessual Kodeksi amalga kiritildi. Ushbu Kodeksda jinoyatlarni tergov qilishni nazorat qilish bo'yicha prokurorga berilgan juda ham katta vakolatlar aniq belgilab qo'yildi.

Butun BuxMIQsining 21-noyabr 1922-yildagi qarori bilan Butun BuxMIQsining Oliy nazorati bo'linmasi sifatida Prokura-tura tashkil etildi¹. Ushbu holatning qabul qilinishi bilan 1922-yil noyabr oyida haqiqatda amal qilayotgan BXSRsi prokura-turasining huquqiy maqomi yuridik mustahkamlandi. 1923-yilgi Adliya Xalq nazorati haqidagi Nizomiga muvofiq adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham hisoblanar, shu munosabat bilan unga juda ham keng vakolatlar berilgan edi. Prokuror nazorati BXSRsining Adliya Xalq nazoratining davlat prokuratura bo'limi orqali amalga oshirilar edi. Bo'limga respublika prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanib, lavo-zimidan ozod qilinadigan BXSRning prokurori yordamchisi bo'lган mudir boshchilik qilar edi.

1924-yilning 24-sentabr kuni BXSR Sovetlarning MIQ qaro-riga asosan Adliya Xalq nazorati haqida Nizom qabul qilingan². Xalq nazorati haqidagi Nizomiga muvofiq adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham hisoblanar, respublikadagi qonuniylik ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish vazifasi unga yuklatilgan edi. Bevosita prokuror nazoratini Adliya nazoratining prokuratura bo'limi amalga oshirar va quyi-dagi vazifalarni bajarar edi: davlat nomidan barcha hokimiyat organlari, xo'jalik muassasalari, jamoat va xususiy muassasalar harakatlarining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirish, aybdor shaxslarga nisbatan jinoiy ta'qib vazifasini bajarib hamda jinoyat ishi qo'zg'atish va noqonuniy qarorlarga nisbatan protestlar kiritish; jinoyatlarni ochish va tergov qilish sohasida

¹O'zbekiston Respublikasi MDA. F.64. op.1.D.96.L.3.

²O'zbekiston Respublikasi MDA. F.71. op.1.D.144.L.66

urishtiruv hamda tergov organlari faoliyati ustidan bevosita nazoratni amalga oshirish, shuningdek, davlat siyosiy boshqarmasi faoliyati ustidan; ozodlikdan mahrum etish jazolarini ijro etish joyiari va mehnat tuzatish muassasalarida faoliyatni to‘g‘ri amalga oshirilayotganligini nazorat qilish; Oliy Sudga nisbatan prokuror nazorati funksiyasini amalga oshirish.

1926-yil 29-sentabr kuni O‘zSSR Sovetlarining MIQ tomonidan tasdiqlangan¹ va 15-fevral 1927-yili amalga kiritilgan O‘zSSR sud tuzilishi to‘g‘risidagi Nizom, 1925-yilgi AXK haqidagi Nizomni rivojlantirib, prokuratoraga qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan aybdor shaxslarga nisbatan intizomiy va ma’muriy ta‘qib qilish huquqini berib, prokurorga jinoyat ishlari bo‘yicha cassatsiya instansiyasida xulosa berish huquqini ham berib, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi barcha organlar faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish huquqini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prokurori bir vaqtning o‘zida Respublika Adliya Xalq komissari hisoblanib, respublika humumatining tarkibiga kirar edi. Natijada Respublika Prokurori O‘zSSR MIQ tomonidan tayinlanib, o‘rindoshlik qilsa ham, baribir Respublika Xalq Komissarlar Soveti oldida adliyaning xalq komissari sifatida hisobdor edi. Respublika Prokurori qonuniylik ustidan nazorat qilish funksiyasini boshqaruv funksiyalari bilan aralashtirib olib borar edi, bu esa albatta, nazorat funksiyasini amalga oshirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatardi. 1929-yilning 27-yanvar kuni O‘zSSR Adliya Xalq Komissariati (Narkom-yust) AXK (Adliya Xalq Komissarligi) qoshida prokuratora bo‘limi to‘g‘risida Nizom qabul qilindi. Nizom talabiga ko‘ra, prokuratora organlari faoliyati ustidan rahbarlikni O‘zSSR hududida respublika prokuratorasi bo‘limi o‘z qo‘liga oldi. Bo‘limni narkom emas, O‘zSSR adliyasi bir vaqtning o‘zida Respublika prokurori hisoblangan O‘zSSR Xalq Komissarlar Sovetining o‘rinbosari amalga oshirar edi.

1931-yilning 23-sentabrida O‘zSSR Sovetlarining Xalq Komissariati va MIQsi O‘zSSR Adliyasi Xalq Komissariati to‘g‘risidagi yangi Nizomni tasdiqladi¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi MDA Op.9. D. 153. L.169-173.

Nizomga muvofiq prokuratura bo‘lim sifatida emas, AXK (NKYU) tarkibidagi Adliya Narkomining o‘rbinosari hamda Respublika Prokurori boshchilik qiladigan mustaqil tashkilot sifatida ko‘rilar edi. 1933-yilning 10-iyuldagagi SSSR SNK va MIQning SSR Ittifoqi Prokuraturasini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori prokuratura tarixida ahamiyatli voqeа hisoblanadi. SSSR SNK va MIQning 1933-yilning 17-dekabrdagi Qarori bilan SSSR Prokururaturasi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

Shu bilan bir vaqtda SSSR Oliy Sudi Prokururaturasi bartaraf qilindi. Nizomda SSSR Prokururaturasining funksiyasi va uni tashkil etish tartibi, shuningdek, hozirda ham asosan saqlanib qolgan prokuror nazoratining yo‘nalishlari belgilab berildi, xususan olganda: umumiy nazorat; militsiya va OGPU harakatlarining to‘g‘riliği va qonuniyligi ustidan nazorat; dastlabki tergov ustidan nazorat; sud organlari tomonidan qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat; axloq-tuzatish mehnat muassasalari faoliyatining to‘g‘riliği va qonuniyligi ustidan nazorat.

Prokuratura hayotining ma’lum bir bosqichi shunday davr bilan bog‘liqki, bu davrda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati shunday shakllantirilgan ediki, davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan ustuvor deb hisoblangan jazo muassasalari oldinga chiqib oldilar. Faqatgina 50-yillar o‘rtasida qonuniylikni mustahkamlash, davlatning huquqiy bazasini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

1955-yilning 24-may kuni qabul qilingan «SSSRda Prokuror nazorati to‘g‘risida»gi Nizom prokurururaning rivojlanishida navbatdagi muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi. Unda davlatda qonuniylikning maqsadi haqidagi g‘oyalari qonun bilan mustahkamlanishi va kelgusidagi rivojlanishi hamda prokuror nazoratini og‘ishmay ta’milanishi o‘z ifodasini topdi. Nizomda prokurorlarning vakolatlari, vazifalari va fuqarolik hamda jinoyat ish yurituvida aniqlangan qonunbuzilishlarga nisbatan prokurorlik ta’sir choralar qo‘llash tartibi belgilandi. Keyinchalik Nizomdagi mazkur normalar Jinoyat va fuqarolik ish yurituvu Asoslariga, axloq-tuzatish mehnat qonunchiligiga kiritilgan.

Harbiy prokuratura organlari ham tashkil etildi. 1966-yil 14-dekabrdagi tasdiqlangan harbiy prokuratura haqidagi Nizomda harbiy prokuratura tizimi va tuzilishi, harbiy prokurorlar-

ning vakolatlari, ular faoliyatida hududiy prokurorlar bilan o'zaro munosabat o'z ifodasini topdi. Unga ko'ra, harbiy prokuratura sovet prokuratura organlari tizimiga kirishi va SSSR Bosh Prokurori oldida hisobdorligi belgilangan.

1977-yilda Konstitutsiyaning qabul qilinishi qonuniylik ustidan nazoratni ta'minlash bo'yicha yangi qadamlar qo'yilishi bilan bog'liqdir. Ulardan bittasi SSSR Prokururaturasi to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi haqidagi qarordir. Bunday qonun SSSR Oliy Sovetining 10-chaqiriq 2-sessiyasida 1979-yil 30-noyabrda qabul qilingan. Unda sovet prokururaturasi organlarini tashkil etish va ular faoliyati asosini tashkil etuvchi prinsiplarning huquqiy tartibga solinishi hamda mustahkamlanishi, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topgan.

Prokuror nazorati 1980–1990-yillardagi avtoritar rejim yo'lboshchisi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining bir qismi bo'lib xizmat qildi. Prokurururadan kuch ishlatalish choralarini qo'llash zarur bo'lgan joylarda, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va tashkiliy richaglar ishlashi lozim bo'lgan joylarda foydalaniildi. Shunday tajriba natijasida ko'pgina idoralar, sovet va nazorat organlari qonuniylik va intizomga rioxaya qilinishi ustidan haqiqiy nazoratni va to'lalikni ta'minlanmasligiga olib keldi. Ular tomonidan o'zlariga berilgan vakolatlaridan to'liq foydalilmaganligiga sabab, zarur bo'lsa prokurorlar tomonidan prokuror ta'sir choralarini va jinoyat huquqiy choralar qo'llanishiga ishonib qoldilar.


Mustaqillik g'oyalari bilan sug'orilgan 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi prokurururasining yangi maqomi boshlanishiga yo'l ochib berdi. 1992-yil 8-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi Prokururasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. 1992-yilning 9-dekabr kuni «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, unda mustaqil O'zbekiston prokurururasining vazifalari, uning faoliyatini tashkil etish prinsiplari, prokurorlarning vakolatlari belgilab berildi. Ammo vaqtning o'zi huquqiy davlatni qurish sharoitida va sud huquq islohotlari davrida prokuratura organlari faoliyatini takomillash lozimligini talab etdi.

Buning isboti sifatida 2001-yil 29-avgustda «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishini misol qilib olsak bo‘ladi. Shuni e’tirof etish lozimki, bu qonun bilan prokuratura organlarining qator vakolatlari birmuncha chegaralandi. Yangi qonun bo‘yicha prokuror nazorati obyektidan fuqarolar chiqarib tashlandi, chunki demokratik jamiyatda prokurorlik nazoratining obyekti fuqarolarning o‘zi emas, balki ularning huquqlariga rioxha etilishi bo‘lishi lozim.

Huquqiy davlat qurish sharoitida prokuratura iqtisodiy, xo‘jalik, ijtimoiy va tashkiliy masalalarni hal etishda majburlov idorasidan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosini nazorat qiluvchi organga aylanishi kerak. Aynan shunday prokuror nazoratigina huquqiy davlat qurish maqsadlariga muvofiq bo‘ladi, ya’ni natijada uning faoliyati fuqarolarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini muhofaza qilishga qaratiladi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2004-yil 11-martdag'i
PF-3406-son Farmoniga
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining
TUZILMASI**




O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2004-yil 11-martdagи
PF-3406-son Farmoniga
2-ILOVA

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar
prokuraturalarining
NAMUNAVIY TUZILMASI**




O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
 2004-yil 11-martdagি
 PF-3406-son Farmoniga
 3-ILOVA

**Toshkent shahar prokuraturasining
 TUZILMASI**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2004-yil 11-martdagи
PF-3406-son Farmoniga
4-ILOVA


**O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasining
TUZILMASI**



5-sxema

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2004-yil 11-martdagি
PF-3406-son Farmoniga
5-ILOVA


**Viloyatlar markazlari va Toshkent shahar
tumanlari prokuraturalarining
NAMUNAVIY TUZILMASI**



6-sxema

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2004-yil 11-martdagি
PF-3406-son Farmoniga
6-ILOVA

**Tuman (shahar) va ularga tenglashtirilgan harbiy okrug,
Hududiy harbiy, transport va maxsus prokuraturalarning
NAMUNAVIY TUZILMASI**



Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. -T.: O‘zbekiston, 2003.
2. 1992-yil 9-dekabrdagi «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonun (o‘zg.: yangi tahrir. 29-avgust 2001-yil. № 257 II O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993-y, № 1, 29 m., № 6, 266-m.; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Axborotnomasi, 1996-y., № 9, 145m.; 1997-y., № 2, 56m., № 9, 241m.; 1999-y., № 9, 229 m.)
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi. -T.: Adolat, 2004.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual Kodeksi. -T.: O‘zbekiston, 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligini isloh qilishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta‘minlashga qo‘sishicha choralar to‘g‘risida»gi 11.03.2004-y. № 3406 Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2005-yil, 8-avg. Farmoni.

Maxsus adabiyotlar

1. Басков В.И. Прокурорский надзор. Учебник для вузов с приложением нормативных актов. – М.: Зерцало, 1998.
2. Гуценко К.Ф., Ковалев М.А. Правоохранительные органы. Учебник для юридических вузов и факультетов. Под ред. К.Ф. Гуценко. – М.: Зерцало-М, 2001.
3. M. Mahbubov «O‘zbekistonda prokuratura organlarining tashkil etilishi va rivojlanishi». Yuridik fanlari doktori ilmiy unvonini olish uchun Avtoreferati. – T.: 1993.
4. Новиков С.Г. Прокурорская система в СССР. – М.: 1977.
5. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическая энциклопедия (под редакцией М.Ю. Тихомирова), М.: 1997.

Nazorat savollari

1. Huquqni muhofaza qilish faoliyati sifatidagi prokuror nazorati tushunchasini tushuntirib bering.

2. Prokuror nazoratini boshqa nazorat turlaridan farqlovchi belgilarni aytib bering.
3. Prokuror nazorati kim nomidan amalga oshiriladi?
4. Prokuror nazorati qaysi hududlarda amal qiladi?
5. Prokuror nazorati qaysi subyektlarga nisbatan amalda bo‘ladi?
6. Qonun buzilishi holatiga nisbatan prokuror ta’sir choralarining o‘ziga xos shakli nimadan iborat?
7. Prokuratura organi qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan prokurorlik nazorati funksiyasidan boshqa funksiyalarni ham bajaradimi?
8. Prokuror qabul qilinayotgan qarorlar va harakatlarning maqsadga muvofiqligini nazorat qiladimi?
9. Prokuraturaning vazifalarini sanab o‘ting va ularga tushuncha bering.
10. Prokuraturaning vazifalari boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning va odil sudlov organlarining vazifalariga muvofiqmi?
11. Prokuratura faoliyatini tashkil etish prinsiplarini aytib bering.
12. Prokuratura organlarining rivojlanish bosqichlarini yoritib bering.
13. O‘zbekiston Respublikasi prokururasi idoralariga qaysi prokuratura turlari kiradi?
14. Prokuror nazorati tarmoqlariga tushuncha bering va ularni sanab bering.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prokururasi funksiyalarini aytib bering.
16. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori maqomi qanday?
17. Prokuratura organlari xodimlari, tergovchi va prokuror lavozimiga nomzodlar uchun qo‘yiladigan talablarni sanab o‘ting.
18. Prokuratura xodimlarining huquqiy, ijtimoiy va moddiy ta’minoti haqida gapirib bering.
19. Prokuratura xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish.

20. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi hay'ati tarkibi va vakolati qanday?

21. Quyidagilar kim tomonidan lavozimga tayinlanadi:

A) O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori;

B) O'zb. Res. Bosh Prokurorining birinchi o'rinnbosari va c'rinbosarlari;

D) Bosh harbiy prokuror va uning o'rinnbosarlari;

E) quyi turuvchi prokurorlar va ularning o'rinnbosarlari;

F) O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasining markaziy apparati va quyi turuvchi prokuraturalarning boshqa xodimlari.

22. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining prokura-tura organlari ustidan rahbarligi yuzasidan vakolatlarini yoritib bering.

23. Prokurorlar, tergovchilar va prokuraturaning boshqa xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish tartibi va asoslarini tushuntirib bering.

24. Prokurator xodimlari uchun qanday darajali unvonlar belgilangan?

25. Darajali unvoni berish, pasaytirish va mahrum qilish tartibi qanday?

XIII mavzu. JINOYATLARNI OCHISH VA TERGOV QILISH

13.1. Jinoyatlarni ochish va tergov qilish tushunchasi

Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va asosiy qonunimiz – Konstitutsiya qabul qilinganidan buyon mamlakatimizda muhim tarixiy islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida jahon sahnasiga dadil kirib bormoqda. Mamlakatimizda mulkchilik shakllarini rivojlantirish, bozor munosabatlarini shakllantirish, fuqarolarning teng huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beruvchi huquqiy demokratik davlatni barpo etish kabi muhim vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Huquqni himoya qilish faoliyatining shakllari bo‘lgan jinoyatlarni ochish va tergov qilish masalalari o‘rtasida aniq bir chegarani belgilash qiyin. Jinoyatni ochish – bu jinoyat alomatlariga ega bo‘lgan harakat yoki harakatsizlik, hodisalarни, ya’ni jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoyat deb ta’riflanadigan (hisoblanadigan) harakat yoki harakatsizlik va hodisalarни oshkor qilishni (topish, aniqlash, belgilash va sh.k.) anglatadi.

Ko‘p holatlarda jinoyat alomatlariga ega bo‘lgan faktni aniqlash katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. Jinoyat o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi: uning sodir etilganligi to‘g‘risida kimlarningdir zararli harakatlari (uy yoqib yuborilgan, mulk o‘g‘irlangan yoki unga zarar yetkazilgan, tan jarohatlari yetkazilgan yoki sog‘liqqa boshqa zarar yetkazilgan, tanish yoki yaqin odam o‘ldirilgan, avtomobil o‘g‘irlangan va h.k.) tufayli jabr ko‘rgan kishilar yoki tashkilotlar xabar beradilar. Bu holatlarda tegishli davlat tashkilotlari (odatda miliitsiya) manfaatdor shaxslar (jabrlanuvchilar) tomonidan ma’lumotni olgan vaqtidan boshlab jinoyat sodir etilganligi fakti aniqlangan va olingen ma’lumot tekshirilgach, jinoyat hodisasi amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Va bu o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim, chunki u ke-

yingi amalga oshirilishi kerak bo‘lgan faoliyatga, ya’ni tergovni olib borishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq ko‘p hollarda jinoyat sodir etilganligi fakti puxtalik bilan yashiriladi va uni aniqlash uchun vakolatlari organlarning tezkor harakatlari talab etiladi. Masalan, bankning yoki boshqa tijorat tashkilotlarining o‘z mijozlariga zarar keltiruvchi hiylanayranglarini aniqlash o‘ta yuqori malakali tekshiruv ishini amalga oshirishni talab etadi. Bundan tashqari, to‘satdan yo‘qolib qolgan kishining taqdirini aniqlash, josuslar tomonidan o‘ta yashirin amalga oshiriladigan ishlarni va boshqalarini aniqlash ham juda murakkab hisoblanadi. Bunday holatlarda jinoyat alomatlarini aniqlashda maxsus tayyorgarlikka egalik, tegishli texnik uskunalar bilan ta’minlanganlik va ishni yaxshi tashkil etish talab etiladi. U puxta rejalashtirilgan harakatlar tizimi kabi amalga oshiriladi va ma’lum bir bosqichga kelib jinoyat alomatlariga ega bo‘lgan faktini tergov qilishga o‘tadi. Bunday harakatlar ma’lum holatlar va aniqlanayotgan faktlar mazmuniga ko‘ra turli xil nomlanishi mumkin – razvedka, kontrazvedka va ko‘pchilik hollarda fezkor-qidiruv harakatlari. Odatda, ko‘pchilik sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan aynan ana shu harakatlar qo‘llaniladi.

Jinoyatni tergov qilishdan oldin uni oshkor qilish amalda bo‘lmashigi ham mumkin. Ko‘pgina hollarda bir jinoiy ishni tergov qilish jarayonida boshqa jinoyatlarning alomatlari bo‘lgan faktlar aniqlanadi. Bunday hollarda jinoyat alomatlari bo‘lgan harakatlarni aniqlash va ularni tergov qilish o‘rtasida aniq bir chegarani belgilash mumkin emas.

Jinoyat ishlarini tergov qilish odatda *dastlabki tergov* deb ataladi. Chunki, dastlabki tergov jarayonida dastlabki xulosalarga kelinadi va so‘ngra jinoyat ishi sudda ko‘rib chiqiladi. Dastlabki tergov jarayoniga jinoyat sodir etilganligini aniqlash, ayblanuvchi yoki ayblanuvchilarni qidirish va ularning jinoyatlarini oshkor qilish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash choralarini ko‘rish va yangi jinoyatlarning oldini olishdan iborat ishlar kiradi. Dastlabki tergov vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta’rifda ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun dastlabki tergov organlariga qonunga muvofiq (asosan

JPKda keltirilgan) alohida vakolatlar berilgan. Birinchi navbatda, ularning vazifalari shaxsning jinoyat sodir etganlikdagi aybi yoki aybsizligi bo'yicha dalil-isbotlarni to'plashdan iboratdir. Agar dastlabki tergov organlari tomonidan shaxsning aybdorligi bo'yicha dalil-isbotlar to'planib bo'linsa, u holda bu organlar ayblov xulosasida o'zlarining xulosalarini bayon etgan holda, tergovning qonuniyligi ustidan nazorat qiluvchi tegishli prokurator orqali barcha ish materiallarini sudga taqdim etadilar. Sud o'z navbatida shaxs (shaxslar)ning jinoyat qilganlikdagi aybi masalasini ko'rib chiqadi va jazo chorasi belgilaydi.

Sudda tergov natijasida chiqarilgan, dalil-isbotlar bilan tasdiqlangan ayblov ko'rib chiqiladi. Sud tergov organi chiqargan xulosalarni va istisno qilgan versiyalarni tekshirib chiqadi. Ushbu ma'lumotlar bilan sudni ta'minlash surishtiruv va dastlabki tergov jarayonining vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham sudda ishni ko'rib chiqishda tergov jarayonining ahamiyati muhim ekanligini bejiz ta'kidlab o'tilmagan¹.

Tergov organlari sudda bo'limgan imkoniyatlarga ega. Ular jinoyat-protsessual dalil-isbotlarning manbalarini tezkor qidirish, to'plash va tekshirishdan iborat tergov harakatlarini olib boradilar. Shu bilan birga ular tezkor-qidiruv harakatlarning natijalaridan foydalananadilar. Qonunda belgilangan, chegaralangan vaqt mobaynida (JPK 341 va 351-moddalar) tergov organlari jinoyatni ochishlari, ayb e'lon qilishlari va ayblanuvchini fosh qilishlari shart. Tergov harakatlarini amalga oshirish jarayoni jinoyat ishini qo'zg'atish vaqtida ma'lum bo'limgan boshqa jinoyatlarni aniqlashga ham imkon beradi.

Jinoyat ishlarini tergov qilish butun bir protsessual chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda dastlabki tergovning ahamiyati naqadar katta ekanligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin. Sud hukmining qonuniyligi, asoslanganligi va adolatliligi dastlabki tergovning tezkorligi, o'z vaqtidaligi va xolisligiga bevosita bog'liq. Yuqori sifatli va puxta amalga oshirilgan dastlabki tergov sudga jinoyat ishini to'g'ri ko'rib

¹ Башкатов Л.М., Ветрова Г.Н., Донценко А.Д., Зажицкий В.И. Уголовный процесс / А.И. Dolgovанин тархри остида. – М.: НОРМА, 2001. - В.311.

chiqish, sudlanuvchining aybdorligi yoki aybsizligini aniqlash, tegishli jazoni belgilashga imkon beradi.

O'zRda dastlabki tekshirish dastlabki tergov shaklida olib boriladi. Surishtiruv dastlabki bosqich sanaladi. Surishtiruv va dastlabki tergov organlari o'rtasida ham o'xhashlik, ham farqli tomonlar mavjud. Ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat: ular turli xil jinoyat ishlari bo'yicha bir xil vazifalarni amalga oshiradilar; jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan holatlarda o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'ashlari shart; o'z faoliyatlarini yagona jinoyat-protsessual qonunchilik asosida amalga oshiradilar; o'z faoliyatlar davomida yagona protsessual qoidalarga amal qilishlari lozim.

Ular o'rtasidagi asosiy farq surishtiruv va dastlabki tergov jarayoni turli organlar tomonidan amalga oshirilishidadir. Ma'lum holatlarda surishtiruv dastlabki tergovdan oldin amalga oshiriladi. Bundan tashqari, surishtiruvchi va tergovchining vakolatlari hamda surishtiruv va tergov muddatlari bo'yicha farq mavjud.

JPKning 345-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida barcha jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilishi shart.

Surishtiruv organlariga jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda jinoyatni sodir etganlikda guman qilinuvchilarni ushlash maqsadida jinoyat-protsessual qonunchilikda ko'zda tutilgan tergov harakatlarini o'tkazish, tegishli tezkor-qidiruv ishlarini o'tkazish va boshqa choralarini ko'rish vakolatlari berilgan.

Tezkor-qidiruv ishlari jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Buni shaxslarning huquq va erkinliklarini, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, mulk huquqini himoyalash, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida oshkora yoki maxfiy ravishda amalga oshiriladigan tezkor-qidiruv chora-tadbirlaridan iborat faoliyat sifatida ta'riflash mumkin.

Dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy maqsadi jinoyatchilikka qarshi kurashishdir. O'z mohiyatiga ko'ra ular huquqiy xarakterga egalar. Biroq tezkor-qidiruv

yordamchi bo‘lib, uning natijalari ish bo‘yicha dalil-isbot bo‘la olmaydi, faqat tergovni olib borishda yo‘l ko‘rsatuvchi ma’lumotlar hisoblanadi. Shu bilan bирgalikda, muvofiqlash-tirilgan holda olib borilgan tezkor-qidiruv va tergov harakatlari jinoyatlarni ochish va ularni sodir etgan shaxslarni fosh qilish imkonini beradi. Aynan shu sababdan o‘ta murakkab va xavfli jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda idoraviy tezkor-qidiruv guruhlari bilan bir qatorda idoralararo tezkor-qidiruv guruhlari tashkil etiladi.

13.2. Dastlabki tergov tushunchasi va uning vazifalari

Jinoyat ishlarini sudda ko‘rish va protsessual huquqning muhim tarkibiy qismlaridan biri dastlabki tergov bo‘lib, uning vazifasi O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadiga yo‘naltirilgan samarali kurash olib borishni ta‘minlash hisoblanadi.

Bu vazifani har bir jinoyat ishi bo‘yicha obyektiv haqiqat o‘rnatalishi ta‘minlangandagina amalga oshirish mumkin. Jinoyat ishi bo‘yicha obyektiv haqiqatni belgilash, ya’ni haqiqatda voqealar qanday bo‘lganligini tekshirish uchun ayblanuvchining aybdorligi va jinoyat qilganligi bo‘yicha dalil-isbotlarni to‘plash, asoslash, baholash va yagona bir tizimga keltirgan holda xulosa chiqarish darkor.

Shu maqsadda ish sudda ko‘rib chiqilmasdan oldin har bir jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazilishi lozim. Odatta, dastlabki tergovning o‘tkazilish vaqtini jinoyat sodir etilgan vaqt bilan bir paytda va yakka tartibda olib boriladi hamda ishni sudda ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan dalil-isbotlarni to‘plashda o‘ta harakatchanlik va tezkorlikni ta‘minlab beradi.

Dastlabki tergov organlari butun faoliyatları davomida hech bir jinoyat ishi ochilmasdan qolmasligi va hech bir jinoyatchi jinoiy jazodan qochib qutulmasligini ta‘minlashga harakat qiladilar. Bundan tashqari, bu organlar faqat haqiqiy jinoyat-chilarnigina qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ta‘minlash yo‘lida o‘z faoliyatlarini tashkil etadilar. Dastlabki tergov

davomida ish holatlari har tomonlama, to‘liq va xolisona tek-shirib chiqiladi va bu jarayon vaqtida ayblanuvchini qoralovchi yoki oqlovchi hamda aybni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar aniqlanadi.

Shunga qaramasdan, tergov dastlabki, deb ataladi, chunki uni yuritish davomida jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning aybdorligi masalasi hal etilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq «Jinoyat sodir et-ganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar yaratib beriladi». Shaxsni faqat sud aybdor deb topishi mumkin, lekin bu dastlabki tergovning ahamiyati kansitilishini anglatmaydi. Dastlabki tergovning sifatlari va to‘liq amalga oshirilishi sudda ishni muvaffaqiyatli ko‘rib chiqilishining garovi sanaladi. Agar ushbu shart bajarilmasa va sud jarayonida to‘ldirilmasa, u holda ish qo‘srimcha tergovga yuboriladi.

A.M. Larin dastlabki tergov faoliyatini tavsiflar ekan, u «sudgacha va sud uchun amalga oshiriladi»¹, deb ta‘kidlagan.

Bu tavsif shunchakijonli o‘xshatish bo‘lib, unchalik to‘g‘ri emas. Tergov qilinayotgan jinoyat ishi sud jarayonigacha borib yetmasligi ham mumkin. Agarda qonuniy asoslar mavjud bo‘lsa, u holda ish tergovchi yoki prokuror tomonidan tuga-tilishi mumkin.

Dastlabki tergov jinoyatni oshkor qilish usullari va shakllari, aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish va ishni sudga taqdim etish uchun zamin yaratish kabi protsessual qoidalarni tartibga soluvchi yuridik normalarni o‘zida mujassamlashtirgan jinoyat-protsessual huquqining murakkab instituti hisoblanadi. Bunda tashqari, ushbu institutning normalari jinoyat ishini tergov qilish davomida jinoiy harakatning yuz bermaganligini aniqlasa yoki qonunga muvofiq asoslarga ko‘ra aybdorni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish taqozo etilgan holatlarda jinoiy ishni tugatish tartiblarini ham belgilab beradi.

Dastlabki tergov instituti vujudga kelgan paytdan beri jinoyat-protsessual huquqning ajralmas bir qismi bo‘lib kelmoqda.

¹ Ларин А.М. Расследование по уголовному делу. Планирование, организация. –М.: Юрид. лит., 1970. -В.9.

Uning maqsadi har doim dastlabki tergov va surishtiruv organlarning faoliyati mobaynida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy barqarorligi, aniqligi va ochiq-cydingligini ta'minlash hamda o'zboshimchalik va qonunsizlikni bartaraf etish, fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iboratdir.

Dastlabki tergov deganda jinoyatlarni ochish, ayblanuvchini jinoiy javobgarlikka tortish va jinoyat ishini sudda ko'rib chiqishga tayyorlashdan iborat jinoyat protsessining bir bosqichi tushuniladi.

Dastlabki tergov o'zining mohiyati va maqsadini ifodalovchi quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi.

Avvalambor, u jinoyatni ochish, ayblanuvchini jinoiy javobgarlikka tortish va jinoyat ishini sudda ko'rib chiqishga zamin yaratish davomida vujudga keladigan protsessual harakatlarning uzviyligidan iborat bo'lgan protsessual faoliyat hisoblanaadi. Dastlabki tergov jarayonida faqat bevosita jinoyat-protsessual qonunchiligidan ko'zda tutilgan choralar nigarina qo'llashga yo'l qo'yiladi¹. Shu bilan birga yuqorida aytib o'tilgan harakatlar va munosabatlar har bir ish bo'yicha obyektiv haqiqatga, qonun talablariga amal qilingan holda va fuqarolar huquqlari himoyasini ta'minlangan holda amalga oshirilishi lozim.

Dastlabki tergov bo'yicha barcha protsessual faoliyat maxsus mansabdor shaxslar – tergovchilar tomonidan amalga oshiriladi. Qonun boshqa hech qanday idora va shaxslarga tergov olib borish vakolatini bermagan. Prokuror bundan mustasno. Surishtiruv organlarining jinoyat ishi bo'yicha surishtiruvni boshlashlari (JPK 340-modda) dastlabki tergov hisoblanmaydi. Hozirgi kunda barcha jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilishi shart (JPK 345-modda, 1-band), surishtiruv esa amalga oshirilmasligi ham mumkin.

¹ Ayrim xorijiy mamlakatlarda, jumladan AQSHda tergov organlari xodimlarining faoliyat yuritishining tartibi va shartlarini davlat va uning barcha hududida bir xilda belgilovchi qonun yo'q. AQSHda huquqiy norma sifatida faqat AQSH Konstitutsiyasi va AQSH Oliy sudining qarori tergov organlari faoliyati chegarasini bir xilda belgilaydi va huquqiy munosabatni tartibga soladi - Qarang: Николайчик В.М. Уголовный процесс СИА. - М.: Наука, 1981. - В.19.

Jinoyat-protsessual kodeksining 344-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmati tergovchilar olib boradi. Dastlabki tergovni prokurorlar ham olib borishlari mumkin.

Ammo tergovchilarning davlat apparati tizimidagi o'rni masalasi bizning yuridik adabiyotimizda ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan.

Dastlabki tergovni kim olib borishi kerak, degan masala bo'yicha turli nuqtayi nazarlar bildirilgan. Bir toifadagi mualiflar barcha tergovchilarni prokuratura organlarida mujassam-lashtirish kerak desa, ikkinchi toifadagilari – miliitsiya organlarida va uchinchi toifadagilari – maxsus tergov organlarida mujassamlashtirish kerak degan fikrlarni bildirganlar. Yuqorida-gi har bir taklif ham ijobjiy, ham salbiy tomonlarga ega¹.

Ayni paytda qonun chiqaruvchi organ tergov apparatlari prokuratura organlari, IIV va MXXda faoliyat yuritishi lozim, deb topgan. Dastlabki tergovni prokurorlar ham olib borishlari mumkin (JPK 344-modda). Bu tergovchilar protsessual jihatdan bir xil mustaqillikka ega bo'lib, ularning vakolatlari faqat tergov qilinayotgan ishlarning tegishliligi bo'yichagina aniq belgilab beriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 121-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi.

Turli idoralarning tergovchilarli o'rtasida ishlarni ko'rib chiqish ketma-ketligi amalga oshirilgan jinoyatlarning xarakteri va ularni tergov qilishning o'ziga xos jihatlariga qarab aniqlab beriladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlarni ko'rib chi-

¹ Перлов И.Д., Рагинский М.Ю. Назревшие вопросы дознания и предварительного следствия. //Сов. гос. и право, 1957, №4. - Б.115-121; Стrogovich M.C. О дознании и предварительном следствии и о едином следственном аппарате. Соц. законность, 1957, №5, - Б.19-26; Истина...и только истина! Пять бесед о судебно-правовой реформе. - М.: Юрид. лит., 1990. - В.240-309.

qish ketma-ketligi tartibi prokuratura, MXX va IIVning tergov apparatlariga bir xil og'irlikdagi vazifalarni yuklaydi (JPK 345-346-moddalar).

Shunday qilib, dastlabki tergov jinoyat protsessida suddan tashqari bo'lgan faoliyat hisoblanishini xarakterlaydi. Ammo ba'zi xorijiy mamlakatlarda, xususan Fransiyada qonunga muvofiq dastlabki tergovni olib borish vazifasi tergov sudyasining zimmasiga yuklatilgan. Buning uchun politsiya surishtiruv tamomlangandan so'ng prokuror tomonidan chiqariladigan xulosa asos bo'ladi. Bunday xulosa prokuror ushbu ish bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazish lozim deb topgan hollarda chiqariladi. Aks hollarda to'liq tergov ko'rinishidagi surishtiruv politsiya organlari tomonidan olib boriladi va bu aksariyat jinoyat ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

Dastlabki tergov jarayonida tergov sudyasi jinoyat-protsessual qonunchilikda ko'zda tutilgan barcha zarur tergov harakatlarini amalga oshiradi, protsessual majburlov choralarini ko'rish haqida buyruq chiqaradi. Bundan tashqari, ayblanuvchini «ijtimoiy tekshiruvdan» o'tkazadi, ya'ni uning ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va oilaviy ahvolini, sog'ligi va psixikasining ahvolini o'rganadi. Ma'lum bo'lgan ma'lumotlar sudya tomonidan hisobga olinadi, lekin bevosita jinoyat ishi materiallariga kiritilmaydi, alohida yuritiladi. Dastlabki tergovni tugatgach, tergov sudyasi prokuror bilan kelishilgan holda ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqaradi¹.

Shunday qilib, ba'zi xorijiy mamlakatlarda e'tirof etilgan tergov konsepsiyalariغا muvofiq dastlabki tergovni tergov sudyalari yoki sud tergovchilari tomonidan amalga oshirilishi bizda kerakligicha e'tirof etilmagan va rivojlanmagan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida dastlabki tergov qonuniylik va shaxs huquqlari kafolatini mustahkamlash, fuqarolarni qonun va huquq-tartibotni hurmat qilish ruhida tarbiyalashda jinoyat protsessining muhim bir bosqichi bo'lib kelmoqda.

Nihoyat, dastlabki tergovning asosiy masalalaridan biri – uning vazifalari hisoblanadi.

¹ Абдумаджидов Г.А., Саркисянц Г.П. Правосудие и уголовный процесс Франции, Высшая школа МВД, ТГЮИ. – Т.: 1992. - В. 28-29.

Barcha tergovchilar uchun umumiyligini bo‘lgan va ular faoliyatining asosiy yo‘nalishini belgilab beradigan protsessual vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasida o‘z ifodasini topgan.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘limgan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashdan iboratdir (JPK, 2-modda).

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarining oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam berishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq barcha jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazilishi shart (JPK, 345-modda, 1-qism). Surishtiruv esa jinoyat ishini tergov qilishning dastlabki bosqichi (u hamma ishlar bo‘yicha o‘tkazilishi shart emas) bo‘lib, unda jinoyat izlarini aniqlash va jinoyatni oshkor qilish hamda jinoyatchini topish uchun tezkor-qidiruv harakatlarini amalga oshiradi.

13.3. Dastlabki tergov va surishtiruv. Ularning o‘zaro munosabati

Dastlabki tergov – bu uni amalga oshirish vakolati berilgan mansabdor shaxslar – tergovchilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, protsessual qonunchilikka qat’iy amal qilingan holda amalga oshiriladi va asosiy maqsadi jinoyatlarini aniqlash va ayblanuvchilarni fosh qilish hamda jinoyat sodir bo‘lishiga olib kelgan sabab va sharoitlarni belgilashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uni prokuratura, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi. Dastlabki tergovni prokurorlar ham olib borishlari mumkin (JPK, 344-modda).

Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida asosiy ish ko‘lamini tergovchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ammo ba’zi

holatlarda shu ishlar bo'yicha dastlabki tergovdan oldin surish-tiruv amalga oshiriladi.

Ko'pchilik hollarda sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat ishlari bo'yicha xabar, ariza va shikoyatlarni surishtiruv organlari oladilar va ishni o'rganishni boshlaydilar. Ushbu holatlarda surishtiruv organlarining faoliyati dalillarni toplash va asoslash hodisa sodir bo'lgan joyni aniqlash hamda jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish va qo'lga olish, jinoyatning oldini olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga o'z vaqtida tezkorlik bilan harakat qilish va moddiy-texnik jihatdan yaxshi ta'minlanganlik xizmat qiladi. Shu sababli deyarli har doim jinoyat ishlarini tergov qilishdan oldin amalga oshiriladigan surishtiruvning ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

Surishtiruvni protsessual qonunchilikka muvofiq vakolat berilgan davlat ma'muriy organlari amalga oshiradilar. Bu organlarga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protcessual kodeksining 38-moddasiga muvofiq quyidagilar kiradi:

1) militsiya;

2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari – ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek, o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtida harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yo o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;

3) milliy xavfsizlik xizmati organlari – qonunga ko'ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha;

4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazo ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolatorlari hamda turmalarining boshliqlari – shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, shuningdek, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;

5) davlat yong‘indan nazorat qilish organlari – yong‘inlarga doir va yong‘inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

6) chegarani qo‘riqlash organlari – davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

7) olis safarda bo‘lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoylarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari – tegishli bojxona, soliq va valuta to‘g‘risidagi qonun hujjalarni buzganlikka doir ishlar bo‘yicha.

Qonunda surishtiruv tushunchasiga ta’rif berilmagan.

Protsessual adabiyotda surishtiruv tushunchasi masalasi bo‘yicha yagona fikr mavjud emas. Ma’lum bir vaqtgacha ko‘pchilik protsessual qonunchilik mutaxassislarning ishlarida surishtiruvning asosiy belgisi, xususiyati sifatida uning ma’lum bir vaqt doirasida va kechiktirib bo‘lmasdan amalga oshirilishi, deb ko‘rsatib kelingan. Bundan tashqari, surishtiruv ishlari jinoyat ishini tergov qilish jarayonining ilk bosqichida amalga oshiriladigan harakatlar ekanligi ham ta’kidlangan. Ba’zi mualliflar surishtiruvni «tergovning dastlabki yoki eng sodda shakli» sifatida ta’riflaganlar. Boshqalari esa surishtiruvni jinoyat hodisasini va moddiy izlarini aniqlashdan iborat dastlabki faoliyat sifatida ta’riflaganlar¹. M.S. Strogovich tomonidan bildirilgan fikrga muvofiq jinoyatlarni ochish va ayblanuvchi shaxsni aniqlashga qaratilgan kechiktirib bo‘lmaydigan harakatlar surishtiruvning asosiy xususiyati hisoblanadi. «Surishtiruv – bu tergov jarayonining dastlabki bosqichi bo‘lib, unda jinoyat izlari qayd etiladi va jinoyatni oshkor qilish va jinoyatchini topish uchun amalga oshiriladigan kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlaridir»², deb yozgan M.S. Strogovich.

¹ Громов В. Дознание и предварительное следствие. – М.: 1928. -B.22.; Чельцов М.А. Советский уголовный процесс. – М.: 1951. - B. 288.

² Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса. – М.: 1958, B. 274. – Buni M.S. Strogovich keyinroq ham ma’qullagan. Qarang: Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса, Т.2, – М.: 1978. - T.27.

Yuqorida aytib o'tilganlar bilan bir qatorda, surishtiruv tu-shunchasi bo'yicha yangi nuqtayi nazarni bildiruvchi mualliflar ham mayjud. Ularning fikriga ko'ra surishtiruv – bu faqat ma'lum davlat (ma'muriy) organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, u tezkor-qidiruv va tergov funksiyalarining uyg'unligida amalga oshiriladi va asosiy maqsadi nafaqat jinoyatlarni oshkor qilish, shu bilan birga jinoyatlarni topish, ularning oldini olish va bartaraf etishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining 1959-yildagi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq surishtiruv ikki xil ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan:

1) ish bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lgan holatlar;

2) dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lmagan holatlar.

Ikkinci shakldagi surishtiruvda ish to'laligicha surishtiruv organlari tomonidan amalga oshirilgan va dastlabki tergov olib borilmagan hamda surishtiruv materiallari sudga taqdim etilgan¹.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yildagi yangi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq barcha jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilishi shart (JPK, 345-modda, 1-qism).

Hozirgi kunda jinoyatlarni tergov qilishning (расследование) asosiy va yagona shakli dastlabki tergov (следствие) hisoblanadi.

Jinoyat protsessida surishtiruv va dastlabki tergov o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi tergov organlarining butun tarixi davomida yuridik matbuotda dolzarb bahs-munozarali mavzulardan biri bo'lib kelgan. Bu bahs-munozarada ham protsessualist-olimlar, ham surishtiruv, tergov, prokura-tura, sudlar va adliya kabi organlarning amaliy xodimlari ishti-rok etib kelishgan.

1922-yilda professor P.I. Lublinskij yuqoridagi ikki shakldagi surishtiruvni «prokuror surishtiruvi» nomli bitta shaklga birlashtirishni taklif etgandi².

¹ Surishtiruvning bunday turlari Rossiya Federatsiyasi amaldagi JPKning 119, 120-moddalarida nazarda tutilgan.

² Qarang: П.И. Люблинский. Проект уголовно-судебной реформы в Германии в сопоставлении с УПК РСФСР, 1922. №3; его же гарантии прав подозреваемого при производстве дознания, «Вестник советской юстиции», 1924, № 15/25. - В.457-469

Dastlabki tergov va surishtiruvni yagona dastlabki tergovga birlashtirish va uni amalga oshirishni maxsus yaratilgan tergov apparati zimmasiga yuklash takliflari ham bildirilgan. Bunday apparat qayerda tuzilishi va qanday nomlanishi masalasi ochiq qolib ketgan.

Prof. M.S. Strogovich bir necha yillardan buyon boshqa bir fikrning tarafdori bo‘lib kelmoqda¹. Uning fikriga ko‘ra surishtiruv va dastlabki tergov o‘rtasida farq va qat’iy chegara mavjud emas. Surishtiruv ma’lum bir vaqtida tergovga aylanadi. Jinoyatni tergov qiluvchi barcha shaxslar tergovchilarga aylanadilar. Bunday holatni o‘zgartirish darkor. Tergovni surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlariga bo‘lishni saqlab qolish kerak. Ammo asosiy vaziyat tergovchilarga tegishli bo‘lmog‘i lozim. Faqat oddiy, uncha ijtimoiy xavfli bo‘lmagan ishlar bo‘yichagina surishtiruvni amalga oshirish bilan chegaralanib qolish mumkin.

Tergov olib borish ko‘zda tutilgan ishlar bo‘yicha surishtiruv faqat dastlabki va kechiktirib bo‘lmaydigan harakatlarni amalga oshirish bilan chegaralanishi lozim. Surishtiruv organlari bu ishlar bo‘yicha faqat qidiruv funksiyalarini bajarish huquqiga ega xolos va ularning faoliyati dastlabki tergov uchun yordamchi xarakterni kasb etishi kerak. M.S. Strogovich o‘zining fikrini qo‘llab-quvvatlovchi ishchonchli dalillarni keltirgan. Surishtiruv va tergov organlarining ishlash sharoitlari va amaliy vazifalari bir-biridan farq qiladi. Ish bo‘yicha dastlabki materiallarni topish, to‘plash va asoslash, jinoyatchini bevosita va faol ravishda axtarish, uni topish va jinoyatchini fosh qilish kabilar surishtiruv organlarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Dastlabki tergov organlarining ishlari esa boshqa shart-sharoitlarda amalga oshiriladi va vazifalari ayblanuvchining ayblilik masalasini har tomonlama, chuqur o‘rganish, barcha dalillarni to‘plash va tahlil qilish hamda ayblanuvchiga qo‘ylgan ayblovdan o‘zini himoya qilishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratib berishdan iboratdir.

Murakkab ishlar bo‘yicha tergovning surishtiruv organlari tomonidan amalga oshirilishi bu organlar faoliyatini murak-

¹ Стrogович М.С. Вопросы уголовного процесса и Новая Конституция. Соц. законность, 1936, №7; Yana uning: Уголовный процесс. –М.: 1946.

kablashtirishi va samaradorlikning kuchsizlanishiga olib keli-shi mumkin edi. Bu o‘z navbatida jinoyatchilikka qarshi kurashga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lar edi.

Prof. M.S. Strogovichning fikrlarini professorlar M.A. Chelsov, D.S. Karel, dots. I.A. Gelfand, yu.f.n. R.D. Raxunovlar ham qo‘llab-quvvatlaganlar.

Yuqoridagi barcha mualliflar militsiya va prokuraturaning tergov apparatidagi parallelizmi va ko‘p bosqichlilik jinoyatchilikka qarshi kurashga to‘sinqinlik qiladi va jinoyat ishlarni tergov qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda rasmiyatchilikning kuchayishiga olib keladi, degan fikrdalar. Ko‘pincha jinoyat ishlari militsiya organlaridan tergov organlariga o‘tguncha bo‘lgan vaqt mobaynida jinoyatchilar va ularning hamtovoqlari jinoyat izlarini yashirishga, dalillarni yo‘qotishga, o‘g‘irlangan boyliklarni berkitishga, guvohlarga ta’sir o‘tkazishga va hatto tergov va suddan qochib ketishga ulgurishlari mumkin. Murakkab ishlarni avval militsiya organlarida, so‘ng prokura-tura organlarida tergov qilishda ishni o‘rganish uchun prokura-tura tergovchilari ko‘p vaqt yo‘qotadilar, bundan tashqari, ol-din tegishli darajada amalga oshirilgan tergov harakatlarini takrorlaydilar.

Shularni hisobga olgan holda, 1994-yilgi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi nima sababdan jinoyatlarni tergov qilishning mustaqil shakli sifatida surish-tiruvdan voz kechganligini va surishtiruv organlarini jinoyat ishlari bo‘yicha to‘liq ish olib borishdan ozod etganligi va jinoyat ishlarini olib borishning yagona shaklini o‘rnatganligi tushunarli bo‘ladi.

Surishtiruv organi jinoyat ishini qo‘zg‘atganidan keyin kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini bajaradi va 10 sutka o‘tgach (JPK, 340-341-moddalar) ishni tergovchiga beradi.

Surishtiruvchi jinoyat ishini qo‘zg‘atganidan keyin yoki prokuror yoxud surishtiruv organining boshlig‘i tomonidan qo‘zg‘atilgan ishni olgach, darhol uni o‘z ish yurituviga qabul qiladi va kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini bajarish-ga kirishadi.

Quyidagi hollarda surishtiruv yuritish muddati o‘tishini kutmasdan surishtiruvchi ishni darhol tergovchiga o‘tkazishi lo-

zim, basharti: og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat aniqlangan bo‘lsa; muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo‘lsa; ishni tugatish uchun asoslar aniqlangan bo‘lsa; tergovchi ishning o‘z yurituviga berilishini talab qilgan bo‘lsa (JPK, 342-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 339-moddasida surishtiruvning vazifalari yaqqol belgilab berilgan bo‘lib, unga muvofiq surishtiruvning vazifalari quydagilardan:

- 1) jinoyatning oldini olish yoki una yo‘l qo‘ymaslik;
- 2) dalillarni to‘plash va saqlash;
- 3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushslash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish;
- 4) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta‘minlash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritishdan iborat.

Surishtiruv organlari zimmasiga jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so‘ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalarini qo‘llagan holda zarur choralarни ko‘rish yuklatiladi. Ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari organlari bu maqsadda tezkor-qidiruv choralarini ham ko‘rishiha haqlidir.

Shunday qilib, surishtiruv va dastlabki tergovni umumlash-tiruvchi jihatlar yagona maqsad – tergov qilinayotgan ishlar bo‘yicha obyektiv haqiqatni aniqlash va bir xil tergov o‘tkazish tartib-qoidalariga amal qilish (JPK, 39-modda, 4-qism) hamda jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq belgilangan bir xil vazifalardan (JPK, 2-modda) iboratdir.

Shu sababli qonunchilikni yanada mustahkamlash yo‘lida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar kuchlarini birlash-tirish o‘ta muhim sanaladi.

13.4. Surishtiruv organlarining rivojlanish bosqichlari

Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishidan avval hozirgi O'zbekiston hududida feodal davlatlar – Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi mavjud bo'lgan. Surishtiruv va dastlabki tergov organlari bu davlatlarda bo'lmasan. Sudda ishni ko'rib chiqish jabrlanuvchining shikoyat berishi bilan boshlangan. Odatda, qoziga o'z foydasiga ajrim chiqarish uchun hamda mufti va a'lamga «foydali» rivoyat to'qish uchun ko'proq pora bergen boyroq tomon ishda yutib chiqqan.

Joylarda jinoyatlarni ko'rib chiqishni ko'pincha hokimlar, beklar, feodal mulk boshqaruvchilari va yirik boylar amalga oshirganlar. Harbiylar va amaldorlarning jinoyatlarini qozi ko'rib chiqqan. Xorijiy fuqarolarning jinoyatlari va ularga nisbatan amalga oshirilgan jinoyatlarni ko'rib chiqish qushbegilar (amir yordamchilari) vakolatida bo'lgan¹.

Turkistonning istilo qilinishi bilan 1864-yildagi Rossiya sud nizomining tamoyillari joriy qilina boshlandi hamda prokuror nazorati va tergov organlarining tizimi tuzila boshlandi. Tergov surishtiruv va dastlabki tergov shakllarida amalga oshirila boshlandi. Surishtiruv II Vning qo'riqchi bo'linmasi va alohida shaharlarning jandarm-politsiya bo'linmalari tomonidan amalga oshirilgan.

Oktabr to'ntarishidan so'ng birinchi dastlabki tergov organi – tergov-yuridik bo'limi va birinchi surishtiruv organi – militsiya tashkil etilgan.

1926-yil 16-iyunda O'zSSR Markaziy Ijroiya Komitetining (TSIK O'zSSR) Prezidiumi dastlabki JPKni tasdiqladi va uni 1926-yil 1-iyuldan boshlab amalga kiritdi.

Ushbu kodeksning sakvizinchisi bobir surishtiruv organlariga bag'ishlangan bo'lib, u surishtiruv organlarini sanab o'tishdan boshlangan. Unga ko'ra quyidagilar surishtiruv organlariga kirganlar: militsiya va jinoyat qidiruv organlari; GPU organlari; soliq, sanitarni, texnik, savdo va mehnat inspeksiysi organ-

¹ Bu haqda to'liqroq qarang: Абдумаджидов Т. Расследование преступлений: (Процессуально-правовое исследование). - Т.: O'zbekiston, 1986. - B.14-25.

lari; hukumat organlari va bo‘ysunuvchilarning qonunga qarshi harakatlari bo‘yicha mansabdor shaxslar.

1929-yil 29-iyunda O‘zSSRning yangi Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilindi va shu yilning 1-avgustidan kuchga kiritildi. Qonunni soddalashtirish va mehnatkashlarga tushunarli bo‘lishi uchun qilingan harakat protsessual fan erishgan ko‘plab yutuqlardan voz kechishga, amaliyatda o‘zini oqlagan ko‘plab normalarning O‘zSSR JPKsidan chiqarib tashlanishiga sabab bo‘ldi. Avvalgi JPK ko‘plab kamchiliklarga ega bo‘lgandi, ammo 1929-yilda qabul qilingan JPK bu kamchiliklarni bartaraf etish o‘rniga ularni yanada ko‘paytirdi.

O‘zSSRning ushbu JPK 2-bobi 4-moddasida shunday deyilgan: «Dastlabki tergov tergovchilar, miliitsiya, jinoyat-qidiruv va GPU birlashgan organlari, maxsus inspeksiyalar hamda qonunga muvofiq tergov o‘tkazish vakolati berilgan boshqa hukumat organlari tomonidan amalga oshiriladi».

Bundan tashqari, quyidagilar ham tergov olib borish huquqiga ega bo‘lganlar:

– O‘g‘rilik ishlari, mansab va xo‘jalik sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha – tashkilot, idora va korxonalarining yurist-maslahatchilari. Shu tashkilot, idoralar va korxonalarining rahbarlari ishtiroy etgan ishlar bundan mustasno;

– Iste’mol jamoalari reviziya komissiyalarining raislari va a’zolari, xususan O‘zbekbirlashuv va O‘zkoop rayonlararo bazalarining instruktorlari – ushbu tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatlarini tekshirish natijasidagi materiallar asosida;

– O‘zbek ulgurji-chakana savdo trestlari tizimining instrukturlari – yuqorida ko‘rsatilgan xarakterda materiallar bo‘yicha;

Moliya-budget inspektorlari va Rayfo instruktorlari – qishloq budgetida bo‘lgan qishloq sovetlari va idoralaridagi budget mablag‘larini o‘g‘irlash va noto‘g‘ri sarflash borasidagi ishlar bo‘yicha.

Yuqorida sanab o‘tilganlar O‘zSSR 1929-yildagi JPKning 4-moddasida ko‘zda tutilgan «surishtiruv olib borish huquqiga ega bo‘lgan boshqa hokimiyat organlari» hisoblangan.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, yuqorida sanab o‘tilgan organlarning jinoyat ishini qo‘zg‘ash huquqlari ma’lum darajada chegaralangan bo‘lgan, chunki yuqoridagi mansabdor shaxslar

jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorni chiqargach, uning nusxasini nazorat qiluvchi prokurorga taqdim etishi shart bo‘lgan va prokuror ushbu qarorga e’tirozi bo‘lmagan holdagina jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan hisoblangan.

O‘zSSR JPKning 4-moddasi mazmunidan ko‘rinib turib-diki, unda surishtiruv va dastlabki tergov tushunchalari mavjud emas, chunki bu ikki tushuncha yagona «dastlabki tergov» tu-shunchasiga birlashtiriilgan. Kodeks bu ikki institut oldiga umumiy vazifalarni yuklagan hamda bir xil muddatda amalga oshirish tartibini belgilab bergen.

Tergovchi, miliitsiya va jinoyat-qidiruv organlari vakolati doirasidagi ishlar bo‘yicha tergovni boshlash huquqiga ega bo‘lganlar. Ishni ko‘rib chiqishni boshlagan organ kerakli tergov harakatlarini tamomlagach, tergovchining farmoyishini kutmasdan ishni uning ixtiyoriga berishi shart bo‘lgan. Ishni taqdim etgach, bu organlar alohida tergov harakatlarini faqat tergovchining topshirig‘iga muvofiq amalga oshirganlar.

Shu bilan birga, 1929-yildagi JPKning 10-moddasi tergovchiga har qanday ishni to‘liq tergov qilish uchun surishtiruv organlariga berish huquqini ham bergen.

20-yillarning oxiriga kelib surishtiruv va dastlabki tergov o‘rtasidagi chegara yo‘qolib bora boshladidi, chunki tergovchilar va prokurorlar o‘zlariga berilgan huquqdan foydalangan holda dastlabki tergov o‘tkazishni talab etadigan jinoyat ishlarini tergov qilish uchun surishtiruv organlariga yuborish amaliyotini keng qo‘llay boshladilar.

1934-1936-yillarda qabul qilingan umumittifoq qonunlariga muvofiq dastlabki tergovni olib borish huquqi quyidagi organlarga taqdim etildi: davlat jinoyatlari va boshqaruv tartiblariga qarshi jinoyat ishlari bo‘yicha - davlat xavfsizligi boshqarmalari organiga; yong‘inga qarshi qoidalarni buzganlik ishlari bo‘yicha – yong‘in xavfsizligi organlariga; ko‘cha harakati qoidalarni avtomobilda buzganlik, avtoavariyalar, transportdan noto‘g‘ri foydalanish va unga nisbatan jinoiy-xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lish va avtotransport tartib-qoidalarni buzish ishlari bo‘yicha – davlat avtomobil inspeksiyasiga.

50-yillarning o‘rtalarigacha surishtiruv va dastlabki tergov o‘rtasida aniq protsessual chegaralar mavjud bo‘lmagan. Bun-

day aniq chegaralar 1955-yil 24-maydagи SSSRda prokuror nazorati to‘g‘risidagi qoida, 1958-yil 25-dekabrdagi SSSR va ittifoq respublikalarida jinoyat ishlarini sudda ko‘rib chiqish asoslari va 1959-yil 21-mayda tasdiqlangan O‘zSSRning JPK kabi qonuniy aktlarning qabul qilinishi bilan paydo bo‘ldi.

Jinoyat ishlarini dastlabki ko‘rib chiqish asosida surishtiruv va dastlabki tergov kabi ikki shakl belgilandi va dastlabki tergov olib boruvchi organlarning to‘la ro‘yxati belgilab berildi.

Shunday qilib, jinoyat protsessida dastlabki tergov institutining rivojlanish tarixi bizga surishtiruv va dastlabki tergovning mavjud bo‘lishi o‘zini to‘la oqlashidan guvohlik beradi. Dastlabki tergovni surishtiruv bilan almashtirib bo‘lmaydi. Surishtiruvdan tergovning dastlabki protsessual shakli sifatida voz kechib bo‘lmaydi, chunki u jinoyatlarni bartaraf etish, oldini olish va shu tariqa jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularni kelтирib chiqaruvchi sabablarning oldini olish yo‘lida muhim o‘ringa ega¹.

13.5. Tergovchining protsessual vakolatlari. Tergovchining surishtiruv organlari bilan o‘zaro aloqasi

Tergovchi dastlabki tergov bosqichida tergovning o‘z vaqtida va sifatli olib borilishi uchun mas’ul bo‘lgan asosiy shaxs hisoblanadi. Uning vakolat va majburiyatları doirasi qonun bilan belgilangan. Lekin jinoyat protsessi fanida tergovchi mas’uliyatini oshirish masalasi muhim muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Tergovchi – dastlabki tergov bosqichida jinoyat ishini sudda ko‘rish vazifalarini bajarish, qonuniylik va fuqarolar huquqlarini ta’minlash, jinoyat sodir etgan har bir shaxsning jazosiz qolmasligi va biror aybsiz shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi shiga yo‘l qo‘ylmasligi uchun qonunni to‘g‘ri qo‘llashga mas’ul bo‘lgan jinoyat protsessining ishtirokchisidir.

¹ Хидоятов Б.Б. Проблемы регулирования дознания в Республике Узбекистан. Автореферат дис. на соиск. уч. степени канд. юр. наук. – Т.: 2002. -В. 9 -11.

Oliy yuridik yoki boshqa maxsus ma'lumotga ega bo'lgan, zarur kasbiy va axloqiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan, sog'lig'iga ko'ra o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajara oladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tergovcini bo'lishlari mumkin.

Jinoyat ishining xususiyati va mazmuni, bosqichi va murakkablik darajasi, malakalanishi va tergovchining tajribasidan kelib chiqqan holda tergovchilar har xil mansabda bo'lishi mumkin. Ular tergovchi, katta tergovchi, o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchi va o'ta muhim ishlar bo'yicha katta tergovchi deb atalishi mumkin. Dastlabki tergovning amalga oshirishiga ko'ra xodimlar lavozimining bunday nomlanishi tergov bo'limi bo'lgan barcha idoralarda mavjud.

Masalan, odatda, tuman va shahar prokuraturalarida tergovchi va katta tergovchilar, viloyatlar va O'zbekiston Respublikasi prokuraturasida tergovchi, katta tergovchi, o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchilar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida o'ta muhim ishlar bo'yicha katta tergovchi, o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchi va katta tergovchilar faoliyat yuritishadi. Ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati va harbiy prokuraturalarda ham tergovchilar mansablari deyarli shunday taqsimlanadi.

Tergovchini tayinlashning o'rni va maxsus vakolati protsessual funksiyalar deb nomlanadigan uning o'ziga xos faoliyat yo'nalishlarida o'z aksini topadi.

Ushbu masala turlicha hal etiladi. Bunda tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarning sonini hamma turlicha ko'rsatadi. Lekin tergovchi bitta funksiyani – jinoyat ishini tergov qilish vazifasini bajaradi degan fikr keng tarqalgan. Shu bilan bir vaqtida tergovchi ikki¹, uch², besh³ va hatto yetti⁴ funksiyani bajaradi degan fikrlar ham uchrab turadi.

¹ Стремовский В.А. Участники предварительного следствия в советском уголовном процессе. Ростов на дону. 1966. - В.122.

² Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса, Т.1, – М.: 1968. - В. 226.

³ Мариупольский Л.Н., Гольст Г.Р. К вопросу о процессуальных функциях следователя. – Сов. гос-во и право. 1963. №6. - В.114.

⁴ Фаткуллин Ф.Н. Обвинение и судебный приговор. Qozon. 1965. - B.62-63.

Ko‘p hollarda tergovchi funksiyalari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: ayblov, himoya, ishni hal etish, jinoyatchilikning o‘dini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashda jamoatchilikni jaib etish, tarbiyalash va boshqalar.

Tergovchining jinoyat protsessidagi huquqiy maqomiga bag‘ishlangan ilmiy ishda tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan sakkizta funksiyalar sanab o‘tilgan:

1. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqish;
2. Ish holatlарини о‘рганиш;
3. Jinoyat sodir etishda ayblash;
4. Fuqarolarni jinoyat sodir etishda asossiz ayblashning oldini olish;
5. Jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararning undirilishi va mulkni musodara qilish bo‘yicha hukmning ijrosini ta‘minlash;
6. Jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rish va jinoyatlarning oldini olish;
7. Turar joyi noma’lum bo‘lgan ayblanuvchilarga qidiruv e’lon qilish;
8. Jinoyat ishlarini hal qilish¹.

Adabiyotlarda protsessual funksiya tushunchasi bo‘yicha yakdil fikrga erishilgan taqdirdagina tergovchining funksiyalari to‘g‘risidagi bahs muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin. Hozircha bunday yakdil fikr mavjud emas. Bundan tashqari, tergovchi ayblov funksiyasini amalga oshiradimi, degan savol ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Tergovchi ayblov to‘g‘risida qaror chiqargach, ayblovchiga aylanmaydi va ayblov funksiyasini amalga oshirmaydi, u o‘zining yagona protsessual funksiyasi bo‘lgan jinoyat ishini tergov qilish, ya’ni ishni to‘la, har tomonlama o‘rganib chiqish, obyektiv haqiqatga mos keladigan isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlash bilan shug‘ullanadi.

Tergovchi o‘z funksiyalarini tegishli darajada bajarish uchun mas’ul hisoblanadi va tergovning yo‘nalishi hamda tergov harakatlarini yuritishga oid barcha qarorlarni, prokuror ruxsatini oladi, qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Bularning barchasi JPK ning 36-moddasida o‘z aksini topgan.

¹ Гуляев А.П. Следователь в уголовном процессе. – М.: 1981. - В.23.

Tergovchining mustaqilligi va mas'uldarligi tamoyili u bajaradigan funksiyalarning asosida yotadi. Bu tamoyil tergovchi dastlabki tergov davomida amalga oshiradigan jinoyat holatlarini o'rghanish funksiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan ish holatlarini o'rghanish jinoyat ishi bo'yicha oraliq va yakuniy qarorlarni chiqarish va ayblov yoki himoya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tergovchining ba'zi funksiyalari ma'lum bir jinoyat ishini ko'rib chiqishda bajarilmasligi ham mumkin (masalan, moddiy zarar qoplanishini ta'minlash, agar jinoyat moddiy zarar keltirish bilan bog'liq bo'lmasa). Ma'lum bir funksiyaning amalga oshirilishini jinoyat ishini o'rganib chiqmasdan turib aniqlash mushkul.

Tergovchining faoliyati bir qator harakatlar va qarorlardan iborat bo'lib, u Qonun talablariga muvofiq jinoyat ishini sifatlvi o'z vaqtida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Tergovchining shaxsiy mas'uldarligi u amalga oshiradigan barcha harakatlar, yechim va qarorlariga tegishli hisoblanadi. Tergovchiga protsessual mustaqillikni, ya'ni qonunga asoslangan holda va o'z ichki ishonchidan kelib chiqib ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqish uchun mustaqil harakat qilish imkoniyatini taqdim etmasdan turib undan mas'uldarlikni talab qilish mumkin emas.

Albatta, tergovchi mustaqilligining chegarasi yo'q emas. U tergovchiga berilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tergovchi o'z vakolatlarini amalga oshirish davomida fuqarolarning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya qilishi talab etiladi. Tergovchi, hatto, ayblanuvchiga nisbatan tergov harakatlarini amalga oshirish uchun so'roqqa chaqirish ham, ma'lum bir jihatdan shaxsning erkinligini cheklashga, ya'ni kundalik ish bilan shug'ullana olmaslikka sabab bo'lishi mumkinligini hisobga olishi lozim. Shu sababli, tergovchi barcha holatlarni chuqur tahlil qilgan holda ayblanuvchini tergov organiga chaqirish kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani hal qiladi.

Tergovchining fuqarolar huquq va erkinliklarini chegaralash bilan bog'liq vakolatlari, xususan qamoqqa olish (JPK, 243-modda) va tintuv o'tkazish (JPK, 161-modda) prokurorning sanksiyasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu bilan fuqarolar

huquq va erkinliklarini kafolatlash yanada mustahkamlanadi. Ayblanuvchini ishdan chetlatishda ham xuddi shu maqsadda prokuror sanksiyasi olinadi (O'zRJPK 256-modda 1-band)¹. Ushbu choralarни qо'llashda prokuror sanksiyasining talab qilinishidan bu borada tergovchi mustaqil qaror qabul qilmaydi degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Tergovchining mustaqilligi va mas'uliyatliligi tamoyili uning doimo nazorat ostida ekanligini ham o'z ichiga oladi. Qonunchilik tergovchiga prokuror ko'rsatmalarini bajarish majburiyatini yuklaydi. (JPK 382-modda).

Tergovchi prokurorning shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi, ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olish haqidagi, ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo'shimcha tergovga qaytarish haqidagi ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa, o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda quyi turuvchi prokurorning ko'rsatmasini yuqori turuvchi prokuror o'z qarori bilan yo bekor qiladi, yoki ish bo'yicha tergov yuritishni boshqa tergovchiga topshiradi (JPK 36-modda 1-band). Boshqa barcha hollarda, hatto u bilan kelishmaganda ham tergovchi prokuror ko'rsatmalarini bajarishga majbur.

Tergovchining prokuror ko'rsatmalari ustidan norozi bo'lib yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalari doirasi juda tor bo'lib, dastlabki tergovning ko'pgina muhim tomonlarini qamrab olmaydi. Amaliyotda ko'p uchraydigan ayblanuvchini tibbiy muassasaga joylashtirish, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushslash, jinoyat ishi materiallarini alohida ko'rish uchun ajratish, tergovni to'xtatish kabi hollarda tergov jarayonida prokuror ko'rsatmalari muhim o'rin tutadi.

Olimlarning fikricha tergovchini o'zining ichki ishonchiga qarshi holda jinoyat ishi bo'yicha qaror chiqarish uchun «yuqoridan ko'rsatma» asosida u yoki bu tergov harakatlarini

¹ Darslik mualliflari O'zR Konstitutsiyasining 19-moddasi talablariga asosan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklaydigan qarorlar faqat sud tomonidan qabul qilinishi kerak degan pozitsiyani yoqlaydilar.

amalga oshirishga majbur qilish noqonuniy hisoblanadi hamda bu tergovchining mustaqilligi va mas'uliyatliligi tamoyilini buzadi. Bundan tashqari, prokurorning ko'rsatmalariga qarshi bo'lgan tergovchi uni faqat rasmiy bajaradi.

Bizning fikrimizcha, tergovchining prokuror tomonidan xohlagan masala bo'yicha berilgan ko'rsatmalarga noroziligi, agar bu norozilik yuqori turuvchi prokuror tomonidan rad etilmagan bo'lsa, to'liq va har tomonlama tergovni amalga oshirish maqsadida tergovchini almashtirish zaruratinu vujudga kelтирди.

Tergovchi, boshqa mansabdar shaxslar singari, o'z vazifalarini bajarish jarayonida o'z faoliyatining tashkiliy va boshqa ta'minotlarga tayanish, faoliyati jarayonida davlatning yordamidan foydalanish huquqiga ega. Bu borada qonunchilik tergovchining o'z yurituvidagi ish yuzasidan qonunga muvofiq bergen yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiyligini talab etadi (JPK 36-modda 4 band).

Adabiyotlarda nafaqat tergovchining huquqiy maqomi, balki tergov bo'limi boshlig'inining ham huquqiy holati masalasi tadqiq etiladi. Tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinosi o'z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan tergovchilarning o'z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar, jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovni to'la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko'radilar.

Ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun unga quyidagi huquqlar berilgan: ishlarni tekshirib ko'rish, dastlabki tergov o'tkazish, shaxsnii ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish, jinoyatni tavsif qilish va aybloving hajmi, ishning yo'nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o'tkazish haqida tergovchiga ko'rsatmalar berish, ishni bir tergovchidan ikkinchi tergovchiga olib berish, ishni tergov qilishni bir necha tergovchiga topshirish, shuningdek, tergovchi vakolatlaridan foydalanib, dastlabki tergov olib borishda qatnashish va dastlabki tergovni shaxsan o'zi olib borish (JPK 37-modda).

Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘ining ish yuzasidan ko‘rsatmalari tergovchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir (JPK 374-modda 3-qism). Lekin olingen ko‘rsatmalar ustidan prokurorga shikoyat qilinishi, JPK 36-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, ularning ijro etilishini to‘xtatib qo‘ymaydi. Prokuror ko‘rsatmalari tergov boshqarmasi boshlig‘i uchun majburiydir.

Tergov doimo protsessual mustaqillikka ega bo‘lgan muayyan shaxs (tergovchi) tomonidan amalga oshirilsada, bizning fikrimizcha, tergovning protsessual tomonini boshqarsa bo‘ladi. Tergov boshqarmasining boshlig‘i biror jinoyatni tergov qilishni emas, balki jinoyat ishlarini tergov qilish uchun tergov-chilarning vazifasini taqsimlaydi va ularning faoliyatini boshqaradi. Bu borada quyidagi huquqlarga ega: dastlabki tergovni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, ishni bir tergovchidan ikkinchi tergovchiga olib berish, tergovni bir nechta tergovchilarga topshirish. Shulardan kelib chiqib, tergov boshqarmasi boshlig‘ining faoliyatida nisbatan mustaqil bo‘lgan quyidagi ikki yo‘nalish farqlanadi: jinoyat ishlarini tergov qilish ustidan nazorat qilish va o‘z bo‘ysunuvidagi tergovchilar (tergov bo‘linmalari)ni boshqarish.

Tergovchi va surishtiruv organlari o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni ko‘rib chiqishda shuni e’tiborga olish lozimki, jinoyat protsessual qonunchiligidagi surishtiruv organlariga jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish maqsadida tezkor qidiruv faoliyati o‘tkazish bo‘yicha choralar ko‘rish vazifasi yuklatilgan. JPKning 39-modda 3-qismi va 343-moddalariga asosan tergovchi surishtiruv organlari bajarishi uchun majburiy bo‘lgan quyidagi yozma ko‘rsatmalarni berishi mumkin: 1) tergov harakatlarini o‘tkazish to‘g‘risida; 2) tergov harakatlarini amalga oshirish jarayoniga yordam berish to‘g‘risida; 3) qidiruv harakatlarini o‘tkazish to‘g‘risida.

Tergovchi tergov harakatlarini olib borishni o‘zi bajara olmagan hollarda (masalan, bir vaqtning o‘zida bir necha tintuv, so‘roq yoki boshqa tergov harakati o‘tkazish kerak bo‘lib qolsa) yoki ushbu harakatni surishtiruv organlari tomonidan amalga oshirilishi taktik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lsa, surishtiruv

organlariga ko'rsatma berishi mumkin. Surishtiruv organlariga turli xildagi qaror chiqarishni talab etadigan tergov harakatlarini bajarish uchun ko'rsatma berilishi mumkin emas. Bularga ayb e'lon qilish, majburlov chorasi tanlash yoki o'zgartirish, ishni tugatish, to'xtatib qo'yish, jinoyat ishlarini qo'shish, ajratib olish va boshqa shu kabilalar kiradi.

Surishtiruv organlari tomonidan tergov harakatlarini amalga oshirish jarayonidagi yordami voqeja joyini qo'riqlash, jabrlanuvchining shaxsini aniqlash, ashyoviy dalillarni qidirishda ishtirok etish, tergov harakatini o'tkazishni tashkil etishda yordam berish kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Qidiruv ishlari o'tkazish bo'yicha ko'rsatma berish orqali tergovchi ishni tergov qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, tergov versiyalari va tergovning to'g'ri yo'nalishini tanlashga yordam beradigan qimmatli ma'lumotlar olishi mumkin.

Bunda quyidagi ikki holatni qayd etish lozim. *Birinchidan*, tergovchi tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan axborotni tekshirishi lozim. *Ikkinchidan*, ishni tergovchiga topshirgandan keyin surishtiruv organlari faqat tergovchining ko'rsatmalariga asosan shu ish bo'yicha tergov harakatlari o'tkazishi mumkin. Jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsi aniqlanmasdan ish tergovchiga topshirilgan hollarda surishtiruv organlari jinoyatchini topish bo'yicha tezkor qidiruv harakatlarini amalga oshiraveradi, faqat buning natijalari haqida tergovchini xabardor qilishi kerak.

Murakkab jinoyatlarni ochish odatda tergovchilar va militariya xodimlarining birgalikdagi faoliyati natijasi hisoblanadi. Shu maqsadda jinoyatlarning oldini olish, yashiringan jinoyatchilarni tezlikda topish masalalari bo'yicha ularning hamkorligini ta'minlash birinchi o'ringa chiqadi. Bunday hamkorlikning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi hisoblanadi.

Bu surishtiruv organlari xodimlariga tergovning muayyan bosqichi oldida turgan maqsad va vazifalarni inobatga olish va tezkor-qidiruv ishlарini amalga oshirishda tergovchi bilan mustahkam o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish majburiyatini yuklaydi.

Qonunda surishtiruv organlarining tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida tergovchiga ko'rsatadigan yordami nimalardan iboratligi ko'rsatilmagan. Amaliyot ko'rsatishicha,

u quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin: tergov harakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda yordam berish (hodisa joyini qo‘riqlash, tintuv, eksperiment vaqtida tartibni ta’minlash va boshqa hollarda) uchun surishtiruvchini jo‘natish; tergovchi tomonidan tergov harakatining samarasini oshirish maqsadida ko‘rilgan tezkor chorallarda ishtirokini ta’minlash.

Qonunga ko‘ra hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) tergovchi – navbatchi qism – jinoyat haqida xabar olgan hamda hodisa joyini ko‘zdan kechirishga chaqirgan jinoyat qidiruv xodimi;

2) tergovchi – aniq ko‘rinib turgan holatlar bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilgandan keyin u ochilgunga qadar jinoyat qidiruv xodimi;

3) xuddi shu subyektlar tomonidan va jinoyat ishi ochilgunga qadar oldin to‘xtatilgan ishlar bo‘yicha;

4) tergovchi – murakkab ishlarni tergov qilish jarayonida tezkor-qidiruv guruhi tarkibidagi jinoyat qidiruv xodimi.

Ko‘rinib turibdiki, tergovchilarning surishtiruv organlari bilan hamkorligi faqat qonunga emas, balki o‘zaro yaxshi munosabatlarga ham asoslanadi. Militsiya organlari odatda birinchi bo‘lib dastlabki tergov o‘tkazilganligini talab qiladi, jinoyat sodir etilganligi haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi. Qonunga asosan ular darhol hodisa joyiga kelishga va o‘scha zahotiyoy prokuror hamda tergovchini bu haqda xabardor etishga majbur. Militsiya tergovchidan farqli o‘laroq tezkor harakatlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlar bilan ta’minlangan. Shuning uchun O‘zR JPKning 339. 340. 341-moddalariga asosan ular kechiktirib bo‘lmaydigan barcha tergov harakatlarini, shuningdek, iz va dalillarning yo‘qolib ketishi oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rishi shart.

Jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv o‘n sutkadan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim (JPK, 341-modda). Surishtiruv jinoyat ishi tergovchiga o‘tkazish bilan tamomlanadi. Lekin qonunga ko‘ra quyidagi hollarda surishtiruvchi 10 kunlik muddat o‘tishini kutmasdan ishni darhol tergovchiga o‘tkazishi lozim:

1) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat aniqlangan bo‘lsa;

2) muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo‘lsa;

3) ishni tugatish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa;
4) tergovchi ishning o'z yurituviga berilishini talab qilgan bo'lsa, surishtiruvchi ishni tergovchiga o'tkazish haqida qaror chiqaradi (JPK, 342-modda).

Tergovchining tergov va qidiruv harakatlarini bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini surishtiruvchi tergovchining ijobi etish shartlari, tartibi va muddatla, i xususidagi ko'rsatmalariga muvofiq bajarishi shart.

Topshiriqni belgilangan muddatda bajarish imkoniyati bo'lmasa, surishtiruvchi bu haqda tergovchini xabardor qiladi va bajarish muddatini uzaytirishni yoki ijobi etish shartlari va usullarini o'zgartirishni iltimos qiladi.

JPKning 36, 39, 339, 343, 347-moddalarida jinoyat ishini qo'zg'atgandan tergov tugagunga qadar surishtiruvchi va tergovchi o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari ko'rsatilgan.

Tergovchi o'zining barcha topshiriqlari, ko'rsatma va talablarini surishtiruvchiga surishtiruv organining boshlig'i orqali yuboradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 39-moddasiga ko'ra surishtiruv organi boshlig'ining huquqiy holati o'rnatilgan. Unga ko'ra har bir surishtiruv organining rahbari surishtiruv organining boshlig'i sifatida harakat qiladi. Surishtiruvchi topshiriq asosida va surishtiruv organi boshlig'ining rahbarligi ostida harakat qiladi. Surishtiruv organi boshlig'ining yozma ko'rsatmasi surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruvchi ko'rsatmaga norozi bo'lsa, ko'rsatmani bajarishni to'xtatmay turib, bu ko'rsatma ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqlidir.

Prokurorning yozma ko'rsatmasi surishtiruv organining boshlig'i va surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruv organining boshlig'i va surishtiruvchi prokuror ko'rsatmasiga rozi bo'limgan taqdirda, ko'rsatmani bajarishni to'xtatmay turib, uning ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidir (O'zRJPK 39-modda 6-qism).

Shunday qilib, dastlabki tergov va surishtiruv organlari ning o'zaro hamkorligi deganda ushbu davlat muassasalari mansabdor shaxslarining jinoyatlarni ochish, aybdorlarni topish, kimningdir jinoiy faoliyati oldini olish va chek qo'yish, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni undirishga qaratilgan

kelishilgan faoliyati tushuniladi. Jinoiy ishlarni tergov qilishda tergov va surishtiruv organlarining kuchi va vositalarini birlash-tirish va bu orqali yanada samarali natijalarga erishish bunday hamkorlikning maqsadi hisoblanadi.

Ko‘pgina jinoyatlarni muvaffaqiyatli ochish tergov va tez-kor-qidiruv tadbirlarining oqilona o‘tkazilishiga bog‘liqligidan kelib chiqib doimo tergov va surishtiruv organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intilish lozim. Bunday hamkorlik masalalari o‘z ichiga tezkor vaziyatlarda katta tajribaga ega bo‘lgan surishtiruv organlari xodimlarining fikr-mulohazalarini va takliflari o‘z aksini topgan tergov qilish rejasida ko‘rsatilishi kerak.

Tergov va surishtiruv organlarining o‘zaro hamkorligi muayyan ish bo‘yicha dastlabki tergovning butun muddati davomida o‘zaro yordam berish, birgalikda tadbirlar o‘tkazish jarayonida o‘zaro axborot almashish va jinoyatlarni ochish aybdorlarni topishda o‘zaro mas‘uliyatilik kabilarni nazarda tutadi. Hamkorlikning shakl va usullari tergov qilinayotgan ishning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

13.6. Surishtiruv organlari

Qonun surishtiruv organlariga ta’rif bermaydi, faqat qu-yidagilar surishtiruv organlari hisoblanishini ta’kidlaydi:

1) militsiya;

2) harbiy qismalar, qo‘shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o‘quv yurtlarining boshliqlari – ularga bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek, o‘quv mashqlari o‘tkazilayotgan vaqtida harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog‘liq jinoyatlari yoki qism, qo‘shilma, muassasa yo o‘quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariiga doir ishlar bo‘yicha;

3) milliy xavfsizlik xizmati organlari – qonunga ko‘ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo‘yicha;

4) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tar-

zidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolyatorlari hamda turmalarning boshliqlari – shu muassasalar xodimlari xizmatni o‘tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, shuningdek, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha;

5) davlat yong‘indan nazorat qilish organlari – yong‘inlarga doir va yong‘inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

6) chegarani qo‘riqlash organlari – davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

7) olis safarda bo‘lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari – tegishinchalik bojxona, soliq va valuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha.

Surishtiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini kengroq ko‘rib chiqamiz. Ularning ba‘zi birlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

a) militsiya.

Bu organ bevosita ichki ishlar organlariga kiradi hamda 1991-yil 25-oktabrdagi Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi Nizom uning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Bu Nizomga asosan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda «vazirlik») Konstitutsiya va Mustaqillik Deklaratsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlik o‘z vakolatlari doirasida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlaydi hamda jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradi.

Vazirlik o‘z faoliyatini bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va hukumatiga bo‘ysunadi.

Vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi. Prezidentning vazirlikni tashkil etish va tugatish to‘g‘risidagi farmoni Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlik o‘z faoliyatini siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar va boshqa jamoat birlashmalaridan xoli ravishda amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublika ichki ishlar organlari faoliyatining strategik yo‘nalishlarini belgilash;
- ichki ishlar organlari faoliyatini umumiy boshqarish, muvofiqlashtirish, ularga tashkiliy-metodik va faoliyati samaradorligini ta’minlanishiga yordam berish;
- IIV tizimiga kiruvchi organlar, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyatida qonuniylikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish; ichki qo‘sishlarning harbiy va safarbarlik jihatdan tayyorligini ta’minlash;
- jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil qilish;
- fan va texnika yutuqlarini, samarali tajribalarni, boshqarishning progressiv shakllarini va ishslash metodlarini joriy qilish;
- ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish;
- organlarda kadrlar bilan ishslashning yuqori darajasini tashkil qilish;
- ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy kafolatlarini ta’minlash;
- uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashni tashkil qilish.

Vazirlik o‘z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda quydagi prinsiplarga asoslanadi:

- Kollegiallik va yakkaboshchilik;
- qonuniylik, shaxsni hurmat qilish, baynalmilallik;
- oshkorralik;
- davlat organlari, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari va aholi bilan aloqa qilish, jamoat fikrini hisobga olish;
- milliy, til, mahalliyligiga ko‘ra ichki ishlar organlari xodimlarining huquqlarining cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Vazirlik huquqiy faoliyatining asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;

– Vazirlar Mahkamasi normativ aktlari;

– O‘zbekiston Respublikasi IIVning normativ aktlari;

Vazirlilik o‘z vakolati doirasida normativ aktlar va ularni ijro etish maqsadida qaror, ko‘rsatma, yo‘riqnomalar qabul qiladi va qoidalarni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVligi davlat organlari, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, aholi va ommaviy axborot vositalarini respublikadagi vaziyat va ichki ishlar organlarining uni mustahkamlash borasidagi faoliyati hamda vazirlikning zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi haqida xabardor qilib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolardan vazirlikning vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni talab qilib olishga, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘z faoliyatini birgalikda amalga oshirishga va muvofiqlashtirib borishga haqli.

Vazirlikning boshqa vakolatlari unga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqadi:

– ichki ishlar organlari xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faoliyatini amalga oshirishida, jamoat tartibini saqlashda, huquqbazarlik profilaktikasida, kadrlar bilan ishslashda va qonuniylikni mustahkamlashda umumiyligini boshqaruvni va uslubiy nazoratni ta’minlaydi;

– jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat dasturini tayyorlaydi va amalga oshiradi, bu yo‘nalish bo‘yicha umumittifoq dasturini ishlab chiqishda ishtiroy etadi;

– ichki ishlar organlari faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida huquqiy ta’minlaydi;

– jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida respublika tadbirlarini o‘tkazishda va jamoat tartibini saqlashda kuch va vositalardan foydalanadi;

– O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ichki ishlar organlariga tegishli o‘quv yurtlari, transportlarda boshqaruvni amalga oshiradi;

– jinoyatchilik va boshqa jamiyatga qarshi qilmishlarni ogohlantirish va oldini olish chora-tardbirlarini ishlab chiqadi, vazirliklar, muassasa, korxona hamda tashkilotlarga jinoyat-

chilik va boshqa huquqbuzarliklarni vujudga keltiruvchi, sodir etilishiga sharoit yaratuvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf qilishi bo'yicha takliflarni beradi;

– fuqarolar, davlat, jamoat va boshqa tashkilotlarning iqtisodiy manfaatlarini g'arazli jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlaydi;

– tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

– qonunchilikka asosan tergov ichki ishlar organlariga tegishli bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni ta'minlaydi;

– tergov va suddan yashiringan ayblanuvchi, hukmni ijro etish va jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan mahkumlar, bedarak yo'qolganlar va qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarni qidirish ishlarini tashkil qiladi;

– boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalari bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari va bolalarning nazoratsiz qolishida ogohlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;

– qonunga asosan ichki ishlar organlariga ijro etish vazifa-si yuklatilgan bo'lib, sud ajrimlari, prokuror qarorlari va tergovchining prokuror ruxsati olingan qarorlari, surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxslarning shaxsni ushlab turish haqidagi xulosasi, shuningdek, boshqa majburlov choralarini qo'llash haqidagi qarorlar ijrosini ta'minlaydi;

– ushlanganlar va qamoqqa olingen shaxslarni qo'riqlash va kuzatish tashkil qilinishini ta'minlaydi;

– qonunda ichki ishlar organlari tomonidan ijro etilishi ko'rsatilgan, sudlarning ozodlikdan mahrum etish, surgun qilish va boshqa jazo turlariga hukm qilingan shaxslar ustidan chiqargan hukmlari ijrosini tashkil etishni ta'minlaydi;

– sudlanganlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash borasida-gi ishlarni tashkil qiladi, ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinganlarning belgilangan tartibga qat'iy rioya qilishlarini, ular bilan siyosiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi, vazirlik va muassasalar bilan birgalikda sudlanganlarning umumtarbiyaviy va kasbiy-texnik tayyorgarligini amalga oshiradi, mahkumlarning shaxsiy xususiyatlari, jinoyatning xarakteri, shaxsning mehnatga munosabatini va ijtimoiy xavfliliginini hisobga olib ularga nisbatan qo'llaniladigan tarbiya vositalarini

va tarbiya ishlarini amalga oshirishda pedagogika, psixologiya va boshqa fan yutuqlarini qo'llagan holda individual yonda-shishni ta'minlaydi;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga ularning mehnatga joylashishiga va maishiy ta'minlanishiga yordam beradi, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan mahkumlar ustidan ma'muriy nazoratning amalga oshirilishini ta'minlaydi, shuningdek, shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan shartli ozod qilinganlar ustidan qonunga mu-vofig nazoratni amalga oshiradi;

– shaharlar va boshqa aholi punktlarida yo'l harakatini va avtomobil harakatini tartibga soladi, vazirliklar, muassasa va transport korxonalari tomonidan avtotransport va shahar elektrotransporti avariylarining oldini olish tadbirlarining o'tkazilishini ta'minlaydi;

– fuqarolar, korxona, muassasa va tashkilotlarga tegishli avtotransport vositalari registratsiyasi va hisobini, shuningdek, bu transport vositalari texnik holati ustidan nazoratni olib boradi;

– ko'chalarni, avtomobil yo'llarini ta'mirlash ishlarini na-zorat qiladi, harakat xavfsizligini ta'minlaydi, ularning holati ni nazorat qilish bo'yicha nazoratni amalga oshiradi, ulardan foydalanish shartlarini yaxshilash bo'yicha choralar ko'radi, belgilangan tartibda ko'chalarining alohida joylarida, avtomobil yo'llarida tartibni o'rnatish maqsadida harakat xavfsizligiga tahdid bo'lganda avtotransport, piyodalar harakatini cheklaydi va taqiqlaydi;

– belgilangan tartibda korxona, muassasa va boshqa obyektlarni, fuqarolar xonardonini qo'riqlashni tashkil qiladi va amalga oshiradi, shuningdek, biror korxonaga tegishli qo'riqlash xizmatini tekshiradi, ularni qo'riqlashning ishonarliligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish choralarini ko'radi;

– davlatga qarshi qaratilgan o'ta xavfli jinoyatlarga qarshi kurashishda davlat xavfsizligini ta'minlash borasidagi tadbirlarini o'tkazishda ishtirok etadi;

– O'zbekiston Respublikasi IIV vakolati doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qiladi;

– jamoat birlashmalari, tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qiladi;

- «Na postu» – «Postda» gazetalarini nashr qiladi;
- o‘z vakolati doirasida harbiy safarbarlik ishlarini va fuqarolar himoyasi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi;
- fuqarolarning ariza va takliflarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini tashkil qiladi;
- ikki yoki ko‘p tomonlama shartnomalar shartlarida ko‘rsatilgan tadbirlarni amalga oshiradi.

Vazirlikni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadigan farmoni asosida lavozimiga tayinlanuvchi va ozod etiluvchi vazir boshqaradi. Vazirning vakolatlari Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi nizomda belgilangan.

Vazir bo‘limgan hollarda uning majburiyatlarini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining birinchi o‘rnibosari amalga oshiradi.

Vazirlikda vazifalarni kelishilgan holda hal qilish va funksiyalarini amalga oshirish uchun hay’at tuziladi.

Hay’at qarori vazir tomonidan imzolanadi va ichki ishlar organlari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Vazirlik hay’ati boshqa vazirlik va idoralar bilan birga qaror qabul qilishi ham mumkin. Bu holatda qabul qilingan qaror, qoida bo‘yicha Ichki ishlar vaziri va boshqa vazirlik hamda idoralar rahbarlarining birgalikda chiqargan buyrug‘i asosida hayotga tatbiq etiladi.

IV apparati va ichki ishlar organlarining xodimlari tarkibi, shuningdek, ular ta’minoti uchun mablag‘ miqdori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Vazirlik markaziy apparatining strukturasi, shtatlari, xodimlarning moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy ta’minoti, shuningdek, ichki ishlar organlari strukturasi va shtatlari, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan ularning tarkibi va ta’minoti doirasida belgilanadi. Ichki ishlar organlarining moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy ta’minoti Ichki ishlar vaziri tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Vazirlikning markaziy apparati va ichki ishlar organlari o‘zining shaxsiy, ma’naviy va kasbiy xususiyatlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi IV vazifalarini amalga oshirishi

mumkin bo'lgan boshqaruvchilar tarkibiga kiruvchilar va xizmatchilardan tashkil etiladi.

Vazirlik markaziy apparati va ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatni o'tash tartibi va shartlari ichki ishlar organlari boshqaruvi va oddiy tarkibida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi tasdiqlangan nizom asosida tartibga solinadi.

Mehnatga haq to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparati tuzilishi:

1. Rahbariyat.

2. Shtab.

Tashkiliy nazorat boshqarmasi;

Huquqiy ta'minot bo'limi;

2-maxsus bo'lim;

tashkiliy shtat bo'limi;

kotibiyat;

Shaxsiy xavfsizlik bo'limi.

3. Militsiya qidiruv (kriminal) xizmati:

Jinoyat qidiruv boshqarmasi.

K va TKKBQ (GUBKR i T).

Yettingchi boshqarma.

4. Jamoat tartibini saqlash xizmati: (munitsipal militsiya):

Profilaktik xizmat boshqarmasi;

Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi;

Davavtoinspeksiyasi boshqarmasi, tergov boshqarmasi, surishtiruv bo'limi.

5. IIV qoshidagi tovar-moddiy boyliklarini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishni nazorat qilish bosh boshqarmasi.

6. Axborot markazi.

7. Harbiy safarbarlik ishlari bo'limi va fuqaro mudofaasi.

8. Ekspert-kriminalistik bo'lim.

9. Aloqa bo'limi.

10. Moddiy-texnik ta'minot bo'limi.

11. Harbiy va maxsus tashish bo'limi.

12. Transport bo'yicha ichki ishlar boshqarmasi.

13. Axloq tuzatish ishlari xizmati:

Axloq tuzatish ishlari boshqarmasi;
Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lмаган jazolarni
ijro etish boshqarmasi.

14. Ijtimoiy va moliyaviy ta'minot xizmati:
Moliyaviy-iqtisodiy boshqarma;
Xo'jalik boshqarmasi;
Tibbiy boshqarma;
Kapital qurilish boshqarmasi;
«Qo'riqlash» Respublika kotlonazorat birlashmasi, yong'in
xavfsizligi boshqarmasi.

15. Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati:
Shaxsiy tarkib bilan ishlash boshqarmasi;
Shaxsiy tarkibning ijtimoiy-huquqiy himoya qilish bo'limi;
Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi;
Ta'lim muassasalari;
«Postda» gazetasi muharririysi.

16. Keyingi surishtiruv organi Milliy xavfsizlik xizmatidir.

MXX va uning joylardagi organlari chet el davlatlari va
tashkilotlarining O'zbekistonga qarshi qaratilgan razvedka-
qo'poruvchilik faoliyatlariga qarshi kurashadi, O'zbekiston
Respublikasining suvereniteti, konstitutsiyaviy tuzumi, hududiy
yaxlitligi, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va mudofaa potensialini
huquqqa xilof tajovuzlardan himoya qilish vazifasini bajaradi.
O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik xizmati
to'g'risidagi Nizom MXX faoliyatining huquqiy asosi bo'lib
hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi MXX o'ziga yuklatilgan va-
zifalarni bajarish uchun davlat hokimiyati organlari bilan kelish-
gan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z organlarini, viloyatlarda va alohida shahar va tumanlarda boshqarmalarini
tashkil qiladi.

MXX O'zbekiston Respublikasi hokimiyat va boshqaruvin
organlari faoliyatini dushman kayfiyatidagi davlatlar maxsus
xizmatlari va konstitutsiyaga qarshi yo'naltirilgan ichki kuch-
larning jinoiy tajovuzlari ta'siridan samarali himoya qilishni
ta'minlash uchun mas'uldir hamda O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida
muntazam hisob berib turadi.

MXXni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadigan farmoni asosida tayinlanadigan Rais boshqaradi.

MXX Raisining birinchi o'rribbosari va o'rribbosarlari MXX Raisi taqdimiga asosan Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi MXX Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmaydigan buyruq va ko'rsatmalarga asosan tezkor qidiruv va boshqa xizmat faoliyatini amalga oshiradi.

MXX Raisi va uning o'rribbosarlari o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari, Prezident Farmonlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan hamda ularni ijro etish maqsadida buyruq, ko'rsatma va yo'riqnomalar qabul qiladi.

Xavfsizlik xizmati organlari faoliyatini tashkil qilish masalasini hal qilish uchun MXX Raisi – hay'at Raisi, uning o'rribbosarlari va boshqa rahbar xodimlar tarkibidan iborat hay'at tashkil qilinadi.

Hay'at a'zolari tarkibi MXX Raisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

MXXning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi manfaatlari asosida razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish hamda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hisoblanadi.

MXX organlari uyushgan jinoyatchilikka va terrorizmga qarshi kurash olib boradi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi va suverenitetini har qanday tajovuzlardan himoyasini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasining chet eldag'i diplomatik, savdo va boshqa rasmiy vakolatxonalari xavfsizligini ta'minlaydi, zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet elga chiqish va u yerda bo'lish hollarida xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi hududida dislotsirlashgan Chegara qo'shinlari bilan hamkorlikda davlat chegarasi daxsizligini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar o'tkazadi.

Bundan tashqari davlat sirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi; korxona, muassasa va tashkilotlarga tijorat sirini saqlashda yordam ko'rsatadi. MXX to'g'risidagi

Nizomda MXX organlari tergov olib borishi xavfsizlik organlariga tegishli bo‘lgan jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirishi; ushbu jinoyatlarni sodir etishda guman qilinayotgan shaxslarni qidirish, bu jinoyatlarni sodir etgan shaxslar ro‘yxatini yuritishi belgilab qo‘yilgan.

MXX organlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy organlari qaroriga asosan ichki ishlар organlari bilan birga fuqarolarni himoya qilish, aloqa va transport vositalari obyektlarini qo‘riqlash, aholining tinch turmushini ta’minlash, muhim xalq xo‘jaligi va harbiy obyektlarni, qonuniylik va huquqiy tartibotni saqlash, ommaviy tartibsizliklarni, xalqaro kelishmovchiliklarning oldini olish, maxsus shaxslarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida birgalikda choralar ko‘rish yuzasidan davlat organlari bilan hamkorlik qiladi, harbiy holat vaqtida milliy xavfsizlik xizmati organlari ning safarbarlik tadbirlarini ta’minlaydi, davlat sirlarini qo‘riqlash, bojxona qoidalari, o‘q-dori va qurollarni olish va saqlash qoidalari masalalariga bag‘ishlangan davlat miqyosidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirot etadi.

Milliy xavfsizlik xizmati organlari faoliyati qonuniylik, barchaning Qonun oldida tengligi, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, insonparvarlik va internatsionalizm prinsiplariga asoslanadi.

Milliy xavfsizlik organlari o‘z faoliyatini fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun:

1. Belgilangan tartibda oshkora yoki oshkor qilmagan holda tezkor-qidiruv tadbirlarini o’tkazadi, shu jumladan, O‘zbekiston qonunchiligiga asosan milliy xavfsizlik organlari tomonidan tergov qilinishi lozim bo‘lgan jinoyatlarni ogohlantirish, aniqlash, ularni ochish maqsadida texnik vositalardan foydalanadi; qonunda ko‘rsatilgan hollarda va tartibda olingan dalillardan foydalanadi.

2. Fuqarolarning roziligi asosida oshkora yoki oshkor qilmagan holda ularning yordamlaridan foydalanadi, shu bilan birga, fuqarolarni ixtiyoriy ravishda xavfsizlik organlariga shtatsiz ishga qabul qiladi.

3. Prokuror ruxsati bilan alohida shaxslarning pochta jo‘natmalarini nazorat qiladi va telefon hamda boshqa so‘zlashuv vositalaridan foydalangan holda telefon so‘zlashuvlarini eshitadi, shuningdek, ushbu shaxslar foydalanadigan aloqaning texnik kanallaridan jinoyat sodir etish va tayyorgarlik ko‘rish haqida yetarli ma’lumotlar bo‘lganda O‘zbekiston qonunchiligiga asosan xavfsizlik organlari yurituviga tegishli ishlarni bu choralarni qo‘llanishi natijasida jinoyat ishi bo‘yicha dalil bo‘la oladigan xabarlar olish mumkin bo‘lgan hollarda ma’lumotlar oladi.

4. Ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va ochish yuzasidan tezkor-qidiruv ishlarini olib boradi.

5. Xavfsizlikni ta’minalash tadbirlarini o‘tkazishda ichki ishlar organlari bilan kelishgan holda bu organlarning kuch va vositalarini jalb qiladi.

6. Nazorat qilish amaldagi qonunchilik bo‘yicha ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan jinoyatni sodir etishda gumon qilish uchun yetarli asoslar bo‘lgan yoki jinoyat sodir etgan shaxslarning ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari, shuningdek, tekshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni tekshiradi.

7. Xizmat maqsadlarida korxona, muassasa, tashkilot, ja-moat birlashmalari, kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda fuqarolarga tegishli aloqa vositalaridan foydalanadi.

8. Kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda jinoyatlarning oldini olish, jinoyat sodir etishgan yoki sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni kuzatish va ushslash, tezkor tibbiy yordamga muhtoj shaxslarga yordam ko‘rsatishda, shuningdek, voqeа yoki ofat sodir bo‘lgan joyga yetib borishda korxona, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarga (chet davlatga tegishli diplomatik vakolatxona, konsullik va boshqa muassasalarning transport vositalaridan tashqari) tegishli transport vositalaridan foydalanadi.

9. Qonunga asosan davlat xavfsizlik organlari yurituviga tegishli bo‘lgan jinoyatlarning bevosita oldini olishda, bunday jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni qidirishda, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda xavfsizlikka

tahdid solayotganda prokurordan bir sutka davomida ruxsat olish sharti bilan kunning istalgan vaqtida fuqarolarga tegishli uylarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga tegishli bino va ularning hududlariga hech qanday to'siqlarsiz kirishga va ko'zdan kechirishga haqli.

10. O'zbekiston Respublikasi yuqori organlari qaroriga asosan iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni aniqlash tadbirlarini o'tkazadi; bunday hollarda militsiya xodimlariga berilgan huquqlardan foydalanadi.

11. Qonunga asosan milliy xavfsizlik organlari yurituviga tegishli jinoyatlar profilaktikasini amalga oshiradi.

12. Qamoqda saqlash ehtiyyot chorasi qo'llanilgan shaxslarni va xavfsizlik organlari tomonidan jinoyat sodir etishda gumon qilib ushlangan shaxslarni, alohida hollarda esa prokuror sanksiyasi asosida ichki ishlar organlari, prokuror va sudlar tomonidan ushlangan va qamoqqa olingan shaxslarni, shuningdek, qonunda ko'rsatilgan hollarda mahkumlarni saqlash uchun tergov izolatorlari va boshqa ushlab turish joylariga ega bo'ladi.

13. O'z vakolatlari doirasida davlat sirlarini, shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari, muassasalarini, korxona va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari va qonunda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasining boshqa harbiy muassasalariga tegishli boshqa masalalarning xavfsizligi ta'minlanishini tashkil qilish va nazorat qilishni amalga oshiradi; aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar chiqaradi, tegishli choralar ko'riliishi va uning ijrosi haqida ichki ishlar organlarini xabardor qilishni talab qiladi.

14. Davlat qo'mitalari, muassasalarini, korxona va tashkilotlaridan va jamoat birlashmalari organlaridan xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifasini bajarish uchun belgilangan tartibda tasdiqlaydi va ma'lumotlarni oladi.

15. Xavfsizlik organlariga tegishli tezkor, tergov va boshqa ma'lumotlarning davlat saqlovini amalga oshiradi va ularning hisobini yuritish, saqlash va foydalanish tartibini belgilayladi va ma'lumotlar sistemasini yaratadi.

Milliy xavfsizlik organlari son miqdori tuzilishi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

MXX Raisi bo‘limlarning funksiyalarini belgilaydi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik organlari shtatini va uning viloyat organlaridagi shtatlar soni va strukturasini tashdiqlaydi.

MXX organlari mansabdor shaxslari huquqlari xizmat Raisi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik organlarida ofitserlar tarkibi attestatsiyadan o‘tkaziladi. Navbatdagi va navbatdan tashqari harbiy unvonlarni berish masalasini hal qilish uchun attestatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Generallar, ofitserlar, praporshiklar MXXda shartnomaga asosida harbiy xizmatchilar kadrlarda amaldagi zaxirada yoki MXXning zaxirada Mudofaa vazirligidan ro‘yxatdan chiqqan holda bo‘ladilar.

Davlat milliy xavfsizlik organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini kafolatlaydi.

Milliy xavfsizlik xizmatida harbiy xizmatni o‘tayotganlar davlat budgeti hisobidan majburiy shaxsiy ijtimoiy sug‘urta qilinadi. To‘lanadigan sug‘urta miqdori Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Milliy xavfsizlik xizmati organlarida harbiy xizmatni o‘tayotganlarning mulkiga yetkazilgan zarar ularning xizmat vazifasi yoki burchini bajarishi bilan bog‘liq holda yetkazilgan bo‘lsa, to‘liq miqdorda qoplanadi.

Bojxona xizmati.

Jinoyat protsessual qonunchiligi bilan (38-modda) surish-tiruv ishlarini yuritish bojxona xizmati tomonidan amalga oshirilishi ham belgilangan.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish milliy iqtisodga erkin savdo hududlarini tashkil etishga qaratilgan, moliya resurslarining harakati, tovar va xizmatlar ayirboshlash bo‘yicha xalqaro kelishuvlar rolini oshirish maqsadidagi sohalararo hududiy va yagona tinchlikparvar komplekslarni kiritishning avj olganligi bilan xarakterlanadi.

So‘nggi paytlarda davlatning tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni va axborotlarni xalqaro ayirboshlashdagi roli oshib bormoqda. Davlat tovarlarni va transport vositalarni chegaradan olib kiringning tartibini, bojxona to‘lovlarini va soliqlarni o‘rnatadi, tashqi iqtisodiy munosabat ishtiroychilariga bojxona qoidalari

va ularni boshqarishni tartibga solishning boshqa shakllarini aniq yuridik aktga asoslangan holda belgilaydi.

Bojxona organlari bojxona siyosatini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

Bojxona nazorati o'zida bojxona organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va xalqaro shartnomalariga amal qilinishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan qator chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Bojxona ishini tashkil qilishning asosiy elementlaridan biri bo'lib bojxona xizmatining faoliyati tuzilishini tanlash va ularni davlat hududida to'g'ri joylashishini belgilash hisoblanadi. Bojxona xizmati O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarning yagona tizimi asosida quriladi va amalga oshiriladi. Bojxona organlarining yagona tizimini belgilash va rivojlantirish 1997-yilda qabul qilingan «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Qonun¹ va «Bojxona kodeksi»² bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona Qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlaridir.

Bojxona organlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalarga amal qiladilar.

Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq o'z faoliyatini davlat hokimiyati mahalliy organlaridan mustaqil tarzda amalga oshiradilar.

Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart.

Davlat huquqni muhofaza qilish organlari tizimining harbiy elementi bo'lib, bojxona xizmatida kontrabanda, o'z vakolatiga kiruvchi boshqa jinoyatlarga qarshi kurashish va bojxona qoidalalarini buzishning oldini olish muhim hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Qonuni.

² O'sha manba.

Biroq bu bosqichda bojxona organlari oldida davlat budjeti daromad qismining bir bo‘lagini shakllantirish, iqtisodiy suverenitet, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash kabi katta masshtabdagagi mas’uliyatli vazifalar turadi.

Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati davlatning bojxona sohasidagi faoliyati davlatning ish va tashqi funksiyalarini amalga oshirishning bir turi bo‘lib hisoblanaadi. Bu faoliyatning maqsadi konstitutsiyaviy, ma’muriy, bojxona, fuqarolik va boshqa huquq sohalari normalarini bojxona organlari faoliyati doirasi tomonidan kuzatish, qo’llash, ijro etishni ta’minlashga qaratilgan.

Bojxona organlarining samaradorligini oshirish uchun ular o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishlari lozim.

Bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o‘z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash;
- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirot etish;
- bojxona haqidagi qonun hujjalariга rivoja etilishini nazorat qilish;
- bojxona to‘lovlarini undirish;
- bojxona nazoratidan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o‘tkazilishini ta’minlash;
- bojxona haqidagi qonun hujjalari buzilishining, shu jumladan, kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo‘yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;
- O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajariishini ta’minlash.

Bojxona organlari o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni qonun doirasida ro‘yobga chiqarishi uchun keng doiradagi huquqlarga

ega. Bojxona organlari yuridik va jismoniy shaxslarning tovarlarini va transport vositalarini, ularning hujjatlarini, shu jumladan ularning o‘zlarini ham tekshirishga haqli hisoblanadi. Ular valuta nazoratini amalga oshirishga, moliya, bank va boshqa tashkilotlardan, yuridik va jismoniy shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishga doir ma’lumotlarni qonunda belgilangan tartibda olishga haqlidirlar.

Bojxona organlari tezkor-qidiruv faoliyatini yuritadi va surishtiruvni amalga oshiradi. Shu bilan bog‘liq ravishda bu organlar o‘z faoliyatini samarali amalga oshirishi mumkin bo‘lgan bir qator huquqlarini ko‘rsatish mumkin. Bu huquqlar quyidagilardan iborat:

- tovarlar va transport vositalarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, jismoniy shaxslarning o‘zini ko‘zdan kechirish;
- yuridik va jismoniy shaxslardan ko‘zdan kechirish uchun tovarlar va transport vositalarini, shuningdek, zarur hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;
- valuta nazoratini amalga oshirish;
- moliya, bank va boshqa tashkilotlardan, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq axborot va hujjatlarni hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni olish;
- bojxona nazoratidan o‘tkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan namuna va nusxalar olish;
- bojxona nazoratidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tovarlar saqlanayotgan hududlarga va binolarga belgilangan tartibda kishish;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir materiallarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish;
- bojxonaga oid huquqbazarliklarning bevosita predmeti bo‘lgan tovarlar va transport vositalarini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda ushlab turish hamda olib qo‘yish;
- eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlar O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilayot-

ganda: shuningdek, aksiz markalari qo‘yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinganda va saqlanganda ularni musodara etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

– surishtiruv o‘tkazish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

– bojxonaga oid huquqburzaliklarni aniqlashga xizmat qiladigan texnikaviy va maxsus vositalarni qo‘llash.

Bojxona organlari («Bojxona xizmati to‘g‘risida»gi qonun 29.08.1997-y 5-modda.) qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Bojxona organlari:

1. Yagona davlat bojxona siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etishga;

2. Bojxona haqidagi qonun hujjalariга rioya etilishi, bojlar to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilishga;

3. Davlat xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza etish chora-tadbirlarini amalga oshirilishiga ko‘maklashishga;

4. Bojxona haqidagi qonun hujjalariни qo‘llanish bo‘yicha belgilangan tartibda uslubiy ko‘rsatmalar va normativ hujjalari ishlab chiqish hamda ularni nashr etishga;

5. Juridik va jismoniy shaxslarni tovarlar va transport vositalarini olib o‘tish hamda bojxona chegarasidan o‘tish vaqtidagi huquqlari va majburiyatları to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilishga;

6. Faoliyat turlari bilan shug‘ullanish huquqini beradigan maxsus ruxsatnomalarni (litsenziyalarni) qonun hujjalarida belgilangan tartibda berishga;

7. O‘z xizmat vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan davlat siri va tijorat siri hisoblangan axborotni oshkor etmaslikka majburdirlar.

Bojxona organlari qonun hujjalarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajaradilar.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish vaqtida davlat hokimiyatining vakillari

hisoblanadilar va ularning bojxona haqidagi qonun hujjalariiga rioya etish borasidagi talablarini barcha yuridik va jismoniy shaxslar bajarishi shart.

Bojxona organlari mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralashishga hech kim haqli emas. Bojxona organlari mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarmaslik, ularning o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilish, o‘z xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan ularning sha’ni va qadr-qimmatini haqoratlash, ularga qarshilik ko‘rsatish, tahlid, zo‘rlik qilish yoki ularning hayotiga, sog‘lig‘iga va molmulkiga tajovuz qilish qonun hujjalarda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish vaqtida qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda o‘qotar qurolini hamda maxsus vositalarni saqlash, olib yurish va qo‘llash huquqiga egadirlar.

Bojxona organlarida xizmatni o‘tash, bojxona organlarining mansabdor shaxslarini rag‘batlantirish va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi¹.

Bojxona faoliyatini tashkil etish, yagona bojxona siyosatini o‘tkazish, uning faoliyati tezkorligini va samaradorligini oshirish, davlatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va bojxona sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-iyulda UP-1815-sonli «O‘zbekiston Respublikasi bojxona qo‘mitasini tashkil qilish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil qilish va uning tuzilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan belgilanadi.

Davlat Bojxona qo‘mitasi Raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va Oliy Majlis tasdig‘iga kiritiladi.

¹ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida xizmatni o‘tash haqida»gi Vaqtinchalik Nizom to‘g‘risidagi 4.04.98-y. 146-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining Intizomiy ustavi» to‘g‘risidagi 27.03.98-y., 135-sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi raisi o‘rnbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi boshqarmalari, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va maxsus bojxona komplekslari boshliqlari Davlat bojxona qo‘mitasi raisi tavsiyasiga asosan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

Davlat Bojxona qo‘mitasi O‘zR Konstitutsiyasiga asosan davlat boshqaruvi organi bo‘lib hisoblanadi. Qo‘mita o‘z vakolatlari doirasida yagona bojxona siyosati yuritilishini, bojxona faoliyatida qonunchilikka amal qilinishini, DBQ organlari samaradorligini ta’minlaydi.

DBQ o‘z faoliyatida O‘zR Konstitutsiyasi, qonunchilik va O‘zR qo‘silgan xalqaro kelishuvlarga, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asoslanadi.

DBQning asosiy vazifalari va faoliyat tartibi DBQ to‘g‘risidagi nizomda mustahkamlab qo‘yilgan¹.

DBQning o‘z vakolatlari doirasida qonunga asosan qabul qilingan qarorlari mulkchilik shaklidan qat‘i nazar yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy xarakterga ega.

DBQning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Respublikaning iqtisodiy manfaatlarini va belgilangan tartib doirasida iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- Respublikaning bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- bojxona qonunchiligidagi rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;
- bojxona ishlarini amalga oshirishda fuqarolarning va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;
- kontrabanda, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurash, respublikaning bojxona chegaralaridan noqonuniy ravishda narkotik moddalar, psixotrop va portlatish moddalarining, qurol, valuta boyliklari, milliy boylik hisoblanuvchi tasviriy san‘at, tarixiy-madaniy va arxeologik meros predmetlarning, intellektual mulk obyeklarining olib chiqib ketilishini bartaraf etish;

¹ «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi to‘g‘risida»gi Nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.07.1997-y., 374-sonli Qaroriga 4-sonli ilova.)

– O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro shart-noma kelishuvlarida mustahkamlangan boshqa vazifalar.

DBQ zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib:

– yagona bojxona siyosatini amalgaga oshirishning huquqiy-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmini ishlab chiqadi, uning amali-yotda qo‘llanilishini ta’minlaydi, bojxona sohasidagi qonun va normativ aktlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, o‘z vakolatlari doirasida va belgilangan tartibda bojxona masalalari bo‘yicha xalqaro shart-nomalarini imzolaydi;

– davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘ini, hayvonlar va o‘simliklarni himoya qilish, respublika bojxona hududini o‘rab turuvchi muhitni muhofaza qilinish chora-tadbirlarining amalgaga oshirilishiga ta’sir ko‘rsatadi;

– mustaqil yoki davlat huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda kontrabanda, bojxona va o‘z vakolatlari doirasida soliq qonunlari buzilishini ogohlantirish va to‘xtatishga oid chora-tadbirlarni, shuningdek, xalqaro terro-rizmga qarshi kurash, O‘zbekiston aeroportlarida xalqaro fu-qaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashishlariga ta’sir etish choralarini ishlab chiqadi;

– bojxona organlari vakolatlariga kiruvchi ishlar bo‘yicha surishtiruvni amalgaga oshiradi va qonunga asosan bojxona qoidalarini buzishga doir ishlarni yuritadi.

– jismoniy va yuridik shaxslarga belgilangan tartibda qonunda nazarda tutilgan bojxona qoidalarini buzganligi uchun ta’sir chorasini ko‘radi;

– respublika bojxona chegarasidan noqonuniy tarzda narkotik, psihatrop va portlatish moddalari, qurollarni olib o‘tilishining oldini olish uchun tegishli choralar ishlab chiqadi va qo‘llaydi;

– respublikaning va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlikda nazorat ostiga olingan narkotik va psi-xotrop vositalarni tashishni amalgaga oshiradi;

– milliy xavfsizlik va ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda qonunda belgilangan tartibda tezkor-qidiruv faoliyatini amalgaga oshiradi;

– qoida buzarlik faktlari bo‘yicha aybdorni javobgarlikka tortish masalasi bojxona organlari vakolatidan tashqarida bo‘lgan hollarda materiallarni tergov, sud va boshqa organlarga beradi;

– bojxona organlari mansabdor shaxslarining qonunga rioya qilishlarini nazorat qiladi, mansabdor shaxslar harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyat va protestlarni ko‘radi;

– tashqi savdo yuklarini rasmiylashtirish punktlari va boshqa bojxona infratuzilmalari setini o‘z ichiga olgan holda bojxona organlari moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va mustahkamlash choralarini ishlab chiqadi;

– respublika hududida bojxona ishlarini rivojlantirish maqsadidagi tadbirlarni DBQning moddiy yordam, ijtimoiy himoya, bojxona organlarini rivojlantirish va kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun tuzilgan maxsus fondlar hisobiga moliyalashtiradi;

– qonunchilikka asosan xavfli yuklar, qurollanish, harbiy texnika, harbiy mulk, portlatish moddalari va buyumlar, harbiy qismlar xulosasini yuritadi va nazoratni amalga oshiradi¹.

Qonunga asosan Davlat bojxona qo‘mitasi zimmasiga boshqa funksiyalar ham yuklatilishi mumkin².

DBQ o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishlarini ta’minlashlari uchun qonunda belgilangan huquqlarga ega:

– bojxona huquqbuzarliklarini aniqlash uchun texnik va maxsus vositalarni qo‘llash;

– bojxona organlari vakolatiga kiruvchi ishlar bo‘yicha surishtiruvni amalga oshirish;

– bojxona qoidalarni buzish sohasidagi ishlarni yuritish, ko‘rib chiqish va bojxona qonunlarini buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga ta’sir choralarini qo‘llash, ular profilaktikasi bo‘yicha choralarini ishlab chiqish va qo‘llash;

– tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.05.2002-y., 150-sonli Qarorining 7-punktiga ko‘ra kiritilgan.

² «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi to‘g‘risida»gi Nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.07.1997-y., 374-sonli Qaroriga 4-sonli ilova.)

- bojxona nazoratidan o‘tishi kerak bo‘lgan tovar va transport vositalari hamda ularning hujjatlarini ko‘rish (qayta ko‘rish)ni talab qilish;
 - tovar va transport vositalarini, yetarli asoslar bo‘lgan hol-larda jismoniy shaxslarni tekshirish (qayta tekshirish);
 - tovarlar, transport vositalari va boshqa bevosita bojxona huquqbazarligi predmetlarini ushslash va yo‘q qilish;
 - bojxona organlari roziligidan O‘zbekiston Respublikasi boj-xona hududini tark etgan transport vositalarini majburiy to‘xtatish, daryo, dengiz va havo kemalarini qaytarish;
 - plombalarni buzish, bagajxonalarining qulflri qurilmalarini, yuk bo‘lmalarini, transport vositalari kuzovlarini, konteyner va boshqa transport qadoqlarini ochish;
 - bojxona nazoratiga tegishli tovarlar va transport vositalari mavjud bo‘lgan mulkchilik shaklidan qat’i nazar yuridik va jis-moniy shaxslar binolariga va hududlariga hech qanday to‘siqlarsiz kirish, shuningdek, bojxona organlariga tegishli faoliyat va nazoratni amalgga oshirish;
 - probalarni va tovar namunalarini, boshqa predmetlarni olib qo‘yish, ularning tekshiruvlarini (ekspertiza) o‘tkazish;
 - shaxsdan uning vakolatini tasdiqlovchi hujjat talab qilish;
 - vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yuridik va jis-moniy shaxslardan (mulkchilik shaklidan qat’i nazar) bojxona ishlarini (nazorat) amalgga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar, materiallar va hujjatlarni talab qilib olish;
 - bojxona organlari o‘z vazifalarini amalgga oshirish jar-a-yonida shaxsiy himoya vositalari va o‘q otar qurollarni olib yurish, qo‘llash va foydalanish huquqiga egadirlar;
 - Davlat Bojxona qo‘mitasini so‘ngida Oliy Majlis tomo-nidan tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tayinlanadigan Rais boshqaradi.
- DBQ Raisi birinchi o‘rbinosari va o‘rbinosarlari, DBQB va STK boshliqlari DBQ raisi taqdimiga asosan Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tayinlanadi.
- Davlat Bojxona qo‘mitasida 9 kishidan iborat o‘z tarkibiga qo‘mita Raisi – hay’at raisi, uning o‘rbinosarlari va boshqa rah-bar xodimlarni oluvchi kengash tuziladi, hay’at tarkibi a’zolari

DBK Raisi taqdimiga asosan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

DBQ hay'at ish reglamenti uning raisi tomonidan belgilanadi. Hay'atning qarori DBQ Raisi buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qabul qilingan hay'at qarori DBQ Raisi va tegishli vazirlik hamda idoralar rahbarlarining birgalikdagi buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari faoliyati, ularning ilmiy, moddiy-texnik rivojlanishi, kadrlar bilan ta'minlash masalalarini kompleks hal qilish, boshqaruv masalalarini va takliflarni ishlab chiqish uchun DBQda nizomi DBQ Raisi tomonidan tasdiqlanuvchi kengash va komissiyalar tuziladi.

Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Soliqlar davlatning barcha faoliyat yo'nalishlarini moliyalash manbalaridan biri va davlat ustunligini amalga oshirishning iqtisodiy quroli hisoblanadi. Soliq institutlari vujudga kelishining obyektiv zaruriyati davlatning mavjud bo'lishi va tashkil qilinishi hamda uning iqtisodiy infratuzilmasi sharti bilan bog'liq.

Davlat tomonidan iqtisodni soliq vositasida tartibga solish davlat budgetini shakllantirishi, soliqchilik vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarga ta'sir etish usullaridan biri¹.

Davlat Soliq organlari budgetga soliq, yig'im va boshqa to'lovlarining (keyingi o'rnlarda – soliqlar) to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash maqsadida tashkil qilinadi.

Davlat soliq xizmati organlari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri bosh boshqarmalari, viloyatlardagi soliq boshqarmalari, shuningdek, tuman, shahar va shaharlardagi tuman soliq inspeksiyalari hisoblanadi.

Davlat soliq qo'mitasi tarkibida davlat soliq organlarida soliq huquqbazarliklarining oldini olish, aniqlash, va to'xtatish faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus nazorat-taftish bo'limlari tashkil qilinadi.

¹Хван Л.Б., Налоговое право: Учебник. – Т.: Консайдит-Информ, 2001. - В.13-15.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutitsiyasi, 29.08.1997-yilda qabul qilingan «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi Qonun, shuningdek, boshqa qonunchilik aktlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil qilish va uning tuzilishi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga asosan belgilanadi¹.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyati qonun tomonidan belgilangan quyidagi vazifalarni bajarish bilan amalga oshiriladi:

– soliqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga riosa etilishi, soliqlar shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlari to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;

– soliq to‘g‘risidagi Qonun hujjatlariga riosa etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlash, soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishlarida yordam ko‘rsatish;

– soliq siyosatining ro‘yobga chiqarilishida bevosita qatnashish;

– soliqqa tortiladigan obyektlar va subyektlarning to‘liq hamda o‘z vaqtida hisobga olinishini ta‘minlash;

– soliqlar bo‘yicha huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Bu vazifalarni hayotga tatbiq qilish uchun qonunda mansabni suiiste‘mol qilmaslik va inson huquqlarini buzmaslik asoslantirilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham yuqorida aytib o‘tilgan «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi Qonunda davlat soliq organlarining huquq va majburiyatları aniq belgilab berilgan.

Demak, soliq organlari, soliq to‘lovchilarning (shu jumladan, soliq to‘lovchi bilan bog‘liq bo‘lgan subyektlarning) moliyaviy hujjatlari, shartnomalari (kontraktlari), rejalar, smetalari, daromadlar haqidagi deklaratsiyalari soliqlar va O‘zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya

¹Qarang: «Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida»gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-may 2000-y., 180-sonli Qaroriga 1-sonli ilova).

jamg‘armasiga majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlarini, shuningdek, eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq hujjatlarini tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha zarur tu-shuntirishlar, ma’lumotnomalar va axborotlar olish; yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to‘lovchilarning faoliyatiga taal-luqli axborotlar, ma’lumotnomalar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish; belgilangan tartibda: soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo‘l qo‘yayotgan yuridik va jismoniy shaxslardan daromadni (foydani) va soliqqa tortiladigan boshqa obyektlar yashirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni, shuningdek, huquqbuzarlik predmetlarini olib qo‘yish; tadbirkor-lik faoliyati bilan shug‘ullanish tartibini buzayotgan jismoniy shaxslardan litsenziyalarini, patentlari yoki ro‘yxatdan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomalarini olib qo‘yib, so‘ngra qonun bu-zilganligiga doir materiallarni mazkur faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan organlarga topshirish; kassalarni va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joy-larni muhrlab qo‘yish, tovarlar, buyumlar, xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning namunalarini, shuningdek, huj-jatlarni olib qo‘yish va ularni tekshirish, tadqiq qilish va eks-pertizaga yuborish; savdo, tovarlarni berish va xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga, shuningdek, naqd pul tushumining bankka o‘z vaqtida topshirilishiga rioya etilishini tekshirish; yuridik va jismoniy shaxslarning qayerda joylashganligidan qat‘i nazar, daromad (foyda) olish uchun foydalaniladigan yoxud soliqqa tortish obyektlarini saqlab turish bilan bog‘liq ishlab chiqarish binolari, omborxonalar, savdo va boshqa binolarni hamda joylarni (shu jumladan, alohida rejimdagi korxonalarini) tekshirish, bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni tekshiruv tariqasida o‘lchash va tovar-moddiy boyliklarni ro‘yxat qilish. Soliq xizmati organlarining soliqlar bo‘yicha tekshirish o‘tkazayotgan mansabdor shaxslari mazkur binolar yoki joy-larga kiritilmagan taqdirda davlat soliq xizmati organlari o‘zlarida mavjud bo‘lgan axborotlar (shu jumladan, soliq to‘lovchining xarajatlari haqidagi axborotlar) asosida yoki boshqa shunga o‘xshagan soliq to‘lovchilarga solinadigan soliqlarni nazarda tutgan holda soliqlar summasini mustaqil

ravishda belgilashga haqlidirlar; yuridik va jismoniy shaxslardan qonun hujjatlarining buzilganligi aniqlangan hollarni bartaraf etishni talab qilish; yuridik hamda jismoniy shaxslar hujjatlar asosida (hisob-kitobli) tekshiruv o'tkazilishini yoki davlat soliq xizmati organlarining mansabdon shaxslari daromad (foyda) olish uchun foydalilaniladigan yoki soliqqa tortish obyektini saqlab turish bilan bog'liq binolar va joylarga kirishini rad etsa, soliqlar va O'zbekiston Respublikasi budgetdan tashqari pensiya jamg' armasiga majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash bilan bog'liq moliyaviy hisobotlar, hisob-kitoblar, deklaratasiyalar va boshqa hujjatlarni soliq xizmati organlariga va ularning mansabdon shaxslariga taqdim etmasa (yoki taqdim etishni rad qilsa), bunday yuridik shaxslarning, shuningdek, qonun hujjatlariga muvosif jismoniy shaxslarning banklardagi va boshqa moliya-kredit muassasalaridagi hisob-kitob va boshqa hisob varaqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib qo'yish; qonun hujjatlarida belgilangan tartibda: soliqlarga oid qonunbuzarliklar haqidagi ishlarni ko'rib chiqish va yuridik hamda jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy jazo choralarini qo'llash. Shu bilan birga soliq organlari yuridik va jismoniy shaxslardan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni har qanday holatda ham bartaraf etilishini talab qiladi.

Soliq organlari soliq va ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishi mumkin. Moliyaviy sanksiyalar va ma'muriy jazo choralarini qo'llashga haqli. Soliqlar borasida qonunbuzarlik faktlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda musodara qiladi.

Soliq organlari oldida turgan soliq huquqbazarliklarini aniqlash, oldini olish va to'xtatish vazifalarini bajarishda, daromadlarni va boshqa soliq obyektlarini yashirish holatlarini aniqlaganda soliq organlari surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishi qo'zg'atish va ularni tegishliligiga ko'ra o'tkazishga haqli.

Davlat soliq organlari soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish faktlarini to'plash, tahlil etish va baholashlari hamda soliqlar bo'yicha huquqbazarliklarga yo'l ochib berayotgan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritishga, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar

bilan birgalikda soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga majburdir.

Kelib chiqishi mumkin bo‘lgan soliq qonunbuzarliklarining oldini olish maqsadida arizalar va xabarlar shaklida kelib tushgan har qanday ma’lumotlarni tekshiradi.

Hal qilinishi lozim bo‘lgan masala soliq xizmati organlari vakolati doirasidan chiqadigan bo‘lsa, ishni prokuratura, IIV, MXN va boshqa vaqt sudga zarur materiallar bilan birga o’tkazadi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan eksport-import operatsiyalariga rioya qilinishini nazorat qilish – soliq organlarining yana bir vazifasi.

Soliq organlari qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z vazifalarini boshqa davlat boshqaruva organlari, davlat hokimiyatining joylardagi organlari, fuqarolar o‘z-o‘zini boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish, statistika va moliya organlari, bank va boshqa tashkilotlar bilan birga bajaradi. Ko‘rsatib o‘tilgan organlar va tashkilotlar davlat soliq xizmati organlariga soliq qonunchili-giga rioya qilinishini kuzatish va soliq huquqbuzarliklari bilan kurashishlariga yordam berishga majburdirlar.

Davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari o‘zaro kelishib belgilangan tartibda soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar, o’tkazilayotgan tekshiruvlar to‘g‘risida bir-birlarini xabardor qildilar, shuningdek, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotlarni almashib turadilar.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida davlat hokimiyati vakili hisoblanadilar. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilish xususidagi talablari barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart.

Hech kim davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralashishga haqli emas. Davlat

soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishlariga to‘sqinlik qilish, o‘z xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan ularning sha’ni va qadr-qimmatini haqoratlash, ularga qarshilik ko‘rsatish, tahdid qilish, zo‘ravonlik qilish yoki ularning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga tajovuz qilish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining Raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanib, so‘ngra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat soliq qo‘mitasining Raisi Davlat Soliq qo‘mitasi zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar bo‘ladi, o‘z o‘rinbosarlarining, davlat soliq va bojxona organlariga bo‘ysunuvchi, Qo‘mitaning mustaqil tuzilmaviy bo‘linmalari mansabdor shaxslari javobgarlik darajasini belgilaydi.

Bosh bojxona boshqarmasini Davlat Soliq qo‘mitasi Raisi o‘rinbosari – boshliq boshqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi Raisining o‘rinbosarlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalarining, viloyatlar davlat soliq boshqarmalarining boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining mansabdor shaxslari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari, viloyatlar davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosarlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari, viloyatlar davlat soliq boshqarmalari bo‘limlarining boshliqlari, davlat soliq inspeksiyalarining boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi Raisining buyrug‘i bilan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta‘minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiruvchi davlat soliq xizmatining markaziy organi hisoblanadi

Davlat Soliq qo‘mitasining asosiy vazifalari va uning faoliyatini tashkil qilish «Davlat Soliq qo‘mitasi to‘g‘risida»gi Nizom bilan belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, xalqaro huquq normalariga, O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan shartnoma va kelishuvlariga, Davlat Soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomga amal qiladi.

Quyidagilar Davlat Soliq qo‘mitasining vazifalari hisoblanadi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va amaldagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq soliq to‘lovchilardan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar (keyingi o‘rinnarda soliqlar deb yuritiladi) undirish yo‘li bilan davlat budgetiga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining budgetdan tashqari nafaqa jamg‘armasiga daromadlar to‘liq hajmda tushishini ta‘minlash;

b) soliq to‘lovchilar tomonidan soliq haqidagi qonunlarga rioya etilishi, soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘ri hisoblab chiqilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

d) soliq solish subyektlari va obyektlari to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta‘minlash, soliq to‘lovchilarni to‘liq qamrab olish va hisobga olish mexanizmini takomillashtirish;

e) soliq solish bazasini kengaytirish, soliq sohasida huquq buzilishlarni aniqlash, ularga barham berish va ularning oldini olish bo‘yicha kompleks tadbirlar o‘tkazish yo‘li bilan soliqlar yig‘ilishini ko‘paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

f) davlat hokimiyyati va boshqaruvinga oliy organlari tomonidan belgilanadigan soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita qatnashish;

g) soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlash, soliqlar bo‘yicha majburiylarni bajarishda soliq to‘lovchilarga yordam ko‘rsatish;

h) soliq to‘lovchilar bo‘yicha alohida-alohida hisoblab chiqilgan va amalda tushgan soliqlarning hisobini ma’lumotlarning

yagona kompyuter tizimida yuritish, soliq to‘lovchilarning yagona reyestrini yuritish;

i) soliq organlarida kadrlarni tanlash, ularni o‘qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash, tarbiyalash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

Davlat Soliq qo‘mitasi o‘ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib qo‘yildagi funksiyalarini amalga oshiradi:

a) Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasining boshqa vazirliklari hamda idoralari bilan birgalikda soliq, boj va boshqa budgetga va budgetdan tashqari fondlarga to‘lanadigan to‘lovlar haqidagi qonunlarni qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida bajarilishi majburiy bo‘lgan yo‘riqnomalar va boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqadi;

b) xo‘jalik yurituvchi subyektlar – yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo‘jalik faoliyati yuzasidan amalga oshiriladigan barcha tekshirishlar va taftishlarni muvofiqlashtiradi¹;

d) daromad va boshqa soliq obyektlarini qasddan yashirish hollarini aniqlash, soliq va bojxona qonunlarini buzgan javobgar shaxslarni ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida viloyatlardagi maxsus taftish-nazorat bo‘linmalari faoliyatini yo‘naltiradi; bu va iqtisodiyot sohasidagi boshqa jinoyatlarning oldini olish va to‘xtatish maqsadida boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qiladi va ma’lumotlar almashadi; soliq va bojxona qonunlarining buzilishi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtiradi va tahlil qiladi, profilaktika choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil qiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahridagi maxsus taftish-nazorat bo‘linmalari bevosita Davlat Soliq qo‘mitasi Raisi o‘rinbosari – taftish-nazorat boshqarmasi boshlig‘iga, tashkiliy jihatdan – viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘iga bo‘ysunadi.

Davlat Soliq qo‘mitasi va unga bo‘ysunuvchi organlarga o‘z vazifalarini samarali bajarishlari uchun quyidagi huquqlar berilgan:

a) Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish Respublika Kengashi tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq boshqa

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.01.1997y., 56-sonli Qaroriga 4-sonli ilova.

nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlarni jalgan holda mulkchilikning barcha shakllaridagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini kompleks tekshirish;

b) soliq to‘lovchilarining moliyaviy hujjatlarini, shartnomalarini (kontraktlarini), biznes-rejalarini, smetalarini, daromadlar to‘g‘risidagi deklaratasiyalarini va soliqlarni hisoblab chiqish hamda to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlarini, shuningdek, eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq hujjatlarini hujjatlar asosida tekshirish (shu jumladan, soliq to‘lovchi bilan bog‘liq subyektlarni muqobil tekshirish), tekshirish chog‘ida paydo bo‘lgan masalalar bo‘yicha zarur tushuntirishlar, ma’lumotnomalar va ma’lumotlar olish;

d) yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to‘lovchilarining faoliyatiga tegishli ma’lumotlar, ma’lumotnomalar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

e) *qonunda belgilangan tartibda:*

– soliq haqidagi qonunlar buzilishiga yo‘l qo‘yayotgan yuridik va jismoniy shaxslardan daromad (foyda) va soliq solishning boshqa obyektlari yashirilishidan dalolat beruvchi hujjatlarni, shuningdek, huquqni buzish buyumlarini olib qo‘yish;

– tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish tartibini buzayotgan jismoniy shaxslardan litsenziyalar, patentlar yoki ro‘yxatdan o‘tkazish guvohnomalarini olib qo‘yish, qonunni buzishlar to‘g‘risidagi materiallarni keyinchalik ko‘rsatib o‘tilgan faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat bergen organlarga tegishli qaror qabul qilish uchun berish;

f) kassa va tovar-moddiy boyliklar saqlanadigan joylarni qonunda belgilangan tartibda muhrlab qo‘yish, tovarlar, buyumlar, xomashyo, materiallar va yarim tayyor fabrikatlar namunalarini, shuningdek, hujjatlarni olib qo‘yish va ularni tahlil, tadqiq qilish va ekspertizalar o‘tkazish uchun yuborish;

g) savdo, tovarlar berish va xizmatlar ko‘rsatish, aksiz kolibri solinadigan alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish va markalash qoidalariga rioya qilinishini tekshirish, naqd pul mablag‘lari to‘liq kirim qilinishini, nazorat-kassa apparatlarini qo‘llash bo‘yicha qonun hujjatlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

h) yuridik shaxslar (shu jumladan, alohida rejimda ishlaydigan korxonalarning va jismoniy shaxslarning) daromad (foy-

da) ko‘rish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolari va boshqa joylari va o‘rinlarini, ular joylashgan joydan qat’i nazar, tekshirish, bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni nazorat tartibida o‘lchash va tovar-moddiy boyliklarni xatlash;

i) aniqlangan soliq haqidagi qonunlar buzilishi bartaraf etilishini yuridik va jismoniy shaxslardan talab qilish;

j) yuridik shaxslarning, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jismoniy shaxslarning banklardagi va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisob-kitob raqamlari va boshqa hisob raqamlari bo‘yicha operatsiyalarini, ular daromad (foyda) ko‘rish uchun foydalanadigan joylar va o‘rnlarni yoxud soliq solish obyektlarini tekshirish uchun davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari hujjatlar asosida (schyotlar bo‘yicha) tekshirish o‘tkazishi yoki kirishiga to‘sinqilik qilgan, davlat soliq xizmati organlariga va ularning mansabdor shaxslariga moliyaviy hisobotlar, hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va soliqlarni hisoblab chiqish hamda to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni taqdim etmagan (yoki taqdim etishni rad etgan) taqdirda, to‘xtatib qo‘yish;

k) qonunda belgilangan tartibda:

– soliq sohasida huquq buzilishlar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish hamda yuridik va jismoniy shaxslarga moliyaviy jazo choralar qo‘llash;

– ma’muriy huquq buzilishlar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ma’muriy jazolar qo‘llash;

l) soliq sohasida huquq buzilishlarning aniqlangan hollari bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda musodara qilish;

m) qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar bo‘yicha vaqtida to‘lanmagan to‘lovlarni, shuningdek, jarimalar summalarini so‘zsiz undirib olish;

n) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan g‘ayriqonuniy olingan mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risida ularga nisbatan sudga da‘volar berish;

o) soliq haqidagi qonunlar buzilishi hollarini, shuningdek, ular sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, ularning oldini olish va ularga barham berish uchun:

- tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro hamkorlikda soliq sohasida huquq buzilishlarni sodir etgan shaxslarni qidirish;
- davlatga yetkazilgan zararni qonunda belgilangan tartibda qoplash chora-tadbirlarini ko‘rish;
- jinoiy ishlar qo‘zg‘ash va ularni qonun hujjaligiga muvofiq tergovga tegishliligi bo‘yicha berish.

Respublika Soliq qo‘mitasi va uning joylardagi bo‘linmalari tijorat va xizmat sirlarini saqlashga majburdirlar.

Davlat soliq organlari mansabdor shaxslari o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun amaldagi qonunchilikka asosan javobgarlikka tortiladi.

Mansabdor shaxslar, ularning ayblariga ko‘ra noto‘g‘ri undirilgan bojxona to‘lovlari va jarima summalarini uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan intizomiy va moddiy javobgar bo‘ladi.

Davlat Soliq qo‘mitasida Rais, lavozimi bo‘yicha raisning birinchi o‘rinbosari va rais o‘rinbosarlari, shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasi raisining taqdimnomasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan boshqa rahbar xodimlardan iborat 11 kishilik hay‘at tuziladi.

Bosh bojxona boshqarmasi, viloyatlardagi va Toshkent shahridagi davlat soliq boshqarmalari o‘zlarining kollegial organlariga – kengashlarga ega.

Soliq yoki bojxona organlari xodimlariga kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘limgan holda og‘ir tan jarohati yetkazilganda, unga davlat budgeti hisobidan, so‘ngida javobgardan undirish yo‘li bilan, yigirma besh oylik ish haqqi barobarida bir marta-lik ta’milot beriladi.

Davlat soliq va bojxona organlari xodimlariga uncha og‘ir bo‘limgan zarar yetkazilganda, unga davlat budgeti hisobidan, so‘ngida javobgardan undirish yo‘li bilan, besh oylik ish haqqi barobarida bir martalik ta’milot beriladi.

Soliq qonunchiligini buzish haqidagi ishlar bo‘yicha surish-tiruvni amalga oshiruvchi organlar haqida alohida gapirish lozim. Hozir JPKda O‘zR Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatchilikka qarshi kurash departamenti ha-

qida gapistish zarur. Biroq har doim shunday bo‘lman. Birinchi redaksiyada soliq organlari haqida to‘liq eslangan, keyin 2001-yil 6-iyulda 291-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori bilan umuman yangi organ – O‘zR Prokuraturasi huzurida Soliq va valutaga oid jinoyatchilikka qarshi kurash departamenti tashkil qilindi.

Yangi organni tashkil qilish zaruriyati bozor munosabatlari ning jadal rivojlanishi va bu sohadagi huquqbazarliklar miqdoring o‘sishi bilan bog‘liq edi. Soliq organlari o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarini har doim ham samarali bajara olmaganligi, soliq jinoyatlariga qarshi kurashuvchi maxsus organ tashkil qilishga, soliq organlari zimmasiga esa asosiy vazifalarni – budgetga soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlashni yuklashga qaror qilindi.

O‘zR qonuni bilan soliqqa qarshi jinoyatlar bilan kurashuvchi surishtiruvni amalga oshiradigan, Nizomga asosan faoliyat yuritadigan (Vazirlar Mahkamasining 6.07.2001.dagi 291-sonli qaroriga 5-ilovaga) departament tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashuvchi department budgetga to‘lanadigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovslash faktlarini aniqlash, soliq jinoyatlari va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish, soliq bazasini ko‘paytirish va davlatga yetkazilgan zararni qoplash choralarini ko‘radi.

Shu bilan birga, departament va uning joylardagi organlari ishlaring natijalari ular oldiga qo‘yilgan vazifalarga, birinchi navbatda «yashirin» iqtisodiy faoliyatni aniqlash va oldini olish, xo‘jalik, moliya-valuta sohasida belgilangan qonun normalarini buzish yo‘li bilan davlat manfaatlariga yetkazilayotgan jiddiy zararni aniqlash bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarga to‘liq javob bermasdi.

Departamentning axborot-tahliliy ishlari darajasi, qo‘llanilayotgan tahlil uslublari ham zamonaviy talablarga javob bermasdi.

Soliq va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishda qat’iyat yetishmadni, soliqlarni to‘lashdan bosh tortishning mavjud mexanizmlari va yo‘llarini aniqlashga doir ishlar yetarli samara bilan olib borilmadi.

Valuta sohasida yo‘l qo‘yilayotgan qonun buzilishlari va jinoyatlar faoliyat doirasidan chetda qoldi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 28-noyabrda 415-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokururaturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Bu hujjatga asosan soliq jinoyatlariga qarshi kurash departamenti O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamentiga aylantirildi. O‘zR JPKga shunga muvofiq tuzatish kiritildi.

Yangi organ O‘zR Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti to‘g‘risidagi nizomga asosan faoliyat yuritadi¹. Iqtisodiy, valutamoliyaviy va soliq sohasidagi jinoyatlar bilan kurashish tizi-mini takomillashtirish hamda O‘zR «Jinoiy faoliyat orqali olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonun talablarini bajarish maqsadida O‘zR Prezidentining 2006-yil 21-aprel PQ-331 «Moliyaviy-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlar, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash choralarini kuchaytirish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti O‘zR Bosh Prokururaturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamentiga aylantirildi. Uning tuzilmasida jinoiy faoliyat orqali olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish boshqarmasi tashkil etildi.

Bu Nizom O‘zR Bosh Prokururaturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti faoliyati asoslari, vazifa va funksiyalari, tizimi va tuzilishi, vakolatlari va javobgarligining huquqiy asoslarini belgilaydi.

O‘zR Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti (keyingi o‘rnarda – departament) maxsus mustaqil huquqni muhofaza qilish organi hisoblanib, soliq intizomini mustahkamlash sohasida tezkor-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2006 PQ-331-sonli Qaroriga 1-sonli ilova.

tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, soliq va valutaga oid jinoyat va qonun buzilishlariga qarshi kurashish, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni undirib olish uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Departament o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga asoslanadi.

Departamentning zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

- soliqqa oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish;

- soliq siyosati amalga oshirilishini ta’minlash, soliqqa tortish bazalarini kengaytirish, soliq to‘lovchilarning qamrab olinishi va hisobining to‘liqligini ta’minlash, naqd pul mablag‘lari muomalada bo‘lishi belgilangan tartib buzilishlariga barham berish;

- soliqlarni to‘lashdan bosh tortish, qochishning mumkin bo‘lgan kanallari va mexanizmlarini, yashirin iqtisodiyotning shakllanish yo‘llarini, korrupsiya hollarini aniqlashga yo‘naltirilgan samarali tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- normativ-huquqiy bazani, eng avvalo soliqqa oid qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- odamlarning huquqiy ongini mustahkamlashga doir mutnazam ish olib borish, fuqarolarda iqtisodiy faoliyat va soliq siyosatini amalga oshirish sohasidagi konstitutsiyaviy normalarni hamda amaldagi qonun hujjatlarini bajarishning zarurligi tu-shunchasini shakllantirish;

- aholida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovplash, iqtisodiyot, soliq sohasida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligi tushunchasini tarbiyalash.

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagagi 291-sonli qaroriga ko‘ra, (yuqorida eslatib o‘tilgan qarori bilan) departament va uning hududiy bo‘linmalariga ko‘ra, valutaga oid kurashni kuchaytirish borasida quyidagi funksiyalar yuklatildi:

– chet el valutasida operatsiyalar amalga oshirishda huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish, ogohlantirish va bartaraf qilish;

– chet el valutasi vositalarining oqib kelish kanallari va mexanizmlarini, ularning noqonuniy muomalaga kirishi, valuta vositalarini majburiy sotishdan bo‘yin tov lash hollarini aniqlashga yo‘naltirilgan samarali tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

– respublika hududida xorijiy valutada rezidentlarga va norezidentlarga ish haqi to‘lash hollarini aniqlash va to‘xtatish;

– chet el valutasida to‘lovlarni amalga oshirilishining qonuniyligini aniqlash, valuta operatsiyalaridagi hisob va hisobdorlikning obyektivligi va to‘liqligini tekshirish;

– normativ-huquqiy bazani, eng avvalo valuta ayrboshlashga oid, shuningdek, valuta vositalarini noqonuniy olib kirish va olib chiqishga oid qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

– amaldagi qonunchilikni buzgan holda bo‘ladigan chet el valutasida operatsiyalarini amalga oshirish haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish va tahlil qilish;

– valuta sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar va ularni sodir etgan shaxslarning yagona markazlashgan hisobini yuritish va kompyuterda ba’za ma’lumotlarini tashkil qilish;

– chet el valutasini qo‘llash va import-eksport hamda vositachilik operatsiyalarini amalga oshirishdagi huquqbuzarliklarni aniqlash va tahlil qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan chet davlatlarning vakolatli organi bilan valutani tartibga solish, jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarning qonuniylashtirilishiga qarshilik ko‘rsatish kabi sohalarda hamkorlik qilish va ma’lumotlar almashish;

06.07.2002-yildagi departament to‘g‘risidagi Nizom bilan 28.11.2002-yildagi Nizom solishtirilganda qator farqlarni ko‘rshimiz mumkin: bu departament strukturasi, funksiyasi, ishni tashkil qilishga va boshqalarga taalluqli.

Agar departament ilgari zimmasiga yuklatilgan vazifalarga asosan tezkor-qidiruv sohasida:

a) ishlab chiqarish va foyda (daromad)lar hajmlarini yashirish, sotilgan mahsulotlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning hajmlarini pasaytirish;

– «yashirin iqtisodiyot»ning vujudga kelishi, qaror topishi va faoliyat ko‘rsatishi, uning rivojlanishiga ko‘maklashuvchi sabab va shart-sharoitlar;

– tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq inspeksiyalarida hisobga turishdan bo‘yin tovslash hollarini aniqlash va o‘rganish;

b) naqd pul muomalasiga ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlari tomonidan qonunda belgilangan tartibda naqd pul vositalariga murojaat qilish tartibining buzilishini, shuningdek, aksiz tovarlarini noqonuniy ishlab chiqarish va muomala qilinishini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish;

– soliqlar, yig‘im va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan, soliq organlariga hisobotlar, soliq deklaratsiyalari va hisob-kitoblarini taqdim etishdan qasddan bo‘yin tovlovchi soliq to‘lovchilarning joylashishini aniqlash bo‘yicha tezkor-qidiruvni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan bo‘lsa, Soliq va valutaga oid jinoyatchilikka qarshi kurash departamentiga bularga qo‘srimcha tarzda chet el valutasini almashtirish kanallari va yashirish mexanizmini aniqlash, ularni noqonuniy ayrboshlash, chet el valutasini sotish majburiyatidan bo‘yin tovslash holatlarini o‘rganish va aniqlash vazifasi yuklatilgan.

Departamentning spetsifikasi o‘zgardi va nafaqat soliq, shuningdek, valuta qonunchiligiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Departament bugun valuta va soliq qonunchiligiga rioya qilinishini nazorat qilish sohasida:

– xo‘jalik subyektlari tomonidan budgetga to‘lanadigan soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi, ularni hisoblab chiqilishining to‘g‘riligini tekshirish orqali;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarni muqobil tekshiradi, tekshirilayotgan (taftish qilinayotgan) tashkilotlardagi hujjatlar va ma’lumotlarni pul mablag‘lari, moddiy boyliklar va hujjatlar olingan yoki ular berilgan tashkilotlardagi yozuvlar, hujjatlar va ma’lumotlar bilan solishtiradi;

– qonun-hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari mansabdon shaxslari tomonidan o‘z zimmasiga yuklangan

vazifasini vijdonan bajarmaslik faktlarini aniqlash maqsadida nazorat tartibida tekshirishni tashkil qiladi.

Yangi kiritilgan funksiyalarga quyidagilar kiradi:

– xorijiy valutada operatsiyalar amalga oshirishdagi qonun buzilishlarni aniqlash, oldini olish, bartaraf etish va profilaktika qilish chora-tadbirlarini ko‘rish;

– respublika hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan xorijiy valutada ish haqi to‘lash va hisob-kitoblarni amalga oshirish hollarini aniqlash va bartaraf etish;

– amaldagi qonun-hujjatlari buzilgan holda chet el valutasida amalga oshirilayotgan operatsiyalar haqida axborotlarni to‘plash, o‘rganib chiqib va har tomonlama tahlil qilish,

– chet davlatning vakolatli organlari bilan asosiy e’tiborni jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadni legallashtirishga qarshi kurashga qaratgan holda aloqa qilish va ma’lumotlar almashtish.

Surishtiruv o‘tkazishga kelganda departamentga 06.07.2001-yildagi Nizom asosida qanday vazifalar yuklatilgan bo‘lsa, xuddi shu vazifalar unga ham yuklatilgan.

Departament surishtiruv o‘tkazish sohasida:

– jinoyat ishi qo‘zg‘atadi, soliq va valutaga oid jinoyatlarni sodir etganlik faktlari bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazishni tashkil qiladi va o‘tkazadi;

– Departamentning tashkiliy-nazorat jihatdan ta’milanishi borasida departamentning hududiy bo‘limnalari tomonidan surishtiruvning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

– Soliq va iqtisodiyot sohasida, shuningdek, chet el valutasida operatsiyalarni amalga oshirishdagi huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan rejali va rejadan tashqari hamda boshqa tadbirlarni ishlab chiqish hamda o‘tkazish yuzasidan tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

– o‘zining hududiy bo‘limlari tomonidan ijro va xizmat intizomiga rioya qilishdagi funksional majburiyatlarini bajarishlari yuzasidan idoraviy tekshirishlarni o‘tkazish.

O‘zR Prezidentining 2006-yil 21-aprel PQ-331-sonli «Moliyaviy-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlar, jinoiy daromadlarни legallashtirishga qarshi kurash choralarini kuchaytirish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilingandan so‘ng Departament faoliyatining xususiyati o‘zgarib, endilikda nazorat nafaqat

soliq, valuta qonunchiligiga, balki jinoiy faoliyat orqali olingen daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya qilinishi ustidan ham olib boriladi.

Ushbu o‘zgarishlarni 28.11.2002-y. Nizomi bilan 21.04.2006-y. Nizomini o‘zaro solishtirganda ko‘rish mumkin. Yangi nizom qator jiddiy farqli taraflarga ega: ular Departament vazifalari, tuzilishi, funksiyalari va ishni tashkil etilishiga tegishlidir.

Mazkur Nizomga ko‘ra Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamentining asosiy vazifalari quyidagicha belgilangan:

– soliq, valutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini o‘z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidaga qonun hujjalari bajarilishini nazorat qilish;

– davlat soliq siyosati amalga oshirilishini ta‘minlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to‘lovchilarning qamrab olinishi va hisobining to‘liqligini ta‘minlash, soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, qochishning mumkin bo‘lgan kanallari va mexanizmlarini, «xufiyona» iqtisodiyotning shakllanish yo‘llarini, korrupsiya hollarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

– valuta operatsiyalari bo‘yicha hisob va hisobotlarning to‘liqligi va obyektivligini nazorat qilish; xorijiy valuta mablag‘larining qonunga xilof ravishda chetga chiqib ketishi, olib kelinishi va olib chiqilishi, noqonuniy muomalada bo‘lishi va valuta ayirboshlash operatsiyalari bilan bog‘liq boshqa qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish;

- moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish; jinoiy yo‘l bilan olingen daromadlarni legallashtirish, va terrorizmni moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan kanallari hamda mexanizmlarini aniqlashga yo‘naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalar monitoringini tashkil etish va amalga oshirish; aniqlangan huquq buzilishlari to‘g‘risida tegishli huquqni muhofaza qilish organlari bo‘lmalariga jinoiy ta‘qibni tashkil etish, ma’muriy ta’sir choralarini ko‘rganlik bo‘yicha o‘z vaqtida axborot taqdim etish;

– soliq va valuta-moliya sohasida aniqlangan jinoyatlar va buzilishlari hamda qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qilingan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yagona kompyuter bazasini yaratish va yuritish;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari va shartnomalariga muvofiq valutani tartibga solish sohasida, shuningdek jinoiy yo‘l bilan olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro-ixtisoslashgan hamda boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash;

– soliq siyosati va valuta muomalasini tartibga solish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish masalalari bo‘yicha keng tushuntirish, profilaktika ishlarini amalga oshirish.

Departament quyidagi tuzilmaviy bo‘limlardan iborat:

– Jinoiy faoliyat orqali olingen daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish boshqarmasi;

– Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish va axborot-tahliliy ta‘minlash boshqarmasi;

– Soliq jinoyatlarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish bo‘limi;

– Valuta jinoyatlarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish bo‘limi;

– Tizimli tahlil va rejulashtirish bo‘limi;

– Tezkor nazorat va tashkiliy ta‘minot bo‘limi;

– Kriminalistika laboratoriysi;

– Soliq va valuta jinoyatlari hamda jinoiy daromadlarni legallashtirish faktlari bo‘yicha surishtiruv bo‘limi;

– Xususiylashtirish va hisobot bo‘limi;

– Transportda soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘limi;

– Moliyaviy operatsiyalarning monitoringi va tizimli tahlili bo‘limi;

– Jinoyi daromadlarni legallashtirish bilan kurashishni tezkor ta‘minlash bo‘limi;

- Axborot-texnikaviy bo‘lim;
- Tezkor-qidiruv faoliyatini tezkor-tahliliy ta’minlash va muvofiqlashtirish bo‘limi;
- Navbatchi bo‘lim;
- Rejim-maxfiy bo‘lim;
- Xalqaro aloqalar bo‘limi;
- Press-guruh;
- Hujjatlarni tekshirish bo‘limi;
- Normativ-huquqiy baza inspeksiyasi;
- Shaxsiy tarkib bo‘linmasi;
- Kadrlar bo‘limi;
- Moliya-xo‘jalik bo‘linmasi;
- Departamentning hududiy bo‘linmalari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar prokuraturalari qoshidagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash boshqarmalari), shuningdek, tuman (shahar) prokuraturalari qoshidagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo‘limlari.

Departamentni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va maqomi bo‘yicha Bosh Prokuror o‘rribosariga tenglashtirilgan boshliq boshqaradi.

Departament boshlig‘i o‘rribosarlari departament boshlig‘ining taqdimiga asosan Bosh prokuror tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimiga tayinlanadi.

Hududiy boshqarmalar boshliqlari va ularning o‘rribosarlari, departamentning tuman (shahar) bo‘limi boshliqlari departament boshlig‘ining taklifiga ko‘ra belgilangan lavozimlariga Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi.

Departament mustaqil yuridik shaxs bo‘lib, bank muassasalarida hisob, joriy va boshqa hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi gerbi tasviri tushirilgan va departamentning to‘liq nomi yozilgan muhriga ega.

Departament va uning hududiy bo‘linmalari o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlarining telekommunikatsiya vositalari va kompyuterdag‘i ma’lumotlar

bazasiga, soliq to‘lovchilarning soliq, yig‘im va boshqa davlat budjetiga to‘lanadigan majburiy to‘lovlarga oid hisob va hisob-dorligidagi buzilish faktlarini aniqlash;

– soliq yoki boshqa organlar xizmatchilari tomonidan huquqbazarliklar yashirilganligi haqida yetarli dalillar mavjud bo‘lganda qonunga asosan takroriy tekshirish o‘tkazish;

– qo‘shimcha tekshiruvlarni o‘tkazish va jinoiy ish qo‘zg‘atish;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni departament bo‘linmalar vakolatlari doirasiga kiruvchi savollar bo‘yicha tushuntirish, ma’lumot va ko‘rsatmalar olishga taklif qilish;

– belgilangan tartibda fuqarolar va mansabdor shaxslarning, agar ularni soliq sohasida va chet el valutasida muomala qiliishi sohasida jinoyat sodir etgan deb gumon qilish uchun yetarli ma’lumotlar bo‘lsa, zarur hujjatlarini tekshirish;

– vazirliklar, idoralar, banklardan, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar korxona, muassasa va tashkilotlardan, jismoniy shaxslardan departament zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun, qonunda bunday ma’lumotlarni olishning maxsus tartibi belgilangan hollarni istisno qilgan holda, zarur ma’lumotlarni talab qilib olish. Departament tomonidan olingan ma’lumot istisno holda xizmat maqsadlarida foydalaniadi va oshkor qilinmaydi;

– xo‘jalik subyektlarining (soliq to‘lovchilar) daromad olish uchun foydalilaniladigan yoki soliq obyektlarini saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, ombor, savdo va boshqa binolarni va joylarini ularning joylashgan joyidan va mulk shaklidan qati nazar tekshiradi, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning, tovar-moddiy boyliklarning inventarizatsiyasining nazorat o‘lchovini o‘tkazadi;

– analiz, tadqiqot va ekspertiza o‘tkazish uchun tovar, mahsulotlar, materiallar va yarimfabrikatlar namunalarini, shuningdek, hujjatlarni olib qo‘yish;

– qonunda belgilangan tartibda ma’muriy huquqbazarlikka oid ishlarni ko‘rish va ma’muriy jazolarni qo‘llash;

– qonunga asosan organlar va agentlarga berilgan valutani nazorat qilish funksiyasini bajarish;

– tergov oldi tekshiruvlarini amalga oshirish va jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish;

– qonuniylikning buzilishiiga ko‘maklashuvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdimnomalar kiritish;

– valuta va moliyaviy-iqtisodiy sohada huquq buzilishiqa qarshi kurashish masalalari bo‘yicha, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha xorijiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va axborot ayrboshlash.

Departament:

– yuridik va jismoniy shaxslardan o‘z faoliyatiga tegishli ma’lumotlar, ma’lumtnomalar, hujjatlarni olish;

– bank va boshqa moliya-kredit muassasalari huquqiga ega xo‘jalik subyektlarining (soliq to‘lovchilar) hisob-kitob raqamlari va boshqa raqamlari bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma’lumot olish;

– bojxona organlari va tashqi iqtisodiy aloqalar agentligidan eksport-import operatsiyalarini bajarish va xo‘jalik subyektlari (soliq to‘lovchilar) haqida boshqa ma’lumotlarni olish.

Bu huquqlarga ilgari soliq xizmati organlari ega edi, biroq hozir faqat departament vakolatiga kiritilgan.

Departament organlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega.

Departament xodimlari davlat, xizmat, tijorat sirini, jismoniy shaxslarning omonatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar sirini va ular o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida olgan boshqa ma’lumotni sir saqlashlari kerak. Sir oshkor qilingan taqdirda xodim qonunda belgilangan tartibda javob beradi.

Soliq va valutaga oid jinoyatlarni aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha protsessual harakatlarning jinoiy ish qo‘zg‘atishdan boshlab uni sudda ko‘rib chiqishga qadar uzviyliги va izchilligi departament hamda uning hududiy bo‘linmalarining iqtisodiy soliq sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha jinoiy ishlarni tergov qiladigan, sudda ular bo‘yicha davlat ayb-

lovini qo'llab-quvvatlaydigan barcha darajalardagi prokuratura organlari bilan mustahkam o'zaro hamkorligi va xatti-harakatlar ni muvofiqlashtirishi natijasida ta'minlanadi.

Departament O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori belgilangan muddatlarda departament va uning hududiy bo'linmalari ishi to'g'risida hamda soliq sohasida va valuta aylanishi hamda jinoiy faoliyat orqali olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni molialash sohasida qonuniylikning holati haqida hisobot, axborot va hisobga olish-tahliliy ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi.

Departament davlat soliq xizmati organlari, valutani nazorat qilishni amalga oshiruvchi organ va agentlar bilan quyidagi yo'nalishlarda aloqa qiladi:

- Soliq va valuta huquqbazarliklarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish, profilaktika tadbirlariga asosan oylik, kvartal va yillik taftishlarni o'tkazish;

- Davlat soliq inspeksiyasi bilan prognoz ko'rsatichilarining bajarilishi, budgetga to'lanadigan soliq va boshqa majburiy to'lovlardagi kamomadlarini undirish yuzasidan hamkorlik qiladi;

- valutani nazorat qilish organlari va agentlariga valuta huquqbazarliklari haqida ma'lumotlar berish;

- soliq-valuta huquqbazarliklarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish yuzasidan birgalikda reydlar o'tkazish;

- tezkor-ahamiyatli ma'lumotlarni almashish.

Departamentning vazifa, funksiya va majburiyatlarini hisobga olgan holda boshqa yo'nalishlarda ham aloqalar amalga oshiriladi.

Departament boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori bilan kelishgan holda prokuratura organlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlarining qonuniylikni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish doirasida tegishli xizmatlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qiladi, soliq va valutaga oid jinoyatchilikka hamda jinoiy faoliyat orqali olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmni molialashga qarshi kurash borasida uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqadi, soliq hamda valutaga oid va jinoiy faoliyat orqali

olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalash uchun qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlarni tergov qilishga protsessual yondashish uchun prokuraturaning boshqa bo‘limlari har qanday masalalarda aloqa qilishini ta’minlaydi.

Departament boshlig‘i prokuratura organlari bilan hamkorlik qilishda, departament va uning hududiy bo‘limlari tomonidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari bo‘yicha jinoyat ish qo‘zg‘atilgan paytdan va tergov o‘tkazishdan boshlab to ish sud instansiylari tomonidan ko‘rib chiqib hukm chiqarilguncha nazorat olib boradi. Ichki ishlar organlari bilan tezkor ma’lumotlarni almashtirish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan hamda soliq va valuta jinoyatlarini hamda jinoiy faoliyat orqali olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashni sodir etgan shaxslarni qidirish va ushslash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi va huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro ma’lumotlar almashadi.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitututsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. – T.: O‘zbekiston, 2003.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 9-dekabr 1992-yil (yangi tahriri – 29-avgust 2001-y O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi axborotnomasi 1993-y. №257-II., №1, 29-modda, №6, 266-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi axborotnomasi, 1996-y., №9, 145-modda; 1997-y., №2, 56-modda, №9, 241-modda; 1999-y., №9, 229-modda).

3. O‘zR «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi Qonun, 1997-yil 29-avgust. O‘zbekistonning yangi qonunlari to‘plami 17-soni. –T.: Adolat, 1998-y.

4. O‘zR «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni 1997-yil 29-avgust. O‘zbekistonning yangi qonunlari to‘plami 17-soni. –T.: Adolat, 1998-y.

5. Milliy xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 2-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan.

6. «O‘zbekiston Respublikasi prokururasi qoshidagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti» Nizo-

mi. Vazirlar Mahkamasining 06.07.2001-yildagi 291-sonli qarorining 5-ilovasi.

7. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan.

8. O'zR Jinoyat-protsessual Kodeksi. – T.: Adolat, 1999.

Maxsus adabiyotlar

1. Абдумаджидов Г.А. Развитие законодательства о расследовании преступлений. – Т.: Узбекистан, 1974.

2. Башкатов Л.Н., Ветрова Г.Н., Доценко А.Д., Зажицкий В.И.: Уголовный процесс/ Под редакцией Домовой А.И. - М.: НОРМА, 2001.

3. Громов Н.А. Уголовный процесс России: Учебное пособие. – М.: Юрист, 1998.

4. Головко Л.В. Дознание и предварительное следствие в Уголовном процессе Франции. – М.: СПАРК, 1995.

5. Деришев Ю. Предварительное следствие: исследование или преследование, Российская юстиция, №10, 2002.

6. Истина... и только истина! Проблемы, дискуссии, предложения. – М.: Юридическая литература, 1990.

7. Кузнецова Ю.В., Рукавишников В.П., Громов Н.А. Правовые основы взаимодействия следствия и органов дознания при расследовании преступлений. //Следователь, №6, 2000.

8. Кузнецова Ю.В., С.И. Анненков, Громов Н.А. Дознание и предварительное следствие: Сущность, задачи и значение стадии предварительного расследования // Следователь, №4, 2000.

9. Лебедев В.М. – Судебная защита свободы и личной неприкосновенности граждан на предварительном следствии – Российской Академия правосудия – учебное пособие. – М.: 2001.

10. Лукичев Н.А. Обеспечение состязательного процесса на стадии предварительного расследования // Следователь, №5, 2002.

11. Махов В.Н. Предварительное следствие по уголовным делам должно осуществляться судьями. // Следователь, №6 2002.
12. Павлухин Л.В. Расследование в форме дознания. – Томск, 1979.
13. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. Под редакцией профессора Гуценко К.Ф. – М.: Зерцало, 1997.
14. Рукавишников В.П., Анненкова Т.С., Громов Н.А. Предварительное следствие и его система в уголовном процессе // Следователь, №5, 2001.
15. Рыжаков А.П. Органы дознания в уголовном процессе. – М.: Городец, 1999.
16. Савицкий В.М., Ларин А.М. Уголовный процесс: Словарь-справочник – М.: Юридическая фирма КОНТРАКТ; ИНФРА-М, 1999.
17. Соломичев В.И. – Прокурорский надзор за исполнением законов органами, осуществляющими дознание и предварительное следствие. – М.: «Экспертное бюро -М», 1998.
18. Тырин А.В., Лукичев Н.А., Громов Н.А. Функция обвинения в досудебной стадии // Следователь, №5, 2002.
19. Хидоятов Б.Б. Проблемы регулирования дознания в Республике Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата юридических наук. Министерство юстиции Республики Узбекистан. Ташкентский Государственный юридический институт. – Т.: 2002.

Nazorat savollari

1. Dastlabki tergovning mazmun va mohiyati nimada ifodalanadi?
2. Dastlabki tergovning vazifalari nimalardan iborat?
3. Qaysi sabablarga ko‘ra jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni o‘tkazish zarur hisoblanadi?
4. Dastlabki tergovga ta’rif bering va uning vazifalarini tav-siflab bering.
5. Dastlabki tergov organlarini ko‘rsating.

6. Qaysi idoralarda bugungi kunda tergov apparati mavjud?
7. Turli idoralardagi tergovchilar o'rtasida vakolatlar doirasi qanday chegaralanadi?
8. Jinoyat ishlarning tergovga taalluqliligi qaysi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
9. Prokuratura tergovchilarini kim tomonidan lavozimiga tayinlanadi va ozod qilinadi?
10. Prokuratura tergovchilarini intizomiy javobgarlikka tortishning va rag'batlantirishning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
11. Surishtiruvchining mohiyati va vazifalarini tushuntirib bering.
12. Qaysi organlarga jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvni amalga oshirish huquqi berilgan?
13. Qaysi normativ aktlarda surishtiruv organlari vakolatlari belgilab berilgan?
14. Militsiya surishtiruv organi sifatida boshqa surishtiruv organlaridan nimasi bilan farq qiladi?
15. Jinoyatlarni tergov qilishda jamoat vakillari qanday shakllarda ishtirok etadi? Bunda qanday shartlarga rioya qilinishi lozim?
16. O'zbekiston Respublikasi MXX zimmasiga yuklatilgan vazifalarni aytинг.
17. MXX organlari faoliyati qanday prinsiplarga asosan tashkil qilinadi?
18. O'zR IIVga qanday vazifalar yuklatilgan?
19. Bojaxona organlarining asosiy vazifalarini ko'rsating.
20. Bojaxona organlariga qanday majburiyatlar yuklatilgan?
21. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokururaturasi huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatchilikka qarshi kurash departamenti qanday vazifalar yuklatilgan?
22. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ko'rsating?
23. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi qanday huquqlarga ega?

XIV mavzu. YURIDIK YORDAM KO'RSATISHNI TASHKIL QILISH

14.1. Advokatura tushunchasi, uning vazifalari va advokatlik faoliyatining turlari

Inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklari malakali himoya qilingandagina to‘la amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun qonun hujjatlarini faqat o‘qiy bilishgina emas, balki ularni tushuna bilish ham, shuningdek, yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun kerak bo‘lgan aktni topish bo‘yicha mahorat, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ishni yuritish bo‘yicha tajriba hamda shunga o‘xshashlar talab etiladi. Boshqacha aytganda, samarali yordamni ta’minlash uchun yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassis kerak. Bunday mutaxassis esa *advokatdir*.

«Advokat» so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, ikki ma’noga ega: a) sud ishlari bo‘yicha ishonchli vakil, sudda himoyachi; b) biror shaxsni yoki biror narsani yozma yoki og‘zaki ravishda himoya qiladigan shaxs. Rus so‘zlashuv tilida ham bu so‘z ikki ma’noni bildiradi. *Birinchidan*, advokat deganda, sudda boshqa shaxslarni himoya qilish uchun ish yuritishdan iborat faoliyat, kasb tushunilsa, *ikkinchidan*, oldin mazkur kasbga o‘zini bag‘ishlagan shaxslarning katta guruhi, ya’ni advokatlar tabaqasining o‘zi ham *advokatura* deb atalgan.

Sud hokimiysi sud jarayonida taraflar o‘zlarining protsessual huquq va majburiyatlarini to‘la anglagan holda ishtirok etishlaridan manfaatdordir. Shu munosabat bilan advokatura instituti taraflarning manfaatlarini himoya qilish uchungina ulkan ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki odil sudlovni tegishlicha amalga oshirishda muhim bo‘lgan umumiyl vazifalarni bajarish uchun ham zarurdir.

Biroq advokaturaga nisbatan munosabat har doim ham ijobiy bo‘lmagan. Advokaturaga nisbatan salbiy munosabatning yuzaga kelishiga qisman advokaturaning o‘zining yetarlicha mukammal bo‘lmaganligi, qisman jamiyatning sud shakllariga odatlanmaganligi sabab bo‘lgan. Masalan, Germaniyada Bu-

yuk Fridrix advokatlarni «zuluklar va xavfli ilonlar» deb atab, 1780-yilda advokaturani butunlay yo‘q qilishga farmon bergen edi. Mazkur farmon 1878-yil 3-iyuldagina o‘z kuchini yo‘qotgan va advokatura tiklangan edi. Napoleon esa Kambaseresga: «O‘zining tilidan hukumatga qarshi foydalangan advokatning tilini kesib tashlash imkoniyati bo‘lishini xohlar edim», – deb yozadi. Ammo ozod mamlakatlarda advokatura doimo yuqori maqomga ega bo‘lib kelgan¹. Sekin-asta advokaturaga bo‘lgan salbiy munosabat advokaturaning zimmasidagi ulkan ahamiyatga ega ijtimoiy vazifani anglab yetish hamda uning naqadar zarurligiga ishonch bilan o‘rin almashdi.

Advokatura ko‘p asrlar muqaddam yuzaga kelgan bo‘lib, eng ko‘hna protsessual institutlardan hisoblanadi. Sudda taraf-larga vakillik qilish g‘oyasi sekinlik bilan davom etgan tarixiy jarayon natijasida rivojlandi. XIX asrda advokatura deganda, tor ma’noda huquqni yoqlash (tarafdarlik) tushunilsa, keng ma’noda – huquqni yoqlash (tarafdarlik) va sudda vakillik qiliшning birligi tushunilgan. Huquqni yoqlash (tarafdarlik) deganda qonunlarni o‘rganish bilan maxsus shug‘ullanuvchi odamlarning yuridik yordamga muxtoj odamlarga ko‘rsatadigan shunday yordamlarini tushunish lozim.

Sudda vakillik qilish – sud jarayonida bir shaxsning ikkinchi shaxsga o‘z vakolatlarini berishi, bunda vakilning suddagi faoliyatidan kelib chiquvchi barcha oqibatlar bevosita manfaati vakil tomonidan himoya qilinayotgan shaxsga tegishli bo‘ladi². Huquqni yoqlash (tarafdarlik) va sudda vakillik qilish turlicha talablar natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, ularning faoliyat doirasi ham turlicha edi. Yevropaning ko‘p mamlakatlarida advokatura va sudda vakillik qilish ikkita institut sifatida mustaqil rivojlangan. G‘arbiy Yevropada huquqni yoqlovchilar advokat nomini olganlar.

Rossiyada esa Yevropadagidan farqli, huquqni yoqlash (yoki tarafdarlik) mustaqil institut sifatida emas, balki suddagi vakillik natijasida yuzaga keldi. Vakillik g‘oyasining boshlang‘ich

¹Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. Том 1. Издво «Альфа», Санкт-Петербург, 1996. - В.467.

²Черкасова Н.В. Формирование и развитие адвокатуры в России (60-80 годы XIX в.) Отв. ред. Е.А.Скрипилёв. – М.: Наука, 1987. – В. 10 -11.

asosini ikki institut – oilaviy vakillik va yuridik shaxslarning vakilligi tashkil qilgan edi. O'rta asrlarda oilaviy vakillik slavyan va german xalqlarida keng tarqalgan edi. Vakillikni ko'pincha farzandlar, aka-ukalar, jiyanlar, hatto xizmatkorlar va do'stlar amalga oshirganlar¹.

Boshqa tomondan esa, yuridik shaxslar qadimgi huquqning sudda shaxsan ishtirok etish to‘g‘risidagi qat’iy talabini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmanliklari uchun (zero yuridik shaxs sud oldida bevosita javob berishi mumkin emas), ular odamlar faqat qarindoshlik yoki qarindosh deb faraz qilish bo‘yichagina sudda vakil olishlari mumkin bo‘lgan qadim zamonlardayyoq vakillardan foydalanish huquqiga ega bo‘lganlar. Masalan, o'rta asrlarda monastirlarning suddagi vakillari sifatida ularning diniy rahnamolari, keyinchalik esa odatda qonunlarni yaxshi tushunuvchi monaxlar orasidan tanlab olinadigan boshqa shaxslar ham ishtirok etganlar.

Yuridik shaxslarga monand qirol ham o‘zining vakillariga ega bo‘lgan. O'rta asrlarda o‘zini vakillari bilan almashtirish huquqi qirol hokimiyatining alohida imtiozi sifatida ko‘rilib, boshqa shaxslar bunday huquqqa ega bo‘lmanlar. Biroq oddiy odamlar orasida sudda o‘zining manfaatlarini himoya qilolmaydigan yoki yetarlicha himoya qila olmaydiganlar – ayollar, voyaga yetmaganlar va b.q. tez-tez uchrab turganligi bois, bunday shaxslarning kuch jihatdan raqibga tenglashishi uchun qirollar alohida marhamat ko‘rsatib, ularga vakil yordamiga ega bo‘lishga huquq bergenlar; bunday marhamat ayrim holatlardagina ko‘rsatilib, unga musharraf bo‘lgan shaxs sunda o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun qonunlarni biladigan xususiy shaxslarni kelishuv asosida taklif qilishga haqli bo‘lgan. Bu birinchi qadam edi, hayot bu qadam natijasida kelib chiqqan muammolarni hal qilishni talab qilar edi; alohida marhamat bora-bora umumiyluq huquqqa aylanib, bu huquq o‘zini shunga xizmat qilishga bag‘ishlagan odamlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

¹Черкасова Н.В. Формирование и развитие адвокатуры в России (60-80 годы XIX в.) Отв. ред. Е.А. Скрипилёв. – М.: Наука, 1987. – В. 11.

Advokaturaning paydo bo'lishi har bir shaxsga sudda vakil olishga ruxsat berilgan vaqtdan boshlanadi¹. Hozirgi zamonda advokatura deganda professional yuristlarning o'ziga xos ravishda uyushgan birlashmasi tushunilib, bu birlashmaning asosiy vazifasi yordamga muxtoj bo'lganlarning barchasiga malakali yuridik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Hozirgi vaqtida advokatura zimmasiga barcha jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga, odil sudlovni amalga oshirishga, qonuniylikka rioya qilish va uni mustahkamlashga, fuqarolarni qonunlarga aniq va og'ishmay rioya etish, boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari, sha'n va qadr-qimmatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga ko'maklashish yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan Qonuni advokaturaga quyidagicha ta'rif beradi: «Advokatura – huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi» (1-modda). «Advokatura to'g'risida»gi Qonun, shuningdek, advokaturaning oldida turgan vazifalarni ham belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, advokatura O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga yuridik yordam ko'rsatadi.

Advokatura oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida advokatura faoliyatining quyidagi asosiy turlari mavjuddir:

- huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va tushuntirishlar berish, qonun hujjatlari yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar berish;
- huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzish;
- sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida fuqarolik ishlari bo'yicha hamda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha vakillikni amalga oshirish;

¹ Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. Т. 1. – Санкт-Петербург: «Альфа», 1996. –В.469.

– jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovda va sudda himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar va fuqaroviylar javobgarining himoyachisi sifatida ishtirok etish;

– tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko‘rsatish.

Advokat O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ta’qilanganmagan boshqa yuridik yordam turlarini ham ko‘rsatishi mumkin («Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasi). Mohiyati jihatidan yuridik yordam keng qamrovli faoliyatni nazarda tutadi: kerakli me’yoriy hujjatni topishda yordam berish, bu hujjatning mazmunini tushuntirish, ariza yoki iltimos-noma, boshqa hujjatni tuzishda ko‘maklashish, argumentlarni hamda yuzaga kelgan muammoni samaraliroq hal qilishi mumkin bo‘lgan organni tanlash, sudda yoki boshqa organda vakillikni amalga oshirish, jinoyat ishlari bo‘yicha himoyani amalga oshirish yoki ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan fuqaroning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va hokazo.

Qonun hujjatlarini qo‘llash yuzasidan maslahatlar berish advokatlik faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Bunday maslahatlar ko‘pincha amaldagi fuqarolik, oila, mehnat, ma’muriy va jinoyat qonun hujjatlarini tushuntirishdan iborat bo‘lib, ularning asosiy ko‘pchiligini sud ishlari bo‘yicha maslahatlar tashkil qiladi.

Advokatlik faoliyatining boshqa turi – o‘z maslahatchi yuristlariga ega bo‘limgan tashkilotlarga yuridik xizmat ko‘rsatishdan iborat. Mazkur yuridik xizmat yuridik maslahatxonalar bilan tuziladigan bitimlarga asosan ko‘rsatiladi va bu bitimlarda tomonlarning majburiyatları batafsil ko‘rsatib o‘tiladi. Tadbirkorlik faoliyati yuzasidan xizmat ko‘rsatuvchi advokat chiqarilayotgan buyruqlar va boshqa huquqiy qarolarning qonunga mosligini tekshiradi, shartnoma oldi hujjatlar ni va shartnomalarni rasmiylashtirishda ishtirok etadi, da’vo qo‘zg‘atish bo‘yicha ish yuritadi va sudlarning ish yurituvida qatnashadi, ma’muriy-boshqaruv apparati, ishchilar va xizmatchilarga huquqiy masalalar yuzasidan maslahatlar beradi va hokazo.

Yuridik yordam ayniqsa, jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining 116-moddasida ko‘rsatilishicha: «Ayblanuvchi

himoyalanish huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi.»

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarning himoyalanish huquqi borligini shunchaki e'lon qilibgina qolmay, balki bu huquqning kafolatlanganligiga urg'u beradi. Biror-bir fuqaro yetarlicha asoslarsiz jinoiy javobgarlikka tortilmasligi va sudlanmaslididan jamiyat albatta, manfaatdor. O'zR JPKda ham jinoyat sodir qilganlikda gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar hamda sudlanuvchilar himoyalanish huquqi bilan ta'minlanishlari belgilab qo'yilgan. Bu huquq esa ko'proq yetarlicha keng imkoniyatlarga ega bo'lgan advokatlar tomonidan amalga oshiriladi. Xususan, jinoyat-protsessual qonun hujjatlari himoyachi-advokatga sud bosqichlarida ham (sud muhokamasi davrida, muayyan ish yuzasidan chiqarilgan hukm va ajrimlarning qonuniyligi va asoslantirilganligini tekshirish bosqichlarida), surish-tiruv va dastlabki tergov davrida ham keng huquqlarni beradi.

Bu turdagи huquqlar doimo takomillashib bormoqda. Masalan, 1999-yilda JPKga jiddiy o'zgartirishlar kiritilib, ularga muvofiq himoyachi-advokatlarning ishda ishtirot etishiga ayblov e'lon qilingan vaqt dan yoki gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror e'lon qilingan vaqt dan yoxud shaxs ushlangan vaqt dan boshlab ruxsat etiladi. Bunda ular ushlab turish bayonnomasi yoki ehtiyyot chorasi tariqasida qamoqqa olish to'g'risidagi qaror bilan tanishishlari, himoyadagi shaxs bilan uchrashishlari (bunday uchrashuvlar soni va davomiyligi cheklanishi mumkin emas), tergov harakatlarda ishtirot etishlari va boshqa shu kabi harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. JPKda himoyachining o'z himoyasidagi shaxsni qamoqqa olishning yoki qamoq muddatini uzaytirilishining noqonuniyligi ustidan shikoyat keltirish huquqi to'g'risidagi qoidalar mavjuddir (JPK 53-m).

JPKda jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxs qaysi hol-larda himoyachiga ega bo'lishi shartligi ko'rsatib o'tilgan. Agar

bu shaxs yoki uning qarindoshlari biror sabab bilan advokatni taklif qilmayotgan bo‘lsalar, bu holda himoyachi tergovching, prokurorning yoki sudyaning taklifi bo‘yicha tayinlanishi lozim. Bu tarzda taklif etilgan advokat ayblanuvchi yoki uning qarindoshlari taklif etgan advokat bilan teng huquqlarga ega bo‘ladi va uning mehnatiga davlat budgeti hisobidan to‘laligicha haq to‘lanishi lozim (JPK 50-m.).

Jinoyat ishlarida ishtirok etayotgan advokat ayblanuvchini oqlaydigan yoki uning javobgarligini yengillashtiradigan holatlarni aniqlash maqsadida qonunda ko‘zda tutilgan barcha himoya vositalari va usullarini qo‘llashi hamda ayblanuvchiga zarur yuridik yordam ko‘rsatishi shart. Jinoyat ishlarini ko‘rish chog‘ida advokat ayblanuvchining himoyachisi sifatidagina emas, balki jabrlanuvchining, fuqaroviy da‘vogarning, fuqaroviy javobgarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularning vakili sifatida ham ishtirok etishi mumkin.

Advokat, shuningdek, fuqarolik ishlarini muhokama qilishda da‘vogar, javobgar va uchinchi shaxslarning vakili sifatida ham ishtirok etadi. Advokatura faoliyatini tashkil qilish qonunning ustunligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplarga asoslanadi («Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunning 4-m.). Konsitutsiyaviy qonuniylik prinsipi fuqaroning yuridik yordamga bo‘lgan subyektiv huquqini amalga oshirish uchun shubhasiz ahamiyatga ega. Bu huquqqa advokatlarning yuridik yordam ko‘rsatish majburiyati hamohangdir.

Advokatlik faoliyatining prinsipi sifatida mustaqillik advokatning yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha kasbiy vazifalarini bajarish bilan bog‘liq faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘ylmasligini nazarda tutadi. Advokatning muayyan ishni o‘rganishiga to‘sinqilik qilish yoki vakolat beruvchining yoxud o‘z himoyasidagi shaxsning qonuniy manfaatlariga zid keluvchi nuqtayi nazarni majburan egallashiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo‘lmasin ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, advokatga tahdid qilish, uni haqoratlash, unga nisbatan tuhmat qilish, kuch ishlatish yoxud uning hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulkiga tajovuz qilish qonun hujjalariiga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi («Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi qonunning 7-m.).

Advokatura o‘z faoliyatini boshqa demokratik prinsiplar asosida ham amalga oshiradi. Ularga quyidagilar kiradi: kasb etikasi, advokatlik siri va qasamyodiga qat’iy rioya etish; qonun hujjalarda man qilinmagan usullar va vositalarni qo’llash («Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonunning 2-m.).

14.2. O‘zbekistonda advokaturaning rivojlanish bosqichlari

Revolutsiyagacha Turkistonda chor sudlarida jinoyat va fuqarolik ishlarini ko‘rishda, Rossiyaning boshqa o‘lkalaridagi kabi, advokatlar – hakam tomonidan vakolat berilganlar va ularning yordamchilari ishtirok etganlar. 25 yoshga to‘lgan, sud idorasida chinovnik sifatida yoki prisyajniy vakolat berilganlarning yordamchisi sifatida 5 yillik sud amaliyotiga ega bo‘lgan shaxslargina advokat bo‘la olgan. Hakam vakolat berilganlarning ayrim kengashlarida nomzodlarning amaliy tayyorgarligini tekshirish maqsadida ular imtihondan o‘tkazilgan. Hakam vakolat berilganlarning yordamchisi – yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan, biroq hech qayerda xizmat qilmagan shaxsdir.

Rossiyada professional advokaturaning vujudga kelishi 1864-yilda o‘tkazilgan sud islohoti bilan bog‘liq. Sud ustavlarida qonun yo‘li bilan mustahkamlanib qo‘yilgach, advokatura Rossiyaning yangi yuridik muassasasiga aylandi. Reformagacha bo‘lgan davrda asrlar davomida advokatlik vazifasini xususiy shaxslar – ish bo‘yicha stryapchiylar yoki xodataylar bajarib kelganlar. Ularning vazifalari qonun yo‘li bilan tartibga solinmagan, ularga (maxsus ma’lumotning mavjudligi va shu kabi) talablar qo‘yilmagan. Odatta, ularning vazifasiga ayrim hujjalarni (qog‘ozlarni) rasmiylashtirish, ularni taqdim qilish va shu kabilar kirgan. Hatto, 1832-yilda prisyajniy stryapchiylar institutining ta’sis etilishi ham, ularning faoliyati tabaqaviy xususiyatga ega bo‘lganligi bois, Rossiyaning yangi ijtimoiy qatlamlariga sudda va boshqa muassasalarda o‘z manfaatlarini himoya qilishni kafolatlay olmas edi.

1864-yildagi sud ustavlariga ko'ra, advokatlar ikki kategori-yaga bo'linar edi – prisyajniy vakolati berilganlar va xususiy vakolat berilganlar. Prisyajniy vakolati berilganlar (yoki qasamyod qabul qilgan vakolat berilganlar) alohida korporatsiyaga - prisyajniy vakolati berilganlar tabaqasiga birlashganlar, bu tabaqa ichki o'z-o'zini boshqaruvga asoslangan, saylanadigan organlar ko'rinishida bo'lib, bu organlarning faoliyati ustidan sud organlari va adhiya organlarining nazorati o'rnatilgan. Turkiston o'lkasida, Buxoro amirligida va Xiva xonligida esa qozilar va biylarning shariat (musulmon huquqi) va odatga asoslangan feodal sudsari jinoyat va fuqarolik ishlarini advokat ishtirokisiz ko'rib hal qilar edilar.

Mahalliy aholining aksariyati Qur'on oyatlarini erkin sharh-lashdan kelib chiqqan, murakkab va chigal tizimga ega bo'lgan shariatning va ko'pincha o'zaro zid hamda aniq shaklga ega bo'lmagan odatning yozilmagan me'yorlarining ikir-chikirlarini mustaqil tushunib yetmas edi. Bunday sharoitda qozilar va biylarning sudiga tortilgan yoki o'z tashabbusi bilan murojaat qilgan shaxslar muftilar, fikhshunos mirzalarning yordamiga muhtojlik sezар edilar. Muftilar va fikhshunos mirzalar jamoat joylarida, bozorlarda, choyxonalar va qozixonalar atrofida joylashib, xususiy amaliyot bilan shug'ullanar edilar.

Ko'rinish turibdiki, ularning vazifasi og'zaki yoki yozma maslahat berish bilan cheklangan. Sudda himoyachi sifatida qatnashishga esa ularning vakolati bo'lmagan, zero qozi va biylar sudida himoya institutining o'zi mavjud emas edi. Sudga tortilgan shaxslar o'z huquqlari va manfaatlarini o'zları himoya qilishlari kerak edi. 1917-yildagi Oktabr revolutsiyasidan keyin advokatura eski adliyaning boshqa organlari kabi tugatildi.

1917-yil 24-noyabrda qabul qilingan Sudlar to'g'risidagi 1-Dekret eski advokaturani tugatib, fuqarolik huquqlari bo'lgan, har ikki jinsdagi, sha'niga dog' tegmagan barcha fuqarolarni himoyachi sifatida ishtirok etishiga ruxsat berdi. Rossiya Respublikasining Adliya xalq Komissarligi esa mazkur Dekret-dan kelib chiqqan holda revolutsion tribunal to'g'risidagi instruktsiyani qabul qildi. Bu instruktsiyaga muvofiq, revtribunallar qoshida ham ayblov, ham himoya funksiyalarini bajarish yuklangan huquq tarafdarlari kollegiyasini tuzish ko'zda tutilgan

edi. Shu bilan birga ayblanuvchi o‘ziga himoyachi sifatida siyosiy huquqlardan mahrum bo‘lmagan har qanday fuqaroni tanlashi mumkin edi.

1918-yil 7-martdagি Sudlar to‘g‘risidagi 2-Dekretga asosan ishchilar, soldatlar, dehqonlar va kazaklarning deputatlari Sovetlari qoshida o‘zlarini ham jamoat ayblovi, ham jamoat himoyasi shaklidagi huquq tarafдорligiga (yoki homiyligiga) bag‘ishlagan shaxslarning hay’ati tuziladi. Mazkur Dekretda ko‘rsatilishicha, «bu hay’atlarga ishchilar, soldatlar, dehqonlarning deputatlari Sovetlari saylaydigan va chaqirib oladigan shaxslar kiradi. Faqat shu shaxslargina sudlarda haq evaziga ishtirok etishga haqlidirlar». Hay’atlar jamoat ayblovchilari uchun ham, jamoat himoyachilari uchun ham yagona edi. Shu bilan birga, mazkur hay’atlarga kirmaydigan shaxslarning himoyachi sifatida ishtirok etish huquqi saqlanib qolingan edi. Ko‘rinib turibdiki, sudda himoya qilish ishi davlat nazorati os-tida edi.

Sudlov ishlarini yuritishning takomillashuvi huquq tarafдорlarining faoliyatini ham o‘zgartirdi. Bora-bora ayblov va himoya funksiyalari ajratila boshlandi, huquq tarafдорlari hay’ati a’zolarining ish haqlari to‘g‘risidagi masalani tartibga solish mo‘ljallana boshlandi, sudlarda betartib va nazoratsiz himoyaga yo‘l qo‘yilishi avvaliga cheklanib, so‘ng butunlay tugatildi.

1918-yil 30-noyabrda VSIK «Yagona xalq sudi to‘g‘risida» Nizom qabul qildi. Bu Nizomga ko‘ra, Sovetlarning ijroiya qo‘mitalari qoshida fuqarolik protsessida taraflarning himoyachilari, ayblovchilari hay’atlari ta’sis etildi. Endi himoya funksiyasi davlat xizmatining shakllaridan biriga aylandi. Biror ish bo‘yicha ayblovchi ishtirok etganda hamda ish oltita xalq maslahatchisi ishtirokida ko‘rilganida himoyachi ishtiroki majburiy-ligi tan olindi. Mazkur Nizomga ko‘ra, fuqarolik protsessida himoyachilar, ayblovchilar hay’ati a’zosi va taraflarning vakil-lari bir protsessda himoyachi sifatida, boshqasida esa ayblovchi yoki taraflarning vakili sifatida qatnashishi mumkin edi.

Biroq funksiyalarning bu tartibda aralashtirilishi amaliyot-da o‘zini oqlamadi, bu esa himoyani amalga oshiruvchi maxsus organ tuzish zarurati tug‘ilganligini ko‘rsatar edi. Shu

maqsadda 1920-yil 21-oktabrda qabul qilingan xalq sudi to‘g‘risidagi RSFSR Nizomi asosida jamoatchilik himoyasi instituti tashkil etildi. Mazkur Nizom huquq tarafдорлари kollegiyasini tugatdi va himoya funksiyasini bajara oladigan fuqarolarning barchasi himoyachi sifatida ishtirok etishiga ruxsat berdi. Himoyachi sifatida jalb qilinadigan shaxslar talab etilgan muddatga asosiy ishlardan ozod etilganlar; protsessda ishtirok etgan vaqtлari uchun ularning ish haqlari saqlanib qolning yoki davlat hisobidan eng kam ish haqi miqdorida kunlik haq to‘langan. Bunday himoyachilar yetmay qolgan hollarda adliya bo‘limlari konsultantlari (maslahatchilari) himoyachi sifatida jalb qilinar edi. Himoyani tashkil qilishning bunday shakli 1922–1924-yillarda o‘tkazilgan sud-huquqiy islohotiga qadar amalda bo‘lib keldi.

1922-yil 26-mayda Advokatura to‘g‘risida Nizom tasdiqlanib, unga ko‘ra, advokatura aholiga yuridik yordam ko‘rsatadigan va o‘z-o‘zini boshqaradigan tashkilotga aylantirildi. Guberniyalardagi adliya bo‘limlari qoshida jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha himoyachilar hay’atlari tuzila boshlandi. Birinchi chaqiriq himoyachilar hay’ati a’zosi guberniya adliya bo‘limlari tomonidan tanlanib, so‘ng guberniya ijroiya qo‘mitalari tomonidan tasdiqlanar edi. Keyinchalik yangi a’zolarni qabul qilish huquqi himoyachilar hay’ati rayosatiga berildi. Gubijroqo‘m rayosati yangi qabul qilingan hay’at a’zolarini rad etishga haqli edi. Himoyachilar hay’ati a’zosi, saylov bo‘yicha davlat mansabini egallab turgan shaxslarni, professorlar va yuridik fanlari o‘qituvchilarini istisno qilganda, davlat korxonalarini va muassasalarida biror mansabni egallashga haqlari yo‘q edi.

Himoyachilar hay’ati a’zolaridan tashqari, shuningdek, ayblanuvchi va jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari, korxonalar, muassasalar va VSSPS vakillari sudda himoyani amalga oshirishlari mumkin edi. Sovet advokatusasining yuqorida ko‘rsatilgan rivojlanish bosqichlari O‘zbekiston SSR advokatusasiga ham xosdir. Shu bilan birga O‘zbekiston SSRda advokaturaning tarixi o‘ziga xos bo‘lib, bu o‘ziga xoslik respublika tarixiy rivojlanishi muayyan shart-sharoitlarining xususiyatlarini aks ettiradi.

Turkiston ASSR (1918-1924) RSFSR tarkibiga kirganligi bois, uning hududida RSFSR qonunlari amalda edi. 1917-yil 12-dekabrdan Turkiston o'liasi SNK qabul qilgan Dekretning asosiy qoidalari, shu jumladan, himoya to'g'risidagi qoidalari Sudlar to'g'risidagi 1-Dekretga mos kelar edi. TASSR SNK Dekretiga muvofiq, faqat sudlardagina emas, balki revolutsion tribunallarda ham himoyachi ishtirokidagi himoyalanish huquqi ta'minlanar edi. Bunday revolutsion tribunallar mahalliy Sovetlarning qarorlari asosida vujudga keltirilib, ular to'g'risidagi Nizomlar, xususan, TASSR MIQ tomonidan 1918-yilning 14-sentabri va 18-oktabrida, 1920-yilning 2-fevralida qabul qilingan.

1918-yil 16-yanvardayoq Toshkent Soveti revolutsion tribunal tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilib, unga ko'ra, yoshi 20dan kam bo'lмаган, siyosiy huquqlari bo'lgan har ikki jinsdagi barcha fuqarolar sud majlisida himoyachi bo'lishi mumkin edi. 1918-yil mart oyida Skobelevda (hozirgi Farg'ona) revolutsion tribunal tashkil etildi. Mahalliy matbuotda yozilishicha, tribunal majlisida «ushbu ish bo'yicha... ayblanuvchining himoyachisi sifatida... har qanday fuqaro protsessda ishtirok etishi mumkin».

Turkiston Avtonom Respublikasining revolutsion tribunallar to'g'risidagi 1918-yil 2-oktabrda tasdiqlangan Muvaqqat nizomiga ko'ra (21-m.), revtribunal qoshida «o'zlarini jamoatchilik himoyasi shaklidagi huquq homiyligiga bag'ishlovchi shaxslarning hay'ati tasdiqlanadi». Bunday shaxslar qatoriga jamoatchilik himoyachilar, advokatlar kasaba uyushmalari a'zolari, shuningdek, sudda hozir bo'lgan va siyosiy huquqlardan mahrum qilinmagan har qanday voyaga etgan shaxs kirishi mumkin edi. Ular tegishli Sovetlarning tavsiyanomalariga ega bo'lishlari talab etilardi. Nizomga ko'ra, himoyachi ham taklif etilishi, ham tayinlanishi mumkin edi (ayblanuvchi voyaga yetmagan hollarda esa, uning iltimosisiz tayinlanishi kerak edi).

Sovet hukumatining ilk davrida «huquq homiysi (yoki taraf-dori)» va «himoyachi» iboralari sinonim sifatida ko'rilib, ko'pincha bir hujjatning o'zida bir vaqtida va teng ma'noda qo'llanilar edi. Bu esa o'sha davrdagi rasmiy sovet hujjatlari-

ning yuridik tilida ularning teng ma’nodaligini ko‘rsatadi. Huj-jatlarga ko‘ra, mazkur iboralar ostida ham o‘sha vaqtida mavjud bo‘lgan advokatlar kasaba uyushmalarining a’zolari, ham ish-da ishtirok etishga ruxsat berilgan jamoatchilik himoyachilari tushunilgan¹.

Himoyachi tergov komissiyasining ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to‘g‘risidagi qarori chiqarilgan vaqtdan boshlab ish-da ishtirok etishiga yo‘l qo‘yildi. Himoyachi qamoqda bo‘lgan ayblanuvchi bilan xoli uchrashishga, ish bilan tanishishga va undan ko‘chirmalar olishga va hokazolarga haqli bo‘lgan. Bit-ta ish bo‘yicha bir nechta ayblanuvchi javobgarlikka tortilganda ular o‘rtasida qarama-qarshiliklar bo‘lgan hollarda, ayblanuv-chilarning manfaatlarini ko‘zlab, ularning har biriga alohida himoyachi tayinlanar edi. Jamoatchilik himoyachisi sud majlisida ishtirok etishi shart bo‘lgan shaxslar qatoriga kiri-tilib, u sud majlisida himoya nutqi bilan chiqib, sud e’tiborini «sudlanuvchiga e’lon qilingan ayblovni rad etuvchi yoki shub-ha ostiga qo‘yuvchi holatlarga qaratishi, shuningdek, jinoyatni kvalifikatsiyalash va jazo chorasi to‘g‘risida o‘z mulohazasini bildirishi mumkin» edi.

Himoyachilar instituti bora-bora muayyan tashkiliy shakl-larga ega bo‘la boshladi. 1919-yilning o‘rtalaridayoq huquq homiyları hay’atlari va komissiyalari TASSRning Oliy tribunalida ham, viloyatlar tribunallarida ham mavjud edi. Masalan, 1919-yil yozida shunday hay’at Toshkentda Sirdaryo revtribunalı qoshida ham mavjud bo‘lib, uning a’zolari viloyat ijroqo‘mining qarori bilan tayinlanardi. Viloyat Sovetlari ijroqo‘mlari huquq homiyları hay’atlari va byurolari ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshirganlar, shtat masalalarini na-zorat qilganlar, oblrevtribunallar qoshidagi hay’at a’zolarini tayinlaganlar, ish haqlari miqdorini belgilaganlar va sh.k. TASSR Oliy Revolutsion tribunalı qoshidagi huquq homiyları hay’atlari ustidan xuddi shunday nazoratni TurkMIQ amalga oshirgan.

TurkMIQ tomonidan 1920-yil fevral oyida tasdiqlangan yangi «Revolutsion tribunallar to‘g‘risidagi nizom» tribunallar

¹ Саркисянц Г.П. Адвокатура советского Узбекистана. – Т.: FAN, 1972. – В. 12-13.

ixtiyoricha va mahalliy Sovetlar qoshidagi himoyachilar hay'atlar a'zolaridan bo'lgan himoyachigina ishtirok etishiga ijozat berishni ko'zda tutar edi. O'sha davr hujjatlaridan ko'rinish turibdiki, hay'atlar ayblanuvchilarni himoyachilar bilan ta'minlaydigan asosiy, ba'zan esa yagona organ deb e'tirof etilgan. 1920-yilda vujudga kelgan Buxoro va Xorazm XSRda esa amalda bo'lgan qozilar va biylar sudlarida himoyachilar yo'q edi, xuddi shunday TASSR hududida vaqtincha saqlanib kelayotgan qozilar va biylar sudlarida ham shu ahvol kuzatilgan. Buxoro respublikasining sovet sud organlarida himoyachilar instituti endigina rivojlanib kelayotgan, Xorazmda esa himoya-chilar hay'atlari hali yo'q edi.

BXSR Sud qurilishi to'g'risidagi 1924-yil 5-yanvardagi Nizomiga ko'ra (38-m.), okrug sudlari qoshida jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha himoyachilar hay'atlari tuzilib, ularning faoliyati alohida Nizom bilan tartibga solingan. Umumiy rahbarlik Adliya Nazorati tomonidan, doimiy faoliyat ustidan nazorat esa hay'at rayosati tomonidan amalga oshirilgan. Hay'at a'zolari o'z ishlari uchun mukofotlanganlar (42-43-m.m.), nojo'ya xatti-harakatlari uchun esa rayosat intizomiy jazo qo'llagan (41-m.).

1924-yil 1-oktabrda Buxoro respublikasi hukumati «BXSR sudlari qoshida huquq himoyachilari hay'atlari to'g'risida»gi Nizomni tasdiqladi. Bu Nizomning nashr etilishi 1924-yil 5-yanvardagi BXSR Sud qurilishi to'g'risidagi Nizomda ko'zda tutilgan edi. 1924-yil 1-oktabrdagi Nizomga ko'ra, jinoyat va fuqarolik ishlarida ayblanuvchilarning manfaatlarini himoya qilish, taraflar va boshqa shaxslarga vakillik qilish, shuningdek, hukumat va ma'muriy muassasalarda hamda mansabdor shaxslarda ishlarni yuritish uchun Buxoro respublikasi sudlari qoshida huquq himoyachilari hay'ati ta'sis etildi. Huquq himoyachilari hay'ati okrug sudlari tashkil etilgunga qadar bevosita Adliya Nazoratiga bo'ysungan va Nazorat birinchi chaqiriq huquq himoyachilari hay'ati a'zolarini tasdiqlagan. Keyinchalik yangi a'zolarni qabul qilish hay'at umumiy yig'ilishi qarori bilan amalga oshirilib, qaror nusxasi Adliya Nazoratiga yuborilgan hamda respublika Davlat prokurori xabardor qilingan.

Nizom huquq himoyachilari hay'ati faoliyatini, uning umumiy yig'ilishini, huquq himoyachilari mehnatiga haq to'lash

tartibini, uning protsessual maqomini tartibga solar edi. O'rta Osiyo xalqlarining milliy-davlat birlashmalari tuzilgunga qadar (1924) O'rta Osiyodagi sovet respublikalarida (TASSR, BSSR va XSSR) advokatura organlarining yagona tizimi mavjud emas edi. Xorazmda hali himoyachilar hay'ati yo'q edi, Buxoro respublikasida esa himoyachilar hay'ati faqatgina uning oxirgi kunlarida shakllana boshlagan. TASSR advokaturasining ancha rivojlangan tizimi ajralib tursa-da, bu yerda ham uning tashkiliy shakllari yetarlicha takomillashmagan va muqim emas edi.

O'zbekiston SSR tashkil etilganidan so'ng, respublikaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan adliya organlarining izchil tizimini yaratish bo'yicha ish olib borildi. Bu to'la ravishda advokaturaga ham tegishlidir. 1925-yilda O'zSSR Sovetlari MIQ respublika Adliya xalq komissariati to'g'risidagi Nizomni qabul qilib, unda jumladan, AXX himoyachilar hay'atlari faoliyatiga rahbarlik qilishi ko'zda tutilgan edi¹. O'zbekistonda advokatura rivojlanishining muhim bosqichi bu 1926-yilda O'zSSR JPK-ning qabul qilinishi va kuchga kiritilishi bo'lib, unga ko'ra, himoya-lanish huquqi, himoyachilarining sudda ishtirok etishi majburiy bo'lgan holatlar va sh.k. mustahkamlandi.

1928-1929-yillarda advokaturaning yagona tashkiliy qismi yuridik maslahatxonalar bo'lib, ularning maqomi 1922-yildagi Sud ko'rishi va Advokatura to'g'risidagi Nizomlarda ko'zda tutilgan edi. Mazkur maslahatxonalarining tashkiliy mustahkamlanishi va sovet advokaturasi faoliyatining jamoatchilik asosida takomillashuviga advokatlar hay'atlari a'zolari jamoalari to'g'risidagi Nizom sabab bo'lib, bu Nizom advokatlarning individual kabinetlariga mutlaq barham berdi.

1936-yildagi SSSR Konstitutsiyasi, 1937-yildagi O'zSSR Konstitutsiyasi, 1938-yildagi Sud qurilishi to'g'risidagi Qonun va 1939-yildagi SSSRda Advokatura to'g'risidagi Nizomga muvofiq, O'zbekiston SSRda va uning tarkibiga kirgan Qoraqalpog'iston ASSRda tashkiliy tuzilishi va faoliyati 1939-yildagi Nizom bilan tartibga solinuvchi viloyat advokatlar hay'atlari tuzildi. Advokaturaning barcha funksiyalari shahar va tuman yuridik maslahatxonalari tomonidan amalga oshirilar edi.

¹ Саркисянц Г.П. Адвокатура советского Узбекистана. – Т.: FAN, 1972. - В. 15-21.

Ma'lumki, 30–40-yillarda bir qator sabablarga ko'ra, advokatura faoliyatining samaradorligi, ayniqsa, jinoyat ishlari bo'yicha, pasaygan edi. Buning sabablardan biri sud xodimlari, adliya xalq komissarligi rahbarlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning advokatning jinoyat-sudlov ishlarini yuritishdagi ishtirokiga salbiy munosabatidir. Bunga ayniqsa, SSSR MIQning 1934-yil 1-dekabrdagi va 1937-yil 14-sentabrdagi qarorlari o'ta salbiy ta'sir ko'rsatib, bu qarorlar terroristik tashkilotlar va terroristik aktlar, kontrrevolutsion zararkunandalik va qo'poruvchilik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudlov ishlari yuritishning alohida tartibini belgilab berdi. Mazkur ishlarning sudda ko'riliishi ancha jo'nlashtirilib, jumladan, ayblov va himoya ishtirok etmas edi¹.

1958-yilda qabul qilingan sud ko'riliishi to'g'risidagi Qonun hujjatlarining asoslari advokatlar hay'atlari sudda himoyani amalga oshirish, shuningdek, fuqarolarga, korxonalarga, tashkilotlarga va muassasalarga yuridik yordam ko'rsatish maqsadida amal qilishlarini belgilab berdi. Advokatlar hay'atlari advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ixtiyoriy birlashmalari bo'lib, ular ittifoq respublikasining Oliy Soveti tasdiqlagan Nizom asosida faoliyat yuritadilar.

Mazkur aktni ijro etish maqsadida barcha ittifoq respublikalari advokatura to'g'risida o'z nizomlarini qabul qildilar. O'zSSRda bunday Nizom 1961-yil 30-mayda O'zSSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangan edi. 1977-yilda sovet advokaturasi tarixida birinchi marta advokaturaning huquqiy maqomi SSSR Konstitutsiyasida mustahkamlanib qo'yilgan edi (161-m.). 1979-yilda «SSSRda advokatura to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun umumittifoq miqyosida advokatura faoliyati va uni tashkil qilish masalalarini tartibga solgan edi. Har bir ittifoq respublikasining advokatura to'g'risida o'z nizomi amalda edi (O'zbekistonda bunday Nizom 1980-yilda tasdiqlangan).

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingach, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida jiddiy o'zgarishlar

¹ Гуценко К.Ф., Ковалёв М.А. Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов. Изд. 6-е, перераб. и дополн./Под ред. К.Ф.Гуценко. – М.: ЗЕРЦАЛО-М, 2001. – В.330-331.

yuz bera boshladi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ayblanuvchilarning himoyalanish huquqini mustahkamladi. Konstitutsiya asosida «Advokatura to'g'risida» yangi qonun qabul qilinib, unda advokaturaning asosiy tushunchalari, uning vazifalari, prinsiplari, advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari, advokatning huquqlari va majburiyatlar, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani to'xtatib turish va bekor qilish tartibi, advokatning intizomiy javobgarligi va boshqa masalalar tartibga solingen.

Advokatlik faoliyatining to'laqonli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 1998-yil 25-dekabrda «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi O'zR Qonuni hamda bir qator qonunosti aktlari qabul qilindi. O'tkazilayotgan sud islohoti advokaturani ham chetlab o'tmadi. Mazkur institutni qayta ko'rish to'g'risidagi munozaralar hozirga qadar davom etib kelmoqda. Bu munozaralarning asosiy obyektlaridan biri advokatlarning davlat organlari, avvalo, adliya organlari va sudsardan, shuningdek, mahalliy ijroiya organlaridan erkinligi va mustaqilligini kengaytarib borish to'g'risidagi masaladir. Malakali yuridik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish yo'llarini izlashda ham yangi jihatlar paydo bo'ldi.

Shunday muhitda «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning yangi loyihasi tayyorlandi. Bu loyiha advokatura faoliyatini huquqiy tartibga solishga, advokatning maqomini mustahkamlashga, advokatlarning fuqarolar va yuridik shaxslar (vakolat beruvchilar)ga malakali yuridik yordam ko'rsatish yuzasidan huquqiy va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Loyiha inson huquqlari va manfaatlariga rioya qilishga, advokatning va davlat ayblovchisining huquqlari va boshqa huquqiy protsessual imkoniyatlarini tenglashtirishga imtiyoz berish prinsipi asosida ko'rildi.

O'zbekistonda advokatura institutini tartibga soluvchi yangi tahrirdagi «Advokatura to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi zarurligi ochiq-oydin ko'rinish turibdi, chunki amaldagi ikki qonun va boshqa ayrim me'yoriy hujjatlar jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettirmaganidek, advokatlik amaliyotida to'planib qolgan muammolarni hal qilishga ham qodir emas.

14.3. Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari

O‘zR «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan shaxs advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga o‘z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda faoliyat ko‘rsatishga yoxud ixtiyorilik asosida boshqa advokatlar (sheriklar) bilan hay’atlar va firmalar tuzishga haqlidir. Advokatlik byurolari, hay’atlari va firmalarini, shuningdek, advokatlik birlashmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 13-martdagi 139-Qarori bilan belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlklari adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalarini tuzish, ularning tuzilishi, shtatlari, vazifalari, mablag‘larni sarflash tartibi, rahbar organlarning vakolatlari, ularni saylash tartibi hamda advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalarining faoliyatiga doir boshqa masalalar ularning ustavlari (nizomlari) bilan tartibga solib turiladi. Shunday qilib, advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllariga advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalari kiradi.

Advokatlar hay’atlari va ularni tashkil qilish. Advokatlar hay’atlari – bu advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning ixtiyoriy birlashmalaridir. Ular oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslardan tarkib topgan ta’sischilar (muassis) guruhining arizasiga binoan ixtiyorilik asosida tashkil etiladi. Advokaturani tashkil qilishning ixtiyoriligi prinsipi advokatlik faoliyatining jamoa shakli bilan chambarchas bog‘liqidir. Shu sababli advokatlar hay’ati birlashma deb hisoblanishi bejiz emas, chunki advokatlik faoliyatining tarixan tarkib topgan jamoa shakli qulayroq va xalqchilroqdir.

Advokatlar hay’ati organlariga quyidagilar kiradi: umumiy yig‘ilish (konferensiya), advokatlar hay’ati rayosati, taftish komissiyasi. Shuningdek, yuridik maslahatxonalar ham tashkiliy vazifalarni bajaradi. Advokatlar hay’ati a’zolarining umumiy yig‘ilishi uning oliy organi hisoblanadi.

Umumiy yig‘ilish hay’at a’zolarining kamida 50% ishtirok etganida vakolatli hisoblanadi. Advokatlar hay’ati a’zolarining konferensiyasi advokatlar hay’ati rayosati belgilagan vakolat me’yorlaridan kelib chiqqan holda chaqiriladi va unda yuridik maslahatxonalardan saylangan delegatlarning 50% qatnashganda vakolatli hisoblanadi. Umumiy yig‘ilishda (konferensiya-da) ko‘rilayotgan masalalar ovoz berishda ishtirok etayotgan advokatlarning ko‘pchilik ovozi bilan hal etiladi. Umumiy yig‘ilish (konferensiya) keng vakolatlarga ega bo‘lib, advokatlar hay’ati faoliyatiga tegishli bo‘lgan har qanday masalani hal qilishi mumkin. U advokatlar hay’ati faoliyatini nazorat qilish va doimiy rahbarlik uchun rayosatni va taftish komissiyasini saylaydi. Bu organlar saylanib bo‘lingach, umumiy yig‘ilish ularning ustidan nazoratni amalga oshirishga haqli bo‘ladi. Shu maqsadda umumiy yig‘ilish rayosat va taftish komissiyasining faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarini tinglaydi va tasdiqlaydi.

Umumiy yig‘ilish (konferensiya) advokatlik faoliyatiga bog‘liq boshqa tashkiliy va moliyaviy masalalarni ham hal qila-di, miqdoriy tarkibni, shtatlarni, kirim-chiqim smetasini belgilaydi va ijroiya organlariga tasdiqlash uchun yuboradi, advokatlarning mehnatiga haq to‘lash tartibini belgilaydi, kasaba uyushmasi organlari bilan kelishilgan holda ichki mehnat tar-tibi qoidalarini tasdiqlaydi, advokatlar hay’ati faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi. Umumiy yig‘ilish (konferensiya) rayosat va taftish komissiyasining bildirilgan ishonchni oqlamagan a’zolarini muddatidan ilgari chaqirib olish huquqiga ham egadir. Advokatlar hay’ati a’zolari umumiy yig‘ilishining (konferensiyasining) qarori faqat hay’at a’zolarining umumiy yig‘ilishi (konferensiya-si) dagina qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Advokatlar hay’ati rayosati advokatlarning umumiy yig‘ilishlari orasidagi davrda doimiy faoliyat yuritadigan ijroi-ya organi hisoblanib, advokatlar hay’ati a’zolarining umumiy yig‘ilishida (konferensiya-sida) ochiq yoki yopiq ovoz berish yo‘li bilan besh yil muddatga hay’at a’zolarining soni va ish hajmini hisobga olgan holda belgilanadigan miqdorda saylanadi. Rayosat tarkibiga saylanadigan nomzodlar ovoz berishda qat-nashgan advokatlarning ko‘pchilik ovozini olgan bo‘lishi lo-

zim. Rayosat tarkibidan uning biror a'zosi chiqqan hollarda qo'shimcha saylovlar o'tkazilishi mumkin. Shtat lavozimlarini egallagan rayosat a'zolari hay'at mablag'lari hisobidan maosh oladilar va advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanishga ham haqlidirlar.

Rayosat raisi hay'at a'zolari umumiylig'i ilishida hay'at a'zolari orasidan ochiq ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Biroq ayrim hay'atlarda bu qoidaga amal qilinmaydi: rais umumiylig'i ilish (konferensiya) tomonidan yig'ilish ko'rsatgan bir necha nomzodlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Rayosat advokatlar hay'atini boshqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan keng vakolatlarga egadir.

Rayosat advokatlar hay'ati a'zolarining umumiylig'i ilishini (konferensiyasini) chaqiradi:

- belgilangan tartibda yuridik maslahatxonalarini tashkil etadi va ularning faoliyatiga rahbarlik qiladi;

- yuridik maslahatxonalarining va ayrim advokatlarning ishlarini tekshiruvdan o'tkazadi;

- yuridik maslahatxonalarining mudirlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

- hay'at a'zoligiga advokatlarni yuridik maslahatxonalar bo'yicha taqsimlaydi, ularni bir maslahatxonadan ikkinchisiga o'tkazish masalasini hal qiladi, shuningdek, hay'at a'zoligidan chiqaradi;

- yuridik maslahatxonalarining shtatlari va smetalarini tasdiqlaydi;

- hay'at a'zolarining malakasini oshirish yuzasidan tadbirlar o'tkazadi. Rayosat boshqa masalalarni ham hal qiladi. Uning faoliyati jamoa bo'lib boshqarishga, oshkoraliqka, advokatlar hay'ati a'zolari oldida doimiy hisobot berishga, advokatlarning rayosat ishiga keng jalg qilinishiga asoslangan. Hay'at rayosati qoshida jamoatchilik asosida unga yordam beruvchi organlar tashkil qilinishi mumkin.

Advokatlar hay'ati rayosati o'z majlislarini a'zolarining kamida yarmi hozir bo'lganda o'tkazishi mumkin. Rayosat majlisida rayosat tarkibining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lganda hay'atga qabul qilish, undan chiqarish va bo'shatish

masalalarini ko'rib chiqishga haqlidir. Uning qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lganida, muhokama qilinayotgan masalani ko'rib chiqish rayosatning keyingi majlisiga qoldiriladi va bu majlisga oldin kelmagan a'zolar chaqiriladi. Advokatlar hay'ati rayosatining qarori rayosatning o'zi tomonidan yoki advokatlar hay'ati a'zolarining umumi yig'ilishida (konferensiyasida) qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Taftish komissiyasi advokatlar hay'atining nazorat-taftish organi hisoblanib, advokatlar hay'ati a'zolarining umumi yig'ilishida (konferensiyasida) yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi, bunda komissiya tarkibining soni yig'ilish tomonidan belgilanadi. Advokatlar hay'atining taftish komissiyasi o'z tarkibidan raisni va rais o'rinosarini saylaydi. Taftish komissiyasi tarkibidan uning biror a'zosi chiqqan hollarda, umumi yig'ilishda (konferensiyada) belgilangan tartibda chiqqan a'zoning o'rniiga boshqa a'zo saylanadi. Taftish komissiyasi advokatlar hay'ati rayosatining va yuridik maslahatxonalarning moliyaviy-xo'jalik sohasidagi faoliyatini taftish qiladi, shuningdek, takliflar, arizalar va shikoyatlarni ko'rib chiqish taribi va muddatlari ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Yuridik maslahatxonalar hay'atlar rayosatlari tomonidan advokatlarning yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha ishlarini tashkil qilish uchun tumanlarda, shaharlarda, ayrim hollarda esa boshqa aholi punktlarida tashkil etiladi. Yuridik maslahatxonaning joylashgan joyi va unda ishlovchi advokatlarning soni advokatlar hay'ati rayosati tomonidan belgilanadi.

Yuridik maslahatxonalar advokaturaning asosiy ishchi bo'g'ini hisoblanadi. Advokatlar hay'ati a'zolari biror-bir yuridik maslahatxona tarkibiga kiradilar va o'sha yerda faoliyat yuritadilar. Yuridik maslahatxona mudiri advokatlar hay'ati rayosati qarori bilan eng malakali, oliy yuridik ma'lumotga va zaruriy ish stajiga ega bo'lgan hay'at a'zolari orasidan tayinlanadi. Yuridik maslahatxona mudiri o'z huquqlarini advokatlar hay'ati rayosati tomonidan beriladigan ishonchnoma asosida amalga oshiradi. Yuridik maslahatxonada ishlovchi advokatlar soni to'rttadan oshmasa, maslahatxona mudiri, odatda, o'z majburiyatlarini maoshsiz bajaradi.

Advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalari ro'yxatga olin-gan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi va ko'rsatilgan yuridik yordam uchun jismoni yuridik shaxslardan kelib tushgan mablag'lar hisobidan faoliyat yuritadi. Advokatlar qonunda belgilangan tartibda advokatlarning ja-moatchilik birlashmalarini tuzishlari mumkin.

Huquqiy xizmat ko'rsatishda yuzakilik va havaskorlikka yo'l quyib bo'lmaydi. Yuridik yordamga muxtoj odamlarni yordamidan ko'ra zarari tegishi mumkin bo'lgan tasodifiy shaxslardan muhofaza qilish maqsadida O'zR hukumati 1997-yil 13-martda advokatlik byurolari, hay'atlari, firmalarini davlat tomonidan ro'yxatga olish va O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani berish tartibi to'g'risidagi Nizomni qabul qildi. (hozirda mazkur Nizomga O'zR Vazirlar Mahkamasining №197. 30.04.2003-yil va O'zR Vazirlar Mahkamasining №495. 05.11.2003-yil Qarorlari bilan o'zgartirish kiritilgan). Mazkur Nizomda advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalarini ro'yxatga olish tartibi belgilangan bo'lib, bunday faoliyat yuritishga ruxsat beradigan hujjat litsenziya hisoblanadi. Bunday litsenziyalar QR Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari adliya boshqarmalari malaka komissiyalari tomonidan beriladi.

O'zR «Advokatura to'g'risida»gi Qonuniga asosan, advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalarini ro'yxatga olish QR Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat tomonidan ro'yxatga olishni o'tkazish uchun advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalari davlat tilida to'ldirilgan quyidagi hujatlarni taqdim qilishlari lozim:

- davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi ariza;
- advokatlik byurosi tuzish to'g'risidagi qaror (advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olgan shaxsning arizasi), ta'sis shartnomasi va advokatlik firmasining ustavini tasdiqlash to'g'risidagi ta'sis yig'ilishining bayonnomasi;

- ta'sis shartnomasining tasdiqlangan nusxalari; advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay'atining ustavi (muassislar (sherik-

lar) tomonidan tasdiqlangan, ikki nusxada, tikilgan va raqamlangan bo‘lishi lozim);

– muhr va burchak shtampining namuna eskizi – ikki nusxada (faoliyat yuritayotgan advokatlar hay’atlari uchun – muhr va burchak shtampining bosib tushirilgan izi (ottisk);

– mavjud bo‘lgan hollarda esa – emblema yoki tamg‘a (gerb);

– advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’atini ro‘yxatga olish uchun davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi bank to‘lov hujati.

Ro‘yxatga olish advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’ati joylashgan joydagi tegishli adliya organi tomonidan amalga oshiriladi. Advokatlik byurosini ro‘yxatga olishda ta’sis yig‘ilishining bayonnomasi va ta’sis shartnomasi talab etilmaydi.

Ro‘yxatga olingan advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’atiga quyidagi hujjatlar beriladi:

– tegishli adliya organining ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi qarori – ikki nusxada;

– advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’atining ro‘yxatga olingan nizomi (ustavi) – bir nusxada;

– ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida guvohnoma.

Ro‘yxatga olingan kundan boshlab advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’ati yuridik shaxs maqomini oladi.

Hujjatlar berish haftasiga kamida ikki marta amalga oshiriladi.

Ro‘yxatga olingan advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’ati bankda hisob raqami ochganlaridan so‘ng bir hafta ichida belgilangan tartibda joylashgan joyidagi hokimiyat organlari va soliq organlarida hisobga turishlari kerak.

Advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’atini tashkil qilish, qayta tashkil qilish, ularning faoliyati va tugatish tartibi, tarkibi, shtatlari, vazifalari, mablag‘larni taqsimlash tartibi, rahbar organlarning vakolatlari, ularni saylash tartibi hamda advokatlik byurosi, firmasi yoxud hay’atining faoliyatiga tegishli boshqa masalalar ularning ustavlari (nizomlari) bilan tartibga solinadi. Pulli yuridik xizmatlar (ularning tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar) ko‘rsatish huquqini beruvchi litsenziyalar tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi jismoniy shaxslarga berilib, bunda yuridik shaxs tuzish talab etilmaydi.

14.4. Advokatlarning huquqlari va majburiyatları

Advokatura ishini takomillashtirish uning xodimlari tarkibi bilan bevosita bog'liqdir.

«Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunda (3-m.) belgilangan tartibda advokat maqomini olgan va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini olgan shaxs *advokat* hisoblanadi. *Nomzodlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:*

- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi;
- oliy yuridik ma’lumotga egalik;
- malaka imtihonini topshirish;
- advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish.

Advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya QR Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qaroriga asosan beriladi. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek, sudlanganligi bekor qilmagan yoki olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokat tegishli malaka komissiyasining majlisida qasamyod qabul qiladi. Qasamyod matni O‘zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan (3-modda):

«O‘z kasbiy burchimni halol va vijdonan bajarishga, inson huquqlari va erkinliklarini hamisha himoya qilishga, advokatlik sirini saqlashga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga qat‘iy rioya etishga tantanali qasamyod qilaman».

Advokat O‘zbekiston Respublikasining butun hududida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli bo‘lib, buning uchun qo‘srimcha ruxsatnomalar talab etilmaydi. Advokat olingan topshiriqni bajarish zaruriyati taqozo etsa va tegishli davlatlarning qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ham yuridik yordam ko‘rsatishi mumkin. Muayyan ishni olib borishga advokatning vakolatli ekanligi order bilan tasdiqlanadi. Advokat jinoyat va fuqarolik ish-

lari bo'yicha himoyani samarali amalga oshirish uchun, fuqarolarga, korxonalar va tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatish uchun yetarli huquqlarga egadir.

Advokatning huquqlari va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuni kabi bir qator qonun hujjatlarida mustahkamlanib qo'yilgan. Mazkur qonunlarga ko'ra, advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog'ida quyidagi huquqlarga ega:

– tegishli masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lган barcha organlar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakolati bo'yicha ularning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish;

– sudlarda, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi organlarda dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo'lган faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarni toplash;

– davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jamoa birlashmalaridan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq zarur ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so'rab olish;

– mijozning roziligi bilan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq zarur masalalar yuzasidan yozma ekspert xulosalari, mutaxassislarning ma'lumotnomma-maslahatlarini so'rash va olish;

– to'plangan materiallarni vakillik bergen shaxs yoki himoya-dagi shaxsning ishi yuritilayotgan sudlarga va boshqa davlat organlariga taqdim qilish;

– mansabtor shaxslarga iltimosnomalar berish va shikoyatlar keltirish hamda ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;

– qonunda belgilangan tartibda ishning barchia materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni ko'chirib olish;

– o'z himoyasidagi shaxs bilan u ushlangan paytdan boshlab qonun hujjatlarida belgilangan tartibda miqdori va muddati cheklanmagan xoli uchrashuvlar o'tkazish;

– ishda ishtirok etish uchun o‘ziga ijozat berilgani to‘g‘risida surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sudda yozma ravishda tasdiq talab qilish;

– ish materiallari bilan tanishish hamda ishni sudda va boshqa organlarda ko‘rish chog‘ida ovoz yozish qurilmalari hamda boshqa texnika vositalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish;

– agar jinoyat ishini yuritishda, shuningdek, fuqarolik, xo‘jalik ishini yoki ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish va hal etishda himoyani yoxud vakillikni amalga oshirish zaruriyati taqozo etsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sir hisoblangan ma’lumot bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanishish;

– qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish.

Advokat yordamchiga ega bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan fuqarosi advokat yordamchisi bo‘lishi mumkin. Advokat yordamchisi advokat huquqlariga ega bo‘lmaydi hamda uning surishtiruv, dastlabki tergov organlarida, sndlarda va boshqa davlat organlarida ishlarni olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokat yordamchisi advokat ko‘rsatmasiga binoan advokatning yurituvidagi ishlar bo‘yicha topshiriqlarni bajaradi, advokatning protsessual vakolatlariga taalluqli ishlar bundan mustasno. Advokat yordamchisining mehnat sharoitlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunda kimlar advokat yordamchisi bo‘la olmasligi ham ko‘rsatib o‘tilgan – bular belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudsanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxslardir (8-m.). Advokaturaga tegishlilik advokatlarga o‘z kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etish, unga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish uchun qonunda ko‘zda tutilgan vositalar va usullardan foydalanish majburiyatini yuklaydi («Advoka-

tura to‘g‘risida»gi Qonunning 7-moddasi). Advokat yuridik yordamni vijdonan ko‘rsatishi, axloqiy poklik va benuqson hulq-atvor namunasi bo‘lmog‘i, o‘z kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirishi, huquqni targ‘ibot qilishda faol qatnashishi lozim.

Jinoyat ishlari bo‘yicha himoyani amalga oshirishda advokat ayblanuvchini oqlovchi yoki uning javobgarligini yengillash-tiruvchi holatlarni aniqlash maqsadida qonunda ko‘rsatilgan barcha usullar va vositalardan foydalanishi va ayblanuvchiga (gumon qilinuvchiga, sudlanuvchiga) zarur yuridik yordamni ko‘rsatishi shart. Himoyadagi shaxsning huquqlarini ta‘minlash maqsadida qonunda advokat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini himoya qilishni o‘z zimmasiga olgach, ularni himoya qilishdan bosh tortishi ta‘qiqlanishi belgilangan, mijochning o‘zi uni ozod etgan hollar bundan mustasnodir.

Advokat o‘z vakolatlaridan manfaatlarini himoya qilish topshirig‘ini olgan shaxsning zarariga foydalanishga, shuningdek, yuridik yordam so‘rab murojaat etgan shaxsning holatini og‘irlashtiruvchi kasbiy nuqtayi nazar bilan yonda-shishga haqli emas. Jinoyat va fuqarolik ishlarida qatnashayot-gan advokat xolis va beg‘araz bo‘lishi lozim. Bu shartlarga rio-ya etish uchun advokat muayyan ish bo‘yicha yuridik yordam ko‘rsatayotgan, avval yuridik yordam ko‘rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so‘rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergov-chi, surishtiruv o‘tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovchisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, jabrlanuvchining, fuqaroviylar da‘vogarning, fuqaroviylar javobgarning vakili, guvoh, xolis, tar-jimon sifatida ishtirot etgan, shuningdek, ishni dastlabki ter-gov qilishda yoxud sudda advokatning qarindoshi bo‘lmish mansabdor shaxs ishtirot etgan yoki ishtirot etayotgan bo‘lsa, xuddi shuningdek, advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdor bo‘lgan va bu hol unga o‘z ishini topshirgan shaxsning manfaatlariga zid keladigan hollarda yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emasli-gi qonunda belgilab qo‘yilgan.

Jinoyat ishini ko‘rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokat fuqaroning to‘lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko‘rsatishdan bosh tortishga haqli emas. Ad-

vokat advokatlik sirini saqlashi shart. Advokatlik siriga mijoz advokatdan yordam so‘rab murojaat etganligining o‘zi, mijoz yordam so‘rab murojaat etgan masalalar, mijozning advokatdan olgan maslahatlari, nasihatlari, tushuntirishlarining mohiyati, advokatning mijoz bilan o‘tkazgan suhbatida to‘xtab o‘tilgan barcha masalalar kiradi. Advokat, advokat yordamchisi, advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalari mansabdor shaxslari hamda texnik xodimlarining advokatlik siri bo‘lmish ma’lumotlarni oshkor etishi va bu ma’lumotlardan o‘z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalaniishi man etiladi.

Advokatlik faoliyatining kafolati bu advokatning hayoti va sog‘lig‘i, kasbiy huquqlari, sha’ni va qadr-qimmati davlat muhofazasida ekanligidir. Advokatning kasbiy faoliyatiga har qanday aralashishga, o‘z kasbiy vazifalarini bajarish chog‘ida olingen biror-bir ma’lumotlarni ma’lum qilishni talab qilish, shuningdek, advokatlik birlashmalarining mansabdor shaxslari va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma’lumotlarni oshkor qilishni talab qilish man etiladi. Advokatning o‘z kasbiy vazifalarini bajarishi chog‘ida unga har qanday ta’sir o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi («Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonunning 7-moddasi).

Advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan xoli uchrashuvlarni tashkil etishdan bosh tortish, jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma’lumotlarni ko‘chirib olishga to‘sqinlik qilish ta’qiqlanadi. Advokatning shaxsi daxsizdir. Advokatning daxsizligi uning uy-joyiga, xizmat xonasiga, foydalanishida bo‘lgan transport va aloqa vositalariga, uning yozishmalariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga ham taalluqlidir. Advokat yuridik va jismoniy shaxslarga qonunga muvofiq yuridik yordam ko‘rsatilganligi munosabati bilan jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki shunday javobgarlikka tortish bilan unga tahdid qilish mumkin emas.

Advokatga nisbatan jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan proku-

rorlar tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Advokat jinoyat ishi yuzasidan himoyachilik yoki vakillik vazifasini bajarayotganda o‘ziga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas (JPK 115-m.), advokatlik ish yurituvlari (досъе), kasbiy vazifasini bajarishda olingen hujjatlar olib qo‘yilishi yoki ko‘zdan kechirilishi, shuningdek, advokatning yuridik yordam ko‘rsatayotgan shaxslar bilan uchrashuvlarni amalga oshirishini cheklash mumkin emas.

Advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtayi-nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnomasi kiritishi, shuningdek, sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas (O‘zR «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunning 10-m.). Advokatning mehnatiga ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun jismoniy va yuridik shaxslardan advokatlar byurolari, hay‘atlari va firmalariga kelib tushgan mablag‘lar hisobidan haq to‘lanadi. Yuridik xizmat uchun haq to‘lash advokat bilan mijoz o‘rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan bitim (shartnama) asosida amalga oshiriladi.

Shaxs to‘lovga qobiliyatsizligi sababli ko‘rsatilgan yuridik yordam haqini to‘lashdan ozod etilganida, jinoyat ishini ko‘rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokatning yuridik yordami uchun haq to‘lash O‘zR Adliya vazirligi va O‘zR Moliya vazirligi tasdiqlagan «Gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat hisobiga o‘tkazilgan advokat mehnatiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi qoidalarga muvofiq davlat hisobidan amalga oshiriladi.

Advokat davlat xizmatida turishi mumkin emas («Advokatura to‘g‘risida»gi Qonun 7-m.). Advokat davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha barcha nafaqa turlarini olish huquqidan foydalanadi. Advokatga davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar belgilash va to‘lash hamda davlat pensiya ta’moti qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Advokatlar byurolari, hay‘atlari va firmalari mablag‘lari advokatlarning ijtimoiy ehtiyojlariga ishlataladigan fondlar tuzishga haqlidirlar. Advokatning hayoti va sog‘lig‘i davlat himoyasida bo‘ladi. Advokatning hayoti va sog‘lig‘ini advokatura o‘z mablag‘lari hisobidan majburiy sug‘urta qiladi.

Sug‘urta tashkilotlari sug‘urta summalarini quyidagi holdarda to‘laydi:

– advokat o‘z kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda yetkazilgan shikastlanish oqibatida o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish vaqtida yoki bunday faoliyatini tugatganidan keyin halok bo‘lganda (vafot etganda), uning merosxo‘rlariga – advokat o‘rtacha oylik ish haqining ellik barobari miqdorida;

– advokat o‘z kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan bundan keyin advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo‘lganda yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganda – advokat o‘rtacha oylik ish haqining yigirma besh barobari miqdorida;

– advokat o‘z kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan uning bundan keyin advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mehnat qobiliyatini uzilkesil yo‘qotishga olib bormaydigan tan jarohatlari olganda yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganda – advokat o‘rtacha oylik ish haqining besh barobari miqdorida.

«Advokatura to‘g‘risida»gi Qonun va advokatura faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari talablarini buzgalilik uchun, shuningdek, advokat nomiga dog‘ tushiruvchi xattiharakatlarni sodir qilganlik uchun advokatlar intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ularga nisbatan quyidagi intizomiy choralar qo‘llanilishi mumkin: ogohlantirish, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to‘xtatib turish, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani bekor qilish.

Intizomiy choralar malaka komissiyasi tomonidan (ogohlantirish), yoxud malaka komissiyasining qaroriga asosan litsenziya bergen organ tomonidan (litsenziyani to‘xtatib turish yoki bekor qilish) qo‘llanilishi mumkin. Malaka komissiyalari QR Adliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari adliya boshqarmalari boshliqlarining buyruqlari bilan advokatlar hamda adliya organlari xodimlarini teng miqdorda kiritgan holda tuziladi.

Malaka komissiyalari zarur bilimga va kasb malakalariga ega bo‘lgan shaxslarga advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya berish masalasini hal qiladi. Malaka komissiyalarining qarori ustidan Oliy malaka komissiyasiga

apelatsiya berilishi mumkin. Oliy malaka komissiyasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda advokatlarining jamoat birlashmasi tomonidan advokatlar hamda adliya organlari xodimlarini teng miqdorda kiritgan holda tuziladi.

Advokatlik faoliyatini to'xtatib turish yoki bekor qilish litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki bekor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda litsenziya bergen organning qarori bilan litsenziyaning amal qilishi va ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortilganidan boshlab sud hukmi kuchga kirgunga qadar, yoxud oqlovchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar to'xtatib turilishi mumkin.

Litsenziya uni bergen organ tomonidan quyidagi asoslarga binoan bekor qilinadi:

- advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxsning arizasiga binoan;

- advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotgan taqdirda;

- advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxsning muomala layoqati belgilangan tartibda cheklangan hollarda yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

- advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxsga nisbatan sud chiqargan ayblov qarori qonuniy kuchga kirgan taqdirda;

- shaxs litsenziyani olish chog'ida noqonuniy xattiharakatlar qilganligidan dalolat beruvchi holatlar ma'lum bo'lib qolganda;

- advokat kasb-odobi normalarini muntazam ravishda buzganida yoki qonun hujjalaring talablarini qo'pol ravishda buzganida.

Litsenziya malaka komissiyasining intizomiy jazo berish to'g'risidagi qaroriga assosan litsenziyani bergen organ tomonidan to'xtatib qo'yilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Advokatning intizomiy qilmishi to'g'risidagi ish ko'rib chiqilishidan oldin intizomiy javobgarlikka tortish asoslari sinchkovlik bilan tekshirilmog'i lozim.

Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi qaror ustidan ushbu qaror olingan paytdan boshlab bir oy muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin (O‘zR «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunining 14-m.).

Bundan tashqari, advokatlik faoliyati uni amalga oshirayotgan shaxsning tashabbusi bilan yoxud mazkur faoliyatni amalga oshirishga to‘sinqilik qiladigan holatlar yuzaga kelgan taqdirda ham bekor qilinishi mumkin. Bu holda mijozning xohishiga ko‘ra advokat oldin olgan topshirig‘ini bajarishi shart.

Davlat har bir fuqaroning teng va erkin ravishda yuridik yordam olish huquqini ta‘minlash maqsadida advokatni belgilangan tartibda fuqarolar murojaat qilishi uchun qulay joylardan zarur binolar bilan ta‘minlaydi; advokatlar malakasini oshirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda ko‘maklashadi; advokaturaning faoliyati to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni to‘playdi va o‘rganadi; advokatlarni ularning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq tajovuzlar, asossiz cheklashlar va tahdidlardan himoya qilish choralarini ko‘radi; advokatlik byurolari, hay’atlari, firmalari va Oliy malaka komissiyasining faoliytiga ko‘mak beradi.

Qonun manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil, 8-dekabr. –T.: O‘zbekiston, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Advokatura to‘g‘risida»gi 1996-yil, 27-dekabrdagi Qonuni. –T.: Adolat, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil, 25-dekabr.
4. O‘zR Jinoyat-protsessual Kodeksi. –T.: Adolat, 2004.
5. O‘zR Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. 1994-yil, 22-sentabr.
6. O‘zR Fuqarolik-protsessual Kodeksi. 1997-yil, 30-avgust.
7. O‘zR xo‘jalik-protsessual Kodeksi. 1997-yil, 30-avgust.
8. O‘zR Vazirlar Mahkamasining №139. 13.03.1997-y. (o‘zgar. O‘zR Vazirlar Mahkamasining №197. 30.04.2003-y. O‘zR Vazirlar Mahkamasining №485. 05.11.2003-y.) qarori

bilan tasdiqlangan «O‘zR fuqarolariga adolatlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya berish va advokatlik byuro, hay‘at va firmalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida»gi Nizom.

9. O‘zR Vazirlar Mahkamasining №370. 27.08.2003-y. (o‘zgar. O‘zR Vazirlar Mahkamasining №528. 21.01.2003-y. 2 b. ilovasi, O‘zR Vazirlar Mahkamasining №28. 17.01.2004-y. 40-b. ilova) qarori bilan tasdiqlangan «O‘zR Adliya vazirligi to‘g‘risida»gi Nizom.

Maxsus adabiyot

1. Адвокатура Узбекистана: содействие в реформировании: (Предложения по законодательству и адвокатской практике) / Ред. совет: М.Х. Рустамбаев (пред.), Л.Б. Хван, С.А. Якубов, Ф.П. Іамидов, Р.Х. Шарипов, И.Б. Азизов, Р.Г. Амбарцумов, Р.Г. Ахмедшин, О.Б. Зимарева, Г.А. Ишанханова, Е.Н. Никифорова, Ш.З. Рустамов, Б. Саломов. – Т.: «Мир экономики и права», 2002.

2. Барщевский М.Ю. Адвокат, адвокатская фирма, адвокатура. Учебное пособие. – М.: Белые альвы, 1995.

3. Бернам У., Решетникова И.В., Прошлияков А.Д. Судебная адвокатура. – СПб.: Изд-во СПб университета. 1996.

4. Гуценко К.Ф., Ковалев М.А. Правоохранительные органы. Зерцало, – М.: 1998.

5. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. / Под ред. проф. К.Ф. Гуценко. – М.: БЕК, 1996.

6. Саркисянц Г.П. Адвокатура советского Узбекистана. – Т.: Фан, 1972.

7. Черкасова Н.С. Формирование и развитие адвокатуры в России 60-80гг. XIX в. – М.: БЕК, 1996.

Nazorat savollari

1. Yuridik yordam tushunchasining mazmuni va uning ahamiyati nimadan iborat?

2. Advokatlar hay‘atlari tushunchasini ta’riflang va uni tashkil qilishning asosiy prinsiplarini sanab o‘ting.

3. Advokatlar hay‘atlarining o‘z-o‘zini boshqaruvchi organlarining (umumiylig yig‘ilishlarning, rayosatlarning, taftish komis-

siyalarining, yuridik maslahatxonalar mudirlarining) vakolatlari nimalardan iborat?

4. Advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam uchun haq to'lash tartibi qanday?

5. Advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlarida qanday intizomiy choralar ko'zda tutilgan?

6. Advokatlik faoliyatini bekor qilish tartibi va asoslari qanday?

7. Advokatning yordamchisi va uning maqomi.

8. Advokatlik faoliyatining kafolatlarini sanab o'ting.

9. Advokatga berilgan ijtimoiy huquqlar.

10. Advokatura va O'zR Adliya vazirligi o'rtaсидаги о'заро munosabatlar qanday?

XV mavzu. XORIJIY DAVLATLARDA SUD, PROKURATURA VA ADVOKATURA

15.1. Buyuk Britaniya

Angliyada ko‘p asrlar davomida rivojlanib kelgan va hozirda amalda bo‘lgan sud tuzilishi ingliz davlati va huquqining rivojlanish tarixi bilan bevosita bog‘liqdir. Angliya sud tizimining murakkabligi huquqda ayrim o‘rta asr institularining saqlanib kelinayotganligi bilan ham izohlanadi.

Angliyaning sud tuzilishi yagona qonun bilan tartibga solinmaydi: sudsarni tashkil qilish va ularning vakolatlari bir qator aktlar bilan belgilanadiki, bu aktlarning ko‘pchiligi yuz yillar muqaddam qabul qilingan. Angliya sudsari uch pog‘onali tizimga egadir. Quyi pog‘onada fuqarolik ishlarini ko‘rvuchi graflik sudsari va jinoyat ishlarini ko‘rvuchi magistrat sudsari turadi. 1971-yilga qadar quyi sudsarga to‘rtlik sessiyalar sudsari ham kirgan bo‘lib, keyinchalik bu sudsar tugatilgan.

Keyingi pog‘onada Angliya va Uels Oliy sudi nomi bilan birlashgan sudsar guruhi turadi va uning tarkibiga Korona sudi (Toj sudi) bilan birga Apellatsiya sudi va Yuqori sud kiradi. Sud iyerarxiyasining oliy pog‘onasi Lordlar palatasi hisoblanib, u oliy sud instansiyasi sifatida kamdan-kam faoliyat yuritadi hamda faqat appellatsiya tartibida ish olib boradi.

Lordlar palatasi asosan huquq masalalari bo‘yicha, Angliya va Uels appellatsion instansiyalarining fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha chiqargan qarorlari, shuningdek, Shotlandiya appellatsion instansiyalarining fuqarolik ishlari bo‘yicha chiqargan qarorlari bo‘yicha appellatsiya tartibida ish yuritadi. Lordlar palatasi nomidan ishlar Lordlar palatasi sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi, u lord-kansler rahbarligida appellatsiya bo‘yicha ordinari (oddiy) lordlar va muqaddam sudda oliy mansablarni egallagan va Lordlar palatasi a‘zolari bo‘lmish perlardan hamda barcha sobiq lord-kanslerlardan tashkil topadi. «Appellatsiya bo‘yicha ordinari lordlar» Lordlar palatasiga, odatda, Appellatsion sud a‘zolaridan bo‘lgan tajribali yuristlardan tayinlanadi. Ularning soni 7 dan 11 tagacha bo‘ladi. Bunday ordinari lord-

lardan ikkitasi shotland yuristlaridan bo‘lishi lozim. Lordlar palatasi sudida ishlar Lordlar palatasi nomidan kamida uch lord tarkibida ko‘rib chiqiladi va ularning har biri nutq so‘zlaydi. Lordlar palatasi sudining ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilingan xulosasi shikoyat keltirilgan qarorni chiqargan sudga beriladi, bu sud esa o‘z navbatida Lordlar palatasi bergen tavsiyalarga muvofiq ish bo‘yicha yakuniy qarorni qabul qiladi.

Angliya va Uels Oliy sudiga lord-kansler raislik qilib, uning tarkibiga uchta mustaqil sud muassasasi – Apellatsion sud, Yuqori sud va Korona sudi kiradi. Apellatsion sud fuqarolik va jinoyat bo‘limlaridan tashkil topgan bo‘lib, uch yoki undan ortiq sudyalardan tarkib topgan hay’atlarda boshqa sudlarning qarorlariga keltirilgan appellatsiyalarni ko‘rib chiqadi. Yuqori sud uchta bo‘limdan iborat - qirok kursisi, kanslerlik va oilaviy bo‘limlar. Qirol kursisi bo‘limi o‘ta murakkab fuqarolik ishlarini birinchi instansiya va jinoyat ishlari bo‘yicha magistrat sudlarining hukmlariga keltirilgan appellatsiyalarni ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadi. Qirollik kursisi bo‘limining tarkibiy qismlari sifatida dengizda tashishlar, kemalarning to‘qnashuvlari va bu bilan bog‘liq zararlarni undirish va shu kabi nizolarni ko‘rib chiquvchi Admiralteystvo sudi hamda savdo-sotiqqa oid ko‘plab nizolarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan Tijorat sudi mustaqil ravishda faoliyat yuritadi.

Kanslerlik bo‘limi birinchi instansiya sudi sifatida mulkni boshqarish, ishonchnoma berilgan mol-mulk, kompaniyalar faoliyati, bankrotlik va boshqa shu kabilarga bog‘liq fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqadi. Kanslerlik sudining tarkibiy qismi sifatida Patent sudi faoliyat yuritib, bosh nazoratchining patentlar, dizayn va savdo markalari masalalari bo‘yicha iltimosnomalarini ko‘rib chiqadi. Oila bo‘limi asosan oilaviy munosabatlar masalalari yuzasidan, shu jumladan, nikohni bekor qilish, er-xotinning alohida yashashi, aliment undirish, homiylik va vasiylik bo‘yicha magistrat sudlarining qarorlariga keltirilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqadi. Yuqori sud bo‘limlarida ishlarni birinchi instansiya ko‘rib chiqish yakka sudya tomonidan, appellatsiyalarni ko‘rib chiqish esa ikki yoki uch sudyadan iborat hay’atlar tomonidan amalga oshiriladi. Qirol kursisi bo‘limida muayyan sharoitlarda ish prisyajniylar (maslahatchilar) ishtirokida muhokama qilinishi mumkin.

Bir qator sud muassasalarining o‘rniga 1971-yilda tashkil topgan Korona sudi aylov akti bo‘yicha javobgarlikka tortilgarning ishlari, ya’ni ancha jiddiy jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlarni birinchi instansiyada, albatta prisyajniylar ishtirokida (boshqa ingliz jinoyat sudlarida prisyajniylar yo‘q), shuningdek, magistrat sudlarining hukmlari qarorlariga keltirilgan appellatsiyalarni ko‘rib chiqadi. Yagona sud hisoblangan Korona sudi markazlari Angliya va Uelsning yirik shaharlarida joylashgan o‘z okruglari bo‘yicha doimiy ravishda majlislar o‘tkazib turadi. Oldin aybdorlik to‘g‘risidagi verdiktini chiqarish uchun prisyajniylarning barchasi ovoz berishi lozim bo‘lgan bo‘lsa, Jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlov to‘g‘risidagi 1967-yildagi Qonunga binoan, endi 11 yoki 12 prisyajniyning 10 tasining yoki 10 prisyajniyning 9 tasining ovozi kifoya qiladi. Prisyajniylar sudi chiqargan oqlov hukmi ustidan appellatsiya shikoyati keltirish mumkin emas. Prisyajniylar ishtiroki talab etilmagan hollarda, Korona sudida ishlar sudyu tomonidan yakka holda ko‘rib chiqiladi. Korona sudida sudyu sifatida Yuqori sud sudyalari, okrug sudyalari (bu lavozim 1971-yilda Korona sudi va graflik sudlarining sudyalik korpuslarini to‘ldirish uchun joriy etilgan) hamda rekordyorlar – sudyalik vakolatlarini «qo‘sishimcha ish» sifatida bajaruvchi yuristlar faoliyat yuritadilar. Appellatsion shikoyatlarni sudyalar yoki rekordyorlar 2-4 yarashtiruvchi sudyalar ishtirokida ko‘rib chiqadilar¹.

Graflik sndlari (ularning soni 350 dan oshadi) – fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudloving asosiy organlari bo‘lib, ularda birinchi instansiyada fuqarolik ishlarning 90% ko‘rib chiqiladi. Graflik sudlarining vakolat doirasi xuddi shunday fuqarolik ishlarni birinchi instansiyada ko‘rib chiquvchi Yuqori sndlarga qaraganda da’vo turlari bilan bog‘liq holda farqlanuvchi da’vo miqdoriga ko‘ra cheklanadi (*masalan*, shartnomalar va deliktlardagi da’volar bo‘yicha 5ming f.st. gacha). Graflik sndlari qarorlari Appellatsiya sudiga faqat qaror chiqargan sudning roziligi bilan va qoida bo‘yicha, fakt masalalari bo‘yicha emas, balki huquq masalalari bo‘yicha yoxud dalillarning maqbulligi yuzasidangina shikoyat keltirilishi mumkin.

¹ Правовые системы стран мира. Энциклопедический справочник. / отв. ред. – д. ю. н., проф. А.Я. Сухарев. – 2-е изд., изм. и доп. – М.: НОРМА. 2001.

Magistrat sndlari (prisyajniylar ishtirokisiz) jinoyat ishlari ning asosiy ko'pchiligin ko'rib chiqadilar (yiliga 98%gacha). Mazkur sndlар sudlanganlarga jarima yoxud qoida bo'yicha, olti oygacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosinigina tayinlashlari mumkin. Agar magistratlar ayblanuvchi bundan ko'ra og'irroq jazoga sazovor degan xulosaga kelsalar, ish ko'rib chiqish uchun Korona sudiga o'tkaziladi. Magistratlar shuningdek, ayblov akti bilan yuritiladigan ishlar bo'yicha dastlabki eshitishni ham o'tkazadilar. Bu eshitishlar davomida ular ayblanuvchini Korona sudiga berish uchun dalillar yetarliliqi masalasini hal etadilar. Magistratlarning fuqarolik yuridiksiyasi o'ta cheklangan bo'lib, avvalo, qarzlarni undirish to'g'risidagi nizolarni hal qilish va oila huquqining ayrim masalalari bilan bog'liqdir. Magistratlar odatda yarashtiruvchi sudyalar deb atalib (ularning soni 20 mingdan oshadi), ko'p hollarda ular professional yurist bo'lmaydilar va yuridik ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Ayrim magistrat sndlari sudyalar yig'ilishi qaroriga ko'ra voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish huquqiga ega bo'ladilar. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari to'g'risidagi ishlarini ko'rib chiquvchi hay'at tarkibiga bu sudyalardan uchtasi kiritiladi, ularning biri yoki ikkitasi albatta ayol suda bo'lishi lozim. Mazkur sud 21 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Sanab o'tilgan umumiy yurisdiksiya sndlari dan tashqari, Angliya va Uelsda turlichay vakolatga ega bo'lgan ixtisoslashgan sndlар ham mayjud bo'lib, ularning ayrimlari tribunal deb nomlanadi, bu esa ularning sndlarga nisbatan ahamiyati kamroq ekanligini bildiradi. 1967-yilda Buyuk Britaniyada Ma'muriyat ishlari bo'yicha parlament vakilligi xizmati tashkil etildi. Bu xizmat o'z xodimlari yordamida odatda Vakillar palatasi a'zosining tegishli murojaatidan so'ng hukumat muassasalarining xatti-harakatlari ustidan keltirilgan shikoyatlar yuzasidan tekshiruv ishlarni olib boradi. Bunday tekshiruvlar natijalari to'g'risida parlament vakili unga murojaat qilgan Vakillar palatasi a'zosiga va tegishli hukumat muassasasiga, ayrim hollarda – Vakillar palatasining o'ziga xabar qiladi.

Buyuk Britaniyadagi barcha sud lavozimlari saylanish natijasida emas, balki tayinlanish natijasida egallanadi. Yuqori turuvchi sud sudyalari lord-kansler tavsiyasi bilan Qirolicha tomonidan, quyi sudlar sudyalari esa lord-kansler tomonidan tayinlanadi. Oliy sud sudyalari kamida o'n yillik mehnat stajiga ega bo'lgan barristerlardan, okrug sudyalari esa xuddi shunday stajga ega bo'lgan barristerlardan yoki shu lavozimni kamida uch yil egallab kelgan rekordyorlardan tayinlanadi.

Jinoyat ishlarini tergov qilish, qoidaga ko'ra, politsiya tomonidan amalga oshirilib, uchastka boshliqlari (bosh konstebllar) ishni sudga oshirishni rad etish, gumon qilinuvchini rasmiy «ogohlantirish» bilan cheklanish kabi keng vakolatlarga egalar. Ingliz sudlarida ko'pchilik jinoyat ishlari bo'yicha ayblovni qo'llash an'anaviy ravishda politsiya tomonidan, yoxud ayrim fuqarolar tomonidan amalga oshirilgan va faqat eng jiddiy jinoyatlar yuzasidan tergov ommaviy ta'qiblar direktori idorasi tomonidan olib borilgan, bu idora shu va boshqa ayrim ishlar yuzasidan sudlarda ayblovni qo'llashni o'z zimmasiga organ. Bu sohada oxirgi vaqtarda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. 1985-yilda qabul qilingan Jinoyatlar uchun ta'qib qilish to'g'risidagi Qonun Angliya va Uels uchun davlat («Qirol») ayblovchilar xizmatini tashkil qilib, bu xizmat bosh attorney tomonidan tayinlanadigan va uning rahbarligida ishlaydigan ommaviy ta'qiblar direktori tomonidan boshqariladi.

Fuqarolik protsessida tomonlarning vakillari funksiyasi, jinoyat ishlari bo'yicha himoya funksiyasi va boshqa yuridik xizmatlarni ko'rsatish advokatlar tomonidan bajarilib, Angliyada advokatlar azaldan ikki toifaga bo'linadi – barristerlar va solisitorlar. Barristerlar – bu oliy sud instansiyalarida ishtirok etishga mutlaq huquqi bo'lgan yuristlardir (xuddi solisitorlar kabi, ular shuningdek, quyi instansiya sudlarida ishtirok etishga ham haqidirlar). Barrister bo'lish uchun tajribali barristerda stajirovkani va ancha cho'ziladigan o'quv kursini o'tash hamda tegishli imtihonlardan o'tish lozim, shundan so'ng barristerlar korporatsiyasiga kiruvchi birlashmalar – «inn»lardan birining a'zoligiga qabul qilinishi mumkin. Barristerlarning faoliyati ko'pgina an'anaviy vakolatlar va cheklashlar bilan bog'liqdir. Xususan, ular o'z kliyentlari bilan faqat solisitorlar orqaligina muomala qilishlari, tog'a va parikda yurishlari va sh.k.ni

bajarishlari lozim. Eng tajribali va malakali barristerlar lord-kansler tavsiyasi bilan Qirolicha tomonidan «Qirol maslahatchisi» lavozimiga tayinlanadi, bu esa ularga qo'shimcha vakolatlar va imtiyozlar beradi. Barristerlar korporatsiyasi mustaqil hisoblanadi hamda senat va barristerlar kengashi tomonidan boshqariladi.

Solisitorlar – ancha ko‘p sonli yuristlar toifasi bo‘lib, ular ko‘pincha doimiy asosda o‘z kliyentlariga maslahatlar beradilar, fuqarolik va jinoyat ishlarini o‘z kliyentlari manfaatlari doirasida tinglashga tayyorlaydilar, ayblov yoki himoya tomonidan, shuningdek, quyi instansiya sudlarida taraflarning vakillari sifatida ishtirok etadilar. Solisitorlar korporatsiyasining rahbari Yuridik jamiyat bo‘lib, mazkur jamiyat saylanadigan kengash tomonidan boshqariladi. Solisitorlikka nomzodlar yuridik ma'lumotga ega bo‘lishlari yoxud Yuridik jamiyat qoshida o‘quv kursini tugatishlari lozim, ular maxsus imtihonlarni topshirib, ikki yillik stajirovkanı o‘taydilar.

So‘nggi yillarda kam ta’milanganlarga bepul yoki imtiyozli yuridik yordam ko‘rsatish tizimi tez rivojlandi. 1988-yilda qabul qilingan qonunga ko‘ra, qashshoqlarga yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha Kengash (bu Kengash tajribali barristerlar va solisitorlardan tayinlanadi) maxsus fond ta’sis etib, bu fond hisobidan bepul yoki imtiyozli yuridik yordam ko‘rsatishga mablag‘lar ajratiladi¹.

Shimoliy Irlandiyaning sud tizimi.

Sud tizimi avtonom xususiyatga ega bo‘lsa-da, ko‘p hollarda Angliya sud tizimiga o‘xshaydi. Bu yerda uchta suddan iborat va nomlari xuddi shunday bo‘lgan Oliy sud mavjud. Quyi sudlarga *graflik* va *magistrat* sudlari kiradi. Shimoliy Irlandiya va Angliya sud tizimlari o‘rtasidagi farqlar ayrim tashkiliy va tartib jihatlariga tegishlidir. Men oroli va Bo‘g‘oz orollari o‘z sud tizimlariga egalar. Ularning oliv sudlari chiqargan qarolalining appellatsiyasi Maxfiy kengashning Sud komiteti tomonidan ko‘rib chiqiladi².

¹ Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (Справочник) – М.: Изд.юрид. лит., 1993.-B.39-43.

² Безнасюк А.С., Рустамов Х.У. Судебная власть: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2002. - B. 218.

15.2. Germaniya

Asosiy qonunning 92-moddasiga ko‘ra, odil sudlovnii amalga oshirish sudyalar vakolatiga kiradi va Federal Konstitutsiyaviy sud, Asosiy qonunda ko‘zda tutilgan federal sudlar va o‘lkalar sudlari orqali amalga oshiriladi. Germaniyada shu tariqa, roman huquq tizimidagi mamlakatlardan farqli ravishda, konstitutsiyaviy adliya odil sudlovnii amalga oshirishi lozim bo‘lgan organlar tizimining bir qismi sifatida ko‘riladi.

GFR Konstitutsiyasi adliyaning besh asosiy sohasini farqlaydi (umumiyligi, mehnati, ijtimoiyi, moliyaviyi va ma’muriyi) hamda ularga muvofiq beshta sud tizimini ta’sis etadi, bu tizimlarning har biri o‘z oliy sud organi tomonidan boshqariladi. Bunda umumiyligi sudlarning vakolatiga ma’muriy adliya organlarining va boshqa ixtisoslashtirilgan sudlarning vakolatiga kirmaydigan barcha fuqarolik va jinoyat ishlari ko‘rib chiqish kiradi. Umumiyligi sudlarning faoliyati Sud ko‘rilishi to‘g‘risidagi Qonun bilan, tegishli qonunlar va ular to‘g‘risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

Oliy federal sud umumiyligi sudlar tizimiga rahbarlik qiladi. U Karlsrue shahrida joylashgan bo‘lib, sud raisi, senatlar va sudlaridan tarkib topgan. Oliy federal sudda, shuningdek, sud tergovchilari ham bo‘lib, ular hukmlari ustidan shu sudga shikoyat keltirilgan ayrim jinoyat ishlari eshitishga tayyorlash bilan shug‘ullanadilar. Oliy federal sud tarkibiga fuqarolik ishlari bo‘yicha 11 senat, jinoyat ishlari bo‘yicha 5 senat va maxsus masalalarni (kartellar ishlari bo‘yicha, advokatlar, notariuslar ishlari bo‘yicha va b.) ko‘rib chiqish uchun yetti senat kiradi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy federal sud vakolatiga yuqori o‘lka sudlari tomonidan ish birinchi instansiya ko‘rib chiqilganda chiqarilgan hukmlarga, shuningdek, prisajniylar sudi va o‘lka sudlarining katta palatalarining hukmlariga, agar bu hukmlar ustidan yuqori o‘lka sudiga kassatsiya shikoyat keltirish mumkin bo‘lmasa, keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish kiradi. Oliy federal sud yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ayblov hukmi chiqarilgan holda ham, oqlov hukmi chiqarilgan holda ham ishni yangidan ko‘rib chiqishi mumkin. 1969-yildan Oliy federal sud vakolatiga jinoyat ishlarini birinchi instansiya ko‘rish kirmaydi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy federal sud vakolatiga yuqori o'lka sndlari tomonidan chiqarilgan qarorlarga keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish kiradi. Kassatsiya tartibida shikoyat keltirish deganda (u reviziya deb ataladi) GFRda sudning qarori yoki hukmi ustidan hukmnинг ishning haqiqiy holatlariga mos kelish-kelmasligi asoslari bo'yicha emas, balki faqat qonunni buzish yoki uni noto'g'ri qo'llash asoslari bo'yicha shikoyat keltirish tushuniladi.

Oliy federal sudda tegishlicha fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha senatlar tashkil etilib, bu senatlar huquqning tegishli sohasi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etuvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha senatlarning qarashlarida tafovutlarni bartaraf etish zarur bo'lgan hollarda birlashgan katta senat chaqiriladi, uning tarkibiga Oliy federal sud raisi va katta senatlarning barcha a'zolari kiradi.

Barcha umumiy sndlар ichida faqat Oliy federal sudgina umumfederal muassasa hisoblanadi, qolgan barcha quyi turuvchi sndlар tegishli o'lkalarning sndlari hisoblanadi. Ayrim o'lkalarning umumiy sndlari tuzilishi va vakolatlari o'rtaida farqlar mavjud, biroq ular unchalik jiddiy emas. O'lkalarning yuqori sndlari ham birinchi instansiya sudi sifatida, ham appellatsiya va kassatsiya instansiyalari sifatida ish yuritadilar. GFR tarkibiga kiruvchi barcha o'lkalarda bunday sndlар tashkil etilgan va ularning soni birdan to'rttagacha bo'ladi (o'lkalarning eng yiriklaridan biri – Bavariyada uchta yuqori sud va Myunhenda Bavariya oliy sudi bo'lib, bu oliy sud yuqori o'lka sndlari vakolatlari bilan bir qatorda ayrim turdagи fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Bavariya sndlari uchun kassatsiya instansiyasi sifatida Oliy federal sud funksiyalarini bajaradi).

Yuqori o'lka sudi rais tomonidan boshqarilib, uning tarkibida fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha yetarli miqdorda senatlar tashkil etiladi va bu senatlarga ularning raislari rahbarlik qiladi. Birinchi instansiya sudi sifatida jinoyat ishlari bo'yicha senat yuqori o'lka sudi a'zolaridan bo'lgan beshta professional sudyda tarkibida davlatga xiyonat, josuslik, terroristik aktlar yoxud o'lkaning quyi turuvchi sndlari sudloviga tegishli bo'lgan, biroq o'ta ahamiyatli yoki murakkab deb topilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Kassatsiya instansiysi sifatida fuqarolik ishlari bo'yicha senatlar yuqori o'lka sudining uchta a'zosi tarkibida quyi sularning qarorlari va ajrimlariga keltirilgan appellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi, ayrim masalalar yakka sudya tomonidan hal etilishi mumkin. Jinoyat ishlari bo'yicha senatlar yuqori o'lka sudining uchta a'zosi tarkibida uchastka sudyalarining appellatsiya shikoyati keltirilmaydigan hukmlari ustidan; o'lka sudlarining appellatsiya shikoyatlari bo'yicha chiqargan hukmlari ustidan, shuningdek, prisyajniylar sudlari yoki o'lka sudining katta palatasi chiqargan hukmlari ustidan keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi, biroq keltirilgan kassatsiya shikoyatiga asos federal qonun hujjatlari me'yorlarining buzilishi emas, balki faqat o'lka qonun hujjatlari me'yorlarining buzilishi bo'lishi kerak.

O'lka sudlari birinchi instansiya sudi sifatida ham, quyi turuvchi sularning qarorlari va hukmlariga keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiquvchi ikkinchi instansiya sudi sifatida ham ish yuritadi. Har bir o'lka sudi tarkibiga unga rahbarlik qiluvchi rais, fuqarolik (shu jumladan tijorat) ishlari bo'yicha va jinoyat ishlari bo'yicha tashkil qilinadigan palatalar kiradi.

O'lka suldarining jinoyat ishlari bo'yicha palatalari uchastka sudlari yoki yuqori o'lka sudlari sudloviga kiritilmagan barcha jinoyat ishlarini birinchi instansiyada ko'rib chiqadi. Ularning sudloviga uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki psixiatriya kasalxonasiga majburiy joylashtirish jazolari ko'zda tutilgan barcha jinoyatlar to'g'risidagi ishlar kiradi. Ishlarni birinchi instansiyada yoki prisyajniylar sudi sifatida ish yurituvchi jinoyat ishlari bo'yicha palata yoki jinoyat ishlari bo'yicha katta palata ko'rib chiqadi. GFRda prisyajniylar sudi uchta professional sudyadan va ikki sheffendan tashkil topadi (sheffen deb ishni muhokama qilishda ishtirot etuvchi va professional sudyalar bilan birgalikda sudlanuvchining aybdor yoki aybsizligi hamda unga jazo chorasi qo'llash masalasi yuzasidan qaror qabul qiluvchi prisyajniy maslahatchilarga aytiladi). Prisyajniylar sudi qasddan odam o'ldirish yoki odamlarning hayoti uchun xavf tug'dirish bilan bog'liq boshqa jinoyatlarda (o't qo'yish, portlatish, samolyotlarni olib qochishga urinish, bosqinchilik va aybni og'irlashtiruvchi holatlarda tov-

lamachilik qilish va hokazo) ayblast yuzasidan jinoyat ishlarini ko'rib chiqish zarurati tug'ilganda chaqiriladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha katta palata uchta sudyva va ikki sheffen tarkibida jinoiy tajovuzlar to'g'risidagi o'lka sudlari sudloviga tegishli ishlarning asosiy qismini ko'rib chiqadi. Okrugida yuqori o'lka sudi joylashgan o'lka sudlarida davlat jinoyatlari to'g'risidagi ishlar bo'yicha palata tashkil etilib, bu palatada asosan, «demokratik huquqiy davlatga tahdid» bilan hamda g'ayriqonuniy tashkilotlar faoliyatini ta'qiqlashni buzish bilan bog'liq ishlar ko'rildi. Jinoyat ishlari bo'yicha katta palata uchta sudyva va ikki sheffen tarkibida o'lka sudi nomidan uchastka sudlarida sheffenlar sudi chiqargan hukmlarga keltilirgan appellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

Uchastka sudlar (ularning soni tobora qisqari, 1990-yilda GFRda 550 ta va G'arbiy Berlinda 7 tani tashkil qilgan) umumiy sudlar tizimining quyi bo'g'inini tashkil qiladi. Uchastka sudyasi sudloviga 1500 yevrogacha miqdordagi mulkiy nizolar, shuningdek, da'vo miqdoridan qat'i nazar, yashash joylari va boshqa binolarni ijara berish to'g'risida nizolar, mehmonxonalar egalari va mijozlari o'rtasidagi, transport vositalari haydovchilari va yo'lovchilari o'rtasidagi, sayyoqlik byurolari va sayyoqlar o'rtasidagi va sh.k. nizolar tegishlidir. Uchastka sudlarida bir yoki bir nechta sudyva nikoh-oila ishlariga tegishli, jumladan, nikohni bekor qilish, aliment undirish va sh. k. ishlarni ko'rib chiqishga ixtisoslashadi.

Uchastka sudlarida jinoyat ishlari sudyva tomonidan yakka tartibda yoki sheffenlar sudi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin. Uchastka sudyasi yakka tartibda xususiy ayblov tartibida qo'zg'atilgan ishlarni, bundan tashqari, qilmish toifasiga kiruvchi jinoiy harakatlar to'g'risidagi ishlarni, va nihoyat, prokuror taklifiga ko'ra, qilmish uchun tayinlanadigan jazodan og'irroq, ya'ni bir yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash kutilmaydigan ayrim jinoyat ishlarini ko'rib chiqadi.

Uchastka sudyasi ayblanuvchining roziligi bilan prokura-tura yoki politsiya taqdim qilgan materiallar asosida sud muhokamasini o'tkazmasdan, «jazo to'g'risidagi buyruq» yo'li bilan hukm chiqarishi mumkin. Biroq bu holatda ozodlikdan

mahrum qilish bilan bog‘liq jazo tayinlanishi mumkin emas, «jazo to‘g‘risidagi buyruq» esa sudlangan shaxs bir hafta ichida uni bekor qilishni va sud muhokamasi o‘tkazishni talab qilmagan hollardagina ijro etiladi. Sheffenlar sudi uchastka sudyasi va ikki sheffen tarkibida hay‘at sifatida ish ko‘radi. Sheffenlar jamoalarda yashovchi 30 yoshga etgan va cheklashlari (sudlanganligi, jismoniy yoki ruhiy kasalligi, mansab majburiyatlari va sh.k.) bo‘lmagan fuqarolar ichidan jamoa kengashi tuzgan ro‘yxat asosida ishga jalb etiladi.

Umumiy sudlar tizimiga mustaqil tuzilma sifatida voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha sudlar ham kiritilgan. Bu sudlar 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ayblanayotgan huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni, shuningdek, voyaga yetmaganlarlarning ishi bo‘yicha sud hulqi «o‘smirlargacha xos» deb topgan 21 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning jinoyat ishlarini ko‘rib chiqadi. Aynan shu sudlarda, umumiy sudlardagidek, voyaga yetmaganlarning manfaatlari katta yoshlilar tomonidan buzilganligi to‘g‘risidagi ishlar, shuningdek, voyaga yetmaganni guvoh sifatida so‘roq qilish lozim bo‘lgan ishlar ko‘rib chiqilishi mumkin. Shu turdagil sud muassasalariga o‘lka sudlaridagi voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha palatalar (uchta professional suda va ikkita sheffen tarkibida) hamda uchastka sudlarida voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha sheffenlar sudi (professional suda va ikkita sheffen tarkibida) va voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha suda kiradi. Voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha sheffenlar sifatida yoshlar bilan ishslash tajribasiga ega bo‘lgan shaxslar (qoidaga ko‘ra, ularning biri – ayol) tayinlanadi.

GFRda faoliyat yurituvchi ixtisoslashtirilgan sudlar orasida umumiy sudlar bilan bir qatorda mehnat masalalari bo‘yicha sudlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu sudlarning faoliyati ish haqi to‘lash, ta‘tillar berish, ishdan bo‘shatish masalalari bo‘yicha yollovchilar va individual xizmatchilar o‘rtasidagi nizolarni, shuningdek, kasaba uyushmalari va tadbirkorlar birlashmalari o‘rtasidagi nizolar, jumladan, ish tashlashning yoki korxona yopilishining huquqqa xilofligi kabi masalalarni ko‘rib chiqishga qaratilgan. Mazkur tizimga Kassel shahrida joylashgan mehnat masalalari bo‘yicha Federal sud rahbarlik qilib, besh senat-

dan tashkil topgan. Bu senatlar hay'atlarda uchta professional sudya va ikki «faxriy» sudyalar (ular tegishli tadbirkorlar va kasaba uyushmalarining vakillari bo'ladi) shu tizim quyi sudsalarining qarorlariga keltirilgan kassatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadilar. GFR o'lkalarining har birida mehnat masalalari bo'yicha bittadan o'lka sudi bo'lib, Shimoliy Reyn-Vestfaliya-da esa mehnat masalalari bo'yicha ikkita o'lka sudi ta'sis etilgan.

Mehnat masalalari bo'yicha o'lka sudsulari appellatsiya instansiysi hisoblanib, unda quyi sudsarning qarorlariga shikoyatlar keltiriladi. Mehnat masalalari bo'yicha sudsular – bu tizimning eng quyi instansiysi bo'lib (GFR hududida ularning soni 107 taga boradi) – birinchi instansiyada barcha mehnat nizolarini ko'rib chiqadi.

Ijtimoiy masalalar bo'yicha sudsular tizimi ijtimoiy sug'urta, ishsizlarga va «vataniga qaytganlarga» nafaqalar to'lash, bepul yoki imtiyozli tibbiy yordam ko'rsatish va shu kabi masalalar bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish uchun ta'sis etilgan. Bunday sudsular tizimi Federal sud tomonidan boshqariladi. Federal sud 12 senatdan tashkil topgan bo'lib, ularda quyi sudsarning qarorlariga keltirilgan kassatsiya shikoyatlari ko'rib chiqiladi¹. Ijtimoiy masalalar bo'yicha Federal sudda va o'lkalarning tegishli sudsularida ishlar uchta professional sudya va ikkita «faxriy sudya»dan iborat hay'atlarda, quyi instansiya sudsarida esa bir professional sudya va ikkita «faxriy sudya»dan iborat hay'atlarda ko'rib chiqiladi. «Faxriy sudyalar» tarkibi teng huquqlilik asosida tuziladi: nizoda ishtirok etuvchi tomonlardan bittadan vakil qatnashadi (sug'urta qilingan xizmatchilar yoki ishsizlardan va tadbirkorlardan, kasalxona kassalaridan va shu kassalar hisobiga bemorlarni davolovchi vrachlardan va hokazo).

Moliyaviy sudsular tizimi asosan, soliqlar to'lash va boj to'lovlari bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish uchun ta'sis etilgan. Federal moliyaviy sudda sakkiz senat tashkil etilgan bo'lib, beshta professional sudyadan iborat hay'atlarda moliyaviy sudsarning qarorlariga keltirilgan kassatsiya shikoyatlari huquq masalalari bo'yichagina va nizo miqdori 5000 yevrodan

¹ Правовые системы стран мира. Энциклопедический справочник. 1 отв. ред. – д. ю. н., проф. А.Я. Сухарев. – 2-е изд., изм. и доп. – М.: НОРМА. 2001. - В.172.

oshsagina, ko'rib chiqiladi. Birinchi instansiya sudi hisoblangan, biroq darajasi jihatidan o'lkalarning tegishli yuqori sudlariga teng bo'lgan moliyaviy sudlarda ishlar uchta professional sudya va ikkita «faxriy sudya»dan iborat hay'atlarda ko'rib chiqiladi.

GFRda ma'muriy adliya tizimi jismoniy va yuridik shaxslarning davlat boshqaruvi organlarining aktlari va xatti-harakatlariga nisbatan keltirgan shikoyatlarini, shuningdek, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqish uchun ta'sis etilgan bo'lib, bu shikoyatlar va nizolar boshqa sudlar sudloviga tegishli bo'lmasligi lozim. Qoidaga ko'ra, xatti-harakatlariga shikoyat keltirilayotgan boshqaruv organi yoki mansabdar shaxsga e'tiroz bildirilib, yuqori turuvchi boshqaruv organiga keltirilgan shikoyat qanoatlantirilmaganidan so'nggina ma'muriy adliya organlariga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin. Mazkur tizimni Federal ma'muriy sudi boshqarib, u Berlin shahrida joylashgan.

Ma'muriy sudlar ma'muriy adliya sudloviga tegishli bo'lgan ishlarning asosiy qismini birinchi instansiyada uchta professional sudya va ikkita «faxriy sudya»dan iborat tarkibda ko'rib chiqadi. Ma'muriy sudlarning qaroriga ko'ra, shikoyat keltirilgan davlat boshqaruvi organi akti bekor qilinishi yoxud fuqarolar va muassasalarning mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari bilan buzilgan huquqlari tiklanishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan beshta oliy sud organlari ayrim sud tizimlarini (umumiy, ma'muriy va b.) boshqarib, alohida va bir-biridan mustaqil hisoblanadi. Jiddiy huquqiy masalalar yuzasidan ularning nuqtayi-nazarlari o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqqan hollarda, Asosiy qonunga ko'ra (95-m.), Oliy federal sudlarning umumiy senati chaqiriladi, bu senat chiqargan qaror barcha tizim sudlari uchun majburiydir va u sud amaliyotining yagonaligini ta'minlaydi. Mustaqil sud muassasalari sifatida ayrim ixtisoslashtirilgan sudlar, jumladan, umumfederal darajada ham, faoliyat yuritadi. Bularga, xususan, fuqaro-xizmatchilarning hukumat xatti-harakatlariga keltirgan shikoyatlarini ko'rib chiquvchi Federal intizomiy sud va o'lkalarning intizomiy sudlari, shuningdek, Myunhenda joylashgan Federal patent sudi kiradi.

GFR oliv davlat va sud muassasalari orasida 1951-yilda ta'sis etilgan Federal konstitutsiyaviy sud alohida o'rinni egal-laydi. U Karlsrueda joylashgan bo'lib, har birida Federal konstitutsiyaviy sudning sakkiz a'zosi bo'lgan ikki senatdan tashkil topgan. Butun sudning va birinchi senatning ishiga Federal konstitutsiyaviy sud raisi, ikkinchi senat ishiga vitserais rahbarlik qiladi. Federal konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyani sharhlashning munozarali masalalarini, Konstitutsiyaning boshqa federal qonunlar va o'lkalarning hukumatlari chiqargan qonunlar bilan muvofiqligi yuzasidan nizolarni ko'rib chiqadi. Federal konstitutsiyaviy sudning vakolatlari GFR parlamenti va o'lkalarning hukumatlari chiqargan qonunlarni, hukumatning va boshqa boshqaruv organlarining har qanday qarorlarini, shuningdek, har qanday sud instansiyalari, jumladan, oliy federal sndlarning qarorlarini ularning konstitutsiyaga zidligi asosida bekor qilish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Federal konstitutsiyaviy sud turli tashkilotlar va fuqarolar birlashmalarining faoliyatini konstitutsiyaga zid deb topishga haqlidir. Federal konstitutsiyaviy sudning muhim vazifasi bu hukumat organlari tomonidan jamoalar va ayrim fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlarini ko'rib chiqishdir. GFRga kiruvchi o'lkalarning aksariyatida o'z konstitutsiyaviy sndlari mavjud bo'lib, ularning vakolati o'lkalarning Konstitutsiyasi qoidalarini sharhlash va unda mustahkamlangan huquqlarning buzilishi yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqish bilan cheklanadi. Mazkur sndlarning qarorlari ustidan shikoyat keltirilishi mumkin emas.

Federal sndlarning sudyalari rasman o'z lavozimlariga tegishli vazirning (Oliy federal sudga tayinlanishda – Adliya vaziri, mehnat ishlari bo'yicha Federal sudga tayinlanishda – Mehnat vaziri va sh.k.) qaroridan so'ng GFR Prezidenti tomonidan tayinlanadilar. Bundan oldinroq esa sudyalikkha nomzodlar tarkibi GFR tegishli vaziridan va o'lkalarning tegishli idoralari rahbarlaridan, shuningdek, Bundestag tomonidan saylangan 11 a'zodan iborat maxsus komissiya tasdig'idan o'tishlari lozim. Komissiyalarda, ular qoidaga ko'ra, bir necha nomzodlar ichidan saylab olinadi.

Ayrim o'lkalardagi sndlarda sudyalik lavozimini egallash turlicha kechadi. Ba'zi o'lkalarda sudyalar bosh vazir tomo-

nidan tayinlansa, boshqalarida – shu o‘lkaning Adliya vaziri tomonidan tayinlanadi. Yana ba’zilarida esa o‘lka parlamenti deputatlardan, sudyalardan va advokatlardan tashkil topgan saylov komiteti – maxsus komissiya tomonidan nomzod saylangach, sudyalik lavozimi egallanadi. Bundan tashqari, ko‘p o‘lkalarda biror o‘lka sudlaridagi sudyalik lavozimini egallah uchun Vazirlar Mahkamasining barcha a’zolari – barcha vazirlarning roziligi talab etiladi. Barcha sudyalar o‘z lavozimlariga umrbod tayinlanadilar.

GFR federal parlamenti tomonidan bevosita 12 yil muddatga faqat Federal konstitutsiyaviy sud sudyalari saylanadilar: ularning yarmi Bundestag tomonidan, qolgan yarmi Bundesrat tomonidan saylanadi. Sudyalar o‘z lavozimlaridan sudyalar va prokurorlar uchun Federal intizomiy sud yoxud o‘lka intizomiy sudi qarori bilangina chetlatilishlari mumkin. Intizomiy ish GFR yoki o‘lkalarning adliya vazirlari tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Sudyalarning iste’foga chiqish yoshi 65 yosh (Federal konstitutsiyaviy sud a’zolari uchun – 68 yosh).

Jinoyat ishlarini tergov qilish asosan, federal hukumat yoki o‘lkalarning Ichki ishlar vazirining bo‘ysunishida bo‘lgan politsiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Eng murakkab jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergov politsiya xizmatlari ishtirokida prokuratura tomonidan olib boriladi, bunday ishlarning soni nisbatan ancha kamdir. Ayrim hollarda, «sud tergov» tartibida ba’zi tergov harakatlari suda-surishtiruvchilar tomonidan o‘tkaziladi, ularning vazifasini odatda uchastka sudyalari bajaradi.

Ayblov e’lon qilish prokuratura tomonidan, yoxud, xususiy shikoyat bo‘yicha, jabrlanuvchi tomonidan amalga oshiriladi, biroq sud muhokamasiда prokuror ishtiroki majburiydir. Prokuratura qator hollarda ishni sudga oshirishni rad etish vakolatiga ega, xususan, ayblanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlari yo‘l hodisasi natijasida jiddiy zarar ko‘rgan bo‘lsa. Qonunda ko‘zda tutilgan hollarda prokuratura vakillari fuqarolik ishlarini muhokama qilishda ham ishtirok etadilar.

Prokuratura organlari barcha umumiyl sudlar qoshida mavjuddir. Oliy federal sud qoshida prokuratura funksiyasini bosh federal prokuror va unga bo‘ysunuvchi federal prokurorlar amalga oshiradilar (ularning barchasi GFR adliya vazirining umumiy rahbarligida faoliyat yuritadilar). Bosh federal

prokuror GFR Prezidenti tomonidan Bundesrat roziligi bilan tayinlanadi. O'lkalarning oliv sudlari qoshida, o'lka sudlari va uchastka sudlari qoshida tegishli prokurorlar faoliyat yuritib, ular ustidan har bir o'lkaning adliya vaziri rahbarlik qiladi. Uchastka prokurorlarining (bu ularning rasmiy nomlanishi) vakolatlari cheklangan: ular faqat uchastka sudlarida qatnashishlari mumkin. Prokuraturaning mansabdor shaxslari yuqori turuvchi prokurorlarning qonuniy ko'rsatmalariga bo'yusunishlari shart.

Jinoyat ishlari bo'yicha ayblanuvchilarni himoya qilish, shuningdek, boshqa toifadagi ishlar bo'yicha taraflarning manfaatlarini himoya qilish advokatlar tomonidan amalga oshirildi. Advokatning uchastka sudida sudyaning yakka tartibda jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishida ishtirok etishi majburiy emas, biroq qonunda ayrim istisno holatlar ko'rsatilgan. Advokatlar mehnat ishlari bo'yicha yuqori instansiya sudlarida taraflarning manfaatlarini himoya qilishlari majburiydir, ijtimoiy masalalar bo'yicha, moliyaviy va ma'muriy sudlarda ishtirok etishlari mumkin.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun universitet yuridik fakulteti bitiruvchisi uch-to'rt yil muddat sudlarda, prokurorlarda va advokatlarda stajirovka o'tashi, o'lka oliv sudi qoshidagi komissiyaga imtihon topshirishi va shundan so'nggina qaysi o'lka sudida advokatlik faoliyatini yuritmoqchi bo'lsa, o'sha o'lka adliya idorasidan tegishli ruxsatnoma olishi lozim. GFRda har bir advokat advokatlik faoliyati yuritishga ruxsat berilgan oliv o'lka sudi yoki o'lka sudidagina o'z byurosini ochishi mumkin. U yoki bu oliv o'lka sudi okrugida faoliyat yurituvchchi advokatlar bitta (ba'zan, agar ularning soni 500dan ortiq bo'lsa, ikkita) advokatlar hay'atiga birlashadilar. Oliy federal sudda ish yuritishga ruxsat berilgan advokatlar alohida hay'atga (maxsus komissiya tomonidan juda ham qattiq tanlovdan so'ng GFR adliya vaziri qarori bilan) birlashadilar. GFRda mavjud bo'lgan barcha advokatlar hay'atlari Federal advokatlar birlashmasiga kiradilar. Bu birlashma, xusan, kam ta'minlanganlarga bepul yoki imtiyozli yuridik yordam ko'rsatish uchun choralar ko'radi.¹

¹ Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (Справочник). -М.: Изд.юрид.лит., 1993. -В.57-65.

15.3. AQSH

AQSH davlat tuzilishi 1607–1776-yillarda Amerikada amalda bo‘lgan ingлиз mustamlaka tizimi davrlaridagi huquqiy negizlar va institatlardan boshlanadi. AQSH konstitutsiyaviy tamoyillari, bundan tashqari, shubhasiz, Buyuk fransuz burjua-demokratik inqilobidan oldingi davr siyosiy-huquqiy g‘oyalari ta’sirida ham shakllangan. Amerika huquqiy maktabi an’analariga muvofiq, AQSHda amalda bo‘lgan qonun chiqaruvchi, ijroiya, ma’muriy, sud va boshqa organlarning ulkan, beso‘naqay, sertarmoq va serqamrov, o‘ta murakkab tizimi AQSH Konstitutsiyasi asosida shakllangan va faoliyat yuritadi, deb hisoblanadi¹.

AQSHda bir vaqtning o‘zida sudlarning yagona federal tizimi va 50 shtatning har birining, Kolumbiya okrugining va to‘rt federal hududning mustaqil sud tizimlari faoliyat yuritadi. Federal sudlar vakolatiga, avvalo, federal qonun hujjalari ko‘zda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlarini hamda federal hukumatga nisbatan da’volar bo‘yicha va federal qonularni qo‘llash bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha yoki ikki turli mam-lakatlarda yashovchi fuqarolar o‘rtasida kelib chiquvchi nizolar bo‘yicha (bunda da’vo miqdori 10 000 dollardan kam bo‘lmasligi kerak) fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish kiradi. Qator masalalar bo‘yicha federal sudlarning va shtatlar sudlarning vakolatlari jinoyat ishlari bo‘yicha ham, fuqarolik ishlari bo‘yicha ham mos keladi, bu esa ularning vazifalarini chegaralash yuzasidan o‘ta murakkab qoidalarni ishlab chiqishga olib keldi.

Federal sud tizimiga AQSH Oliy sudi, appellatsiya va okrug sudlari, shuningdek, maxsus sudlar kiradi. Federal sudlarning butun tizimiga AQSH Oliy sudi rahbarlik qiladi va u bir vaqtning o‘zida oliy davlat muassasalari tizimida Kongress va Prezident bilan bir qatorda o‘ta muhim maqomga egadir. AQSH Oliy sudi AQSH Konstitutsiyasida tilga olingen yagona sud muassasasi bo‘lib, to‘qqiz sudyadan iboratdir, bu sudyalarning birini AQSH Prezidenti rais etib tayinlaydi. Oliy sud a’zolari, shu jumladan rais ham, prezident tomonidan tayinlanib, Senatda tasdiqlanadi.

¹ Филиппов С.В. Судебная система США. –М.: Наука, 1980. -B. 3.

Oliy sud birinchi instansiya da ikki yoki undan ortiq shtatlar o‘rtasidagi nizolar bo‘yicha ishlarni, taraflarning biri xorijiy davlat elchisi bo‘lgan da’volar bo‘yicha ishlarni va boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi (amaliyotda bunday ishlar turi juda kamdir). Uning asosiy funksiyasi – quyi turuvchi federal sudlar va shtatlar sudlarining qarorlariga keltirilgan va «federal masala»ga daxli bo‘lgan shikoyatlarni, shuningdek, biror shtat qonuni yoki AQSH Kongressining biror akti AQSH Konstitutsiyasiga zid kelishi to‘g‘risidagi har qanday sud qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi iltimoslarni ko‘rib chiqishdan iboratdir. Oliy sud shuningdek, appellatsion sudning iltimosi bilan, fuqarolik yoki jinoyat ishi yuzasidan vujudga kelgan biror-bir huquq masalasini tushuntirish va unga majburiy sharh berish huquqiga ham ega. Oliy sud ishlarni yetarlicha jiddiy va umumahamiyatga ega deb topgan hollarda, ularni o‘z tashabbusi bilan o‘z ish yurituviga olishi mumkin, biroq bunday hollar juda kamdan-kam uchraydi.

Da’vogarlar Oliy sudga o‘zlarining ishlarini ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish uchun quyi turuvchi sud ish yurituvidan talab qilib olishni iltimos qilib murojaat etishlari mumkin. Oliy sud o‘z xohishiga ko‘ra bunday iltimoslarni qanoatlantirishi yoki qanoatlantirmasligi mumkin. Bunda sud «to‘rtlar qoidasi»dan kelib chiqib ish ko‘radi. To‘qqiz sudyadan to‘rttasi ishni talab qilib olishga rozi bo‘lsa, ish Oliy sud ish yurituviga qabul qilinadi. Aks holda iltimos rad etiladi, quyi turuvchi sud qarori esa o‘z kuchida qoladi. Ishni talab qilib olishni rad etish Oliy sudning quyi turuvchi sud qarorini to‘g‘ri deb topganligini bildirmaydi, balki mazkur ish bilan bog‘liq holda ko‘tarilgan yuridik masala sud manfaatlari doirasiga kirmasligini, har holda rad etish vaqtida kirmasligini bildiradi¹.

Apellatsiya sudlari 1891-yilda AQSH Oliy sudi va okrug sudlari o‘rtasidagi oraliq yurisdiksiya sudlari sifatida ta’sis etilgan edi. Hozirgi vaqtida 13 ta apellatsiya sudlari bor: Kolombiya federal okrugida bitta, 3 tadan 10 ta shtatgacha hududni qamrab oluvchi va o‘z rasmiy tartib raqami bo‘lgan har bir apellatsiya okrugida – 11 ta, va nihoyat, 1982 yilda ta’sis etilgan va bojxona hamda patent ishlari bo‘yicha shikoyatlarni, Pretenzi-

¹ Даниэл Джон Мидор. «Американские суды». Уэст Паблишинг Компани. Сент-Пол, Миннесота. 1991. -В.24.

ya sudi qarorlariga keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiquvchi federal yurisdiksiyadagi Apellatsiya sudi.

Har bir appellatsiya sudi ishida AQSH Oliy sudi a'zolaridan biri ishtirok etadi (ular bitta-ikkita appellatsiya sudlariga biriktirib qo'yilgan). Birinchi 12 appellatsiya sudlari okrug sudlarining hukmlari va qarorlariga, bir qator ma'muriy organlarning qarorlariga (agar ularda huquqiy normalarning buzilganligi namoyon bo'lsa) keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadilar, shuningdek, birinchi instansiya sudi sifatida ayrim masalalar yuzasidan buyruqlar chiqaradilar. Appellatsiya sudi sudyalarini va hay'atlari qarorlariga keltirilgan shikoyatlarni muhokama qilish uchun, shuningdek, sudyalar o'rtaсидаги munozaralarni hal qilish uchun appellatsiya sudlarining plenum yig'ilishlari chiqiladi.

Okrug sudlari (ularning nomlanishi «tuman sudlari» deb tarjima qilinadi) – federal sud tizimining asosiy bo'g'inidir. Mamlakatning butun hududi shtatlar o'rtaсидаги chegaralarni hisobga olgan holda okruglarga bo'lib chiqilgan, shu sababli bir shtatda bittadan to'rttagacha okrug mavjud. Tegishli okrug sudlari AQSHning dengiz orti hududlarida ham tuzilgan. Hozirgi vaqtida hammasi bo'lib 95 okrug sudi bor, ularning har birida 2 tadan 27 tagacha suda faoliyat yuritadi (ularning biri appellatsiya sudlaridagidek tartibda rais etib tayinlanadi). Ular birinchi instansiyada federal adliya vakolatiga kiruvchi fuqarolik va jinoyat ishlarini, shuningdek, ma'muriy idoralarning xattiharakatlariga nisbatan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadilar. Jinoyat ishlari va da'vo miqdori 20 dollardan ko'p bo'lgan fuqarolik da'volari, agar buni ayblanuvchi va da'vogar talab qilsa, prisyajniylar ishtirokida ko'rildi.

Umumiy sudlar tizimi bilan bir qatorda bir necha ixtisoslash-tirilgan federal sudlar ham mavjuddir. Bu sudlarning tizimi 1982-yilda jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Mazkur tizimda *Pretenziyalar* sudi muhim o'rinni egallaydi. Mazkur sud xususiy shaxslar va korporatsiyalarning AQSH hukumatiga nisbatan shartnomalarning buzilishi natijasida yetkazilgan ziyoni undirish to'g'risidagi va boshqa bir qator asoslar bo'yicha 10000 dollardan ortiq miqdordagi fuqaroviy da'volarni ko'rib chiqadi.

1980-yilda Bojxona ishlari bo'yicha sudning nomi *Tashqi savdo bo'yicha sud* deb o'zgartirildi. Bu sud to'qqiz sudyadan iborat tarkibda ish yuritib, bu sudyalar yakka tartibda qaror chiqarishlari mumkin va ular sudning shtab-kvartirasi joylashgan Nyu-York shahrida yoxud zarur hollarda AQSHning boshqa port shaharlaridan birida ish ko'radilar. Turli ixtisoslikdagi boshqa federal sud muassasalari qatorida, xususan, Soliq sudi ham bo'lib, u federal soliqlar miqdorini belgilash va ularni to'lash bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqadi¹.

Ellikta shtatning har biri o'zining rasman qabul qilingan Konstitutsiyasiga egadir. Bu hujjalarning bo'linish tamoyilini o'zlarida mu-jassam etib, bunga muvofiq, shtat qonun chiqaruvchi yig'ilishi (ba'zan bosh assambleya deb ataladi) qonun chiqaruvchi organ hisoblanadi, gubernator – ijro hokimiyatining oliv lavozimi hamda sud tizimi sud hokimiyati funksiyalarini bajaradi. Ayrim shtatlarda sud tizimi birinchi instansiya sudlari va appellatsiya sudlari darajasida Konstitutsianing o'zida mustahkamlangan, boshqa shtatlarda esa Konstitutsiya qonun chiqaruvchi yig'ilishga sud tizimini ta'sis etish huquqini beradi.

Sud tizimlari Konstitutsiyada belgilab qo'yilganligi yoki qonun chiqaruvchi yig'ilishning aktlari bilan ta'sis etilishidan qat'i nazar, umuman olganda ellikta shtatda ham sud tizimlari o'xshashdir. Biroq boshqaruvning boshqa jihatlari kabi, ular ham ayrim jihatlari bilan farqlanadi².

Shtatlardagi sud tizimlarining o'ziga hosliklari ko'proq mazkur shtatda sud tizimi shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari bilan izohlanadi. Ba'zan yangidan tashkil etilgan shtatlar qo'shni shtatlardagi sud tuzilishidan nusxa ko'chirib olganlar. Shtatlarda ko'proq umumiyyet sudlarning ikki va uch pog'onali tizimi, shuningdek, cheklangan yoki maxsus yurisdiksiyadagi turli sudlar mavjud. O'zida faqat birinchi instansiya sudini va oliv sud organini mujassam qilgan ikki pog'onali umumiyyet sudlar tizimi hududi kichik va aholisi kam bo'lган shtatlarga xos, uch pog'onali, oraliq, appellatsion yurisdiksija

¹ Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (Справочник) -М.: Изд. юрид.лит., 1993. -В.181-183.

² Даниэл Джон Мидор. «Американские суды». Уэст Паблишинг Компани. Сент-Пол, Миннесота. 1991. -В.10.

sudlari bo'lgan umumiy sudlar tizimi esa yirik shtatlarda mavjud bo'lib, ularda ko'rildigan fuqarolik va jinoyat ishlari soni ancha ko'pdır. Umumlashtirishga urinish shtatlardagi sud hokimiyatining amaldagi tuzilishini buzib ko'rsatishga olib kelishi mumkin. Quyidagi shtatlar sud tizimi asosiy qismlarining bayoni asosiy model va variantlarni ajratish bilan birga beriladi. Ilovada shtatlar sud tizimlarining to'rt tipi sxemasi variatsiyalar bilan birlgilikda beriladi.

Shtatdagi sud tizimini boshqaruvchi sud ko'proq, *oliy sud* nomi bilan yuritiladi, biroq qator shtatlarda u *appellatsion sud* deb ataladi. Bu sudlar beshtadan to'qqiztagacha sudyadan iborat bo'lib, ularning biri sud raisi etib tayinlanadi. Shtatlarning oliv va unga muvofiq sudlari, asosan, quyi sudlarning qarorlariga keltirilgan appellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'pchilik shtatlarda appellatsiya shikoyatlarini va boshqa murojaatlarni ko'rib chiqishga qabul qilishni Oliy sudning o'zi hal qiladi, o'lim jazosi belgilangan hukmlarga keltirilgan appellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish esa majburiydir. Ayrim shtatlarda esa oliv sudga kelib tushgan barcha shikoyatlar hech qanday istisnosiz ko'rib chiqilishi lozim, degan qoida amal qiladi.

Shtatlar oliv sudlarining ma'muriy organlar qarorlariga keltirilgan shikoyatlar yoki ishlarni ko'rib chiqish munosabati bilan konstitutsiyalarni sharhlash va shtatlar qonun hujjatlariga baho berishdagi ahamiyati beqiyosdir. Mazkur vazifaning ahamiyati so'nggi o'n yilda yanada oshdi, bunga sabab ayrim shtatlarning oliv sudlari fuqarolarning huquqlarini himoya qilish borasida AQSH Oliy sudiga nisbatan qat'iyatliroq qarorlar qabul qilish yo'lini tutmoqdalar.

Oraliq yurisdiksya sudlari («oraliq» iborasi ba'zan ularning rasmiy nomlanishiga kiradi) qator shtatlarda birinchi instansiya sudlari va boshqa sud muassasalarining hukmlari va qarorlariga keltirilgan shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun tuzilgan. Ular turlicha nomlanadilar, biroq ko'pincha ular *appellatsion sudlar* deb ataladi. Ba'zan shtatlarda alohida jinoyat ishlari bo'yicha appellatsion sud tashkil etiladi, ayrim hollarda oraliq yurisdiksya sudlari shtat oliv sudining appellatsion bo'linmasi sifatida faoliyat yuritadi. Ularning tarkibiga 10 tadan 50 tagacha suda kiradi. Ishlar odatda, uch sudyadan iborat hay'at tarkibida

ko'riladi. Ayrim shtatlarda appellatsion sudlar bиринчи instansi-yada, shu jumladan prisajniy maslahatchilar ishtirokida muayyan toifadagi fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqadilar. Bu holda sud jarayoni yakka sudyя tomonidan olib boriladi.

Shtatlар sud tizimining asosiy bo'g'ini – umumiylar yurisdiksiya sudlari bo'lib, ular turlicha nomlanadilar. *Masalan*, Nyu-York shtatida ular *oliy sudlar* deb, Kaliforniya shtatida – *yugori sudlar* deb, biroq ko'proq *okrug sudlari* deb ataladi. Mazkur sudlar tashkil etilishi va miqdoriy tarkibi jihatidan jiddiy farqlanadi. Qoidaga ko'ra, ular bиринчи instansiyada tegishli shtatning qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan barcha jinoyatlar (kam ahamiyatli qilmishlardan tashqari) to'g'risidagi jinoyat ishlarini, da'vo miqdoridan qat'i nazar barcha fuqarolik ishlarini (mazkur shtatda tuzilgan ixtisoslashtirilgan sudlar sudloviya tegishli ishlardan tashqari) ko'rib chiqadilar. Ayrim shtatlarda okrug sudlari besh yilgacha muddatga, hatto bir yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish mumkin bo'lgan jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlarinigina ko'rib chiqishga haqlidirlar, bu esa mazkur shtatning appellatsion sudining alohida huquqlari doirasini kengaytiradi. Shu bilan birga okrug sudlari cheklangan yurisdiksiya sudlariga nisbatan yuqori turuychi instansiya sifatida ish ko'radilar, chunki ular qator holarda bu sudlarning qarorlariga keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqishga haqlidirlar. Okrug sudlarida ishlar yakka sudyя tomonidan yoki prisajniy maslahatchilar ishtirokida sudyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan sudlar umumiylar tizimi bo'g'inlaridan tashqari, har bir shtatda cheklangan yurisdiksiya sudlari ham mavjud bo'lib, bu sudlarga jarima bilan yoki qoidaga ko'ra, qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadigan kam ahamiyatli jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, da'vo miqdori kam, ko'pincha, 1 000 dollargacha bo'lgan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish topshirilgan. Bu sudlar municipal shahar sudlari, politsiya sudlari, ba'zan esa graflik sudlari, umumiylar sessiyalar sudlari kabi nomlar bilan yuritiladi. Ularda ishlar magistratlar yoki yarashtiruvchi sudyalar tomonidan ko'rib chiqilib, bu sudyalarning professional yuridik tay-yorgarlikka ega bo'lishi majburiy emas.

Ko‘pgina shtatlarda maxsus yurisdiksiya sndlari ham mayjud bo‘lib, ular ayrim hollarda mustaqil, boshqa hollarda esa, okrug sndlari qoshida tashkil etiladi. Bularga soliqlar bo‘yicha, yer nizolari bo‘yicha, meros ishlari bo‘yicha, shtat hokimiyatlariga *pretenziyalar* bildirish bo‘yicha sndlар, *yo‘l harakati qoidalarini buzish* to‘g‘risidagi ko‘p sonli ishlarni ko‘rib chiquvchi sndlар va hokazolar kiradi. Ular orasida voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha sndlар muhim o‘rinni egal laydi, bu sndlар ko‘pincha *oilaviy sndlар* funksiyalarini ham bajaradilar. Mazkur sndlар voyaga yetmaganlar sodir qilgan huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni muhokama qiladilar, o‘z farzandlari to‘g‘risida g‘amho‘rlik qilmaydigan ota-onalarga nisbatan choralar ko‘radilar, yomon oilalardagi tarbiya shart-sharoitlarini nazorat qiladilar, oilaviy mojarolarni hal qilishga urinadilar va sh.k.

Federatsiya va shtatlar darajasidagi muassasalar tizimida konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus organlar mayjud emas, chunki bu vazifa umumiy yurisdiksiya sndlari tomonidan amalga oshiriladi¹. Federal sndlari tizimi sudyalik lavozimlariga tayinlash Senat roziligi bilan AQSH prezidenti tomonidan amalga oshiriladi, bunda Senat prezident taklif qilgan nomzodni rad etish huquqiga ega. Federal sudyalikka nomzodlarga kasbiy mahorat jihatidan ham, axloq jihatidan ham yuqori talablar qo‘yiladi (advokat, yurist-maslahatchi yoki universitet professori sifatida katta ish tajribasiga ega bo‘lish, sha’niga dog‘ tegmaganlik va sh.k.). Federal sudyalar o‘z lavozimlariga umrbod tayinlanadilar, ularni faqat *impichmentdek* murakkab jarayon natijasida lavozimdan chetlatish mumkin.

Shtat sndlari sudyalik lavozimiga tayinlash turli qoidalar asosida o‘tkaziladi. Ko‘pgina shtatlarda oliv sndlар va appellatsiya sndlari sudyalari gubernator tomonidan Senat yoki shtatning boshqa qonun chiqaruvchi organi roziligi bilan 6-15 yil muddatga, ko‘pincha takroran tayinlanish huquqi bilan tayinlanadilar. Xuddi shu tartibda ayrim Amerika shtatlaridagi quyi turuvchi sud instansiylari sudyalari ham o‘z lavozimlarini egal laydilar. Biroq shtatlardagi ko‘pchilik sudyalar aholi tomonidan

¹ Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (Справочник) – М.: Изд. юрид. лит., 1993. – В. 183-185.

saylov kampaniyalari davomida saylanadilar. Bunday tizim garchi tashqi tomondan xalqchil ko‘rinsa-da, aslida ko‘pincha bu yerda nomzodlarni qo‘llovchi bir-biriga raqib siyosiy partiyalarning manfaatlari bиринчи о‘ringa chiqib qoladi, kasbiy va shaxsiy sifatlar esa e’tibordan chetda qoladi, shu sababli bu tizim AQSHda haqli ravishda tanqidga uchramoqda. Natijada ko‘pgina shtatlarda so‘nggi o‘n yilliklar davomida lavozimlarni egallah tizimining yangi variantlari ishlab chiqilmoqda.

Jinoyat ishlari bo‘yicha tergov o‘tkazish FBR tomonidan va boshqa ko‘plab federal xizmatlar tomonidan, shuningdek, tegishli shtatlar hokimiyatiga yoxud graflik, shahar yoki qishloq munitsipalitetiga bo‘ysunuvchi va bir-biridan mustaqil bo‘lgan ko‘p sonli politsiya muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Ular qamoqqa olish, gumon qilinuvchilarni so‘roq qilish, jinoyat dalillarini qidirish va to‘plashga haqlidirlar. Qamoqqa olish, tintuv va boshqa ayrim tergov harakatlari politsiya tomonidan sud sanksiyasini olgach o‘tkaziladi, istisno hollarda esa, bu harakatlar o‘tkazilganidan so‘ng sud sanksiyasi olinadi.

Qator hollarda dastlabki tergov yoxud har bir federal sud okrugida bo‘lgan federal attorneyning yoxud shtat bosh attorneyining, mahalliy (graflik, shahar va b.) attorneyning apparatlari tomonidan o‘tkaziladi. Mazkur mansabdor shaxslar mustaqil ravishda harakat qiladilar va bir-birlariga bo‘ysunmaydilar. Bundan tashqari, muayyan ishlari bo‘yicha qaror qabul qilishda federal okrug attorneylari adliya departamenti (vazirligi)ga rahbarlik qiluvchi AQSH bosh attorneyidan ham to‘la mustaqildirlar. Mohiyatan, barcha darajadagi attorneylar jinoi ta’qibni qo‘zg‘atishda va ayblanuvchini sudga berish masalasini hal qilishda hal qiluvchi o‘ringa egalar. Ko‘philik shtatlarda, shuningdek, maxsus organ – katta jyuri ham saqlanib qolgan bo‘lib, uning tarkibiga 12-23 pris-yajniylar kiradi va ular ishni sudga o‘tkazish uchun ayblovdan yetarli dalillar mavjudligini tekshiradilar (ayrim hollarda katta jyuri tergov organi sifatida ham ish ko‘rishi mumkin).

Attorneylarning eng muhim vazifasi – sudda ayblovni qo‘llashdir. Sudga berish bosqichida ayblov vakillari aksariyat hollarda ayblanuvchini aybiga iqror bo‘lish to‘g‘risidagi bitimni tuzishga majbur qiladilar. Bu shuni anglatadiki, ayblanuvchi

o‘zining ishi prisyajniylar sudi ishtirokisiz ko‘rilihiga rozilik beradi, buning o‘rniga unga uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatda ayblast bilan cheklanishga (masalan, bosqinchilik o‘rniga o‘g‘rilikda) yoxud o‘lim jazosi yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashni talab qilmaslikka va’da beriladi. Attorneyslar sud prisyajniylari tomonidan chiqarilgan oqlov hukmlaridan tashqari, jinoyat ishlari bo‘yicha chiqarilgan boshqa hukmlar ustidan yuqori turuvchi sudga shikoyat keltirishga haqlidirlar. Attorneyslar shuningdek, AQSH tarafi sifatida, yoxud bunda Amerika davlati (federal attorneyslar) yoki ayrim shtatlar, grafliklar, shaharlarning manfaatdorligi bo‘lsa, birinchi instansiya sudlarida va fuqarolik ishlari bo‘yicha appellatsion shikoyatlarini ko‘rib chiqishda qatnashishga haqlidirlar. Federal attorneyslar Senat roziligi bilan AQSH prezidenti tomonidan tayinlanadilar. Ko‘pgina shtatlarda mahalliy darajadagi attorneyslar aholi tomonidan saylanadilar va, qoidaga ko‘ra, u yoki bu siyosiy partiyaning qo‘llab-quvvatlashi natijasida o‘z lavozimlarini egalaydilar.

Amerika sudlaridagi ishlarni taqdim qilishning tortishuvli jarayonida yuristlarning o‘rni beqiyosdir. Taraflar o‘zlarining advokatlari orqali sudda o‘z qarashlari va vajlarini bayon qiladilar. Garchi sudda xususiy shaxslar vakilsiz ishtirok etishga haqli bo‘lsalar-da, biroq ishni samaraliroq hal qilish uchun advokatlar juda zarurdirlar.

Jinoyat ishlari bo‘yicha ayblanuvchilar manfaatlarini himoya qilish va fuqarolik jarayonida taraflarga vakillik qilish advokatlar tomonidan amalga oshirilib, AQSHda advokatlar huquq vakolatlari bo‘yicha toifalarga bo‘linmaydilar, biroq bu ularga u yoki bu masalalar bo‘yicha yoki faoliyat turlari bo‘yicha ixtisoslashishga halal bermaydi. AQSH Oliy sudining so‘nggi o‘n yilliklarda chiqargan va jinoyat-protsessual xarakterdagи konstitutsiyaviy qoidalarga bag‘ishlangan qarorlariga muvofiq, ayblanuvchi ushlangan vaqtidan boshlab ishda o‘z himoyachisi ning ishtirok etishiga haqlidir, agar ayblanuvchi advokat yollashga qurbi yetmasa, u tergov va sud muhokamasining eng muhim bosqichlarida, shuningdek, hukm ustidan shikoyat keltirish davrida bepul yuridik yordam olishga haqlidir. Biroq ko‘pgina shtatlarda bepul yuridik yordamdan faqatgina ozod-

likdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi xavf solib turgan ayblanuvchilar foydalanishlari mumkin, yuridik yordamning o'zi esa aksariyat hollarda tajribasiz yoki bunday turdag'i ishlari boshidan oshib yotgan advokatning so'roq qilishda qatnashiishi va ishda ishtirok etishi bilan cheklanadi.

So'nggi o'n yilliklarda qashshoqlarga yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha ommaviy agentliklarning (public defenders agencies) a'zolari bo'l mish yuristlar amalga oshirayotgan himoya turi keng tarqalmoqda. Bunday agentliklar ko'proq mahalliy budgetlar hisobidan¹, assotsiatsiyalar a'zolarining badallari va hayriya ehsonlari hisobidan moliyalashtiriladi. Tabiiyki, bunday manbalar har doim ham yetarli bo'lavermaydi va, odatda, yordamga muxtoj bo'lganlarga kerakli yordamni to'la ta'minlashga imkon bermaydi.

Bunday vaziyatning sababi oddiy va barcha mamlakatlarda gi yuristlarga ma'lum – jinoyat ishlari bo'yicha sifatli yuridik yordam ko'rsatishga tajribali advokatlarni jalb qilish uchun katta gonorarlarga kifoya qilmaydi, ekspertlarni taklif qilish, himoya dalillarini qidirib topish (bu esa ko'proq xususiy detektivlar yordamida amalga oshiriladi, ularga ham to'lash zarur) va shu kabi harakatlarni bajarish uchun katta harajatlar qilish kerak bo'ladi. AQSH va anglo-sakson jinoyat-sudlov tizimida gi boshqa mamlakatlarda ko'p kuch va vositalarni talab qiladigan himoya dalillarini topish va toplash himoya tomonigagina yuklanganligi sababli, bunday harajatlarga zarurat juda sezilmoqda².

Advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanish huquqini olish uchun aksariyat shtatlarda sudlar tomonidan tashkil qilinadigan imtihonlardan o'tish talab qilinadi. Ko'pgina shtatlarda (biroq

¹ Jinoyat ishlari bo'yicha kam ta'minlangan shaxslarni himoya huquqi bilan ta'minlash federal sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi, ularga ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun moliyaviy ta'minot federal sudlarining AQSH ma'muriy sud idoralari nazoratida bo'lgan budget hisobidan qoplanadi. Ushbu ma'muriy sud idoralarining ma'lumotiga ko'ra, federal sudlari tomonidan 2000-yil ayblanuvchilarga nisbatan ko'rsatilgan to'la yoki qisman bepul yuridik xizmat 70% tashkil etgan.

² Гуценко К.Ф., Головко Л.В., Филимонов Б.А. Уголовный процесс западных государств. Изд. 2-е. доп. и испр. -М.: «Зерцало-М», 2002, - B.203-204.

hammasida emas) bunday imtihonni topshirishga ruxsat olish uchun oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplom taqdim qilinadi. Imtihon topshirganidan so'ng advokatlik amaliyotiga ruxsat berilgan shaxs mazkur shtatdagi barcha sudlarda ishtirok etish huquqini oladi. Boshqa shtatlardagi sudlarda ishtirok etish uchun advokat yoki yangidan imtihon topshirishi, yoki tegishli ruxsatnomaga olishi kerak bo'ladi. So'nggi qoida federal sudlarga ham tegishlidir.

Amerikalik advokatlar advokatlik mahkamalari tarkibida yoki mustaqil ravishda ish yuritadilar. Korporatsiyalarda ishlovechi advokatlar hamda davlat attorneylari shtat yuristlari assotsiatsiyalariga birlashadilar (ayrim shtatlarda tegishli amaliyot bilan shug'ullanish uchun bunday assotsiatsiyaga a'zo bo'lish majburiy shart hisoblanadi). Butun mamlakat miqyosida bunday birlashmalarning faoliyati Amerika yuristlar assotsiatsiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi va yo'naltiriladi. Amerika yuristlar assotsiatsiyasining 400 000 ga yaqin a'zosi bo'lib, u o'ta nufuzli siyosiy kuch hisoblanadi. Mazkur assotsiatsiya shtatlar qonun hujjatlarining yaqinlashuv jarayonlarida muhim o'rin egallaydi, federal qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritishni taklif etadi, kasbiy etika masalalari bilan shug'ullanadi va hokazo¹.

15.4. Fransiya

Hozirgi vaqtida Fransiyada amalda bo'lgan sud va prokurorlik muassasalari tizimining asosi Birinchi imperiya zamonda, ya'ni XIX asr boshida qo'yilgan. 1958–1963-yillardagi islohotlar natijasida bu tizimda muhim o'zgarishlar yuz berib, ularning asosiy mazmuni yarashtiruvchi sudlar institutini tugatish va sud instansiyaning umumiy sonini ularni yiriklashtirish va sudlov vakolatini o'zgartirish yo'li bilan qisqartirishdan iborat bo'ldi.

Prezidentlik hokimiyatining ko'payishi, sud-prokurorlik organlarining to'laligicha prezidentga bo'ysunishi, maxsus

¹ Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (Справочник) – М.: Изд. юрид. лит., 1993. – В. 185-187.

tribunallar va Davlat xavfsizligi sudining ta'sis etilishi, sudlar va tribunallarning siyosiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha vakolat doirasini kengaytirish – zamonaviy Fransiyadagi sud va prokuratura organlarining tuzilishi hamda faoliyatining o'ziga xos jihatlari shulardan iborat. Barcha sudlar umumiy va maxsus sudsinga bo'linadi. Umumiy sudlar tizimida birinchi instansiya sudlarini, appellatsiya va cassatsiya sud instansiylarini farqlash mumkin.

Umumiy sudlar tizimiga boshchilik qiluvchi Kassatsion sud Fransiyadagi eng ko'hna davlat muassasalaridan hisoblanadi. Kassatsion sud Parijda joylashgan bo'lib, 1967-yildagi islohotdan so'ng uning tarkibiga olti palata – fuqarolik ishlari bo'yicha beshta va jinoyat ishlari bo'yicha bitta palata kiradi. O'z navbatida «fuqarolik» palatalari fuqarolik ishlari bo'yicha birinchi, ikkinchi va uchinchi palatalarga, savdo va moliya palatasiga hamda ijtimoiy masalalar bo'yicha palatalarga (bu palata ijtimoiy sug'urta, mehnat shartnomalari kabi masalalar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqadi) bo'linadi.

Kassatsion sud qarorlari palatalarning biri tomonidan yoxud uch palata vakillaridan tashkil topgan aralash palata tomonidan, va nihoyat, sudning birinchi raisi, palatalar raislari va oqsoqollari (duayenlar) va har bir palatadan ikkitadan vakildan tarkib topgan plenum tomonidan chiqariladi. Ishlarning aksariyati palatalarning birortasi tomonidangina ko'rib chiqiladi. Kassatsion sud vakolatiga quyi turuvchi sudsining qarorlariga keltirilgan cassatsiya shikoyatlarni ko'rib chiqish kirib, mazkur qarorlar bo'yicha odatdagい appellatsion tartibda shikoyat keltirish uchun asoslar bo'lishi ham mumkin. Bunda sud fakt bo'yicha emas, balki faqat huquq masalalar – qonunning noto'g'ri qo'llanilishi va protsessual me'yirlarning buzilishi bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Jinoyat ishlari bo'yicha Kassatsion sud sudlangan shaxsning manfaatlarini ko'zlab, qonuniy kuchga kirgan hukmlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqishga haqli, bunda oqlov hukmlari ustidan shikoyat keltirish huquqiga faqat sudlangan shaxs ega bo'ladi. Kassatsion sud quyi sudning qarori yoki hukmini bekor qilgach, odatda, ishni o'z tavsiyalari bilan o'sha darajadagi boshqa sudga yangidan ko'rib chiqish uchun yuboradi.

Biroq ishdagi barcha faktik holatlar shubha uyg'otmasa, Kassatsion sud o'zining oxirgi qarorini chiqarishga haqlidir. Kassatsion sud faqat konkret ishlar yuzasidan qaror chiqaradi, biroq bu qarorlar sudlar tomonidan shunga o'xhash ishlar muhokamasi chog'ida yoxud u yoki bu huquqiy institatlarni talqin qilishda yo'llanma sifatida xizmat qilganligi sababli, sud amaliyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va butun mamlakat miq-yosida qonunni bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, jinoyatlar bo'yicha siyosatning ko'pgina jiddiy masalalarini odatda mustaqil hal qiluvchi jinoyat ishlari bo'yicha palata qarorlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Fransiya appellatsiya sudlarining hozirgi vaqtdagi soni qu-yidagicha: qit'ada 30 ta appellatsiya sudi, ularning yurisdiksiyası bir necha (ikkitadan to'rttagacha) departamentni qamrab oladi hamda Fransiyaning dengizorti hududlarida faoliyat yurituvchi beshta appellatsiya sudi. Appellatsiya sudlarida, odatda, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha bir nechta palatalar bo'ladi, ayrimlarida esa, shuningdek, *savdo ishlari* bo'yicha va *ijtimoiy masalalar* bo'yicha palatalar ham mavjud.

Jinoyat ishlari bo'yicha palatalar palata raisi va sudning ikki a'zosi tarkibida jinoiy deliktlar va qilmishlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha quyi sudlarning qarorlariga keltirilgan appellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadilar (og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha prisyajniylar sudi hukmlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat keltirilishi mumkin emas). Jinoyat ishi bo'yicha appellatsiya shikoyatini ko'rib chiqqach, palata appellatsiya sudi nomidan yoki hukmni o'z kuchida qoldiradi, yoki uni bekor qilib, odatda, o'zi ish bo'yicha yangi qaror (mohiyatan, hukm) chiqaradi. Faqat zarur hollardagina, palata ishni mazmunan ko'rib chiqish uchun quyi turuvchi sudga yuborishi mumkin. Har bir appellatsiya sudi tarkibida bir yoki undan ortiq ayblov kameralari mavjud bo'lib, ular kamera raisi va ikki sud a'zosidan tashkil topadi. Ayblov kamerasi dastlabki tergov ustidan, xususan, ayblanuvchini dastlabki qamoqqa olish ustidan nazorat organi sifatida, shuningdek, sudga berish organi sifatida ish yuritadi. Fuqarolik ishlari bo'yicha palatalar umumiy yurisdiksiyadagi quyi turuvchi fuqarolik sudlari hamda boshqa sud organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarga keltirilgan appellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadilar.

Birinchi instansiya sndlari fuqarolik ishlarini muhokama qilish bo'yicha katta protsess tribunallari va kichik protsess tribunallariga, jinoyat ishlarini muhokama qilish bo'yicha esa prisyajniylar sudiga, axloq tuzatish tribunallari va politsiyaviy tribunallarga bo'linadi. Fransuz sndlari dagi «tribunal» iborasi ularning favquloddalik xususiyatini ifodalamaydi, balki aksincha, ularning sndlarga nisbatan vakolat doirasi cheklanganligini bildiradi. Fransiyadagi 36 departamentning har birida kamida bittadan *katta protsess tribunal* (ularning soni – 181ta) bor.

Katta protsess tribunallarida ishlar, odatda, kamida uchta sudyadan iborat hay'atlarda ko'rilib, ayrim toifadagi ishlar bo'yichagina, tomonlar roziligi bo'lsa, sudyaning yakka tartibda ko'rishiiga yo'l qo'yiladi. Katta protsess tribunal vakolatiga da'vo summasi 30 000 frankdan ko'p bo'lgan mulkiy xarakterdag'i fuqarolik ishlarini, shuningdek, aniq belgilangan toifadagi ishlarning katta qismini (bularga ko'chmas mulk to'g'risidagi, nikoh va nikohni bekor qilish to'g'risidagi, farzandlikka olish to'g'risidagi, fuqarolik to'g'risidagi va hokazolar kiradi) muhokama qilish kiradi. Agar katta protsess tribunal okrugida savdo tribunal bo'lmasa, uning vazifalarini ham katta protsess tribunal bajaradi.

Kichik protsess tribunallari (1983-yildagi islohotdan so'ng ularning soni 470 taga yetgan) 1958-yilda har bir kanton aholisi tomonidan saylangan va 1790-yildan mavjud bo'lgan yarash-tiruvchi sndlар o'rniga ta'sis etildi. Bu tribunallar barcha departamentlar va okruglarning bosh shaharlarida, shuningdek, ayrim yirik kantonlarda joylashgan. Har bir kichik protsess tribunalida ishlar suda tomonidan yakka tartibda ko'rildi. Mazkur tribunal vakolatiga belgilangan toifadagi ishlarni, jumladan, 30 000 frankkacha miqdordagi mulkiy xarakterdag'i da'volar bo'yicha ishlarni muhokama qilish kiradi (da'vo miqdori 13 000 frankkacha bo'lgan ishlar bo'yicha qarorlar ustidan appellatsiya tartibida shikoyat keltirilishi mumkin emas).

Mutlaq vakolatiga ko'ra og'ir jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlarini ko'ruchchi prisyajniy sndlari Parijda va har bir departamentda yig'ilish o'tkazadilar va tegishli nomlarga egadirlar. Har bir sud tarkibiga rais (appellatsion sud a'zosi) boshchiligidagi uchta professional suda hamda to'qqizta pris-

yajniy maslahatchilar kirib, prisyajniy maslahatchilar o‘z vazifalarini bajarish uchun maxsus komissiyalar tanlovidan so‘ng qur‘a tashlash yo‘li bilan saylovchilarniing departament ro‘yxatlari bo‘yicha chaqiriladilar. Sud sessiyalari har chorakda, zarur hollarda esa bundan ham tez-tez o‘tkazilib turadi.

Prisyajniylar maslahatxonada professional sudyalar bilan birgalikda hukm uchun muhim bo‘lgan barcha, shu jumladan, jazo tayinlash to‘g‘risidagi masalalar yuzasidan qaror qabul qiladilar. Prisyajniylar sudi qarori ko‘philik ovoz bilan qabul qilinadi, biroq ayblanuvchining ahvolini og‘irlashtiruvchi qaror, shu jumladan, aybni yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligini rad etish to‘g‘risidagi qaror ovoz berishda qatnashuvchilarning 12 tasidan kamida 8 tasining ovozi bo‘lganda qabul qilinadi. Boshqa birinchi instansiya sudlarining qarorlaridan farqli prisyajniylar sudi qarori chiqarilganidan so‘ng birinchi va so‘nggi instansiyada qabul qilindi deb hisoblanadi va uning ustidan appellatsion tartibda shikoyat keltirilishi mumkin emas, oqlov hukmi ustidan ayblov tomonidan kassatsiya tartibida shikoyat keltirilishiga ham o‘rin yo‘q.

Axloq tuzatish tribunallari birinchi instansiyada *jinoiy deliktlar* to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadilar (Fransiya JKning 1-moddasida jinoiy deliktlar uchun jazolar axloq tuzatish jazolari deb nomlanganligi bois, «axloq tuzatish» iborasi kelib chiqqan). Axloq tuzatish tribunal sifatida navbat bilan fuqarolik ishlarini ham, jinoyat ishlarini ham ko‘rvuchi katta protsess tribunal ham ish yuritishi mumkin. Ish hajmi katta bo‘lgan katta protsess tribunallarida sudyalar soni ko‘p bo‘lib, jinoyat ishlarini ko‘rishga ixtisoslashuvchi bir yoki bir necha palata tashkil etiladi, ya’ni bunday palata axloq tuzatish tribunal sifatida doimiy ish yuritadi. Axloq tuzatish tribunallarida ishlar uch sudyadan iborat hay’at tarkibida ko‘rib chiqiladi. 1975-yilda ayrim katta protsess tribunallarida iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi jinoiy deliktlar to‘g‘risidagi o‘ta murakkab ishlarni muhokama qilishga ixtisoslashgan sudyalar hay’atlari tuzilgan edi.

Politsiyaviy tribunallar birinchi instansiyada kam ahamiyatli jinoiy qilmishlar – jazosi 10 000 frank miqdordagi jarima yoki, kamdan-kam hollarda, bir kundan ikki oygacha muddatga qamoqqa olish bo‘lishi mumkin bo‘lgan qilmishlar

to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi («politsiyaviy» iborasi shu bilan bog‘liqki, Fransiya JKning 1-moddasida qilmishlar uchun jazolar politsiyaviy jazolar deb ataladi). Ularda ishlar navbatini bilan fuqarolik ishlarini ham, jinoyat ishlarini ham ko‘rvuchi kichik protsess tribunalni sudyasi tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi (ayrim hollarda politsiyaviy tribunal sifatidagina ish yurituvchi, ya’ni faqat jinoyat ishlarini ko‘rishga ixtisoslashgan kichik protsess tribunallari tashkil etiladi).

Umumiy sudlar tizimiga ixtisoslashgan bo‘linmalar sifatida voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha adliya muassasalari kira-di. Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha prisyajniylar sudi 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarni og‘ir jinoyatlarni sodir qilishda ayblastish yuzasidan ishlarni ko‘rib chiqadi. U uch professional sudyadan va to‘qqiz prisyajniydan iborat. 13-18 yoshdagagi voyaga yetmaganlarning jinoiy deliktlari va eng jiddiy qilmishlari, shuningdek, 13-15 yoshdagagi o‘smlarning og‘ir jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlar katta protsess tribunallari okruglarida tashkil etiluvchi voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha tribunallar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Mazkur tribunallar voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha suda va yoshlar tarbiyasi muammolariga qiziqish ko‘rsatgan shaxslar orasidan adliya vaziri tomonidan tayinlanuvchi *ikki maslahatchidan* (asessordan) tashkil topadi. Sudya voyaga yetmaganlarning jinoiy deliktlari va qilmishlari to‘g‘risidagi ishlarni yakka tartibda ham ko‘rishi mumkin, biroq bu holda u ularga nisbatan faqat tarbiyaviy va nazorat xususiyatidagi choralarни qo‘llashga haqli bo‘ladi. Sudya va voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha tribunal chiqargan qarorlar ustidan *maxsus appellatsion sud palatasiga* shikoyat keltirilishi mumkin.

Fransuz jinoyat adliya tizimining o‘ziga xos qirralaridan biri jazoni ijro qilish bo‘yicha sudyaning mavjudligi bo‘lib, 1958-yildagi JPK va keyingi chiqqan qonunlar bergan vakolatlarga muvofiq, u mahkumning jazoni, shu jumladan, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash jarayoniga faol aralashishga haqlidir. U sinov bilan jazosi kechiktirilgan mahkumlar ustidan nazoratni tashkil qiladi, ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni saqlash rejimini o‘zgartirish to‘g‘risidagi, ularga ta’tillar berish to‘g‘risidagi masalalarni hal qiladi, ular-

ni muddatidan ilgari shartli ozod qilish to‘g‘risida iltimosnomasi kiritadi va hokazo. Jazoni ijro qilish bo‘yicha sudyalik vazifasi uch yil muddatga katta protsess tribunali sudyalaridan biri zimmasiga yuklatiladi.

Umumiylar tizimiga, avvalo, kichik protsess tribunali darajasida, muayyan toifadagi ishlarni muhokama qilishga ix-tisoslashgan bir qator sud muassasalari tutashadi. Ular qatoriga *savdo tribunallari, pryudomlar kengashlari, ijtimoiy sug ‘urta bo‘yicha komissiyalar, yer ijarasi bo‘yicha paritet tribunallari, dengiz savdosi bo‘yicha tribunallar* va shu kabilar kiradi. Ulardan savdo tribunallari va pryudomlar kengashlari ko‘proq ahamiyatga egadir.

Parlamentning ikkala palatasi tomonidan ularning a’zolaridan teng miqdorda (12 tadan sudya va ularning 6 tadan o‘rnbosari) saylanadigan Odil sudlov yuqori sudi umumiy sudlar tizimidan tashqarida bo‘lib, alohida o‘rinni egallaydi. 1958-yilgi Konstitutsiyaga muvofiq, Odil sudlov yuqori sudi xizmat vazifasini bajarish chog‘ida mamlakat prezidentini davlatga xiyonatda ayblash yuzasidan, shuningdek, vazirlarni og‘ir jinoyatlar va jinoiy deliktlarni sodir qilishda ayblash yuzasidan jinoyat ishlarni ko‘rish uchun tuziladi. Bunday ishlarni tergov qilish va ayblanuvchilarni Odil sudlov yuqori sudiga berish faqat parlamentning har ikkala palatasi qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, 1993-yil 27-iyuldagagi Konstitutsiyaviy Qonun bilan tuzilgan Respublika odil sudlov Palatasi ham mavjud bo‘lib, mazkur Palata ham, Odil sudlov yuqori sudi kabi, siyosiy jinoiy sud toifasiga kiradi. Respublika odil sudlov Palatasi hukumat a’zolarining *mansab jinoyatlari yoki qilmishlari* uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish uchun ta’sis etilgan. Muqaddam hukumat a’zolarining javobgarligi Respublika Prezidentining javobgarligiga o‘xshash bo‘lib, fuqarolar vazirlarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat keltirishga haqlari yo‘q edi.

Kassatsion sud rahbarligidagi umumiy sudlar tizimidan mustaqil ravishda ma’muriy adliya organlari tizimi faoliyat yuritadi. Ularda davlat boshqaruvi organlarining xususiy shaxslarning huquqlari va manfaatlariga daxl qilgan xatti-harakatlari

va aktlari ustidan keltirilgan shikoyatlar ko'rib chiqiladi. Ma'muriy adliya tizimiga Davlat kengashi rahbarlik qilib, u bir vaqtning o'zida davlat boshqaruv organi – hukumat qoshidagi maslahat muassasasi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi organlarning xatti-harakatlari va aktlari ustidan keltirilgan shikoyatlarning asosiy qismini birinchi instansiyada ko'rib chiqish ma'muriy tribunallar (ularning soni 25 ta) zimmasida bo'lib, ularning okruglari bir necha departament hududini qamrab oladi. Ummiy sudlar tizimidagi sudyalar o'z vazifalariga Respublika Prezidenti dekreti bilan; Kassatsion sudning mansabдор shaxslari va appellatsion sndlarning birinchi raislari magistratura Yuqori kengashi tavsiyasi asosida, qolgan sudyalar – magistratura Yuqori kengashining ijobiy xulosasi bilan adliya vazirining taqdimnomasi bo'yicha tayinlanadilar. Ma'muriy tribunallar sudyaları Ichki ishlar vazirining adliya vaziri bilan kelishilgan taqdimnomasi bo'yicha hukumat dekretlari bilan tayinlanadilar. Odatta, umumiy vakolatdagi sudyalar Milliy magistratura maktabini tugatgach va konkurs tanlovidan o'tgach tayinlanadilar (bu maktabga kirish uchun oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish lozim). Ma'muriy sud sudyaları Milliy ma'muriy mакtab bitiruvchilari orasidan tayinlanadi.

Kassatsion sud tarkibiga tayinlanish uchun yuqori talablar qo'yilgan bo'lib, bularga yuqori mansablardagi sudyalik lavozimida ish tajribasiga ega bo'lish, universitet professori sifatida ishslash kabilalar kiradi. Konstitutsiya (64-m.) umumiy vakolat sudyalarining almashtirilmasligi prinsipini e'lon qilgan. Sudya o'z vazifasidan faqat jiddiy qilmish sodir etganida yoki og'ir kasallikka yo'liqqanida Oliy magistratura kengashi tomonidan chetlatilishi mumkin. Sudya roziligidiz uni boshqa ishga, hatto yuqoriroq mansabga ham o'tkazilishi mumkin emas. Sudyalar 65 yoshlarida, 1988-yilda o'rnatilgan qoidalarga ko'ra, Kassatsion sud sudyaları va uning birinchi raisi tegishli ravishda 66 va 68 yoshlarida iste'foga chiqadilar.

Jinoyatlarning asosiy qismini tergov qilish sud politsiyasi tomonidan amalga oshirilib, mazkur politsiya ofitserlari mustaqil ravishda dastlabki surishtiruv o'tkazishga, boshqa mansabдор shaxslarning agentlari esa – ayrim protsessual harakatlarni o'tkazishga haqlidirlar. Ayniqsa, shunday deb nomlanuvchi

oslikor jinoyatlarni ular bevosita sodir etilishi bilanoq tergov qilishda sud politsiyasi ofitserlarining vakolatlari ulkandir. Politsiya surishtiruvidan so‘ng o‘tkaziladigan dastlabki tergov tergov sudyasi tomonidan o‘tkaziladi. Og‘ir jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazilishi majburiy, jinoiy deliktlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazilishi mumkin va faqat istisno holatlarda qilmishlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkaziladi. Tergov sudyalari o‘z vazifalariga katta protsess tribunal sudyalari orasidan uch yil muddatga tayinlanadilar. O‘z vazifalarini bajarish davomida ular katta protsess tribunal tarkibida qoladilar va hatto o‘zлari tergov qilgan ishlardan tashqari, boshqa ishlarning muhokama qilinishida ishtirok eta oladilar.

Sudda jinoiy ta’qib, qoidaga ko‘ra, prokuratura tomonidan amalga oshirilib, u ishni sudga oshirishni o‘z xohishiga ko‘ra rad etish bo‘yicha keng huquqlarga ega. Politsiyaviy tribunallarda 10 kungacha qamoq jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan qilmishlar bo‘yicha ayblovni politsiya komissarlari qo‘llab-quvvatlaydilar.

Fransiyada prokuratura adliya vaziri rahbarligidagi markazlashgan organlar tizimidan iborat bo‘lib, har bir appellatsion sudda o‘zining yordamchilariga ega bo‘lgan Bosh Prokuror faoliyat yuritadi va uning bosh yordamchisi *bosh advokat* deb ataladi. Bosh Prokuror bevosita adliya vaziriga bo‘ysunadi va o‘z navbatida, appellatsion sud hududidagi prokuraturaning barcha mansabdor shaxslariga rahbarlik qiladi.

Bosh Prokuror shaxsan yoki o‘rinbosarlari orqali appellatsion sudda va appellatsion sud joylashgan joyda tuzilgan prisyajniylar sudida ayblovni qo‘llab-quvvatlaydi. *Respublika prokurorlari* (Fransiyada quiy instansiya prokurorlari shunday deb nomlanib, ularning vakolat doiralari kengdir) axloq tuzatish tribunallari qoshida faoliyat yuritib, mazkur tribunal hududida barcha jinoyat ishlari bo‘yicha jinoiy ta’qibni amalga oshiradilar. Ular shaxsan yoki o‘rinbosarlari orqali prisyajniylar sudida, axloq tuzatish tribunallarida, shuningdek, zarur hollarda, politsiyaviy tribunallarda ayblovni qo‘llab-quvvatlaydilar. Prokura-tura vakillari shuningdek, «jamiat manfaatlari» talab qilgan

hollarda, barcha instansiya sudlaridagi fuqarolik ishlarida ham rasman qatnashadilar.

Kassatsion sud Bosh Prokurori o‘z apparati bilan prokura-tura organlari tizimida alohida o‘rimni egallaydi, chunki uning funksiyalari shu sudda ishtirok etish bilan cheklangan. Jinoyat protsessida ayblanuvchini himoya qilish hamda fuqarolik va ma’muriy protsesslarda tomonlarga vakillik qilish advokatlar zimmasiga yuklatilgan. Har bir katta protsess tribunal qoshida advokatlar hay’atlari bo‘lib, ular kengash va oqsoqol tomonidan boshqariladi. Hay’atga a’zo bo‘lish va shu orqali fransuz sudlarida ishtirok etish uchun oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lish, kasbiy tayyorgarlik markazlaridan biriga o‘qishga kirish uchun imtihon topshirish, u yerda bir yillik o‘quv kursini o‘tash va kasbiy layoqat to‘g‘risida sertifikat olish talab etiladi. Advokatlar individual amaliyot bilan shug‘ullanishlari yoki qo‘shma advokatlik idoralari tuzishlari mumkin. Kassatsion sud va Davlat kengashida ishtirok etishga Kassatsion sud qoshidagi (oltmishta a’zosi bor) hay’at tarkibiga qabul qilingan advokatlarga haqlidirlar.¹

15.5. Yaponiya

Hozirgi zamon Yaponiya sud tizimi 1947–1948-yillardagi postkonstitutsion islohotlar natijasida yaratildi. Bu tizim Oliy sudni, yuqori sudsarni, hududiy, oilaviy va boshlang‘ich sudsarni o‘z ichiga oladi. Yapon sud tizimiga rahbarlik Oliy sud tomonidan amalga oshirilib, u oliy sud instansiysi sifatida, oliy konstitutsiyaviy nazorat organi sifatida va quyi turuvchi barcha sudsar ustidan rahbarlik qiluvchi organ sifatida keng vakolatlarga egadir. Oliy sud nafaqat sudsarning, balki advokatlarning ish qoidalarini belgilaydi, bu qoidalarga prokurorlar ham rioxha etishlari lozim. Oliy sud Tokioda joylashgan bo‘lib, rais va 14 ta sud a’zosidan iborat.

Oliy sud so‘nggi instansiya sifatida fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha quyi sudsarning qarorlari va hukmlariga keltirilgan

¹ Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (Справочник) – М.: Изд. юрид. лит., 1993. – В. 212-219.

shikoyatlarni, odatda, besh sudyadan iborat hay'at tarkibida ko'rib chiqadi. Oliy sud o'z ish yurituviga ishning faktik holatlarini baholash yuzasidan emas, balki faqat huquq masalalari bo'yicha shikoyatlarni oladi (shikoyat keltirilayotgan qarorning xususiyati, uni chiqargan sud instansiyasining darajasi va hokazolarga ko'ra sud qarorlari ustidan shikoyat keltirishning bir necha turi mavjud). Oliy sud albatta to'la tarkibda qonun hujjatlari yoki ma'muriy aktlarning Konstitutsiyaga zidligi yuzasidan shikoyatlarni, shuningdek, Konstitutsiyani sharhlash yoki unga o'zgartirishlar kiritish yoxud Oliy sudning o'zining avvalgi qarorlariga o'zgartirish kiritish masalasi yuzaga kelgan ishlarni ko'rib chiqadi.

Yuqori sudlar (ular 8 ta bo'lib, mamlakatning turli qismalaridagi yirik shaharlarda joylashgan) asosan, appellatsion instansiya sifatida ish yuritib, uch sudyadan iborat hay'atda fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha quyi turuvchi sudlarning qarorlari va hukmlariga, jumladan ikkinchi instansiyada chiqarilgan qarorlarga keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, besh sudyadan iborat hay'atlarda davlatga qarshi jinoyatlar ko'rib chiqiladi. Oliy sud qaroriga muvofiq, zarur hollarda har bir yuqori sudning bitta-ikkita bo'linmasi (filiali) qo'shimcha ravishda ta'sis etilishi mumkin.

Yaponiya sud tizimining eng muhim bo'g'ini – hududiy sudlar bo'lib, ular 47 prefekturaning har birining markazida joylashgan (ularning aksariyati boshqa shaharlarda o'z bo'linmalariga ega). Ularda birinchi instansiyada yuqori va boshlang'ich sudlar sudloviga kiradigan ishlardan tashqari, fuqarolik va jinoyat ishlarining asosiy qismi ko'rildi (ayrim hududiy sud bo'linmalarining vakolatlari toifasiga ko'ra biroz cheklangan). Bu sudlar, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha boshlang'ich sudlar chiqargan qarorlarga keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Boshlang'ich sudlar – eng quyi instansiya bo'lib, da'vo miqdori kam bo'lган (bu miqdor vaqt-vaqt bilan Oliy sud tomonidan qayta ko'rib chiqib turiladi) fuqarolik ishlarini hamda jarima ko'rinishidagi jazo tayinlanishi mumkin bo'lган jinoyat ishlarini, shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladigan ayrim toifadagi jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni

ko'rib chiqadi (bu sudlar ko'pi bilan uch yil muddatga ozodlik-dan mahrum qilish jazosini tayinlashga haqlidirlar). Boshlang'ich sudlarda ishlar *yakka sudya* tomonidan ko'rib chiqiladi. Yapon sudlarining birortasida ham prisyajniylar mavjud emas. 1923-yilda prisyajniylar sudi ta'sis etildi, biroq prisyajniylar sudi tomonidan chiqarilgan hukm ustidan shikoyat keltirish mumkin bo'lma ganligi sababli ishi prisyajniylar ishtirokida ko'rinishiga haqqi bo'lgan shaxslarning 99% ulardan foydalanishdan bosh tortganlar. 1946-yildagi Konstitutsiyada va undan keyingi qonun hujjatlariida prisyajniylar sudi to'g'risida so'z yuritilmagan.

Konstitutsiyaviy nazorat, ya'ni qonun hujjatlari yoki ma'muriy aktlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish faqat Oliy sud tomonidan emas, balki quyi turuvchi sudlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin, ularning ayrimlari so'nggi o'n yilliklar ichida ham ichki, ham tashqi siyosatga daxldor muhim hukumat qarorlarini Konstitutsiyaga zid deb topish to'g'risidagi o'ta ilg'or nuqtayi nazardagi qarorlarni bir necha bor qabul qilganlar. 1947-yildan Yaponiyada ma'muriy adliya tizimi mavjud emas, shu sababli ma'muriy organlarning xatti-harakatlari ustidan keltirilgan shikoyatlar birinchi instansiada hududiy sudlarda fuqarolik ishlarining bir turi sifatida ko'rib chiqiladi.

Yaponiyada prokuratura o'z ahamiyatiga ko'ra muhim hisoblangan adliya vazirligi tizimi tarkibiga kiradi (vazirlik yurituvida bundan tashqari, immigratsion xizmatlar va «qo'poruvchi tashkilotlar» ustidan nazorat, qamoqxona muassasalari bor). Prokuratura Bosh Prokurorga bo'ysunuvchi markazlashgan tashkilot bo'lsa-da, uning tuzilishi avvalo, sud tizimiga muvofiqlashtirilgan: Oliy sud qoshida, yuqori, hududiy, oilaviy va boshqa sudlar qoshida (bosh) prokuratura xizmatlari mavjud. Prokurorlar eng muhim jinoyat ishlari bo'yicha cheklangan miqdorda tergov olib boradilar, qolgan barcha ishlar yuzasidan politsiya o'tkazadigan surishtiruv va tergov ustidan hamda jinoiy jazolarni ijro qilish ustidan nazorat olib boradilar.

Ular zarur hollarda jinoiy ta'qibni qo'zg'aydilar, ayblov xulosasini tuzadilar, uni sudga beradilar va sudda ayblovni qo'llab-quvvatlaydilar, shuningdek, sudda fuqarolik ishlarini muhokama

qilishda «jamoaat manfaatlarini» himoya qiladilar. Sudlov ishlarini yuritishning amaldagi qoidalariga muvofiq, prokuror ayblanuvchi va uning himoyachisiga o‘zida bo‘lgan barcha dalillarni taqdim qilishga majbur bo‘lmasligidek, ayblanuvchining foydasiga amal qiluvchi dalillarni, shu jumladan, uning *alibisini* tasiqlovchi dalillarni yashirishi mumkin. Prokuror shuningdek, sud muhokamasigacha sudyani ham ish materiallari bilan tanishtirishga majbur emas, u sudyaga boshqa hech qanday hujjatlarsiz ayblov xulosasining o‘zinigina beradi.

Konstitutsiyaga muvofiq, jinoyat ishlari bo‘yicha ayblanuvchini himoya qilish advokat tomonidan amalga oshirilib, advokat ayblanuvchining taklifi bilan, yoki advokatning xizmatiga haq to‘lashga imkonni bo‘lmasligi hollarda davlat tomonidan tayinlanadi. Yaponiyada barcha sudyalar o‘z lavozimlariga 10 yil muddatga tayinlanadilar. Tayinlanishlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan, aksariyat sudlarda Oliy sud tuzgan nomzodlar ro‘yxati asosida amalga oshiriladi (Oliy sud raisi imperator tomonidan tayinlanadi). 10 yil o‘tgach, suda o‘z lavozimiga qayta tayinlanishi mumkin, bu jarayon qonunda belgilangan iste’fo yoshiga (65 yoki 70 yosh) yetguncha davom etadi. Konstitutsiyada suda nufuzini oshirishga qaratilgan qator choralar ko‘zda tutilgan.

Xususan, Oliy sud a’zoligiga tayinlanishdan oldin Vakillar palatasiga o‘tkaziladigan navbatdagi saylovlari davomida «xalq ko‘rigi»dan o‘tish lozim. Agar saylovchilarning aksariyati biror-bir sudyani ishdan chetlatishni talab qilsa, u holda o‘suda suda o‘z lavozimididan mahrum bo‘ladi. Bunday protsedura har o‘n yilda qaytariladi. Mazkur qoidalar tashqi tomonidan juda samarali ko‘rinsa-da, ko‘pchilik yapon davlatshunoslari bunga jiddiy shubha bilan qaraydilar, chunki saylovchilarning ko‘pchiligi Oliy sud a’zolarini yaxshi bilmaydilar va ovoz berishga jiddiy ahamiyat bermaydilar. Barcha sudlar sudyalari o‘z vazifalaridan oshkora muhokama qilish natijasida impichment jarayoniga muvofiq chetlatishlari mumkin (impichment jarayoni sudyani ayplash parlamentning maxsus organlari tomonidan muhokama qilinishini bildiradi).

Sudyalik lavozimini egallash uchun, shuningdek, prokuror yoki advokat bo‘lish uchun qat’iy tanlov qoidalari belgilangan. Ko‘rsatilgan uch yo‘nalishning birida o‘zini amaliy faoliyatga

bag‘ishlashni xohlagan yapon universitetlari yuridik fakultetlarining bitiruvchilari adliya vazirligi maxsus komissiyasi tomonidan har yili o‘tkaziladigan imtihonlardan o‘tishlari lozim. Bu komissiya qo‘yadigan talablar shunchalik yuqoriki, imtihon topshiruvchilarning 2–3% gina bu talablarga javob bera oladi. Yaponiyada professional yuristlar korporatsiyasi o‘z hamkasblari sonini ataylab cheklaydi: 120 mln aholisi bo‘lgan mamlakatda 2000 sudya, 2100 prokuror, 12000ga yaqin advokat bo‘lib, bu boshqa kapitalistik mamlakatlardagidan ancha kamdir. Yaponiyada yangi kadrlarning asosiy manbayi bo‘lmish adliya xodimlarini tayyorlash kurslari g‘alviridan yiliga ko‘pi bilan 500 kishi o‘tadi¹.

Qonun manbalari

1. Конституции мира: Сборник конституций государств мира. Т. 1-6 /Отв. ред. А.Х. Сайдов, У. Таджиханов. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 1998.
2. Конституции зарубежных государств. / Сост. В.В. Маклаков. – М.: БЕК, 1996.
3. Уголовный кодекс ФРГ. –М.: Юрид. колледж МГУ, 1996.

Maxsus adabiyotlar

1. Абдумаджидов Г.А., Саркисянц Г.П. Правосудие и Уголовный процесс Франции. – Т.: 1992.
2. Апарова Т.В. Суды и судебный процесс Великобритании. Англия, Уэльс, Шотландия. –М.: 1996.
3. Апарова Т.В. Статус судей в Великобритании. // Журнал Российского права. 1999. №7-8.
4. Боботов С.В. Буржуазная юстиция. Состояние и перспективы развития. – М.: Наука, 1989.
5. Боботов С.В. Правосудие во Франции. – М.: 1994.
6. Боботов С.В. Введение в правовую систему США. – М.: Норма. 1997.
7. Безнасюк А.С., Рустамов Х.У. Судебная власть: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2002.

¹Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (Справочник) – М.: Изд. юрид. лит., 1993. –В. 249-251.

8. Головко Л.В. Реформа уголовного процесса во Франции// Государство и право, 2001, №8.
9. Гуценко К.Ф., Уголовная юстиция США. –М.: Юрид. лит., 1979.
10. Даниэл Джон Мидор. Американские суды. Изд-во: Уэст Паблишинг Компани. Сент-Пол. Миннесота. 1991.
11. Жидков О.А. Верховный суд США: право и политика. –М.: Наука, 1985.
12. Карлен Д. Американские Суды: система и персонал. –М.: Прогресс, 1972.
13. Ковалев В., Чаадаев С. Органы расследования и судебная система Великобритании. –М.: 1985.
14. Марченко М. Сравнительное правоведение. Общая часть. –М.: 2001.
15. Николайчик В.М. Уголовный процесс США. –М.: Наука, 1981.
16. Поленский Н.Н. Уголовное право и Уголовный суд Англии. –М.: Юрид. лит., 1969.
17. Правовые системы стран мира. Энциклопедический справочник /отв. ред. -д. ю. н. проф. А. Сухарев. 2-е изд., изм. и доп. –М.: НОРМА. 2001.
18. Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира (справочник) –М.: Юр. лит. 1993.
19. Романов А. Правовая система Англии. –М., 2000.
20. Сайдов А.Х. Сравнительное правоведение. –Т.: Адолат, 1999.
21. Судебные системы западных государств. /Отв. ред. Тумаков В. А. -М., 1991.
22. Суд и правосудие в СССР. Учебник / Под ред. Галкина Б.А. –М.: Юрид. лит., 1981.
23. Уильям Бернэм. Суд присяжных заседателей. –М.: Московский независимый институт международного права. 1997.
24. Филиппов С.В. Судебная система США. –М.: Наука, 1980.
25. Филимонов Б.А. Основы уголовного процесса Германии. –М.: 1994.
26. Цунео Инако. Современное право Японии. –М.: 1981.


ILOVA

KALIFORNIYA ILLINOYS AYOVA VIRJINIYA

AQSH SUD TIZIMI

Shtatlarda federal sudlar tizimi

Sud tizimi



VIRJINIYA SHTATI SUD TIZIMINING TUZILISHI

Oliy sud

- 7 sudyda to'liq tarkibda yig'iladi
- Majburiy yurisdiksiya jinoiy va intizomiy ishlari bo'yicha o'tkaziladi;
- Diskretsiyon yurisdiksiya fuqarolik va jinoiyat ishlari bo'yicha, o'lim jazosini nazarda tutilmagan, voyaga yetmaganlarning, dastlabki ko'rib chiqish, oraliq ko'rib chiqish.

Eng yuqori instansiya sudi

Apellatsiya sndlari (6 sud. okruglar)

- 88 sudyda hay'at tarzida yig'iladi
- Majburiy yurisdiksiya o'lim jazosini nazarda tutilmagan fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha;
- Diskretsiyon yurisdiksiya ma'muriy, birlamchi ko'rib chiqish, dastlabki hal

Oraliq instansiya-sining appellatsiya sndlari

Yuqori turuvchi sndlari (58 graflik)

- 7725 sudyalar, 113 komissarlar va arbitrlar (prisyajniylar sudi)
- Fuqarolik huquqbuzilishlar, kontraktlar, (25 000 dol. va undan yuqori bo'lgan), boshqa fuqarolik ishlari. Oila, vorislik, psixik sog'lik masalalari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya. Transport vositasini mast holda boshqarish. Jinoyat ishlari bo'yicha shikoyatlar, feloniyasi sudlovi bilan bog'liq ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya. Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklari bo'yicha mutlaq

Umumiy yurisdiksiya sndlari

Munitsipal sud (88 ta sndlari) 566 ta sudyalar, 134 ta referi va komissarlar Prisyajniylar sudi, mayda shikoyat va qonunbuzarliklardan tashqari
- Fuqarolik huquqbuzarliklar, shartnomani, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqbuzishlar, (25000 dol.gacha.), mayda shikoyatlar (2000 dol.gacha), turli fuqarolik ishlari;
- Chegaralangan feloniyalar, mayda bezoriliklar, transport vositasini mast holda boshqarish;
- Yo'l qoidalarini buzish va b.

Mirovoy sudi (76 sndlari) 76 sudyalar
Prisyajniylar sudi, kam ahamiyatlidir mayda shikoyat va qonunbuzarliklardan tashqari
- Fuqarolik huquqbuzarliklar, shartnomani, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqbuzilishlar, (25000 dol.gacha.), shikoyatlar (2000 dol.gacha), turli fuqarolik ishlari;
- Chegaralangan feloniyalar, mayda bezoriliklar, transport vositasini mast holda boshqarish;
- Yo'l qoidalarini buzish va b.

AYOVA SHTATI SUD TIZIMINING TUZILISHI

Oliy sud

7 sudyda to'liq tarkibda yig'iladi

- Majburiy yurisdiksiya yuristlarga nisbatan intizomiyl, ma'muriy, o'lim jazosi nazarda tutilgan ishlari bo'yicha;
- Diskretcion yurisdiksiya fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha, o'lim jazosi nazarda tutilmagan, voyaga yetmaganlarning, dastlabki ko'rib chiqish, oraliq ko'rib chiqish.

Eng yuqori
instansiysi
sudi

Apellatsiya sudi

10 sudyda kollegiya bo'yicha qatnashadi

- Majburiy yurisdiksiya ayrim fuqarolik ishlari, ma'muriy, shuningdek, birinchi instansiya da ko'rib chiqiladigan, dastlabki qaror;
- Diskretcion yurisdiksiya o'lim jazosi nazarda tutilmagan jinoyat ishlari bo'yicha.

Oraliq
instansiysi
ning appellat-
siya sndlari

Okrug sndlari (31 okrug) 122 sudyalar.

Prisyajniylar sudi Fuqarovyiy huquqbuzilishlar, kontraktlar, oila, vorislik, psixik sog'liq masalalari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya.

- Mutlaq yurisdiksiyaga oila munosabatlari (aliment, otaliqqa olish kabilari), birinchi instansiya sndlari harakatlari ustidan fuqarolik shikoyat, meros to'g'risidagi ishlari;
- Mayda jinoyatlar yuzasidan shikoyatlar. Feloniya ishlari bo'yicha mutlaq yurisdiksiya;
- Munitsipalitet qarorlarini buzish.

Umumiy
yurisdiksiya
sndlari

Okrug sudi (204 umumiy sud, oila va voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha sndlari)

108 umumiy okrug sndlari va 73 oila va voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha okrug sndlari.

- Fuqarolik huquqbazarliklar, kontraktlar, ko'chmas mulk (7000 dol.gacha), alimentlar va bola olish, psixik sog'lik, Ferfaks. Grafligidagi mayda da'volar;
- Qilmishlar. Mutlaq yurisdiksiyaga transport vositasini mast holda boshqarish, cheklangan yurisdiksiyaga feloniya bilan bog'liq munosabat kiradi;
- Munitsipalitet qarorlarini buzish. Mutlaq yurisdiksiyaga tranport vositasini mast holda boshqarish, transportlarni to'xtash joyiga

Yurisdiksiya-
si
chegaralangan

KALIFORNIYA SHTATI SUD TIZIMINING TUZILISHI

Oliy sud

7 sudyda to'liq tarkibda yig'iladi

- Majburiy yurisdiksiya ma'muriy faoliyat bilan, voyaga yetmaganlar, yuristlarga nisbatan intizomiy chora, birinchi instansiya sudi ko'rishi bilan bog'liq fuqarolik, jinoiy ishlari

- Diskretsion yurisdiksiya o'lim jazosi bilan bog'liq bo'lмаган, voyaga yetmagan, federal sudsiga ishlarni olib berish, birinchi instansiya sudsida ishlarni ko'rish, oraliq qarorlar bilan bog'liq ishlari.

Eng yuqori
instansiya
sudi

Apellatsiya sudsiga (5ta sud /okruglar)

34 vakolatli sudyalar kollegiya bo'yicha qatnashadi va 9 qo'shimcha sudyalar ham

- Majburiy yurisdiksiya o'lim jazosi nazarda tutilmagan, ma'muriy, voyaga yetmagan, birinchi instansiya ishlarni ko'rish, dastlabki qaror bilan bog'liq fuqarolik va jinoyat ishlari;

- Fakultativ yurisdiksiya fuqarolik ishlari, oraliq qarorlar bo'yicha.

Oraliq
instansiysi
ning appellat
siya sudsiga

Okrug sudsiga (22 ta okrug)

389 ta vakolatli okruglardan, 371 ta assotsiyalashgan okrug sudyalarini va 50 ta jalb qilingan assotsiasiyalashgan sudyalar. Ko'pchilik hollarda prisyajniy sudsiga.

- Mutlaq yurisdiksiya fuqarolik ishlari bo'yicha (ma'muriy shikoyatlarni inobatga olgan holda), mayda arzlar bo'yicha (2500 dol.gacha);

- Mutlaq yurisdiksiya jinoyat ishlari bo'yicha;

- Mutlaq yurisdiksiya yo'l harakati qoidalarini buzish va boshq.;

- Mutlaq yurisdiksiya voyaga yetmagan-

Umumiy
yurisdiksiya
sudsiga

ILLINOYS SHTATI SUD TIZIMINING TUZILISHI

Oliy sud

9 sudyu to'liq tarkibda yig'iladi

- Majburiy yurisdiksiya ma'muriy faoliyat, voyaga etmagan, yuristlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi, federal sndlarga ishlarni o'tkazish, birinchi instansiyada ishlarni ko'rish bilan bog'liq fuqarolik, jinoyat ishlar

- Diskretsion yurisdiksiya ma'muriy ishlar, voyaga yetmaganlar ishlari, birinchi instansiya sudlarida ishlarni ko'rish, oraliq qarorlar bilan bog'liq fuqarolik, jinoyat

Eng yuqori
instansiya
sudi

Apellatsiya sudi

6 sudyu to'liq tarkibda yig'iladi

- Fuqarolik va jinoyat ishlari ma'muriy idoralar, voyaga yetmaganlar ishlari, birinchi instansiyada ishlarni ko'rish, Oliy Sud ko'rsatmasiga ko'ra oraliq qarorlar bo'yicha majburiy yurisdiksiya;

- Diskretsion yurisdiksiyaga ega emas.

Oraliq
instansiyasi-
ning appellat-
siya sudlari

Okrug sudi (8 okruglar va 99 graflik)

100 sudyu, 42 okrug assotsiyaviv sudyalar, 19 katta sudyalar va 158 mirovoy sudyu, o'rindoshlik asosida ishlayotgan

- Mutlaq yurisdiksiya fuqarolik (birinchi instansiya sudi qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni inobatga olgan holda) ishlari bo'yicha. Mayda arzlar (2000 dol.gacha);

- Mutlaq yurisdiksiya jinoyat (jinoyat ishlari bo'yicha berilgan shikoyatlarni inobatga olgan holda) ishlari bo'yicha;


- Mutlaq yurisdiksiya yo'l harakati qoidalariini buzish bilan bog'liq, transport vositalarini belgilangan joyga qo'yishdan tashqari;

- Mutlaq yurisdiksiya voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha;

Prisyajniy sudlar, mayda arzlardan tashqari, adolatlilik yuzasidan voyaga yetmaganlar ishlarini ko'rish, shahar hokimi-yati yoki grafligining qarorlarini buzish

Umumiy
yurisdiksiya
sudlari

GERMANIYA SUD TIZIMI



FRANSIYA SUD TIZIMI



NAZORAT UCHUN TESTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Odil sudlovning bu tamoyili qaysi qonunchilik hujjatida berilgan?

- A) O‘zR Konstitutsiyasida;
- B) Jinoyat-protsessual kodeksda;
- D) O‘zR «Sudlar to‘g‘risida» Qonunida;
- E) O‘zR «Prokuratura to‘g‘risida» Qonunida;
- F) B va D.

2. Sud zalida ovoz yozish, suratga olish, video yozuv va kino tasvir faqat ... roziligi bilan amalga oshiriladi.

- A) O‘zR Adliya vaziri;
- B) O‘zR Oliy sud raisi;
- D) Sud majlisida raislik qiluvchi;
- E) O‘zR Bosh Prokurori;
- F) O‘zR Prezidenti.

3. O‘zR sud ... da‘vat etilgan.

A) (shaxslarni aniqlash) jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarni aniqlash va odil jazoga tortishga;

B) ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligini va osudaligini ta‘minlash, qonunchilik va huquqiy tartibotni kuchaytirishga;

D) Qonuniylik va huquqiy tartibotni kuchaytirish, jinoyat-chilikning oldini olish, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga;

E) aybdorlarni aniqlash, ularni javobgarlikka va sudlovga tortish;

F) O‘zR Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda e’lon etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishga.

4. O‘zR Oliy sudi quyidagilarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega:

- A) viloyat, shahar, tuman va harbiy sudlar;

- B) xo‘jalik sndlari, viloyat, shahar, tuman va harbiy sndlari;
- D) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, viloyat, shahar, tuman va harbiy sndlari;
- E) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, viloyat, shahar, harbiy va xo‘jalik sndlari;
- F) O‘zR Konstitutsiyaviy sudi, xo‘jalik sndlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, viloyat, shahar, tuman va harbiy sndlari.

5. O‘zR «Sndlар то‘г‘рисида» Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 2000-y., 14-dekabr
- B) 1993-y., 6-may
- D) 1995-y., 30-avgust
- E) 1992-y., 9-dekabr
- F) 1994-y., 22-sentabr.

6. Sud apparati qanday vazifalarni bajaradi?

- A) sud ishini ta‘minlash, sudyя lavozimiga nomzodlar yig‘ish, xalq maslahatchilari saylovini tashkil etish;
- B) nazorat tartibida ish ko‘radi, sud amaliyotini umumlash-tirish, sud hay‘ati ishini tashkil etish masalalarini ko‘radi;
- D) sudning odil sudlovnи amalga oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish, shuningdek, sudning boshqa vazifalarini bajarish;
- E) Oliy sud Rayosatini chaqirish, nazorat tartibida ishni tek-shirish;
- F) ishni bir suddan ikkinchi sudga o‘tkazish masalasini hal qilish, O‘zR sndlari sudyalarini intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish.

7. Sud hokimiyyati amalga oshiradigan sudlov turlarini aniqlang.

- A) Konstitutsiyaviy sudlov, fuqarolik sudlov, xo‘jalik sudlov, ma‘muriy sudlov;
- B) xo‘jalik sudlovi, voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha sudlov, fuqarolik sudlovi, jinoyat sudlovi;
- D) Konstitutsiyaviy sudlov, mehnat nizolarini ko‘rish bo‘yicha sudlov, fuqarolik sudlovi, jinoyat sudlovi;

E) ma'muriy sudlov, konstitutsiyaviy sudlov, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sudlov, chet el fuqarolari ishi bo'yicha sudlov;

F) konstitutsiyaviy sudlov, fuqarolik, jinoyat, xo'jalik, sudlovi, oliy martabali shaxslar ishi bo'yicha sudlov, ma'muriy sudlov.

8. O'zR sud tizimi asosiy bo'g'inlari.

A) O'zR Konstitutsiyaviy sudi, O'zR Oliy sudi, harbiy sudlar, xo'jalik sudlari;

B) O'zR Konstitutsiyaviy sudi, umumiy sudlar, xo'jalik sudlari;

D) harbiy sudlar, O'zR Oliy sudi, xo'jalik sudlari, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sudlar;

E) Umumiy sudlar, xo'jalik sudlari, ma'muriy sudlar, kassatsiya sudlari;

F) O'zR Oliy sudi, O'zR Konstitutsiyaviy sudi, appellatsiya sudi, xo'jalik va harbiy sudlar.

9. Bugungi kunda sud hokimiyati qanday vakolatlarga ega?

A) odil sudlov, Konstitutsiyaviy nazorat, hukm ijrosini, sud qarori va boshqa organlar qarorlari ijrosini ta'minlash, ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ishlarni hal etish, sud amaliyoti asosida joriy qonunchilikni sharhlash, davlat organlari va mansabdor shaxslar qarori va faoliyatining qonuniyligi va asoslantirilganligini nazorat qilish, sudyalar korpusi tashkil etishda qatnashish va sudyalar hamjamiyati organlari bilan hamkorlik qilish;

B) konstitutsiyaviy nazorat, odil sudlov, huquqiy siyosat nazorati, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, joriy qonunchilikni sharhlash, sudyalar korpusi tashkil qilinishida ishtirok etish va hamkorligi;

D) odil sudlov, konstitutsiyaviy nazorat, qonunchilik muammlarini tadqiq qilish, respublika qonunchiligi va normativ aktlari tayyorlashda ishtirok etish, O'zR fuqarolari huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma'muriy huquqbazarlik ishini hal qilish, sudyalar korpusi tashkil etishda ishtirok etish;

E) odil sudlov, konstitutsiyaviy nazorat, joriy qonunchilikni sharhlash, sudlar mustaqilligi, va ularning faqat qonunga

bo‘ysunishi tamoyili qat’iyligi, amal qiluvchi sudlar faoliyatini tashkiliy ta’minlash;

F) Konstitutsiyaviy nazorat, jinoyat ishlarini hal qilish, xo‘jalik masalalarini hal etish, respublika vazirliklari noyuridik xizmatlariga uslubiy yordam ko‘rsatish; amaldagi qonunchilikni sharhlash.

10. Instansiya deganda nima tushuniladi?

A) ishning mohiyatiga ko‘ra appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rish kabi funksiyalarni bajarishga vakolatli bo‘lgan sud organi;

B) sud tizimi bo‘g‘ini;

D) ishni mazmunan hal etish funksiyasini bajarish;

E) O‘zR Prezidentiga sud qarori ustidan shikoyat qilish;

F) ishni mazmunan (I instansiya) kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rish, O‘zR Konstitutsiyaviy sudida fuqarolar arizalarini ko‘rish.

11. O‘zR qonunchiligidagi qanday sud instansiyalari belgilangan?

A) birinchi (ishni mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqish), appellatsion, kassatsiya, nazorat;

B) birinchi (ishni mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqish), ikkinchi yoki kassatsiya, nazorat, hakamlik va appellatsion sud;

D) Appellsiya. O‘zR Konstitutsiyaviy sudi, birinchi, ikkinchi instansiya;

E) birinchi (ishni mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqish), hakamlik sudi, ikkinchi yoki kassatsiya, nazorat instansiyasi;

F) birinchi instansiya, hakamlik sudi, ikkinchi yoki kassatsiya, nazorat instansiyasi, sud qarori ustidan Adliya vazirligiga shikoyat qilish.

12. Shiahar sudi (tuman) qanday tashkil topgan?

A) O‘zR Oliy sud raisi tavsiyasiga asosan Adliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi;

B) O‘zR Oliy sudi raisi taqdimiga ko‘ra Oliy Majlis tomonidan saylanadi;

D) O‘zR Oliy sud raisi tomonidan tasdiqlanadi;

E) aholi tomonidan saylanadi;

F) O'zR Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavo-zimlarga tavsija etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan.

13. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tarkibi:

A) sudyalar, xalq maslahatchilari hay'ati, sud raisi, hakamlik sudi, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudyalar, ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar;

B) sud raisi, sudyalar, xalq maslahatchilari, ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar;

D) sud raisi, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudyalar;

E) sudyalar, xalq maslahatchilari, hakamlik sudi, sud apparati, ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar;

F) sudyalar, sud raisi, xalq maslahatchilari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudyalar, sud ijrochilari, sud apparati.

14. Tuman (shahar), tumanlararo sud raisi yo'qligida uning o'rniغا boshqa sudyani tayinlash to'g'risidagi qaror ni kim qabul qiladi?

A) O'zR Prezidenti;

B) mos ravishda malaka hay'ati;

D) Prezident huzuridagi malaka hay'ati;

E) ushbu-sudning xalq maslahatchilari va sudyalari;

F) Adliya vaziri.

15. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi faoliyatini ustidan kim nazoratni olib boradi?

A) Adliya vazirligi;

B) O'zR Prokuraturasi;

D) O'zR Konstitutsiyaviy sudi;

E) Malaka hay'ati;

F) jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi.

16. Sud apparati shuni ta'minlaydiki:

A) fuqarolarni qabul qilish;

B) dalillar to'plash;

D) odil sudlovnii amalga oshirish, sud amaliyotini umumlash-tirish, sud statistikasini tahlil qilish va sudlarning boshqa funk-siyalarini boshqarish;

- E) vaqtincha yo‘q bo‘lgan sudyalar o‘rnini to‘ldirish;
F) xalq maslahatchilari malakasini oshirish.

17. Fuqarolik ishlari bo‘yicha tuman (shahar), tumanlararo sudining tarkibi:

- A) sud raisi va sudyalar;
B) sud raisi, xalq maslahatchilari, sudyalar;
D) sud apparati, sud raisi, xalq maslahatchilari, sudyalar;
E) sud raisi, sudyalar, fuqaroviy da‘vogarlar va fuqaroviy javobgarlar;
F) sud muhokamasidagi sudyalar va boshqa ishtirokchilar.

18. Harbiy sudlar tarkibiga kiruvchi sndlarni sanab bering.

A) harbiy tribunallar, O‘zR Oliy sudi harbiy hay’ati, Garnizon harbiy sndlari, Qurolli Kuchlar harbiy sudi, Toshkent shahar harbiy sudi, Viloyat harbiy sndlari;

B) O‘zR Oliy sudi harbiy hay’ati, Qurolli Kuchlar harbiy sudi, Garnizon harbiy sndlari;

D) Garnizon harbiy sndlari, Qurolli Kuchlar harbiy sudi, harbiy Tribunallar, O‘zR Oliy sudi harbiy hay’ati;

E) Qurolli Kuchlar harbiy sudi, viloyat, tuman harbiy sndlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining harbiy sudi;

F) Qo‘sishin harbiy sndlari, birlashish, Qurolli kuchlar turida, harbiy flotiliya sudi, O‘zR Oliy sudi harbiy hay’ati.

19. Harbiy sudlar faoliyati qanday qonuniy akt bilan taribga solinadi?

- A) O‘zR Konstitutsiyasi;
B) «Sudlar to‘g‘risida» O‘zR Qonuni;
D) «Prokuratura to‘g‘risida»gi O‘zR Qonuni;
E) «Advokatura to‘g‘risida»gi O‘zR Qonuni;
F) berilgan variantlarda to‘g‘ri javob berilmagan.

20. O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu prinsip qaysi qonun hujjatida mustahkamlab qo‘yilgan?

- A) O‘zR Konstitutsiyasida;
B) Jinoyat-protsessual Kodeksida;
D) «Sudlar to‘g‘risida» O‘zR qonunida;

- E) «Prokuratura to‘g‘risida» O‘zR qonunida;
F) B va D.

21. O‘zR Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya asosida ko‘rib chiqish jarayonida uning tarkibiga:

- A) sudyalar va ikki xalq maslahatchilari;
B) uch sudyा;
D) O‘zR Oliy sud Plenumi tarkibining kamida 2/3 qismi;
E) sudyа, prokuror, advokat.

22. O‘zR Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashining vazifalari nimalardan iborat?

- A) Sud amaliyotida vujudga keladigan massalalar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash yuzasidan ilmiy isbotlangan takliflarni ishlab chiqish;
B) jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish va hal etish;
D) fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish va hal etish;
E) qonuniy kuchga kirmagan hukmlarning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish;
F) hukmlarni ijro etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish.

23. O‘zR Oliy sud tarkibini sanab o‘ting.

- A) rais, uning birinchi o‘rribbosari, o‘rribbosarlari, sudlov hay’atlari raislari, Oliy sud sudyalari, Oliy sud Plenumi, Oliy sud rayosati, Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati, harbiy hay’at;
B) rais, xalq maslahatchilari, o‘rribbosarlari, Oliy sud Plenumi, Oliy sud rayosati, Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati, harbiy hay’at, Malaka hay’at;
D) sudyalar, rais, rais o‘rribbosari, sud apparati, Oliy sud rayosati, Oliy sud Plenumi, harbiy hay’at, Kassatsiya hay’ati;
E) rais, xalq maslahatchilari, ilmiy-maslahat kengashi, sud apparati, Oliy sud rayosati, Oliy sud Plenumi, Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati, harbiy hay’at;

F) sudyalar, rais, uning o‘rribbosarlari, intizomiy hay’at, sud ijrochilari, xalq maslahatchilari, appellatsiya hay’ati, Fuqarolik

ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Oliy sud rayosati, Oliy sud Plenumi.

24. O'zR Oliy sudi tuzish tartibi qanday?

- A) O'zR Prezidenti farmoni bilan tayinlanadi;
- B) Oliy Majlis taqdimiga ko'ra O'zR Adliya vazirligi tomonidan tayinlanadi;
- D) O'zR Prezidenti, Bosh Prokuror, Adliya vaziri bilan kelishilgan holda tayinlanadi;
- E) O'zR Prezidenti taqdimnomasiga ko'ra Oliy Majlis tomonidan sayланади;
- F) O'zR xulosasiga ko'ra O'zR Adliya vaziri taqdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan sayланади.

25. O'zR Oliy sudi qoshidagi ilmiy-maslahat kengashi vazifalari qanday?

- A) sud amaliyotida vujudga keladigan qonunni qo'llash masalalari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarini ishlab chiqish;
- B) jinoyat ishlarni ko'rib chiqish va hal etish;
- D) fuqarolik ishlarni ko'rib chiqish va hal etish;
- E) qonuniy kuchga kirmagan hukmlarning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish;
- F) hukmlarni ijroga qaratish masalalari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

26. O'zR Oliy sudi ... faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

- A) viloyat, shahar, tuman, harbiy sudlar;
- B) xo'jalik sudlari, viloyat, shahar, tuman, harbiy sudlar;
- D) Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, shahar, tuman va harbiy sudlar;
- E) Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, shahar, tuman, harbiy, xo'jalik sudlar;
- F) O'zR Konstitutsiyaviy sudi, xo'jalik sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, shahar, tuman, harbiy sudlar.

27. O'zR Oliy sud Plenumi qachon chaqiriladi?

- A) 4 oyda kamida 1 marta;
- B) 1 oyda kamida 1 marta;

- D) 1 oyda 2 marta;
- E) yarim yilda 1 marta;
- F) to‘g‘ri javob yo‘q.

28. O‘zR Konstitutsiyaviy sudi quyidagi ishlarni ko‘radi?

- A) Konstitutsiyaviy huquqlar buzilishi yuzasidan fuqarolar shikoyatlarini;
- B) qonunchilik, ijro va sud hokimiyati hujjatlarining Konstitutsiyaga mosligini;
- C) O‘zR Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlarning Konstitutsiyaga mosligini;
- D) qonunchilik va ijro hokimiyati hujjatlarining konstitutsiyaga mosligi;
- E) hukumat va mahalliy hokimiyat organlari qarorlarining O‘zR Konstitutsiyasiga mosligini.

29. O‘zR Konstitutsiyaviy sudining vakolat muddati qanday?

- A) 10 yil;
- B) doimiy;
- C) 5 yil;
- D) 15 yil;
- E) sudyalar almashmaydi.

30. O‘zR Konstitutsiyaviy sudi qanday hujjat bilan tartibga solinadi?

- A) O‘zR «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonun;
- B) O‘zR «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi Qonun;
- C) O‘zR Fuqarolik-protsessual Kodeksi;
- D) O‘zR Konstitutsiyaviy sudi Regamenti;
- E) yozilmagan.

31. «O‘zR Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1996-y., 3-may;
- B) 1994-y., 22-sentabr;
- C) 1995-y., 30-avgust;
- D) 1995-y., 1-aprel;
- E) 1993-y., 17-may.

32. Konstitutsiyaviy sud qaroridan norozi bo‘lganda qayerga murojaat qilish kerak?

- A) O‘zR Prezidentiga;
- B) O‘zR Oliy Majlisiga;
- C) O‘zR Bosh Prokuroriga;
- E) hukm qat’iy (shikoyatga o‘rin yo‘q);
- F) to‘g‘ri javob berilmagan.

33. ...dan kechiktirilgan muddatda olingan tejamli ma'lumotlar bo'yicha Konstitutsiyaviy sud qaror chiqaradi?

- A) bir oy;
- B) yetti kun;
- D) o‘n kun;
- E) uch oy;
- F) olti oy.

34. O‘zR Konstitutsiyaviy sud qarori qachondan kuchga kiradi?

- A) bir oy davomida;
- B) o‘n kundan keyin;
- D) nashr etilgandan boshlab;
- E) yetti kundan so‘ng;
- F) nashr etilgandan so‘ng o‘n kun o‘tgach.

35. O‘zR Konstitutsiyaviy sud qarori kim tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin?

- A) Konstitutsiyaviy sud tashabbusi bilan O‘zR Prezidenti tomonidan;
- B) O‘zR Prezidenti tashabbusi bilan O‘zR Oliy Majlisi tomonidan;
- D) O‘zR Oliy sudi tomonidan;
- E) o‘z tashabbusi bilan Konstitutsiyaviy sud tomonidan;
- F) yuqoridagilarda to‘g‘ri javob berilmagan.

36. Davlatlararo shartnoma va normativ aktning Konstitutsiyaviliyi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudning hukmi qanday nomlanadi?

- A) xulosa;
- B) hal qiluv qarori;
- D) qaror;

- E) buyruq;
- F) taqdimmoma.

37. Konstitutsiyaviy sud tuzilishi va shtat apparati kim tomonidan tasdiqlanadi?

- A) O'zR Prezidenti tomonidan;
- B) O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan;
- C) O'zR Adliya vazirligi tomonidan;
- D) Konstitutsiyaviy sud raisi tomonidan;
- E) O'zR Oliy Majlisi tomonidan.

38. Konstitutsiyaviy sud majlislarini o'tkazish qoidalari va tartibi qaysi qonunda belgilangan?

- A) Jinoyat-protsessual Kodeksida;
- B) Fuqarolik-protsessual Kodeksida;
- C) O'zR «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksida;
- D) Konstitutsiyaviy sud Reglamentida;
- E) barcha javoblar noto'g'ri.

39. Konstitutsiyaviy sud ishlarni hal etishda nimaga mutlaq amal qiladi?

- A) O'zR Konstitutsiyasiga;
- B) O'zR Konstitutsiyasiga, shuningdek, O'zR ratifikatsiya qilgan xalqaro huquqiy hujatlarga;
- C) Inson huquqlari va erkinliklari umumjahon deklaratsiyasiga;
- D) Fuqarolik, Mehnat va Oila kodekslariga;
- E) barcha javoblar to'g'ri.

40. Konstitutsiyaviy sud sudyaları vakolatlari kim tomonidan muddatidan oldin bekor qilinadi?

- A) O'zR Prezidenti tomonidan;
- B) O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan;
- C) Adliya vaziri tomonidan;
- D) O'zR Oliy Majlisi tomonidan;
- E) O'zR Bosh prokurori tomonidan.

41. O'zR Konstitutsiyaviy sudi tarkibini ayting.

- A) Sudyalar, xalq maslahatchilari, Plenum, Rayosat;
- B) Rais, rais o'rinnbosari, Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyasi bilan birga;

D) Rais, raisning birinchi o'rribbosari, rais o'rribbosarlari, Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyasi bilan birga;

E) Sudyalar, xalq maslahatchilari, hay'at, Plenum, Rayosat;

F) Rais, rais o'rribbosarlari, Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyasi bilan birga.

42. Qanday hollarda Konstitutsiyaviy sud sudyalari vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi?

A) sudyalik qasamyodini buzgan taqdirda, yozma ariza bergen taqdirda, unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda, ogohlantirish qilinganidan yoki vakolatlari to'xtatilganidan keyin u sudya lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishini davom ettiravergan taqdirda, sog'lig'i holatiga ko'ra tibbiy komissiyaning qaroriga ko'ra, O'zR fuqaroligini yo'qtganda;

B) sudyalik qasamyodini buzgan taqdirda, sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda, yetarli malakaga ega bo'limganligi sababli o'z vazifalarini bajara olmaganida yoki sog'lig'i holatiga ko'ra;

D) sudyalik qasamyodini buzgan taqdirda, yozma ariza bergen taqdirda, uning jinoiy javobgarlikka tortilishi va sudda jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi tariqasida hukm chiqarilganda, sog'lig'i yuzasidan tibbiy komissiyaning qaroriga ko'ra, O'zR fuqaroligini yo'qtganda;

E) sudyalik qasamyodini buzgan taqdirda, yozma ariza bergen taqdirda, unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda, mansabiga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda;

F) sudyalik qasamyodini buzgan taqdirda, yozma ariza bergen taqdirda, Oliy Majlisga deputat etib saylangan taqdirda, sog'lig'i yuzasidan tibbiy komissiyaning qaroriga ko'ra, O'zR fuqaroligini yo'qtganda.

43. ... qaroriga binoangina sudyalar intizomiy javobgarlikka tortilishlari mumkin?

A) O'zR Oliy sudi raisi;

B) O'zR Oliy sudi Plenumi;

D) Sudyalar malaka hay'ati;

E) O'zR Adliya vaziri;

F) O'zR Prezidenti.

44. Qanday qonuniy hujjat bilan sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi belgilangan?

- A) Sudyalarning intizomiy javobgarligi to‘g‘risidagi Nizom;
- B) Sudyalar malaka hay‘ati to‘g‘risidagi Nizom;
- C) Sudyalar malakaviy darajasi to‘g‘risidagi Nizom;
- E) O‘zR Adliya vazirligi to‘g‘risidagi Nizom;
- F) A va E.

45. Sudyalarga qanday intizomiy javobgarlik choralari turlari qo‘llaniladi?

- A) xayfsan, tanbeh, oylikning 1/3 qismi ushlab qolinishi, qat‘iy xayfsan, 1 oydan 3 oygacha vakolatlarini to‘xtatib qo‘yish;
- B) xayfsan, tanbeh, qat‘iy xayfsan;
- D) ogohlantirish, xayfsan, vakolatlarini to‘xtatib turish;
- E) jarima.

46. Sudyalar daxlsizligining ta‘minlanishi.

A) sudyalar daxlsizligi, davlat hisobidan malaka darajasiga ko‘ra moddiy va ijtimoiy ta‘minot, sudyalar kengashi siri, ishlarni ko‘rib chiqishda mustaqillik;

B) qonunda o‘rnatilgan tartibda saylanish, tayinlash va mansabidan ozod etish, sudyalar daxlsizligi, odil sudlovni amalga oshirishning qat‘iy tartibi, hukm chiqarish jarayonida kengash siri va uni e’lon qilishni talab qilishning ta‘qiqlanishi, sudyalarga hurmatsizlik uchun javobgarlik yoki ma’lum ishlarni hal qilishga aralashuv, davlat hisobidan malaka darajasiga ko‘ra moddiy va ijtimoiy ta‘minot;

D) hukm chiqarish jarayonida kengash siri, ishlarni ko‘rib chiqish jarayonida mustaqillik;

E) sudyalar daxlsizligi, sudyalar kengashi siri, qonunda o‘rnatilgan tartibda saylanish, tayinlash va mansabidan ozod etish, sudga hurmatsizlik uchun javobgarlik, aybsizlik prezumpsiysi;

F) sudga hurmatsizlik uchun javobgarlik, ma’lum ishlarni hal etishda aralashuv, yuqori maosh.

47. Qanday holatlarda sudyalar vakolati to‘xtatib turiladi?

A) jinoiy javobgarlikka tortish, sudyaning mansabiga to‘g‘ri kelmaydigan faoliyat bilan shug‘ullanish, suda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan yoki sud qarori bilan uning

muomala layoqati cheklangan bo'lsa, qonuniy kuchga kirgan bo'lsa, sudya sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;

B) odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniy ishni buzganlik chog'ida, sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun;

D) agar sudya mansabiga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullansa, Oliy sud raisi yoki Adliya vaziri buyrug'iga amal qilmasa, odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganlik uchun, hokim buyrug'iga binoan uning buyrug'ini bajarmaganligi uchun;

E) odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganlik uchun, sudya tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan bo'lsa, sudya sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa, qonuniy kuchga kirgan bo'lsa, xizmat borasidagi yoki obro'siga putur yetkazadigan boshqa xatti-harakatlar uchun;

F) O'zR fuqaroligini yo'qtganda, sud ishini tashkil etishda, beparvoligi yoki intizomsizligi uchun, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganligi uchun.

48. Qonunda sudyalarning qanday malakaviy darajasi o'rnatilgan?

A) yuqori kategoriya sudyasi, birinchi va o'rta kategoriya, 1,2,3-darajali;

B) davlat adliya maslahatchisi, katta yurist, yuqori malakaviy daraja, 1,2,3,4,5-malakaviy daraja;

D) yuqori malakaviy daraja, birinchi malakaviy daraja, 2-malakaviy daraja, 3-malakaviy daraja, 4-malakaviy daraja, 5-malakaviy daraja;

E) haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, yuqori kategoriya sudyasi, 1,2,3-darajali adliya maslahatchisi;

F) 1,2,3-darajali adliya maslahatchisi, 1,2,3-darajali yurist, 1,2-kategoriyalı sudyasi, yuqori kategoriyalı sudyasi.

49. Sudyalikka nomzodlarga qo'yiladigan talablarni ayting.

A) 25 yosh, davlat tilini bilish, fuqarolik, oliy yuridik ma'lumotli, mutaxassislik bo'yicha staj, diniy mansublik;

B) fuqarolik, yosh, jins, mutaxassislik bo'yicha staj, oliv yuridik ma'lumotli, malaka imtihoni;

D) O'zR fuqaroligi, 25 yoshdan kichik bo'lмаган, oliv yuridik ma'lumotli, mutaxassislik bo'yicha staj, malaka imtihoni;

E) oliv yuridik ma'lumot, 22 yosh, mulkiy holat, o'zbek va ingliz tilini bilish, O'zR fuqaroligi;

F) mutaxassislik bo'yicha 5 yildan kam bo'lмаган staj, jins, O'zR fuqaroligi, davlat tilini bilish.

50. Sudyalar malaka hay'ati qanday shakllantiriladi?

A) Oliy sud raisi taqdimnomasiga binoan Oliy sud Plenumi tomonidan saylanadi;

B) tegishli hududlarda sudyalar majlisida saylanadi;

D) O'zR Oliy sudi raisi tomonidan tayinlanadi;

E) Oliy Majlis tomonidan saylanadi;

F) O'zR Oliy sud raisi taqdimnomasiga binoan Adliya vazirligi tomonidan tayinlanadi.

51. Birinchi marta saylangan (tayinlangan), hech qanday malaka toifasiga ega bo'lмаган sudyalar qaysi muddatda malaka attestatsiyasidan o'tadilar?

A) ish faoliyatining 1-3 oyligida;

B) 1 yil mobaynida;

D) 6 oy ichida;

E) 1 oy ichida;

F) malakaviy xususiyatlar darajasiga qarab.

52. Qaysi hollarda sudya axloqiy javobgarlikka tortiladi?

A) odil sudlovni amalga oshirishda qonunchilikni buzish, axloqsizlik va ehtiyotsizlik orqasida sud ishini bajara olmaslik, obro'siga putur yetkazadigan boshqa xatti-harakatlardan uchun;

B) mansabga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullansa, tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llansa, odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzsa;

D) sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo'l qo'yilgan kamchiliklari uchun, qonunning kuchga kirgan sud qaroriga ko'ra bedarak yo'qolgan deb topilsa;

E) O'zR Prezidenti ko'rsatmalarini bajarmaslik, jinoiy javobgarlikka tortilsa, mansabiga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullansa;

F) xizmat borasidagi yoki obro'siga putur yetkazadigan boshqa xatti-harakatlari, sudyalar maslahati sirlarini oshkor etganlik, mansabiga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullansa;

53. O'zR notariat faoliyatini kim olib boradi?

A) davlat notarial idorasida ishlovchi yoki xususiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi notariuslar, fuqarolar yig'ini oqsoqollari;

B) davlat notarial idoralarida ishlovchi yoki xususiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi notariuslar, FHDYO organlari mudirlari, fuqarolar yig'ini raislari;

D) davlat notarial idoralarida ishlovchi yoki xususiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya bo'limlari boshliqlari, fuqarolar yig'ini raislari;

E) barcha javoblar no'to'g'ri.

54. Davlat notarial idoralari kim tomonidan ochiladi?

A) O'zR Adliya vazirligi;

B) Vazirlar Mahkamasi qarori bilan;

D) Prezident Farmoni bilan;

E) Toshkent shahar hokimi tomonidan;

F) Oliy majlis tomonidan.

55. O'zR davlat notariati va adliya organlari xodimlari maxsus unvonlari qanday toifalarga bo'linadi?

A) amaldagi davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali adliya maslahatchisi, 2-darajali adliya maslahatchisi, 3-darajali adliya maslahatchisi, 1,2,3-darajali yurist;

B) davlat bosh adliya maslahatchisi, 1-rang davlat adliya maslahatchisi, 2-rang davlat adliya maslahatchisi, 3-rang davlat adliya maslahatchisi, 1-toifali adliya maslahatchisi, 2-toifali adliya maslahatchisi, 3-toifali adliya maslahatchisi, 1,2,3-toifali yurist;

D) amaldagi davlat adliya maslahatchisi, 1-toifali davlat adliya maslahatchisi, 2-toifali davlat adliya maslahatchisi, bosh adliya maslahatchisi, adliya maslahatchisi, kichik adliya maslahatchisi, 1,2,3-darajali yurist.

E) davlat bosh adliya maslahatchisi, 1-toifali davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi.

56. Qaysi organ va muassasalar Adliya vazirligi tizimiga kiradi?

A) Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat hokimiyatlari va Toshkent, Samarqand, Termiz shaharlarining adliya boshqarmalari, notariat muassasalari, ZAGS (FHDYO), Toshkent sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent yuridik (Yuridik) kolleji, «Adolat» nashriyoti, huquqiy yordam xo'jalik hisob markazi, O'zR Oliy sudi, O'zR Konstitutsiyaviy sudi;

B) Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat hokimiyatlari va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, notariat muassasalari, Toshkent sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot instituti (Tosh SEITI), FHDYO, Qonunchilik muammolari tadqiqot instituti, Toshkent Yuridik kolleji, TDYI, «Adolat» nashriyoti va huquqiy yordam xo'jalik hisob markazi;

D) Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat hokimliklari va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, O'zR Oliy sudi, advokatura, harbiy sudlar;

E) Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat hokimliklari va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, notariat muassasalari, O'zR Oliy sudi, notariat muassasalari, FHDYO, ToshSEITI, qonunchilik muammolari tadqiqot instituti, harbiy sudlar, xo'jalik sudlari, TDYI, Toshkent yuridik kollej, «Adolat» huquqiy yordam xo'jalik hisob markazi va nashriyoti.

57. Quyida prokuratura-tergov xodimlari hamda o'quv, ilmiy va boshqa prokuratura muassasalari xodimlariga qo'llaniladigan intizomiy jazo turlarini ko'rsating:

A) ogohlantirish, xayfsan, qat'iy xayfsan, mansab darajasini pasaytirish, «O'zR prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak belgisidan mahrum qilish, mansabini pasaytirish, ishdan ozod etish, mansab darajasidan mahrum qilib ishdan bo'shatish, 3 oyga mansabdan cheklash, ish haqining 50% ushlab qolish;

B) ogohlantirish, xayfsan, qat'iy xayfsan, mansab darajasini pasaytirish, «O'zR prokuraturasining faxriy xodimi», ko'krak belgisidan mahrum qilish, mansabini pasaytirish, ishdan bo'shatish, mansab darajasidan mahrum qilib ishdan ozod etish;

D) ogohlantirish, xayfsan, qat'iy xayfsan, mansab darajasini pasaytirish, «O'zR prokuraturasining faxriy xodimi», ko'krak belgisidan mahrum qilish, 1 oyga mansabdan chetlatish, 3 oyga

mansabdan chetlatish, ishdan ozod etish, mansab darajasidan mahrum qilib ishdan ozod etish;

E) ogohlantirish, xayfsan, qat'iy xayfsan, mansab darajasini pasaytirish, «O'zR prokururasining faxriy xodimi» ko'krak belgisidan mahrum qilish, ish haqining 50%ni ushlab qolish, lavozimdan ozod etish, mansab darajasidan mahrum qilib lavozimidan ozod etish;

F) ogohlantirish, xayfsan, qat'iy xayfsan, mansab darajasini pasaytirish, (lishenie nagr.) «O'zR prokururasining faxriy xodimi» ko'krak belgisidan mahrum qilish, lavozimdan ozod etish, mansab darajasidan mahrum qilib lavozimdan ozod etish, 3 oyga lavozimdan chetlatish.

58. Prokuratura-tergov xodimlari hamda o'quv, ilmiy va boshqa prokuratura xodimlarini rag'batlantirishning qanday usullarini bilasiz?

A) tashakkurnoma, pul mukofoti, mansab darajasini ko'tarish, «O'zR prokururasining faxriy xodimi» ko'krak belgisi bilan mukofotlash;

B) tashakkurnoma, pul mukofoti, mansab darajasini ko'tarish, lavozimini ko'tarish, «O'zR prokururasining faxriy xodimi» ko'krak belgisi bilan mukofotlash;

D) tashakkurnoma, pul mukofoti, sovg'a, mansab darajasini ko'tarish, lavozimini ko'tarish, «O'zR prokururasining faxriy xodimi» ko'krak belgisi bilan mukofotlash, «O'zR xizmat ko'rsatgan yurist» unvoni bilan mukofotlash;

E) tashakkurnoma, pul mukofoti, sovg'a, qimmatli sovg'a, mansab darajasini ko'tarish, «O'zR prokururasining faxriy xodimi» ko'krak belgisi bilan mukofotlash, «O'zRda xizmat ko'rsatgan yurist» unvoni bilan mukofotlash;

F) tashakkurnoma, pul mukofoti, sovg'a, mansab darajasini ko'tarish, lavozimini ko'tarish, «O'zR prokururasining faxriy xodimi» ko'krak belgisi bilan mukofotlash, «O'zRda xizmat ko'rsatgan yurist» unvoni bilan mukofotlash.

59. Qaysi hollarda prokuratura-tergov xodimlariga nisbatan intizomiy jazo qo'llaniladi?

A) xizmat burchlarini bajarmaslik yoxud to'laqonli bajarmaslik, prokuratura xodimi sha'niga dog' tushiradigan xatti-harakat;

B) zimmaga yuklatilgan vazifalarni bajarmaslik yoki beparvolik bilan bajarish hamda ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan qilmishlar;

D) zimmaga yuklatilgan vazifalarni bajarishdan bosh tortish yoki prokuratura xodimi unvoniga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullanish;

E) zimmaga yuklatilgan vazifalarni bajarishdan bosh tortish yoki muvofiq bo'lмаган darajada bajarish, yoxud ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

F) zimmaga yuklatilgan vazifalarni bajarmaslik yoki noto'g'ri bajarganligi hamda ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan qilmish uchun.

60. Prokuror lavozimiga taqdim etilayotgan shaxslarga nisbatan qanday talablar qo'yiladi?

A) O'zR fuqaroligi, davlat tilini bilish, oliy ma'lumotga ega bo'lish, zaruriy kasbiy va ma'naviy fazilatlar;

B) O'zR fuqaroligi, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi, zaruriy kasbiy fazilatlar, sog'lomligi, 25 yoshdan kichik bo'lmasligi;

D) O'zR fuqaroligi, oliy yuridik ma'lumot, davlat tilini bilish, zaruriy kasbiy va ma'naviy fazilatlar, 35 yoshdan kichik bo'lmasligi;

E) O'zR fuqaroligi, davlat tilini bilish, oliy ma'lumot, zaruriy kasbiy va ma'naviy fazilatlar, 65 yoshdan oshmaganligi, sog'lomlik darajasi;

F) O'zR fuqaroligi, davlat tilini bilish, oliy ma'lumot, zaruriy kasbiy va ma'naviy fazilatlar, 30 yoshdan kichik bo'lmaslik.

61. Prokuraturani tashkil etishi tamoyillarini ko'rsating.

A) departizatsiya, markazlashtirish, mahalliy organlardan mustaqillik, birlik, oshkoraliq;

B) birlik tamoyili, markazlashganlik, mustaqillik;

D) birlik tamoyili, hay'atlik, mahalliy davlat organlari va boshqaruva organlaridan mustaqillik, Toshkent shahar va viloyat hokimlarini qonuniylik va jinoyatchilikning asosiy tendensiylari to'g'risida xabardor qilish, boshqarma bo'limlarining qonuniylikning ijrosini ta'minlash, davlat va jamiyat osoyishtaligini

hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlarni bajarish to'g'risida xabar berish;

E) markazlashganlik, mahalliy organlardan mustaqillik, birlik, hay'atlik, O'zR Oliy vakillik organlari oldida bo'ysunuvchanlik tamoyillari;

F) birlik, markazlashganlik, mahalliy davlat boshqaruvi organlaridan mustaqillik, qonuniylik va jinoyatchilikning asosiy tendensiyalari, boshqarma bo'limlarining qonuniylik ijrosini ta'minlash, davlat va jamiyat osoyishtaligini hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi to'g'risida ma'lumotlar berish tamoyillari.

62. Prokuratura xodimlarining mansab darajalarini to'g'ri ko'rsating.

A) haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 1-daraja davlat adliya maslahatchisi, 2-daraja haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 3-daraja davlat adliya maslahatchisi, katta adliya maslahatchisi, adliya maslahatchisi, kichik adliya maslahatchisi, 1-darajali yurist, 2-darajali yurist, 3-darajali yurist, kichik yurist;

B) 1-daraja haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, davlat adliya maslahatchisi, katta adliya maslahatchisi, adliya maslahatchisi, kichik adliya maslahatchisi, 1-darajali yurist, 2-darajali yurist, 3-darajali yurist;

D) haqiqiy davlat adliya maslahatchisi, 1-unvon (rang)dagi davlat adliya maslahatchisi, 2-unvondagi davlat adliya maslahatchisi, 3-unvondagi davlat adliya maslahatchisi, katta adliya maslahatchisi, kichik adliya maslahatchisi, 1,2,3-unvondagi yurist, katta yurist, kichik yurist;

E) Bosh davlat adliya maslahatchisi, 1-unvon (rang)dagi davlat adliya maslahatchisi, 2-unvondagi davlat adliya maslahatchisi, 3-unvondagi davlat adliya maslahatchisi, katta adliya maslahatchisi, kichik adliya maslahatchisi, 1,2,3-darajali yurist, katta yurist, kichik yurist;

F) Bosh davlat adliya maslahatchisi, 1-darajali davlat adliya maslahatchisi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, katta adliya maslahatchisi, adliya maslahatchisi, kichik adliya maslahatchisi, 1,2,3-darajali yurist, katta yurist, kichik yurist.

63. Prokuror nazorati tushunchasini huquqni muhofaza qiluvchi faoliyat sifatida izohlang.

A) Prokuror nazorati – bu davlat tomonidan belgilangan maxsus vakolatli mansabdar shaxslar – prokurorlar tomonidan O‘zR hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi, huquqbuzarliklarni topish va o‘z vaqtida yo‘qotish, aybdorlarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish yo‘li bilan amalga oshiriladigan faoliyat;

B) Prokuror nazorati – bu davlat nomidan harakat qiladigan maxsus vakolatli mansabdar shaxslar – prokurorlar tomonidan O‘zR va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi barcha normativ huquqiy aktlarning aniq va bir xilda bajarilish, jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida aniqlash va yo‘qotish yo‘li bilan amalga oshiriladigan faoliyat;

D) Prokuror nazorati – bu davlat nomidan harakat qiladigan maxsus vakolatli mansabdar shaxslar – tergovchi va prokurorlar tomonidan (huquqbuzarliklarni aniqlash) aybdorlarni ma’muriy javobgarlikka tortish yo‘li bilan O‘zR hududida barcha qonunlarni ta’minalash va ijrosini amalga oshiruvchi faoliyat;

E) Prokuror nazorati – bu davlat nomidan harakat qiladigan maxsus vakolatli mansabdar shaxslar – prokurorning barcha xodimlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortish yo‘li bilan O‘zR hududida qonuniylikni ta’minalash va fuqarolarning xavfsizligini amalga oshirish faoliyatidir;

F) Prokuror nazorati – bu davlat nomidan harakat qiladigan maxsus vakolatli mansabdar shaxslar – prokuratura organlari ning barcha xodimlari tomonidan intizomiy javobgarlikka tortish yo‘li bilan O‘zR hududida huquq-tartibotni ta’minalash, barcha qonunlarning xavfsizligini va aniq bajarilishini ta’minlovchi faoliyatidir.

64. O‘zR Bosh Prokurori kim tomonidan lavozimdan ozod etiladi?

A) O‘zR Prezidenti O‘zR Oliy Majlisining tasdig‘i bilan;

B) O‘zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

D) O‘zR Oliy Majlisi O‘zR Prezidenti roziligi bilan;

E) O‘zR Prezidenti O‘zR Oliy sud tasdig‘i bilan;

F) O‘zR Adliya vazirligi O‘zR Oliy Majlisining tasdig‘i yordamida.

65. O‘zR Prokuraturasi qanday tizimga ega?

A) O‘zR Prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokuraturasi, Toshkent shahar va viloyatlar prokuraturalari, shahar va tuman prokuraturalari. Transport prokuraturasi, harbiy prokuratura, ixtisoslashgan prokuraturalar, soliq va valutaga oid jinoyatlar bilan kurashish departamenti va uning joydagi boshqarmalari;

B) O‘zR Prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokuraturasi, viloyat, Toshkent shahar, Samarqand shahri, shahar va tumanlar, tumanlararo, hududiy prokuraturalari, transport, harbiy prokuraturalari, ixtisoslashgan prokuraturalari, tog‘ prokuraturalari;

D) O‘zR Prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokuraturasi, viloyat, Toshkent shahar, shahar va tumanlar, viloyatlararo, tumanlararo, hududiy prokuraturalari, soliq va valutaga oid jinoyatlar bilan kurashish departamenti;

E) O‘zR Prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokuraturasi, viloyat, Toshkent shahar, Nukus shahri, viloyatlararo, tumanlararo hududiy prokuraturalari, tabiatni muhofaza qiluvchi, o‘rmon, tog‘, ixtisoslashgan prokuraturalar;

F) O‘zR Prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokuraturasi, viloyat, tuman, shahar, Toshkent shahar, viloyatlararo, tumanlararo, prokuraturalari, transport, daryo, havo prokuraturalari, tabiatni muhofaza qiluvchi prokuratura va ixtisoslashgan prokuratura.

66. Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori kim tomonidan va qanchaga tayinlanadi?

A) O‘zR Bosh prokurori, O‘zR Prezidentining roziligi bilan 5 yilga;

B) O‘zR Prezidenti, O‘zR Oliy Majlisning tasdig‘i bilan 10 yilga;

D) O‘zR Jo‘qorg‘i Kengesi O‘zR Bosh prokurorining roziligi bilan 5 yilga;

E) O‘zR Bosh prokurori O‘zR Oliy Majlisining tasdig‘i bilan 10 yilga;

F) O‘zR Bosh prokurori Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining taqdimnomasiga binoan.

67. Harbiy prokuraturaning tizimini ko'rsating.

- A) O'zR harbiy prokuraturasi, armiya, flot, birlashmalar prokuraturalari;
- B) O'zR harbiy prokuraturasi, harbiy okruglar prokuratoralari, hududiy harbiy prokuratoralari;
- D) O'zR harbiy prokuraturasi, O'zR Qurolli kuchlar turlarining prokuratoralari, qismlar, birlashmalar va garnizonlar prokuratorasi;
- E) O'zR Qurolli kuchlar turlarining, qismlar, garnizonlar prokuratoralari va Qoraqalpog'iston Respublikasi harbiy prokuratorasi;
- F) Qoraqalpog'iston Respublikasi harbiy prokuratorasi, O'zR harbiy prokuratorasi, qism, birlashmalar, dengiz harbiy prokuratoralari.

68. O'zR Bosh Prokurori kim tomonidan tayinlanadi?

- A) O'zR Prezidenti O'zR Oliy Majlisi tasdig'i bilan;
- B) O'zR Mudofaa vaziri tomonidan;
- D) O'zR Bosh Prokurori tomonidan;
- E) O'zR Oliy Majlisi O'zR Prezidentining taqdimnomasi bilan;
- F) O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

69. Viloyat, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar kim tomonidan va qanchaga tayinlanadilar?

- A) O'zR Bosh Prokurori 5 yilga;
- B) O'zR Oliy Majlisi O'zR Prezidenti taqdimnomasi bilan 5 yilga;
- D) Tegishli hokim tomonidan 10 yilga;
- E) O'zR Adliya vaziri 10 yilga;
- F) O'zR Prezidenti 5 yilga.

70. Viloyat, Toshkent shahar, tuman, shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar kim tomonidan lavozimidan ozod etiladi?

- A) O'zR Oliy Majlisi;
- B) O'zR Prezidenti;
- D) O'zR Bosh Prokurori;
- E) O'zR Adliya vaziri;
- F) O'zR prokuratura hay'ati.

71. O‘zR Bosh prokurorining birinchi o‘rinbosari kim tomonidan tayinlanadi?

- A) O‘zR Bosh Prokurori;
- B) O‘zR Prezidenti taqdimnomasiga binoan O‘zR Oliy Majlisini;
- C) O‘zR Adliya vaziri;
- D) O‘zR Oliy Majlisining tasdig‘i O‘zR Prezidenti;
- E) O‘zR Vazirlar Mahkamasi O‘zR Prezidentining tasdig‘i bilan.

72. Prokuratura xodimlarining ma’muriy huquqbuzarlik va intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi masalalari kim tomonidan hal qilinadi?

- A) O‘zR Prezidenti;
- B) O‘zR Bosh Prokurori;
- C) Ichki ishlar vaziri;
- D) Yuqori turuvchi prokuror;
- E) O‘zR Oliy Majlisi.

73. Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori kim tomonidan o‘z lavozimidan ozod etiladi?

- A) O‘zR Vazirlar Mahkamasi;
- B) O‘zR Prezidenti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi bilan;
- C) O‘zR Adliya vaziri;
- D) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi O‘zR Bosh prokurori roziligi bilan;
- E) O‘zR Oliy Majlisi O‘zR Prezidentining roziligi bilan.

74. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokuratura hay’atining tuzilishini to‘g‘ri ko‘rsating.

- A) Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlar, prokuratura organlarining boshqa xodimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vaziri;
- B) Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlar, prokuratura organlarining boshqa xodimlari;
- C) Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, O‘zR Bosh prokurori (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlar, prokuratura organlarining boshqa xodimlari;

E) Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zR Bosh prokurori (rais), Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vaziri, O'zR Bosh prokurori o'rribosarlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining birinchi o'rribosari;

F) Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori (rais), uning birinchi o'rribosari va o'rribosarlari, O'zR Bosh prokurorining birinchi o'rribosari, prokuratura organlarining boshqa xodimlari, Adliya vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining raisi.

75. Quyida ko'rsatilgan tushunchalarining qaysi biri prokuraturani tashkil etish tamoyili hisoblanadi?

- A) Tezkor hukmlar;
- B) Prokuratura organlarining birligi va markazlashganligi;
- D) Jinoiy ishni qo'zg'atish;
- E) Jinoyatlarni ko'rib chiqish;
- F) Prokurorlarning tayinlanishi.

76. Prokuratura organlari hay'atining eng muhim qarorlarini hayotga qanday tatbiq etadi?

- A) O'zR Bosh prokurori va tegishli prokurorlarning ko'rsatmalari bilan;
- B) O'zR Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan yo'riqnomalar bilan;
- D) O'zR Bosh prokurori va tegishli prokurorlarning buyrug'i bilan;
- E) O'zR qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan;
- F) Prokurorlarning qarorlari bilan.

77. O'zR prokuratura organlarining faoliyatini ta'minlash va tartibga solish hamda ularning vakolatlari qanday belgilanadi?

- A) O'zR Konstitutsiyasiga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zR Bosh prokuorning buyruqlari va (boshqa) O'zbekiston hududida amalda bo'lgan boshqa huquqiy aktlar bilan;
- B) O'zR Konstitutsiyasi, O'zR «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun va huquqiy aktlar bilan;
- D) O'zR Konstitutsiyasi, O'zR «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun, O'zR Bosh prokurori buyruqlari, xalqaro shartnomalar va bitimlar hamda O'zR hududida amalda bo'lgan boshqa huquqiy aktlar bilan;

E) O'zR Konstitutsiyasi, O'zR «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonun, O'zR Bosh prokurorining ko‘rsatmalari, farmoyishlari hamda boshqa huquqiy aktlar bilan;

F) xalqaro shartnoma va bitimlar, O'zR Konstitutsiyasi, O'zR «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonun, Jinoyat-protsessual Kodeksi, Jinoyat Kodeksi va boshqa normativ huquqiy aktlar bilan.

78. O'zR Bosh prokurorining faoliyati kimga bo‘ysundirilgan?

- A) O'zR Oliy sudiga, O'zR Prezidentiga;
- B) O'zR Konstitutsiyaviy sudi va Oliy Majlisga;
- C) O'zR Prezidenti va Oliy Majlisga;
- D) O'zR Prezidenti, O'zR Vazirlar Mahkamasi va Oliy majlisga;
- E) O'zR Adliya vaziri, Toshkent shahar hokimi va O'zR Prezidentiga.

79. Prokurorning shikoyat yoki ariza bo‘yicha qabul qilgan qarori ustidan qayerga shikoyat qilsa bo‘ladi?

- A) Tuman (shahar) sudiga;
- B) O'zR Konstitutsiyaviy sudiga;
- C) O'zR Adliya vazirligiga;
- D) yuqori turuvchi prokurorga;
- E) hokimiyatga, sudga.

80. O'zR Bosh prokurorining hisobdorligini aniqlang.

- A) O'zR Bosh prokurori O'zR Prezidenti va O'zR Oliy majlisi oldida hisobdor;
- B) O'zR Bosh prokurori O'zR Prezidenti oldida hisobdor;
- C) O'zR Bosh prokurori O'zR Konstitutsiyaviy sudi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida hisobdor;
- D) O'zR Bosh prokurori O'zR Oliy Majlisi oldida hisobdor;
- E) O'zR Bosh prokurori O'zR Prezidenti, O'zR Oliy Majlisi va O'zR Konstitutsiyaviy sudi oldida hisobdor;
- F) O'zR Bosh prokurori O'zR Oliy Majlisi oldida hisobdor.

81. O'zR «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1992-yil 3-iyulda;
- B) 1995-yil 6-mayda;
- C) 2001-yil 29-avgustda;
- D) 1994-yil 22-sentabrda;
- E) 1995-yil 1-aprelda.

82. O‘zR Bosh prokurorining birinchi o‘rinbosarini kim tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi?

- A) O‘zR Bosh prokurori;
- B) prokuratura organlarining hay’ati;
- D) O‘zR Oliy Majlisiga tasdig‘i bilan Adliya vazirligi;
- E) O‘zR Oliy Majlisining tasdig‘i bilan O‘zR Prezidenti;
- F) O‘zR Vazirlar Mahkamasining tasdig‘i bilan O‘zR Prezidenti.

83. O‘zR Prokuratura hay’atining shaxsiy tuzilishi kim tomonidan tasdiqlanadi?

- A) O‘zR Oliy Majlisining tasdig‘i bilan O‘zR Prezidenti tomonidan;
- B) O‘zR Prezidenti tomonidan;
- D) O‘zR Bosh Prokurori tomonidan;
- E) O‘zR Oliy Majlisi;
- F) O‘zR Vazirlar Mahkamasi.

84. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokurorining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari kim tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi?

- A) O‘zR Bosh Prokurori;
- B) O‘zR Bosh Prokurorining roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan;
- D) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy vakillik organi tomonidan;
- E) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokurori;
- F) O‘zR Prezidentining roziligi bilan O‘zR Bosh prokurori tomonidan.

85. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokuratura hay’atining shaxsiy tuzilishi kim tomonidan tasdiqlanadi?

- A) O‘zR Prezidenti;
- B) O‘zR Bosh Prokurori;
- D) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Prokurori;
- E) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi;
- F) O‘zR Oliy Majlisi.

86. O‘zR Bosh prokurori barcha xodimlari uchun umum-majburiy bo‘lgan qanday aktlarni chiqaradi?

- A) qarorlar, taqdimnomalar, yozma ko‘rsatmalar;
- B) ogohlantirishlar, qonunlar, farmonlar, e’tirozlar;

- D) jinoiy ishlarni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorlar, yo‘riqnomalar, farmonlar;
- E) buyruqlar, ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar;
- F) e’tirozlar, yozma ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar.

87. Qonunga zid bo‘lgan akt bo‘yicha prokuror yoki uning o‘rinbosarlari shu aktni qabul qilgan yoki yuqori turuvchi organga taqdim etiladigan hujjat bu ...

- A) yozma ko‘rsatma;
- B) qaror;
- D) e’tiroz;
- E) ko‘rsatmalar;
- F) ogohlantirishlar.

88. Prokuratura zimmasiga yuklatilgan muammolarni hal qilishda eng muhim shartlarni ko‘rsating.

- A) Prokuratura organlarining deportizatsiyasi, tayinlanuvchanlik, birlik va markazlashganlik;
- B) Vakolatlik, yuqori ma’naviy fazilat hamda prokuror tergov xodimlarining ongli shaxsiy tartibi;
- D) Mustaqillik, oshkoraliq, O‘zR Prezidenti oldida hisobdorlik;
- E) Ishdagagi faollik, qonunga hurmat, prokuratura organlari xodimlarining adolatligini;
- F) Qonun ustuvorligi, huquq tartibotni mustahkamlash, jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikning qo‘llanilishi.

89. Viloyat prokurorlari kim tomonidan o‘z lavozimidan ozod etiladi?

- A) O‘zR Oliy Majlis tasdig‘i bilan O‘zR Prezidenti tomonidan;
- B) O‘zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan;
- D) O‘zR Prezidenti roziligi bilan O‘zR Oliy Majlisi tomonidan;
- E) O‘zR Bosh Prokurori tomonidan;
- F) O‘zR Prezidentining roziligi bilan O‘zR Bosh Prokurori tomonidan.

90. Prokuratura organlari lavozimi birinchi bor tayin-lanayotgan shaxs tomonidan qabul qilinadigan qasamyod matni kim tomonidan tasdiqlanadi?

- A) O'zR Bosh Prokurori;
- B) O'zR Prezidenti;
- C) O'zR Oliy Majlisi;
- E) O'zR Oliy Majlis tasdig'i bilan O'zR Prezidenti tomonidan;
- F) O'zR Vazirlar Mahkamasi.

91. Prokurorlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi kim tomonidan belgilanadi?

- A) O'zR prokuratura xodimlarini mukofotlash va intizomiy javobgarlik to'g'risidagi Nizom bilan;
- B) O'zR Prezidenti;
- D) O'zR Bosh Prokurori;
- E) O'zR Oliy Majlisi;
- F) O'zR Vazirlar Mahkamasi.

92. Prokuratura xodimlarining ma'muriy huquqbuzarlik, intizomiy javobgarlik masalalari kim tomonidan hal qilinadi?

- A) O'zR Oliy Majlisi;
- B) O'zR Prezidenti;
- D) Yuqori turuvchi prokuror;
- E) Bosh prokuror;
- F) Sud.

93. Dastlabki tergovni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarni ko'rsating.

A) Prokuratura tergovchilarli, ichki ishlar organlarining tergovchilarli, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilarli, prokurorlar, O'zR Prezidentini qo'riqlash xizmatining xodimlari, xususiy izquvarlar, harbiy qism komandirlari;

B) Prokuratura tergovchilarli, ichki ishlar organlarining tergovchilarli, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilarli, prokurorlar;

D) Prokuratura tergovchilarli, ichki ishlar organlarining tergovchilarli, sudyalar, sud tergovchilarli, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilarli;

E) Prokuratura tergovchilari, harbiy prokuratura tergovchilari, transport prokuraturasining tergovchilari, ichki ishlar organlarining tergovchilari, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari, soliq inspeksiyasi va bojxona tergovchilari, prokurorlar;

F) Prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlarining tergovchilari, milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari, sud tergovchilari, xususiy izquvarlar, prokurorlar.

94. O‘zR Ichki ishlar vazirligi o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda qanday prinsiplarga asoslanadi?

A) birlik, markazlashganlik, mustaqillik, aybsizlik prezumpsiysi;

B) qonuniylik, shaxslarning qonunlarini himoya qilish, oshkorlik, haqiqatni o‘rnatish;

D) yakkaboshchilik asosidagi hay’atlik, qonuniylik, shaxsga hurmat, baynalmilallik, oshkorlik, davlat organlari bilan hamkorlik, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari va aholi bilan o‘zaro hamkorlik, ijtimoiy fikrni inobatga olish, irqiga, tiliga, o‘troqligiga qarab ichki ishlar organlari xodimlarining huquqlarini cheklashga yo‘l qo‘ymaslik;

E) qonuniylik, oshkorlik, departizatsiyalashgan yakka boshchilik asosidagi hay’atlik, shaxsga hurmat, baynalmilallik, davlat tilini bilih;

F) Aybsizlik prezumpsiysi, shaxslarning huquqlarini himoya qilish, oshkorlik, davlat organlari, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari va aholi bilan hamkorlik, ijtimoiy fikrni inobatga olish va baynalmilallik.

95. Advokatlik faoliyatini amalga oshirishi uchun litsenziyani qaysi davlat organi beradi?

A) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat va Toshkent shahar adliya boshqarmalari;

B) O‘zR Adliya vazirligi;

D) O‘zR Vazirlar Mahkamasи;

E) Adliya vazirligining malaka komissiyasi;

F) to‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan.

96. O‘zR «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1992-yil 9-dekabrda;
- B) 1996-yil 27-dekabrda;
- C) 1993-yil 6-mayda;
- D) 1997 -yil 26-dekabrda;
- E) 1994-yil 22-sentabrda.

97. Advokat yordamchisi kim bo‘la oladi?

- A) 25 yoshga to‘lgan, oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar;
- B) Oliy kasbiy fazilatlarga ega, oliy yuridik ma’lumotga ega, davlat tilini yaxshi biladigan shaxslar;
- C) Yuridik ma’lumotga ega O‘zR fuqarosi;
- D) Yuridik ma’lumotga ega, tegishli malaka imtihonini topshirgan O‘zR fuqarosi;
- E) 25 yoshga to‘lgan, oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan va tegishli malaka imtihonini topshirgan O‘zR fuqarosi.

98. Advokatlik faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish qaysi holatlarda yuz beradi?

- A) O‘zR Prezidentining Farmoni bilan;
- B) O‘zR Adliya vazirining qarori bilan;
- C) Litsenziyani to‘xtatib qo‘yish yoki bekor qilish bilan;
- D) O‘zR Bosh Prokurorining tegishli buyrug‘i bilan;
- E) hamma javoblar to‘g‘ri.

99. Qaysi hollarda litsenziya to‘xtatib qo‘yiladi yoki bekor qilinadi?

- A) O‘zR Adliya vaziri qarori asosida O‘zR Oliy Majlisi tomonidan;
- B) kuchga kirgan sud qarori asosida O‘zR Adliya vazirligi tomonidan;
- C) malaka komissiyasining intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi qarori asosida shu litsenziyani bergen organ tomonidan;
- D) malaka komissiyasining qarori asosida hokim tomonidan;
- E) O‘zR Adliya vazirining xulosasi asosida O‘zR Prezidenti tomonidan.

100. Litsenziyani to‘xtatib qo‘yish yoki bekor qilish haqidagi qarorga nisbatan qayerga shikoyat qilish mumkin?

- A) shikoyat qilish mumkin emas;
- B) Konstitutsiyaviy sud va prokurorga;
- C) O‘zR Prezidenti yoki O‘zR Oliy Majlisiga;
- D) tegishli yoki yuqori turuvchi hokimga;
- E) O‘zR Adliya vazirligi yoki sudga.

*MIRZAYUSUF HAKIMOVICH RUSTAMBOYEV,
YELENA NIKOLAYEVNA NIKIFOROVA*

**SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA
QILISH ORGANLARI**

Yuridik o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik

«Turon-Iqbol» nashriyoti – 2007

Muharrir *G. Fayziyeva*

Badiiy muharrir *J. Gurova*

Texnik muharrir *T. Smirnova*

Musahhihlar: *A. Ziyodov,*

M. Mansurxonova

Kompyuterda tayyorlovchi *S. Fayz*

Bosishga 22.01.07 da ruxsat etildi. Bichimi 60 x 90 1/16,
«Tayms» garniturasida ofset bosma usulida bosildi. Sharqli b.t. 35.
Nashr t. 31,7. Jami 500 nusxa. 10-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MCHJ da chop etildi.
Toshkent, H. Boyqaro ko‘chasi, 41.

ISBN 978-9943-14-020-2

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-14-020-2.

9789943 140202